- Принцип исключения критики (можно высказывать любую мысль без боязни, что ее признают плохой);
- Принцип поощрения самого необузданного ассоциирования (чем более дикой покажется идея, тем лучше);
- Принцип требования, чтобы количество предлагаемых идей было как можно большим;
- Принцип признания, что высказанные идеи не являются ничьей собственностью, никто не вправе монополизировать их; каждый участник вправе комбинировать высказанные другими идеи, видоизменять их, «улучшать» и совершенствовать.

Творческая деятельность младшего школьника повышает его вовлеченность в учебный и воспитательный процесс, способствует успешному усвоению знаний, стимулирует интеллектуальные усилия, уверенность в себе, воспитывает независимость взглядов. М.Н. Скаткин рассматривает отдельные способы активизации творческой деятельности:

- 1) проблемное изложение знаний;
- 2) дискуссия;
- 3) исследовательский метод;
- 4) творческие работы учащихся;
- 5) создание атмосферы коллективной творческой деятельности на уроке.

Для того чтобы успешно активизировать творческую деятельность младших школьников в процессе воспитания, учителю необходимо видеть результативность и продуктивность своей работы. Для этого необходимо следить за динамикой проявления творческой деятельности каждого ребенка.

Элементы творчества и взаимодействия элементов воспроизведения в деятельности школьника, как и в деятельности зрелого человека, следует различать по двум характерным признакам:

- 1) по результату (продукту) деятельности;
- 2) по способу ее протекания (процессу).

В учебной и воспитательной деятельности элементы творчества учащихся проявляются, прежде всего, в особенностях ее протекания, а именно в умении видеть проблему, находить новые способы решения конкретно-практических и учебных задач в нестандартных ситуациях.

Можно сделать вывод, что творческая деятельность активизируется в благоприятной атмосфере, при доброжелательных оценках со стороны учителей, поощрении оригинальных высказываний. Немаловажную роль при этом играют открытые вопросы, побуждающие школьников к размышлениям, к поиску разнообразных ответов на одни те же вопросы учебного плана. Еще лучше, если самим учащимся позволено ставить подобные вопросы и отвечать на них.

Творческую деятельность можно стимулировать также через реализацию межпредметных связей, через введение в необычную гипотетическую ситуацию. В этом же направлении работают вопросы, при ответе на которые необходимо извлекать из памяти все имеющиеся в ней сведения, творчески применять их в возникшей ситуации.

Творческая деятельность способствует развитию творческих способностей, повышению интеллектуального уровня.

Обычно творческие способности как самостоятельный фактор, развитие которых является результатом воспитания творческой деятельности школьников. Выделяют следующие компоненты творческих (креативных) способностей младших школьников:

- творческое мышление,
- творческое воображение,
- применение методов организации творческой деятельности [3, с.87].

Также творческие способности можно подразделить на три основные группы:

- 1) способности, связанные с мотивацией (интересы и склонности);
- 2) способности, связанные с темпераментом (эмоциональность);
- 3) умственные способности.

Психологи и педагоги отмечают, что «формирование творческих способностей возможно лишь в специально организованной среде», высказываются против жестких лимитов времени, атмосферы соревновательности и единственного критерия правильности ответа. По их мнению, для проявления творческих способностей нужна непринужденная, свободная обстановка, обычные жизненные ситуации, когда испытуемый может иметь свободный доступ к дополнительной информации по предмету. Из этого можно сделать вывод, что развитие способностей не зависит от внешней среды полностью [5, с.41].

Поэтому развитие творческих способностей основывается именно на базе «материала данного от природы». Но, ведь каждый ребенок обладает какими-либо способностями, данными от природы, и задача учителя заключается в том, чтобы выявить эти особенности и помочь ребенку их проявить в оптимальном варианте.

Развитие творческих способностей младших школьников в процессе воспитания - сложное и важное дело, успешной реализации которого помогает создание необходимых условий и применение эффективных методов. А сам учитель должен быть терпим к проявлениям творчества детей, будь они даже не в нужный момент или же просто кажушимися нам глупышами. Нужно уметь вовремя их увидеть, поощрить и дать возможность проявиться еще раз.

В ходе констатирующего эксперимента был выявлен уровень развития творческих способностей второклассников. Он определялся с помощью педагогического наблюдения, тестирования, анкетирования и стандартных тестовых методик. Результаты эксперимента таковы: 72% учеников данного класса имеют средний уровень развития творческих способностей, 7% детей – низкий уровень и 21% учащихся имеют высокий уровень. Проведенные методики, позволили выявить недостатки и наметить пути улучшения творческого потенциала детей. Это позволило провести развивающие занятия развитию творческих способностей младших школьников в процессе воспитания.

Таким образом, значение творчества в жизни школьников велико. Творческое мышление школьников и их творческая активность должны иметь позитивное направление. Они должны способствовать лучшему познанию окружающего мира, самораскрытию и самосовершенствованию личности, а не перерастать в пассивную мечтательность, замену реальной жизни грезами. Диапазон творческих задач в школе необычайно широк по сложности, но суть их одна: при их решении происходит акт творчества, находится новый путь или создается нечто новое.

Список использованных литератур

1. Абовский, Н.П. Творчество: системный подход, законы развития, принятие решений. – М.: Синтез, 1998. – 312с.
2. Бабанский. Ю.К. Как оптимизировать процесс обучения. – М.,1998. – 183с.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1999. – 534 с.
4. Григорьева Л.Г. Развитие творческих способностей младшего школьника в процессе трудового воспитания // Вектор науки ТГУ. Серия: Педагогика, психология. – 2011. - №1(4) С. 45 – 47.
5. Доман Г.Д. Как развить интеллект ребёнка./ Пер. с англ. - М.: Аквариум, 1998. - 320с.
6. Дружинин В.Н. Психология общих способностей - СПб.: Издательство «Питер», 1999. - 368с.

7. Ефремов В.И. Творческое воспитание и образование детей на базе ТРИЗ. - Пенза: Уникон - ТРИЗ, 2001.
8. Крутецкий В.А. «Психология» М., Изд-во «Просвещение» 1980г. С.86.
9. Леонтьев А.Н. Очерк психологии личности. М., 1993.
10. Лейтес Н.С. Умственные способности и возраст.- М., 1971., с.11-45.
11. Маслова, С. Е. К вопросу о творческих качествах личности. // Высшее образование сегодня. – 2007. – №3. – С. 58–61.
12. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб., 1999.- 318с.
13. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии.- СПб.: Питер Ком, 1998.-688с
14. Теплов Б.М. Избранные труды. М., 1985. Т.1. С.74

ПРЕОБРАЗОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ: РОЛЬ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА В СОВРЕМЕННОМ ОБУЧЕНИИ

Илясова Фируза Фузулий кизи,

*Магистр Ташкентского государственного педагогического
университета имени Низами*

***Аннотация.** В статье представлено когнитивный подход в преобразовании физической культуры. Дано обоснование интеграции физической культуры, медицины и психологии.*

***Ключевые слова:** физическая культура, когнитивный подход, система физического воспитания, интеграция, медицина, психология.*

***Abstract.** The article presents a cognitive approach to the transformation of physical culture. The rationale for the integration of physical culture, medicine and psychology is given.*

***Key words:** physical culture, cognitive approach, physical education system, integration, medicine, psychology.*

В эпоху глобального перехода к цифровой экономике наблюдается цифровая трансформация спортивной индустрии, происходящая как в коммерческом секторе, так и на государственном уровне; разрабатываются соответствующие стратегии, концепции и программы. Внедряются аналитические технологии для повышения результативности спортсменов, и цифровые платформы для управления спортивными командами и организациями. Меняется также и сама спортивная индустрия за счет появления новых технологических компаний. Современные технологии, такие как Интернет вещей, искусственный интеллект и виртуальная реальность, оказывают глубокое влияние на спорт и физическую культуру.

Физическая культура – органическая часть общечеловеческой культуры, ее особая самостоятельная область. Вместе с тем, это

специфический процесс и результат человеческой деятельности, средство и способ физического и духовного совершенствования личности. Физическая культура удовлетворяет социальные потребности в общении, игре, развлечении, в некоторых формах самовыражения личности через социально-активную полезную деятельность [1]. В своей основе физическая культура имеет целесообразную двигательную деятельность в форме физических упражнений, позволяющих эффективно формировать необходимые умения и навыки, физические способности, оптимизировать состояние здоровья и работоспособность.

Физическая культура, долгое время воспринимаемая преимущественно как сфера физического развития, трансформируется под воздействием новых педагогических концепций. Одним из наиболее перспективных подходов является когнитивный подход, который придает значительное значение психическим процессам и когнитивной деятельности в процессе физического обучения. Давайте рассмотрим, как когнитивный подход изменяет парадигму физической культуры и спорта.

Когнитивный подход в физической культуре подчеркивает взаимосвязь между физическими упражнениями и когнитивными процессами, такими как внимание, память, мышление и принятие решений. Вместо того чтобы рассматривать физические упражнения и умственные задачи как разные аспекты обучения, когнитивный подход объединяет их в единый учебный процесс. Например, упражнения, требующие координации и стратегического мышления, могут стимулировать развитие как физических, так и когнитивных навыков.

Интеграция двигательной и познавательной деятельности спортсмена обеспечивается конструированием содержания деятельности, характером применяемых подходов, способами реализации спортивных и образовательных задач. В исследовании нами обращено особое внимание на интеграцию двигательной деятельности и развития когнитивной сферы личности. Исследования, в которых изучалось влияние двигательной активности на познавательную сферу, связаны и с работами в области медицины. В них отмечается положительное влияние физической нагрузки на психомоторное развитие и укрепление здоровья.

Когнитивный подход также использует принципы психологии для улучшения обучения и тренировок. Например, принципы обратной связи, мотивации и когнитивного конфликта могут быть интегрированы в учебные программы и тренировочные сессии, чтобы повысить эффективность обучения и развития спортсменов. Вместе с традиционными физическими тренировками, когнитивный подход включает в себя умственный тренинг, направленный на развитие когнитивных навыков, которые могут быть полезны как на спортивной арене, так и в повседневной жизни. Это может включать в себя задачи на развитие внимания, концентрации, решения проблем и стратегического мышления, которые могут быть применимы как в тренировочных условиях, так и в соревновательных ситуациях.

Когнитивный подход в физической культуре может быть эффективным для различных возрастных групп, начиная с детей и заканчивая взрослыми. Для детей это может способствовать не только физическому развитию, но и улучшению когнитивных навыков, необходимых для успешной учебы в школе. Для взрослых когнитивный подход может помочь в поддержании мозговой активности и замедлении процессов старения.

Итак, когнитивный подход в физической культуре представляет собой инновационный подход к обучению и тренировкам, который объединяет физическую активность и умственные процессы. Интеграция когнитивных методов в обучение и тренировки может привести к улучшению результатов как на спортивной арене, так и в повседневной жизни, открывая новые перспективы для развития физической культуры и спорта.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Максимович В.А., Коледа В.А., Городилин С.К. Организационно-методическое обеспечение физического воспитания студентов на основе видов двигательной активности // https://ebooks.grsu.by/fisical_training/2-2-fizicheskaya-kultura-kak-sotsialnoe-yavlenie-chast-kultury-obshchestva-i-lichnosti.htm.

2. Карасева Т.В., Турбачкина О.В., Соколов Е.Е. Формирование когнитивного компонента культуры здоровья студентов в процессе физического воспитания // Ученые записки университета имени П.Ф.Лесгафта. – 2018. – № 7 (161). - с. 114.

3. Бишаева А.А. Физическая культура: учебник / А.А.Бишаева, В.В.Малков. – М.: КНОРУС, 2016. – 297 с.

4. Виленский М.Я. Физическая культура: учебник / М.Я.Виленский, А.Г.Горшков. — 2-е изд.— М.: КНОРУС, 2016. – 214 с.

KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI MUAMMOGA ASOSLANGAN O‘QITISH USULIDA TAKOMILLASHTIRISH

Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf og‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Kirish. Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi tez o’sishi va talabning texnikumda o‘qish paytida uni o‘zlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshilik shaklida o‘zini namoyon qiladigan xususiyat bilan tavsiflanadi. Bu qarama-qarshilik ko‘plab asarlar mualliflarini talabalarning o‘z-o‘zini ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish, ilmiy faktlarni tahlil qilish va oqilona qarorlarni sintez qilish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida universitet o‘quv jarayonini tashkil qilishni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. An’anaviy pedagogik tizim bo‘yicha o‘qitilgan bitiruvchilar mutaxassisning shaxsiy resurslarining tez “qarishi” (taqchilligi) bilan tahdid qilinmoqda. Bu hodisa, xususan, muhandislik faoliyatini avtomatlashtirilgan qo‘llab-quvvatlash vositalarini

bilish sohasiga ham tegishli. Bundan kelib chiqqan holda, kompyuter grafikasi sohasidagi professional bilimlar va kompyuter grafikasi sohasidagi dasturlash asoslarini bilish hozirgi vaqtda zamonaviy mutaxassisning talab qilinadigan fazilatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-sonli farmonida oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50% ga oshirish va ta‘lim sifatini oshirish va 2026 yilga qadar 10 ta salohi-yatli oliy ta‘lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga madsaqli tayyorlash ko‘zda tutilgan. Mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida raqo-batbardosh kadrlarni tayyorlash va iqtisodiyot-ning rivojlanishida munosib hissa qo‘shishiga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Grafik dasturlar tasvirlarni yaratish va tahrirlash uchun mo‘ljallangan, kichik piktogrammalardan tortib ulkan afishalargacha – “Kompyuter grafikasi” atamasi deb nomlanishi mumkin bo‘lgan hamma narsalar. Bepul grafika dasturlarini ko‘rib chiqamiz. Ularni uch guruxga ajratish mumkin:

1. 3D — uch o‘lchamli modellarni yaratish va tahrirlash dasturlari, masalan, ob'ektlarning uch o‘lchovli modeli, jonivorlar, uch o‘lchamli animatsiya.

2. Vektor - vektorli grafikani yaratish va qayta ishlash uchun, masalan: logotiplar, chizmalar, sxemalar.

3. Raster — rasmlar, fotosuratlar, chizmalar, nishonlar bilan ishlaydigan programmalar.

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda taraqqiy etgan davlatlar qatorida zamon talablari asosida ta‘lim samaradorligi ortib bormoqda, ta‘lim-tarbiya asosida yuksak ma‘naviyatli va bilimli, yetuk, komil, sog‘lom inson bo‘lib yetishishi o‘qituvchining asosiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishidan iborat. - Pedagog kadrlar tayyorlash, ularning intellektual, kasbiy, ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini uyg‘unlikda rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Muammoli ta‘lim, ABP, ayniqsa, oliy ta‘lim talabalarini o‘qitish va o‘qitish jarayonida faol strategik metodologiyadir. Talabani kasbiy voqeligini akademiya doirasida modellashtirish, shu orqali uni kelajakda mehnat bozorida o‘z faoliyatini amalga oshirishga tayyorlash qobiliyati tufayli bu haqda gapirish muhimdir.

Aytish mumkinki, ABP tibbiyot kursidan kelib chiqqan bo‘lib, u talabalarga kundalik kasbiy hayotida muammolarni hal qilish qobiliyatini singdirish maqsadida paydo bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan, Romanovski va boshqalar uchun. (2020) bu faol usul talabani avtonom, ijodiy, mulohaza yurituvchi va hal qiluvchi qilish qobiliyatiga ega ekanligi aniq. Biroq, eng tashvishlisi shundaki, bu uslubiy taklif faqat nazariy mazmuni o‘quvchilarga ochib berishga asoslangan an‘anaviy usullarni almashtirishdek qiyin vazifani bajaradi.

Muammoli ta‘lim talabalarining kasbiy hayotida duch keladigan haqiqiy muammoga asoslanadi. Bu vazifa, o‘z navbatida, ko‘plab kichik vazifalarga bo‘linadi, ularning bajarilishi ma‘lum bir natijaga olib keladi. Muammoga yo‘naltirilgan yondashuvda talabalar nafaqat javob yoki to‘g‘ri echimni topishlari, balki o‘zlarining "bilmasliklari" sohasini ham aniqlashlari kerak - ular qanday bilim

yoki ko'nikmalar etishmayotganligini tushunishlari va qo'shimcha bo'shliqlarni yopishlari kerak. Muammoli ta'limni yanada samaraliroq qiladigan ko'plab texnologiyalar mavjud. Birinchidan, aqlni xaritalash vositalari mavjud. Ochiq muammoning tabiati shundan iboratki, rejalashtirish yechimlarini izlash talabalar uchun ong xaritasini talab qiladi - bu rejalashtirish jarayonidagi birinchi qadamdir. Aql xaritalari o'zgartirish kerak bo'lgan muammoni o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan tushunchalar, shuningdek, talabaning shaxsiy tajribasi va amaliy tavsiyalari bilan bog'lashda yordam beradi.

Xotira xaritasi (aqliy xarita, aql xaritasi) - bu diagramma yordamida bilimlarni tizimlashtirish usuli - ma'lumotlarni tezlashtirilgan grafik shaklda ko'rsatish texnologiyasi. Ruhiy xaritalar an'anaviy usullar, grafiklar va jadvallarga qaraganda yaxshiroq qabul qilinadi, deb ishoniladi. Aql xaritasini yaratish - bu birinchi markaziy g'oyalar yoki mavzularni yozishdan boshlangan ijodiy faoliyat. Keyinchalik, bu "asosiy" chiziqlardan boshqa fikrlar va g'oyalar chiziladi, ular o'z navbatida yangi "tugunlar" ga aylanadi. Raqamli doskalarda shunday qulay xaritalarni yarating. Shuni ta'kidlash kerakki, raqamli vositalardan foydalanishda o'qituvchi foydalaniladigan asbobning o'quvchilarning aksariyat qurilmalariga mos kelishini ta'minlashi muhimdir. Agar qurilmalar yetishmasa, er-xotin yoki kichik guruh bitta qurilma orqali ishlashi mumkin.

Ta'lim jarayonini tashkil etishning turli shakllarida kompyuter grafikasida individual treninglarni amalga oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich foydalanuvchi darajasida CorelDRAW va Adobe Photoshop grafik dasturlarini o'rganish bo'yicha tayyor yangiliklar tavsiya etiladi. Hozirgi kunda o'qitilayotgan "Kompyuter grafikasi" fanining o'rni va ahamiyati, ijtimoiy hayotimizda zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishida hamda barcha soha mutahassislarini o'z ish faoliyatlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarining kengligida deb qarash mumkin. Shuning uchun ham, ayni paytda Kompyuter grafikasini turli sohalarga bo'lib o'rganish, uning imkoniyatlaridan qator sohalarda foydalanishning metodik asoslarini yaratish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda hayotimizga kirib kelayotgan yangi sohalar (ixtisoslashgan rassom, mahsus effektor, vektorli art-ustasi, Auto CAD-ustasi, modeler, animator, teksturachi, vizualizator va h.k) kabi malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalasi OTMlarda "Kompyuter grafikasi"ni fan sifatida o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi. Bugungi kunda OTMlarda "Kompyuter grafikasi" fanini o'qitishda talabalarni fanga nisbatan maqsadli harakatlarini shakllantirish va shu orqali biror bir natijaga erishish mumkinligini singdirishda, kerakli pedagogik va psixologik vositalarni amalda qo'llash va ularni ilmiy asoslash muhimdir. Bundan tashqari, har bir toifada taqdim etilgan dasturlar ham maqsadga muvofiq bo'linadi. Masalan, eng keng tarqalgan bitmap bo'lishi mumkin: chizish, ko'rish, tahrirlash yoki maxsus effektlarni qo'yish. Ushbu bo'limdagi barcha amallar uchun maxsus dasturlarni topishingiz mumkin. Muammoli ta'limga asoslangan holda, muammoga asoslangan ta'lim kabi ko'plab turli modellar va variatsiyalar paydo bo'ldi. Ushbu model Apple

tomonidan taklif qilingan. Yumshoq ko'nikmalar (kompyuterda ishlash, qutidan tashqarida o'ylash qobiliyati) raqamli asrda ayniqsa qadrli bo'lganligi sababli, mashg'ulotlar ularni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Qiyinchiliklarga asoslangan ta'limda qiyinchilik o'quvchilarning o'zlari va ular o'zlari topadigan jamiyat duch keladigan katta voqea (suv toshqini, yong'in)dan kelib chiqadi.

Jahon miqyosida ta'lim sohasida axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan jamiyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalar-dan foydalanish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. O'quv jarayonida talabalarning bilimni baholashni kreativ yondashuvlarga asoslanib tashkil etishi hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi kunda fraktal pedagogika kabi kreativ yondashuvni amaliyotga keng tatbiq etish yo'nalishlarida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak soha mutaxassislarini tayyor-lashda fraktal pedagogikaning tamoyillaridan foydalanib o'qitish hamda fraktal pedagogika tamoyillariga asoslanib baholash usuluni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Kompyuter grafikasi bilan ishlashni shaxsiy kompyuterdan foydalanishda eng mashhur sohalardan biri sifatida qayd etish mumkin. Shuni ta'kidlash mumkinki, kompyuter grafikasi bilan ishlash nafaqat professionallar, balki havaskorlar ham shug'ullanadi. Kompyuter grafikasi ko'pincha kino, fan, sanoat, arxitektura, tibbiyot kabi fanning turli sohalarida qo'llaniladi [14]. Barcha multimedia dasturlari kompyuter grafikasi asosida ishlaydi, xususan 3d- grafika. U bilan ishlashda ko'pchilik jamoalar ko'p vaqt sarflaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anarova Sh. A., Beknazarova S.S., Qayumova G.A. Zamonaviy o'quv jarayonini takomillashtirishda pedagogning shaxsiy va kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning fraktal metodologiyasi. // Zamonaviy ta'lim, №5 (102). 2021. - B. 9-16.

2. Beknazarova S.S., Qayumova G.A. Fraktal methodology of in improving the modern educational process. The American Journal of Engineering and Technology, Volume 3 Issue 06, 2021. -P. 129-133. ISSN - 2689-0984. DOI:<https://doi.org/10.37547/tajet/Volume03Issue06-23>.

3. Маджуга А.Г. Концептуально-теоретические основы фрактальной педагогики как новой области социально-гуманитарного знания / А.Г. Маджуга, И.А. Синицина, Е.В. Филипенко // Научный диалог. 2015. № 12 (48). С. 450-459.

4. Кречетников К.Г. Методология проектирования, оценки качества и применения средств информационных технологий обучения. - М.: Госкоорцентр, 2001.- С.168.

TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY MUNOSABATLARNI INTEGRAL TASHXISLASHNING DOLZARBLIGI

Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna,
Andijon davlat universiteti Umumiy pedagogikakafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada har bir ta'lim oluvchining shaxsiy o'sishi, ijodiy salohiyatini rivojlantirishi, tanqidiy fikrlashi va hayotda muvaffaqiyat qozonishi kabi sifat va ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bilan birgalikda, tarbiyalanganlik darajasini aniqlashtirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ijodiy salohiyat, tanqidiy fikrlashi, qobiliyat, iste'dod, integrativ, korrektsiya, diagnostika, interpretatsiya

Аннотация: в данной статье говорится об выяснении уровня образования каждого обучающегося наряду с развитием таких качеств и навыков, как личностный рост, развитие творческого потенциала, критического мышления и успеха в жизни.

Ключевые слова: творческий потенциал, критическое мышление, способности, талант, интегративность. коррекция, диагностика, интерпретация

Abstract: This article talks about finding out the level of education of each student along with the development of such qualities and skills as personal growth, development of creativity, critical thinking and success in life.

Key words: creativity, critical thinking, abilities, talent, integrativeness. correction, diagnosis, interpretation.

Yangi O'zbekistonda uchinchi Uyg'onish davrining uzluksiz ta'limni rivojlantirishga ta'sirini tahlil qilishda milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, ehtiyojlarning xususiylikdan umumiylikka o'sib o'tishining qondirilishi har jihatdan qobiliyatli, iste'dodli yosh avlodlarning ta'lim-tarbiyasiga bog'liqdir. Uzluksiz ta'lim faqatgina professional soha bilan cheklanib qolmasdan, balki doimiy tarzda har bir ta'lim oluvchining shaxsiy o'sishi, ijodiy salohiyatini rivojlantirishi, tanqidiy fikrlashi va hayotda muvaffaqiyat qozonishi kabi sifat va ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bilan birgalikda, tarbiyalanganlik darajasini aniqlashtirish ham muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatning infrastrukturnalarida, guruhiiy shaxslararo munosabatlarda demokratiya prinsipalarining qaror topishi, fuqarolar o'rtasida teng huquqlilik, sub'ektlilik, hamkorlik, hamdardlik (empatiya) mezonlari turmush tarziga aylana boshlashi kishilik dunyosining jahonshumul ijtimoiy- tarixiy g'alabasining yorqin ifodasidir. Hozirgi davrda shaxsning robotlashuviga chek qo'yilishi, o'zining mustaqil inson (sub'ekt) tarzida namoyon bo'lishi uchun moddiy-ma'naviy negiz barpo etilishi, shaxsiy dunyoqarash (ham ilmiy, ham diniy), barqaror e'tiqod, mustahkam pozitsiya, qat'iy iroda, o'tkir va bukilmas g'oyani egallashga imkon yaratdi. Ana shunday umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlanishning harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi pedagogik diagnostika zaruratga aylanganligini anglatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish lozim, uning natijasi, mahsulasi orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol

toptirish joiz. Chunki «sub'ekt-sub'ekt» munosabatni amalda qaror toptirmasdan turib, tarbiyalanganlik darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Bu o'rinda pedagogik diagnostika katta ahamiyat kasb etadi, jamiyatning barkamol shaxsni yetishtirishdek maqsadiga mos kelishi ayni muddadir.

Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin.

Lekin ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy rivojlanishni diagnostika qilish mashaqqatli faoliyatning mahsulasi hisoblanadi. Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror qabul qilish noxush oqibatlarga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o'qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o'rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo'lavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta'minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko'p omillik tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta'sir etadi, xolos.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarimiz ko'pincha talaba-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korrektsiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. Talabalarning aqliy rivojlanishlari ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ahloqiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik diagnostika-pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy -psixologik ta'sir ko'rsatish haqidagi axborotlarning majmuidir. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor «tarbiya» va «tarbiyalanganlik» atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo'lgan obraz- «Men»-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo'lib hisoblanadi.

«Men»-obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, «...tarbiyani shaxsning o'zi va o'z sifatleri to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin»(85,51). Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri anglasa, tasavvur qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi

Pedagogikada ilgari etarli darajada e'tibor berilmagan yo'nalish-pedagogik diagnostika shaxsning ma'naviy qiyofasini sotsiokorreksiyalash, xususan, o'qish va xulq-atvordagi nuqsonlarni bartaraf etish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

1. Mafkuraviy tizimning o'zgarishi, ijtimoiy yangilanish tarbiyalanganlikka yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl, atribut taqozo etishi.

2. Milliylik bilan diniylikning uyg'unlikka ega ekanligi, millatlararo munosabatlardagi bag'rikenglik tarbiyalanganlik fenomenologiyasi ko'lamini yanada kengaytirishni talab qilishi.

3. Bilimdonlik va tarbiyalanganlik zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug'ilishi.

4. Pedagogik tadqiqotlarda psixologik nazariya va amaliy-ilmiy apparatni qo'llanilishi, muhitga muvofiqlantirilishi tendentsiyasi kuchayishi.

5. Test, testologiya (prinsipilari, funktsiyalari, parametrlari, interpretatsiyasi) hamda matematik statistika imkoniyatlaridan foydalanilishi, diagnostika, korreksiya turkumlari tatbiqiyiligi namoyish etilishi.

6. Xulq-atvorda og'ish, ya'ni deviant holati ko'lami kengayishi va uni bartaraf qilish ehtiyoji umumbashariy ahamiyat kasb etishi kabilar.

Yoshlar jamoasida pedagogik diagnostika ishlari metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatning har bir a'zosi o'zligini anglashda, vatanparvarlik va fidoiylilik tuyg'ularini, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni, tolerantlikni shakllantirish hamda komil insonga xos bo'lgan fazilatlarni: sofdillik, to'g'ri so'zlik, adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Umuman olganda, bugun qaysi sohada bo'lmasin bitta maqsad bizni birlashtiradi. U ham bo'lsa, Vatan taraqqiyoti va xalqimiz farovonligidir. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirishda, kelajak uchun innovatsion kapital manbaini yaratishga yoshlarga puxta bilim berish bilan birgalikda, ma'naviy-ahloqiy ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda tarbiyalanganlik darajalarini aniqlash va tashhishlash orqali korreksiyalash barchamizning vazifamizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Sh.A.Abdullaeva.–Pedagogik diagnostika va korreksiya. T.,”Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009

2.Интенками К. Педагогическая диагностика. М.Педагогика. 1991.

3.Кашенко В.П. Педагогическая коррекция.М., Академия,2006.

4.Юзликаева Э.Р. Диагностическая деятельность учителя в современной педагогической теории и практике его работы. – Т. “Fan va texnologiyalar”,2009.

5.Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. –Toshkent: 2014-yil.

6. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools.

7. Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.

8. John Dewey, How we think (1910). Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003) Columbia University Press. Gutek Gerald L. (2009) New Perspectives on Philosophy and education. Pearson Education Inc.

9. Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model

O‘QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

Mamadaliyeva Barnoxon O‘ktamovna,

Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi. Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlari shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy, ijodiy fikrlash, innovatsion faoliyati, refleksiya, motivatsiya, qobiliyat, qat‘iyatlilik, o‘ziga ishonch; mas‘uliyatlilik.

Hozirgi tezkor davr ta‘lim oluvchilar, shu jumladan o‘quvchilarni ham qisqa mudatda kerakli ma‘lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlari shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon etgan ta‘lim shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim deb nomlanadi. Bu ta‘lim o‘qitish muhitining o‘quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta‘lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta‘minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Bu jarayon bevosita pedagoglarga ham bog‘liq bo‘lib ularning oldiga juda katta mas‘uliyatni qo‘yadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tassavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish zarur, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika va axborot texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p uslub va usullarni bilishi kerak. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini loyihalashtirish paytida biz guruh bo‘lib ishlashni tanlaymiz. Lekin bunda, ta‘lim berish usullariga bog‘liq holda, uni qo‘yilgan ta‘lim maqsadlariga, rejalashtirilgan natijalarga mos kelishi hisobga olinadi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va

unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivatsion yo'nalganligi, bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish;

ijodiy yutuqlarga intilish, o'zgalarga motivasiya bera olish;

- kreativlik, bu - hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

- kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy;

- bartaraf qilish qobiliyati, ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

- o'qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat surati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlilik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlilik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi:

- innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;

- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;

- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;

- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga shaylik;

- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;

- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;

- kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Ta'lim tizimidagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o'qituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni sevuvchi, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;

- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda o'qituvchilarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, ularning

funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

XXI asr insonlar orasidagi buyuk munosabatlar rivojlangan, ya'ni o'zlarining jismoniy va ma'naviy kuchlarini ifodalovchi insoniylik qarashlari rivojlangan asrdir. Insonparvarlik, tafakkurning o'rnatilishi o'qituvchi va o'quvchi orasidagi yangi turdagi o'zaro munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Yosh o'qituvchining innovatsion faoliyati modeli bu - innovatsion pedagogik faoliyatning muhim sharti, predmetga yo'naltirilgan o'quv faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan o'quv faoliyatiga aylantirilayotgan sharoitlarda bo'lajak o'qituvchini tayyorlash modelini ishlab chiqish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar . – T. 2008.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T. 2011.
3. Ro'zieva D, Usmonboyeva M, Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi . – T. Nizomiy nomli DTPU, 2013
4. Fayzullayeva D.M, Ganiyeva M.A, Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami .T. TDIU, 2013. 5.
- R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Rahmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi. .

**SULAYMONTEPA – MARKAZIY OSIYODA XRISTIAN
DINING NOYOB YODGORLIGI**

Dilshod Abduvohidov,

*SamDU, Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasida doktoranti
tel.: + 998933413194. e-mail: norbotirovich@mail.ru*

Annotatsiya. Xristianlik dini Markaziy Osiyoga milodning boshlaridanoq kirib kela boshlagan. Shu bilan birga keyinchalik mintaqaning deyarli barcha hududlarida o'z jamoalari, cherkov hamda ibodatxonalarini tashkil etdi. Ushbu maqolada, shunday yodgorliklardan biri – Sulaymontepa to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, xristianlik, Foma, Panjikent, Vazkerd, Urgut, Ibn Havqal, Valeriy Kolchenko, Ossuriya, Patriarx Ishoyab II, nekropol, D.Voyakin, Stiven Gilbert.

Abstract. Christianity began to enter Central Asia from the beginning of Christ. At the same time, he later established his communities, churches and synagogues in almost all regions of the region. This article provides information about one such monument - Suleymantepa.

Key words: Central Asia, Christianity, Thomas, Panzhikent, Vazkerd, Urgut, Ibn Havkal, Valery Kolchenko, Assyria, Patriarch Ishoyab II, necropolis, D. Voyakin, Stephen Gilbert.

Eng qadimgi davrlardan boshlab Oʻrta Osiyo, xususan, Oʻzbekiston hududida aholi turli dinlarga eʼtiqod qilib, ular orasida bugungi kunda dunyo dinlaridan biri hisoblangan xristianlik oʻziga xos oʻrin egallagan. Markaziy Osiyo hududlariga dastlabki xristian jamoalari va targʻibotchilarining qachon va qaysi yoʻl orqali kirib kelganligi haqidagi aniq maʼlumotlar bizgacha yetib kelmagan. Lekin, xristian cherkovi maʼlumotlariga koʻra bu dinning Osiyo mamlakatlarida, Hindiston va uning qoʻshni davlatlarida tarqalishi xavoriy Foma nomi bilan bogʻlanadi [Eshkuvatov B.V., 2020: 190].

Ilk oʻrta asrlarda Soʻgʻdda xristian jamoalari mavjud boʻlib, ularga oid maʼlumotlar oʻsha davrga oid soʻgʻd tilida yozilgan koʻplab nasroniy hujjatlari bugungi Tojikistonning Panjikent shahridan topilgan. Tarixchi Narshaxiy Buxoroda nasroniylar ibodatxonasi mavjudligi toʻgrisida oʻz asarlarida maʼmumot beradi. Oʻzimizda, 1995-yilda Samarqand viloyati, Urgut shahrining janubiy chekkasida xristian cherkovi xarobalari topilgan. Tarixchi Ibn Havqalning yozishicha, X asrda ushbu joyda nasroniylar jamoasi istiqomat qilgan: “Savadarada ular yigʻiladigan xristian cherkovi bor. Men ularni xristianlar, Iroqdan kelgan muhojirlar deb izlab topdim. Ular bu yerga (Iroqdan) qulay geografik joylashuv, toza iqlim va oʻzlarining turmush tarzi tufayli kelishgan...” Bu hudud Soʻgʻdning koʻp qismida hukmronlik qiladi va Vazkerd (hozirgi Sulaymontepa) deb ataladi. [Gritsina A.A., 2018: 123]

Sulaymontepa yodgorligi haqida Qirgʻiziston Respublikasi Tarix, arxeologiya va etnologiya instituti ilmiy xodimi Valeriy Kolchenko shunday deydi: “Bunday turdagi kashfiyotlarni barmoq bilan sanashimiz mumkin. Biz oʻsha davrdagi nasroniy qabristonlari, yakka tartibdagi dafnlar haqida maʼlumotlarga egamiz. Ammo bu yerda biz oʻsha davr monastir hayoti va tarixi bilan bogʻliq boʻlgan birinchi qabristonga duch keldik. [3:2]

Manbaalar va arxeologik maʼlumotlarga koʻra, Urgutdagi nasroniy monastiri dunyoning turli burchaklaridan kelgan rohiblar uchun oʻziga xos markaz boʻlgan. Ular bu yerga yakkaxon namoz oʻqib, arablar istilosi davridagi taʼqiblardan panoj topib, shu bilan birga oʻzlari bilan turli madaniyat va dunyoqarashlarni olib kelishgan. Albatta, monastir mahalliy jamoaning rivojlanishiga ham taʼsir koʻrsatgan. Garchi bu yoʻnalishni Sulaymontepa bilan bogʻliq holda oʻrgangan olimlar kam boʻlsa-da, bu mintaqaning deyarli har bir aholi punktida oʻtmishda xristian jamoasi va cherkov hayoti mavjudligini bevosita yoki bilvosita koʻrsatadigan artefaktlarni topish mumkin. Misol uchun, xuddi shu bezatilgan sirlangan keramika idishlar ichida xristianlarga oʻxshash juda koʻp bezaklar mavjud – toʻrt bargli va rangli rozetlar, xochga oʻxshash gullar. Bu shunchaki turli bezaklar kabi koʻrinishi mumkin, lekin aslida bular xristianlik bu yerlarda bir necha asrlar davomida keng tarqalgan va faol pozitsiyani egallaganligini hamda ushbu dinning mahalliy aholining kundalik hayotida aks etganligini koʻrish mumkin. [Gritsina A.A., 2018: 124]

“Tadqiqotlar, oʻrta asrlarda aynan nasroniylikning Suriya (Ossuriya) dan kirib kelgan tarmogʻi Markaziy Osiyoda keng tarqalganligini koʻrsatmoqda, – deydi Valeriy Kolchenko. – Masalan, X—XI asrlarda xristian cherkovlari joylashgan

hozirgi Ak-Beshim (Qirg'iziston) o'rnida ko'p yillik qazishmalar olib borildi. Va shuni tushunish mumkinki, o'sha vaqtlarda nasroniylik jamiyatda hukmron o'rinlardan birini egallagan. Beshim manzilgohi Markaziy Osiyoda islomni davlat dini sifatida qabul qilgan birinchi turkiy sulola – Qoraxoniylar davlati davrida mavjud bo'lganligi qiziq. Shunga qaramay, nasroniylik o'sha paytda Urgutdagi kabi bu joyda ham juda rivojlangan.[3:4]

Ma'lumot uchun, Ossuriya cherkovi tarmog'i Xristian cherkovining vorisi bo'lib, u o'z kelib chiqishini I-II asrlarda Suriya va Mesopotamiyada paydo bo'lgan xristian jamoalariga bog'laydi. Sharq cherkovi missionerlik faoliyatida, jumladan, Hindiston, Xitoy va Sharqiy Turkistonda faol ishtirok etgan. V-VI asrlarda So'g'diyonaga kirib borgan. Samarqanddagi Ossuriya cherkovi metropolisi, yilnomalarga ko'ra, Patriarx Ishoyab II (patriarxallik yillari 628—643) davrida tashkil etilgan.

Sulaymontepadan topilgan nekropol ko'plab sirlar va ajoyib narsalarni o'zida yashirgan. Arxeologlar bu yerda qazish ishlarini boshlaganlarida, haqiqatan ham monastir nekropolmi yoki yovvoyi hayvonlar Urgut tog'lari bo'ylab yurgan o'sha olisdagi mahalliy aholi qabristonimi, deb doimo shubha qilishgan. Ammo bir nechta qabrlar ochilganda, ularning hech biri ayollarga tegishli emasligi hayratlanarli bo'lgan. Bu yerdan topilgan 17 ta skeletning barchasi erkak bo'lib, ularning aksariyati 35 yosh va undan kattaroq edi.

Bu aynan monastir qabristoniga ishontiruvchi ikkinchi fakt shundan iboratki, bironta dafn marosimida hech qanday ortiqcha narsa topilmagan - uzuklar, zargarlik buyumlari yo'q edi. Uchinchi dalil – qabrlarning o'zlarining asosiy yo'nalishlarga ko'ra joylashishi: bunda ular g'arbiy-sharqiy yo'nalishga ega edilar, hamma dafn etilganlar Sharqqa qarab turganga o'xshaydi, afsonaga ko'ra, qutqaruvchi Isoning kelishi kutilgan yerdan va ularning boshlari bir turdagi loy rulo ustida yotardi.

Ushbu noyob qabrlar haqida: “ular tobutda bo'lmagan, qabrlarning o'zi ham g'ayrioddiy edi. Men O'rta Osiyoda olib borgan qazishmalarimda hech qachon bunday narsalarni ko'rmagan edim, garchi shunga o'xshashlari boshqa hududlarda ham topilgan bo'lsa-da”, deydi Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti direktori, arxeolog D.Voyakin. - Bular qandaydir sopol va yer osti kriptalari, chuqurchaga o'yilgan kichik qabri dafn xonasi edi. Biz uchratgan barcha holatlarda dafn etilgan shaxs ushbu qasrning janubiy devoriga qo'yilgan, keyin o'tish joyi loy g'isht bilan to'sib qo'yilgan va tuproq bilan qoplangan. Marhumning jasad matoga o'ralgan ko'rinadi. Bundan tashqari, hozirgacha biz ushbu qabrlarning tashqi tomonida hech qanday aniqlovchi belgilarni ko'rmadik, masalan hechqanday qabr toshlari yo'q edi. Dafn etishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning har biri janubdan sharqqa, janubdan shimolga va g'arbdan sharqqa qator bolib qurilgan. Agar o'tgan yilgi qazishmalar davomida barcha dafnlar bizga mantiqan o'xshash bo'lib tuyulgan bo'lsa, ya'ni qabr xonasining tuzilishi, dafnning o'zi marhum uchun shunday bo'lishi kerak edi.[3:6]

Topilgan dafnlarning tavsifilarini beixtiyor musulmon dafn uslublari bilan o'xshatish mumkin. Ular bilan ko'rsatilgan o'xshashlikka D.Voyakin quyidagicha

javob bergan: - Bu o‘rinda nasroniylik va islom dinining tug‘ilishining ildizlariga qarashimiz kerak. Agar nasroniylik endigina paydo bo‘lgan va yahudiylik bag‘ridan chiqqan birinchi asrlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, o‘sha paytdagi marosim marhumning g‘orlarga yoki qoyadagi g‘orlarga dafn etilishi, qabrni tosh bilan berkitib qo‘yishga asoslanadi.

Shuningdek, Sulaymontepadan bir nechta rohiblarning skeletlari ham topilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu rohiblarning bo‘ylari 185 santimetr va undan yuqori bo‘lgan. Ularning barcha tishlari bor edi va ularda hattoki hechqanday karies izlari yo‘q edi. Xo‘sh, unda nega bunday kuchli odamlar erta vafot etgan bo‘lishi mumkin, balki o‘sha davrda Urgut biror vaboga o‘xshash jiddiy kasalliklarning tabiiy o‘chog‘iga aylangan bo‘lishi mumkin degan savol va uning taxminiy yechimi paydo bo‘ladi. Lekin aslida Amerikalik antropolog Stiven Gilbert fikricha: “o‘sha paytlarda hozirgi tibbiy antibiotiklar yo‘q edi, rohiblarning ishlari esa mashaqqatli bo‘lgan. Aynan mehnat ularni jismoniy jihatdan umrining erta tugashiga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Vaboga kelsak, tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, vabo Samarqandga birinchi marta XIV asrda kelgan, monastir va qabristonlar esa IX asrga to‘g‘ri keladi”.

Urgutdagi nasroniy monastirining nekropoli arxeologlar tomonidan atigi 100 dan 70 metrgacha bo‘lgan maydonda juda zich joylashgan dafn etilgan joydan topilgan. Bu katta hudud, ammo olimlar uni yanada kattaroq deb hisoblaydilar. Arxeologlar mahalliy qishloq aholisi bilan faol muloqot qilib, nekropoldan bir oz masofada, inson bosh suyagi va suyaklari paydo bo‘ladigan yana bir qancha joylar haqida bilib oldilar.

X asrda bu yerlarni ziyorat qilgan arab geografi Ibn Havqal havosi toza va yolg‘izlik tufayli bu yerga uzoq Suriyadan rohiblar kelganligini yozgan. Monastir juda mashhur bo‘lgan va bu bizni nekropolning o‘zi juda katta hajmga ega deb o‘ylashga majbur qiladi, ya’ni olimlarni yana ko‘plab qiziqarli topilmalar kutmoqda.

Bugungi kunda ham Sulaymontepada tadqiqotlar davom etmoqda, ammo hozircha arxeologik joy tabiat yoki inson tomonidan vayron qilinmasligi uchun ko‘rsatmalarga muvofiq ehtiyotkorlik bilan ko‘mib qo‘yilgan. Malumot uchun, Sulaymontepa noyob arxeologik yodgorligi davlat muhofazasiga olingan hamda YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan[4:1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Eshkuvatov B.V., “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida xristianlik dinining o‘rni va mintaqaga xristianlikning kirib kelishiga doir ayrim mulohazalar”. Jahon tarixining dolzarb muammolari mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman, Buxoro-2020. 190-195-betlar

2.Gritsina A.A., Markaziy Osiyo va Ozarbayjon dinlari. IV jild. Xristianlik. - Samarqand: MOTXI, 2018. – 296 b.

3.<https://sv.zarnews.uz/post/suleymatepa-xristianskiy-monastr>

4.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Sulaymontepa>

BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH

Akbarova Maftuna Botirjon qizi,
Sirdaryo viloyati boshlang‘ich ta‘lim metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarining o‘qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabdan va sinfdan tashqari ishlar metodikasi, xorijiy tajribalar, mustaqil ishlar, o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘qish darslari.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning eng muhim bo‘g‘inidir. “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risida“gi Nizomda ta‘kidlanganidek: “Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta‘minlashga da‘vat etilgan”[1].

Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Bunda boshlang‘ich sinflardagi sinfdan tashqari darslarning ham alohida o‘rni bor.

Boshlang‘ich ta‘limda sinfdan tashqari o‘qish ham sinfdan o‘qish kabi o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish va mustaqil mutolaaga rag‘bat uyg‘otishga ko‘ra alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda joriy yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash yuzasidan 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi [2].

Shu ma‘noda ana besh muhim tashabbuslardan biri - yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda sinfdan tashqari o‘qish darslari ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari yosh avlod qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg‘ularini uyg‘otish, matn mazmunini qayta hikoyalash, ma‘lum reja asosida qisqartirib yoki shaxsini o‘zgartirib hikoyalash, badiiy tasvir vositalarini aniqlash, asar qahramonlarining fe‘l-atvorini, xatti-harakatini baholash orqali ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, qisqa qilib aytganda, kitobxonlik madaniyatini kamol toptirishda katta imkoniyatlarga ega.

Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlab oladigan muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalash. Maktablarda 1959 yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari o'qish darslari tashkil etilgan.

Sinfdan tashqari o'qish 1-2 sinfdan haftada 1 marta, 3-4 sinfdan 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi. Bu darslarning asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish.

Metodikaning vazifasi sinfdan tashqari o'qish uchun o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasi va dars strukturasi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. O'zbek va chet el bolalar adabiyoti yozuvchilari asarlarini tanlash.
2. Kitob tanlashda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga xizmat qilishni ko'zda tutish.
3. Asar janri va mavzusini xilma-xilligiga e'tibor berish.
4. O'quvchilarning yoshi va saviyasiga muvofiqligini hisobga olish.
5. O'quvchilarning shaxsiy qiziqishini mustaqil o'qishni hisobga olish.
6. Mavsumiy tamoyilga amal qilish.

Sinfdan o'qish – hayotga tayyorlash, STO' hayotning o'zidir. Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus STO' darslaridir, u erkin dars hisoblanadi. STO' darslarida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassurot, badiiy obrazlarning idrok etishi, ijodi rivojlanadi, faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar rivojlanadi.

STO' darslariga qo'yiladigan talablar:

- har bir darsni kirish suhbat bilan boshlash;
- har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar-asarlarni hisobga olish;
- har bir darsda o'qish uchun Yangi asarlar tavsiya qilish;
- har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodida tahlil ishlarini amalga oshirish;
- o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, asar muallifi haqida ma'lumotlar to'plash, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish;
- har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtirish. Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalari;
- asar o'qish asar tanlashda o'quvchida mustaqillikni tarbiyalash, buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish;
- qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlari o'qitish, tez aytish, topishmoqlar topish, ifodali o'qish, maqollar aytish musobaqasi, ertak to'qish, bilimdonlar anjumani,

konkurslar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'qish tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur.

Sinfdan tashqari o'qishning yillik taqvim rejasini tuzish. Bunda N.N.Svetlovskaya ishlab chiqqan STO' bosqichlariga rioya qilish.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning yordamchi shakllariga:

1. Kitobni targ'ib qilish. Sinfdan tashqari o'qishga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilanib turadi. Ko'rgazmalar tashkil qilinadi, o'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchi o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qigan kitoblar hisobga olinadi, shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbatlashiladi.

3. Sinfdan tashqari o'qish yuzasidan ommaviy ishlar: adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar ular uchun maxsus tayyorlaniladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o'quvchilari o'qituvchining ruxsati bilan, tavsiyasi bilan kutubxonaga a'zo bo'ladi.

5. O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olishda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalanish.

1-sinf o'quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini yozadi. 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo'shib yozadilar. 3-4- sinfda o'qigan kitobiga taqriz yozadi, o'z mulohazalarini yozadi, ya'ni munosabat bildiradi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarning mustaqil faoliyati asosida uyushtiriladi[4]. Bu esa, bir tomondan, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlari doirasini, ikkinchi tomondan, o'qishga tavsiya qilinadigan asarlarning dastur mavzusiga mosligi va badiiy barkamolligini alohida inobatga olishni taqozo etadi. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish jarayonida nutq o'stirish ishlariga alohida e'tibor beriladi.

Chunki unda qo'llaniladigan turli usullar: matnni ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, tanlab o'qish, yod olish, asar mazmuni yuzasidan reja tuzish va shu asosda qayta hikoyalash, qisqartirib hikoyalash, shaxsini o'zgartirib hikoyalash, asar mavzusini aniqlash, qahramonlarning fe'l-avorini tavsiflash va hokazolar o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi (ertak, maqol, topishmoq) ni o'qib-o'rganish, badiiy asarni tahlil qilish orqali og'zaki nutqni o'stirishning muhim omillaridan hisoblanadi[5].

Yuqoridagilarning barchasida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi, o'qilgan asarni tushunishga o'rgatadi, ularning so'z boyligini oshirib, lug'atini boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish, o'z navbatida, qiziqarli, o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish darslarida ayrim qiyin so'zlar tushintiriladi, o'quvchilar diqqati esda saqlab qolish lozim bo'lgan aniq, qulay nutq oborotlariga qaratiladi.

Barcha qiyin soʻzlarni tushuntirish imkoni boʻlmagani uchun bolalar tegishli bet tagida berilgan ayrim soʻzlar izohini oʻqishga oʻrgatiladi. Shu tariqa ularning lugʻat boyligi yangi soʻzlar bilan boyib boradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, STOʻ darslarini biz toʻgʻri tashkil eta olsak, bu darslar oʻquvchilar dunyoqarashini kengaytiradi, oʻquvchilar bilimni oshiradi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi PF-5712-sonli farmoni.

3. Sidorova Galina Aleksandrovna, “Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish – inson kapitalini rivojlantirish omilidir” mavzusidagi xalqaro vebinar. Rossiya, 2020y.

4. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻquv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan metodlar. Xalq taʼlimi, 2020. 3- maxsus son, 37-43 bet. 183

5. Kuznetsova Marina Ivanovna, “PIRLS 2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida oʻqish savodxonligini shakllantirishning oʻziga xos xususiyatlari”. 2021y.

6. <http://www.markaz.tdi.uz>

KOʻMAKCHILAR TADQIQI TARIXI

Erboʻtaveva Shalola Oʻtkirovna,

*Oʻzbekiston – Finlandiya pedagogika instituti, qituvchisi
utkirovnashalola@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon va oʻzbek tilshunosligida koʻmakchi turkumiga oid birliklar oʻrganilishi tarixiga oid qarashlar tahlil etilgan, tadqiqot obyekti sifatida olingan ushbu turkum doirasiga kiruvchi birliklar eng qadimgi davrlardan boshlab oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: Soʻz, leksema, tushuncha, feʼl, ism, mantiqiy maydon, soʻzlarni turkumlash masalasi; Yunon, Rim, Hind tilshunosligida turkumlash masalasi; Oʻzbek tilshunosligida koʻmakchilar tadqiqi.

Kirish. Milliy til tushunchasi shakllangan har qanday inson vatanparvar shaxs boʻlib shakllanadi. “Har birimiz davlat tiliga boʻlgan eʼtiborni mustaqillikka boʻlgan eʼtibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”, - deya muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yoshlarni yana ham koʻproq izlanishga daʼvat etmoqdalar. - Bu oliyjanob harakatni barchamiz oʻzimizdan, oʻz oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”. Shunday ekan, biz, tilshunoslar, tilda boʻlayotgan oʻzgarishlarni

o‘z vaqtida o‘rganishimiz va shu bilan bir qatorda yangiliklardan xabardor bo‘lgan holda ko‘proq izlanishimiz kerak. Har qanday til o‘zining ichki qonuniyatlari asosida rivojlanishi, tildagi leksik qatlamlar asosida neologizm (yangi so‘zlar) vujudga kelgani kabi arxaik (eskirgan) so‘zlar iste‘moldan chiqishi, ya‘ni sotsial jihatdan chegaralangan leksika davriy nuqtayi nazardan o‘zgarishga uchrashi, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, shu guruh tarkibiga kirib-chiqib turishi hech kimga sir emas. Tildagi yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi tilning leksik boyligining oshishida, grammatik strukturasi takomillashishida muhim o‘ringa egadir. Aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjud bo‘lgan, hayotiylik mezoniga ega til rivojlanish bosqichida ma‘lum to‘siqlarga duch keladi. Tilshunos olimlar mana shunday to‘siqlarni bartaraf etish uchun tillarni o‘zaro solishtirishadi, ularning farqli va o‘xshash jihatlarini tahlil etishadi. Tilni chuqur tadqiq etish uchun o‘sha tilda mavjud bo‘lgan fonetik, leksik qatlam birliklarini semantik-struktur jihatdan alohida guruhlarga ajratib olingani, bu jarayon dastavval hind tilshunosligida yuzaga kelgani, bizning ajdodlarimiz ham yunon tilshunosligiga tayangan holda tillarni tasnif etishgani haqida ma‘lumotlar bor. Ammo XIX asr oxiri XX asr boshlarida tilshunosligimizda rus tilshunoslari tahlillariga asoslangan tadqiqotlar ko‘zga tashlana boshladi. Tilshunos O. Azizov “...har bir tildagi so‘zlar grammatik belgisi va semantik xususiyatiga qarab turli guruhlarga bo‘linadi. Grammatik qurilish jihatidan har xil bo‘lgan tillardagi so‘zlarning semantik xususiyatlari qo‘llanish doirasi, grammatik belgilari, o‘zaro birikishi doim ham o‘xshash bo‘lavermaydi”, - degan fikrlarni keltiradi. Har bir til o‘z strukturasi ega. Ta‘kidlab o‘tilganidek, tilshunoslik keng soha bo‘lib, uning bir qancha yo‘nalishlari mavjud. Ana shunday yo‘nalishlardan biri morfologiyadir.

Barchaga ma‘lumki, morfologiya - so‘zlarning strukturasi, tasnif natijasida yuzagan kelgan to‘planning grammatik xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limdir. Aslan, morfologiya grammatika tarkibidadir, shuning uchun ham grammatik shakllar orqali yuzaga chiquvchi grammatik ma‘nolarni tahlil etadi.

Til tizimi til birliklarining umumlashtirilgan bir butunligidir. Til tizimini morfologik jihatdan tadqiq etish ancha uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimgi Yunon tilshunosligida so‘z turkumlari masalasi batafsil o‘rganilgan bo‘lib, o‘z davri uchun anchayin mufassal bo‘lgan qarashlar negizida ilk ilmiy mezonlar shakllandi. Jumladan, sharq tilshunosligi yunon tilshunosligidan birmuncha farq qiladi, lekin bu farq juda katta emas, umumiy o‘xshash tomonlari ham mavjud. So‘z turkumlarining o‘rganilishi uzoq tarixga ega. Jumladan, antik davr tilshunoslarining so‘z turkumlari masalasiga alohida qiziqish bilan qarashganligi va ular ishlab chiqqan tamoyillar hozirga qadar u yoki bu shaklda saqlanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Inson o‘z hayotini qulaylashtirishga har doim intilib kelgan. Bu nafaqat, kundalik hayotda, balki fan doirasida ham ko‘zga tashlanadi. So‘zlarni turkumlarga ajratishda ham shu qonuniyat asosiy mezon bo‘lgan. Tilshunoslik eng qadimgi davrlaridanoq o‘rganilgan va umumiy fanlar ichidan ajralgan fan sifatida qaraladi. Dastlabki davrlardan so‘zlarni u yoki bu jihatlarini tasnif qilish, ularni umumiylik jihatdan guruhlash masalasiga e‘tibor qaratilgan: “...so‘z turkumlari tasnifi tilshunoslikning asosiy o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan”. Aflotun so‘zlarni

ikki turga ajratgan bo'lib, u o'z tasnifi asosiga mantiqiy tushunchalarni qo'yadi. Uning fikrlariga ko'ra voqelikni ism va fe'l orqali ifoda etish mumkin, ism - nomlash mumkin bo'lgan so'zlar bo'lsa, fe'l – harakatni ko'rsatuvchi so'zlardir. Ushbu ikki guruhga kiruvchi til birliklari: ism va fe'l so'zlarining bog'lanishi orqali biz nutqimizni shakllantiramiz, faqat bir turga mansub so'zlar orqali nutq shakllanmaydi.

So'zlarni turkumlashga oid keyingi fikrlar egasi Arastudir, uning qarashlariga ko'ra, ism va fe'ldan tashqari bog'lama ham mavjud bo'lib, bog'lamalar ism va fe'lni bog'lash uchun ko'mak beradi.

Keyingi davr, ya'ni Aleksandriya davriga kelib so'z turkumlari nazariyasi takomillasha bordi, endi uning lisoniy xususiyatlariga e'tibor kuchaydi.

Frakiyalik Dionisiy so'zlarni: ot, fe'l, sifatdosh, artikl, ravish, ko'makchi va bog'lovchiga; Eli Donat esa ot, olmosh, fe'l, ravish, sifatdosh, bog'lovchi, ko'makchi, undovlarga ajratadi. Turkumlash mezonlari ham ilmiy asosda shakllana bordi. Ayni vaqtda so'z turkumlari miqdor jihatdan ko'paydi.

Yunonlardan keyin rimliklar ham so'z turkumlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratishdi. Xususan, M.Varron so'zlarni 4 turkum ostida birlashtirdi, uningcha turlanish va turlanmaslik turkumlash uchun asos bo'lishi kerak edi, ayni shu jihatlarini e'tiborga olgan holda kelishik shakllarini qabul qila oladigan so'zlar - otlar, zamon ko'rsatuvchi so'zlar – fe'llar, kelishik va zamon ko'rsatuvchi so'zlar – sifatdoshlar, kelishik va zamon kategoriyasiga ega bo'lmaganlar – yordamchi so'zlar kabi guruhladi.

Hind tilshunosligida turkumlashga oid yagona qarash yo'qligi sababli, ushbu masalada, asosan, to'rtta so'z turkumiga ajratish fikriga tayanishar edi. Bular: ot (nāmāṅ), fe'l (ākhyatā), old ko'makchi (yupāsagrā) va yuklama (kipatā). Ko'makchilar ot va fe'l so'z turkumlarining ma'nolarini ko'rsatib beruvchi turkum sifatida izohlashgan. Qadimgi hind tilshunosligida so'z turkumlarining 3-turi sifatida ko'makchilar olingan bo'lib, yupāsagrā deb atalagan.

Sharq tilshunosligida ham so'zlar turkumlarga ajratilgan bo'lib, bunda antik davr tilshunosligiga oid va ayni vaqtda, farqli xususiyatlari inobatga olingan. Jumladan, arab tilshunosligida so'z turkumlari 3 guruhga ajratilgan, bular quyidagilar:

1. Ism;
2. fe'l;
3. yuklama(harf).

Nomlovchi so'zlar ismlar hisoblansa, harakat bildiruvchi so'zlar fe'llar edi. Grammatik jihatdan teng yoki tobe bog'lash vazifasini bajaruvchi so'zlar turkumi esa harflardir.

Turkiy tilshunoslar arab tilshunoslari izidan borgan holda yuqoridagi tasnifni asos qilib olishadi. Arab tilshunosligi an'alariga tayangan holda Abu Nasr Forobiy "tur jinsni bildiruvchi so'zlarni ot, fe'l va harf"larga ajratadi. Umuman olganda harf deb nomlangan turkum doirasiga biz bugun yordamchi deb o'rganayotgan turkum so'zlari kiritiladi. Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy garchi fanning bir necha sohalarida tadqiqotlar olib borgan bo'lishiga qaramasdan,

tilshunoslikning muhim ekanligini anglagan holda, o‘z qarashlarini bayon qiladi. Tilshunoslikning keyingi davrini bevosita Qoraxoniylar hukmronligi bilan bog‘lashimiz mumkinki, bunga sabab esa bu davrga kelib til va adabiyotga e‘tibor anchayin kuchayganligi, badiiy va ilmiy asarlar yaratilganligi sanaladi. Qoraxoniylar davrining nodir topilmalari deya qaraladigan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”; “Tafsir”, “O‘g‘uznoma”, “Qissasi Rabg‘uziy” asarlarni keltirishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan asarlar til xususiyatlari tahlil etilganda, eski turkiy til lug‘aviy jihatdan ancha boy bo‘lganligini, grammatika ham birmuncha shakllanib ulgurganligini ko‘rishimiz mumkin. Dastlab Mahmud Qoshg‘ariy “Devon-u lug‘otit turk” asarida so‘zlarni 3 turkumga ajratib beradi: ismlar, fe‘llar va yordamchilar. Jumladan, “Qutadg‘u bilig”da biz tadqiq etayotgan ko‘makchilarning ishtiroki birmuncha ko‘proq ekanligi, birle // bila = bilan ko‘makchisining shakli sifatida ishlatilganligining guvohi bo‘ldikki, xuddi shu davr adabiy manbaasi hisoblanmish “Devon-u lug‘otit turk” da ham qo‘llanilgan. Garchi biz yuqorida eski turkiy adabiy tilining shakllanishi uchun asos deb olgan badiiy manbaalarimiz aynan ilmiy jihatdan tadqiq etayotganimiz, ko‘makchi turkum birliklarini tahlil etmagan bo‘lsa-da, asarlarda keltirilgan adabiy parchalar o‘sha davr ruhiyatini jonlantirish imkonini beradi va bu jarayonda biz yordamchi turkum deb qarayotgan birliklarning shakllari, vazifasi haqida tugal xulosaga ega bo‘lamiz. Mahmud Qoshg‘ariy ushbu asarida o‘sha davrda tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning barchasini ifodalashga harakat qiladi, olim tilga tarixiylik jihatidan yondashganligi evaziga faqatgina shu davr bilan to‘xtalmasdan tilning ancha oldingi davrlariga ham diqqat qilganligi ham ma‘lum. Birgina ushbu asar tarkibida olim tomonidan so‘zga nisbatan leksikograf, semasiolog, leksiolog sifatida qaraganligining, so‘z ma‘nosida kengayish, torayish masalalari, shakl va ma‘no jihatdan guruhlanishi va hosila ma‘noning paydo bo‘lish yo‘llari: metafora, metonomiya, sinekdoxa kabilar haqida ma‘lumot berib o‘tilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu asarning qimmatli jihati, aynan asar tarkibida qo‘llanilgan she‘riy parchalar tarkibida yordamchi turkum birliklarining faol ishlatilganligidadir. Jumladan, devonning 1-jildi, so‘z boshida otlar kelgan so‘zlar tahliliga bag‘ishlangan qismida ep so‘zini kuchaytiruv-ta‘kid ko‘makchisi sifatida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. M: ep-ezgu, shaklida, bundan tashqari hozirga adabiy tilimizda qo‘llaniluvchi avval, ilgari, burun funksional ko‘makchilari devonda ilk shaklida izohlangan. Maxmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarida ham so‘zlar turkumlanishining uchlik sistemasi kuzatiladi. Navoiy ijodida ham nazariy qarashlar bayon etilgan maxsus lingvistik asarlari mavjud bo‘lib, “Muhokamat ul-adab” asarida o‘sha davrdagi arab grammatikasi an‘anasiga ko‘ra so‘zlarni turkumlashga oid morfologik qarashlari keltirilgan.

Xulosa qilishimiz mumkinki, ko‘makchi turkumiga oid til birliklarining til sistemasidagi o‘rni mustahkam bo‘lib, hozirgacha ushbu turkum so‘zlari turli aspektlarda tadqiq qilindi. Ko‘makchilar faqatgina tilning morfologik sathiga oid birlik hisoblanmasdan, semantik va sintaktik sathda ham faoldir. Sintaktik

tuzilmaning semantik strukturasi shakllantirib, pragmatik botiniy ma'noga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://xs.uz/uz/> – Toshkent, 2019.

2. Античные теории языка и стиля.

3. Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. Т.Ш. – Тошкент: Фан, 1963

4. Нурмонов. А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

5. Звегинцев В. Очерк истории языкознания до XIX века // Хрестоматия по истории языкознания XIX веков. – М., 1956

6. Звегинцев В. А. История арабского языкознания. – М.: МГУ, 1958.

7. Азизов О. Тилшуносликка кириш. - Тошкент.: Ўқитувчи 1996. – 176 б.

8. Венцкович Р. М., Шайкевич А. Я. История языкознания. ч. I. – М., 1971

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PROBLEM OF ADOLESCENT EGOISM IN CHILDEDUCATION

Gadayeva Munira Mukhammedovna,

BVPYMO‘MM. The senior teacher of “educational technologies of pedagogy and psychology

Mohichehra Aliyeva,

Bukhara Engineering and Technology Institute academic lyceum 4 Teacher of foreign languages faculty

Annotatsiya. Ushbu maqolada ego xususiyatlari, uning yosh davrlarida namoyon bo‘lishi va uning ko‘rinishlari, shuningdek egoizmga oid nazariy qarashlar, tahlil etilgan fikrlar baton etilga,

Kalit so‘zlar: tahlil, ego-holat, g‘amxo‘r ota-onalar, moslashish, mustaqillik, erkin fikrli bola, yutuqlarga erishish

Аннотация. В статье рассматривается наличие взаимосвязи между расширенными эго-состояниями (предложенными в теории транзактного анализа) и мотивацией личности на успех.

Ключевые слова: транзактный анализ, эго-состояния, заботливый родитель, адаптивный ребенок, свободный ребенок, мотивация успеха

Abstract: The article considers the existence of the relationship between extended ego states (proposed in the theory of transactional analysis) and the motivation of the individual to succeed.

Key words: transactional analysis, ego states, caring parent, adaptive child, free child, motivation for success

The influence of the family on the mental development of children of adolescent age is a topic of special importance in the current era. In local science,

the main part of the study of the interdependence of family characteristics and children's speech is carried out due to the lack of speech study within the framework of socio-psychological research in the field of general and medical psychology, ontolinguistics.

And finally, fourthly, Freud and Erikson have different views on the nature and resolution of psychosexual conflicts. Freud's goal was to reveal the essence and characteristics of the influence of unconscious mental life on the individual, as well as to explain how early trauma can lead to psychopathology in adulthood. Erikson, on the contrary, saw his task as drawing attention to a person's ability to overcome life's difficulties of a psychosocial nature. His theory prioritizes the qualities of the Self, that is, its advantages, which are revealed during various periods of development. Perhaps this last distinction is key to understanding Erikson's concept of organization and personal development. Freud's fatalistic warning that people are doomed to social decline if they give in to their instinctual aspirations is countered by the optimistic position that every personal and social crisis represents a kind of challenge that leads the individual to personal growth and overcoming life's obstacles. Knowing how a person dealt with each of life's significant problems, or how inadequate handling of early problems left him unable to deal with later problems, is, according to Erikson, the only key to understanding his life.

So far we have touched only on the main theoretical differences between Erikson and Freud. However, it is worth noting that there are also issues on which there is agreement between them. For example, both theorists agree that the stages of personality development are predetermined, and the order of their passage is unchanged. Erikson also recognizes the biological and sexual basis of all later motivational and personality dispositions, and also accepts the Freudian structural model of personality (Id, Ego, Superego). However, despite the presence of similar provisions, many personologists believe that Erikson's theoretical premises differ from those in classical psychoanalysis. Epigenetic principle Central to the theory of self development created by Erikson is the position that a person during his life goes through several stages that are universal for all humanity. The unfolding of these stages is regulated according to the epigenetic principle of maturation. By this Erikson means the following:

"1) in principle, the personality develops stepwise, the transition from one stage to another is predetermined by the individual's readiness to move in the direction of further growth, expansion of the conscious social horizon and the radius of social interaction;

2) society, in principle, is structured in such a way that the development of a person's social capabilities is accepted approvingly, society attempts to promote the continuation of this trend, and to maintain both the proper pace and the correct sequence of development" (Erikson, 1963a, p. 270). In *Childhood and Society* (1963a), Erikson divided human life into eight distinct stages of psychosocial development of the self (as they say, the "eight ages of man"). According to him, these stages are the result of an epigenetically unfolding "personal blueprint" that is inherited genetically. The epigenetic concept of development (in Greek "???"

means "after", and "???????" - "birth, origin") is based on the idea that each stage of the life cycle occurs at a specific time for it. time ("critical period"), and also that a fully functioning personality is formed only by passing through successively all stages in its development. In addition, according to Erikson, each psychosocial stage is accompanied by a crisis - a turning point in the life of an individual, which arises as a consequence of achieving a certain level of psychological maturity and social demands placed on the individual at this stage. In other words, each of the eight phases of the human life cycle is characterized by an evolutionary task specific to this particular phase ("phase-specific") - a problem in social development, which at one time is presented to the individual, but does not necessarily find its solution. An individual's characteristic patterns of behavior are determined by how each of these tasks is ultimately resolved or how a crisis is overcome. Conflict plays a vital role in Erikson's theory because growth and expansion of the scope of interpersonal relationships is associated with increasing vulnerability of self functions at each stage. At the same time, he notes that crisis means "not the threat of catastrophe, but a turning point, and thereby an ontogenetic source of both strength and insufficient adaptation" (Erikson, 1968, p. 286). Each psychosocial crisis, when viewed from an assessment point of view, contains both positive and negative components. If the conflict is resolved satisfactorily (that is, at the previous stage the I was enriched with new positive qualities), then now the I absorbs a new positive component (for example, basal trust and independence), and this guarantees the healthy development of the personality in the future. On the contrary, if the conflict remains unresolved or is unsatisfactorily resolved, the developing self is thereby harmed and a negative component is built into it (for example, basal mistrust, shame and doubt).

Although theoretically predictable and well-defined conflicts arise along the path of personality development, it does not follow from this that at the previous stages successes and failures are necessarily the same. The qualities that the self acquires at each stage do not reduce its susceptibility to new internal conflicts or changing conditions (Erikson, 1964a). The goal is for the individual to adequately resolve each crisis so that he or she will be able to approach the next stage of development as a more adaptive and mature individual. All eight stages of development in Erikson's psychological theory are presented in the table below. The leftmost column lists the stages; the second column indicates the approximate age of their onset; the third contrasts the positive and negative components of each stage; the far right column lists the strengths of the Self or its virtues acquired through the successful resolution of each crisis. In accordance with the principle of epigenesis, each stage is based on the resolution and understanding of previous psychosocial conflicts. Erikson put forward the assumption that all crises, to one degree or another, take place from the very beginning of the postnatal period of human life, and for each of them there is a priority time of onset in the genetically determined sequence of development.

Eight stages of psychosocial development
 Stage Age Psychosocial crisis Strengths

Infancy (oral-sensory) Birth - 1 year Basal trust – basal distrust Nadezhda
 Early childhood (musculo-anal) 1 - 3 years Autonomy - shame and doubt
 Willpower Age of play (loco-motor-genital) 3 - 6 years Initiative - guilt Goal
 School age (latent) 6 - 12 years Hard work - inferiority Competence
 Youth (adolescence) 12 - 19 years Ego-identity - role confusion Loyalty
 Early maturity 20 - 25 years old Intimacy - isolation Love
 Average maturity 26 - 64 years Productivity - stagnation Caring
 Late adulthood 65 years - death Ego integration - despair Wisdom

Personality Development: Psychosocial Stages As noted earlier, Erikson believes that personality development occurs throughout a person's life. His analysis of socialization is best presented by describing the distinctive features of eight stages of psychosocial development.

1. Infancy: basal trust-basal mistrust the first psychosocial stage corresponds to the oral stage according to Freud and covers the first year of life. According to Erikson, during this period the cornerstone of the formation of a healthy personality is a general sense of trust; other scientists call the same characteristic "confidence." An infant with a basic sense of "inner certainty" perceives the social world as a safe, stable place and people as caring and reliable. This sense of certainty is only partially recognized during infancy. According to Erikson, the degree to which a child develops a sense of trust in other people and the world depends on the quality of maternal care he receives. "I believe that mothers develop a sense of trust in their children through treatment, which at its core consists of sensitive concern for the individual needs of the child and a strong sense that she herself is a person who can be trusted in the sense of the word "trust." "that exists in a given culture in relation to a given style of life. This lays the foundation for the child to feel "all is well"; to develop a sense of identity; to become what others hope he will become" (Erikson, 1963a, p. 249).

Thus, the feeling of trust does not depend on the amount of food or on the manifestations of parental affection; rather, it has to do with the mother's ability to convey to her child a sense of familiarity, permanence, and sameness of experience. Erickson also emphasizes that infants must trust not only the outer world, but also the inner world, they must learn to trust themselves, and especially they must acquire the ability to have their organs effectively cope with biological impulses. We observe similar behavior when the infant can tolerate the absence of the mother without undue distress and anxiety about "separation" from her. The question of what causes the first important psychological crisis is deeply analyzed by Erickson. He connects this crisis with the quality of maternal care for the child - the cause of the crisis is the unreliability, failure of the mother and her rejection of the child. This contributes to the emergence of a psychosocial attitude of fear, suspicion and concern for his well-being. This attitude is aimed both at the world as a whole and at individual people; it will manifest itself in its entirety at later stages of personal development. Erikson also believes that feelings of mistrust may increase when the child is no longer the mother's main focus; when she returns to those activities that she left during pregnancy (say, resuming an interrupted career), or gives birth to her

next child. Finally, parents who adhere to opposing principles and methods of education, or who feel insecure in the role of parents, or whose value system is in conflict with the generally accepted lifestyle in a given culture, can create an atmosphere of uncertainty and ambiguity for the child, as a result of which there is a feeling of mistrust. According to Erikson, the behavioral consequences of such dysfunctional development are acute depression in infants and paranoia in adults. In other words, trust passes into the infant's ability to hope, which, in turn, in an adult may form the basis of faith in accordance with any official form of religion. Hope, this first positive quality of the Self, supports a person's conviction in the significance and reliability of the common cultural space. Erikson emphasizes that when the institution of religion loses its tangible meaning for an individual, it becomes irrelevant, becomes obsolete, and perhaps even is replaced by other, more significant sources of faith and confidence in the future (for example, achievements in science, art, and social life).

2. Early childhood: independence - shame and doubt Acquiring a sense of basal trust prepares the ground for achieving a certain independence and self-control, avoiding feelings of shame, doubt and humiliation. This period corresponds to the anal stage, according to Freud, and continues during the second and third years of life. According to Erikson, a child, interacting with parents in the process of learning toilet behavior, discovers that parental control can be different: on the one hand, it can manifest itself as a form of care, on the other, as a destructive form of curbing and a preventive measure. The child also learns to distinguish between granting freedom like "let him try" and, on the contrary, connivance as a destructive form of getting rid of troubles. This stage becomes decisive for establishing the relationship between voluntariness and stubbornness. A sense of self-control without loss of self-esteem is an ontogenetic source of confidence in free choice; The feeling of being overly controlled by others and the simultaneous loss of self-control may give rise to a persistent tendency toward doubt and shame (Erikson, 1968b). Before this stage, children are almost completely dependent on caregivers. However, as they rapidly develop neuromuscular systems, speech, and social selectivity, they begin to explore and interact with their environment more independently. They are especially proud of their newly discovered locomotor skills and want to do everything themselves (such as washing, dressing and eating). We observe in them a great desire to explore objects and manipulate them, as well as an attitude towards their parents: "I myself" and "I am what I can." From Erikson's point of view, a satisfactory resolution of the psychosocial crisis at this stage depends primarily on the willingness of parents to gradually give children the freedom to exercise control over their own actions. At the same time, he emphasizes that parents should unobtrusively but clearly limit the child in those areas of life that are potentially or actually dangerous both for the children themselves and for others. Independence does not mean that the child receives unlimited freedom.

As a result, such traits as self-doubt, humiliation and weakness of will are formed. According to Erikson, the child's acquisition of a constant sense of

independence greatly strengthens his sense of trust. This interdependence of trust and autonomy can sometimes retard future mental development. For example, children with an unstable sense of trust may, at the stage of independence, become indecisive, timid, and may be afraid to defend their rights, so they will seek help and support from others. In adulthood, such people are most likely to develop obsessive-compulsive symptoms (which provide them with the necessary control) or paranoid fear of persecution. A social complement to independence is a system of law and order. Erickson uses the terms "law" and "order" regardless of possible emotional connotations. According to his theory, parents must always be fair and respect the rights and privileges of others if they want their children to be prepared to accept the limits of autonomy in adulthood.

"Willpower means the constant exercise of free choice, as well as self-restraint, despite the inevitable feelings of shame, doubt and irritation at being controlled by someone. The source of goodwill is rooted in the discretion of parents, guided by respect for the spirit of the law" (Erikson, 1968b, p. 288).

Literature:

1. Tome H., Kahele H. Modern psychoanalysis, vol.1. M., 1996, p. 190.
2. Schmidt-Hellerau K. Libido and summer. St. Petersburg, 2002, p. 183.
3. Bowlby D. Attachment. M., 2003, p.241.
4. Tyson F., Tyson R. Psychoanalytic theories of development. Ekaterinburg, 1998, p. 106.
5. Besserer R. The life and work of Anna Freud // Encyclopedia of Depth Psychology, volume three, M., 2002, p. 48.

TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI RIVOJLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYANING O‘RNI

Gulnora Mamajonova,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg‘ona filiali tyutori

Annotatsiya: Oliy o‘quv yurti talabalari bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, kun tartibi, dam olishga va mehnat tartibiga rioya etishi sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: Salomatlik, sog‘lom turmush tarzi, oila, mahalla, metodika, tahlil, jismoniy tarbiya va sport, o‘qituvchi o‘quvchi, axloq-odob.

Аннотация: Для формирования навыков здорового образа жизни у студентов вуза важно правильно распределять свободное время, соблюдать режим дня, режима отдыха и работы.

Ключевые слова: Здоровье, здоровый образ жизни, семья, соседство, методика, анализ, физическое воспитание и спорт, учитель, ученик, этика

Abstract: It is important for the formation of healthy lifestyle skills for students of the higher educational institution to properly distribute their free time, follow the daily schedule, rest and work schedule

Key words: Health, healthy lifestyle, family, neighborhood, methodology, analysis, physical education and sports, teacher, student, ethics

Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Ma’lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta’minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Sog‘lom turmush tarzi bu faol mehnat, ijod og‘ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o‘ta xavfli va zararli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni yengil ko‘tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir. Talabalar o‘rtasidagi o‘tkazilgan so‘rovnomada natijalaridan kelib chiqib, oliy o‘quv yurti talabalari bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, kun tartibi, dam olishga va mehnat tartibiga rioya etishi sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oilaning mustahkamligi, undagi ma’naviy muhitning barqarorligi yoshlarning salomatligiga, sog‘lom turmush tarzi malakalariga ega ekanligiga ham bog‘liq.

Bunda ota-onaning, yaqin qarindosh-urug‘larning umuman sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari va ularning kundalik turmushda salomatlikni asrash ko‘rikmalariga ega ekanliklari katta ahamiyat kasb etadi. Oilada sog‘lom turmush tarzining shakllanishi va bir umrga ana shu ko‘nikmalarga rioya qilishi ko‘p jihatdan har bir oila a’zosining aqliy, axloqiy, irodaviy tarbiyasiga bog‘liq va insonning birinchi navbatda, o‘z-o‘ziga bo‘lgan talabchanligidan kelib chiqadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, kishilarning o‘z sog‘liqlari to‘g‘risidagi qayg‘urishlari, ularning turmush darajasi, sifati, har bir shaxsning yashash tartibi (stiliga) va mazkur mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga ham bog‘liq. Shu boisdan ham, mamlakatimizda bugun aynan xalqimiz faravonligini yanada ko‘tarish, jamiyatda har bir kishining xohlagan turdagi jismoniy tarbiya va sport turlari bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yaratish va eng asosiysi, odamlarni, ayniqsa, yoshlarni jismoniy madaniyatli va sport bilan shug‘ullanish, har bir fuqaro turmush tarzining ajralmas bir bo‘lagiga aylantirish va ijtimoiy odat sifatida ongiga singdirish bugunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda sog‘liqni saqlash hamda jismoniy tarbiya va sport sohalarini isloh qilish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu tizimlarni takomillashtirish barobarida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga mazkur sohada davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, 2025-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish,

2022-yilga qadar yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish konsepsiyalari hamda sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tasdiqlandi va ijroga qaratildi. Talaba -yoshlar o'rtasida jismoniy faollikni oshirish muhim masalalardan biridir.

Oila bilan birgalikda yosh avlodni tarbiyalashda mahallaning o'rnini ham beqiyosdir. Mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani amalga oshiradi. Mahalla, maktab va jamoatchilikning avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarga tayangan holda ish ko'rishini farzandlar tarbiyasida ijobiy natijalarga olib kelishi shubhasizdir. Mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalashda oilamahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish samaralar garovidir. Bu borada hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlash;

- oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish;

- oilalarda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish;

- har bir oila a'zolarining ongida sog'lom turmush tarzi tushunchasi va munosabatini shakllantirish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash;

- barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;

- sog'lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

Sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish – bu faol mehnat, kuchli jismoniy va ruhiy holat, ko'tarinki kayfiyat, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yenga oladigan, yetuklikka intiluvchan shaxsning shakllanish jarayonidir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy siyosiy, ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini samarali hamda ta'sirchan uslubda amalga oshirish maqsadida har bir ta'lim muassasasida sog'lom turmush tarzi, shaxsiy gigiena, oila ma'naviyati, zararli illatlarning sog'lom bola tug'ilishiga salbiy ta'siri haqidagi tibbiy bilimlarini oshirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulotlari, davra suhbatlari keng joriy etilmoqda. Bu yoshlarimiz ongida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy mashg'ulotlar va sport to'garaklarida ko'pchilik talabalar qatnashish istagini bildirishgan, biroq vaqt va moliyaviy mablag' muammolari mavjudligini takidlashgan.

Milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar oilada bizgacha yetib keladi. Shu muhitda o'sayotgan millatimiz kelajagi merosxo'rlari farzandlarimizni milliy urf-odatlariga xos qilib tarbiyalash lozimdir. Nazarimizda oilaviy tarbiya bo'yicha

milliy qadriyatlarimiz va udumlarimizga eskilik sarqiti deb qarash noto‘g‘ridir. Boy va rang-barang madaniyatimiz, urf-odat va an‘analarimiz barcha qadriyatlarimiz milatimizning ma‘naviy, ruhiy boyliklarini tashkil etadi. Uni chuqur o‘rganib, o‘zlashtirib olgan inson oldiga qo‘yilgan har qanday maqsadga erisha oladi. Chunki madaniyatimiz axloq-odob, urf-odat me‘yorlaridan xabardor inson hech qachon ko‘r-ko‘rona ish qilmaydi.

Demakki, barcha milliy tarbiya bo‘yicha urf-odatlarimiz zamirida ezgulik yotadi. Ularda faqat ozodalik, yaxshilik, odamiylik kasb etadi. Milliy urf-odatlarimiz asnosida tarbiyalangan shaxs yuksak ma‘naviyati boy inson bo‘lib shakllanadi. Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an‘nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iloyaev M. “Oila, ijod, tarbiya va ma‘naviyat”. T., “Sharq” 2000. 114 b.
2. Oilaviy muhit va bolalar //Qalqon. – 2006, - №1.- B.14-15.
3. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy psixologik muammolari. (Monografiya) “Fan” nashriyoti, Toshkent – 2008, 284 b.
4. Yadgarova G.T., Avlaev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo‘llanma)T.: 2007, 74 b.

YOSH OILALARDA YUZAGA KELADIGAN AYRIM ZIDDIYATLARNING OLDINI OLISH MASALALARI

Narmuradova Rayhon Uktamovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya. Oila tinch-totuvligini saqlash jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Maqolada yosh oilalarda er-xotin o‘rtasida kuzatilishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar, ularning kelib chiqish sabablari, oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Oila, er-xotin, ziddiyat, psixologiya, qaror, nizo, adolat.

Kirish. Oilaviy nizolarning eng ko‘p duch keladigan turlaridan biri bu er va xotin o‘rtasidagi nizolardir. Yaxshi niyatlar bilan oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan so‘ng o‘zaro munosabatlarida nizo-janjallar ro‘y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush-janjallarsiz ham yashasa bo‘ladimi? Bu kabi savollarni yana ko‘p davom ettirish mumkin.

Aksariyat yaxshi oilalarda tarbiya topgan yoshlar o‘z ota-onasi oilasini, ularning turmush tarzini, bir-birlarga nisbatan munosabatlarini va qator shu kabilarni o‘zlarining bo‘lajak hayotlari uchun ideal deb olishadi va ular ham oila qurib, o‘g‘il bolalar o‘z otasi kabi va qiz bolalar o‘z onasidek «ota», «ona», «er», «xotin» bo‘lishni maqsad qiladilar. Chunki yoshlar ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘luvchi, bir-birlari bilan nizolashib

turuvchi er-xotinlarni ko'rmagan bo'ladilar. Mabodo bunday vaziyatlar va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa ham ularning ota-onalari bu holatni farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali ahil-inoq, baxtli oilalar haqida berib boriladigan materiallarda ham aksariyat hollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama, faqat yaxshi tomondan ko'rsatish an'analari mavjud. Bularning hammasi o'g'il-qizlarda oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tushunchalarning shakllanishiga asos bo'ladi.

Asosiy qism .Nizo bu kelishmovchilik, fikrlar xilma-xilligi demakdir. Nizo qachon kelib chiqadi? Qachonki ikki kishining fikri, xohishlari bir-biri bilan tutashmasa. Yana shunday nizo turlari borki, bunda er yoki xotinning ishtirokisiz, ya'ni ular istamagan holatda, tashqi ta'sir natijasida sodir bo'ladigan nizolar. Jumladan yosh oilalarda uchrab turadigan qaynona aralashishi hodisasi ham bunga misol bo'la oladi. Psixologlarning fikricha, vaqt o'tishi bilan to'plangan yoki o'z - o'zidan paydo bo'lgan salbiy his -tuyg'ular va to'qnashuvlar ham ziddiyat uchun asos bo'la oladi. Ko'pchilik uchun, deyarli har qanday tushunmovchilik va ziddiyatni tinch yo'l bilan, haqoratli so'zlarsiz va baland yig'lamasdan hal qilish ajablantirishi mumkin. Buning uchun eng asosiy narsa - bu sodir bo'layotgan voqealarning psixologik mohiyatini tushunish va, o'z o'rnida, ziddiyat qilmaslikni xohlash. Faqat o'zini bosib olgan, psixologik kuchli insonlargina bu ishga qodir bo'ladi. Yana bir muhim holatni ajratib ko'rsatish mumkin: agarda nizo kelib chiqsa, u holda bu yoqimsiz vaziyatning har bir ishtirokchisi ikkinchisini ayblaydi, lekin kamdan-kam insonlar o'zini anglay boshlaydi.

Jamiyatda, shu jumladan yosh oilalarda kuzatiladigan har qanday nizoning o'ziga yarasha sababi bo'ladi. Lekin sababni bahona bilan adashtirmasligimiz lozim, chunki har qanday narsa, har qanday mayda-chuyda detal mojaroning sababi bo'lib xizmat qilishi mumkin, lekin haqiqiy sabablar aslida ozroq bo'lishi mumkin. Yosh oiladagi nizolarning asosiy sabablarini uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchidan, yosh oilada er yoki xorin qandaydir ma'lumot olishni, nimanidir bilishni xohlaydi va bu ma'lumotni bilish yo'lida nizoga boradi. Ammo bu ma'lumot uchun kurashishdan oldin, ular haqiqatan ham kerakmi yoki yo'qmi, shu ma'lumot uchun nizoga borish kerakmi-yo'qmi, yaxshilab o'ylab ko'rish lozim.

Ikkinchidan, nizolar ko'pincha biror narsani o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi, ayniqsa xatti-harakatni o'zgartirish borasida. Yosh oilada erga o'z ayolining qaysidir xatti-harakati yoqmasligi, uni o'zgartirishga harakat qilishi va shu natijasida nizolar kelib chiqishi mumkin, yoki aksincha.

Uchinchidan, uyning asosiy hokimini, yetakchisini, egasini aniqlash uchun yuzaga keladigan nizolar. Ya'ni, aynan shu vaziyatda paydo bo'ladigan ziddiyat kim kuchli ekanligini ko'rsatishi kerak. Yosh oilalar hayotining ilk bosqichida yetakchilik uchun kurashga kirishishi mumkin. Ba'zida ayollar tabiiy hokim bo'lmish erkaklar ustidan hukmronlik qilishga harakat qilishadi. Yosh oilalar orasida bu turdagi nizolarni ko'plab uchratish mumkin. Bu holatda o'ylab ko'rish lozim. Agar yosh oiladagi munosabatlar inson uchun qadrli bo'lsa, u atrofda qo'rquv muhitini yaratmaydi, chunki qo'rquv boshqa barcha his-tuyg'ularni o'ldiradi.

Yosh oilalarda uchraydigan nizolar tarkibiga ko'ra aniq va noaniq turlagiga bo'linadi. Aniq nizo o'z nomi bilan ma'lum, ochiq nizolar. Bunga misol qilib xotinning er so'ziga kirmasligi, er o'z va'dasida turmasligi va hokazoni keltirish mumkin. Noaniq nizoning yechimi o'ziga yarasha murakkab kechadi. Chunki shunday muammolar bo'lishi mumkinki, yosh oiladagi er o'z ayoliga uni ayolmasligi va natijada tushunmovchiliklar ildiz otishi mumkin. Bu holatda yosh oila a'zolari muammoning yechimini izlashlari, asabiylashmagan holda fikrni bir joydan chiqarib, bomaslahat ish ko'rishlari maqsadga muvofiq.

Yuqoriga ko'rib chiqilgan muammoli vaziyatlar, ehtimoliy nizolarni tahlil etgan holda nizolarni hal qilishning quyidagi yo'llarini taklif etish mumkin:

-avvalo yosh oilada yaqqol rahbarning bo'lishi, uni aniqlab olish;

-nizoga yetaklovchi muammoni ko'ndalang qo'yish va uni "stol atrofida" hal etish;

-munozara bilan hal bo'lmaydigan nizo chiqqanda sukut saqlashni bilish;

-har qanday holatda ham ertangi kunda bugungi aytilgan gaplar uchun afsuslanib qolmaslik tamoyilida ish ko'rish va hokazo.

Psixologlar yosh oilalarda ziddiyatlar bo'lib turishini normal holat deb hisoblasada, bunday holatlardan imkon qadar qochishga, muammoni yengil yo'llar bilan hal etishga harakat qilmoq lozim. Mamlakatimizda davlat miqyosida, mahallalar miqyosida yosh oilalarga yuksak e'tibor berilmoqda. Yosh oilalarda ziddiyatlar paydo bo'lgan holatda ularga moddiy, ma'naviy, ijtimoiy yordamlar ko'rsatilmoqda. Davlatimiz sud tizimida ham oilalarning ajralib ketishiga qarshi choralar ishlab chiqilgan. Jumladan, ajralmoqchi bo'lgan oilalarga sinov muddati berilishi, tezlik bilan ajralish imkonsizligi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonining 70-sonli maqsadi sifatida Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish keltirilgan. Farmon doirasida yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish belgilab berildi.

Albatta, yosh oilalarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ham ular uchun ulkan insonparvarlik yordami hisoblanadi. Uy-joysiz oilada, albatta, bu bilan bog'liq tushunmovchiliklar, qiyinchiliklar, nizolar kelib chiqish ehtimoli yuqori bo'ladi. Prezidentimiz imzolagan Farmon ushbu muammolarni bartaraf etib, yosh oilalarda tinchlik-farovonlikni ta'minlash, o'zaro nizolarning oldini olish oliy maqsad etib olingani tahsinga sazovor.

Adabiyotlar:

H. Makkubbin, "Stress va oila: Normativ o'tishlar bilan kurashish". Nyu-York: Bruner / Mazel. (2003).

S. Pavlina. "Oilaviy munosabatlardagi muammolarini tushunish". (2016).

V. V. Kunitskaya. "Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo'llari" Ijtimoiy o'qituvchi . (2017).

www.lex.uz

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING O'RNI

Sherzod Qoraboyev,

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchi tarixiy hodisa-voqealar, tarixiy sahna-manzaralarni chuqur anglashi uchun unda ijodkorlik ruhini uyg'otish.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, mehr-oqibatli, tarix, globallasuv, muhabbat tuyg'ularini, aql-idrok .

Аннотация: Пробудить в статье дух творчества, чтобы читатель мог глубоко понять исторические события, исторические сцены и пейзажи.

Ключевые слова: национальная ценность, доброта, история, глобализация, чувство любви, интеллект

Abstract: To awaken the spirit of creativity in the article so that the reader can deeply understand historical events, historical scenes and landscapes.

Key words: national value, kindness, history, globalization, feelings of love, intelligence

Mustaqillik sharofati tufayli o'zligimizni anglash, dinimiz va milliy qadriyatlarimizni yana hayotga qaytarilishi ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini sharqona uslubda hal etilishiga imkon beradi. Boy ma'naviy merosimiz asosida yoshlarni iymonli, e'tiqodli, mehroqibatli, sahovatli, muruvvatli qilib ulg'aytirish lozim. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har qanday e'tiqod diniy bo'lavermaydi, ammo din ham e'tiqodni o'ziga xos ko'rinishi sifatida jipslashtiruvchi xususiyatga ega. Diniy e'tiqod – bu inson irodasidan yuqori turgan zotga iymon keltirish, undan madad olish, muqaddas kitoblar, payg'ambarlarning qayta tirilishi kabilarga ishonch demakdir. Bironbir dinga e'tiqod qilish faqat shu jamoa oldidagi mas'uliyat hissini tarbiyalasa, aql-idrok tantanasi davri kelishiga ishonch – e'tiqod butun jahon afkor ommasi, inson zoti oldida mas'uliyatli qilib qo'yadi. Yoshlarda ijtimoiy qadriyatlarga, buyuk kelajakka, taraqqiyotga bo'lgan ishonchni ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga bo'lgan e'tiqodni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Insonni ulug'lash, undagi yuksak fazilatlarni kuylash, ruhiy, ma'naviy pokligi haqida qayg'urish har bir tarixiy bosqichga xos bo'lgan intilishdir. Inson dunyoda eng murakkab, oliy mavjudotdir. Shuning uchun ham, uning qadr-qimmatini e'zozlash, turmushini yaxshilash, farovonligini oshirish, sog'ligini saqlash, madaniyat, bilim va saviyasini o'stirish, hayotini har tomonlama himoya qilish davlatimiz siyosatining markazida turibdi. "Mamlakatimizda oliy qadriyat – Insonni, uning millati, jinsi, irqidan qat'i nazar himoya qilish, uning holiga g'amxo'rlik qilib qayg'urish, turmushini yaxshilash, qobiliyatini namoyish etish uchun munosib shartsharoitlarni yaratish borasida katta ishlar qilinmoqda. Shu bilan birga, joylardagi ma'naviy-ruhiy muhitni yanada sog'lomlashtirish, milliy qadriyatlarimizga asoslangan ibratli an'analarimizni va islom dinining

insonparvarlik mohiyatini o'rganish, yurtdoshlarimiz qalbida ezgu tuyg'ularni uyg'otish, farzandlarimizda noyob insoniy fazilatlarni kamol toptirish, bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibatli bo'lish kabi ibratli xususiyatlarni millatimiz hayot tarzining uzviy va ajralmas bir qismiga aylantirish, odamlarimizning ongi, tafakkuri, ma'naviy dunyosi zamonga mosravishda o'zgarib borayotganligini hisobga olgan holda milliy uyg'onishi, milliy g'oyaning jamiyatimiz hayotiga chuqurroq kirib borishini ta'minlashga qaratilgan dolzarb vazifalarni amalga oshirish katta hamiyatga ega".

Jamiyat taraqqiyoti har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash uchun nafaqat zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, balki ma'naviy-ma'rifiy yetuklik, axloqiylikni har bir kishida tarbiyalashga ko'p jihatdan bog'liq.

Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta'lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta'lim-tarbiya yotadi. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, o'zaro hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda quyidagi fikrni bildirganlar: "Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi...Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir"

Bugungi kunda qobiliyatli, bilimli, ma'naviy, axloqiy jihatdan kamolotga yetgan, mustaqil fikrlay oladigan, xalqining ravnaqi uchun xizmat qilishga bel bog'lagan, fidoiy insonlar juda ko'p. Ular Vatanga sadoqatli bo'lish, milliy davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, xalq madaniyati, ma'naviyati, ma'rifatini yanada rivojlantirish kabi muhim masalalarni hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganlar.

Demak, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularda ona yurtiga muhabbat tuyg'ularini, uni himoya qilish, avaylab-asrashga qaratilgan intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilib, ma'naviy komillikka erishuvda asosiy va belgilovchi omil vazifasini o'taydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligi yosh va mustaqil mamlakatimiz xalqining bukilmas irodasi, matonati, kelajakka va yurt istiqboliga ishonch g'oyalari bilan mujassamlashib, uyg'unlashib ketmoqda. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, mamlakat barqarorligi, tinchligi va xavfsizligini ta'minlash ishlarida kishilarimizga harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda globallashuv davrida yoshlarimiz ongida jamiyat va uning barqarorligi, xavfsizligi va istiqboli uchun mustahkam immunitet va bunyodkor g'oyaviy tamoyillarni yanada mustahkamlanib borish davr taqazosidir.

Demak, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularda onayurtiga muhabbat tuyg'ularini, uni himoya qilish, avaylab-asrashga qaratilgan intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash

ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilib, ma'naviy komillikka erishuvida asosiy va belgilovchi omil vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent: SHarq, 1998.

IJTIMOIIY ADOLAT – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING AMALDAGI MA'NAVIIY MEZONI SIFATIDA

Raximova Dilshoda Baxritdinovna,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarni o'rgatish milliy markazini ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida f.f.nom.
v.b.dot.*

Xidirov Xoshim Ibodullaevich,

Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. PhD.

Annotatsiya: Ushbu adolat tushunchasining kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi hamda hozirgi kundgi ahamiyati xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Maqolada jamiyat hayotining eng muhim tizimlaridan biri bo'lgan ijtimoiy adolat tushunchasining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyati, o'rni va roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, adolat, jamiyat, "Avesto", taraqqiyot, adolatsizlik, huquqiy davlat, adolatli jamiyat.

Jamiyat taraqqiyoti qanchalik rivojlangani sayin adolat, adolatlilik, adolatli jamiyat kabi tushunchalarga fuqarolarning ehtiyoji orta boradi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda bevosita adolatning ta'minlanishi, avvalo, fuqarolarning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada ortishiga olib keladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz barpo etayotgan huquqiy davlatda adolatsizlikning hech qanday shaklda ustun bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur".

Adolatli jamiyatning ko'zgusi bo'lgan qonunchilikka fuqarolarning rioya qilishlari, adolatni qaror toptirish borasida davlat tomonidan olib borilayotgan siyosiy islohotlardan ko'zlangan maqsad avvalo, jamiyatda tenglik tamoyilini ta'minlashdan iboratdir.

"Adolat" – (arabcha – "odillik", "to'g'rilik") – ahloq va huquqning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi va qonunning barcha insonlarga barobarligi bilan belgilanadi. "Adolat" turlicha talqin qilinadigan, xilma-xil tarzda namoyon bo'ladigan tushunchadir. Ba'zi ahloqiy-huquqiy me'yorlar ham adolat mezoni sifatida qaraladi. Bu, o'z navbatida, adolat

mezonlarining jamiyat rivojiga, insoniyat taraqqiyotiga, muayyan mamlakat qonun - qoidalariga mos yoki mos emasligi bilan belgilanadi.

“Avesto”da inson ijtimoiy mehnati tufayli barcha yomonlikdan, yovuzlikdan qutulishi mumkinligi g‘oyasi yotadi. G‘arazgo‘ylik, hasad, manmanlik, o‘g‘rilik, talonchilik, nohaqlik illatlari qoralanadi. Ushbu illatlarga qarshi kurashish jamiyatda adolat qaror topishiga olib kelishi qayd etiladi. “Haq so‘zdan o‘zga hech narsa to‘g‘risida o‘ylama, haq so‘zdan o‘zga hech narsa to‘g‘risida suhbatlashma, haqqoniy amaldan o‘zga hech narsa bilan shug‘ullanma”, - deb yoziladi “Avesto”da. Korrupsiyaga qarshi kurashda adolat mezonlari quyidagilardan iborat;

- Tarixiy (sharq mutafakkirlarining qarashlari)
- Insoniy (insonning qadr-qimmatini, sha‘ni, ulug‘lanish)
- Qonuniylik (qonun ustuvorligini ta‘minlash, huquqiy siyosat yuritish)
- Davlat va shaxs o‘rtasidagi muloqot (fuqaro va yuridik shaxslarning murojaatlari) kabi mezonlari mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashda adolat tamoyilining o‘rni va ma‘no-mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a‘zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o‘zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g‘amini eyishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o‘z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi. Davlat o‘z faoliyatida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat etadi, jamiyat a‘zolarining mol-mulki daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta‘minlaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda adolat haqidagi qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi uzluksiz davom etadigan ijtimoiy jarayondir. Bu jarayon millatning tarixiy merosidan oziqlangan holda davom etadi. Tarixiy-adabiy yodgorlik “Avesto”da: “...Inson o‘z fikri-xayolida ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yaxshi niyatli kishi darg‘azab bo‘lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi, “...chunki haqiqat, adolat egiladi, ammo sinmaydi...” – deb yozilganligi bilan xulosa chiqarishga asos yaratadi.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muxsiniy” asarida insonlarning odamiylik, samimiylik va boshqa go‘zal fazilatlarini egallash bilan birga adolatlilikka chorlagan. “Agar adolat himoya qilinmasa, zaif va kuchsiz odamlar yo‘qolib ketadi. Modomiki, zaiflar qirilib ketar ekan, kuchlilar ham omon qolmaydi, chunki kishilar turmushi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Xullasi kalom, xalqning ahvoli adolatga bog‘liq bo‘lib, usiz yaxshilanmaydi”.

Jamiyat taraqqiyotida kishilarning adolatni qay darajada tushunishlari va uning yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillariga bo‘ysunishlariga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Farzandlarning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma‘naviy mezon va qarashlar odillik va xaqiqatparvarlik, insof, nomus va vijdon, sadoqat va

oliyjanoblik, mehr-oqibat, andisha va sharmu–hayo, uyat kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila va mahalla muhitida shakllanadi. Tarbiya oiladan boshlanadi. Ona suti bilan kirgan hislatlar uzoq vaqt, hatto bir umr saqlanib qoladi. Oilada bolani oq ko‘ngil, sofdil ezgulik tarafdori qilib o‘stirish jarayonida u adolatli bo‘lib o‘sadi. Ammo shularga qaramay, oilada bolalarga adolat tuyg‘usini yaxshilik bilan uzviy bog‘liq holda singdirish zarur. Oilada bola yoki o‘smir adolatsizlik ko‘rganida, uni his etganida norozilik bildirish, adolatsizlikni yo‘qotishni talab qilishni o‘rganadi.

Istiqlol bizga ma‘rifiy, madaniy adolatli, insonparvar mustahkam oila va jamiyat qurish imkoniyatlarini yaratib berdi. SHarqning taniqli mutaffakkiri Nasriddin Tusiy ijtimoiy adolatning quyidagi uchta talabi haqida shunday degandilar:

Birinchi talabi aholi turli tabaqalarining o‘zaro uyg‘un bo‘lishini ta‘minlash;

Ikkinchidan, el-ulusning haq-huquqi teng ta‘minlangan holda, kishilarni xizmatga ta‘yinlashda shaxsning salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak;

Uchinchi talabi esa, barchaning teng farovonligini himoya qilib, bu farovonlikni amalga oshirishdagi xizmati va huquqiga qarab har bir inson o‘z ulushini olishga imkon yaratishdan iborat. Demak, bu talablar nafaqat jamiyat, ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va muassasalar miqyosida, balki, oila azolari va mahallalarda ham to‘liq amal qilmog‘i lozim. Masalan, oilada o‘zining dangasa, loqaydligi va qaysarligi bilan tug‘ishganlari ustidan xukmron bo‘lmoqchi bo‘lgan farzandni ota-ona adolat yuzasidan tanobini tortib qo‘yishi kerak. O‘zini tuta bilish, axloq–odobi, o‘qishi va mehnatining sifati, hatto salomatligini hisobga olib rag‘batlantirilsa, to‘g‘ri so‘z, halol, vijdonning pokligini e‘tiborga olish oilada adolatparvar inson tarbiyalashning muhim omillaridan hisoblanadi. Ota-onaning farzandlarni, farzandlar esa ota-onani chin dildan qadrlay bilishlari, o‘zaro hurmat va izzat-ikromda bo‘lishlari, bir-birlarining taqdirlariga befarq bo‘lmasliklari, oila manfaati uchun mardlik va jonkuyarlik bilan yondashuvlari haqiqiy ma‘naviy sog‘lomlik va adolatparvarlikni anglatadi.

Rahbar adolati va etakchilik mas‘uliyati, avvalo, uning har tomonlama salohiyatiga, tashabbuskorligiga, tadbirkorligiga asoslanishi zarur. Milliy ma‘naviyatimizning qadim udumiga ko‘ra rahbarning, yurt boshqaruvchining eng asosiy fazilati – adolat sanalgan. Bugun ham shunday. Ammo bugungi davrimizda adolat tushunchasi ilgari tasavvurlardan ancha farq qiladi. Bugun voqean adolatli bo‘lish uchun bir guruh insonlar jamoasini boshqarib borishni zimmasiga olgan odamdan ko‘p narsa talab etiladi. Rahbarlik mahorati va qobiliyatida katta mazmun bor. To‘g‘ri reja tuza bilish tez qaror qabul qilish, ishni vaqtida puxta bajara bilish hamda malakali mutaxasislarni tanlash va adolat doirasida ularga qulay sharoit yaratishni tashkillashtirish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi.

Rahbar aqlli va bilimli bo‘laolsagina, odob, axloq, qoidalariga rioya qila olsa, o‘z burchini odillik, halollik bilan bajara olsa, ma‘suliyatini anglab, o‘zaro kengash bilan faoliyat yurgizsa shundagina jamiyat istiqbolli bo‘ladi. Ilk o‘rta asrning buyuk mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiyning fikricha o‘zida 12 tug‘ma hislatni

birlashtirgan kishilargina aqlli hisoblanar ekan. SHulardan ikkitasi adolatga taaluqlidir. Aqlli inson o‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin, o‘z odamlari va boshqalarga adolatli bo‘lish, go‘zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ‘ib etadigan, adolatsiz oqibatlarini yo‘qotadigan, ularga yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lishi kerak. Har bir odam adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o‘zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo‘lsin, o‘zi zarur deb bilgan narsani amalga oshirishda qatiylik ko‘rsatsin, qo‘rqmas, jasur bo‘lsin, qo‘rqish va oqizlikni bilmasinlik ierak.

Albatta, mamlakatimizda ham bu illatga qarshi keskin kurashish choralari ko‘rilmoqda. Tadqiqotlar biror-bir illatga barham berishda eng samarali vosita illatning o‘zi bilan emas, balki sababi bilan kurashish ekanini ko‘rsatmoqda. Qaerda poraxo‘rlik avj olsa, o‘sha erda adolat ham, vijdon ham oyoq osti bo‘ladi. CHunki poraxo‘r o‘z vijdonini sotib, yomon odamni yaxshi deb maqtaydi va yaxshini qoralab jazolaydi. Poraxo‘r ta‘magirlar olimni, rahbarini, ishchimi, kim bo‘lishidan qat‘iy nazar, xalq boshiga bitgan balodir. Hayot o‘z yo‘lida davom etaveradi. Rahbarlar kelib ketadi, el xalq qoladi. Lekin, ana shu rahbar xalq ko‘nglidan o‘ziga joy topa oladimi, esda qoladigan biron hayrli ish qildimi? Odamlarning boshini qovushtirib, o‘zi ibrat bo‘lib, ularni ulug‘vor vazifalarni bajarishga safarbar eta oldimi? Har bir rahbar bu haqda doimo o‘ylashi, o‘ziga o‘zi savol berib ko‘rishi kerak.

Adolatparvar rahbarning ahloqiy hislatlari bemaolol qonun o‘rnini bosa oladi. Barcha bo‘g‘inlarda adolatli, insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbarlar etakchilikni o‘zining qo‘liga olmas ekan, davlatimizning mavqei, davlat manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan fidoiyi bo‘lib shakllanmas ekan ishlarimiz odatdagiday ketmaydi. Qolaversa, adolat va qonun ustuvorligi uchun uning talablarini hayotimizga joriy etish uchun birgalashib kurashmog‘imiz fidoiy bo‘lmog‘imiz kerak. Adolat va qonun kattayu kichik, jinsidan, millati, etiqodi va mansabidan qat‘iy nazar, barchamiz uchun ustuvor bo‘lmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 5.

2. Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. (Форс тилида). ЎЗР ФА Шарқшунослик институти кўлёмалар фонди. Инв№ 3020 “Адолат” боби. 51-52 саҳифалар.

3. http://www.adolatgzt.uz/news_latest/glavnaya-novosty/4228

4. <http://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/GLOSSARIJ-4.pdf>

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Adolat>

6. <https://xs.uz/uzkr/post/korrupsiya-va-millij-taraqqiyot-muammo-va-echim>

AYOLLARNING RAHBARLIK QOBILIYATI VA IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Raximova Gulbahor Valijonovna,

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Farg'ona viloyati
PYMO'MM Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri*

Annotatsiya. Bugun maktab ta'limida zamonaviy ayol rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini yaratish, zamonaviy maktab salohiyatini oshirishda rahbar kadrlarning imkoniyatlarini oshirish, bu jihatlar uchun ayol rahbar kadrlarini asosli tizimini yaratishda maqsadli ilmiy izlashishlar olib borish xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. inson kapitali, rahbarlik salohiyati, boshqaruv salohiyati, integratsiyalash, institutsional o'zgarish.

Annotation. Today, there was talk about creating a system of training modern female leaders in school education, increasing the capabilities of leaders in increasing the potential of modern schools, and conducting targeted scientific research to create a basic system of female leaders for these aspects.

Key words: human capital, leadership capacity, management capacity, integration, institutional change.

Аннотация. Сегодня речь шла о создании системы подготовки современных женщин-лидеров в школьном образовании, повышении возможностей лидеров в повышении потенциала современных школ, а также проведении целевых научных исследований по созданию базовой системы женщин-лидеров по этим аспектам.

Ключевые слова: человеческий капитал, лидерский потенциал, управленческий потенциал, интеграция, институциональные изменения.

Ma'lumki ijtimoiy hayotimizda ayollar faolligi kundan kunga oshib bormoqda. Ular yurtimizdagi har bir sohada jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Shu boisdan ayollarni rahbarlik qobiliyati va imkoniyatlarini rivojlantirishni hamda rahbarlik salohiyatini oshirishni vaqtning o'zi talab qilmoqda.

O'rganishlar natijalari mamlakatimizda tuzilmaviy va institutsional o'zgarishlar izchil davom etayotganini, gender tenglik sohasidagi qonunchilik takomillashtirilayotganini, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni va mavqei ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Bugun yuritimizda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish kabi masalalarni amalga oshirish va uning natijaviyligi ko'p jihatdan rahbarlarga, ularning boshqaruv sohasidagi professional mahoratiga bog'liq.

Shuning uchun rahbar kadrlarning rahbarlik salohiyatini oshirish va ularning fuqarolik jamiyatlari institutlari hamda odamlar bilan ishlay olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish zarur. Shu bilan birga jamiyat hayotida rahbar ayollarni ijtimoiy siyosiy faoligini oshirish, ularni qo'llab-quvatlashga doir

islohotlarni amalga oshirishda gender tenglikni taminlanishini vaqtning o'zi talab etmoqda.

Siyosiy partiyalarda xotin-qizlar ulushi 47 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlik faoliyatida esa 37 foizga yetdi. Rahbar lavozimlarda ishlayotgan ayollar ulushi – 33 foiz. Bugungi kunda 2 mingga yaqin davlat va jamoat tashkilotlariga ayollar rahbarlik qilmoqda. [7]

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, yuritimizda toboro ko'payib bormoqda ayollarni rahbarlik maqomida ko'rish. Ayni shu boisdan, bugungi kunda boshqaruv sohasi, rahbar ayol kadrlarni tayyorlash sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish o'ta muhim masala sifatida o'z natijasini kutmoqda. Mazkur sohadagi aniq natijalarga tayangan dasturlarni ishlab chiqish, aynan pedagogika va psixologiya fani oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalarni o'z ichiga oladi. Masalan, rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashda, boshqaruv turli sohalarida munosib nomzodlarni tanlay olish, ularning boshqaruv salohiyati va qobiliyatini adolatli baholash zarurati har doim alohida ahamiyatga ega.

Xotin-qizlardagi aniqlangan rahbarlik qobiliyati hamda shaxs imkoniyatlarini rivojlantirish esa, pedagogik va psixologik vazifalarning yana bir muhim jihati sifatida o'z ahamiyatiga ko'ra avvalgisidan qolishmaydigan masaladir.

Bugun zamonaviy maktab ta'limda zamonaviy rahbarlarga xos bo'lgan, keng dunyoqarash hamda fikrlashga ega, professional va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishda shaxsning xislat, fazilatlarini, uning tajribasi, mavjud bilim, ko'nikma, malakalarini hamda qobiliyatini integratsiyalash amaliyotini yuzaga keltira oladigan ayol rahbarlarni liderlik ko'nimalarini rivojlantirish zarurati tug'ilmoqda.

Bundan asosiy maqsad – o'zaro muvofiqlashgan ichki tizimga ega bo'lgan, yaxlit, bir butun ayol rahbar shaxsini shakllantirishdan iborat jarayonni talab etmoqda.

Bunday qobiliyat hamda malakani esa, muayyan tizimlashtirilgan ta'lim tadbirlari asosida rivojlantirish mumkin bo'ladi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda boshqaruv sohasida, ayol rahbar kadrlarni tayyorlash sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish o'ta muhim masala sifatida o'z natijasini kutmoqda.

Jamiyatimizda ayollarning faolligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi mavqei kamol topishi intensivligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 22-yanvar kuni bo'lib o'tgan xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ayol rahbarlar faoliyatiga alohida to'xtalib o'tib, "Biz hokimlikka saylangan rahbar ayollarimizga doim yordam beramiz, yelkadosh bo'lamiz. Bundan keyin ham katta tashkilot va kompaniyalar rahbarligiga ayollarni tayinlash tashabbusi davom etadi. Biz ularni tayyorlayapmiz. Kimlargadir bu ish yoqmas, lekin menga yoqadi", – degandi.

Nazarimizda, rahbar faoliyatini tahlil etuvchi ilmiy psixologik izlanishlarning aksariyat qismi aynan shu mavzuga tegishli. Bunda rahbarni eng mukammal shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun yordam beruvchi kouching texnologiyalardan tortib, jamoani ahil komandaga aylantirish treninglarigacha to'xtalib o'tish mumkin. Zamonaviy boshqaruvga e'tibor berilsa, bugungi tashkilotda eng ishonchli

va itoatkor boshqaruv ob'yekti sifatida faqatgina ofisdagi moslama va uskunalarni sanab o'tish qoldi. Bevosita boshqaruv ob'yekti sifatida tushuniluvchi xodimlar esa murakkab boshqaruv jarayonining "ehtimoliy" elementiga aylangan.[3]

Mutaxassislar fikricha, zamonaviy maktab direktorining imiji 4 ta omil asosida baholanadi, – deydi J.Smetana. – Bular reaksiya, bilim, xulq-atvor va ta'sirdir. Dunyo tajribasida tan olingan, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim yurtimizda izchil tatbiq etilayotgani quvonarli hol. Menejerlik mashg'ulotlarimiz ta'limda menejment bo'yicha hududiy trenerlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa ta'limi tizimida menejment konsepsiyasini shakllantirishga ko'maklashishi shubhasiz.[8]

Shu bilan bir qatorda ayol rahbar kadrlarimizda liderlik ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur. Shu o'rinda, liderlik so'zining mazmuniga to'xtalib o'tsak. Liderlik – tabiiy va ijtimoiy-psixologik voqelik, moyillik bo'lib, ma'lum vaziyatlarda o'zini namoyon etadi. Mukammal ishlashga hissa qo'shadigan xatti-harakatlari va yetakchilik fazilatlari – bu, liderlik kompetensiyasi. Liderlik yondashuvidan kompetensiyalarga asoslangan holda, maktab ta'limida liderlarning keyingi avlodini yaxshiroq aniqlashi va rivojlantirishi mumkin. Liderlik sifatlarisiz liderlik kompetensiyasilari shakllana olmaydi. Ko'plab pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarni tahliliy o'rganishlaimiz natijasida 3 ta tayanch liderlik sifatleri ajratib olindi, Nazarimizda, bu kabi sifatlar samarali liderlikning asosini tashkil etadi va ularsiz lider shaxsini tasavvur etib bo'lmaydi. Bular: Rivojlangan emotsional intellekt; Kommunikativ qobilyatlar; Tashkilotchilik qobilyati. Bu sifatlar liderga jamoadagi munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, o'z ishini rejalashtirish, jamoa oldiga maqsad va vazifalar qo'yish, shuningdek, ularga erishish imkonini beradi. Nuqtai-nazarni erkin ifoda etish, o'zaro hurmat, ijodkorlik, atrofdagilarni o'z ustida ishlashga bo'lgan ishtiyoqi, mana shu iqlim liderlik kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday muhitni yaratishga quyidagi faktorlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi: 1. Oilaning madaniy an'analari. 2. Muloqot uslubi, ko'cha bolalar muhitidagi birinchi kommunikativ malakalar. 3. Ommaviy axborot vositalari. Liderlik kompetensiyasini rivojlanish jarayoni motivatsiya, liderlikka intilish, liderlik.

"Men-konsepsiya"ning shakllanganligi, shaxslararo sezuvchanlik va kommunikativ kompetentlikning rivojlanganligi, talabalarda rahbarlik va kasbiy o'zaro munosabat masalalarida kompetentligi kabi xususiyatlarning tarkib topganligi bilan belgilanadi. Talablarda liderlik sifatlarini rivojlantirishning asosiy g'oyasi – ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllanishi va liderlik potensialining aktuallashtirishi uchun maxsus tashkil etilgan sharoit yaratishdan iborat. Talabalarda liderlik sifatlarini tarkib toptirish o'z-o'zini anglash va kasbiy-shaxsiy rivojlanishning pedagogik diagnostikasi jarayonida ularni korreksiya qilish, trening metodlari mashg'ulotlarida tahsil oluvchilarda ijobiy liderlik tajribasini shakllantirish, kasbiy faoliyat va jamoaviy o'zaro munosabatning modellashtirilgan vaziyatlarida liderlik xulqini mustahkamlash kabilar orqali amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv muammosi psixologiya sohasidasida juda keng va atroflicha o'rganilgan. O'rganishlar natijasida, turlicha nazariyalar,

konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Shu nazriyalar va konsepsiyalarga tayanib, maktab ta‘limi tizimida ayol rahbar kadrlarini liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Buning uchun mazkur nazariyalarga tayanib, ayollarda rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan, o‘ziga xos maktabini yartish lozim. Maqsadimiz, ilmiy izlanishlarimiz, kasb sohasidagi yuqori malakali ayol rahbarni liderlik darajasiga ko‘tarilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b. “Oriental Art and Culture”.
2. Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir. “Yangi asr avlodi”. Toshkent – 2016. 134-b.
3. Haydarov A. Madaniyat va san‘at sohasini boshqarish asoslari. O‘quv qo‘llanma. “Kamalak” nashriyoti, 2019. 192-b.
4. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. – Toshkent: 2005. – 170
5. Тиллаев О. Аёл лидер: Плюс ва минуслар нималардан иборат? <https://kun.uz/news/2020/03/08/ayol-lider-plyus-va-minuslar-nimalardan-iborat>.
6. N.Nishonova. Davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari. “Extremum-Press” bosmaxonasi. Toshkent –2013. 84-b.
7. <https://www.xabar.uz/uz/infografika/davlat-boshqaruvidagi-top-40>
8. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3060.htm>

NOTO‘LIQ OILALARDA QIZ FARZANDLAR TARBIYASIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR

Shahzoda RUSTAMOVA,

Farg‘ona viloyati PYMO‘MM o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada jamiyatda noto‘liq oilalarning ko‘payishi, unda voyaga yetayotgan qiz farzandlardagi xarakterida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy xarakter xususiyatlari va ularni oldini olish haqida fikr yuritilgan. Jamiyatning og‘riqli nuqtasi hisoblangan noto‘liq oilalar paydo bo‘lishining oldini olish va unda voyaga yetayotgan qiz farzandlarda kelajakdagi o‘zlari quradigan oilalarga nisbatan ijobiy tasavvurlar shakllantirish dolzarb masaladir.

Kalit so‘zlar: noto‘liq oila, to‘liq oila, o‘smir va o‘spirinlar, noto‘liq oila qizlari, yolg‘iz ona, salbiy xususiyatlar.

Аннотация. В этой статье мы расскажем о том, как определить, является ли ваш ребенок предком, а не предком, и как определить, является ли ваш ребенок предком, а не предком, и если да, то как определить, является ли ваш ребенок предком, а не предком, и если да, то как определить, является ли он предком, а не предком, и если да, то как определить, является ли он предком,

и если да, то как определить, является ли он предком, и если да, то как определить, является ли он предком, и если да, то как определить, является ли он предком, и если да, то как определить, является ли он предком, и если да, то каким предком. В ходе встречи стороны обсудили вопрос о том, как можно улучшить отношения между двумя странами, чтобы улучшить отношения между ними.

Ключевые слова: неблагополучная семья, полная семья, подростки и отроковицы, девочки из неблагополучных семей, мать-одиночка, негативные характеристики.

Annotation. In this article, we will talk about how to determine if your child is an ancestor and not an ancestor, and how to determine if your child is an ancestor and not an ancestor, and if so, how to determine if your child is an ancestor and not an ancestor, and if so, how to determine if he is an ancestor and not an ancestor, and if so, how to determine if he is an ancestor, and if so, how to determine if he is an ancestor, and if so, how to determine if he is an ancestor, and if so, how to determine if he is an ancestor, and if so, how to determine if he is an ancestor, and if so, what kind of ancestor. During the meeting, the parties discussed how to improve relations between the two countries in order to improve relations between them.

Key words: dysfunctional family, full family, teenagers and adolescents, girls from dysfunctional families, single mother, negative characteristics.

Hech kimga sir emaski, oilaning buzilishi, noto‘liq oilalarning ko‘payishi zamonaviy jamiyatning o‘tkir, dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi vaqtda qaysi bir mamlakatni olib qaramang, hammasida ham ajralishlar sonining tez o‘sishi kuzatilmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan har beshinchi oilada ota-onalarning biri yo‘q.

Har bir davrlarda ham, har bir millatda ham qizlar tarbiyasi birinchi o‘rinda turgan va ustivor ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida, “Ta‘lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko‘tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz”, deb bolaning yorqin kelajagi nafaqat ota-ona, ta‘lim muassasasi xodimlari, balki butun jamiyatning burchi ekanligini ta‘kidlab o‘tdi. Shu bilan birga, onalar haqida ham o‘z fikrlarini bayon qilar ekanlar, jumladan, shunday dedi: “Onalarimiz tufayli oilalarda saranjomlik, sarishtalilik hukm suradi. Ular bor-ki, Vatanimiz tuprog‘i jannat bog‘laridek go‘zal va mo‘tabardir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor”.

Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo‘lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Xuddi shunday,

mamlakatimizda ham oila va uning mustahkamligi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'liq bo'lmagan, ya'ni noto'liq oilada bola tarbiyalashning hayoti va shartlari aniq xususiyatlarga ega va to'liq oiladagi bolaning hayotidan sezilarli darajada farq qiladi. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat tufayli yuzaga kelgan salbiy jarayonlar, ayniqsa, noto'liq oilalar farzandlarini tarbiyalashda yaqqol namoyon bo'ladi. Yolg'iz ota-onalar duch keladigan moliyaviy qiyinchiliklardan tashqari, ona bir vaqtning o'zida ikkala – onalik va otalik pozitsiyasini anglay olmaydi. Ota-onalarning ajralishi, bunday oilalardagi beqaror, ziddiyatli munosabatlar uslubi erta sotsializatsiya sharoitlarini buzadi, neyropsixiatrik kasalliklarning sababi, antisotsial xatti-harakatlar uchun xavf omili, shaxsiy deformatsiya, bolaning ijtimoiy muhit bilan munosabatlari muammolariga hissa qo'shadi.

Bolani ona tarbiyalagan oila shu qadar odatiy holga aylanib qolgan-ki, bugungi kunda psixologlar va sotsiologlar "to'liq bo'lmagan oila" haqoratli atamasidan qochishga harakat qilib, uni siyosiy jihatdan to'g'ri "noan'anaviy" yoki "noto'liq" nomi bilan almashtirdilar.

Bugungi kunda bolalarni otasiz tarbiyalayotgan onalar o'ziga xos ijtimoiy me'yorga aylandi. Ehtimol, "yolg'iz onalar" atamasi turli mamlakatlarda noaniq qabul qilinadi. Misol uchun, buyuk Britaniyada, shuningdek, Rossiyada ham bu atama, bitta farzand ko'rgan va yolg'iz o'zi uni katta qilayotgan, hech qachon turmushga chiqmagan ayollar toifasiga qo'llanilar ekan.

Shu bilan birga, turmush qurmagan va yolg'iz farzand tarbiyalayotgan ayollarni o'z ichiga olgan "yolg'iz ona" tushunchasi bilan bir qatorda, bolalar umuman ota-onasiz, bobo va buvilar yoki boshqa qarindoshlar bilan yashaydigan to'liq bo'lmagan oilalar ham mavjud. Qoida tariqasida, oxirgi holat bolalar uchun yanada noqulayroqdir. Sababi bunday bolalar ota-onasi bilan birga yashagan oilasining to'liq parchalanishi (ikkala – ota-onaning o'limi, ularning ajralib ketishlari va boshqa oila qurishlari natijasida farzandlar arosat oraliqda qolib ketishlari va yoki ajrashib ketgan, bolasi onasi qo'lida qolib ketgan, keyinchalik onaning o'limi) yoki yolg'iz ota, yo onaning ota-onalik huquqidan mahrum qilinishlari, yolg'iz onalar yoki otalarning o'zlari farzandlarini tarbiyalashni xohlamasliklari bilan bog'liq va ularni tarbiyalash uchun boshqa farzand talab ota-onalarga topshirilishi natijasida bola oilasidan butunlay ajralib qolganligidan turli noqulay sharoitlar kelib chiqishi mumkin.

Noto'liq oilaning muammosi shundaki, bola bo'lmagan odamda ko'pincha ota-onaning faqat bitta roli bor yoki faqat jazolash, yo faqat rag'batlantirish. To'liq bo'lmagan oiladagi bolalar yerkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarni kuzata olmagani uchun, ular bu munosabatlarning yaxlit modeliga yega bo'lmasdan o'sadi. Kelajakda ular uchun o'z munosabatlarini o'rnatish yanada muammoli bo'ladi.

Noto'liq oilada ta'lim olish imkoniyatlari cheklangan ham cheklangan, bolalarni nazorat qilish qiyin, otaning yo'qligi bolalarni oilaviy munosabatlarning turli xil variantlari bilan tanishish imkoniyatidan mahrum qiladi. Bu kelajakda

taqlid qilinishi mumkin bo'lgan kattalar jinsiy xulq-atvorining yetishmasligi bilan bog'liq. Namuna sifatida obro'li otaning misolidan foydalanib, o'g'il bolalar erkak shaxsini shakllantiradilar. Qizlarning otasi bilan aloqasi erkak qiyofasini shakllantirishga yordam beradi. Otasining yo'q qiz bolada eng yaqin misolda erkak xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish imkoniyatiga ega emas va beixtiyor u o'z tasavvuridagi erkak xususiyatlarini qabul qiladi. Va qiz uchun bu vaziyatda ona o'zining onalik rolini va yo'q otaning rolini birlashtirishga majbur bo'ladi. Otasi yo'q oilada erkakning qiyofasi buzilgan bo'lib chiqadi – qashshoqlashgan yoki aksincha, idealizatsiya qilingan, bu keyinchalik erkak bilan shaxsiy munosabatlarni soddalashtirishga yoki yengib bo'lmaydigan qiyinchiliklarga olib keladi. Farazimizcha, otasiz oilaning salbiy tajribasiga asoslanib, kelajakda to'liq bo'lmagan oilalarning qizlarida turmush o'rtoqlari osonroq kechadi. Noto'liq oilalar qiz farzandlari, to'liq oilalar qizlaridan farqli o'laroq, qo'zg'aluvchanlik, itoatkorlik, yumshoqlik, sezgirlik, depressiya, tashvish kabi biroz aniqroq fazilatlarga ega, ular kamroq beparvo. Ular ko'pincha oilaviy vaziyatda katta norozilikni namoyon etadilar. Ular o'zlarini odamovi, agressiv va behalovat tutadilar.

Olimlar ajralishdan keyin bolalarda kognitiv munosabatlarning pasayishini, akademik ko'rsatkichlarning pastligini va yutuqlarga intilishning zaif ifodasini qayd etishadi.

Noto'liq oilada o'smir deyarli e'tibordan chetda qoladi va shuning uchun unga salbiy misollar ta'sir qiladi. Noto'liq oilada aniq kun tartibining yetishmasligi, bolalarning tartibsiz, beparvo bo'lishiga olib keladi. Ba'zi xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishiga bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olmaslik ham ta'sir qiladi. SHuni ta'kidlash lozimki, oila a'zolari qizlarda xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishiga har doim ham o'z vaqtida munosabat bildirmaydilar, bu ularning kamchiliklari. Ayni paytda, siz ular bilan kurashishni qanchalik tez boshlasangiz, ularni yo'q qilish osonroq bo'ladi.

Qizlarning xarakteridagi kamchiliklarni ortiqcha baholash yoki kam baholash ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Shunday qilib, to'liq bo'lmagan oilalarning ayrim vakillari o'ta injiqlik yoki intizomsizlikni, o'smirlarning vazminligini ularning asabiyligi bilan tushuntirishga moyildirlar. Bu holat qizlarda ushbu kamchiliklarning kuchayishiga va ruxsat berish tuyg'usining paydo bo'lishiga yordam beradi. Ko'pincha ular to'g'ridan-to'g'ri e'tiroz bildirishadi: "Menga tegmang – men asabiyman!".

Ko'pincha qizlarning o'zlari o'zlarining fe'l-atvor xususiyatlarini noto'g'ri baholaydilar, Iroda uchun o'jarlik, rostgo'ylik va jasorat uchun, to'g'rilik uchun qo'pollik, mag'rurlik va o'z-o'zini hurmat qilish uchun takabburlik kabi. Ba'zilar hatto xarakterining kamchiliklarini anglab, ulardan xalos bo'lishni xohlamaydilar.

Xarakterdagi kamchiliklar inson xatti-harakatlarining doimiy salbiy shakllaridir. SHuning uchun, o'spirin qiz xarakterining kamchiliklari haqida gapirishdan oldin, o'tgan vaziyatlardan kelib chiqadigan yepizodiklikka emas, balki ularning barqarorligiga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun qizaloqlarning xatti-harakati boshqa muhitda va boshqa vaqtda kuzatilishi kerak. Ammo ma'lum

bir salbiy belgi unga aniq va doimiy ravishda xos bo'lsa ham, biz unga bu haqda kategorik shaklda aytmagimiz va uning e'tiborini, masalan, negativizm mavjudligidan ko'ra, undagi negativizmning takroriy holatlari va salbiy natijalariga qaratishimiz yaxshiroqdir. Aks holda, bu kamchilikni yo'q qilish imkoniyati mavjud emasligiga qizlarda ishonch paydo bo'lib qolishi mumkin. Tan olish kerakki, barcha individual xususiyatlar insonning xarakterini emas, balki faqat yeng muhimlarini ifodalaydi. Odatiy xarakterdagi kamchiliklar toifasida ikki tur mavjud: uning ishida va o'zidagi boshqa odamlarga bo'lgan munosabatida. Birinchi tur – dangasalik, passivlik, tartibsizlik, qat'iyatsizlik. Ikkinchi tur – xudbinlik.

Noto'liq oilalar qizlarining sanab o'tilgan kamchiliklarini batafsil ko'rib chiqamiz. Xarakterdagi kamchiliklarning birinchi turi dangasalikdir. Dangasalik ishlash va o'qish istagi yetishmasligida namoyon bo'ladi. Ko'p sabablarga ko'ra, dangasalik haqli ravishda bolalar va kattalarning xarakteridagi eng katta nuqsoni hisoblanadi. Birinchidan, jamiyat mehnatga asoslanadi. Bozor iqtisodiyotiga ega zamonaviy mamlakatlarning taraqqiyoti erkin ijodiy va yuqori samarali mehnatni rivojlantirmasdan, ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin emas. Va bu yoshligidan mehnatsevarlikni tarbiyalashni talab qiladi. Ikkinchidan, mehnat va ta'lim faoliyati insonning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun zarurdir. Mehnat, hatto davolash vositasi sifatida ham qo'llanilishi ajablanarli emas. Uchinchidan, mehnatsevarlikdan mahrum bo'lgan bola kattalar dunyosiga, mustaqil hayotga moslashishmaydi. To'rtinchidan, bolaning mumkin bo'lgan tizimli mehnatga bo'lgan ehtiyojining yo'qligi uni hayot quvonchidan mahrum qiladi va ko'pincha shaxsiyatning tanazzuliga olib keladi. Uzoq vaqtdan beri bekorchilik barcha illatlarning onasi, deb aytilishi ajablanarli emas. Dangasa bolalarga tarbiyaviy ta'sir qilish uchun ularning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish kerakligini bilish muhimdir. Ayniqsa, o'smirlar uchun o'qish, yosh bolalar uchun mashg'ulot va "siqilish" degan fikrni yengib o'tish, shuningdek, ularga maktabdagi darslarda voyaga yetishlarini ko'rsatish imkoniyatini berish muhimdir. Passivlik noto'liq oilalar farzandlarining xarakterdagi nuqsonlardan biridir. Pedagogik psixologiyada "passiv" odatda faol, salbiy belgi bilan faolning aksi sifatida talqin etiladi. Tegishli adabiyotlarni o'rganib chiqib, biz bolaning passivligining asosiy sabablari intellektual faollikning pasayishi, jismoniy salomatlik yetishmovchiligi, rivojlanish nuqsonlari, degan xulosaga keldik.

Shunday qilib, ota-onalarning roli juda ko'p qirrali va erta bolalik davrida bolaning shaxsiyatini shakllantirishda aks yetadi. Ota-onalardan birining (bu holda, otaning) yo'qligi bolaning aqliy rivojlanishining buzilishiga, uning ijtimoiy faolligining pasayishiga, shaxsning deformatsiyasiga va gender-rolni aniqlash jarayonining buzilishiga olib keladi. Shuningdek, xatti-harakatlardagi turli xil og'ishlar va ruhiy salomatlik buzilishi ham kuzatilishi mumkin. Bularning barchasi qizlarning keyingi shaxsiy va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.2021. 247-б.
2. Каримова Василя Маманосировна, Файибова Наргиза Анорбаевна. Оила психологияси. Тошк. – 2022. 3-б.

3.Адлер А. Воспитание детей. Взаимодействие полов (перевод с англ. А.А.Влеева, Р.А. Валеевой) / А. Адлер. – Ростов н/Д.: Феникс, 1998. – 448с.

4.Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование / Ю.Е. Алешина. – 2-е изд. - М.: Независимая фирма «Класс», 2005. – 208с.

5.Алмазов Б.Н. Психология проблемного детства / Б.Н.Алмазов. – М.: Дата Сквер, 2009. –248с.

6.Дементьева И. Негативные факторы воспитания детей в неполной семье // Соц. б.исслед. – 2001. - № 11. – С. 108-118.

7.Драгунова Т.В. «Кризис» объясняется по разному / Т.В.Драгунова, Л.М. Семенюк. – М.: Институт практической

O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Soliyev Oybek Farhodjonovich,

*Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
v.b dotsenti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagog- o‘qituvchilarni zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish va ta‘lim tizimida qo‘llay olish ta‘lim jarayonida innovatsion muhitni yaratish borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. professionalizm, Innovatsion pedagogika, aspekt, individual, facilitator, psixologik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi. Bu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib qilmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lolmaymiz”, - deya ta‘kidlaydi.

Hozirgi davr ta‘lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. “Innovatsion pedagogika” termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G‘arbiy Yevropa va AQShda paydo bo‘lgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg‘or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta‘limdagi o‘zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning “Hayoti va faoliyati” uchun zarur bo‘lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan. Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta‘lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e‘tibor yanada kuchaytirildi. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda

innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Ta'lim tizimidagi islohotlar hamda qadriyatlarning o'zgarishi pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv va texnologiyalarni faol joriy etishni taqozo etmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo'ymoqda. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning ilmiy-metodik tayyorgarligini shakllantirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish mazkur jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'qitish tizimini takomillashtirishning asosiy sharti ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning bilim darajasi, ilmiy dunyoqarashining shakllanganligi hamda kasbiga xos ko'nikma va malakalarni tarkib topganligi bilan ham belgilanadi.

Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'lim insonning umumiy madaniyati va kasbiy tayyorgarligi darajasiga emas, balki uning shaxsiy kamolotga erishishiga ham bog'liq bo'lgan muhim sohadir. O'quvchi shaxsini o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda ma'lum qoliplarni, stereotiplarni rad etish bilan bog'liq bo'lgan innovatsion pedagogik faoliyat mavjud standartlar doirasidan tashqariga chiqadi, o'qituvchi faoliyatining shaxsiy-ijodiy, individual yo'nalishini, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi yangi pedagogik texnologiyalar uchun yangi me'yorlarni yuzaga keltiradi. Unda o'qituvchi o'zini ijtimoiy innovatsiyalar tashuvchisi sifatida chuqurroq namoyon etadi. Innovatsion faoliyatni ta'minlash bir qator muammolarni o'rganishni, shu jumladan innovatsion faoliyatni kengaytirish zaruriyatini belgilab beruvchi ijtimoiy-madaniy va ma'naviy omillarni va uni amalga oshirishga qodir o'qituvchi shaxsining yangi ijtimoiy turini tadqiq etishni o'z ichiga oladi;

shu munosabat bilan pedagogik professionalizm rivojlanishining xususiyatlari va ommaviy amaliyotda uning innovatsion salohiyatini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, ilmiy yangiliklarni ommaviy amaliyotga o'tkazish bo'yicha metodologik tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Innovatsion faoliyat – amalda mavjud bo'lgan va endigina paydo bo'lgan amaliyot normalarining to'qnashuvi yoki an'anaviy talablarning yangi umidlarga mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan murakkab muammoni hal qilishga qaratilgan faoliyat. Bu holda innovatsiya o'zini oqlaydi, qolaversa, zarur sanaladi. Ushbu faoliyatning innovatsion tajribasidan boshqalar ham foydalanish imkoniga ega bo'lgach, innovatsion tajriba e'tirof etilib, uning madaniy rasmiylashtirilishi va uzatish mexanizmlari vujudga keladi. Innovatsion faoliyat to'laqonli rivojlanish jarayonida unga o'zaro bog'liq bo'lgan faoliyat turlarini tizimini taqozo etadi, ular jamuljamlikda chinakam innovatsiyalar paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining innovatsion faoliyatining mazmuni jiddiy farqlarga ega.

Birinchiidan, yo'nalishlarni ishlab chiqish faoliyati ancha murakkab, chunki uning texnologik asoslari jadal rivojlanmoqda. Bu o'qituvchidan maxsus mahorat, o'qitish usullarini rivojlantirishni talab qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot

texnologiyalari asosan o'quvchi va mutaxassislar tomonidan tayyorlanayotgan o'quv materiallari sifatiga qo'shimcha talablar qo'yadi, bu esa ushbu materiallar sifatini nazorat qilishni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyati shundaki, an'anaviy o'qitishdan farqli o'laroq, o'qituvchi markaziy figura bo'lmay, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanganda og'irlik markazi asta-sekin rivojlangan o'quv muhitida muayyan yo'nalishlarni tanlab, o'quv jarayonini faol ravishda shakllantirayotgan o'quvchiga beriladi. Xalq ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. O'qituvchining muhim vazifasi o'quvchini o'z faoliyatida qo'llabquvvatlash, uning behisob ma'lumotlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordam berish, keng va turli xil ma'lumotlarni o'zlashtirishga yordam berishdir. Shuning uchun, dunyo ta'lim hamjamiyatida yangi atama qo'llanilib, o'qituvchilar – facilitator – fasiliteytor – (hissa qo'shadigan, o'qitadigan, o'rganishga yordam beradigan) ushbu funksiyaning muhimligini ta'kidlagan.

Uchinchidan, o'quv materialini taqdim etish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni o'z ichiga olgan holda, sinfda o'qituvchilarning butun sinf bilan umumlashtirilgan mulohazasi ustun bo'lgan zamonaviy o'qitishda emas, balki ular o'rtasidagi faolroq va intensiv o'zaro munosabatlarni talab qiladi, o'qituvchining alohida o'quvchi bilan o'zaro munosabatlashuvi esa anchayin zaif.

Zamonaviy axborot texnologiyalari bunday o'zaro munosabatlashuvni ancha faollashtiradi, ammo bu o'qituvchidan maxsus qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab qiladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

yangi tasavvurlar va g'oyalarni yaratish va ishlab chiqarish qobiliyati, eng muhimi – ularni amaliy shaklda loyihalashtirish va modellashtirish;

shaxsning bag'rikenglik, moslashuvchanlik va xilma-xil fikrlashga asoslangan g'oyalardan farqli ravishda yangiliklarga ochiqligi;

madaniy va estetik rivojlanganligi va ilmliligi;

o'z faoliyatini takomillashtirishga tayyorlik, ushbu tayyorlikni ta'minlaydigan ichki vositalar va usullar mavjudligi;

pedagoglarning o'quv jarayoniga innovatsiyalar kiritilganda yuzaga keladigan psixologik to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati;

rivojlangan innovatsion ong (an'anaviy, innovatsion ehtiyojlar bilan taqqoslaganda innovatsion faoliyatning ahamiyati, innovatsion xatti- harakatlar motivatsiyasi).

O'qituvchining innovatsion xulq-atvorining muvaffaqiyati ko'p jihatdan madaniyatning ma'lum darajada rivojlanishiga, ijtimoiy va pedagogik muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyatiga bog'liq. O'qituvchining innovatsion madaniyatini shakllantirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ijodiy xulq-atvor namunalariga taqlid qilib, innovatsion faoliyatni ustalik bilan amalga

o'shiradi. Bunday taqlid qobiliyatining mavjudligi pedagogik faoliyatga kirishni osonlashtiradi, uning rivojlanish darajasini oshiradi, samaradorlikni va o'ziga xoslikni belgilaydi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining innovatsion faoliyati nafaqat kasbiy kompetentlikning axborot tarkibiy qismini kengaytirishga, balki o'qituvchining ta'lim pozitsiyasini o'zgartirishga, balki o'zini rivojlantirishni rag'batlantirishga ham qaratilgan bo'lib, bu innovatsion madaniyatni shakllantirishda juda muhim sanaladi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda ota-onalar hamda mahalla bilan hamkorlikni amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda mehnatsevarlik, sinchkovlik, ziyraklik, ishchanlik, mas'uliyatlilik kabi axloqiy sifatlarni qaror toptirishda pedagog-tarbiyachining o'rni beqiyos bo'lib, bunday mas'uliyatli vazifani ular oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'qish jarayonidayoq anglab yetishlari kerak.

Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'limda barcha faoliyat ko'rsatayotgan pedagog o'qituvchilar oldiga murakkab vazifalar qo'ymoqda. Shu bois, pedagog tarbiyachilarda ilmiy dunyoqarash va yuksak ma'naviy xislatlarni rivojlantirish hamda jamoada, jamiyatda o'zini munosib tuta bilish ko'nikmalarini tarkib toptirish tizimli tarzda amalga oshirilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
2. B. CHoriev "Ta'lim samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari" T., 2005. (B.M.I.)
3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi (o'quv qo'llanma). – T., 2010
4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (o'quv qo'llanma). – T., 2010 y.

KREATIV TAFAKKURNI BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLARI

D.N.Sulaymanova,
SamDU o'qituvchi, PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurning shakllantirishning psixologik jihatlari xorijiy tajribalar asosida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tafakkur, kreativ tafakkur, ijodiy faoliyat, bo'lajak o'qituvchi, individual-psixologik xususiyat

Аннотация: В этой статье описываются психологические аспекты творческого мышления будущих учителей, основанные на международном опыте.

Ключевые слова: мышление, творческое мышление, творческая деятельность, будущий учитель, индивидуально-психологический характер

Annotation: This article describes the psychological aspects of the creative thinking of future teachers, based on international experience

Key words: thinking, creative thinking, creative activity, future teacher, individual psychological nature

Jahonda yuz berayotgan globallashtirish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirishga bog‘liq faoliyatiga qo‘yiladigan talablarning sezilarli kuchayishi ularning tafakkurga asoslangan ko‘nikmalariga e‘tiborni ustuvorlashtiradi. Butunjahon iqtisodiy forumida taqdim etilgan ta‘lim modelining bosh g‘oyasini “4K: kritik tafakkur, kreativlik, kommunikatsiya, kolleboratsiya” ko‘nikmalari tashkil etishi ham ta‘lim sohasida yuqori natijalar ko‘rsatayotgan davlatlarda bu kompetensiyalarning prerogativligiga [10] mutanosibligini ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarda faoliyatini loyihalashtirish, ongli tahlil qilish, tafakkurini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish asosida pedagoglarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlanishning samarador texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Xalqaro amaliyotda kreativ tafakkurga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirish, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish, vazifalarni bajarish, o‘zgarishlarga sezgir, moslashuvchan, yangi texnologiyalar, g‘oyalar, ishlanmalar yaratiladigan, nafaqat bilimlar, balki tafakkurga tayanadigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Oliy pedagogik ta‘lim sohasida talabalarning mustaqilligini ta‘minlash, muammoni tushunish, yechimlarini loyihalash, kreativ va nokreativ tafakkur farqlari, oqibatlarini tahlil qilish, rivojlantirish, faollashtirish, jarayon, ma‘noli, qadriyatli, motivatsiyali, hissiy komponentlar uyg‘unligi asosida kichik resurslar sarfi evaziga ko‘p natijalarga erishish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ta‘lim falsafasi, uning paradigmalari, qonuniyatlari, tamoyillari va qadriyatlarining o‘zgarishini, jarayonga mutlaqo yangicha yondashuvlarni vujudga keltirmoqda. Mazkur yondashuvlar fonida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik, kreativlik, kommunikativlik, jamoada ishlash, tanqidiy tafakkur mustaqilligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatiga innovatsiyalarni kiritish, ularni tushunish, ijodiy yondashish, shuningdek, mahoratini uzluksiz ravishda oshirib borish uchun qulay sharoitlar yaratishga falsafiy, psixologik va pedagogik asosga ega bo‘lgan tizimli munosabatni taqozo etadi. Pedagogik tafakkur borgan sari o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini subyekt sifatida anglash, mas‘uliyat va moslashuvchanlik layoqatiga ega mutaxassislar va ularni shakllantirish muhitiga ega bo‘lgan zamonaviy ta‘limga bo‘lgan tasavvurlar, izlanishlar, yangiliklarni kengaytirmoqda. Amaliy pedagogik muhitning ilgarilab ketuvchi, faol-o‘zgartiruvchi funksiyalar ahamiyatiga yangicha munosabati fikrlay oladigan, ijodiy yondashadigan, muammolarni tushunish, ularning yechimini loyihalash, innovatsion jarayonlarda harakatchan bo‘lgan pedagoglarga muhtojlikni yaqqollashtiradi.

Zero, mazkur yondashuvlar dolzarb jarayon sifatida ta'lim islohotlarining bosh bo'g'inini ifodaydi. Fikrimizni respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi"da ta'lim tizimi oldidagi ustuvor yo'nalish sifatida qo'yilgan "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Mana maktablarimizga qanday muhit kirib borishi kerak" [1] vazifasi bilan dalillash mumkin.

YUNESKONing ta'lim bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hududiy byurosi hamda Kolorado universiteti "Ta'lim sohasidagi siyosat milliy markazi" mutaxassislarining 152 ta, jumladan o'qitish tizimi eng rivojlangan davlatlar ta'lim natijalariga mo'ljallangan me'yoriy hujjatlari tahlili tanqidiy tafakkur, kreativlik, muammolarni hal qilish, muloqot, hamkorlikda, jamoada ishlash kabi 21-asrda zaruriy ko'nikmalar sifatini baholashning yangi metodikalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatdi. Tadqiqotlar natijasida e'lon qilingan ma'ruzalar aynan shu ko'nikmalar 21-asrda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi va ta'lim maqsadlari ularga yo'naltirilishi lozimligini uqtiradi [9] Demak, kreativ tafakkur faqatgina ma'lum bir iqtidor yoki qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar uchun emas, balki zamonaviy dunyoda yashab qolish uchun har bir insonda shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalardan birini anglatadi.

Kreativ tafakkur insonning moslashuvchanligini ta'minlash, hayotiy vaziyatlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammo va qiyinchiliklarini hal qilishda muhim halqani ifodalaydi. Kreativ tafakkur insonning kognitiv va hissiy jarayonlari bilan bog'liq omillar, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, shaxsiy xislatlar, motivlar, ehtiyojlar, orzu-istaklarni harakatga keltiradi.

Psixologiyada kreativ tafakkur tushunchasi dastlab J.Gilford tomonidan butun, intuitiv, relyativ hodisa sifatida kiritiladi [4]. Olim tadqiqotlari natijasida kreativ tafakkurni "tafakkurning turli yo'nalishlarda harakatlanuvchi turi", degan xulosaga keladi hamda uning tasavvurga tayanishi, muammolarni hal qilishning ko'p yechimli yo'llari, kutilmagan natijalar yoki xulosalarga kelish, bir savolning turlicha javoblari bo'lishi va shu asosda yangi g'oyalar, shaxsning o'z fikrini ifodalay olish imkoniyatini batafsil bayon qiladi.

Shaxsning kreativligi va kreativ tafakkurning tabiati bilan bog'liq keng izlanishlar olib borgan V.M.Golubova psixologiya tarixiga doir manbalar tahlili asosida tushunchani o'rganishga doir yondashuvlarni ikkiga, ya'ni kognitiv va shaxsiy yo'nalishlarga ajratadi [3]. Tadqiqotchining fikricha kognitiv yondashuv bilish jarayonlari bilan bog'liq tadqiqotlarga asoslanadi. Bu yondashuv tarafdorlari mavjud hamda orttirilgan bilim va ko'nikmalar yangilarini yaratishga bog'liqligi muammosi sifatida kreativlikni intellekt darajasi bilan o'zaro aloqadorlikda qaraladi. Kreativlik va yuqori intellekt darajasining rivojlanishiga doir tadqiqotlarda mazkur muammo turli aspektlarda qarab chiqilgan, lekin ularning deyarli barchasida intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi nuqtai nazaridan qarash ustuvorlik qilishini kuzatish mumkin. Jumladan, kreativlik "qo'shimcha" mahsulotni ishlab chiqish jarayoni, "intellektual diapozon"ni ifodalaydigan individual va ijodiy muvaffaqiyatlarning umumiy

intellektga aloqadorligi, aqliy faoliyatni va kreativ jarayonning bog‘liqlikdagi shakllanish fazalari nuqtai nazaridan qaraladi [2].

Kreativlik va intellektning o‘zaro bog‘liqligi yo‘q, deb qaraladigan tadqiqotlarda [8] kreativlikni insonning hayotga moslashishi emas, balki dezadaptasiyasi, atrofdagi olamga, ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi oqibatida uni o‘zgartirishga kirishishi natijasi sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, kreativ tafakkur insonga shu moslasha olmasligini yengib o‘tish uchun yo‘l axtarishi, yangilik yaratishiga turtki bo‘ladi. Shunday qarashlarga ega bo‘lgan olim J.Gilvord [6] o‘zining nazariyasini ikki xil, konvergent va divergent tafakkur asosida shakllantiradi. Konvergent tafakkur shaxsning mavjud holatlar, vositalar tahlili asosida yagona maqbul yechimga kelishi intellektni ifodalasa, divergent tafakkur muammolarni hal qilishda turli variantlarni yaratishi bilan kreativlikni bildiradi. Shu asosda, ular umumiy ko‘rinishdagi ikki xil qobiliyat sifatida ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog‘lanadi.

Shaxsiy yondashuvda olimlar tomonidan yuqori ijodiy natijaga erishgan insonlar shaxsiy sifatlarini o‘rganish va umumiylikni topishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazilgan. Ta’kidlanishicha, kreativ shaxs o‘ta yuqori hissiy ta’sirchanlikka ega bo‘ladi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiy yuklanishlar hamda kreativ jarayonlar darajasiga bog‘liq bo‘ladi. E’tiborlisi, mantiq doimo intuitsiya bilan mos kelmasligi, g‘ayriushuriylik esa onglilikka mos kelmasligi mumkin.

Ijod psixologiyasi bo‘yicha mutaxassis-olim Ye.P.Ilin kreativ shaxslar o‘ta hissiy ta’sirchanlikka ega bo‘lishini o‘rganishlari davomida duch kelgan manbalarida buyuk ijodkorlarning ko‘z yosh to‘kishi, hatto hushini yo‘qotgani haqida ma’lumotlar keltirilganligini ko‘rsatib o‘tadi [5]. A.A.Risayeva esa ijodiy faoliyat natijasi bo‘lgan barcha mahsulotlarda o‘ziga xos shakl, nafosat, kompozitsiya, tartib unsurlari tizimli uchrashini qayd etadi. Shuningdek, o‘ziga bo‘lgan mustahkam ishonch, qiziquvchanlik, go‘zallikdan bahra olish, tasavvur va idrokda bolalarcha munosabat bildirish ham ularning umumiy xususiyatlarini ifodalashini aniqlaydi [7].

Keyingi davr tadqiqotlari esa kognitiv va shaxsiy yondashuvlarni alohida holatda emas, balki uyg‘unlikda o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘lishini tasdiqlamoqda. Kreativ tafakkur tabiatini o‘rganishga bo‘lgan integrativ yondashuv shaxsning kognitiv av shaxsiy sifatlarini yagona jarayon, birlik, uyg‘unlikda tushunish hamda ijodkorlikning shakllanish mohiyatini to‘la anglashga imkon beradi.

Shuningdek, psixolog V.M.Golubova kreativ tafakkurning tezkorlik, egiluvchanlik, o‘ziga xoslik, aniqlik kabi to‘rtta asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi.

Aniqlanishicha, tezlik – muayyan vaqt oraliq‘ida mumkin qadar ko‘proq g‘oyalarni ayta olish qobiliyatidir. Bu o‘rinda ularning sifati emas, balki soni muhimdir; egiluvchanlik – g‘oyalarni keng va turfa xil ifodalash qobiliyati; o‘ziga xoslik – yangi va nostandart g‘oyalarni yaratish qobiliyati. U savollarga umumqabul qilinganlardan farqli javoblarda ham ko‘rinishi mumkin; aniqlik –

mukammallik, o‘zining fikrlariga tugallanganlik yoki takomillik ko‘rinishi bera olish qobiliyati [3].

Keltirilgan fikrlar asosida kreativ tafakkurni inson intellekt darajasi, shaxsiy sifatlarining natijasi bo‘lib, ijodiy masalalarni hal qilishda aqliy imkoniyatlarini faollashtirish, o‘ziga xosliklarini namoyon qilish asosida ijodkorligining yuzaga chiqishi tarzida tushunish mumkin. Zero, kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda investitsiyalar kiritish, global muammolarga yechim topish, ilmiy-texnik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi muhim ko‘nikmani ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi” [Elektron resurs] – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

2. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. – СПб.: Питер, 2006. – 368 с.

3. Голубова В.М. Исследование феноменологии креативного мышления в отечественной и зарубежной психологии [Электронный ресурс] – URL: <https://s.science-education.ru/pdf/2014/6/1493.pdf>

4. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта [Электронный ресурс] – URL: <https://www.psychology-online.net/articles/doc-643.html>.

5. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: «Питер», 2009. – 434 с

6. Матюшкин А.М. Развитие творческой активности школьников. – М.: Педагогика, 1991. – 160 с.

7. Рысева А.А. Самосознание личности интеллектуально одаренных подростков // Психология сознания: современное состояние и перспективы. Матер. I Всероссийской конференции. – Самара, 2007. – С. 376–378.

8. Югай А.Х., Мираширова Н.А. Общая психология / Учебник. – Ташкент, 2014. – 125 б.

9. NEPC: Education System Alignment for 21st Century Skills: Focus on Assessment // Esther Care, Helyn Kim, Alvin Vista, & Kate Anderson (Brookings Institution, November 2018) [Elektron resurs] – URL: <https://www.brookings.edu/wp-content/uploads/2018/11/Education-system-alignment-for-21st-century-skills-012819.pdf> [119; 125]

10. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report, UNESCO, 2016 [Elektron resurs] – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000244022>

O‘QITUVCHINING O‘QUVCHILAR BILAN TO‘G‘RI MUOMALA QILA OLIISH MADANIYATI VA TEXNIKASI

Usmonova Moxizoda Avazjon qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti 1-kurs doktoranti (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilariga, kasbdoshlariga, o'quvchilarning ota-onalariga, jamoatchilikka muomala madaniyatini belgilovchi talablarini yoritib berishga xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: muomala, madaniyat, nutq, diqqat, qochiriq, hazil, istehzo, imo-ishora, diqqat, tovush, talaffuz.

Аннотация: В данной статье освещены требования педагога как педагогической профессии к самому себе, к своей профессии, к ученикам, к коллегам, к родителям учащихся, к общественности.

Ключевые слова: поведение, культура, речь, внимание, стеб, юмор, сарказм, жест, внимание, звук, произношение.

Abstract: This article highlights the requirements of a teacher as a teaching profession for himself, for his profession, for students, for colleagues, for parents of students, for the public.

Key words: behavior, culture, speech, attention, banter, humor, sarcasm, gesture, attention, sound, pronunciation.

O'qituvchi nutq yordamida, shuningdek imo-ishora vositasida o'z fikri hamda xis-tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladi va bu o'qituvchilik kasbi uchun juda ham muhimdir.

O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki ma'qullamayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha ta'sirchanligi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini yuksak darajada faollashtirishga qaratiladi, o'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib, ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchilarning diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi. Shuningdek, o'rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqni juda jonlantirib yuboradi va uni o'quvchilar tez o'zlashtiradilar.

O'quvchining nutqi aniq, jonli, talaffuzi jihatidan yorqin, ifodali bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi chiziq, zeriktiradigan nutq o'quvchilarni juda tez charchatadi, ularni lanj va loqayd qilib qo'yadi. Ayrim o'qituvchilar tez gapirishga moyil bo'ladilar. Biroq o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloklik materialni o'zlashtirishga xalaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo'yadi. Haddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o'quvchilarning asabini buzadi, tez toliqtirib qo'yadi. Me'yori bilan aytilgan nutq texnikasini borishi bir minutda 60-80 so'zni tashkil etadi.

O'qituvchining zaif ovozi yomon eshitiladi, k o'p marta takrorlanadigan imo – ishoralar, harakatlar o'quvchining g'ashini keltiradi.

Demak, nutq texnikasi deganimizda nutqni o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil bo'lganidan, uning texnikasi ham ikki xil ko'rinishda bo'ladi :

- a) og'zaki nutq texnikasi;
- b) yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi – tovush, bo'g'in, so'zlar, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarining faollashtiruvchi mashqlarini anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush templarini yaxshilash, diksiyaga e'tibor berish, tovushlarning past-baland tovlanib turishi, undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar kiradi.

Nutq texnikasidagi muhim ko'rsatkichlardan biri uning xissiyligidir. Psixologlar ijobiy hissiyotni inson faoliyatidagi qudratli omil deb hisoblaydilar.

Nutq sifati, ovoz har bir o'qituvchida har xil bo'ladi. Biroq tegishli mashqlar natijasida ovozni o'zgartirish mumkin. Nutqdagi kamchiliklarni yo'qotish uchun tinmay mashq qilib borish zarur. Ovozdan foydalanishda nutq texnikasining asosini tashkil qiluvchi nutq apparatlarini yaxshi bilish kerak.

Bolalarga yaqinlasha olish, o'quvchilarga to'g'ri muomala qilish yo'lini topish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatilish, pedagogik texnikaning mavjudligidandir. O'qituvchi ta'lim-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilari, kasbdoshlari, o'quvchilarning ota-onalari bilan muomalada bo'ladi. O'qituvchi faoliyatining ta'sirchanligi pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala madaniyatiga bog'liqdir.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala madaniyatida muallimning axloqiy madaniyati, kiyinish madaniyati, so'zlash madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. O'qituvchining pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilariga, kasbdoshlariga, o'quvchilarning ota-onalariga, jamoatchilikka muomala madaniyatini belgilovchi talablar mavjud. Pedagogik jarayonda muomala madaniyati va texnikasi muallimning pedagogik faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi o'z burchini bajarayotganida u o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik, tashabbuskorlik, o'zaro g'amho'rlik, bir-birlarini inson sifatida qadrdimmatini e'zozlash kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Pedagogik madaniyat va texnika o'qituvchining pedagogik faoliyatida boshqalar bilan muomalasining harakterini baholashga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonning o'zida ham ish jarayonining turli sohalarida turlicha muomala madaniyati mavjud. Masalan, jamoat topshiriqlarini bajarishda, dam olish paytlarida, muomala, shuningdek o'qituvchining o'z kasbiga, Vataniga, xalqqa, boshqa-boshqa topshiriqlarga bo'lgan munosabati o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomala madaniyati. Pedagogik jarayonda o'qituvchi bilan o'quvchining o'rtasidagi muomala madaniyati katta o'rin egallaydi. Juda ko'p o'qituvchilar o'z kasblariga sodiq qolib, o'qituvchilik faoliyatida fidoyilik ko'rsatib, o'z burchlarini yuksak darajada bajaradilar. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda ular qalbiga xalollik, go'zallik, haqiqat, odob-axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi g'oyalarni

singdira olganliklari, xushmuomalada bo‘lganliklari uchun ham bolalar oldida katta obro‘ga egadirlar.

Ochig‘ini aytish lozimki, hamma o‘qituvchilar ham shunday muomala qila olmaydilar. O‘zlarining qo‘pol, o‘rinsiz aytgan so‘zlari, qilgan muomalalari bilan bolalar ko‘nglidan o‘rin ola olmaydilar. Qo‘pol muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloqiy talablarga to‘g‘ri kelmaydi, natijada bolalar orasida, o‘quvchilar jamoasida obro‘ orttira olmaydilar.

Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muomala madaniyatining muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy foydali mehnat o‘z xususiyatiga ko‘ra darsdan farq qilib, dars singari qat’iy tartibga tushirilmagani uchun ham o‘qituvchi va o‘quvchidan o‘zaro nazoratni kuchaytirishni, halollik va vijdonlilikni, holislikni, axloqiy mas’uliyatni ko‘proq talab etadi. Ayniqsa ekskursiyalar, safarlar, kino va teatrlarga borishlar o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning muomala madaniyatiga ko‘proq bog‘liqdir. Xuddi shuningdek, o‘qituvchining o‘quvchining ota-onasi, o‘quvchilar jamoasi, o‘qituvchilar va maktab rahbarlari bilan qiladigan muomala madaniyati va texnikasini shakllantirib borishni talab qiladi.

Aadabiyotlar ro‘yxati :

1.R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma T.:Fan va texnologiya 2012-yil

2.Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. d-ri. –Toshkent, 1993. – 364.

3.Mardonov Sh.K., Nurmanov A.T., Jabborov U.A. Uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali muloqotga tayyorlash mezonlari// Uzluksiz ta’lim. - Toshkent, 2013.- №5. - B.93-96.

4.M.Ochilov. Muallim qalb me’mori. O‘quv qo‘llanma T.:O‘qituvchi. 2004.

5.Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati / – T.: Akademiya, 2007

6.Qilichev E., Qilichev B.E. Notiqlik madaniyati / Buxoro, 2005.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Yadgarova Gulbaxor Tillaevna,

BuxDPI “Pedagogika” kafedrasi dosenti, ps.f.n (PhD)

gulbaxoryadgarova@gmail.com

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются психологические особенности детей дошкольного возраста. Коммуникативная компетентность и психологический подход воспитателя в ее деятельности. Работа в малых группах и факторы их развития.

Ключевые слова: психологический подход, совместная работа, деятельность, коммуникативность, общение, развитие, процесс обучения, интерактивные игры, мотивация.

Abstract: This article discusses the psychological characteristics of preschool children. Communicative competence and compychological approach of the educator in her activities. Work in small groups and factors of their development.

Key words and concepts: psychological approach, teamwork, activity, education, development, communication, learning process, interactive games, motivation.

Mamlakatimiz jtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitida ta'limning zamonaviy tendensiyalari yosh avlodda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda, ta'lim va tarbiya jarayoni - shaxsni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash, shaxslararo jarayonlarda psixologik yondashuv orqali bolalarning intellektual salohiyatini oshirish kabilarni nazarda tutib kelmoqda.

“Zamonaviy jamiyat yosh avlod ta'lim tizimiga, jumladan, uning birinchi bosqichi - maktabgacha ta'limga yangi talablarni qo'ymoqda. “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”.¹ Chunki ta'lim va tarbiya jarayoni - shaxsni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borishdagi asosiy jarayondir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qullashda bu jarayon psixologik yondashuv orqali bolalarning intellektual rivojlanishiga tayanadi. Ammo muammo iqtidorli daholarni izlashda emas, balki ijodiy qobiliyatlarni maqsadli shakllantirish, yangicha fikrlashni rivojlantirishdadir. Bu ijodkorlik, ixtiro qilish, bolaning shaxsiyatini shakllantiradigan, uning mustaqilligi va kognitiv qiziqishini rivojlantiradigan eng yaxshi, eng yangi narsalarni yaratish qobiliyatini shakllantirish asosida namoyon bo'ladi. Mazkur masalalar mantiqan bir-biri bilan uzviy bog'liq holda izchil tadqiq etilishi maktabgacha pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarni tashkil etishda yangicha psixologik yondashuvni taqozo etadi.²

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan bunday zamonaviy talablar tarbiyachilarni ushbu ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu esa o'z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi, kognitiv, o'yinli ta'lim, izlanuvchanlik va o'zaro ta'sir elementlarini sintez qiladigan yangi texnologiyalardan foydalanish muhitining zarurligini taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayot tarziga nazar tashlasak, bog'chada bolalar ko'p vaqtlarini rasm chizish, qo'l mehnati bo'yicha vazifalarni bajarishga turli ertak va hikoyalar tinglash, televizor ko'rish, o'tirib o'yinchoqlar o'ynashga sarf qiladilar.³

Bolaga shunday muhit va shunday munosabatlar tizimi yaratib kerakki, bu bolaning turli mustaqil faoliyatini rag'batlantirsin va unda kerakli vaqtda eng samarali ko'nikmalarni o'zlashtira olsin, shu jumladan asosiy qobiliyatlarni

1 Sh.M. Mirziyoyev. —Buyuk kelajagimizni marda va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-2017. 189-bet.

2 Maktabgacha pedagogika darslik / F.R.Qodirova , Sh.Q-Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.NA'zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. 4- b.

3 Bolalarini maktabga tayyorlashda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish usullari/ «polish science journal»issue 6(15), b-47

shakllantirsin. Tabiiyki, bunday muhitni yaratish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv va ta'lim jarayoniga interfaol xarakterga ega bo'lgan, bolaning mustaqil faoliyatini ta'minlaydigan o'yinli texnologiyalarini joriy etish zarur.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kasbiy mahorati uning bolalar bilan ishlashda interfaol texnologiyalar va o'qitish usullaridan foydalanishda psixologik bilimdonligida namoyon bo'ladi. Bunda har bir tarbiyalanuvchining individual-psixologik xususiyatlari inobatga olinishi muhim. Interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Individual shakl, har bir bola tomonidan vazifani mustaqil hal qilishni o'z ichiga oladi;

Juftlashgan shakl, masalalarni juftlikda yechishda foydalaniladi, guruhli yondashuvda bolalar kichik guruhlarga bo'linadi;

Agar vazifa bir vaqtning o'zida barcha ishtirokchilar tomonidan bajarilsa, bu shakl jamoaviy yoki frontal deb ataladi;

Interfaol ta'limning eng qiyin shakli bolalar bilan kichik guruhlarda ishlash shaklidir. Kichik guruhlarda ishlash shaklida ishtirokchilar guruhi umumiy vazifani oladilar, masalan, qandaydir muammoni birgalikda hal etish. Bu vazifalar asosan oy mavzusini qamrab olinishi kerak. Bahor mavzusida plakatga birgalikda rasm chizish, lego va kubiklardan uycha, avtoturargoh, kema porti, qurilish maydoni, bog'cha hovlisi, ertakdagi qasr loyixalarini birgalikda tayyorlash, turli konstruksiyalarini birgalikda bajarishlari mumkin. Faoliyat qiziqarli bo'lishi bilan birga har bir guruh a'zosi bu jarayonda o'z fikrini bayon etadi, uning fikri esa boshqa a'zolar fikriga mos kelmasligi mumkin. Bunday hollar ko'pincha turli ziddiyatlarga sabab bo'lishi ham mumkin va bu juda tez-tez takrorlanib turadi. Mohir tarbiyachi jarayonni kuzatib, uni tizimga solib, bolalar uchun xavfsiz rivojlanish muhitini yarata bilishi muhim hisoblanadi. Guruh bo'lib ishlash tajribasi tez-tez qo'llanilsa, bu muhitga moslashgan har bir bola bir-birining fikriga qo'shilishi, ba'zida yon berishi, muloqot jarayonida jamoaviy tartib intizomga rioya qilishi, yangi tajribalarni o'rtoqlaridan o'zlashtirib olishi mumkindir.

Psixologik nuqtai-nazardan, bolalarning kichik guruhlarga bo'linishi, ularning loyihada o'z versiyasini taklif etish, tashabbus ko'rsatish, umumiy loyihani tashkil etuvchi eng yaxshi g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmalariga ega bo'lishiga zamin yaratadi.

Kichik guruhda ishlashning asosiy maqsadi va vazifalari:

bolalarning tashabbuskorligini, mustaqilligini, kognitiv motivatsiyasini rivojlantirish orqali irodaviy xususiyatlarini shakllantirish;

axborotni o'rganish va mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyatini shakllantirish yordamida bola xotira va tafakkurini o'stirish;

bolalar bilan ishlashning integratsiyalashgan shaklini tashkil etish yordamida ular diqqati va tasavvur doirasini kengaytirish;

bolalar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish;

bolaning jamoaga faol moslashishi va aniq maqsad sari harakat qilishni ta'minlash;

bola uchun o'z muvaffaqiyatini, intellektual mukammalligini his qiladigan qulay ta'limiy sharoitlarini yaratishdan iborat.

Rolli o'yinlar ham bolalarga o'z "men"ligini namoyish qilishning omili sifatida muloqotni jonli va hayajonga to'la harakatlarni qamrab oladi. O'yinlarning maqsadi bilimlarni chuqurlashtirish emas, balki ko'nikmalar va munosabatlarni ham rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Rolga kirish usullari orqali tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muammoli vaziyatlarda turli xil hatti-harakatlarni amalga oshirish va boshqalarni tushunish imkoniyatlarini rivojlantiradi. O'yin orqali ishtirokchilar o'zlarining real hayotdagi harakatlarini yaxshiroq o'rganib, xatolarning oqibatlaridan kerakli xulosaga keladilar.

Interfaol o'yin nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning bir-biri va tarbiyachi bilan o'zaro munosabati, balki ijtimoiy yo'nalishdagi birgalikda tashkil etiladigan kognitiv faoliyat hamdir. Interaktiv o'yinlar uchun ko'plab variantlar mavjud, ularni o'ynash usuli ham turlicha. Ammo ular quyidagi ketma ketlikka asoslanishi lozim:

Tarbiyachi tomonidan har bir kichik guruh uchun vazifalar va rollarni tanlash. (Tayyorgarlik bosqichi)

Kichik guruh a'zolarini hal qilinishi kerak bo'lgan muammo bilan tanishtirish.

Muammo va topshiriqning maqsadi tarbiyachi tomonidan aniq va oson shakllantirilishi kerak, shunda bolalarda mas'uliyatsizlik hissi paydo bo'lmaydi.

Bolalarga o'yin qoidalari haqida ma'lumot beriladi, jarayon davomida aniq ko'rsatmalar berib boriladi.

O'yin davomida bolalar o'z maqsadiga erishish uchun bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Agar ba'zi bosqichlar qiyinchilik tug'dirsa, tarbiyachi bolalarning harakatlarini tuzatadi. O'yin yakunida natijalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bola shaxsining shakllantirilishida hissiy emosional jihatdan - maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulariga e'tiborni qaratishdan iborat bo'lib: ularga nima yoqdi, nima qiyinchilik tug'dirdi, vaziyat qanday rivojlandi, ishtirokchilar qanday harakatlar qildi, natija qanday bo'ldi kabi savollarga javob izlash asosida kamchiliklar birgalikga tuzatiladi.

Zamonaviy muassasada o'yinli ta'lim juda jonli, hissiy jihatdan qulay psixologik muhitda, xayrixohlik, erkinlik, tenglik muhitida, o'tkazilishi zarur. O'yin texnologiyalari bolalarning erkin bo'lishiga yordam beradi, bolada o'ziga ishonch paydo bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar haqiqiy hayotga yaqin o'yin sharoitida harakat qilib, har qanday murakkab materialni osonroq o'rganadilar. Bolalar o'zlarini yangi vaziyatda sinab ko'rish orqali o'yindan zavq olishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M. Mirziyoyev. —Buyuk kelajagimizni marda va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-2017. 189-bet.

2.Maktabgacha pedagogika darslik / F.R.Qodirova , Sh.Q-Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.NA'zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. 4- b.

3. Bolalarini maktabga tayyorlashda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish usullari/ «POLISH SCIENCE JOURNAL»ISSUE 6 (15), b-47

4. Yu.Jo'raev.- O'smirlar jinoyatga nega qo'l urushmoqda?, HURRIAT – 2019/09/25

5.D.Sh.Nioyzova – Pedagoglar AKT savodxonligini oshirishda innovatsion yondashuvlar. «SCIENCE AND INNOVATION» INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022/3, b-973-974

ОСНОВНЫЕ ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

Юнусметова Насиба Сатимбековна

Методист предмета Воспитания Национального центра обучения педагогов новым методикам Сырдарьинской области

Внедрение новых современных информационных технологий ставят перед наукой и практикой задачу существенных изменений в системе образования. Соответственно, изменения в образовании делают необходимым повышение квалификации и профессионализма учителя и его профессиональной компетентности. В Национальной программе по подготовке кадров провозглашен приоритет профессионального образования и воспитания, повышения их качества. Для этого необходимо активизировать поиск и внедрение эффективных инновационных педагогических технологий в учебно-воспитательный процесс, в практику воспитания и формирования личности учителя. Одним из приоритетных условий для успешности педагога - это привычка к саморефлексии, которая необходимая для педагогической деятельности. Психологические особенности педагога: его характер, тип мышления, темперамент - в значительно меньшей степени влияют на качество его профессиональной успешности, чем способность к самоисследованию и внутренняя честность перед самим собой. Человек, умеющий видеть свои недостатки, недоработки, никогда не остановится в развитии. Одним из главных условий успешной педагогической деятельности - это личностная зрелость преподавателя. Такой педагог, сохраняя свои личные границы, будет открытым всему новому, неизведанному. Он знает и принимает себя самого, что позволяет ему узнать и принять своих воспитанников. [1;15С]. Современный педагог находится в постоянном внутреннем движении и поддерживает в своих студентах стремление к открытиям, знаниям, исследованиям. Он уверен в себе и потому верит и в своих воспитанников. У него нет необходимости все знать, он всегда готов организовать увлеченные поиски ответов на любые вопросы. Какими же должны быть мы - современные, востребованные временем, преподаватели профессионального образования? Быть современным педагогом трудно - но вполне возможно. Главное, педагог должен осознавать себя зрелой личностью, уметь видеть свои ошибки, недочеты, недостатки и быть готовым к постоянному обучению и самообразованию. Для современного педагога очень важно никогда не останавливаться на достигнутом, необходимо

обязательно двигаться вперед. Изменение социально-экономических условий жизни современного общества, обновление системы образования требуют качественно нового уровня профессионализма специалистов и, в частности, специалистов-педагогов, работающих с детьми. В этой связи особое значение приобретает проблема подготовки высококвалифицированных кадров, готовых теоретически и практически решать профессиональные задачи, умеющих создавать, применять и корректировать систему профессиональной деятельности. Сегодня общество выдвигает принципиально новые требования к личности и деятельности педагога, одно из них - сформированность его профессионального мастерства. Общественное положение, профессиональный престиж педагога в немалой степени зависят и от него самого: от его жизненной позиции, человеческих качеств, эрудиции и качества выполняемой им педагогической деятельности, которая является далеко не простой. Пристальное внимание к личности педагога, его профессионально-личностному развитию и деятельности всегда было характерно для отечественной науки и практики (Н.К. Крупская, А.С. Макаренко, Н.И. Пирогов, В.А. Сухомлинский, Л.Н. Толстой, К.Д. Ушинский, С.Т. Шацкий и др.). [2;10С]

Компетентность включает в себя не столько полный запас знаний о предмете: дат, фактов, конкретной информации, сколько личностную зрелость, собственную позицию, умение делать выбор, принимать решение, брать на себя ответственность и осознавать происходящее. Важно понимать, что компетентность - это не абстрактная точка в развитии профессионала или человека, наоборот, - это в большей мере процесс: процесс роста, постоянного обучения, расширения, углубления, систематизации собственных знаний и умений. Под профессиональной компетентностью понимается совокупность профессиональных и личностных качеств, необходимых для успешной педагогической деятельности. Профессионально компетентным можно назвать такого педагога, который на достаточно высоком уровне осуществляет педагогическую деятельность, педагогическое общение, достигает стабильно высоких результатов в учебно-воспитательном процессе. Развитие профессиональной компетентности - это развитие творческой индивидуальности, формирование восприимчивости к педагогическим инновациям, способностей адаптироваться в меняющейся педагогической среде. От профессионального уровня преподавателя напрямую зависит социально-экономическое и духовное развитие общества в целом. Изменения, происходящие в современной системе образования, делают необходимостью повышение квалификации и профессионализма педагогических работников и мастеров производственного обучения, т. е. их профессиональной компетентности. Основная цель современного образования - соответствие актуальным и перспективным потребностям личности, общества и государства, подготовка разносторонне развитой личности гражданина своей страны, способной к социальной адаптации в обществе, началу трудовой деятельности, самообразованию и

самосовершенствованию. Свободно мыслящий, прогнозирующий результаты своей деятельности и моделирующий образовательный процесс преподаватель является гарантом достижения поставленных целей. [3;106 С]

Исходя из современных требований образования, можно определить основные пути развития профессиональной компетентности педагога:

Работа в предметно-цикловых комиссиях, творческих группах;

Научно-исследовательская деятельность;

Инновационная деятельность, освоение новых педагогических технологий;

Различные формы педагогической поддержки;

Активное участие в педагогических конкурсах профессионального мастерства;

Обобщение собственного педагогического опыта и др.

Но не один из перечисленных способов не будет эффективным, если педагог сам не осознает необходимости повышения собственной профессиональной компетентности. Отсюда вытекает необходимость мотивации и создания благоприятных условий для педагогического роста. Необходимо создать те условия, в которых педагог самостоятельно осознает необходимость повышения уровня собственных профессиональных качеств. Анализ собственного педагогического опыта активизирует профессиональное саморазвитие педагога, в результате чего развиваются навыки исследовательской деятельности, которые затем интегрируются в педагогическую деятельность. [4;43С]

Развитие профессиональной компетентности - это динамичный процесс усвоения и модернизации профессионального опыта, ведущий к развитию индивидуальных профессиональных качеств, накоплению профессионального опыта, предполагающий непрерывное развитие и самосовершенствование. Можно выделить этапы формирования профессиональной компетентности:

самоанализ и осознание необходимости;

планирование саморазвития (цели, задачи, пути решения);

анализ, самокорректировка, самопроявление.

Формирование профессиональной компетентности - процесс циклический, так как в процессе педагогической деятельности необходимо постоянное повышение профессионализма, и каждый раз перечисленные этапы повторяются, но уже в новом качестве. Вообще, процесс саморазвития обусловлен биологически и связан с социализацией и индивидуализацией личности, которая сознательно организует собственную жизнь, а значит, и собственное развитие. Процесс формирования профессиональной компетентности так же сильно зависит от среды, поэтому именно среда должна стимулировать профессиональное саморазвитие. [6; 35-385С]

Таким образом, в социальной жизни востребована личность, обладающая не только значительным объёмом предметных знаний, но и владеющая целым комплексом социальных и интеллектуальных умений, позволяющих ей быстро адаптироваться к условиям изменяющейся действительности, а также

к потоку информации, нарастающему с каждым днём. Всё это влечёт за собой системное изменение и совершенствование образования. Сегодня от сотрудников требуются не только тщательное выполнение должностных инструкций, но и заинтересованное участие работников в новшествах на каждом рабочем месте, способность делать то, что не предусмотрено должностной инструкцией. Особое значение имеет наличие у работника разносторонних профессиональных навыков и способностей их развивать, а также приобретать новые [5]. Компетентностный подход - это приоритетная ориентация на формирование у персонала комплекса компетенций, необходимых для инновационной деятельности организации. В этой связи в ходе формирования системы непрерывного профессионального образования персонала особое внимание уделено инновационно-ориентированному профессиональному образованию. Последнее представляет собой совокупность образовательных программ разного уровня, а также сети научных, образовательных и инновационных структур и механизмов управления ими [7; 104-105С]. Реализация компетентностного подхода в техническом и профессиональном образовании способствует достижению его основной цели - подготовке квалифицированного специалиста соответствующего уровня и квалификации, обладающего интегрированными знаниями, умениями и навыками, конкурентоспособного, свободно владеющего своей профессией и ориентированного в смежных областях деятельности, способного к эффективной работе по специальности, готового к постоянному профессиональному росту, социальной и профессиональной мобильности.

Список литературы:

1. Зимняя, И.А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. — 2003. — № 5.
2. Маркова, А.К. Психологический анализ профессиональной компетентности учителя /А.К. Маркова // Советская педагогика. — 1990. — № 8. — с. 12-16
3. Митина, Л.М. Управлять или подавлять: выбор стратегии профессиональной жизнедеятельности педагога Л.М. Митина. — М.: Сентябрь, 1999. — 192 с.
4. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов профессионального образования (методологические и методические вопросы): Методическое пособие. Изд. 2-е. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. - 114 с.
5. Верстакова Ю.В., Симоненко Е.С. Управление инновациями: теория и практика: учебное пособие - М.: Эксмо, 2008 г - 432 с.
6. Лаптева, И.Д. К вопросу о педагогической компетентности / И.Д. Лаптева //Педагогическое образование и наука. - 2007. - №4.-С.35-38.

7 .Поташник М.М., Моисеев А.М. Управление современной школой (В вопросах и ответах): Пособие для руководителей образовательных учреждений и органов образования - М.: Новая школа, 1997. - 352 с.

JAMOADAGI ZIDDIYATLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Jaloliddin ZAYNOBIDDINOV,

Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya. Maqolada jamoda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ziddiyatli holatlar va ularning yechimi bilan bog‘liq bo‘lgan rahbarning boshqaruv qobiliyati haqida fikr yuritiladi. Rahbarning xodimlarga nisbatan munosabati jarayonida boshqaruv etikasi to‘g‘risida to‘xtab o‘tiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются конфликтные ситуации, которые могут возникнуть в коллективе, и управленческие способности руководителя, связанные с их разрешением. В процессе отношения руководителя к работникам делается пауза на этику управления.

Annotation. The article reflects on the contradictory circumstances that may occur in Jamo and the managerial capacity of the leader associated with their solution. In the process of the leader's attitude towards employees, a pause is made on the ethics of management.

Mehnat jamoasidagi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konfliktlar sizdan tashqarida, ya’ni ziddiyat sizning manfaatlarinigizni o‘zida jam qilmagan, yoki sizni ham qamrab olgan, ya’ni sizning manfaatlarinigiz konflikt orqali buzilayotgan va yoki aksincha, sizning manfaatlarinigiz yutib chiqayotgan, yoki alohida holda siz va sizning hamkasbingiz, siz va sizning rahbarinigiz o‘rtasida, yoki umuman butun jamoa orasida vujudga kelishi mumkin. Jamoadagi konflikt kim o‘rtasida sodir bo‘lishiga qaramay, mana shu jamoada ishlayotgan xodimlarning barchasini o‘z domiga tortib ketadi.

Siz jamoada sodir bo‘lgan ziddiyatdan tashqarida bo‘la olmaysiz. Agar siz konfliktga umuman aralashmasangiz ham, sizdan konfliktga nisbatan o‘z munosabatingizni oydinlashtirish so‘ralganda, xohlang-xohlamang ziddiyatga nisbatan o‘z fikringizni, o‘z xulosalarinigizni aytishga majbur bo‘lasiz. Bu esa, qaysidir masalalarda bir yoki boshqa tomonning manfaatlarini ustun qo‘yishingizga, biror tomonning yonini olishingizga sizni majbur etadi. Agar siz maqsadli ravishda jamoadagi konfliktdan o‘zingizni olib qochib, o‘zingizni betaraf deb e’lon qilganingizda ham, har kuni o‘sha jamoada bo‘lganingiz uchun, konfliktning qanday rivojlanayotganligi, tomonlar o‘zini qanday tutayotganligi beixtiyor kuzatib borasiz, oxir oqibat o‘zingizni haqiqatan ham ziddiyatdan tashqaridaman deb his qila olmaysiz.

Jamoada vujudga kelgan turli konfliktlarga nisbatan passiv emas, faol yondashgan ma’qul. Siz o‘zingizni bir tomonning yonini olgan, yoki ikkinchi tomon uchun bo‘ysungan holda emas, balki avval o‘rganganimizdek, mana shu

konflikt vaziyatni vujudga keltirgan muammoni aniqlashga sa'y-harakat qilib, butun jamoa diqqatini shaxslararo munosabatlarni taftish qilishga emas, balki muammoni aniqlashga, uning yechimini qidirishga, tomonlarning har birining manfaatlarini o'zaro yaqinlashtirishga, har ikki tomonni ham o'zaro qoniqtiradigan yechimni qidirishga safarbar etishingiz lozim bo'ladi.

Jamoadagi konfliktni boshqarish tartiblarini ko'rib chiqamiz:

1. Konflikt vujudga kelganini, uning mavjudligini tan olish va uni o'rganish.
2. Konfliktga tortilgan xodimlar, bevosita konflikt ishtirokchilari hamda konfliktga aloqador bo'lmagan, ammo mana shu jamoaning barcha xodimlarining ziddiyat to'g'risidagi xolis fikr-mulohazalarini o'rganish.

3. Konfliktning asl mazmunini, nima sababdan kelib chiqqanligini aniqlash. Ziddiyatning shaxslararo konflikt ekanligi, yoki tomonlararo konflikt ekanligini belgilash. Shuningdek, jamoadagi osoyishtalikni buzish, jamoaga o'z salbiy ta'sirini o'tkazishga, ish jarayonining buzilishiga sabab bo'layotgan odam mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash. Umuman konflikt vaziyatining sub'yektiv va ob'yektiv kelib chiqish sabablarini o'rganish. Ob'yektiv sabablar mavjudligi aniqlansa, ularning oldini olish choralarini ko'rish, masalan, kompyuterning buzilib qolganligi, elektr chirog'ining o'chib qolganligi, qog'ozlarning yetishmovchiligi v.h.

4. Konflikt yechimini rejalashtirish. Konflikt yechimini topish bo'yicha turli alternativ usullar, yo'llar va ssenariylarni ishlab chiqish. Konfliktning qanday rivojlanib va o'sib borishi mumkinligini aniqlash. Konfliktning o'sib ketmasligi oldini olish choralarini ko'rish.

5. Konflikt yechimi jarayoniga barcha xodimlarni jalb qilishga harakat qilish. Ko'pchilik hollarda birgalikda ziddiyat mazmuni, uning kelib chiqishi va uning yechimini topish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash yo'nalishida hamkorlik va birgalikda ishlashning o'zi konflikt vaziyatni yumshatishga, tomonlar manfaatlarini uyg'unlashtirishga, umumiy maqsadlarni topishga, shuningdek uyg'unlik asosida tomonlarni yangitdan bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Mummoni ochiq muhokamaga qo'yish, har bir xodimning fikr va qarashlarining samimiy bayon qilinishiga erishish, qarashlardagi plyuralizmga erishish, konflikt yechimi bo'yicha har bir tomon qarashlarining ifodalanishini yo'lga qo'yish, jamoadagi har turli keskinliklar, mavhumlik, gina-qudrat, g'iybat, xafagarchilik, fikrlarning ichda qolib ketishi, g'alamislik, fitna, intrigalar, bo'hton va aniq bo'lmagan ma'lumotlarning tarqalishining oldini oladi.

6. Butun jamoadagi diqqatni konfliktning mazmunini, muammoning mohiyatini anglashga qaratish va yo'naltirish yaxshi natijalar beradi. Chunki konflikt – bu hayotning, yoki jamoadagi faoliyat jarayonining oxiri emas. Kollektiv bundan keyin ham birgalikda, hamkorlikda ishlashi lozim. Ish yuzasidan esa turli ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Ish yuzasidan bo'lgan ziddiyatlarga ish jarayonini yaxshilash uchun vujudga kelgan yangi vaziyat, ish unumdorligini oshirish imkoniyati, mehnat jarayonlaridagi nizolarni olib tashlash orqali yangi munosabatlarni o'rnatish jarayoni sifatida qarash o'rinlidir. Konflikt – jamoada yuzaga kelganda ham, oddiy va tabiiy hayot jarayoni bo'lib qolaveradi. Konflikt

ko'pincha jamoada vujudga kelgan notabiiy va nizoli holatning yangi mazmunda qayta shakllantirilishi uchun katta imkoniyat beradi. Katta ishlab chiqarish jarayonlarida, biznes strukturalar faoliyatida konflikt mehnat unumdorligini oshirish va mehnat jarayonini jonlantirishning muhim va zarur bo'lgan xususiyatlaridan hisoblanadi. Konflikt kelib chiqishidan so'ng vujudga kelgan yangi vaziyat aynan yangi qarorlar uchun yo'l ochib beradi. Yig'ilib qolgan muammolarni yuzaga chiqaradi. Ular yechimini topishga butun jamoani yo'naltiradi. Tashkilotdagi atmosfera qanchalik osuda va tinch ko'rinmasin uning ichki rivojlanish tamoyillarida konfliktlar rejalashtirilgan va tabiiy o'rnatirilgan bo'ladi. Konflikt jamoadagi muammoni yorqin va aniq ko'rish, uni xis qilish va uning yechimini topish orqali, yangi ilg'or va taraqqiyot tamoyillarini belgilab olish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Bu holat – konflikt mazmunida yashiringan uning yaratuvchanlik imkoniyatlarini ko'rsatadi. Agar tashkilot rahbari jamoada ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni oldindan bashorat qila olsa, yoki vujudga kelgan konfliktlarni yaratuvchanlik tamoyillari asosida rivojlantira olsa, jamoa ichidagi ziddiyatlardan qo'rqmasa, mana shu tashkilotda o'sish va ulg'ayish ta'minlangan bo'ladi.

7. Konflikt yechimi doirasida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash va konflikt vaziyatni hamkorlikda qabul qilingan yechimga olib kelish. Har bir tomonning amallari aniq, o'zaro muvofiqlashgan, bir-birini to'ldirgan, adolatli va oddiy bo'lishi zarur. Yechimni o'z vaqtida topish konfliktning kuchayib ketmasligini ta'minlashini esdan chiqarmang.

8. Konflikt vaziyat bo'yicha belgilangan qaror va xulosalarning o'z vaqtida joriy etilishini ta'minlash zarur. Konflikt vaziyatda bir marta qaror qabul qilib, qaror qabul qilingandan so'ng konflikt o'z-o'zicha yechiladi, deb o'ylash noto'g'ridir. Konflikt yechimi bilan aloqador bo'lgan qarorlarning bajarilishigina konfliktning haqiqiy yechimi bo'la oladi. Vaziyat konflikt yechimi topilganini ko'rsatishi mumkin, ammo ana shu konflikt yechimi amalga oshirildimi, bu sizning keyingi sa'y-harakatlaringizga bevosita bog'liq bo'ladi. Agar siz konflikt yechimi topilganligi bosqichida muallaq turib qolsangiz, konflikt o'z yechimi ijrosi hech qachon topmaydi, konflikt – konflikt vaziyatida qolib ketaveradi. Shu bois, ziddiyatga doimiy e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Mehnat jamoasida xodimlar o'zaro bir-birlarini hurmat qilish va bir-birlariga zarar yetkazmaslikka harakat qilib ishlaydilar. Ammo shunga qaramasdan, ba'zan ular o'rtasida, ko'proq jamoa rahbarining o'z qo'l ostidagi xodimlarga nisbatan jamoa etikasining buzilish hollari uchrab turadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotganlarga nisbatan dimog'dorligi, o'zini katta tutishi, ularni behurmat qilishi;

bergan va'dalari ustida turmaslik;

o'z fikrlaridan o'zgacha bo'lgan qarashlarni yoqtirmaslik, ularni inkor etish, ularni bildirgan kishilarni ta'qib ostiga olish;

tanqid va o'z-o'zini tanqidni bo'g'ib qo'yish;

o'z qo'lidagi xodimlar huquqlarini cheklash;

xodimlarga ular mas'uliyatidan tashqari shaxsiy majburiyatlarni yuklash va ularning bajarilishini talab etish;

barcha uchun muhim bo'lgan ba'zi ma'lumotlarni yashirib, ulardan jamoani bexabar qoldirish (masalan, shtatlar qisqarishi, yoki chet elga ketish uchun kelgan komandirovka);

inson nafsoniyatini pastga uradigan tanqid bilan shug'ullanish;

xodimlar orasiga ataylab g'alva va nifoq solib qo'yish;

xodimlarni guruh-guruh qilib, ular o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqarish;

xodimning vaqtini tejamaslik (masalan, xodim agar rahbar bilan muhim masala yuzasidan maslahatlashmoqchi bo'lsa, o'zini bir necha kun "tutish"ga yoki uzoq vaqt kutishga majburlash);

xonasiga kirgan odam bilan o'z qog'ozlaridan ko'z uzmay suhbatlashish;

kirib kelgan odamga "o'tirishni" taklif etmaslik va hokazo.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, rahbar qo'l ostidagilar bilan qanchalik tabiiy va boshqarish usullarining har birini o'z o'rnida qo'llay olish mahorati bilan munosabatga kirishsa, jamoada ham ishchi-xodimlar o'zaro munosabatlarda bir-birlari bilan hurmatda va hamfikir tarzda ishlaydilar. Bunday adolatli boshqaruv bor joyda ish samaradorligi ortadi va ko'plab yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 1999-y.

2.Toshimov R. G'oziyev E. Zamonaviy individual va guruhiiy psixologiya. Toshkent. 1999-y.

3.G'oziyev E. Azizova Sh. Tashkiliy psixologiya. Toshkent. 1999-y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HISSIY SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Baxriyeva Nargiza Axmadovna,

*Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida dotsenti
nbaxriyeva@mail.ru*

Annotatsiya. Hissiyotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, xarakter va xulq-atvor singari individual-tipologik xususiyatlarni ifodalab, uning natijasi va borishi jarayonini belgilaydi hamda faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni hissiy rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar. maktabgacha yosh davri, hissiy rivojlanish, hissiyot, o'z-o'zini anglash, muloqot, emotsiyalar, emotsional rivojlanish, emotsional munosabat.

Аннотация. Эмоции влияют на развитие дошкольников как личности, выражают индивидуально-типологические особенности характера и поведения, определяют его исход и течение, влияют на деятельность. На

основании этого в статье анализируются психологические особенности эмоционального развития детей дошкольного возраста.

Основные понятия: дошкольный возраст, социально-эмоциональное развитие, эмоция, социализация, самосознание, общение, эмоции, эмоциональное развитие, эмоциональное реагирование.

Abstract. Emotions affect the development of preschool children as individuals, express individual-typological characteristics such as character and behavior, determine its outcome and course, and influence activity. Based on this, this article analyzes the psychological characteristics of emotional development of preschool children.

Key words. preschool age, social-emotional development, emotion, socialization, self-awareness, communication, emotions, emotional development, emotional response.

Maktabgacha ta'lim jarayoni hozirgi sharoitda bolalarga ta'lim va tarbiya olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, inson rivojlanishining muhim davri sifatida bolalikning o'ziga xosligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgandir.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish omillarining namoyon bo'lishi va taraqqiy etishi muammosi ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish muammosining qator o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Chunonchi, har bir tadqiqotchi mazkur muammoga o'z qarashlari va o'ziga xos ilmiy-amaliy tajribalari asosida yondashadi. Umuman olganda, mazkur qarashlarning o'ziga xos tomoni shundaki, ijtimoiy-hissiy rivojlanish hissiy holatlar va ijtimoiylashuv muammosi bilan birgalikda o'rganilgan. Shu ma'noda har bir ijtimoiy-hissiy rivojlanish omili maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tahlil qilinadigan har bir talqin ijtimoiy-hissiy rivojlanish omillarining u yoki bu darajadagi metodologik omillarini ochib berishga xizmat qiladi.

Psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlar bola ontogenezining ilk davrlaridan shakllana boshlaydi hamda o'z navbatida bolaning keyingi rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir bolaga uning psixologik va jismoniy rivojlanish xususiyatlari, talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib individual yondashish, ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni va shakllarini takomillashtirish muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional farovonligi masalasi L.A.Abramyan, O.V.Gordeeva, A.D.Kosheleva, G.G.Filippova ishlarida o'rganilgan. Ularning tadqiqoti natijalariga ko'ra, boladagi barqaror ijobiy, qulay emotsional holat, bolaning olamga nisbatan pozitiv munosabati asosi sanalgan va uning oilasidagi vaziyatga doir kechinmalari, bilish sohasi, emotsional-irodaviy sohasi, stressli vaziyatlarda kechinmalarni his qilish uslubida, tengdoshlari bilan muloqotiga ta'sir ko'rsatuvchi tayanch munosabatlarida namoyon etiladi. Umumlashgan holda bunday tayanch emotsional holat – emotsional barqarorlik (farovonlik) sifatida aks etadi. Oddiy bo'lib ko'rinishiga qaramasdan, his-tuyg'ularni bilish va uzatish ma'lum darajada murakkab jarayon bo'lib, u boladan

o'ziga xos bilimlarni, ma'lum rivojlanish darajasini talab qiladi. Demak, bola his-tuyg'ular nima ekanligini qanchalik teran anglasa, u boshqalarning ham hissiy holatini aniqroq tushunish imkoniga ega bo'ladi.

Katta maktabgacha yosh bolalarda shaxs hissiy sohasini rivojlantirishga nisbatan sezitiv davr bo'lib hisoblanadi. Shu bois, emotsiyalari va hissiyotlari orqali ijodiy potensialini rivojlantirish bolalarning yaxlit rivojlanishida sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, hissiyotlar bolalarning butun rivojlanishi davrida namoyon etilishining boy mazmuniga va murakkab shakllariga ega bo'lib, progressiv taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi; ushbu o'zgarishlar bola tomonidan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi va shaxsning ichki mulkiga aylanadi. G.M.Breslav, K.Bridjes, A.D.Kosheleva va Ya.Z.Neverovichlar maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishi jarayonlarini o'rganib, bolalarning o'zini emotsional namoyon etishida sifat o'zgarishlari yuz berganligini ko'rsatib berishgan.

Emotsiya va hissiyotlar bola va kattalar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonida shakllanadi. Maktabgacha yoshda bolalarning kattalarga hissiy bog'liqligi saqlanib qoladi. Kattalarning xatti-harakati doimo bolaning xatti-harakati va faoliyatidagi faollik darajasini belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlab diqqat uning atrof olamga nisbatan qiziqishlarini va narsalar bilan munosabatini aks ettiradi. Bola biron narsa yoki predmet mohiyatini sodda tarzda anglagach, unda qiziqish so'nadi. Yangi predmetning paydo bo'lishi bolada qiziqishning unga nisbatan yo'nalganligini hosil qiladi. Shu bois, bolalar uzoq muddat davomida bir xil yo'nalishdagi faoliyat bilan shug'ullanishdan zerikishmaydi. Shaxslararo muloqot jarayonida bir-birini tushunish, anglash va qo'llash muhim sanaladi. Zero, bolalar jamoaviy faoliyati taraqqiyotida o'g'il va qiz bolalarda hamdardlik hamda rahm-shafqat ko'rsatish qobiliyati namoyon bo'lishi muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional farovonligi masalasi L.A.Abramyan, O.V.Gordeeva, A.D.Kosheleva, G.G.Filippova ishlarida o'rganilgan. Ularning tadqiqoti natijalariga ko'ra, boladagi barqaror ijobiy, qulay emotsional holat, bolaning olamga nisbatan pozitiv munosabati asosi sanalgan va uning oilasidagi vaziyatga doir kechinmalari, bilish sohasi, emotsional-irodaviy sohasi, stressli vaziyatlarda kechinmalarni his qilish uslubida, tengdoshlari bilan muloqotiga ta'sir ko'rsatuvchi tayanch munosabatlarida namoyon etiladi. Umumlashgan holda bunday tayanch emotsional holat – emotsional barqarorlik (farovonlik) sifatida aks etadi.

Bugungi kunda asosiy ustuvor vazifa pedagogning bola bilan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi, uning individualligini, qiziqishlari va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va uning hissiy farovonligiga g'amxo'rlik qilishdan iborat bo'lmog'i zarur. Chunki, boshqa insonlar bilan muloqot o'rnatish, ular bilan o'zaro munosabatga kirishish, o'z xatti-harakatlarini maqbul yo'naltirish nafaqat ijobiy hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlaydi, balki, bolaning keyingi ijtimoiy holati va nufuzi shakllanishiga ham ta'sir etadi. «Qulay sharoitlarda olib borilgan ijtimoiy va oilaviy tarbiya natijasida maktabgacha

yoshdagi bolalarda tengdoshlariga, tarbiyachiga va bolalar bog'chasiga yaqinlik tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Bolalar atrofidagilar bilan xushmuomala bo'ladilar, oson muloqotga kirishadilar, ular mehribon, sezgir, kattalarning koyishlariga e'tibor bilan qaraydilar, o'z xatti-harakatlarining ma'qullanishini quvonch bilan qabul qiladilar va yanada yaxshiroq bo'lishga tayyorlikni ifodalaydilar». Bolalar jamoaviy faoliyati taraqqiyotida o'g'il va qiz bolalarda empatiya hamda rahmshafqat ko'rsatish qobiliyati namoyon bo'lishi muhimdir.

Hissiyotlar bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, xarakter va xulq-atvor singari individual-tipologik xususiyatlarni ifodalab, uning natijasi va borishi jarayonini belgilaydi hamda faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha, hissiyotlar bolalarning butun rivojlanishi davrida namoyon etilishining boy mazmuniga va murakkab shakllariga ega bo'lib, progressiv taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi; ushbu o'zgarishlar bola tomonidan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi va shaxsning ichki mulkiga aylanadi.

«Bolalik davrida hissiy jarayonlarning rivojlanishi faoliyatni tartiblashtirish bilan chambarchas bog'liq. Agar rivojlanishning dastlabki bosqichlarida his-tuyg'ular idrok etilgan vaziyatni to'g'ridan-to'g'ri baholash shaklida paydo bo'lsa, keyingi bosqichlarda ular harakatni amalga oshirishdan oldin uning mumkin bo'lgan oqibatlarini hissiy kutish shaklida paydo bo'lishi mumkin. Hissiy farovonlik bolaning o'ziga xos faoliyati tufayli yuzaga keladi va affektiv hamda kognitiv jarayonlarni birlashtiradi». Hissiyotlar insonning doimiy hamrohi bo'lib, uning barcha fikr va harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotlar bolani insoniylik va xayrixohlik asoslarida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida muloqotning turli aspektlarini yorituvchi ilmiy manbalar ko'rsatishicha, bu boradagi ayrim muammolar qisman qamrab olingan, jumladan, turli yosh guruhlarida bolalar bilan muloqotni tashkil etish ishlari, bolalar bilan ular individualligidan kelib chiqqan holda muloqotni rivojlantirishning maxsus pedagogik shartlari, ta'lim subyektlarining ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan muloqot amaliyotiga yo'naltirilgan ish shakllarini ishlab chiqish kabilardir.

Ijtimoiy-hissiy jihatdan rivojlangan bolalarda tengdoshlari bilan shaxsiy xususiyatlarga urg'u bermagan holda munosabatlarni tashkil etish, o'zaro ta'sirning produktiv va pozitiv namunalarni o'zlashtirish, insonlarning shaxslararo munosabatlaridagi ijtimoiylikka yo'nalganlik, tengdoshlari bilan muloqot ehtiyojlarini qondirish samaradorligi kengayadi.

Bola uchun emotsional muloqotning mazmuni faqatgina ma'lum qoida va me'yorlar bilan belgilanmaydi. Bola ijtimoiy-hissiy rivojlanishi dinamikasida tajribasi to'planishining alohida holatini boshidan kechiradi. Bolaning emotsional rivojlanishida imkoniyatlarni samarasiz sarflash «psixologik botib qolish»ga, bolada «emotsional yopiqlik»ka olib keladi. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni emotsional rivojlantirish muammosining dolzarb masalalardan biri bo'lib, ushbu muammoni samarali hal qilish yo'llarini izlash esa zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyot uchun muhim vazifa hisoblanadi. Bola taraqqiyotida imkoniyatlarni

baholay olish, ularni to'g'ri yo'naltirish bola rivojlanishini me'yorlashtirish va ijobiy hissiy holatlarni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy tajriba asosida bola o'zining hissiy holatiga ta'sir etadigan, uning o'ziga xosligini ta'minlaydigan umumlashgan kechinmalarni o'zida aks ettiradi. Bolaning hayoti va faoliyati davomida emotsiyalar irodaviy jarayonlardan ustun kelib uning salomatligi va shaxs sifatida kamol topishiga asos yaratadi, unda ijtimoiy muhim sifatlar tarbiyalanishini ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy-hissiy rivojlanish bolalar yaxlit rivojlanishining maxsus tashkillashtirilgan, bosqichli pedagogik jarayoni bo'lib, bolaning emotsional tajribasi va qiziqishlariga asoslanadi. Binobarin, turli faoliyatlar jarayonida bolalarning bilish, anglash, aniqlab olish qobiliyati shakllanadi, turli emotsiyalar mazmunini tushunish va ifodalash, ularni differentsiyalash kattalar ko'magida amalga oshirilganligi bois, bolada o'z emotsional holatini baholash va boshqarish, unda olamga, boshqa kishilarga, o'ziga nisbatan emotsional-pozitiv munosabat shakllandi. Shunday ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi ularning ijtimoiylashuvini, o'zligini anglashini, o'zining va boshqalarning hissiy holatini tushunish va boshqara olishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A'zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhleri tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish. P.f.f.d. diss-ya. Toshkent, 2020. – 154 b.

2.Baxriyeva, N. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

3.Baxriyeva N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning istiqbollari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

4.Бахриева Н. А. Сущность концепции «Я-образ» как научной категории и ее роль в развитии дошкольников //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 1264-1270.

5.Ильина С.В. Развитие эмоциональной сферы старших дошкольников в процессе общения со сверстниками. Автореф. дисс. канд. психол. наук. Курск, 2009.

6.Торгаева И.Н. Психолого-акмеологические факторы формирования личностно-профессиональной Я-концепции военнослужащих по контракту: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. — Ульяновск, 2006.

O'QITUVCHILARNING MALAKA OSHIRISH JARAYONINI PROGNOSTIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK HODISA SIFATIDA

Ikramova Munisa Sheraliyevna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilardagi prognostik kompetentlikni rivojlantirish va uning mazmun mohiyati izohlangan. Ta'lim jarayonida, pedagogik faoliyatda prognostik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik hodisa sifatida o'qituvchi uchun eng zarur kompetensiyalardan biri ekanligi haqida ushbu maqolada so'z boradi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun prognostik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, prognostik kompetensiya, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish, kasbiy kompetensiya.

O'qituvchilarning prognostik kompetentligini rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular har bir o'qituvchining rivojlanishida muhim bo'lgan kompetensiyalarni izohlab berganlar. O'qituvchilarning malaka oshirish jarayonida prognostik kompetentligini rivojlantirish pedagogik hodisa sifatida juda muhimdir. Bu o'qituvchilarga o'qituvchilarning o'zlarini o'rganish, o'z fikrlarini ifodalash va yangi yechimlarni qo'llab-quvvatlashda yordam beradi.

O'qituvchilar prognostik kompetentligining yuqori darajasiga erishish, hamkasblari tomonidan e'tirof etilishi, kasbiy faoliyatga qo'yilayotgan talablarga muvofiqligi, individual kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'z salohiyatini amalga oshirish bilan ifodalanadi. Bu, o'qituvchilarning kelajakda o'quv jarayonlarini boshqarish, o'quvchilarni fanlarni yaxshi o'zlashtirishini tashkil etish, va o'qitish metodlarini yanada rivojlantirishga oid tushunchalarni oshirishga yordam beradi. O'qituvchilar faoliyat samaradorligi, ularning kasbiy tayyorgarligi, malakaga egalik darajasi, o'z ustida qunt va izchillik bilan ishlashi asosida ta'minlanadi.

O'qituvchilarning malaka oshirish jarayonida prognostik kompetentlikni rivojlantirish o'qituvchilarning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pedagogik vaziyatlarni oldindan bashorat qilish va ushbu vaziyatlarga mos ravishda tayyor bo'lish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu kompetentlik o'qituvchilarga o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam beradi.

O'qituvchilarda prognostik kompetentlikni rivojlantirish uchun malaka oshirish jarayonida quyidagi yondashuvlar va metodlarni qo'llash mumkin:

Tahliliy faoliyatni kuchaytirish: O'qituvchilarni tahlil qilish, o'rganish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning kelajakdagi pedagogik vaziyatlarni oldindan ko'ra olish qobiliyatlarini oshirish mumkin. Bu jarayonda o'qituvchilarga statistik ma'lumotlar, ilmiy tadqiqotlar va tahliliy vositalarni qo'llash o'rgatiladi.

Scenario-based training ya'ni ssenariy asosida o'qitish: O'qituvchilarga turli pedagogik vaziyatlar, muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ssenariylar bilan ishlashni o'rgatish. Bu usul o'qituvchilarning muammolarni oldindan ko'ra olish va ularga tayyor bo'lish qobiliyatini rivojlantiradi.

Refleksiya va o'z-o'zini baholash: O'qituvchilarga o'z faoliyatlarini muntazam ravishda tahlil qilish va baholash o'rgatiladi. Bu ularning o'z pedagogik

tajribalarini chuqurroq anglashiga va kelajakdagi vaziyatlarga tayyor bo'lishiga yordam beradi.

Innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash: Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlarini qo'llash orqali o'qituvchilarning prognostik kompetentliliklarini rivojlantirish mumkin. Masalan, biologiya, fizika va kimyo fanlarida virtual laboratoriyalardan, xususan PheT simulyatsiyalaridan foydalanish.

Kollegial o'rganish va tajriba almashish: O'qituvchilarning bir-biri bilan tajriba almashishi, muammolarni birgalikda hal qilish va kollegial munozaralar orqali ularning prognostik qobiliyatlarini oshirish mumkin.

O'qituvchilarning malaka oshirish jarayonida prognostik kompetentlilikni rivojlantirishni pedagogik hodisa sifatida ko'rib chiqish, bu jarayonning muhimligini va ta'lim tizimiga kiritgan hissasini tushunishga yordam beradi. Pedagogik hodisa sifatida bu jarayon bir necha muhim aspektlarni o'z ichiga oladi:

Ma'naviy va professional rivojlanish: O'qituvchilarning malaka oshirish jarayonida prognostik kompetentlilikni rivojlantirish, ularning ma'naviy va professional o'sishiga yordam beradi. Bu hodisa o'qituvchilarga kelajakdagi vaziyatlarni oldindan ko'ra olish va ularga mos ravishda tayyorlanish imkoniyatini beradi, bu esa ularning kasbiy faoliyatini samarali boshqarishga yordam beradi.

Pedagogik tajriba va innovatsiyalarni qo'llash: Prognostik kompetentlilikni rivojlantirish orqali o'qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llashga tayyor bo'ladilar. Bu hodisa o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida innovatsiyalarni joriy etishga va ularni samarali qo'llashga imkon yaratadi.

Muammolarni oldindan ko'ra olish va hal qilish qobiliyati: Prognostik kompetentlilikni rivojlantirish, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra olish va ularga samarali echim topish qobiliyatlarini oshiradi. Bu pedagogik hodisa sifatida o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari: Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilar refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu hodisa ularning o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va kelajakdagi faoliyatlarini rejalashtirish qobiliyatlarini oshiradi.

Kollegial hamkorlik va o'rganish: O'qituvchilarning bir-biri bilan tajriba almashish va o'zaro hamkorlik qilish jarayonlari prognostik kompetentlilikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu pedagogik hodisa sifatida kollegial munozaralar va hamkorlik o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini boyitishga yordam beradi.

Kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim jarayonini ta'minlash: Prognostik kompetentlilikni rivojlantirish orqali o'qituvchilar kelajakdagi ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishga tayyorlanadilar. Bu pedagogik hodisa sifatida o'qituvchilarning ta'lim olish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. Bu yondashuvlar orqali o'qituvchilarning malaka oshirish jarayonida prognostik kompetentlilikni rivojlantirish, pedagogik hodisa sifatida katta ahamiyat kasb etadi va ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X., Soy M.N., Daniyarov B.X., Gayer T.V. Interaktivniy kompleks v obrazovatel'nom protsesse. - T.: «Sharq», 2011. – 268 s.
2. Ibragimov A. Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish: muammo va yechimlar // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Buxoro, 2016. – 18-19 betlar.
3. Yo'ldoshev J.G'. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari (yoxud o'qituvchi bo'lish osonmi?). – T.: O'qituvchi, 1998. – 208 b.
4. Bestujev-Lada I.V. Prognozoynoye obosnovaniye sotsialnix novovvedeniy. M: Nauka, 1993. - 233 s/
5. "Teaching and Learning Strategies" by Robert J. Marzano, Debra J. Pickering, and Jane E. Pollock. (2001).

ИГРА КАК СРЕДСТВО АКТИВИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Хафизова Машхура Аминовна

*Самаркандский Государственный Медицинский Университет и.о
доцента «Педагогика-психологии»*

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается феномен игры, аспекты интеграции игровых технологий в образовании, актуальные проблемы и перспективы развития. Целью данной статьи является изучение и исследование методов и форм применения игровых технологий в процессе усвоения русской речи, в частности в лингвистических высших учебных заведениях. Методология статьи основывается на эффективном использовании различных современных педагогических подходов в сопровождении с игровыми технологиями при изучении русского в качестве иностранного языка.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: эффективность учебного процесса, лингвистический подход, учебная задача, познавательная игра, игровые технологии. В настоящее время преподавание русского языка как иностранного активно развивается как актуальное и перспективное направление. Овладение основами русского языка является необходимым условием для выполнения учебно-профессиональной деятельности при обучении в неязыковом вузе.

Актуальной проблемой является повышения мотивации студентов к изучению русского языка, в частности в неязыковом вузе, поиск методов, приемов и технологий повышения эффективности учебного процесса, а также поддержка активного речевого общения в ходе аудиторных занятий. Решение этой проблемы требует применения новых педагогических, игровых технологий. В настоящее время, главными задачами преподавателя неязыкового вуза является развитие у студентов индивидуальных

способностей, ключевых компетенций, умения видеть перспективу применения полученных знаний на практике, легко адаптироваться в современном мире, реализовать себя в будущем. Решения этих вопросов является применение современных педагогических технологий в образовательном процессе, позволяющих разнообразить формы и средства обучения, повышать творческую активность студентов. Сегодня методические приемы, используемые при обучении ИЯ, уже не могут ограничиваться введением в учебный процесс текстов об истории, культуре и традициях Англии и США. Необходимо сосредоточить внимание на социальном взаимодействии коммуникантов в иноязычной и инокультурной среде.

Лингвистический подход, который лежал в основе методики преподавания ИЯ послевоенных лет и основывался на разделении понятий «язык» и «речь», утратил в последние десятилетия свои позиции, уступив место коммуникативному подходу, который предполагает усвоение иностранного языка «непосредственно в функции общения». Понятие «игровые технологии» включает достаточно обширную группу методов и приемов организации педагогического процесса в форме различных педагогических игр. В отличие от игр вообще «педагогическая игра» обладает существенным признаком — четко поставленной целью и соответствующим педагогическим результатом, которые могут быть обоснованы, выделены в явном или в косвенном2

В использовании игры как образовательной стратегии (технологии) преследуются две основные задачи:

Учебная задача — овладение знаниями, умениями, формирование способностей.

Игровая задача — имитация профессиональной деятельности. При этом игра предполагает

игровой результат — т.е. определенные критерии, по которым оценивается качество действий участников: эффективность принятых решений, быстрота и слаженность выполнения задания, минимум ошибок. На основании соответствия этим критериям присуждается победа в игре.

Обсуждение

Если рассмотреть вопрос, касающийся того, какие же игровые технологии или познавательные игры могут быть использованы преподавателем при обучении русскому языку в качестве иностранного студентов с нелингвистической специальностью, и как определить эффективность мотивационных компонентов игр, то можно заметить, что определенного ответа не существует. Это связано, прежде всего, с тем, что каждый преподаватель иностранного языка на основе своего набранного за определенное время педагогического опыта разрабатывает определенные индивидуальные методы и приемы как проведения продуктивного урока, так и эффективной подачи учебного материала. Это, в свою очередь, связывается не только с применением имеющихся элементов игр и игровых технологий,

но и с разработкой собственных педагогических и организационно-обучающих игр. К примеру, преподаватель русского языка для ознакомления студентов архитектурно-строительного вуза с темой «Орфоэпия» может ввести собственно разработанные игровые элементы в систему подачи учебного материала следующим путем: провести словарный диктант, по окончании которого студентам требуется не только произнести каждое слово по порядку, поставив правильное ударение, но и изобразить слово до его озвучивания, используя жесты и мимику, при этом диктант должен содержать слова, относящиеся только той специальности, по которому обучаются студенты.

Результаты

Исходя из проведенных наблюдений, указанных выше, стоит отметить о сравнительно положительном отношении большинства студентов неязыковых вузов к введению элементов игры в традиционную систему обучения русского языка на основе наличия ряда мотивационных возможностей в использовании игровых технологий и организационно-обучающих игр в ходе занятия, так как игры:

способствуют развитию коллективной мыследеятельности;

положительно влияют на активизацию познавательной деятельности учащихся;

повышают адекватную самооценку учащихся;

создают профессиональную мотивацию изучения второго языка;

способствуют созданию определенного психологического климата, что подразумевает условия, при наличии которых у студента появляется желание слушать иноязычную речь, говорить на другом языке;

способствуют активизации познавательной деятельности учащихся;

пробуждают интерес у сравнительно большего количества студентов к изучению иностранного языка.

Также следует отметить, что из вышеперечисленных положительных факторов применения игры, как средство активизации познавательной деятельности студентов, который одним из важных моментов является то, что игры в ходе занятия зачастую могут создавать благоприятную обстановку для психологического комфорта, когда у студента формируется чувство удовлетворения от умения эффективно пользоваться навыками общения на изучаемом языке, что и является залогом успешности и повышения самооценки.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Akhmedova L.T., Lagay E.A. Modern technologies of teaching the Russian language and literature. - Т.: "Fanvatekhnologiya". 2016. -- 85 p.

2. Шумахова Зарема Нурбиевна, Токтаньязова Аида Эдуардовна Формирование положительного отношения к дисциплине «Иностранный язык» у студентов неязыкового вуза посредством введения организационно-обучающих игр в традиционную систему обучения // Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2014. №2.

3.Кодзаева О. С. Мотивационные возможности неоднаправленных глаголов движения в методике преподавания русского языка как иностранного // Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2016. №3.

4.Кукушкин В.С. Педагогические технологии: Учебное пособие для студентов педагогических вузов, - Ростов н/Д.: Изд. Центр «МарТ», 2002.- 320с.

5.Худойназаровна, Қ. О., & Хусенова, М. Н. (2022). МИЛЛИЙ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ТАЛАБА-ҚИЗЛАРНИНГ ҲАЁТИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 297-302.

6.Qosimova, O., & Jaxbarov, O. (2022). PEDAGOG XOTIN-QIZLAR SHAXSIGA QO'YILADIGAN PEDOGOGIK PSIXOLOGIK TALABLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 643-645.

7.Xudoynazarovna, Q. O., & Sunnatillo o'g'li, V. H. (2022). The Teacher is National in Increasing the Social Activity of Women and the Combination of Foreign Experience. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(6), 129-132.

HARBIY XIZMATCHILAR MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich,

Zaxiradagi podpolkovnik O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi
E-mail: ahmedovbahtier293@gmail.com. Tel.(99) 9070382

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon talablariga mos keluvchi harbiy kadrlarni tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samrali foydalanishg, harbiy xizmatchilarni harbiy-kasbiy mahoratlarini oshirish va qo'1 ostidagi bo'ysinuvchilariga ta'lim-tarbiya berishda o'z bilim va mahoratlarini qo'llay olishi bo'yicha ayrim ko'rsatmalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: harbiy kadrlar, intellektual qobiliyat, harbiy pedagogika, bilim, ko'nikma, malaka.

Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalarning o'z vaqtida, to'g'ri va sifatli bajarilishi qurol-yarog', jangovar texnika bilan ta'minlanganlik darajasi, shaxsiy tarkibning jangovar, siyosiy tayyorgarligi, ruhiy holatiga bog'liq. Shu sababdan harbiy mahoratni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim.

Harbiy mahorat harbiy xizmatchining o'z mutaxassisligini egallash va uni amalga oshirish jarayonidagi yuqori darajadagi faoliyatidir.

Harbiy mahorat quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

I. Ichki asoslar:

1. Bilim.
2. Ko'nikma.
3. Malaka.

4. Umumiy dunyoqarash.
5. Ma'naviy-axloqiy sifatlar.
6. Ruhiy sifatlar.

II. Tashqi asoslar:

1. To'g'ri, aniq va ongli harakatlar.
2. Bilim, ko'nikma va malakalarni ongli ravishda qo'llash.
3. Qurol-yarog' va texnikani samarali va ijodiy qo'llash.

Bilim – borliq, voqea va hodisalarning, ularning aloqa va munosabatlarining inson ongida namoyon bo'lishidir. U insonning borliqni, boshqa odamlar tomonidan topilgan ma'lumotlar, faktlarni o'zlashtirishi natijasi hisoblanadi. Bilimlar inson ongida, xotirasida tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar, ular o'rtasidagi aloqadorlik tarzida saqlanib keladi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida murakkab zamonaviy texnika va qurol-yarog'larning yaratilishi va jangovar harakatlarni olib borishning yangi usullari harbiy xizmatchiga, uning ma'naviy, ruhiy va jismoniy sifatlariga, bilimi saviyasiga, tayyorgarlik darajasiga yuksak talablar qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir harbiy xizmatchi chuqur, har tomonlama keng bilimlarga ega bo'lishi va bu bilimlarni har qanday sharoitda qo'llay olishga tayyor bo'lishi zarur.

Mahoratni ko'nikmasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'nikmalar – ish-harakatlarning puxta egallanganligi, avtomatlashgan tarzda bajarilishidir. Ma'lum bir sohada ko'nikmalarga ega bo'lgan inson o'z diqqatini asosiy narasaga qarata oladi, o'z faoliyatiga ijodiy munosabatda bo'la oladi hamda yuqori sifat va miqdor ko'rsatkichlari bilan harakat qila oladi.

Harbiy xizmatchi uchun jangovar texnikaga xizmat ko'rsatish, o'z qurolini qo'llash, turli xizmat vazifalarini bajarish, kuzatish va boshqa ko'nikmalar muhimdir.

Ko'nikmalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sensor ko'nikmalar sezgi organlari (ko'rish, eshitish, hid bilish va boshqalar) faoliyatiga taalluqlidir. Masalan, pribor ko'rsatkichlarini olish, masofani aniqlash, moddani rangiga, hidiga qarab aniqlash, topokartalarni o'qish va hokazo.

2. Harakatli ko'nikmalar turli harakatlarni egallash natijasidir.

Ular texnikani boshqarish va qurol-yarog'ni jangovar qo'llash uchun zarurdir. Masalan, bu ko'nikmalar mexanik-haydovchi harakatida, operator harakatida va hokazolarda ko'rinadi.

3. Aqliy ko'nikmalar intellektual masalalarni hal etishda, masalan, qabul qilingan axborotni tahlil qilish, qo'yilgan vazifani tushunish, vaziyatga baho berish, qaror ishlab chiqish va qabul qilish va hokazolar. Bu turdagi ko'nikmalar aqliy faoliyatni samarali va tejamli qilishga olib keladi.

Barcha sanab o'tilgan ko'nikmalar turli vazifalarni bajarsada, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har qanday mutaxassislikdagi harbiy xizmatchi faoliyatida birlikda namoyon bo'ladi.

Ko'nikmalar murakkablik darajasiga qarab ham tasniflanadi. Avtomatik ravishda bajariladigan murakkab bo'lmagan usul va harakatlar oddiy ko'nikmalar

deb ataladi. Masalan, quoldan otish, mo'ljalga olish, dvigatelni ishga tushirish, tezlik qutisi richagini qo'shish va boshqalar. Bu kabi ko'nikmalar alohida usullarni takrorlash natijasidir.

Oddiy ko'nikmalar asta-sekin qo'shilishi, murakkab harakatlarga birlashishi, takrorlanishi va mustahkamlanishi natijasida murakkab ko'nikmalar kelib chiqadi.

Malakalar bilim va ko'nikmalardan samarali foydalanishda, ularni yangi va murakkab sharoitlarda to'g'ri va muvaffaqiyatli qo'llay olishda namoyon bo'ladi.

Malakalar ham ko'nikmalar singari oddiy va murakkab turlarga bo'linadi.

Harbiy mahorat shakllanishining boshlang'ich bosqichida, ya'ni harbiy xizmatchi o'z bilimlarini qo'llay boshlagan davrda oddiy malakalar paydo bo'ladi. Mashqlar jarayonida bunday malakalar oddiy ko'nikmalarga aylanadi. Bilimlar, oddiy malakalar, sodda va murakkab ko'nikmalar asosida murakkab malakalar shakllanadi.

Murakkab malakalar – harbiy xizmatchining ta'lim jarayonida egallagan bilimi, ko'nikmalarini ijodiy qo'llay olish va harbiy faoliyatning murakkab vaziyatlarida yuqori natijalarga erisha olish imkoniyatidir.

Ko'nikma tez-tez takrorlanib turuvchi sharoitlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Malaka esa insonga ko'nikmalarni yangi sharoitlarda qo'llashga imkon yaratib beradi. Ko'nikmadan farqli o'laroq, malaka inson ongining faolligini, o'z-o'zini nazorat qila olishni, turli vazifalarni bajarishning umumlashgan usullarini egallashni talab qiladi. Malakalarni shakllantirish bilim va ko'nikmalarni tobora murakkablashib boruvchi sharoitlarda qo'llash, shaxsiy tarkibning nazariy va amaliy tayyorgarligini doimiy uyg'un ravishda olib borishni talab qiladi.

Ko'nikmalarning shakllanish bosqichlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Analiz-sintez, ya'ni alohida usul va operatsiyalar shakllanadi va ular yaxlit ko'nikmaga aylanadi.

2. Zo'riqish, hayajon, xato yo'qotiladi.

3. Harakatlar avtomatlashadi.

4. Generalizatsiya jarayoni kechadi, ya'ni harakatlar umumlashadi, ko'nikma faoliyatga aylanadi.

Ko'nikmalar harbiy xizmatchilarning o'z xizmat vazifalarini chuqur anglagan, xatolarini bilgan, shuningdek muvaffaqiyatlari o'z vaqtida ma'qullangan va taqdirlangan holda samarali rivojlanadi. Shuning uchun ta'lim beruvchi harbiy xizmatchiga nisbatan g'amxo'r va talabchan bo'lishi, o'qish va xizmatda yangi yutuqlar sari ruhlantira olishi muhim ahamiyatga ega.

Ko'nikmaning takomillashishi uning murakkabligiga, harbiy xizmatchi shaxsining shaxsiy va ruhiy xususiyatlariga va holatiga, ta'lim beruvchilarning mahoratiga va ta'lim sharoitiga ham bog'liq.

Harbiy mahorat o'z mohiyatiga ko'ra jamoaviy mahorat hamdir. Harbiy xizmatchilar birgalikda harbiy texnikaga xizmat ko'rsatadilar, bo'linma oldiga qo'yilgan vazifalarni bajaradilar va harbiy jamoa oldiga qo'yilgan boshqa maqsadlarga erishish yo'lida jamoa bo'lib yondashadilar. Shuning uchun harbiy mahorat to'g'risida so'z yuritganda nafaqat yakka olingan harbiy xizmatchi, balki butun jamoaning harbiy mahorati haqida ham to'xtalib o'tish zarur.

Jamoa harbiy mahoratining mazmuni vazifalarning jamoaviy bilim, ko'nikma va malakalar, jamoaning xususiyatlariga asoslangan umumiy ijrosining yuksak darajasini belgilaydi.

Jamoaviy bilim – harbiy xizmatchilarning nizomlar va yo'riqnomalarning bo'linma, qism harakatlari to'g'risidagi, jangovar texnikadan jamoa bo'lib foydalanish va qo'llash to'g'risidagi bilimlaridir. Jamoaviy bilimlar jang maydonidagi va tinchlik davridagi turli vazifalarni bajarishdagi o'zaro muvofiqlashgan harakatlarda ko'rinadi.

Jamoaviy faoliyat ko'nikmalari – harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro harakatlarning belgilangan tartib-qoidalari va sharoitlarining o'zlashtirilishi, umumiy vazifalarning bajarilishi natijasidir. Bu ko'nikmalar harbiy jamoa turli faoliyati uyg'unligining, muvofiqlashganligining samaradorligini ta'minlaydi.

Jamoaviy faoliyat malakalari jamoa tomonidan bilim va malakalarning to'g'ri va ijodiy qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Jamoa harbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda komandir mahorati muhim rol o'ynaydi.

Komandir mahorati – ofitserning bo'linma, qismga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar, sifatlarga asoslangan faoliyatining yuksak darajasidir. Komandir mahorati asosan uning rahbarlik va harbiy mutaxassislik san'atidan iborat bo'ladi.

Jamoa mahorati harbiy xizmatchilarning yakka mahorati, turli mutaxassislar guruhlar mahorati va komandir mahoratidan tarkib topadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yakka va jamoa harbiy mahoratini shakllantirishda quyidagi shartlar muhim sanaladi:

- ◆ harbiy xizmatchilarda yuksak g'oyaviy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash;

- ◆ jamoani jipslashtirishga alohida e'tibor qaratish, harbiy xizmatchilar o'rtasida do'stona munosabatlarni tarbiyalash;

- ◆ umumiy faoliyatda yuksak natijalarga erishishga intilish;

- ◆ harbiy xizmatchilarni yakka va jamoa faoliyatini samarali amalga oshirish uchun o'z bilimlarini, ko'nikmalarini va malakalarini tinmay takomillashtirib borishga undash;

- ◆ tinchlik davrida va urush sharoitida harbiy xizmatchilarning tashabbus ko'rsatishi, o'z bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini ijodiy qo'llashi, faollik ko'rsatishi uchun sharoit yaratish;

- ◆ ta'lim va tarbiya jarayonida harbiy xizmatchilarning qobiliyatlari, temperamenti va xarakteri xususiyatlarini hisobga olish;

- ◆ harbiy xizmatning turli sharoitlarida o'zlarining bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini to'la namoyon qila olishlari uchun harbiy xizmatchilarning hisiy-irodaviy turg'unligini mustahkamlash, birgalikda turli vazifalarni bajarish.

Hozirgi davrdagi harbiy xizmat insonga, uning aqliy, ma'naviy, ruhiy, irodaviy va jismoniy sifatlariga, intellektual darajasiga, kasbiy tayyorgarligiga yuksak talablar qo'yimoqda va har bir harbiy xizmatchining, bo'linmaning harbiy mahoratini tobora yuqori darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda. Bu vazifalarni

bajarishda ta'lim-tarbiya jarayonining, xususan harbiy mahoratni shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlarini hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar :

1. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Darslik. - T.: Yangi asr avlodi, - 2013. – 68-73 b.
2. B.Ziyomuxammedov, Sh.Abdullaeva. "Pedagogika". Toshkent. "O'zbekiston", 2000 yil. 72-78 b.
3. A.Sotib Oldiyev, A.Karimjonov. "Harbiy pedagogika". Toshkent. "Sharq", 2005 yil. 110-112 b.

BIOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Hamroqulova Dilfuza Abduraxmonovna,
Samarqand tuman 15-maktab biologiya fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol metodlar va ulardan biologiya darslarini o'tishda SWOT-tahlil metodidan foydalanish usullaridan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, ilg'or pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, interfaol usullar, model, SWOT-tahlil metodi.

Аннотация: В данной статье описаны интерактивные методы и методы использования метода SWOT-анализа при прохождении уроков биологии.

Ключевые слова: Инновационные технологии, передовые педагогические технологии, педагогический процесс, интерактивные методы, модель, метод SWOT-анализа.

Abstract: This article describes interactive methods and methods of using SWOT-analysis method in passing biology lessons.

Key words: Innovative technology, advanced pedagogical technology, pedagogical process, interactive methods, model, SWOT-analysis method.

Darslarda interfaol usullardan foydalanishning asosini o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati tashkil etadi. Bu o'z navbatida, ta'limning sifatini va samaradorligini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada shunday ta'lim modellari yaratildiki, ular ta'limga texnologik jarayon sifatida yondashib, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan maqsadlarga erishishni kafolatlamoqda.

Ilg'or pedagogik texnologiya-tafakkurning faollashishiga, tanqidiy mushohada qilishga, so'z boyligining rivojlanishiga zamin yaratadi. Pedagogik texnologiya ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakli va uslublari majmuyi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini optimal tashkil etishdir. O'quv matreallarini tanlash, qayta ishlash, ularni o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab, shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Zamonaviy pedagogik texnologiya-bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlardan

kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji bilan interaktiv usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish, uni amalga oshirish bo'lib, bunda asosan interaktiv usullardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv usullar bu-o'quvchi va o'quvchi hamda o'quvchilararo o'zaro birgalikdagi harakatdir. "Ineraktiv" ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, "interact" so'zidan olingan. "Inter" bu o'zaro, "akt"-harakatdir. Interfaol usullarda o'qitish o'quvchilardan yuqori faollikni, olingan ma'lumotlarni to'la anglashda ijodiy yondashuvni talab etadi. interfaol o'qitishning asosiy mezonlari bu-norasmiy munozaralar o'tkazish, o'quv matreallarni erkin ifodalash, ma'ruzalar sonini kamaytirish, o'quvchilarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy izlanuvchanlini talab qiladigan guruhiy vazifalar va yozma ishlarni bajarishdir. O'zaro faollashish individual, juft-juft yoki jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'siretish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Intefaol dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv matreallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra bu matreal sinfda har tomonlama muhokama etiladi.

O'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchi sinfda o'zini erkin his qilishi, o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchining bilimni sinashi, ko'nikma va malakalarini aniqlashi, uning shaxsiy fikrini bilishi uchun albatta to'g'ri savol qo'ya bilishi kerak. Savol berishda quyidagilarni inobatga olish lozim:

savollar qisqa va aniq bo'lishi;

bitta savol bilan bir narsani so'rashi;

savol aynan mavzuga oid bo'lishi;

savoldagi so'zlar o'quvchiga tushunarli bo'lishi;

oddiydan murakkabga, soddadan umumumiya borishi;

"yopiq" savollardan foydalanmaslik, ya'ni "ha", "yo'q" yoki "to'g'ri", "noto'g'ri" deb javob beriladigan yoxud darslikda javob to'liq aks etgan, o'quvchini takrorlashga majbur qiladigan savollarni ishlatmaslik:

o'quvchiga shaxsiy tajribasiga asoslanib javob beradigan savollarni berish:

o'quvchiga fikr-mulohazalarini, o'z munosabatini bildira oladigan savollarni berish:

sinf javob bermaydigan savollarni bermaslik:

biror-bir savolga javob olinganda "nima uchun?", "nega sen bunday deb o'ylaysan?" degan savollar bilan tez-tez murojaat qilib turish kerak.

Biz quyida “SWOT-tahlil”- metodining tuzilishi va undah foydalanish usuli bilan tanishib chiqamiz:

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-(strength)	• kuchli tomonlari
W-(weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlar
O-(opportunity)	• imkoniyatlar
T-(threat)	• to'siqlar

Parazit chuvalchaglarning tuzilishi va hayot kechirishini SWOT-tahlil metodi jadvaliga tushiring

S	• Parazit chuvalchaglarning kuchli tomonlari. Tanasi kutikula bilan qoplangan. Tez ko‘payadi va serpusht. Yopishuv organlari, so‘rg‘ichlarining mavjudligi;
W	• Parazit chuvalchaglarning kuchsiz tomonlari. Harakatlanish va sezgi organlari rivojlanmaganligi;
O	• Parazit chuvalchaglarning imkoniyatlari (ichki). Asosiy va oraliq xo‘jayinda yashashi. Tuxumlari va lichikalarining noqulay sharoitda qalin po‘st hosil qilishi;
T	• Parazit chuvalchaglar uchun to'siqlar. Ularni uchun oziq zanjiridagi to‘siqlar (tashqi). Kimyoviy vositalar, iqlim omillari;

Sinfga (yoki o‘quvchiga) savol berilganda, albatta javobni ma’lum bir muddat kutish lozim. Ba’zida yordam berish maqsadida, savolni boshqacharoq talqinda takrorlash mumkin. lekin imkon qadar, o‘zingiz javobni aytib qo‘ymang. O‘qituvchi o‘quvchilarga metodda berilgan topshiriqlarni topishlariga ko‘maklashishi va eng asosiysi o‘quvchiga bilim berish emas bilim olishni o‘rgatmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar xilma-xil bo'lib, qaysi usulni tanlash o'tilayotgan mavzu, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Biologiya darslarini qiziqarli va samarali o'tishda o'qituvchilarga turli xil metodlardan foydalanishlarini tavsiya qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kompetensiyaviy yondasuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti va oquv dasturi; Biologiya, Toshkent-2017 y

2. O. Mavlonov Biologiya (Zoologiya) 7-sinf darsligi. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2017 y

3. Shaxmurova G., Yunusova N., Po'latova Z.. "Biologiya o'qitish metodikasi"-Majmua moduli, 2019 yil

MATEMATIKA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Jurayeva Dilafruz Jamurodovna,

Samarqand viloyati Pedagogika markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uzoq muddatli jarayondir. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishi uchun sharoit yaratish kerak. Mazkur maqolada o'quvchilarni qiziqtirish va matematika darslarini qiziqarli va foydali qilish uchun turli xil o'qitish usullaridan foydalanishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: Развитие критического мышления-процесс длительный. Необходимо создать условия для самостоятельного мышления, анализа и умозаключения учащихся. В этой статье представлена информация об использовании различных методов обучения, чтобы заинтересовать учащихся и сделать уроки математики интересными и полезными.

Annotation: The development of critical thinking is a long process. It is necessary to create conditions for independent thinking, analysis and reasoning of students. This article provides information on the use of various teaching methods to interest students and make math lessons interesting and useful.

Tanqidiy fikrlash nafaqat muammolarni hal qilish qobiliyati, balki ma'lumotni tahlil qilish, qarama-qarshiliklarni aniqlash, asosli xulosalar chiqarish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Bu ko'nikmani boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika darslarida rivojlantirish ularning mavzu bo'yicha tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilashi va ish faoliyatini yaxshilashi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim matematika darslarida foydalanish uchun bir nechta amaliy tavsiyalarni keltiramiz:

1. Muammoli vazifalar bayoniga doir:

"Bizda 10 ta olma bor, ularni 5 ta bolaga teng taqsimlashimiz kerak. Har bir bola nechta olma oladi?"

"Agar bizda 5 ta qizil to'p va 3 ta ko'k to'p bo'lsa, ularni qizil sharlar soniga tenglashtirish uchun nechta ko'k shar qo'shishimiz kerak?"

Muammolar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi va ularning bilim darajasiga mos kelishi kerak. Bolalarni savol berishga va muqobil yechimlarni izlashga undash maqsadga erishishimizni yengillashtiradi.

2. Turli xil o'qitish usullaridan foydalanish: Misol uchun didaktik o'yinlardan "Xarid o'yini", "Geometrik shakllar o'yini" kabilar.

Hozirda darsliklarimizda o'quvchilarga loyihalar yaratish topshiriqlari ham berib borilmoqda. Bunda quyidagi loyihaviy ishlarni berishimiz mumkin: "Uyning modelini yarating" – bunda o'lchash, maydonni hisoblash kabi ko'nikmalar, "Sevimli mevalaringizning grafigini tuzing" – bunda statistika, tahlil qila olish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Topshiriqlarni berishda matematik bilimlarni amaliy qo'llashga urg'u berish muhim.

Bolalar o'z bilimlaridan haqiqiy hayotiy muammolarni hal qilish uchun foydalanishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni yarating.

3. Ma'lumotlarni tahlil qilish va izohlash:

Jadvallar va grafiqlarni tahlil qilishga doir: "Sinfdagi nechta bola bananni yaxshi ko'radi, qanchasi olmani yaxshi ko'radi?"

Mantiqiy muammolarni hal qilishga doir: "Agar Sanjar Karimadan katta bo'lsa va Karima Sanjardan katta bo'lsa, ulardan qaysi biri eng yoshi?"

Bolalarga savol berishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va xulosa chiqarishga yordam bering.

Dalillarni fikrlardan ajratishga o'rgating.

4. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga doir:

Yechimlarni juftlik yoki guruhlarda muhokama qilish: "Bu muammoni qanday hal qildingiz?"

Sinfga yechimlarni taqdim etish: "Ushbu muammoning yechimini qanday topganingiz haqida gapiring."

Bolalarni o'z fikrlarini baham ko'rishga va o'z fikrlari bilan bahslashishga undash lozim. Bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari uchun hurmat va ishonch muhitini yaratishga e'tibor qaratish kerak.

5. "Matematik bahslar" o'tkazishga doir:

"10 so'mga katta bir quti shokolad sotib olgan yaxshimi yoki 5 so'mga ikkita kichkina shokolad sotib olgan yaxshimi?"

"Ushbu muammoni hal qilishning eng oddiy va samarali usuli qanday?"

Bolalarni o'z nuqtai nazarlari bilan bahslashishga va dalillar keltirishga undash kerak. Qarama-qarshi fikrlarni hurmat qilishni o'rganishga yordam berishga ahamiyat qaratish lozim.

6. Raqamli vositalardan foydalanishga doir:

Interaktiv mashqlar va o'yinlar bilan onlayn resurslar.

Grafiqlar va diagrammalar yaratish uchun dasturlar.

Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanish muhim. Bolalar Internetdan qanday xavfsiz foydalanishni bilishlariga ishonch hosil qilish kerak.

7. Matematikaga qiziqishni saqlang:

Bolalar har kuni duch keladigan hayotiy misollardan foydalaning. Matematika tarixidan qiziqarli faktlarni ko'rsating. Matematikani bolalar uchun qiziqarli va tushunarli qiling. Matematika qiziqarli va foydali bo'lishi mumkinligini ko'rsating. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vaqt va kuch talab qiladigan uzoq muddatli jarayondir. Bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari uchun sinfda ishonch va hurmat muhitini yarating. Tajriba qilishdan qo'rqmang va o'qitishning yangi usullarini izlang.

Ushbu tavsiyalarni qo'llash boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat matematik bilimlarni o'zlashtirishga, balki hayotning har qanday sohasida foydali bo'lgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tizimli yondashuvni talab qiladigan vazifadir. Mana bir necha samarali usullar:

1. Taqqoslash va tahlil qilish vazifalari:

"Ikkita masalani solishtiring. Ularning o'xshash va farqlari nimada?"

"Muammoning yechimini tahlil qiling. Qanday choralar ko'rildi? Nima uchun ular to'g'ri?"

Bolalarni naqshlarni topishga, ma'lumotlardan asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatishga va asosli xulosalar chiqarishga o'rgating.

2. Muammoli vaziyatlar va vazifalar:

"Sinfda 20 ta o'quvchi bor, biz hamma uchun konfet sotib olishimiz kerak, ammo do'konda qancha paket sotib olishim kerak?"

"Qaysi raqam katta - 100 yoki 101? Nima uchun?"

Vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash, yechim izlash va tanlovingizni asoslash qobiliyatini rivojlantiring.

3. O'qitishning interfaol usullaridan foydalanish:

Rolli o'yinlar: "Do'kon", "Qurilish kompaniyasi" (o'quvchilar o'yin kontekstida matematik muammolarni hal qilishadi).

Munozara: "Qaysi raqam yaxshiroq - juft yoki toq?" (o'quvchilar o'z nuqtai nazarlarini muhokama qiladilar).

Bolalar o'z bilimlarini amalda qo'llashlari va jamoada ishlashni o'rganishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni yarating.

4. Grafik va jadvallar bilan ishlash:

"Kun davomida harorat o'zgarishi grafigini tuzing."

"O'quvchilar haftasiga o'qigan kitoblar sonini ko'rsatadigan jadval tuzing."

Bolalarni ma'lumotlarni tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga va ma'lumotlarni turli shakllarda taqdim etishga o'rgating.

5. O'quv o'yinlari va mashqlari:

"Qo'shimcha raqamni toping": "2, 4, 6, 8, 10, 12, 15."

"Rebusni yechish": " $4 + 4 = 8$ " (rebus - bu tenglama).

Mantiqiy fikrlash, e'tibor va xotirani rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlardan foydalaning.

6. Matematika tarixidan foydalanish:

— Qadimgi matematiklar va ularning kashfiyotlari haqida gapirib bering.

"Qadimgi Misr yoki qadimgi Rimda matematika qanday ishlatilgan?"

Bolalarga matematika nafaqat raqamlar va formulalar, balki tarix va madaniyatning bir qismi ekanligini ko'rsating.

7. Loyihalarni yaratish:

"Uyning modelini yarating va uning maydonini hisoblang".

"Sizning shahringizda turli xil transport turlarining mashhurligi bo'yicha tadqiqot olib boring."

Bolalarni mustaqil ravishda maqsadlar qo'yish, ishni rejalashtirish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, xulosalar chiqarish va natijalarni taqdim etishga o'rgating.

8. Qaror va xulosalarni tanqidiy baholash:

"Javobingizni tekshiring. Nima uchun bu to'g'ri?"

"Sizning xulosangiz to'g'ri ekanligiga qanday dalillaringiz bor?"

Bolalarni o'z qarorlarini tekshirishga, xatolarni qidirishga, xulosalarining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishga va ongli qarorlar qabul qilishga o'rgating.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uzoq muddatli jarayondir. Bolalarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishi uchun sharoit yaratish kerak.

Bolalarni qiziqtirish va matematika darslarini qiziqarli va foydali qilish uchun turli xil o'qitish usullaridan foydalaning.

Bolalarni savol berishga, o'z fikrlarini bildirishga va o'z nuqtai nazarlarini asoslashga undash.

Bu usullardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat matematik bilimlarni o'zlashtirishlariga, balki keyingi hayotlarida ham ular uchun foydali bo'ladigan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun didaktik o'yinlar:

Didaktik o'yinlar bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ajoyib vositadir. Ular matematika darslarini yanada qiziqarli va qiziqarli qilib, o'quvchilarga osonroq va samaraliroq o'rganish imkonini beradi.

Matematika darslarida o'quv o'yinlari uchun ba'zi fikrlar:

1. "Raqamni toping"

Maqsad: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati.

O'qituvchi raqamni taxmin qiladi va o'quvchilarga bir nechta maslahatlar beradi. Masalan: "Raqam 5 dan katta, lekin 10 dan kichik. Raqam juft." O'quvchilar yashirin raqamni taxmin qilishlari kerak.

Variantlar: Siz turli xil maslahatlardan foydalanishingiz mumkin, masalan, raqamlar qatoridagi raqamning o'rnini ko'rsating, uning boshqa raqamlarga munosabatini ko'rsating.

Misol: O'qituvchi 1 dan 10 gacha bo'lgan sonni o'ylaydi. Bolalar savollar berishadi, o'qituvchi faqat "ha" yoki "yo'q" deb javob berishi mumkin. Masalan: "Raqam 5 dan kattami?", "Raqam juftmi?" va hokazo.

2. "Matematik loto"

Maqsad: Raqamlar, geometrik figuralar, matematik amallar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

O'qituvchi raqamlar, geometrik shakllar yoki matematik ifodalar tasvirlari bilan kartalar tayyorlaydi. O'quvchilar tegishli rasmlar yoki ifodalar bilan kartalarni olishadi. O'qituvchi raqam, raqam yoki ifodani nomlaydi. Tegishli kartaga ega bo'lgan o'quvchi uni varaqqa qo'yadi. O'z varaqlarini birinchi bo'lib to'ldirgan kishi g'alaba qozonadi.

Variantlar: Lotereya uchun turli xil variantlardan foydalanishingiz mumkin: raqamlar bilan, geometrik shakllar bilan, matematik operatsiyalar bilan. Siz lotereyadan matematika tushunchalarini ko'rib chiqish, oddiy muammolarni hal qilish, taqqoslash va tasniflashni o'rgatish uchun foydalanishingiz mumkin.

Misol: Turli xil geometrik shakllar tasvirlangan kartalar: kvadrat, uchburchak, doira, to'rtburchak. Bolalar ushbu raqamlarning tasvirlari bilan kartalarni olishadi. O'qituvchi raqamni nomlaydi, tegishli kartaga ega bo'lgan bolalar uni varaqqa qo'yishadi.

3. "Matematik domino"

Maqsad: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, raqamlar, geometrik raqamlar va matematik operatsiyalar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish qobiliyati.

O'qituvchi raqamlar, geometrik shakllar yoki matematik ifodalar tasvirlari bilan kartalar tayyorlaydi. Har bir karta ikki qismdan iborat: rasm va raqam yoki ifoda bilan. O'quvchilar bir nechta kartalarni olib, ularni birma-bir joylashtiradilar, bir xil tasvirlar yoki raqamlar bilan kartalarni bog'laydilar.

Variantlar: Domino uchun turli xil variantlardan foydalanishingiz mumkin: raqamlar bilan, geometrik shakllar bilan, matematik operatsiyalar bilan. Matematik tushunchalarni ko'rib chiqish, oddiy muammolarni hal qilish, taqqoslash va tasniflashni o'rgatish uchun dominolardan foydalanishingiz mumkin.

Misol: 1 dan 10 gacha raqamlar yozilgan kartalar. O'qituvchi bolalarga 3 ta kartani beradi va bittasini stolga qo'yadi. Bolalar navbatma-navbat kartani qo'yishadi, shunda undagi raqam stol ustidagi oxirgi kartadagi raqamga mos keladi.

4. "Matematik izlanish"

Maqsad: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammolarni kontekstda hal qilish qobiliyati, jamoada ishlash.

O'qituvchi bir qator muammolarni o'z ichiga olgan "kvest" yaratadi, ularni hal qilish uchun matematika bilimi talab qilinadi. O'quvchilar jamoalarga bo'linadi va kvest topshiriqlarini bajaradi. Barcha muammolarni birinchi bo'lib hal qilgan va "xazina" ni topadigan jamoa g'alaba qozonadi.

Variantlar: Kvest uchun turli xil variantlardan foydalanishingiz mumkin: xazina xaritasi, kodlar, jumboqlar bilan. Matematik tushunchalarni ko'rib chiqish, oddiy muammolarni hal qilish, taqqoslash va tasniflashni o'rgatish uchun kvestdan foydalanishingiz mumkin.

Misol: O'qituvchi turli matematik vazifalar bilan "xazina xaritasi" yaratadi. O'quvchilar "xazina"ni qanday topish bo'yicha maslahatlar olish uchun muammolarni hal qilishlari kerak.

Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va o'quv faoliyatini yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Repyova I.V. Matematika. 1, 2, 3, 4-sinf. Darslik. Toshkent. Novda nashriyoti – 2023.

Каршиева, Д. К. О'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni. Molodoy uchyoni'y. O'zbekiston. 2-son. 2023.

Andronova, O. V. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ba'zi usullari o'quvchilar maktab matematika kursining raqamli liniyasini o'rganishda Yaroslavl: YAGPU nashriyoti - 2006, 121-130 betlar.

TURLI YOSH DAVRLARIDA INSULT KASALLIGI BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING HAYOT SIFATI XUSUSIYATINI TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI

Atajanova Layloxon Uktamovna,

*Urganch davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti
Pedagogika kafedrasida Psixologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya.Maqolada turli yosh davrlarida insult bilan og'rikan bemorlarning hayot sifati xususiyatining namoyon bo'lishi, psixologik xususiyatlariga ta'sirini xorijlik olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarini natijalari haqida ma'lumotlar keltirilgan va natijalar asosida tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: insult, hayot sifati, depressiya, ishemik insult, psixoemotsional soha, intellektual soha, jismoniy faollik, nevrologiya, apatiya, kognitiv buzilishlari, xotira.

Annotation.The article provides information on the results of research conducted by foreign scientists on the manifestation of the quality of life of stroke patients at different ages, the effect on their psychological characteristics, and recommendations are given based on the results.

Keywords: stroke, quality of life, depression, ischemic stroke, psychoemotional sphere, intellectual sphere, physical activity, neurology, apathy, cognitive disorders, memory.

Kirish. O'lim sabablari bo'yicha yetakchi o'rinda turuvchi Insult miya qon aylanishining o'tkir buzilishi bo'lib, bu miya funksiyasining bir necha kun davom etuvchi xastaligiga olib keladi. 1995 yildan 2006 yilgacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda, kanadalik tadqiqotchilar miya insultining o'tkir davridagi bemorlarning hayot sifatining barcha xususiyatlari sezilarli darajada yomonlashganini qayd etdilar vaqt o'tishi bilan bemorlarning hayot sifati yaxshilanmaydi, balki yomonlashishi mumkin. Depressiv kasalliklar, birinchi navbatda, kognitiv

funktsiyalarning buzilishi, shol bo'lgan oyoq-qo'llarda spastisitning kuchayishi va doimiy yutish buzilishining rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan insult bilan bog'liq nogironlikning ko'payishi kutilmoqda.[1]

Ko'pincha insult, ongning buzilishi, nutq va ko'rishning buzilishi, bosh aylanishi bilan namoyon bo'ladi. Insultni klinik, laboratoriya, tomografik va qon tomir tadqiqotlar ma'lumotlarining kombinatsiyasi bilan aniqlash mumkin.

Insultning ikki ko'rinishi gemorragik (miyaga qon quyilishi) va ishemik holatda (miya infarkti) farqlanadi. Ular rivojlanishning tubdan boshqacha mexanizmiga ega va davolashda tubdan boshqacha yondashuvlarni talab qiladi. Ishemik va gemorragik insult 80% va 20% ni tashkil qiladi. Ishemik insult (miya infarkti) miya arteriyalarining o'tkazuvchanligini buzish natijasida yuzaga keladi, bu uzoq muddatli ishemiyaga va ta'sirlangan arteriyani qon bilan ta'minlash sohasidagi miya to'qimalarida qaytarilmas o'zgarishlarga olib keladi. Har ikki turdagi insultning noto'g'ri ovqatlanishi, dislipidemiya, nikotinga qaramlik, alkogolizm, o'tkir stress, zaiflik, shu bilan birga to'yib ovqatlanmaslik, dislipidemiya, arterial gipertenziya semirib ketish kabi omillar keltirib chiqaradi. Qarindoshlari o'tmishda qon tomirlari bilan og'rigan odamlarda insult xavfi ortadi.

Ishemik insult miyani ta'minlaydigan qon tomirlaridan biri orqali qonning o'tishining buzilishi natijasida rivojlanadi. Gemorragik insultning paydo bo'lishi asosan miya tomirlarining diffuz yoki izolyatsiya qilingan patologiyasi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida tomir devori elastikligini yo'qotadi va ingichka bo'ladi. Gemorragik insult miya to'qimalariga qon quyilishi bilan miya tomirlarining patologik (atravmatik) yorilishi natijasida yuzaga keladi. Ishemik insult ko'proq 55-60 yoshdan oshgan odamlarda kuzatiladi va gemorragik insult aholining yosh toifasiga (odatda 45-55 yosh) xosdir. Insult o'lim sababchisi sifatida yurak qon-tomir va onkologik kasalliklardan so'ng 3 o'rinda turadi. Ishemik insult gemorragik insultga nisbatan 5 marta ko'p uchraydi. O'zbekistonda miya insulti bilan xastalanish ming nafar aholiga nisbatan 9 foizdan 14 foizgacha to'g'ri keladi. Ishemik insult miyaning to'liq yoki qisman qon bilan ta'minlanishining to'xtashi oqibatida yuzaga keladi. Insultlar ichida ishemik insult (IS) ustunlik qiladi, ularning ulushi 80% gacha an'anaga ko'ra, ISning katta qismi keksalikda rivojlanadi, ammo so'nggi paytlarda ma'lum yosh guruhlarida (40-59), turli iqlim va geografik mintaqalarda insultning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, insultning tarqalishi sezilarli darajada oshgan. Miyadagi qon aylanishining o'tkir buzilishi bo'lgan gemorragik insult bilan kasallanish darajasi va bemorlarning yoshi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Insultning oqibatlari eng dolzarb muammolardan biridir. Ushbu kasallik tufayli yuzaga kelgan og'ir stress tufayli bemorlarning hayot sifati darhol keskin yomonlashadi, oilaga moslashishda qiyinchiliklar tufayli murakkab ijtimoiy va ruhiy muammolar paydo bo'ladi.

Hayot sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u shaxsning funktsional qobiliyatlarini bevosita yoki bilvosita tavsiflovchi bir qator jismoniy va psixologik jihatlarni o'z ichiga oladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra hayot sifatining ta'rifi mavjud bo'lib, "Hayot sifati - bu insonning hayotdagi mavqeini individual idrok etishi, madaniy muhitni va inson o'z maqsadlari, kutishlari, va qarashlariga muvofiq

yashaydigan qadriyatlar tizimi" [2]. Hozirgacha hayot sifatining aniq ta'rifi mavjud emas, bu esa, o'z navbatida, ushbu jihat va uning tarkibiy qismlarini o'rganish va miqdoriy jihatdan aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjudligini belgilaydi. Hozirgi vaqtda har qanday kasallikni davolash natijalari nafaqat umrni uzaytirish, balki uning sifatini yaxshilash nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqilmoqda. Chunki fiziologik nuqtai nazardan muvaffaqiyatli bo'lgan davolash bemorlarning yomon ijtimoiy moslashuvi yoki ularning holatiga muvaffaqiyatsiz moslashishi tufayli foydasiz bo'lib chiqishi mumkin. Hayot sifati odatda inson hayotining jismoniy, psixologik va ijtimoiy tomonlari qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, insult bilan og'rikan bemorlarning nafaqat kasalligining ichki ko'inishi balki ularning hayot sifati xususiyatini ham o'rganish katta samara beradi.

Xulosa. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, asab kasalliklari nafaqat tibbiyot sohasining balki psixologiyada ham keng o'rganilmoqda. Asab kasalliklari bilan og'rikan bemorlar nafaqat tibbiy muolajalarga balki psixologik yordamga muhtojdir. Ularga psixologik treninglar va metodikalar orqali yordam ko'ratish bilan bir qatorda hayot sifatini ham yaxshilashga xizmat qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Влияние качества жизни на реабилитационный потенциал больных, перенесших ишемический инсульт" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 14.01.11, 2018 кандидат наук Лукьянчикова Лариса Владимировна

2. Новик, А. А. Руководство по исследованию качества жизни в медицине / А. А. Новик, Т. И. Ионова ; под ред. Ю. Л. Шевченко. – 2-е изд. – Москва : ОЛМА Медиа Групп, 2007. – 320 с

BOSHLANG'ICH TALIM TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QO'L MEHNATIGA O'RGATISH

Murodillayeva Muhabbat Madillayevna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi
Тел: +998979269396, E-mail: murodillayevamuxabbat@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf texnologiya darslari jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarurligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, texnologiya, mehnat, qo'l mehnatiga o'rgatishni tashkil etish shakillari, ish turlari, mehnat samaradorligi, texnologik talablar, o'qitish metodlari.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun texnologiya darslari qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Koʻpgina fanlar qatorida yosh avlodning har tomonlama yetuk boʻlishi taʼlim-tarbiya jarayonini toʻgʻri tashkil etishda texnologiya fani oʻzining muhim oʻrniga ega. Oʻquvchi voyaga yetib, qaysi kasbni egallamasin, kim boʻlmasin, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va koʻnikmalari hayotda, albatta, naf keltiradi. Bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs boʻlib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishlarida texnologiya fani asosiy koʻmakchi va muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Oʻquvchilar dars va sinfdan tashqari texnologiya fani davomida tajribalar toʻplanadilar. Tajribalarning texnologik operatsiyalarni bajarish sohasidagi bilim va malakalarga ega boʻladilar. Bu borada mehnatning boshqa turlari singari qoʻl mehnati turidan ham foydalanish jarayonlarini toʻgʻri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoʻl mehnati faoliyatining muhim natijasi—oʻquvchilarning oʻrganilayotgan obyekt va hodisalarning yangi belgi va xususiyatlarini yanada mustaqil aniqlashga daʼvat etib, ularda darsdan darsga yanada chuqur bilim, malaka va koʻnikmalar hosil qildiradi.

Oʻquvchilar qoʻl mehnati sosida bajaradigan ishlar orqali mehnatning juda koʻp xususiyatlarini farqlash, materiallarning oʻxshash xususiyatlarni izlash va topish, ularning aniq amaliy maqsadlar uchun tanlanishini asoslab berishni asta-sekin oʻrganib boradilar. Bularning barchasi bolalarda berilgan qoʻl mehnati topshiriqlari va vazifalarni toʻgʻri bajara olish koʻnikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlangʻich sinflarda qoʻl mehnati faoliyati mehnatning oʻz-oʻziga xizmat turi, maishiy xoʻjalik mehnati, tabiat quchogʻidagi mehnat turlari mazmun-mohiyati bilan bevosita bogʻliq.

Bolangʻich sinflarda oʻquvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlar asoslangan qoʻl mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat taʼlimi jarayoni oʻquvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyigi sinflarda davom ettirilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qiladi. Qoʻl mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiyalar chiqindilari (qogʻoz, karton, sitm, yogʻoch, gazlama va boshqalar) bilan tabiiy va sunʼiy xomashyolar (maxsus loy, yogʻoch va plastmasslar, plastilin, elim va boshqalar) bilan keng isteʼmol mollari va xalq hunarmandchilik mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektor, radiotexnika toʻplamlari va hokazo bilan ishlashga oʻrganadilar. Bularning hammasi oʻquvchilarga qoʻl asbobi bilan ishlash, har hil xom-ashyolardan foydalanishning maʼlum tajribasini toʻplashga imkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va maʼnosini tushinishga, mehnat kishilarda hurmatda boʻlishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishga shakllantirishga yordam beradi. Qoʻl mehnati mehnatning har bir turiga qarab oʻzining pedagogik

imkoniyatlarini hosil qiladi. Uning ahamiyati ham boshqa mehnat turlari ahamiyati kabi u yoki bu bosqichda o'zgarib turadi.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatiga o'rgatishning tashkil qilish shakllaridan yana biri - tabiat quchog'idagi mehnat turlari hisoblanadi. Bolalarning tabiat quchog'idagi mehnati jismoniy rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi, harakatni takomillashtiradi.

Tabiatdagi quchog'idagi mehnat, shuningdek, bolalarning aqliy va sensor rivojlanishlari uchun katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatiga o'rgatishning tabiat quchog'ida mehnat turi 2 xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

Sinfda bajariladigan ishlar.

Sinfdan tashqari, ya'ni sinflar uchun ajratilgan yer maydonchash(uchastka)si, ajratilgan hududlarda ishlash.

Tabiat quchog'ida bajariladigan mehnat bolalarning tarbiyasida ijobiy omillarni shakllanishiga katta asos qo'shadi. Bu mehnat turi orqali bolalardagi kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik yanado oshadi. Ularda qishloq xo'jalik mehnatiga qiziqish ushbu ish bilan shug'ullanuvchi kishilarga nisbatan hurmat-izzatda bo'lish, ular mehnatini e'zozlash xislatlarini tarkib toptiradi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida: bolalarni mehnatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni mehnatsevar, intizomli, har bir ishda ham o'z burchi va mas'uliyatini sezadigan, jamoaviy ishlarni qo'llab quvvatlaydigan qilib tarbiyalash hisoblanadi. Texnologiya darslarida bolalarga ish joyini batartib va ozoda saqlab, asboblarini ayab, ehtiyotlab ishlatish, materiallarni tejab yo'llari o'rgatiladi va ularni shunga odatlantiriladi.

O'quvchilar o'qituvchining darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy jihatdan ko'rgazmali bajarib berishini, mavzunu nazariy va amaliy o'zlashtirish qobiliyat va bilimlarni tekshirishini, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlash usullarini eng boshidan o'rganishlari lozim. O'quvchilar mavzuga oid bilimlarni o'zlashtirgandan keyingina sinfning imkoniyatlarini nazarda tutgan holda yangisini qo'llash mumkin. O'qitish usullari o'quvchilar tomonidan bilimlarni egallanishida shunday xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda turli usullar tizimi qo'llaniladi. Jumladan:

g'zaki bayon qilish;

Tushuntirish va hikoya qilish;

Suhbat;

Mashqlar;

Amaliy ishlar;

Laboratoriya ishlari;

Mustaqil ishlar;

Ekskursiya;

Kitob bilan ishlash;

10. Texnik vositalar.

Bu usullar qo‘l mehnati darslarida bolalarni mehnat qilishning dastlabki malakalarini hosil qildirishda, qog‘oz, karton, gazlama va boshqa materiallardan o‘z qo‘llari bilan turli buyum yasash uchun foydalanish ahamiyatli hisoblanadi.

Qo‘l mehnati mashg‘ulotlarida bolalarga avvalo, eng oddiy buyumlardan turli shakllar, o‘yinchoqlar, xilma-xil o‘yinlar oynash uchun buyumlar, ko‘rgazmali qurollar, o‘qli asboblardan va shu singari boshqa narsalar yasash o‘rgatiladi.

Qo‘l mehnatining boshqa mehnat turlari singari tarbiyaviy imkoniyatlar keng. Ayniqsa, bolalarni aqliy va axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan o‘stirishda qo‘l mehnati ta‘limining roli ko‘p qirralidir. Qo‘l mehnati o‘zining qiziqarliligi va amaliy ishlarga jalb qilish jarayonlari bilan o‘quvchilarning bilim olishlariga intilishlarini qo‘zg‘ovchi nafaqat vositasi, balki uning manbai, omili hamdir.

Mehnat samaradorligini oshirishda qo‘llaniladigan har qanday usul o‘quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilimlarning etarli darajada egallanishiga xizmat qilishi kerak. O‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlari asosida emas, balki buyumni istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olingan.

Mehnat samaradorligini oshirishda hozirgi zamon taraqqiyotidan kelib chiqqan holda, har bir o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiya fanini yaxshi o‘qib, chuqur o‘zlashtirsa o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan ham yuqori natijaga erishdi.

O‘qitish metodlari ma‘lumki, o‘qituvchi va o‘quvchilarning usullari bo‘lib, bular yordamida o‘qituvchi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga erishildi. Har qaysi o‘qituvchi o‘z tajribasida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining pedagogik intilishi va qarashlari, shuningdek, hatti-harakatlari, butun dars jarayonida o‘quvchilarning diqqat e‘tibori susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning chambarchasliglariga yo‘llangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o‘quvchilarni ham shunga o‘rgatish kerak. Shu nuqta nazardan qaraganda o‘quvchilarni mehnatga ruhiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy ta‘limiy va tarbiyaviy vazifalaridan biri bo‘lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Xoliqov A «Pedagogik mahorat» – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil,
- 2.Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf chapaqay o‘quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
- 3.O. A. Qo‘ysinov, V. N. Sattorov, H. S. Yakubova. Mehnat ta‘limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011, 79 b.
- 4.Sanaqulov X. R., Xodiyeva D. P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
- 5.1-4 sinf o‘quv uslubiy tavsiya kitobi. “O‘qituvchi” nashriyoti 2017 yil.

MAKTABGACHA DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Nigmatova Mavjuda Zuvaydulloyevna,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va ularning mohiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, an'anaviylik, innovatsiya, ijodkor, tajriba, erkin fikr, muammo, tarbiya.

Аннотация: В статье описано внедрение инновационных педагогических технологий в дошкольных образовательных организациях и их сущность.

Ключевые слова: обучение, традиционализм, новаторство, творчество, опыт, свободомыслие, проблема, образованию

Abstract. The article describes the introduction of innovative pedagogical technologies in preschool educational organizations and their essence

Key words: training, traditionalism, innovation, creative, experience, free thought, problem, educationю

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi: dunyo rivojlangan davlatlari ta'lim darajasiga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalash. Shunday ekan endigi vazifamiz rivojlangan davlatlarning mentalitetimizga mos keladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash va yangilarini ishlab chiqishdan iboratdir.

So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi ta'lim sohasida sezilarli darajada o'zgarishlarga olib keldi. Yangi pedagogik texnologiyalarni tarbiyalanuvchilarga qo'llashdan oldin tarbiyachi ijodkor bo'lishi lozim. Ijodkor tarbiyachi har bir bola ko'ngliga alohida, individual tarzda yo'l topmog'i, ularning xarakteriga, temperamentiga mos ravishda faoliyat turlariga qiziqtirish uchun yangi metodlardan, pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi shart va zarurdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash:

- ta'lim samaradorligini oshirish;
- tarbiyachilarning malakasini oshirish;
- pedagogik tajribani qo'llash;
- pedagogik tajribalarning tizimliliigi;
- AKT texnologiyalarini qo'llash;
- bolalar sog'ligini saqlash;
- bolalar sog'ligini mustahkamlash;

ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda o'z hissasini qo'shadi.

Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarning bari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sinov-tajriba faoliyatlarini tashkil etish davr talablaridan biridir. Bu kabi mashg'ulotlar barcha rivojlangan davlatlar: Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya singari davlatlarda qo'llaniladi.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatlarini qo'llashdan maqsad:

maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish;

maktabgacha yoshdan boshlab tadqiqotchi, ixtirochi sifatida fikrlashni bolalarga o'rgatish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik, tadqiqotchilik qobiliyatlarni shakllantirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit, borliqqa nisbatan qiziqish uyg'otishdan iboratdir.

Faoliyat turi davomida rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni qimmatbaho, murakkab o'yinchoqlarsiz qanday qilib bolalarga qiziqarli qilib ko'rsata berish mumkin? Bolalarning bo'sh vaqtini qanday qilib samarali tashkil etish mumkin? Eksperimental-tajriba faoliyat turini qay tarzda tashkil etish kerak? Bu tajribalarning amaliy jihatdan bajarilishining bolaga nafi bormi? Bu savollarga quyida javob olamiz. Eksperimental-tajriba faoliyatini boshlagan vaqtda tarbiyachi birinchi navbatda tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotdagi asosiy muammoni bayon qilishi kerak. Muammo bayon qilingandan keyin esa bolalardan mustaqil ravishda bu muammoni qay tarzda yecha olishini, qanday qilib buni bajarishini har bir boladan so'rab-surishtirishi lozim. Bu har bir bolada mustaqillik, erkin fikrlilik qobiliyatlarini shakllantiradi. Keyin esa ushbu muammoni tarbiyachi eksperimental-tajriba usuli yordamida bolalarga yechimini ko'rsatib berishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida har bir bola mustaqil ishlashi, o'zini ko'rsata olishi, tajribalarda amaliy jihatdan ishtirok etishi uchun shart sharoitlar yaratib berilishi kerak. Chunki bola bu kabi faoliyat orqali aniq fikrlashni o'rganadi.

Eksperimental-tajriba faoliyat turlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash davomida tarbiyachi quyidagi metod turlaridan foydalanishi mumkin:

suhbat;

kuzatish;

modellashtirish;

Suhbat davomida bolalarga tajribaning hayotimiz davomida keltiradigan foydasini, afzalliklarini va albatta salbiy tomonlarini ham tushuntira borish shart. Bola ushbu hodisani nihoyatda sinchkovlik bilan kuzatadi. Miyasida analiz qiladi. Xotirasida zudlik bilan saqlab olib, uy sharoitida oila a'zolariga bajarib ko'rsatadi. Eksperimental-tajriba faoliyatlarining afzalligi shundaki, bolalarga o'rgatilayotgan obyektning turli jihatlarini, jumladan hajmi, rangi, shakli, xossalari haqida real tushuncha hosil bo'ladi. Bir faoliyatning o'zidayoq bolaning olgan bilimi

mustahkamlanadi. Eksperimental-tajriba faoliyat turi davomida bolalarning xotirasini boyitish, rivojlantirish, diqqatini jamlash, faolligini oshirish, ishchanligini rivojlantirish kabi psixik va fiziologik xususiyatlarga ijobiy taʼsir qilish mumkin.

Eksperimental-tajriba faoliyat turi davomida bolalarning miyasi quyidagi psixik operatsiyalarni bajaradi:

analiz qiladi;

sintez jarayonini bajaradi;

maʼlum bir hodisani yoki predmetni boshqa bir hodisa yoki predmet bilan taqqoslaydi;

oldingi faoliyatlarda olingan bilimlar jamlanmasini umumlashtiradi;

bolalarning xotira faoliyati bevosita rivojlanadi;

bolalar tajribalarni yaxshi koʻrishadi.

Bolalarni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalashda, barkamol avlod qilib yetishtirishda, avvalo uning jismonan baquvvat, ruhan tetik, aqliy jihatdan yetuk va ijodkor qilib tarbiyalash koʻp jihatdan ota-onalar va maktabgacha taʼlim mutaxassislariga bogʻliq boʻlib, bu borada ulardan katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvni, har tamonlama bilim, kunikma, malaka va ayniqsa kompetentlikni talab qiladi. Toʻgʻri yoʻsinda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qoʻyishga hozirlik koʻradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Ilk qadam» Maktabgacha taʼlim muassasasining davlat oʻquv dasturi. – Toshkent 2018-yil.

2. L.G.Evstafʼeva I. V.Grosheva, S.S.Mirjalolova, M.N.Aʼzamova. Bilimdon (qisqa muddatli guruhlar uchun dastur) –Toshkent. 2020 y.

BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARINI PSIXOLOGIK VA JISMONIY SOGʻLOMLASHTIRISH STRATEGIYASI

Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna

Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika” kafedrasida oʻqituvchisi

Mirodilova Dilshoda Mirjamol qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarini oʻyinlar yordamida jismonan rivojlantirishning oʻziga xos yoʻllari hamda vazifalari ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: boshlangʻich taʼlim, sport, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifatlar.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi jismoniy tarbiya jarayonida oʻquvchi-yoshlar va bolaning yosh xususiyatlari va psixik jarayonlari, shaxs xususiyatlarining rivojlanishini farqlash, psixik jarayonlar (diqqat, nutq, sezgilar, idrok, xayol, xotira, tafakkur, hissiyot va boshqalar), psixik holatlar (emotsiyalar, hayratlanish,

ishonchlilik, ijodiy ruhlanish, e'tiqodlilik, apatiya, qiziquvchanlik, bardamlilik, tetiklik) va shaxs xususiyatlarini (temperament, qobiliyat, iqtidor, mas'uliyat xarakter) jismoniy tarbiya va sport bilan bog'lay olish lozim. Mash-g'ulot jarayoni, uning ta'siri, musobaqa davrida, musobaqadan so'nggi, davr, jamoa orasidagi munosabat holatlarining shakllanishi ahamiyatini bilishi lozim [1. 7].

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining faoliyat turidan qat'iy nazar faoliyat tarkibiy qismi, odatda, bir xil his etish va idrok qilishlar bilan bog'liq bo'lgan perseptiv (masalan o'quvchilarni kuzatish), ma'lumotni eslab qolish va qaytatiklash bilan bog'liq. Bo'lgan mnemik, faoliyat jarayonida yuzaga keladigan vazifani hal etish bilan bog'liq bo'lgan fikrlovchi, tasavvur qilish, yangi mashqlarni o'ylab o'quvchi faoliyatiga ta'sir qilish alohida o'rinni egallaydigan harakatlantiruvchi tarkibiy qismlarga ajratiladi.

Faoliyat bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi, tayyorlanish bosqichi, rejani bajarish (asosiy bosqich) bosqich va erishilganlikni baholash bosqichi (yakunlovchi bosqich).

Birinchi bosqichda jismoniy tarbiya o'qituvchisi juda katta hajmda ish bajaradi. Reja bo'yicha konspekt tuzadi, ularga tayyorlanadi, joylarni (zalni, suv havzasini, sport maydonini, stadionni) tayyorlaydi. Darsga oid bo'lgan barcha sport anjomlarini, qurollarini tayyorlaydi. Bu bosqichga faoliyatni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quvchilarga qulay bo'lgan sharoitlarni yaratish va jismoniy tarbiya o'qituvchisining psixologik tayyorlanganligi kiradi [3. 12].

Ikkinchi bosqichda o'quvchilarni (shug'ullanuvchilarni) nazorat qilish, ularni tarbiyalash (axloqiy, aqliy, estetik, mehnat vazifalarini tarbiyalash jihatidan), tartib saqlash, ularni jarohatlanishdan saqlash va hokazolar kiradi. Belgilangan ishlarni amaliy tatbiq qilish, o'quvchilar harakatlari, intizomini nazorat qilish, dars boshida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, vaziyat o'zgarishiga ko'ra dars rejasini to'g'rilash bilan bog'liq. Bu bosqichda chetda qolgan o'quvchilar o'rtasidagi e'tiborni doimo taqsimlash va olib o'tish jismoniy jarohatlanishga olib keladigan vaziyatining oldini olishga ko'ra o'qituvchining sergakligi bilan shartlanadigan o'qituvchi psixik kuchlanishi bilan tavsiflanadi, boshqacha qilib aytganda, jismoniy tarbiya o'qituvchisiga nafaqat psixik jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham jismoniy yuklanish tushadi.

Uchinchi bosqich (yakunlovchi bosqich) unda o'tkazilgan darsdagi yutuq va kamchiliklarga baho beriladi. Erishilgan natijalar baholanadi, jismoniy tarbiya o'qituvchisining faoliyati funksiyasi jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifalarining kelib chiqishi lozim. Faoliyatni qayta bajarishda rejaga to'g'rilashlarni kiritish bilan bog'liq, o'tilgan darsning to'liq tahlili, ba'zi bir noto'g'ri dalillarni umumlashtirish, ilmiy uslubiy adabiyotda yuzaga kelgan savollarda javob qidirishni talab qiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining asosiy maqsadi ularning garmonik shakllanishiga va jamiyatga sadoqatli, vatanparvar bo'lib yetishishiga yordam berishdir. Shuningdek tarbiyaviy, ilmiy, tashkiliy, rahbarlik, loyihalashtirish, ma'muriy-xo'jalik funksiyalarni ham bajarishga to'g'ri keladi [2. 7].

O'quvchilar jismoniy tarbiyasining maqsadi - Mustaqil Vatanga barkamol rivojlangan va sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirishga yordam berish bo'lib, bu

maqsadga o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi jarayonida erishiladi. Umumiy vazifalarda ochib beriladi va aniqlashtiriladi. Shuningdek, ta'limiy, tarbiyaviy, sog'omlashtirish vazifalari qo'yiladi. Bu vazifalarni hal etishda boshqalari hisobiga birini ustun qo'yishga yo'l qo'ymaslik kerak. Ba'zida sport yo'nalishiga ega bo'lgan o'qituvchilar tarbiyaviy va umumta'lim vazifalarini unutib, asosiy e'tiborni o'quvchilar jismoniy rivojlanishiga beradilar. Boshqa holda ikki tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalari aziyat chekadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyati sharoitlari xususiyati jismoniy mashqlarni ko'rsatish va jismoniy mashqlarni bajarishda o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash hamda ochiq havoda, safarlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar bilan birgalikda harakatlanish zaruriyatidan iborat. Bu kunda bir qancha darslarning mavjudligi jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun katta jismoniy yuklama-ni yaratadi. O'qituvchi butun kun davomida oyoqda tik turishi, harakat-da bo'lishi oyoq va qadni rostlovchilarga yuklama yaratishini hisobga olish kerak. Yosh o'tgan sari jismoniy konditsiyalar yomonlashishini e'tiborga olgan holda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan sinaladigan jismoniy yuklama pedagogik faoliyatining amalga oshirilishini qiyinlashtiradigan omillaridan biri bo'lishi muqarrar. Ayniqsa bu erkak o'qituvchilar jismoniy qobiliyatlari darajasiga qaraganda kam bo'lgan ayol o'qituvchilariga tegishli.

Pedagogik faoliyat pedagogik vazifalarning uzluksiz hal qilinishini bildiradi. Ularni hal qilish - mazkur pedagogik vaziyatga, pedagogik maqsadga erishishini mos usulini topishdir. Sababi o'qituvchi va o'quvchi e'tiborliliigi, o'quv materialiga bo'lgan munosabati, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat hamda o'quvchilar o'zi o'rtasidagi munosabat bilan ish ko'radi. Shuning uchun bir marta va har doim tekshirilgan maqsadga erishishi usuli bilan ishlash ko'p holda qulaydir. Har doim muntazam ravishda maqsadga erishishi usullarini almashtirish, mazkur pedagogik vaziyat uchun eng yaxshi usul tanlash kerak [3. 5].

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi avvalo bolalarni o'rab turgan ijtimoiy muhit tengdoshlari va kattalar o'rtasida bo'ladigan munosabatlarni birinchi kundan boshlab o'rgatib boradi. O'qituvchi bir sinfning o'zida turli xil va individual tafovutlarga duch keladi. Bular o'qituvchi o'quvchilarning temperament tiplari, xatti-harakatlari (ko'nikma malakalari), o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan qanday eslab qolishi, qanday o'zlashtirayotganliklarini, sport musobaqalari, sport bayramlari hamda estafetalarda qanday faollik ko'rsatayotganliklarini (boshqa ish shakllarida) bilishidan iboratdir.

Yana shuni aytish kerakki, o'rgatish jarayonida mashqlarni qismlarga bo'lib o'rgatishdan ko'ra, soddalashtirilgan holda butunlay o'rgatish metodini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan: yugurib kelib uzunlikka sakrash (echki bolasiga (uloqchaga o'xshab) sakrash), yugurib kelib balandlikka sakrash (ariqdan sakrab o'tishga o'xshab). Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, to'planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish (u yoki bu mashqlarni, elementlarni

bajarishi), mashqlarni takrorlashi, irodaviy zo‘r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek, u uning eng zarur xususiyatlari takomillashadi, bu esa ongli boshqarish imkoniyatini beradi.

Yosh avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati beqiyos. Xususan boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasida ham sport katta o‘rinni egallaydi. Sport jismoniy tarbiya vositasi sifatida bolalarning sog‘ligini mustahkamlaydi. Bu imkoniyatlarni amalga oshirishda jismoniy tarbiyaning sinfdan hamda maktabdan tashqari shakllarining o‘ziga xos maqsad, vazifalari borki unga ko‘ra sport to‘garaklarini tashkil etish va tizimli joriy etish o‘quvchilarning sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga shuningdek jismoniy jihatdan kamol topishida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсупова Зулфизар Шариповна Методы организации физической подготовки в дошкольных образовательных организациях // Проблемы науки. ISSN 2542- 0801(online) ISSN 2413-7081-(print)ГОСТ 7.56-2002. – 2020. – №. 09 (54) ст.46- 48

2. Yusupova Zulfizar Sharipovna, Shukurov Rahim Salimovich, Akramova Gulxayo Sharipovna (scopus) The features of the psychological preparation process of turon figrtersto competitions // International Journal of psychosocial, vol 24, ISSUE 06, 2020 ISSN:1475-7192 ст.3076-3083

3. Юсупова З.Ш. АCADEMY научно-методический журнал Принципы и методы организации физкультурно-спортивных мероприятий в образовательных учреждениях. ISSN 2412-8236 ГОСТ 7.56-2002 ст.96-99

4. Юсупова З.Ш. Ученый XXI века международный научный журнал Требования к выполнению упражнений на уроках физкультуры. УДК 37. ISSN 2410-3586.

5. Yusupova Zulfizar Rakhimova Laylo Methods for determining the degree of physical fitness USA International Conference SCIENTIFIC RESEARCHES FOR DEVELOPMENT FUTURE March 28, 2020, New York, ст.76-79

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA SHAXS FAOLIYAT TURLARI VA FAOLIYATLAR INTEGRATSIYASI JARAYONIDA MAS’ULIYATLILIKNI SHAKLLANTIRISH

Zaripova Muslima,

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrasining katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatlilikni shakllantirishga doir nazariy qarashlar tahliliga tayangan holda ushbu jarayonga ilmiy manbalarda yetakchilik qiluvchi shaxsiy-faoliyatli va aksiologik yondashuvlardan foydalanish haqida gap boradi

Kalit soʻzlar: masʼuliyatlilik, tartiblilik, aksiologik yondashuv, nazariy qarashlar.

Abstract: The article discusses the use of personal-activity and axiological approaches based on the analysis of theoretical views on the formation of responsibility among younger schoolchildren, leading to this process in scientific sources

Keywords: responsibility, orderliness, axiological approach, theoretical views.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida faoliyatlar turlari integratsiyasi asosida masʼuliyatlilikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish uchun ularga qoʻyilayotgan zamonaviy talablarni, umumiy oʻrta taʼlim sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish qonuniyatlariga tayanish orqali oʻrganishni zarurat, deb hisobladik.

Kichik maktab yosh davri – bola rivojlanishning oʻziga xos boʻlgan davri boʻlib, bu davrda fiziologik oʻzgarishlar bilan bir qatorda psixologik rivojlanish ham juda tez surʼatlar bilan amalga oshadi va bolada ichki ruhiy kechinmalar, oʻz xatti-harakatlarini ichki boshqaruvi paydo boʻladi. Va eng muhimi bola oʻz faoliyati mazmuni hamda yoʻnalishini aniqlay boshlaydi.

Maktabga ilk qadam qoʻygan bola faoliyatida ixtiyoriy xatti-harakatlarning paydo boʻlishi muhim tarkibiy oʻzgarishlardan biri hisoblanadi. Bolaning xatti-harakatlari vositalar va qoidalar asosida amalga osha boradi, oʻz xatti-harakatlari uchun dastlabki javobgarlik talablari qoʻyila boshlanadi. Ammo 1-sinf oʻquvchilarining ushbu jarayonga adaptatsiyasi qiyinchilik bilan amalga oshadi. 6-7 yoshla bolalarning xatti-harakatlari tashqi taʼsirlarga koʻra turlicha boʻladi va ular idrok etgan maʼlumotlarga bogʻliq holda amalga oshadi. Agar bola oʻz faoliyatida ichki tartib-intizomga ixtiyoriy ravishda amal qilib borsa, demak unda intizomlilik, masʼuliyatlilik, tartiblilik, javobgarlik hamda jamoada oʻzini tutish qoidalarini oʻzlashtirish kabi psixologik sifatlar shakllangan boʻladi.

Oʻz xatti-harakatlari uchun javobgarlik, anglangan faoliyatni amalga oshirish – maktab tartib-intizomiga moslasha boshlagan boshlangʻich sinf oʻquvchilariga xosdir. Bu yoshida bola oʻz imkoniyatlarini toʻgʻri baholashni oʻrganadi, jamoada oʻz oʻrnini anglaydi, oʻz “MEN”ini anglay boshlaydi, oʻziga baho berishni oʻrganadi.

Kichik maktab yoshida bola oʻz-oʻzini tahlil qilish asosida oʻzini boshqa insonlar bilan qiyoslaydi, oʻz faoliyatiga obyektiv baho berishni oʻrganadi, jamoaga kirishuvchanlik darajasi oʻsadi, ijtimoiy tajribani egallaydi, ijtimoiy meyorlar mohiyatini anglagan holda jamiyat oldidagi javobgarlikni his etishni boshlaydi. Eng asosiysi, ular jamoaga, tabiatga, atrofida tilarga munosabatida oʻz nuqtai nazariga ega boʻladi, barcha insonlarning pozitsiyasini aniqlashni oʻrganadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida masʼuliyatlilikni shakllantirishga doir nazariy qarashlar tahliliga tayangan holda ushbu jarayonga ilmiy manbalarda yetakchilik qiluvchi shaxsiy-faoliyatli va aksiologik yondashuvlardan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Falsafiy va 136omponent manbalardagi ushbu yondashuvlarni batafsil tahlil qilgan holda, mas'uliyatlilikni shakllantirish muammosini hal etishga nisbatan ularning o'rnini tadqiq etamiz.

Pedagogikada shaxsiy-faoliyatli yondashuvning mohiyati keng tadqiq etilgan 136ompo'lim-tarbiya tizimida keng foydalanib kelinmoqda. Pedagogik tadqiqotlarda faoliyat subyekti sifatida qaralayotgan bola shaxsi, uning individual xususiyatlarini inobatga olishga alohida urg'u beriladi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda, ta'lim metodlarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yondashuvga ko'ra har bir jarayon subyektining rivojlanishi ularning faoliyati davomida hamda shaxslararo munosabatida tarkib topadi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv davomida shaxsiy va faoliyatli 136omponent bog'liqligini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga shaxsiy sifatlar faoliyat davomida tarkib topadi.

Mazkur yondashuvda boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatlari mazmunida shaxslik sifatleri o'z ifodasini topadi. Bunda faoliyat shaxs shakllanishi va rivojlanishi omilining asosiy manbasi sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyatlilikni shakllantirishda shaxsiy-faoliyatli yondashuvni tatbiq etishda barcha shaxslik sifatleri nafaqat namoyon bo'ladi, balki shaxsning hayotini tashkil etuvchi faol faoliyatda shakllanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'yin, o'quv-biluv va mehnat faoliyatlari xarakterlidir.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida o'yin maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar hayotida yetakchi faoliyat turi sifatida qaraladi. Bolaning asosiy ehtiyojlari, xohish-istaklari, orzu-umidlari o'yinda o'z ifodasini topadi. Eng avvalo mustaqillikka intilish, kattalar hayotida faol ishtirok etish mazkur yoshdagi bolalarga xosdir. Bolaning rivojlanishiga ko'ra u tomonidan anglanayogan dunyo kengayib boradi, kattalar faoliyatida ishtirok etishning ichki talablari paydo bo'la boshlaydi. O'yinda bola kattalarga taqlid qilishga intilgan holda ba'zi rollarni o'ziga ola boshlaydi. Bola o'ynab turib mustaqil harakatlanadi, o'z xohishlarini, tasavvurlarini, tuyg'ularini erkin ifodalaydi. O'yin natijasida boshqa faoliyat turlari ham paydo bo'ladi va tabaqalashuv amalga oshadi. O'yin rivojlanish davomida bola boshqa faoliyatlarga tegishli bo'lgan komponentlarni ham o'zlashtira boradi. Masalan, maqsad qo'yishni, rejalashtirishni, natijaga erishishni o'rganadi.

Xuddi shuningdek kichik maktab yoshidagi bolalarda o'quv-biluv faoliyati ham xarakterlidir. Aqliy tarbiyaning mazkur jihati bolada taafakkur amallarini, bilish jarayonlarini va qobiliyatlarini rivojlantirish sifatida qaraladi. Tafakkur faoliyati nutqsiz bo'lishi mumkin emas. Bola nutqqa ega bo'la turib, u mos so'zlarda o'z aksini topgan predmetlar, belgilar, harakatlar va munosabatlar haqidagi bilimlarga ega bo'ladi. Bola nutqqa ega bo'lganidan so'ng, u atrof olamga boshqacha nazar bilan qaray boshlaydi. U nafaqat bevosita ko'rib turgan predmetlari bilan ish bajaradi, balki ayni vaqtda uning shaxsiy tajribasida uchramaganlari bilan ham amallar bajara boshlaydi. Bu esa uning bilish faoliyati chegaralarini kengaytiradi: u o'zi bilgan vositalardan o'z dunyoqarashini

kengaytirishda badiiy asar, kattalarning hikoyasi, tushuntirishlari kabilardan foydalanadi. Shu sababli mas'uliyatlikni shakllantirish muammosini o'rganishda kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqiy-bilish faoliyatiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mehnat faoliyati davomida bolalar mehnat ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Mehnat ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni majburiy bo'lmasdan, balki bolaga kattalardan mustaqil bo'lishga ko'mak beradigan ko'nikmalardir. Bolaning mehnati kasbiy sifatlarni shakllantirishga qaratilmaydi, ammo mehnatda shaxsning juda ko'p hayotiy muhim sifatlari rivojlanishi ma'lum. Mehnatda maqsad qo'yish qobiliyatini rivojlantirish uchun maqsadni anglash, natijani ko'ra bilish, harakatlanish usullari va ko'nikmalariga ega bo'lish juda ham muhimdir. Bola mehnatining o'ziga xosligi shundaki, unda faoliyatning barcha tarkibiy komponentlarini bo'lishga qaramasdan, ular hali rivojlanish bosqichida bo'lib, albatta kattalarning ishtiroki va yordamini nazarda tutadi.

Shunday qilib, kichik maktab yoshidagi bolalarda mas'uliyatlikni shakllantirish uchun nazariy-metodologik asos sifatida shaxsiy-faoliyatli yondashuvlardan foydalanamiz. Mazkur yondashuvlarni uyg'unlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyatlikni shakllantirish muammosini hal etish uchun yetarli darajada asos bo'la oladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Мавлонова П.А. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Тошкент, 2005. – 104 б.

2.Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.

3.Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primary school as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world //Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.

4.Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school//ISSN 2311-2158 The Way of Science International scientific journal. № 8 (78), 2020. ISSN 2311-2158. The Way of Scienc. – P. 37-41.

5.Qosimova G.I.Systematic model of formation of the images of natural science and its effective implementation didaktik state// International Journal for innovativer Engineering and Management Research (Hindiston). Vol 10 Issue01, Jan 2021 ISSN 2456 – 50832021. – P. 63-68.

6.Qosimova G.I. The process of cognition of the surrounding world by primary school students and the balance of the laws of scientific knowledge// AKADEMICA An international Multidisciplinary Research Journal (Hindiston). Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – P. 2249-7137.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN TA‘LIMDAN FOYDALANISH

Qosimova Gavhar Islomovna

*Qashqadaryo viloyati PYMO ‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich
va maxsus ta‘lim kafedrasida dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada integratsiya kursining o‘quv fanlaridan biri bo‘lib, fanlararo bilimlarni (138ntegrative bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o‘rganilishi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya ob‘ektlari asosida tuzilganligi haqida ma‘lumot berilgan.

Tayanch so‘zlar: integratsiya, pedagogika, ta‘lim, differentsiatsiya, ta‘lim, psixologiya.

Аннотация: В статье интеграционный курс является одним из учебных предметов, который изучается с целью углубления и увеличения междисциплинарных знаний (интегративных знаний), а также их формирования. Приводится информация, что она составлена на основе различных типов, методов, стилей, объектов междисциплинарной интеграции.

Ключевые слова: интеграция, педагогика, образование, дифференциация, воспитание, психология.

Abstract: In the article, the integration course is one of the academic subjects that is studied with the aim of deepening and increasing interdisciplinary knowledge (integrative knowledge), as well as its formation. Information is provided that it is compiled on the basis of various types, methods, styles, objects of interdisciplinary integration.

Key words: integration, pedagogy, education, differentiation, upbringing, psychology.

Pedagogik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, integratsion asosda fanlarni o‘rgangan o‘quvchilar predmetli o‘rgatishning chiziqli kurslarini qisqa muddatda o‘zlashtirmoqdalar. Tez o‘kitish maqsad qilib olinmaganiga qaramasdan, undagi tabiat, mehnat, rasm, o‘qish soxasidagi elementlar bu fanlarni tez o‘rganishda umidli asos bo‘lib hizmat qilmokda. Pozitiv natijalar deb dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlarning zamonaviy darajasiga to‘g‘ri baxo berish; o‘quvchi oldida olamning ko‘p o‘lchovli dunyo manzarasining dinamikada, turli bog‘lanishlarda yaratish, aylantirish; ko‘rish gorizontlarining kengaytirish, o‘zi uchun dunyo qaytadan kashf etish, o‘quvchi bilan muloqotdagi yangi metodik shakllarni izlash; turli mutaxassislar faoliyatlarini muammolarni hal etishda birlashtirish, o‘quv faoliyatida toliqishiing oldini olish, yangi sifatli 138ntegrati natija olish, ta‘limning yangi falsafasi bo‘lishi, 138ntegrati protsessining 138ntegrative borlig‘ini aks etishga aytiladi.

Integratsiyaga qarshi, fikrlar muammo tug‘ilishi xavfini yaratishi mumkin. Ayrim olimlar integratsiyani mexanik birikishga xavf tug‘diradi deb hisoblamokdalar. Ta‘lim muassasalari rahbarlari ko‘pincha integratsion kursning

maqsad va vazifalarini aniqlashda kerakli o'quv dasturini tanlashda, o'qituvchilar malakasini oshirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shunday qilib, integratsiya ta'lim rivojlanishga zamin yaratgan holda, har bir maktabda dolzarb muammo ham bo'lib kelmoqda. Bu integrative yondashuv mohiyatini tushunmaslikdan kelib chiqmoqda. Ta'lim tizim tashkilotchilari zimmasiga bu masalani to'g'ri yechishda katta mas'uliyat tushmoqda. Ta'lim mazmunining insoniylashtirishda asosiy mexanizm deb integratsiya anglatiladigan, ya'ni zamonaviy maktabning rivojlanishida ilg'or tendensiyalar ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

Integratsiya kursi- o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlarni (integrative bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya ob'ektlari asosida tuzilgan.

Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik. «Integratsiya» so'zi lotincha integrative-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan. Ikkita tushunchaga egamiz:

Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik xolatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya – fransuzcha (integrantion lotincha differentia – farq, har hillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini integratsiyalash – dunyo tendensiyasi (g'oya, fikr, intilish). Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat- jamiyat – inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyoning birligi xaqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

Kursning maqsadi – bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suxbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir. Kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot

san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish. Bu savod o'z ichiga odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to atrof-muxitdagi hodisalar bilan muloqotni kiritadi.

Kursning maqsadlaridan yana biri o'zi yashaayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va (ijtimoiy) dunyosi haqida, olamda xukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, balki obrazli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kursning ta'limiy kichik maktab o'quvchilarining kurs bilan parallel ravishda asosiy fanlarni ham o'rganishlariga hamda o'rta maktab ta'limida qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi

Fanni o'rganish borasida vazifalar jumlasiga quyidagilar kiradi.

1. O'quvchilarda tizimli fikrlashning mo'ljali asosini shakllantirish;
2. Hayotning vujudga kelishida tabiatning birlamchi ekanligini qonuniy deb tushunish;
3. O'quvchilarni tabiiy o'zgarishlarini kuzatish vositasida evolyutsion qonuniyatlarini anglashga o'rgatish;
4. Tabiiy muammolarni, mustaqil aqliy operatsiyalar vositasida hal qilish mumkinligini tushuntirish va ularni hal qilish yo'llarni 140ntegra qobiliyatini tarbiyalash;
5. Tabiat go'zlliklarini anglash, ularni asrash ekologik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish

Integrasiya kurslarining sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin: maqsad va muammolar asosida : maktab tabiiy- ilmiy tizimidagi vazifalari asosida: qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida integrasiya usullari va yo'llari asosida: o'quv rejasidagi o'zni asosida: kursni o'rganishda sarflangan vaqt asosida: o'quvchilar uchun qiyinli darajasi asosida va h.k. Shuni e'tiborga olamizki, bu kurslarning mualliflari odatda o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni echish masalasini qo'yadilar, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tadbiiq etishga urinishlarini ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni moxiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin. Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (klasifikasiya).

8. Ko'p fanlar integrasiyasi.

Ularni ya'ni universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarining bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishida va o'z kurslarini 140ntegrative yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikka faqat darslar

tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu ananaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limga ham darslarga ajratib o'qitish ananalari tarqalgan deb hisoblaydilar.

Tabiiy fanlarni o'qitishni tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qiladilar. Bularga umumiy tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi "tabiatshunoslik") kiradi.

2. Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Keng integrasiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiatshunoslik, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlarida ekologik mavzular kiritilgani ko'riladi. Bir-biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekulyar biologiya, biofizika, gيوفيزика, biokimyo, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrative tabiiy fanlari tuziladi.

3. Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayoni o'rganuvchi integrative psixologiya, fanning insonning boshqahayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi: kibernetika-boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash: informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanishi. Bu sinfdagi integrative kurslarni mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

4. Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar. Bu asosda integrative kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: "materiya", "harakat", "modda", "maydon", "energiya" va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sarmahsuli tabiatni saqlash qonuni, odamlarining ish faoliti tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasidagi integrative kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy – ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shuni e'tiborga o'ying, bu asosda integrative kurslar yaratishga urishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovushmaganligi va ma'lum ketma-ketlikga, didaktik maqsadga ega eamsligi bilan ajralib turadi.

5. Fan evolyusiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtaiy nazardan o'rganish uslublarini, olmning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar.

Yuqoridagi barcha mavzular 142ntegrative mazmunga ega va tadbiiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday kurslar maktab ish faoliyatida qo'llanuvchi materialning va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q.

6. Kompleks ob'ektlar asosida.

Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks ob'ektlarga er, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir ob'ekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integrasiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda aytish mumkinki qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

7. Turli muammolar asosida

Integrativ kurslarni turli 142nteg (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tadbiiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy ilmiy fanlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi 142ntegrative kurslar (asosan ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan 142ntegrative kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi.

Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi deggan tasdiqlashni asos qilib olganlar.

8. Faoliyat asosida

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib 142ntegra, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish- turli o'quv - ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadilar. O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu sinfdagi 142ntegrative kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tadbiiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari chet ellik o'quvchilarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirsalar ham, uni tadbiiq qilishda sezilarli darajada orqada qoladilar.

Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Sabab nimada? Balki ularning biri ko'p yillar davomida an'anaviy maktabda 142ntegrative darslarga e'tibor berilmaganidadir?

Bu erda bugungi kungacha yaratilgan 142ntegrative kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integrasiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

Birinchiidan. Aytib o‘tilgan tabiiy 143ntegrative kurslarni tuzish yo‘llari ko‘pincha bir-birini takrorlaydi va birga qo‘llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish, ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

Ikkinchiidan. Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o‘rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

Uchinchiidan. Tabiiy ilmiy ta‘limning optimal tuzilishi shundayki, 143ntegrative kurslar o‘quv rejasining o‘zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

To‘rtinchiidan. To‘liq o‘quv metodik qo‘llanmalarining yo‘qligi 143ntegrative ..mualliflari progrmma tuzib, umumiy metodik ko‘rsatmalar tuzishgandan so‘ng to‘xtab qoladilar.

Beshinchiidan. Integrativ kurslar uchun o‘qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali etilgani yo‘q.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мавлонова Р.А. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Тошкент, 2005. – 104 б.

2. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.

3. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primary school as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world //Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.

4. Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school //ISSN 2311-2158 The Way of Science International scientific journal. № 8 (78), 2020. ISSN 2311-2158. The Way of Scienc. – P. 37-41.

5. Qosimova G.I. Systematic model of formation of the images of natural science and its effective implementation didaktik state // International Journal for innovativer Engineering and Management Research (Hindiston). Vol 10 Issue 01, Jan 2021 ISSN 2456 – 50832021. – P. 63-68.

6. Qosimova G.I. The process of cognition of the surrounding world by primary school students and the balance of the laws of scientific knowledge // AKADEMICIA An international Multidisciplinary Research Journal (Hindiston). Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – P. 2249-7137.

7. Qosimova G.I. Development of natural scientific thinking in elementary school students style // galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol. 9, Issue 5, May (2021). – P. 467-470.

8. Qosimova G.I. Olamning tabiiy-ilmiy manazarasi tushunchasini metodologik asoslari // Mug‘allim ham uzliksiz bilimlendirio‘. – Nukus, 2020. – №6/1. – B. 87-91 (13.00.00, № 20).

NOFILOLOG OLIY TA'LIM MUASSASIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING KASBIY POTENSIAL IMKONIYATLARINI ANIQLASHTIRISH ASPEKTI

Rashidova Madina Raxmatovna,
*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar
Instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarning kasbiy potentsialining ko'p qirrali xususiyatlarini hamda ularning imkoniyatlarini aniqlashtirish aspektlari va turli mezonlari o'rganiladi. Kasbiy potentsialning qanday imkoniyatlari mavjudligi, mazkur imkoniyatlarning aniqlashtiruvchi omillar atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. kognitiv qobiliyatlar, shaxsiy xususiyatlar, kasbiy potentsial, analitik fikrlash, ta'lim qobiliyati, motivatsiya, chidamlilik.

Kirish. Bugungi kunda, uzluksiz rivojlanish g'oyalarini amalga oshirishni muayyan davlatlarning barqarorligiga erishish bilan emas, balki butun ijtimoiy taraqqiyot jarayonining barqarorligini ta'minlash bilan bog'lash muhim. Bu tushuncha nafaqat hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirishga, balki ma'naviy-intellektual ehtiyoj va manfaatlar asta-sekinlik bilan ustun bo'lgan paytda ularning yuksalishiga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ta'lim insonning butun hayoti davomida alohida o'rin tutadi, bunda asosiy maqsad va ma'no shaxsni mustaqil tanlov qiladigan, o'z xatti-harakati va faoliyati uchun javobgar bo'lgan erkin, ijodiy shaxs sifatida shakllantirish va uni doimiy ravishda boyitishdir. Buning uchun ta'limga insonparvarlik xarakterini berib, uni uzluksiz va yetakchi yo'nalishga aylantirib, o'quvchilarning global tafakkurini, mustaqil bilim olish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishni ta'minlashimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmonida [1] oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli qarorida pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish vazifalari belgilangan bo'lib, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va takomillashtirish, ularning bilim-ko'nikmalarini uzluksiz ravishda shakllantirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalangan holda bo'lg'usi pedagog kadrlarni keng jamiyatga yetkazib berish vazifasi bugungi kunda oliy ta'lim tizimiga qo'yilgan eng izchil muammo va

vazifalardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda talabalarning kasbiy potensial imkoniyatlarini aniqlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy potensial deganda shaxsning yashirin qobiliyatlari va fazilatlari tushuniladi, ular rivojlangan va tarbiyalanganda professional kontekstda muvaffaqiyatli va samarali ishlashga olib kelishi mumkin. U bir qator ko'nikmalar, malakalar, munosabat va shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oladi, bu insonning o'zi tanlagan kasbida muvaffaqiyatga erishish va ko'tarilish qobiliyatiga yordam beradi.

Kasbiy rivojlanish nazariyasi muallifi Donald Super o'z ilmiy tadqiqotida kasbiy potensial rivojlanishida o'z-o'zini anglash muhimligini ta'kidlab, odamlarning o'z qobiliyatlari va qiziqishlari haqidagi tushunchalari vaqt o'tishi bilan rivojlanib, ularning professional salohiyatiga ta'sir qilishini ko'rsatadi [6].

Yana bir olim Jon Hollandning kasbiy shaxslar va ish muhiti nazariyasida (RIASEC modeli) shaxsning shaxsiyat turi va ularning ish muhiti o'rtasidagi muvofiqlik ishdan qoniqish va kasbiy salohiyatni oshiradi, deb ta'kidlaydi [2].

Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, kasbiy potensial nafaqat shaxsning o'z iqtidor va qobiliyatidan kelib chiqib aniqlanadi, balkim, uning faoliyatiga ta'sir etadigan ish muhitining ham o'rni katta ekanligini keltirishimiz mumkin.

Nofilologik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy potensial imkoniyatlariga ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bizningcha ular ikki turdan, ichki va tashqi omillardan iborat:

Ichki omillar:

Kognitiv qobiliyatlar: analitik fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati va o'rganish qobiliyati.

Shaxsiy xususiyatlar: motivatsiya, chidamlilik, moslashuvchanlik va hissiy aql.

Shaxslararo ko'nikmalar: Muloqot, jamoada ishlash va yetakchilik qobiliyatlari.

Tashqi omillar

Ta'lim muhiti: o'qitish sifati, o'quv dasturining dolzarbligi va resurslarning mavjudligi.

Tajribali o'rganish: Amaliyotlar, amaliy loyihalar va sanoat ta'siri.

Qo'llab-quvvatlash tizimlari: Mentorlik, martaba bo'yicha maslahatlar va tengdoshlar tarmoqlari [3].

Ichki omillar - bu ularning kasbiy salohiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan shaxslarning ichki xususiyatlari va holatlaridir. Ushbu omillarni turli tajribalar va ta'lim tadbirlari orqali rivojlantirish va kuchaytirish mumkin.

1. Kognitiv qobiliyatlar

Analitik fikrlash: ma'lumotni mantiqiy tahlil qilish, naqshlarni aniqlash va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati. Kuchli tahliliy ko'nikmalar ongli qarorlar qabul qilish va professional sharoitlarda innovatsiyalar uchun juda muhimdir.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalari: qiyin yoki murakkab masalalarga yechim topish qobiliyati. Bu tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ta'lim qobiliyati: yangi bilim va ko'nikmalarni tez va samarali egallash qobiliyati. Yuqori ta'lim qobiliyati odamlarga yangi muammolarga moslashishga va doimiy ravishda o'z malakalarini oshirishga imkon beradi [6].

2. Shaxsiy xususiyatlar

Motivatsiya: maqsadlarga erishish va to'siqlarga qarshi turish uchun ichki harakat. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan shaxslar faol xatti-harakatlar bilan shug'ullanishadi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga intilishadi.

Chidamlilik: muvaffaqiyatsizliklardan qutulish va qiyinchiliklarga ijobiy nuqtai nazarni saqlab qolish qobiliyati. Bardoshli odamlar stressni engishlari va o'z maqsadlariga e'tiborni qaratishlari mumkin.

Moslashuvchanlik: yangi sharoitlarga moslashish va o'zgarishlarni qabul qilish qobiliyati. Moslashuvchan shaxslar dinamik va rivojlanayotgan professional muhitda muvaffaqiyat qozonish ehtimoli ko'proq [3].

Hissiy intellekt: O'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tan olish, tushunish va boshqarish qobiliyati. Yuqori hissiy intellekt shaxslararo munosabatlarni, jamoada ishlashni va yetakchilik qobiliyatlarini oshiradi.

Tashqi omillar - bu shaxsning kasbiy salohiyatiga ta'sir qiluvchi atrof-muhit va kontekstual ta'sirlar. Bu omillar ko'pincha shaxsning nazorati ostida emas, lekin ularning rivojlanishi va martaba muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1. Ta'lim muhiti

Ta'lim sifati: O'qitishning samarali usullari va malakali o'qituvchilari o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ishtirok etuvchi va qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchilar talabalarni ilhomlantirishi va ijobiy ta'lim tajribasini rivojlantirishi mumkin.

O'quv rejasining dolzarbligi: Joriy sanoat standartlari va kelajakdagi mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladigan yaxshi ishlab chiqilgan o'quv dasturi talabalarning tegishli ko'nikma va bilimlarni egallashini ta'minlaydi [5].

Resurslar va imkoniyatlar: kutubxonalar, laboratoriyalar va texnologiyalar kabi zamonaviy manbalardan foydalanish o'rganish imkoniyatlarini va amaliy tajribani oshiradi.

2. Tajribali ta'lim

Amaliyot va ishga joylashish: Haqiqiy sharoitlarda amaliy tajriba talabalarga nazariy bilimlarni qo'llash, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va sohaga oid tushunchalarga ega bo'lishga yordam beradi.

Loyihalar va tanlovlar: Loyihalar, tadqiqot tashabbuslari va akademik tanlovlarda ishtirok etish tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar: To'garaklar, sport va ixtiyoriy ishlar bilan shug'ullanish yetakchilik, muloqot va tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, nofilologik ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy salohiyati murakkab va ko‘p qirrali tuzilish bo‘lib, u turli akademik, shaxsiy va tajribaviy omillarni o‘z ichiga oladi. Ularning imkoniyatlarini aniqlovchi aspektlar orqali salohiyatli kadrlarni tarbiyalash, yetishtirish, shu bilan bir qatorda kadrlarning potensiali natijasida ishga joylashtirish mazkur sohaning rivojlanishiga samarali tasir ko‘rsatadi. Ushbu mezonlarni tushunish va baholash orqali o‘qituvchilar, ish beruvchilar va siyosatchilar talabalarni ta’limdan ishga o‘tishda yaxshiroq qo‘llab-quvvatlashlari va ish kuchida muvaffaqiyatga erishish istiqbollarini oshirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

2. Holland, J. L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments -3rd ed. 1997. pp. 200-201.

3. Kram, K. E. Mentoring at work: Developmental relationships in organizational life. Glenview, IL: Scott Foresman.1985. pp. 67-68

4. M.Rashidova. “Kreativ fikrlovchi talaba yoshlarning kasbiy potensial imkoniyatini oshirish zarurati”. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/5/1] ISSN 2181-7324

5. Migranova E.A., Poziova Sh.X. Kasbiy pedagogik faoiyatga kirish / o‘quv qo‘llamna. - Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018. - 200 b.

6. Super, D. E. A Life-Span, Life-Space Approach to Career Development. In D. Brown, L. Brooks, & Associates (Eds.), Career Choice and Development -2nd ed., 1990. pp. 197-261.

7. Каршиева, Д. К. О‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o‘rni / Д. К. Каршиева, О. Н. Усмонова. // Молодой ученый. - 2023. - № 2 (449). -С. 500-505.

<https://scirp.org/reference/referencespapersreferenceid=147991>

<https://www.researchgate.net/publication/232463073>

TA’LIM TIZIMIDA ZO‘RAVONLIK TASAVVURLARINING NAMOYON BO‘LISHI

Sa’dullayeva Moxinur,

*Urganch davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti “Pedagogika”
kafedrasi o‘qituvchisi. 99897 459 33 39*

Annotatsiya: Mazkur maqola ta’lim tizimida zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi va uning oqibatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Zo‘ravonlikning turli shakllari va sabablarini tahlil qilib, uning oldini olish va kamaytirish uchun samarali strategiyalarni aniqlash maqsad qilingan. Maqola nafaqat zo‘ravonlikning salbiy ta’sirlarini, balki ularning ta’lim jarayonidagi psixologik, ijtimoiy va akademik oqibatlarini ham ko‘rib chiqadi.

Kalit soʻzlar: Zoʻravonlik, taʼlim tizimi, maktab zoʻravonligi, psixologik tazyiq, oldini olish strategiyalari, jismoniy zoʻravonlik, hissiy zoʻravonlik, oʻqituvchi va oʻquvchi munosabatlari.

Kirish: Zoʻravonlik muammosi taʼlim tizimining muhim masalalaridan biridir. Zoʻravonlik nafaqat jismoniy, balki psixologik va hissiy zarar yetkazishi mumkin. Maktab muhitidagi zoʻravonlik oʻquvchilarning ruhiy salomatligiga, oʻziga boʻlgan ishonchiga va akademik yutuqlariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Zoʻravonlikning turli shakllari mavjud boʻlib, ularga jismoniy zoʻravonlik, psixologik bosim, kiberzoʻravonlik va ijtimoiy izolyatsiya kiradi.

Zoʻravonlikning sabablarini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, bu muammo koʻp qirrali boʻlib, oilaviy, ijtimoiy va shaxsiy omillar bilan bogʻliq. Oila muhitidagi zoʻravonlik, ota-onalar tomonidan etarli eʼtibor berilmasligi va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashning yetishmasligi oʻquvchilarda zoʻravonlikka moyillikni oshiradi. Shuningdek, maktabdagi ijtimoiy muhit va oʻqituvchilar bilan munosabatlar ham zoʻravonlikning paydo boʻlishiga taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Mazkur maqola taʼlim muassasalarida zoʻravonlikning turli shakllari, sabablarini aniqlash va ularning oqibatlarini oʻrganish maqsad qilingan. Zoʻravonlikning oldini olish uchun qanday choralar koʻrish mumkinligi ham muhokama qilinadi. Tadqiqot shuningdek, zoʻravonlikning maktab muhitidagi taʼsirini va oʻquvchilarning oʻzini oʻzi anglashiga taʼsirini oʻrganadi. Maktabda zoʻravonlikning oldini olish uchun joriy etiladigan strategiyalar va ularning samaradorligi haqida ham toʻxtalib oʻtiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili zoʻravonlikning sabablari va oqibatlarini chuqur oʻrganishga imkon beradi. Zoʻravonlikning turli shakllari va uning taʼlim jarayoniga taʼsiri boʻyicha koʻplab tadqiqotlar oʻtkazilgan. Quyida mashhur olimlarning bu sohadagi ishlari keltirilgan.

Smith va Sharp (1994) oʻzlarining “Maktabdagi bezorilik: tushunchalar va istiqbollari” kitobida zoʻravonlikning maktab muhitida qanday namoyon boʻlishini va uning oqibatlarini batafsil tahlil qilgan. Ular zoʻravonlikning psixologik va jismoniy shakllarini oʻrganib, uning oʻquvchilar ruhiyatiga va ijtimoiy hayotiga taʼsirini koʻrsatib bergan. Ularning tadqiqotlari zoʻravonlikni kamaytirish uchun taʼlim muassasalarida qanday choralar koʻrish mumkinligini ham tahlil qiladi [1].

Dan Olweus zoʻravonlik tadqiqotlari sohasida yetakchi olimlardan biridir. Uning “Maktabda bezorilik: biz nimani bilamiz va nima qila olamiz” asarida maktab zoʻravonligining sabab va oqibatlari keng qamrovli tahlil qilingan. Olweus modeli zoʻravonlikni oldini olish boʻyicha maktablarda keng qoʻllanilgan va u koʻplab muvaffaqiyatli natijalarni koʻrsatgan. U zoʻravonlikning oldini olish uchun oʻqituvchilar va ota-onalarni jalb etish muhimligini taʼkidlaydi [2],[9].

Ken Rigbyning tadqiqotlari zoʻravonlikning psixologik oqibatlarini oʻrganishga qaratilgan. Uning “Maktablarda bezorilikning oqibatlarini” maqolasida zoʻravonlikka uchragan oʻquvchilarning ruhiy salomatligi, oʻzini oʻzi baholashi va akademik muvaffaqiyatsizliklari haqida batafsil maʼlumot berilgan. Rigbyning tahlillari zoʻravonlikning uzoq muddatli oqibatlarini ham yoritadi [3].

Dorothy Espelage va Susan Swearer “Amerika maktablarida bezorilik: profilaktika va aralashuvning ijtimoiy-ekologik istiqboli” kitobida zo‘ravonlikning ijtimoiy-ekologik yondashuvini taklif qiladi. Ular zo‘ravonlikni oldini olish uchun maktab, oila va jamoat hamkorligini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlari zo‘ravonlikning ijtimoiy omillarini o‘rganishga qaratilgan [4].

Kowalski, Limber va Agatston “Kiberhujum: raqamli asrda bezorilik” kitobida internetda zo‘ravonlik mavzusini yoritadi. Ular kiberzo‘ravonlikning sabablari, shakllari va oqibatlarini batafsil tahlil qiladi. Ularning tadqiqotlari kiberzo‘ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish strategiyalarini ham ko‘rib chiqadi [5].

Gini va Pozzoli (2009) o‘zlarining “Bezorilik va Psixosomatik muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlik: Meta-tahlil” maqolasida zo‘ravonlikning psixosomatik muammolar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ularning meta-tahlili zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarda turli xil sog‘liq muammolari yuzaga kelishini tasdiqlaydi. Bu tadqiqot zo‘ravonlikning jiddiy salomatlik oqibatlari haqida xulosa chiqarishga imkon beradi [6].

Christina Salmivalli “Bezorilik va tengdoshlar guruhi: Sharh” maqolasida zo‘ravonlik va tengdoshlar guruhi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. U zo‘ravonlikning ijtimoiy dinamikasini va o‘quvchilar orasidagi rol taqsimotini tahlil qiladi. Salmivallining tadqiqotlari zo‘ravonlikka qarshi samarali kurashish uchun tengdoshlar guruhining ahamiyatini ta’kidlaydi [7].

Bu olimlarning tadqiqotlari zo‘ravonlik muammosini har tomonlama o‘rganishga imkon beradi va uning oldini olish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi zo‘ravonlik muammosini har tomonlama o‘rganish uchun turli xil yondashuv va metodlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda ko‘p metodli yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarga nisbatan zo‘ravonlikning turli shakllarini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Tadqiqotning nazariy asoslari va qo‘llanilgan metodlar quyidagicha:

Nazariy asos. Tadqiqotda ijtimoiy-ekologik nazariya qo‘llanilgan bo‘lib, bu nazariya zo‘ravonlikning turli darajalardagi ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv Bronfenbrennerning ijtimoiy-ekologik modeliga asoslanadi, bu modelga ko‘ra, insonning rivojlanishi mikro, mezo, ekzo va makro darajalardagi omillar bilan bog‘liq. Tadqiqotda ushbu nazariyani qo‘llash orqali zo‘ravonlikning oilaviy, maktab va jamoat omillari o‘rganiladi [10].

Metodlar: So‘rovnomalar

Maqsad: O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida zo‘ravonlikning turli shakllari va uning sabablari haqida ma’lumot to‘plash.

Jarayon: So‘rovnomalar anonim tarzda o‘tkaziladi va unda qatnashuvchilarning zo‘ravonlik bilan bog‘liq tajribalari, hissiy holati va zo‘ravonlikning oqibatlari haqida savollar beriladi.

Intervyular: Maqsad: Zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarning chuqur his-tuyg‘ularini va tajribalarini o‘rganish.

Jarayon: Yarim strukturali intervyular orqali o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkaziladi. Intervyular orqali zo'ravonlikning sabablarini va uning ta'sirini batafsil tahlil qilish mumkin.

Kuzatishlar: Maqsad: Maktabdagi zo'ravonlik holatlarini bevosita kuzatish va qayd etish.

Jarayon: Maktabdagi darslar, tanaffuslar va boshqa tadbirlar paytida kuzatishlar o'tkaziladi. Kuzatishlar yordamida zo'ravonlikning real holatlari va ular qanday sharoitda sodir bo'lishi aniqlanadi.

Statistik tahlil: Maqsad: So'rovnomalar va intervyular orqali to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish.

Jarayon: Olingan ma'lumotlar statistik dasturlar yordamida tahlil qilinadi. Bu yerda deskriptiv statistika, korrelyatsiya tahlili va regresion tahlil kabi metodlardan foydalaniladi.

Adabiyotlar sharhi: Maqsad: Ilg'or tadqiqotlar va amaliyotlar haqida bilim olish, zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha samarali strategiyalarni aniqlash.

Jarayon: Mavzuga oid ilmiy maqolalar, kitoblar va hisobotlar tahlil qilinadi. Bu tahlil orqali mavjud bilimlar va tajribalar umumlashtiriladi va tadqiqotning nazariy asosi mustahkamlanadi.

Metodlarning o'zaro bog'liqligi

Bu metodlarning o'zaro bog'liqligi zo'ravonlik muammosini har tomonlama o'rganishga yordam beradi. So'rovnomalar va intervyular orqali to'plangan ma'lumotlar kuzatishlar bilan tasdiqlanadi va statistik tahlil orqali umumlashtiriladi. Adabiyotlar sharhi esa tadqiqot natijalarini nazariy asoslashga imkon beradi. Bu yondashuv zo'ravonlikning sabab va oqibatlarini chuqurroq tushunishga va uning oldini olish bo'yicha samarali choralarini aniqlashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ushbu maqolada ta'lim tizimida zo'ravonlikning namoyon bo'lishi va uning oqibatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari zo'ravonlikning turli shakllari, jumladan, jismoniy, psixologik va kiberzo'ravonlikning o'quvchilar ruhiy holatiga, o'zini o'zi baholashiga va akademik muvaffaqiyatlariga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Takliflar: Zo'ravonlikni kamaytirish va uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun quyidagi strategiyalarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Zo'ravonlikka qarshi ta'lim va tarbiya:

1. O'quvchilar va o'qituvchilar uchun zo'ravonlikning salbiy oqibatlari va unga qarshi kurashish usullari haqida muntazam ravishda treninglar o'tkazish.

2. Ota-onalarni zo'ravonlikka qarshi kurashda faol ishtirok etishga jalb qilish va ular uchun maxsus seminarlar tashkil etish.

3. Ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash:

4. Maktab hududida xavfsizlik choralari kuchaytirish, jumladan, kuzatuv kameralarini o'rnatish va xavfsizlik rejasini ishlab chiqish.

5. Zo'ravonlik holatlariga tezkor javob berish va oldini olish bo'yicha o'qituvchilar va xodimlar uchun maxsus treninglar o'tkazish.

6. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash:

7. Zoʻravonlikka duch kelgan oʻquvchilar uchun psixologik yordam va maslahat xizmatlarini tashkil etish.

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishi, deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash, o'quvchilarda deviant xulq-atvorni nomoyon bo'lishi, o'quvchilarda deviant xulq-atvorini oldini olish.

Kalit so'zlar. Malaka oshirtish jarayoni, Deviant xulq atvor, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, bolalarni tarbiyalash, ota-ona ma'suliyati, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy nosog'lom muhit, mehirsizlik, shavqatsizlik.

Asrlar zanjirida shaxs kamoloti va e'tiroflarini o'rganar ekanmiz, insonlarning jamiyatdagi o'rnini bashariyatning umumiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanishiga guvoh bo'lamiz. Zamonaviy dunyoda xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va mamlakatlarning jahon maydonida raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan zarurat, davlatlarning ta'limga oid siyosatini takomillashtirish dolzarb masala sifatida talqinlanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlanishi lozim bo'lgan ayni haqiqat shuki, jamiyat rivojidadagi yangilanish zarurati va ehtiyoji zaminida ta'lim-tarbiya omili hamda uni amalga oshirishda esa umumta'lim maktabi o'qituvchilari asosiy poydevor vazifasini o'taydi. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanish darajasi o'qituvchining mahorati bilan belgilanadi.

Keyingi yillarda respublikada uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg'or elektron texnologiyalarni joriy etish hamda umuta'lim maktablarida ta'lim berishning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Davlatimiz rahbari Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "zamonaviy pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak

beradigan muhitni yaratish” [3; 284-b.] dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, malaka oshirish jarayoni va bunda olinadigan tajribalar o’qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga yo’naltirilgan, kompetensiyasini rivojlantiradigan muhim sharoit ekanligi oquvchilar o’rtasika kuzatilayotgan ‘shubhaga o’rin qoldirmaydi. Shu bilan birgalikda prezidentimizning: “Agar rahbarlar, muallimlar Yangi O‘zbekistonga munosib harakatlar qilsa, farzandlarimizni davr talabiga munosib o‘qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini – zurriyodini ishonib beryapti, bu juda katta mas’uliyat. Shuni his qilib, o‘zimizni qiynab, maktabni isloh qilsak, kelajakka zamin yaratamiz”, – degan ta’kidlari, jumladan, davlatimiz rahbarining maktab o’qituvchilarini yangi metodikalar asosida qayta tayyorlash bo‘yicha umummilliy loyiha boshlanishini e’lon qilishi malaka oshirish jarayonini tubdan isloh qilish mavzusini yanada mustahkam g‘oyaga aylantirmoqda [17; 1-b.].

Bu o‘z navbatida pedagog xodimning yangicha yondashuvlar, o‘zgarishlar, tamoyillar, chaqiriqlarga samarali munosabat bildirishi hamda mustaqil holda ongli va ijodiy o‘zgartirishlar kirita olish kompetentligini ham zaruriy ko‘nikma tariqasida belgilash ehtiyojini vujudga keltiradi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o’qituvchilar uchun “ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini o‘zlashtirishni, elektron psixologiyani tushunishni, ta’lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlarni egallash” va “xalq ta’limini boshqarishda elektron rejalashtirishning zamonaviy shakllarini yaratish, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, sohada xalqaro tajribadan kelib chiqib, ilg‘or yutuqlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish” [9] dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanishi bejiz emas.

Shu o‘rinda uzluksiz kasbiy rivojlanish teriminiga to‘xtalib o‘tsak, ushbu atama ta’lim oluvchilarning professional vazifalari doirasidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Maqola misolida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o’qituvchilarining deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘z-o‘zini namoyon qilish, mustaqil bilim olish, idroki, tafakkuri, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, konsultativ va innovatsion faoliyatga turg‘un motivatsiya shakllanishini nazarda tutuvchi qisqa muddatli, muammoli, mualliflik o‘quv kurslarini taklif etish ularning bilim sifati, jumladan, o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligining yanada ortishiga xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va o‘rganishlar natijasida qanchalik ko‘p islohotlar o‘tkazilmasin, milliy pedagogikada malaka oshirish jarayoni tinglovchilarini deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo’naltirish tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmaganligining guvohi bo‘lindi. Shuningdek, tadqiqot manbasi hisoblangan malaka oshirish, ya’ni uzluksiz kasbiy rivojlanish sohasida 170lectr yillarda olib borilgan islohotlar hamda ilmiy izlanishlar ularning ahamiyatli jihatlari batafsil bayon qilish lozim, deb hisobladik.

Bizningcha, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilarini deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo’naltirish, bu boradagi 170lectron170 kompetentligini rivojlantirish malaka oshirish shakllarini tubdan isloh qilish va olib borilayotgan

o'zgarishlarni tezroq amaliyotga kiritish, tajribada sinalganlik holatida xulosa chiqarishni talab qiladi, ya'ni:

- malaka oshirish jarayonida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashga yo'naltirishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

- o'quvchilar bilan ishlashda uzluksiz shaxsiy-kasbiy rivojlanish muhitini yaratish;

- zamon bilan hamnafas bo'lish, kelajak o'zgarishlarini avvaldan anglash, qadriyatlarni yarata olish, qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tatbiq etish.

Mazkur yo'nalishdagi vazifalar ijrosini samarali ta'minlash maqsadi hamda amalga oshirilajak ishlar mexanizmi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida [7] o'z aksini topgan deb xulosa qilinsa o'rinli bo'ladi. Xususan, mazkur Farmonda belgilangan quyidagi asosiy yo'nalishlar xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi hamda yetaklovchi funksiyani bajaradi:

mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, elektron va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib elektron uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib 171lectro;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib 171lectro tizimini yaratish, elektron resurslar hamda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

Shuningdek, respublikamizda "Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi"ning institutsional tuzilma tarzida shakllantirishga doir harakatlarning boshlanishi ham ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorining talablari yoki istiqbollarga mos kasblarga o'qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat bo'lgan butun ta'lim jarayonini yangilash zaruriyatini dolzarblashtiradi. Shu

maqsadda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda qabul qilingan “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4939-sonli Qarorini ta’lim sohasida navbatdagi burilish nuqtalaridan biri sifatida ta’kidlash mumkin. Qarorda belgilangan, “ta’limning eng past darajasiga qo‘yiladigan talablarni bekor qilgan holda, har bir lavozim va kasb bo‘yicha malaka doirasiga muvofiq malaka darajasiga talablar kiritilishi”, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish majburiyati [12] o‘qitish tizimini o‘zgartirish, jumladan, o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini o‘stirishga doir yondashuvlarni zamonaviylashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

Jumladan, yuqoridagi Qaror avvalroq qabul qilingan ikkita muhim hujjatning, ya’ni “O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi” hamda “Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to‘g‘risidagi Nizom”ning amaliyotga kiritilish jarayonlarini yanada mustahkamladi [15]. Yuqorida keltirilgan hujjatlardagi vazifalarning ijrosini ta’minlash uchun “Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisining kasb standarti” ishlab chiqildi. Muhimi shundaki, o‘qituvchi faoliyatini baholashga qaratilgan kasb standarti mazmunida “O‘qituvchi tarbiyaviy ishlarni ta’lim oluvchilarning rivojlanishiga va ijtimoiy me’yorlar shakllanishiga ko‘maklashuvchi turli shakllarda tashkil etadi”, “O‘qituvchi tarbiyaviy faoliyatni qadriyatlarini rivojlantirib va tarbiyaviy ishlarni interfaol shakl va usullarini qo‘llab olib boradi”, “O‘qituvchi barcha o‘quvchilar uchun psixologik va jismoniy xavfsiz muhitni yaratadi” [18] kabi kompetensiya standartlarini o‘z ichiga oluvchi katta mazmunni o‘zida aks ettirgan. Bunday talab o‘qituvchining o‘quvchi tarbiyasi bilan olib borayotgan faoliyatining yanada muhimligini bildiradi.

Zamonaviy yondashuv hamda o‘zgarishlarni o‘zida jamlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963-son Qarorida belgilangan vazifalar xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish borasidagi tom ma’nodagi yangiliklarga qaratilgan huquqiy-me’yoriy hujjat bo‘ldi, desak o‘rinli bo‘ladi [11]. Ushbu metodologik asos bilan malaka oshirish jarayoni davriylikdan uzluksizlikka o‘tkazildi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” [6] maqsadi alohida ta’kidlanib, bu borada xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirib borishga ustuvorlik qaratish, malaka oshirish turlarini kengaytirish, muqobil shakllarini iste’molga kiritish hamda o‘zaro aloqadorligini ta’minlash orqali kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish ta’lim tizimiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish uchun metodologik asos vazifasini o‘taydi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiyot va jamiyat ravnaqining mavjud talablariga javob beruvchi o‘qitish madaniyatini vujudga keltirish, ta’lim nazariyasi

va amaliyotini integratsiyalash, tizimning barcha ishtirokchilari hamda ish beruvchilarning muvaffaqiyatli o‘zaro ta‘sirini qaror toptirishni ilgari suradi. Kutiladigan natija esa, raqobatbardosh, ijodiy tafakkurga ega, murakkab vaziyatlarda mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, mustaqil, o‘zgarishlarga chidamli, moslashuvchan, butun umri davomida o‘qishga o‘zini motivlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxslardir. Shubhaga o‘rin yo‘qki, bu maqsad va natijalarga faqatgina sifatli ta‘lim hamda yuksak mahoratli o‘qituvchilar bilangina erishish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘qituvchilarni deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirishni amalga oshirish, o‘qituvchining o‘z kasbi doirasidagi talablarga muvofiq kompetentlik darajasini ko‘tarish, jumladan, ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o‘rganish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. – O‘RQ-406-son / QHMMB, 14.09.2016. 03/21/683/0375-son.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6017-sonli Farmoni. – QHMMB, 01.07.2020-y., 06/20/6017/1021-son.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4963-son Qarori. – QHMMB, 26.01.2021. 07/21/4963/0064-son.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4939-son Qarori. – QHMMB 31.12.20., 07/20/4939/1703-son.

6.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-son qarori. – QHMMB, 16.05.2020. 09/20/287/0595-son.

7.Yusufaliyev E.M. Deviant xulq-atvorning pedagogik talqinlari // Pedagogika. – Toshkent, 2019. – № 2. – B. 31-37.

8.Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari: ped. fan. nom... diss. – Toshkent, 2007. – 176 b.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik>.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Vandalizm>.

<https://en.wikipedia.org/wiki/Graffiti>.

O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL O'QUV NATIJALARINI BAHOLASH TEXNOLOGIYALARI

Pardayev Sherzod Mamasharipovich,

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o'qituvchisi
sherzodpardayev84@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning individual o'quv yutuqlarini baholashning zamonaviy texnologiyalari sifatida formativ va summativ baholashlar mohiyati to'g'risida so'z yuritiladi shuningdek, formativ va summativ baholashning asosiy farqlari bayon etilgan. O'quvchining mustaqil fikrlashi, o'zgaralar fikrini anglashi, nutq va muloqot madaniyati rivojlanishi kompetensiyasi bo'yicha yetarli darajada egallashlari ko'zda tutiladi. O'quvchilarning o'quv natijalarini baholashning an'anaviy baholash tizimining afzalliklari hamda yutuqlari, shuningdek baholashga mezonli yondoshuvning amaliy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: baho, baholash, o'quvchilarning o'quv natijalari, formativ baholash, summativ baholash, mezonli baholash.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ 4623-son Qarorida «mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish, yuksak madaniyatli, amaliy, kasbiy ko'nikmalarga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagogik kadrlarni tayyorlash» kabi ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida olib borilayotgan islohotlarda, eng avvalo, ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish, zamonaviy mehnat bozorining real talablariga mos ravishda o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika sohalarining juda tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya masalalariga yangicha yondoshishni talab qilmoqdaki, bu o'z navbatida, o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak vazifalar va mas'uliyatni yuklaydi. Bu borada ta'kidlashimiz mumkinki, bizning mamlakatimizda yangi ta'lim tizimi modernizatsiya qilinib, jahon miqyosidagi ta'lim makoniga kirish arafasida. Bu ta'lim-tarbiya jarayonidagi sezilarli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Buning sababi shundaki, ta'lim paradigmasi o'zgargan, ta'lim mazmuni ham yangilangan, yangi yondashuvlar va yangi g'oyalar paydo bo'lgan. Kelajak avlodni jamiyat talablariga mos ravishda tarbiyalash va

o'qitishda o'qituvchilarning pedagogik faoliyatining ilmiy-amaliy asoslarini o'zlashtirishi muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Raqamli manbalar oqimi kuchaygan davrda inson qobiliyati, iste'dodi, atrofmuhitdagi yaxshi munosabatlarni rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali o'qitish ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'limning zamonaviy talabi – ijodkor, zamonaviy bilimga ega raqobatbardosh va malakali insonni tarbiyalashdan iborat. Bu yerda quyidagi savollar paydo bo'ladi: ta'lim jarayonida o'quvchilar orasida o'zaro bir-birini tushunish va jamoaviy munosabatlarni o'rnatib, o'quvchilarda paydo bo'ladigan xavotirlarning oldini olish va bartaraf etish, imkoniyatlarni kengaytiradigan omillar nimalardan iborat? Baholash tizimi o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir qiladimi? Ushbu savollarga bugungi kunning javobi – mezonli baholash bo'lib hisoblanadi.

Mezonli baholash – bu ta'limning maqsadi va mazmuniga mos keladigan, o'quvchilarning o'quv-bilish malakalarini, o'quv ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shadigan, aniq belgilangan, jamoa bilan ishlab chiqilgan, ta'lim jarayoni ishtirokchilariga oldindan ma'lum bo'lgan muayyan mezonlar bilan bilim oluvchilarning o'quv yutuqlarini taqqoslashga asoslangan jarayon. Ilgari maktabni boshqarish muhimligi ta'kidlangan bo'lsa, bugungi kunda asosiy e'tibor maktab direktorlari ko'magida o'qitish jarayonida yetakchilik jarayoniga, baholash va yuqori malakali o'qituvchilar va innovatorlarning ishlarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Avvaldan biz sifatni nazorat qilganmiz, kelajakda ham biz uni ta'minlaymiz. Albatta, mavjud baholash tizimining afzalliklari ham bo'lganki, aynan shuning uchun ham uzoq vaqt saqlanib kelingan. Bu afzalliklar: birinchidan, oddiyligi, ikkinchidan, an'anaviylik, uchinchidan, hamma uchun tushunarli, to'rtinchidan, hammabop, universal, beshinchidan, ta'siri kuchli. Mavjud baholash tizimining kamchiliklari: o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar uchun tushunarli bo'lgan rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish uchun baholashning aniq mezonlari mavjud emas; o'qituvchi har bir o'quvchining yagona mezonlarga erishishiga emas, balki butun sinfning o'rtacha bilim darajasiga e'tibor qaratib, belgi qo'yadi; mavjud baholash tizimi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini emas, balki bilimlarni o'zlashtirish natijasini aks ettiradi; bilim oluvchilarga berilgan baholar o'quv dasturining alohida bo'limlari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarning aniq elementlarini o'zlashtirish haqida tasavvur bermaydi, bu esa har bir o'quvchi uchun individual ta'lim trayektoriyasini aniqlashga imkon bermaydi; ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida operativ aloqa mavjud emas, bu esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan yuqori motivatsiyasiga yordam bera olmaydi. An'anaviy baholash tizimi o'quvchining darsga tayyorgarligini muntazam tekshirish va baho qo'yish bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, barcha o'quvchilar bilimni baholash bitta o'qituvchining shaxsiy munosabati va bilimidan kelib chiqib amalga oshiriladi, baholash jarayoni to'liq inson omiliga bog'liq, zamonaviy talablarga mos keladigan individual yondashuv va aniq baholash mezonlari mavjud emas. An'anaviy eski baholash tizimida ob'ektivlik eng katta muammolardan biri bo'lib kelgan. Bunga sabab, tizimning deyarli 90 foizi inson omiliga asoslangan edi. Ya'ni o'quvchi bilimiga beriladigan baho birgina o'qituvchining

munosabatidan kelib chiqib belgilangan. Mezonli baholash tizimida esa inson omilini imkon darajada minimallashtirish koʻzda tutilgan.

Mezonli baholash asosida 4K usuli — ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va kooperasiya (hamkorlik) yotadi. Tizim quyidagi tamoyillarga asoslangan:

a) reproduktiv daraja. Reproduktiv darajadagi topshiriqlar mazmuni oʻquvchilarning, oʻquv materialini qayta ishlamagan holda esda saqlab qolish qobiliyatini aniqlab beruvchi qonunlar, xossalari, formulalar, tushunchalar va atamalarning mohiyatini oʻrganish, eslab qolish va idrok etishga moʻljallangan;

b) produktiv daraja. Topshiriqlar mazmuni mavzuni oʻzlashtirishda fanning qonun va qonuniyatlari, xossalari va formulalarini qoʻllash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash va qarama-qarshi qoʻyish, bir qancha qonun va qonuniyatlardan foydalanishdan iborat. Shu bilan birga, umumlashtirish va xulosa qilish talab etiladi;

v) mulohaza yuritish. Intellektual darajadagi topshiriqlarning mazmuni oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qoʻllashni, qonun va qonuniyatlardan foydalangan holda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirishni talab qiladi. Anʼanaviy va mezon asosida baholashning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1 – Jadval

Baholash usullarining qiyosiy tavsiflari

Anʼanaviy baholash	Mezon asosida baholash
Baholashda subyektivlik	Baholashda obyektiv yondashuvning keng tarqalganligi, subyektiv omilning kamayishi
Aniq, asosli baholash mezonlarining mavjud emasligi	Ishning turlari va mazmuni bilan belgilanadigan mezonlar asosida baholash
Joriy baholardan oʻrtacha arifmetik tamoildan foydalangan holda yakuniy baho qoʻyish	Yakuniy bahoni oʻquv yili davomidagi va yakuniy ishda erishilgan oʻquv yutuqlarini umumlashtirish sifatida belgilash
Besh nuqtali belgilash tizimidan oʻzboshimchalik bilan foydalanish	Besh ballli baholash tizimiga asoslangan darajalarni farqlash
Baholash birinchi navbatda oʻqituvchi tomonidan amalga oshiriladi	Talabalarga oʻz yutuqlarini oʻz-oʻzini baholash tartibini taʼminlash
Tasodifiy baholar toʻplami	Baholashni tashkil etishda mezonga asoslangan va reyting yondashuvlari asosida baholash
Oʻquv materialining "qiyinligi" ni hisobga olmaslik	Ball bilan oʻlchangan baholash

Mavzu sohasi mazmunining Intilish darajasiga muvofiq, fan sohasini murakkabligini tanlash o'zlashtirishda murakkablikni tanlash qobiliyatining yo'qligi

Xulosa va takliflar. An'anaviy baholashda o'quvchilar bilimi 5 balli tizimda baholanib, kunlik bahosi ko'proq choraklik bahosini chiqarishda asosiy rol o'ynaydi va uni unchalik ham xolis baholash deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki, o'qituvchi o'quvchilarni 5 balli tizimda nisbiy baholab keladi. Yangi baholash tizimi esa mezonlarga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchining aniq qaysi bilimi, qaysi ko'nikmasi asosida baholanishi oldindan ishlab chiqilgan. Shu asosida ularning bilimi, olgan bilimni amaliyotga qo'llashi, mulohaza, mushohada qilish ko'nikmalari ham baholanadi. Mazkur tizim amaldagi baholashdan mazmun va yondashuv jihatdan tubdan farq qiladi. Hozirda qo'llanilayotgan baholash tizimining afzalliklari bilan birgalikda kamchiliklari ham mavjud. Amaldagi baholash tizimi asosan o'quvchini yangi mavzuni qanchalar yaxshi o'zlashtirgani va ma'lumotlarni yodda saqlab qolinganligini baholovchi mezonlarga asoslangan. Taklif etilayotgan baholashdagi mezonlar o'quvchilarning egallagan bilimi natijasida hosil bo'lgan amaliy ko'nikmalarini baholaydi. Bunda o'quvchilarni uchta yo'nalishga: savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarga e'tibor qaratiladi. Amalda baholash o'qitish jarayoning so'nggi nuqtasi sanalgan bo'lsa, taklif etilayotgan tizimda baholash o'quv jarayonining kulminatsiyasi hisoblanib, baholash natijalariga ko'ra o'qituvchi keyingi o'quv maqsadlarini belgilaydi va faoliyatini korreksiyalaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, baholash o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, unga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Mezonlarga asoslangan baholashni joriy etish maktab amaliyoti o'quv jarayonining turli tomonlarini rivojlantirish uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratadi. Biroq, mezonlarga asoslangan baholashning afzalliklariga qaramay, maktab amaliyotida bunday baholashdan noto'g'ri foydalanish xavfi mavjud. Ta'lim amaliyotida mezonlarga asoslangan baholashdan foydalanish samaradorligi quyidagi bir qator omillarga bog'liq: baholash mezonlarining obektivligi va shaffofligi; metodlar, vositalar va baholash materiallarining fan sohasiga muvofiqligi; o'qituvchilarning baholovchi sifatidagi kompetentlik darajasi. Baholashning yangi tizimini joriy etish baholash vositalari va tartiblarini yaratish va takomillashtirish bo'yicha doimiy ish olib borish, mezon asosida baholashning eng samarali amaliyotlarini o'rganish va ularni mamlakatimiz ta'lim tizimi amaliyotiga moslashtirish bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Quyidagi masalalar maxsus o'rganishni talab qiladi: turli baholash maqsadlarini amalga oshirish uchun baholash usullaridan integrativ foydalanish; har xil turdagi baholash protseduralari va vositalarining ishonchligi va asosligini ta'minlash; o'qituvchilarning baholash savodxonligini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги «Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ 4623-сон Қарори

2.Moeed A. (2015) Theorizing Formative Assessment: Time for a Change in Thinking. The Educational Forum. Vol. 79, No 2, P. 180–189.

3.Pardayev Sherzod Mamasharipovich. (2023). O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL O‘QUV NATIJALARINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 193–196. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.870>

4.Pardayev, S. M. (2023). POSSIBILITIES OF USING DIGITAL PLATFORMS FOR ASSESSING INDIVIDUAL EDUCATIONAL ACHIEVEMENTS OF STUDENTS. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595), 3(10).

5.Pardayev, S. M. (2023). FORMATIVE ASSESSMENT AS A TOOL FOR MONITORING STUDENTS'INDIVIDUAL LEARNING ACHIEVEMENTS AT SCHOOL. Thematics Journal of Education, 8(Q1).

6.Pardayev, S. M. (2023). PORTFOLIO AS A FORM OF ASSESSMENT OF STUDENTS'INDIVIDUAL LEARNING ACHIEVEMENTS. European Journal of Research volume, 8(7), 31-41.

7.Пардаев, Ш. (2023). Роль информационных технологий в формировании методических навыков студентов. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 215-217.

8.Pardayev, Sh, M. (2024) O‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholashda Google Forms ning imkoniyatlaridan foydalanish. Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika institutining «Fan va jamiyat» jurnali 2024 yil №2 2 son 2 серия aprel 45-47 betlar.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK TAMOYILLARNING O'RNI

Norova Kamola Yunusovna,

ZARMED universiteti o'qituvchisi. +998936261012

norovakamola@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, ilmiy bilimlarni berishda didaktik tamoyillarning mohiyati va ahamiyati haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, metod, tamoyil, kategoriya, ta'lim tizimi, guruhli ta'lim, individual ta'lim, ta'lim vositalari, ta'lim mazmuni, didaktik tizim, ta'lim texnologiyasi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda uzluksiz ta'lim tizimi oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobiy hal etiladi. Talabalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning taqdiri haqida qayg'urish, uning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonish, shuningdek, talabani xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtai

nazarga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi. Didaktikada esa ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq etiladi.

Didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - talaba, talaba - o'quv material, talaba - boshqa talabalar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

-ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

-ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi. So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda. 1) bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui; 2) bilim olish – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni; 3) ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati; 4) malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli; 5) ta'lim – talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon; 6) ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui; 7) ta'lim mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati; 8) ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, videoproyektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar; 9) ta'lim jarayoni – o'qituvchi va talabalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; 10) ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati; 11) ta'lim

maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya; 12) ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi; 13) ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilashdir (1).

Didaktik tamoyillar o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlari asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialini mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta'lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga bu tamoyillar o'qituvchilar va talabalarga yaxlit jarayonning bosqichlariga amal qilish, o'zaro aloqalar va hamkorlikni amalga oshirishga imkon beradi.

Didaktik tamoyillar ta'lim mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g'oyalarni ifodalaydi:

- Fuqarolik tamoyili - unga ko'ra ta'lim mazmunini shaxsning subyektivligini rivojlantirish, uning ma'naviyligi va ijtimoiy yetukligiga yo'naltirishda namoyon bo'lishi kerak. U ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o'zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, uning mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog'liq.

- Ilmiylik tamoyili - ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi. -Ta'limning tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, talabalarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

- Fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi (ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi)- umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi kabi ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'la va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda

sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi.

- Tabiat bilan uyg'unligi- Y.A.Komenskiy o'zining tabiatga uyg'un bo'lishi g'oyasini ifoda etib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligini ta'kidlaydi (2). Ertalabki soatlar mashg'ulotlarni bajarish uchun juda qulay hisoblanadi. Demak, tabiat bilan uyg'unlik g'oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta'lim tamoyilining asosi hisoblanadi. O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yishda tabiatga uyg'un bo'lishi g'oyasining davomchisi bo'lgan. O'zining "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asarida bola shaxsining tabiiy mukammalligiga ishonch bildiradi. A.Avloniy bola tabiatan go'zallik va mehribonlik bilan uyg'unlikda tug'iladi deb yozadi (3). Allomaning fikricha, ta'lim va tarbiyaning vazifasi bola shaxsining rivojlanishi uchun yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat. Abdulla Avloniy bolani milliy madaniyat, vatanga muhabbat asosida tarbiyalash g'oyasining tarafdori bo'lgan, bu xususida allomaning asarlarida quyidagi fikrlar o'z ifodasini topgan: "... odam tug'ilgan va o'sib ulg'aygan shaharni va shu shahar joylashgan mamlakatni bu odamning Vatani deb aytadilar. Biz turkistonliklar o'zimizning quyoshli diyorumizni jonimizdan ham ortiq yaxshi ko'rishimiz kabi arablar o'z Arabistonini, ... eskimoslar esa o'zlarining Shimolini yaxshi ko'radilar" deb yozadi. A.Avloniyning fikricha, xalqparvarlikka asoslangan ta'lim va tarbiya yoshlarga vatanparvarlik namunalarini ko'rsatishga undashi kerak.

- Insonparvarligi- bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmati, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlash, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini topishda yordam ko'rsatishi va hokazolarni nazarda tutadi. "Insonparvarlik" va "odamiylik" so'zlari yunoncha humanus "odamiylik" bir so'zdan kelib chiqqan. Insonparvarlik, odamiylik ma'naviy-axloqiy tushunchalardir. Insonparvarlik g'oyasi antik davr faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va boshqalar) qarashlarida ilk bor ko'zga tashlanadi. Markaziy Osiyoda insonparvarlik g'oyalari Sharq Uyg'onish davrida keng rivojlandi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, bolani eng avval o'qimishli, saxovatli inson qilib tarbiyalash kerak (4). Zero, salbiy nuqsonlar bolalikdan paydo bo'ladi. Shu bois oilada tarbiyani yo'lga qo'yishda xatolikka yo'l qo'yimaslik zarur.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Y.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin" (1).

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 foiz, ko'rib qabul qilish esa – 25 foizni

tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgacha ortadi. Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda talabalarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. An'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ta'limning ishonchliligi va mustahkamligini ta'minlash uchun talabalar ta'lim olish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab qolish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yicha ma'lum faoliyatni amalga oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish. Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir. Ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha talabalar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir.

Guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili shaxsning, bir tomondan atrofdegilar bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta'lim olishga bo'lgan xohishini aks ettirishga xizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdegilar bilan munosabatni yo'lga qo'yish o'zaro aloqalarning hosil bo'lishi va rivojlanishini, alohida bo'lish esa shaxsning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi. An'anaviy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra guruhli hisoblanadi. Zero, u 30-40 nafar talabalardan iborat o'quv guruh (auditoriya)larida tashkil etiladi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o'qish tashkil etiladi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil etish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, o'quv masalalarini yechishning eng samarali yo'llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi. O'zaro yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, talabalarning mas'uliyat hissini oshiradi. O'quv muassasalarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllantirishning asosiy shakli sanaladi.

Hamkorlik tamoyili ta'lim jarayonida shaxsning ustuvor mavqeini ta'minlash, uning o'z-o'zini anglashini anglatadi. Bu tamoyil o'zaro munosabatlar jarayonida

subyektlar o'rtasidagi aloqalarning dialog shakli, shaxslararo munosabatlar mazmunida esa empatiyaning ustunligiga erishishni talab etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, dudaktik tamoyillar ta'lim-tarbiya berishning asoslarini, jarayon, vosita, imkoniyatlarini birlashtirgan holda oldindan belgilangan maqsad, rejaning bajarilishini, shaxs sifatlarining shakllanishida kafolatlay oladigan jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Zunnunov, U. Mahkamov. Didaktika. -T.: Sharq, 2006.
2. В. Милаш, Кратаквил «Жизнь Ян амос Коменского». М., 1991
3. A. Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: O'qituvchi, 1993.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: A. Qodiriy, 1993.
5. R. Mavlonova va boshqalar. Pedagogika. -Toshkent. O'qituvchi, 2001
6. O'. M. Asqarov, M. Xayitboyev, M. S. Nishonov. Pedagogika. -T.: Talqin, 2008.

GREEK LATIN TERMINOLOGY, STRUCTURAL TYPES OF CLINICAL TERMS. DESCRIPTION OF DISEASES OF INFLAMMATORY CHARACTER

Rahul Kumar,

Student of International Faculty of SamSMU

Yorova Sayora Karimovna,

Head of the Department of Languages of SamSMU PhD,

Abstract. In this article we are going to delve into the intricate world of GREEK -LATIN terminology within clinical contexts, focusing on the structural classification of inflammatory diseases. By dissecting the roots and prefixes of medical terminology derived from ancient languages. Furthermore this paper explores explores the typology of inflammatory diseases.

Key words: Chemical terminology, prefixes, suffixes and roots, Greek and Latin.

The foundation of medical terminology is widely rooted in the languages of ancient GREECE AND ROME. With Greek and Latin serving as the cornerstone of scientific and clinical discourse. The utilization of these classical languages has not only endowed medical terminology with precision and specificity but has also facilitated global communication within the medical community. Understanding the structural components of clinical terms derived from Greek and Latin terms derived from Greek and Latin roots is essential for healthcare professional in deciphering the complexities of medical jargon.

In this article we embark on a journey through the labyrinth of Greek -Latin terminology, unveiling the intricate web of prefixes, suffixes and roots that form the building blocks of clinical vocabulary, examining the structural composition of clinical terms, we aim to educate their meanings and provide insights into the linguistics heritage that permeates modern medical discourse.

Moreover this paper delves into the realm of inflammatory diseases, a diverse category of disorders characterized by an immune response to various stimuli,

inflammation, a fundamental physiology process, plays a pivotal role in the pathogenesis of numerous diseases, ranging from acute infections to chronic autoimmune conditions. Through a detailed description of inflammatory disease, we aim to shed light on their clinical manifestations, underlying mechanisms and therapeutic implications. By synthesizing knowledge of GREEK -LATIN terminology with an understanding of inflammatory diseases, this paper seeks to bridge the gap between linguistic analysis and clinical practice, ultimately enhancing comprehensions and communications within the medical community.

FOR EXAMPLE: - Lets dissect the clinical term “CARDIOMYOPATHY” to illustrate the Greek-Latin terminology and its structural components:

Root:

Cardio originates from the Greek word “kardia” meaning Heart.

2. Suffix:

“Myopathy “ is derived from the Greek “mus” meaning muscle , ”pathos” meaning diseases or disorders.

Combinations :

“cardio” [Heart] + “myo” [muscle] + “pathy” [diseases] = cardiomyopathy , a condition characterized by diseases of the heart muscles .

By breaking down the term “cardiomyopathy” we can discern its components derived from Greek and Latin understanding of related medical concepts.

Chemical terminology forms the foundation of understanding the intricacies of chemistry. This thesis explore the significance of chemical elements, acids and salts in the realm of chemistry.

Chemistry, as a scientific discipline, relies heavily on a diverse array of terminologies to describe and comprehend the behavior of matter. At the core of this terminology are chemical elements, acids and salts, which, serves as the building blocks of countless chemical compounds and reactions.

All latin names of chemical elements are neuter nouns of the 2nd declension.

Examples:-

Bi – bismuthum, i n

Ca – calcium, i n

F – fluorium , i n or phthorum , i n

Hg – hydragyrum , i n

The latin names of acids consist of the noun acidum.

Latin adjective with suffix -ic and the ending -um corresponds to English adjective ending by -ic.

Example :- arsenic acid – acidum arsenicum

Silicic acid – acidum silicicum

Latin adjective with the suffix -os and the ending -um corresponds to English adjectives by ending -ous

Example:- nitrous acid- acidum nitrosum

LATIN NAMES OF OXIDES , PEROXIDES AND HYDROXIDES CONSIST OF TWO WORDS:-

Name of chemical element + oxidum/peroxidum/ hydroxidum

Example:- zinc oxide – zinci oxydum,
ferric oxide - ferri oxidum

CONCLUSION

Greek -Latin terminology plays a crucial role in the structural formation of clinical terms, particularly in describing diseases of inflammatory characters. This terminology provides a precise and systematic way to name and classify medical conditions, aiding professionals worldwide. By combining root, prefixes and suffixes from Greek and Latin origins, clinicians can create descriptive terms that convey the nature, location, and characteristics of various diseases.

In conclusion, this thesis underscores the importance of chemical terminology, with a focus on chemical elements, acids and salts. Chemical elements commonly found in pharmaceutical drugs. Many other elements are also used in drug development and formulation, depending on the specific properties and functions required for each medication.

REFERENCES

Hein N., Wodak R. Medical interviews in internal medicine. Some results of an empirical investigation. Text: An Interdisciplinary Journal for the Study of Discourse, 7, 1987. –P 37–66.

Holmes J., Stubbe M., Vine B. Constructing professional identity: ‘Doing power’ in policy units // Talk, Work and Institutional Order. Discourse in Medical, Mediation and Management Settings. Berlin and New York: Mouton de Gruyter. 1999. –P 351–386.

Heritage J, Maynard D. Problems and prospects in the study of physician–patient interaction: 30 years of research. Annual Review of Sociology, 32: 2006. –P 351-374.

Kline F., F. Acosta. The misunderstood Spanish-speaking patient. American Journal of Psychiatry, 137 (2), 1980. –P 1530–1533.

Lacoste, M. The old woman and the doctor: A contribution to the analysis of unequal linguistic exchange. Journal of Pragmatics, 5, 1981. –P 169–180.

Lassen L. C. Connections between the quality of consultations and patient compliance in general practice, Fam. Pract., 8(2), 1991. –P 154–60.

TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA’LIMIGA SIFATLI TAYYORLASH

Fayzullayev Sharifboy Nurullayevich,
*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
maktabgacha ta’lim kafedrası dotsenti, p.f.n.*

Toshquvatova Gulchehra Mirpulat qizi,
*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
maktabgacha ta’lim kafedrası 1-bosqich magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Respublikamizda joriy etilgan ta’lim tizimi, uning turlari va shakllari orqali har bir fuqaroning ta’lim olishida davlatimiz

tomonidan ilmiy sohadagi rivojlanishlar keng qo‘llab-quvvatlanayotganligi, ayniqsa bu o‘rinda yosh avlodni kichik yoshdan boshlab sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga samarali ta‘lim-tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etish va shu orqali bolalarni rivojlantirish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, hamkorlik, bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi, takomillashtirilgan “Ilk qadam”.

Annotation: in this article, through the educational system introduced in our republic, its types and forms, the wide support of developments in the scientific field by our state in the education of each citizen is given, especially in this regard, the work on the development of the young generation from a young age to a healthy and comprehensively mature adult, the introduction of effective forms and methods of.

Key words: preschool organizations, cooperation, methodology for preparing children for school, improved “first step”.

Аннотация: В данной статье отмечается, что благодаря внедренной в республике системе образования, ее видам и формам, государство оказывает широкую поддержку научным достижениям в области образования каждого гражданина, особенно в этой области, начиная с раннего возраста, воспитывая подрастающее поколение здоровым и всесторонним образом, внедряя в учебно-воспитательный процесс эффективные формы и методы обучения. и, таким образом, работа по развитию детей приобретает важное значение.

Ключевые слова: дошкольные организации, сотрудничество, методика подготовки детей к школе, усовершенствованный “первый шаг”

Bugun maktab ta‘limiga har doimgidan ko‘proq talab oshib borayotganligi (ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limga) hammamizga ma‘lum. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga qaratilgan ta‘lim turidir. Maktabgacha ta‘lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta‘limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi - deb ko‘rsatilgan. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga qaratilgan ta‘lim turidir. Maktabgacha ta‘lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta‘limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi. Maktabgacha ta‘limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy ta‘limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo‘ladi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Boshlang‘ich ta‘limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida davlat o‘z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha

majburiyatini oldi. 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlari, bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bolasini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bermagan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishiga va istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Davlat tomonidan ta'limga berilgan e'tibor va bu sohadagi yuksalishlar ota-onalar tomonidan e'tirof etilib, farzand ta'lim-tarbiyasiga nisbatan ularni bu boradagi mas'uliyatini kuchaytirmoqda. Ota-onalarimiz tomonidan bolaning ushbu yosh davrida farzandlari tezroq mustaqil o'qishni va yozishni bilishni istashlari haqida xohish-istaklarni bildiradilar. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash - dolzarb masala.

Ammo umum ta'lim maktabining boshlang'ich ta'limidan bola rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tizimining "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" kompetensiyaviy yondashuviga bog'liq ekanligiga deyarli e'tibor berilmayapti. Xulosa: "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" kasbiy kompetensiyasi hozirgi vaqt talablaridan orqada qolayotganday nazarimizda. Bugun ota-onalar roziligini olishimiz uchun "Tayyorlov guruhi" bolalari bilan zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshira oladigan kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan, kadrlar bilan ta'minlashimiz kerak. Shuning uchun:

1. "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi", "Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish"-fanlarini "ILK QADAM" (takomillashtirilgan) (04.02.-2022y.) - dasturida loyihaviy faoliyatga o'tganligi uchun, majburiy blok fanlariga o'tkazishni;

2. "4+2" amaliyoti natijalarini har olti oyda qaydnoma orqali rasmiylashtirishni;

3. "Tayyorlov guruhi" bolalari kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogika institutlari MT Malaka talablariga Finlandiya MT tizimining Daraja dasturini kiritishni; Tavsiya qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati

2. "Takomillashgan ilk qadam" O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr uchun tavsiya etilgan dasturi

3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/bolalar_bogchalari_turlari_guruhlar_tuldirilishi_ish_rejimi_va_davlat_boshqaruvi

4. Fayzullayev Sh.N. "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi". Samarqand-2022, Darslik; "SamDu" nashriyoti, 196-Bet.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK–PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Jum'azoda Malika,

Samarqand davlat Universiteti Fakeltetlararo pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Ijodning mohiyatini bilish muammosi murakkab va serqirradir. Faylasuflar, psixologlar, o'qituvchilar "ijodkorlik" tushunchasini nazariy tahlil qilishning asosiy jihatlari ustida ishladilar.

Tor ma'noda ijodkorlik – bu sifat jihatdan yangi, ilgari bo'lmagan va ijtimoiy-tarixiy qadriyatga ega bo'lgan narsani yaratuvchi inson faoliyatidir. Kengroq va juda umumiy ma'noda, ijodkorlik yoki ijodiy faoliyat - bu hech bo'lmaganda faoliyat mavzusi uchun yangilari paydo bo'ladigan har qanday amaliy yoki nazariy inson faoliyati, bilim natijalari, qarorlar, harakat usullari, moddiy mahsulotlar. Asosiysi, yangi moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni yaratish jarayoni. Bundan tashqari, shaxsiy va motivatsion omil bu yerda etakchi bo'ladi.

Ijodkorlikning o'ziga xos baholash mezonlari, o'ziga xos qadriyatlar ko'lami, o'ziga xos psixofizik tuzilishi, shaxs rivojlanishidagi o'ziga xos sub'ektiv va ob'ektiv ahamiyati bor.

Ijodkorlikning mohiyatini tushunish shaxsning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan ajralmasdir. Ijodkorlik tushunchasi shaxsiy boshlanishini nazarda tutadi va birinchi navbatda inson faoliyatiga nisbatan qo'llaniladi.

Shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri bu ijodkorlikdir. Ijodkorlik - bu shaxsning o'ziga xos tuzilishi bilan belgilanadigan va aqliy operatsiyalarning tezligi va aniqligi, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, og'zaki birikmalarning o'ziga xosligi, ijodiy fikrlash va tasavvur bilan tavsiflangan ijodkorlik uchun umumiy universal qobiliyatdir.

Muammoning pedagogik tomoni talaba shaxsining yuqori faolligiga asoslangan yangi mazmun, o'qitish shakllari va usullarini izlashni nazarda tutadi. Va bu to'g'ridan-to'g'ri tanlangan faoliyat turi uchun qobiliyatlarning mavjudligiga bog'liq. Ularning tabiatini, rivojlanish tamoyillarini bilish ular eng samarali rivojlanadigan sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Ko'pgina tadqiqotlarda "ijodkorlik" tushunchasi "qobiliyat" tushunchasi bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Bizning muammomiz nuqtai nazaridan, ob'ektiv yoki sub'ektiv yangi faoliyat mahsulotlarini yaratishga qaratilgan ijodkorlikning faoliyat tomonini o'rganish qiziqish uyg'otadi. Bundan tashqari, o'rganish maqsadlari uchun ijodiy harakatlarni amalga oshirish orqali sub'ektiv ravishda yangi narsalarni yaratish muhimdir. Shunday qilib, o'quv jarayonida ijodkorlik ostida, o'quvchining tasvirlangan va tartibga solinadigan operatsiyalar yoki harakatlar tizimi yordamida o'tkazilmaydigan ijodiy harakatlar orqali ob'ektiv va sub'ektiv ravishda yangi narsalarni yaratish qobiliyatini ko'rib chiqish mumkin.

Ijodkorlik jarayonida bilim va faoliyat usullarini egallash orqali o'quvchilar mustaqil ravishda bilim va ko'nikmalarni egallash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ijodiy shaxsga ma'lum bo'lgan har qanday ma'lumot yetarlicha kuchli motivatsiya uchun yetarli bo'lmagandek tuyulganligi sababli, u yangi, mukammalroq tushuncha, mahorat, natijaga muhtoj. Shu ma'noda, o'rganishga bo'lgan qiziqishni, yangi narsalarni izlash faolligini, hatto ustun ehtiyojlari uzoq vaqtdan beri aniqlangan ijodiy shaxslar orasida ham tushuntirish mumkin. Shu bilan birga, ijodiy shaxs faollashtirilgan ehtiyoj ta'sirida, hozirgi va oldingi bilim, ko'nikma va malakalar zaxirasidan foydalangan holda ishlay boshlaydi.

Qobiliyat rivojlanishining ikki darajasi mavjud: reproduktiv (yuqori mahorat); ijodiy (yangi narsa yaratish qobiliyati). Biz ijodiy darajani ijodiy qobiliyatlar kontekstida ko'rib chiqamiz, ular bilan bog'liq holda fanda jiddiy tafovutlar mavjud. Psixologik lug'atda ijodkorlik ijodkorlikni ta'minlovchi psixik xususiyatlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi. Bu xususiyatlar nostandart fikrlash bilan ijodiy shaxsga xosdir. Bularga tasavvur, aqlning moslashuvchanligi, turli xil fikrlash, ijodkorlik motivatsiyasi va boshqa xususiyatlar kiradi.

Ijodiy qobiliyatlarning eng muhim manbalaridan biri motivatsiya muammosi, shaxsning motivatsion tuzilishidir. Ma'lumki, inson motivatsiyasi va xulq-atvorining integral ichki omili - bu ehtiyojlar, qiziqishlar, istaklar, orzular, ideallar va e'tiqodlarni o'zida mujassam etgan shaxsning yo'nalishi [4]. Ijodiy qobiliyatlarning motivatsiyasi (ijodkorlikka bo'lgan ehtiyoj) ijodiy shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, unda ijodiy faoliyat mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lgan motivlar ustunlik qiladi.

Ijodiy shaxsning motivatsion xususiyatlari - bu ijodkorlik jarayonining o'ziga xos istagi, o'zini namoyon qilish, ijodiy faoliyat mazmuniga doimiy ishtiyoq.

Har qanday faoliyat juda murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan shakllanish bo'lib, u insonning deyarli barcha fazilatlarini, shu jumladan qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, uning tarkibiy qismlari doimiy o'zaro bog'liqlik va o'zgarishlarda bo'ladi, ayniqsa, agar u shaxs tomonidan moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ijodiy o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, faoliyat - bu shaxsning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar zaxirasi asosida atrofdagi voqelikni ijodiy o'zgartirish. Binobarin, ijodkorlik - bu faoliyat bo'lib, uning natijasida inson yangi, ijtimoiy ahamiyatga ega original asarlar yaratadi. Ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj aniq yangi mahsulotga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj bilan belgilanadi. Aynan shu narsa ijodiy g'oya, konsepsiyaning paydo bo'lishiga olib keladi, yangi narsa yaratishda rag'batlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

"Ijodkorlik", "ijodkorlar" toifalarini o'rganish natijalari ushbu tushunchalarning mazmunini aniqlashtirish imkonini berdi. Ijodkorlik - o'quvchilarning intellektual faoliyatining eng mazmunli shakllaridan biri, eng xilma-xil ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan umumiy qobiliyat sifatida belgilanadi;

San'at va hunarmandchilikda ijodkorlik - bu shaxsning ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun muhim bo'lgan ijodiy harakatlarni amalga oshirish

qobiliyati, bu quyidagi tarkibiy qismlarga asoslanadi: kognitiv (bilimning to'liqligi), motivatsion (ijobiy motivatsiya) va faollik. Ijodiy (san'at va hunarmandchilik).

Keling, o'rganishimiz doirasida ijodiy qobiliyatlarni aniqlaylik. Ijodkorlik - bu o'quvchilarning ijodiy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladigan va faoliyatning muayyan mahsulotida amalga oshiriladigan qobiliyati. Shuni ta'kidlash kerakki, mahorat - bu to'liq ongli ravishda bajariladigan harakat qilish qobiliyati.

Ko'nikma odatda boshlang'ich bosqichda o'rganilgan bilim shaklida ifodalangan, talaba tomonidan tushuniladigan va o'zboshimchalik bilan takrorlanishi mumkin bo'lgan daraja bilan bog'liq. Ushbu bilimlardan amaliy foydalanishning keyingi jarayonida u ushbu qoida bilan tartibga solinadigan to'g'ri bajarilgan harakat shaklida harakat qiluvchi ba'zi operatsion xususiyatlarga ega bo'ladi [5].

Zamonaviy ilm-fan ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishdagi pedagogik vazifalarni (intellektual, estetik fazilatlarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish) juda keng talqin qiladi va ularni hal etish hali ham yetarli darajada rivojlanmagan. Ijodkorlik va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning yagona nazariyasi mavjud emas. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari haqidagi savolni o'rganib, biz "shakllanish" tushunchasining mazmunini aniqlaymiz.

"Shakllanish" tushunchasini tor ma'noda ham, keng ma'noda ham ko'rib chiqish mumkin. Pedagogik adabiyotlarda "shakllanish" tushunchasi ko'pincha shaxsga nazoratsiz, tasodifiy ta'sirlarni bildirish uchun ishlatilgan. Zamonaviy fanda shakllanish deganda istisnosiz barcha omillar - ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, psixologik va boshqalar ta'siri ostida ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanish jarayoni tushuniladi.

Falsafiy, psixologik-pedagogik talqinlarni tahlil qilish va "ijodkorlik", "ijodkorlar", "shakllantirish" kategoriyalarini aniqlab berish asosida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun badiiy hunarmandchilik orqali "o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" tushunchasini ko'rib chiqamiz. O'quvchilarning ijodiy faoliyatda o'z qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon beradigan maqsadli faoliyat jarayonida.

Ushbu qoidalardan kelib chiqib, pedagogik jarayonda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlar ketma-ketligi ishlab chiqilgan:

- 1) ijodiy faoliyatda boshlang'ich yo'nalish, dekorativ-amaliy faoliyat jarayonida ijodiy namoyonlarni maqsadli ifodalash;
- 2) dekorativ-badiiy buyumlar (batik, ip grafikasi, kviling va boshqalar) yaratishda ijodiy harakatlar usullarini o'zlashtirish;
- 3) o'z badiiy kompozitsiyalarini yaratish.

Tadqiqot natijalari asosida N.A. Vetlugina, O.P. Radinova, O.V. Dybina, T.A. Tarasova ijodiy faoliyatda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning tarkibiy qismlarini aniqladi [1]:

1. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning kognitiv komponenti badiiy hunarmandchilikda turli xalqlarning milliy madaniyati haqidagi bilimlarni kengaytirish bilan bog'liq. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, o'quvchilarda bilim faolligi rivojlanadi, xalq amaliy san'atiga qiziqish, muayyan badiiy tasvirlarni idrok etish bilan bog'liq shaxsiy imtiyozlar paydo bo'ladi. Kognitiv bosqich tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodiy improvizatsiya bilan uyg'unlashgan badiiy va amaliy san'atdagi bilim motivlari va faoliyatining barqaror tabiatida namoyon bo'ladi.

2. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning motivatsion-faollik komponenti ishlab chiqarish faoliyatiga barqaror ichki ehtiyoj, ijodiy motivlarning uyg'unligi, badiiy hunarmandchilikda yuqori natijalarga erishish istagi sifatida tavsiflanadi. U ijodiy faoliyatga ijobiy munosabatni, o'z harakatlarini boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi va o'quvchilarning folklarga bo'lgan qiziqishini, milliy an'analarni o'rganishga intilishini, takror ishlab chiqarilgan mahsulotlarga o'z bahosini berish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Tanlangan bosqich san'atning o'ziga xosligi, yorqinligi, hissiy yuqumliligi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchining badiiy va hunarmandchilik vositalarida ifodalangan turli xil soyalarni uzatish bilan bog'liq muhim funktsiyalardan birini anglashini anglatadi. Motivatsion-faollik bosqichi o'quvchining badiiy tasvirlar bilan shaxsiy muloqoti bilan ta'minlanadi, badiiy hunarmandchilik faoliyatining turli turlarida amalga oshiriladi; ushbu faoliyat jarayonida o'zini o'zi anglash. Faoliyatga hissiy jihatdan barqaror qiziqishda namoyon bo'ladi; o'z qobiliyatlariga ishonch, o'zini namoyon qilish istagi va ijodiy yutuqlar.

3. Transformativ komponent fantaziya qobiliyati, ijodiy vazifalarni mustaqil, original bajarishga moyillik, olingan bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga o'tkazish qobiliyatidir. U turli xil dekorativ va amaliy faoliyat bilan ta'minlanadi va bu faoliyat mahsulotlarida o'zini namoyon qiladi.

Dekorativ-amaliy san'at (DPT) ijodiy faoliyatni rivojlantirish vositalaridan biridir. Eksperimental tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, san'at va hunarmandchilik moddiy muhitni o'zgartiruvchi, badiiy jihatdan o'zgartiradi. Har qanday san'at turi singari, u ikki tomonlama funktsiyani bajaradi.

Bir tomondan, u ma'naviy madaniyat tashuvchisi bo'lsa, ikkinchi tomondan, estetik didni, ijodiy tasavvurni, fantaziyaning rivojlantiradi, moddiy va ma'naviy faoliyatda zarur bo'lgan o'zlashtirilgan mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Talabalarni u bilan tanishtirish shaxsning tarixiy xotirasi, milliy o'zini o'zi anglash, ijodiy faollik kabi fazilatlarini shakllantiradi.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar quyidagilarga imkon berdi:

1) "ijodkorlik", "ijodiy qobiliyat", "o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" tushunchalarining mazmunini oydinlashtirish;

2) o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning yetakchi vositalaridan biri milliylik tamoyillariga asoslangan badiiy hunarmandchilik ekanligini aniqlash;

3) ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish bosqichlarini va ularni ijodiy faoliyatda shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlarning ketma-ketligini aniqlash;

4) badiiy hunarmandchilikning ahamiyatini ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim omili sifatida baholash.

Shunday qilib, badiiy hunarmandchilik talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida nazariy va maxsus fanlar uchun asos bo'lishi mumkin va ushbu faoliyatning muayyan mahsulotida amalga oshirish bilan ijodiy harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

San'at va hunarmandchilikning pedagogik salohiyatidan pedagogik jarayonda foydalanish inson ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki u o'z mazmunida badiiy, kognitiv va mehnat tamoyillarini birlashtiradi va talabalarning turli ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida qaralishi mumkin. , ularning ko'p qirrali rivojlanishiga hissa qo'shadi [3].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dybina O.V. Narsalar dunyosi bolalar ijodiyotini rivojlantirish vositasi sifatida // Ijtimoiy rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. - 2014. - No 2. - B. 157–159.

2. Klochkova G.M. Ijodiy ta'lim muhitini modellashtirish bo'lajak bakalavrlar ijodi texnologiyasini yaratishning zarur sharti sifatida // "Psixoterapiya xabarnomasi" ilmiy-amaliy jurnali 34-son (39). - Sankt-Peterburg: VCEiRM im. Nikiforova Rossiya EMERCOM, 2010. - 152 p. (S. 82–88).

3. Lednev V.S. Ta'lim mazmuni: mohiyati, tuzilishi, istiqbollari. - 2-nashr. - M.: Oliy maktab, 2001. - S. 305. Molotova V.N. Dekorativ-amaliy san'at: darslik. - M.: Forum, 2007. - S. 272.

4. Luk A.N. Fikrlash va ijodkorlik. - M.: Politizdat, 1976. - C. 144.

5. Tseneva M.A. Badiiy hunarmandchilik orqali pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish modeli // Fundamental tadqiqotlar. - 2014. - No 9–4. - S. 877-881.

PEDAGOG -TARBIYACHILARNING DISKURS (OG'ZAKI NUTQ) KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA OID METOD VA TEXNOLOGIYALAR

Suvanqulov Umidjon Ilxomovich,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim metodikasi kafedراسi o'qituvchisi
mironshohsuvoankulov@gmail.com tel: +998945342345*

Annotatsiya. Ushbu maqolada og'zaki nutqni faollashtirish usullari tasvirlangan, og'zaki va nutq ko'nikmalarini, xususan, o'quvchilarning nutq qobiliyatlarini shakllantirishning samarali vositalari tasvirlangan. Ikkinchi tilga o'rgatish mashg'ulotlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan nazariyalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: ogʻzaki nutq, kommunikativ kompetensiya, interaktiv usullar, pedagogik texnologiyalar, ijodiy faoliyat.

Аннотация

В данной статье описаны методы активизации устной речи, описаны эффективные средства формирования речевых и речевых навыков, в частности речевых умений учащихся. На занятиях по обучению второму языку представлены теории, направленные на формирование навыков устной речи воспитанников дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: устная речь, коммуникативная компетентность, интерактивные методы, педагогические технологии, творческая деятельность

Abstract. This article describes methods of activating oral speech, describes effective means of shaping verbal and non-verbal skills, especially students' speaking skills. Theories in English lessons are aimed at shaping the oral skills of secondary school students.

Key words: oral speech, communicative competence, interactive methods, pedagogical technologies, creative activity

KIRISH. Insonlar bir-biri bilan uzluksiz muloqotda va oʻzaro munosabatda boʻlgan ijtimoiy mavjudotdir. Shu sababli, tarbiyalanuvchilarga oʻz ona tilida haqiqiy muloqot qilishlari mumkin boʻlgan vaziyatlarni rivojlantirish muhimdir. "Bizning tarbiyalanuvchilarimiz oʻzlarining eng asosiy operatsiyalarini amalga oshirish uchun koʻpincha ishonch bilan gapira olishlari kerak. Bu ularni eng koʻp baholaydigan mahorat va ular orqali doʻstlar orttiradi yoki yoʻqotadi.

Pedagog-tarbiyachining vazifasi oʻquvchilarning muloqotini osonlashtiradigan taʼlim-tarbiyaviy ikki tilli vaziyatlarni yaratishdir. Tarbiyalanuvchilarning ogʻzaki nutqini faollashtirishning eng yaxshi usullari - bu odamning oʻzaro taʼsiri, yaʼni interfaol texnikasi. Interfaol taʼlim tarbiyalanuvchilar va taʼlim muhitining oʻzaro taʼsiriga asoslanadi, bu tajriba sohasi boʻlib, odamlarning munosabatlari va oʻzaro taʼsiri psixologiyasiga asoslanadi. Bunday trening bilishning birgalikdagi jarayoni sifatida qaraladi, bunda bilimlar birgalikdagi faoliyat jarayonida dialog, polilog orqali olinadi". Bundan kelib chiqadiki, bu usullar oʻquv jarayoni subyektlarining "tengdoshga" darajasidagi oʻzaro taʼsirini oʻz ichiga oladi, bunda oʻqituvchi va sinf ishtirokchisi bir jamoaning bir qismi boʻlib, ular bir maqsadga erishish uchun ishlaydi. S.B.Suvorova kommunikativ funktsiyalarga asoslangan interfaol oʻqitish usullarining oʻziga xos tasnifini taklif qiladi. Ushbu tasnifda barcha usullar uch guruhga boʻlinadi: 1) muhokama (dialog, guruh muhokamasi, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va tahlil qilish); 2) oʻyin (didaktik oʻyinlar, ishbilarmon oʻyinlar, rolli oʻyinlar, tashkiliy va faoliyat usullari); 3) interfaol usullarning psixologik guruhi (sezgir va kommunikativ trening, empatiya). Shuni taʼkidlash kerakki, interaktiv oʻzaro taʼsirni oʻrgatish ingliz tili darslarida hayotdan olingan oʻquv materialidan foydalanishni talab qiladi, bu toʻgʻri tashkil etilgan sharoitda oʻrganilayotgan tilda tabiiy muloqotga yordam beradi. Interaktiv oʻzaro taʼsir holatlarini yaratish uchun talabalar har qanday vaziyatda oʻzlarini tasavvur qilishlari kerak boʻlgan vazifalar bilan ishlashni cheklashni istisno qilish kerak. Aksincha, topshiriqlar maqsadga

muvoqif bo'lib, ularning matni interaktiv o'zaro ta'sirga bo'lgan ehtiyojni o'z ichiga oladi. Bunday vazifalar shunday tuzilganki, ularni mustaqil ravishda bajarish mumkin emas.

XULOSA. Til sohasida o'z ona tilimizni kommunikativ metodika bilan o'qitishdan maqsad nutq vaziyati doirasida chet tilida muloqotni og'zaki va yozma shaklda o'rgatishdir. Ma'lumki, og'zaki-nutq muloqotining usuli - bu nutq. Maktabda nutqqa o'rgatishdan maqsad o'quvchilarda turli vaziyatlarda og'zaki muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Ijodiy faoliyat ijodiy xususiyatga ega bo'lgan faoliyat jarayonida rivojlanadi, bu o'quvchilarni o'rganishga va hayratga solishga, nostandart vaziyatlarda yechim topishga majbur qiladi. Agar talaba gapirishni, o'qishni, chet tilidagi nutqni eshitishni, yangi narsalarni o'rganishni yaxshi ko'rsa, unda "chet tili" faniga qiziqish borligini aytishimiz mumkin va ma'lum bir muvaffaqiyatga erishish uchun sharoitlar yaratilgan. Ingliz tilini bilishdan tashqari, talabalar o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, kelajakdagi kasbiy faoliyati va kundalik hayotda boshqa odamlar bilan muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Biryukova O.A. Обучение говорению в вузе методом интервью на уроке английского языка, 2017
2. Brown, D. (1994). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. New Jersey: Prentice Hall Regents.
3. Bygate, M. (1987). Speaking. New York: Oxford University Press.
4. Starodubtseva O.G. Виды упражнений для формирования лексических навыков устной речи в неязыковом вузе, 2013
5. Suvorova N.A. интерактивное обучение новым подходам, 2005

OTA-ONALARGA BOLA TARBIYASIDA PSIXOLOGIK MASLAHAT

Toshpo'latova Sadaf Eshmurodovna,

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani 40-maktab psixologi

ANNOTATSIYA. Bolalar muammolari bo'yicha ota-onalarga psixologik-pedagogik maslahat

Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri- bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdan tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi.

Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri- bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdan tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Bolalar bilan ishlayotganda ularni har bir toifasiga qanday millatga xosligi, dunyoqarashi, dinidan qat'iy nazar uning qiziqishlarini hisobga olib, unga ochiq ko'ngillik va o'ziga ishonch ortirish yo'li bilan munosabat o'rnatish lozim.

Kalit so‘zi: rivojlanish, o‘shish, tarbiya, munosabat.

Yangi zelandiyalik Nayjel Latta zamonaviy bolalar psixologiyasi bo‘yicha eng kuchli mutaxassis. Latta o‘n yildan oshiq vaqt davomida muammoli bolalar va o‘smirlar bilan ishlagan.

Undagi bebaho tajriba va bilim nafaqat tarbiyasi og‘ir bolalar ota-onalari, balki ota-ona bo‘lishni rejalashtirgan barcha uchun ham kerakdir.

U hayotiy ko‘nikmalarini bayon etgan kitob bestsellerga aylangani, bejiz emas. Men mana shu mutaxassis tomonidan ishlab chiqilgan bolani tarbiya qilishning qoidalarini ko‘rsatishga harakat qilaman.

Bu eng asosiy qoida va buni hech bir ota-ona nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Bola - kichkina odamgina emas, alohida shaxs hamdir. Shuning uchun uni izzat qilish, muloqot mobaynida hurmatini izhor etib turish zarur.

Siz ota yoki ona sifatida shaxsiy namunangiz yordamida boshqa insonlar bilan muloqot qilishni o‘rgating. Samimiyatsiz insoniy munosabat o‘rnatib bo‘lmaydi.

Bu yerda nazorat haqida gap ketmayapti. Bolalarni nazorat qilish, ayniqsa, kichik yoshdagilarini cho‘chitib qo‘yadi. Siz faqat qo‘rqitish yordamida “o‘zingni yaxshi tut”, desangiz u bu nega zarurligini tushunmaydi. Bundan tashqari, katta bo‘lganida bola sizdan qo‘rqadigan bo‘ladi.

Bolalar ota-onalari ularni yaxshi ko‘rishiga qattiq ishonishadi. Bu tug‘ma hissiyot. Hatto bolaga yetarli e‘tibor qaratilmagan yoki ularni jazolagan paytda ham ular ota-onasining mehr-muhabbatiga ishonishadi.

Biroq yoqimlilik, xush ko‘rish bilan gapirish, mehr ko‘rsatish umuman boshqa narsa. Ko‘plab bolalar sovuq va loqayd munosabatni darrov payqab qolishadi.

Ota-onalik muhabbati tabiiy hissiyot, instinktdir. Unga simpatiyani uyg‘unlashtirsangiz, bola tarbiyasidagi katta yutuqni qo‘lga kiritasiz.

Barcha bolalarga e‘tibor kerak. E‘tibor esa hech qachon ko‘plik qilmaydi. Farzandlar ikki nafar bo‘lsa, ular barcha e‘tiborni o‘zlariga qaratish uchun injiqlik qilishadi.

Ha, go‘daklar e‘tiborni qozonish uchun barcha imkoniyatdan foydalanishadi. Bu holat bolalarda instinktiv mavjud. Ota-onaning ko‘z-quloq bo‘lib turishi ular uchun xavfsizlikni anglatadi. Bolalarni chegaralanmaslikning sabablari ko‘p. Ular olamni mustaqil anglashlari lozimku, axir. Biroq bolalarni yolqovlikdan cheklamasangiz, tarbiyani o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘ygan bo‘lasiz.

Ular ni chegarasiz, hech qanday qoidalarsiz tarbiyalab bo‘lmaydi. Bola biror cheklovga duch kelmagunicha harakatlanaveradi. Sababi nimaningdir mumkin emasligi tushunchasi ularning tabiatida mavjud emas.

Farzandingiz serxarxasha va tantiq bo‘lsa, avvalo, reja tuzib oling. Albatta, bu rejada grafiklar chizishingiz shart emas yoki maqsad va vazifalarni batafsil boshidan oxirigacha ifodalashingiz zarur emas.

Har kunlik hisobotlar ham bu o‘rindan joy olmaydi. Shunday bo‘lsa-da, reja zarur. U sizga bolaning fe‘l-atvori ustida ishlashingizda asqotadi. Go‘dakning bitta muammoli fe‘li yoki qilig‘ini yozing va u bilan kurashish uchun har xil g‘oyalar

o‘ylab toping. Eng yomon atvor ham bu bolaning ota-onasi bilan bo‘lgan muloqotidir. Agar u qandaydir nojo‘ya harakat qilayotgan bo‘lsa, go‘dak ota-onasiga nimanidir aytgisi kelayapti.

Masalan, e‘tiborsizlikdan aziyat chekayapti. Ular fikr va hislarini harakatlar yordamida ifodalaydi. Bola o‘z tantiliklari bilan nimani tushuntirmoqchi ekanligini bilish bu yarim muvaffaqiyat kalitidir.

Bolalar ota-onasining hayotiga doimo xaos olib kirgan. Ta‘kidlab aytamiz, doimo. Bola tug‘ilishi bilan minglab kutilmagan, kechiktirib bo‘lmas ishlar paydo bo‘ladi.

Buni tushunish va mazkur holatga ko‘nikish zarur. Farzandingiz oldin xafa bo‘lishi, keyin sho‘xlik qilishi, saldan so‘ng esa siz bilan tortishishi, bahslashishi mumkin. Barchasiga sabr eting.

Dovuldan keyin baribir quyosh chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. U.Ismailov, M.Ziyayeva, F.Inoyatov, Sh.Maqsudova, L.Ataxanova

“Sog‘lom turmush tarzi asoslari va oila” – YuNFPA, Toshkent, 2018-yil.

2. ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va yoshlarning ota-onalari uchun maxsus o‘quv-tarbiyaviy dasturlar / Tuzuvchi-mualliflar: N.A.Israilova, A.A.Mavrulov,

3. O.Musurmanova, F.A.Azimova, N.K.Svetlichnaya, D.Husanova, R.X.Valiev, Z.Ishanxodjayeva, G.Umaraliyeva – Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, 2016.

XORIJLIK TALABALARNI O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIMIGA MOSLASHUVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.I.Saidov,

*Psixologiya fanlari doktori, professor Samarqand davlat chet tillar instituti
magistratura bo‘limi boshlig‘i*

Axmedov Anvar Diyor o‘g‘li,

*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Samarqand davlat chet tillar
instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada xorijlik talabalarni O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalariga ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuvi va xorijiy talabalarni yurtimiz oliy ta‘lim tizimiga moslashuvidagi qiyinchiliklar, xulq-atvoridagi o‘zgarishlar tahlili keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, xorijiy, moslashuv, oliy ta‘lim, psixologik, madaniyat, xulq-atvor

Ijtimoiy moslashuv murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, inson hayotining turli sohalarida amalga oshiriladi. Bu jarayon sifatida qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxs yoki ijtimoiy guruhning real ijtimoiy muhitga moslashishini bildiradi.

Ijtimoiy moslashuv - bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning faol assimilyatsiyasi orqali yangi yashash muhitiga moslashish jarayoni tushiniladi. Zamonaviy O'zbekiston oliy ta'lim tizimining bugungi kundagi integratsiyalashuvi ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish uchun yangi vazifalar va shart-sharoitlarni keltirib chiqarmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmonida ham batafsil keltirib o'tilgan. Bugungi kunda O'zbekiston universitetlarining xalqaro ta'lim bozorida raqobatbardoshligini oshirish nafaqat ta'lim muassasasi uchun balki mamlakat iqtisodiyoti uchun iqtisodiy foyda keltiradi.

Bugungi kundagi O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohatlar, O'zbekistonni chet elliklar uchun jozibador qilmoqda va turli mamlakatlardan talabalar bizning OTMlarimizda o'qish istagini bildirishmoqda. Shu munosabat bilan, chet ellik talabalarni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga moslashtirish muammolarini o'rganish dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki ijtimoiy-madaniy moslashuv shaxsning (yoki guruhning) yangi ijtimoiy-madaniy muhit sharoitlariga moslashishini va yangi muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun yangi qadriyatlar, yo'nalishlar, xulq-atvor me'yorlari, an'analarga moslashishini anglatadi. Ijtimoiy-madaniy moslashuv jarayonida shaxs yangi ijtimoiy-madaniy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirning murakkab ko'p qirrali jarayonlarini boshdan kechiradi va yangi xulq-atvor xususiyatlarini o'zlashtirib boradi.

O'quv jarayoniga moslashish talabada universitetning ijtimoiy va intellektual muhiti bilan adekvat o'zaro ta'sirini, yangi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishni, kasbiy identifikatsiyani, yangi ijtimoiy maqomni shakllantirishni, yangi ijtimoiy rollarni ishlab chiqishni, o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, universitetning ta'lim muhitiga moslashish insonning adaptiv xulq-atvor shakllaridan biri bo'lib, boshqa adaptiv jarayonlar kabi bir qancha komponentlarga ega. Chet ellik talabalarni O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga moslashtirish murakkab psixologik xulq-atvor kombinatsiyasilarini o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtiga kirishda chet el fuqarolarining yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarga qay darajada moslasha olishi ta'lim jarayonining samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri sanaladi.

Boshqa davlatlardan yurtimizga o'qish uchun kelgan yoshlar faoliyatning yangi turini - oliy o'quv yurtida o'qishni, kasbiy bilimlarni va notanish ijtimoiy-madaniy makonga moslashish qobiliyatini o'zlashtirishga majbur bo'ladilar.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra chet ellik talabalar, ayniqsa, yangi mamlakatda o'qishning birinchi yilida boshdan kechiradigan qiyinchiliklarni quyidagicha guruhlash mumkin:

shaxsiyatni qayta qurish, yangi muhitga "kirish", psixo-emotsional stress, iqlim o'zgarishi va boshqalar bilan bog'liq psixofiziologik qiyinchiliklar;

ta'lim va kognitiv qiyinchiliklar, birinchi navbatda, tilni yetarli darajada bilmaslik, ta'lim tizimlaridagi farqlarni bartaraf etish bilan bog'liq;


yangi talablarga va bilimlarni nazorat qilish tizimiga moslashish;

shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, bilimlarni "o‘stirish" va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini singdirish tamoyillari asosida qurilishi kerak bo‘lgan o‘quv jarayonini tashkil etish;[2]

Chet ellik talabalarni O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishning dastlabki kunlaridanoq o‘zbek talabalari duch keladigan qiyinchiliklaridan sezilarli darajada farq qiladigan qiyinchiliklarni boshdan kechira boshlaydilar.

Ko‘pgina psixolog tadqiqotchilar[1] moslashuv muammolarining quyidagi guruhlarini aniqlaydilar:

Zamonaviy oliy ta‘limning integratsiyalashuvi chet ellik talabalarni ijtimoiy,



kundalik va akademik sohada muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun notanish mamlakatdagi oliy o‘quv yurti sharoitlariga moslashtirish muammosini dolzarblashtiradi. Olib borilgan tadqiqotlardan shu ma‘lum bo‘ldiki, shaxsdagi intellektual-kognitiv faoliyat bilan bog‘liq shaxsiy xususiyatlar (va shunga mos ravishda "intellektual" omillar bilan), agar ular yuqori darajada ifodalangan bo‘lsa, tabiiy ravishda didaktik moslashuvning yuqori samaradorligini belgilaydi. Shaxslararo o‘zaro ta'sirlar (va shunga mos ravishda "shaxslararo" omillar bilan) bilan bog‘liq shaxsiy xususiyatlar, agar ular yuqori darajada ifodalangan bo‘lsa, tabiiy ravishda kommunikativ moslashuvning yuqori samaradorligini belgilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Chet ellik talabalarni yurtimiz oliy ta‘lim tizimiga moslashish ko‘nikmalarini shakllantirishda madaniy an‘analar va mintaqaviy xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek xalqining o‘ziga xos mentaliteti, etnopsixologik xususiyatlari va odob-axloq me‘yorlarini yaxshi bilmaslik ko‘pincha chet ellik talabalarini ijtimoiy-psixologik moslashuviga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Иванова М.А., Титкова Н.А. Социально-психологическая адаптация иностранных студентов первого года обучения в вузе. - СПб.,1993.

2.Кривцова И.О. Социокультурная адаптация иностранных студентов к образовательной среде российского вуза (на примере воронежской государственной медицинской академии им. н.н. бурденко) // Фундаментальные исследования. – 2011. – № 8-2. – С. 284-288;

3.Блинова Т.А., Новиков А.В., Руднова Н.Н. Особенности преподавания информатики на русском языке как иностранном в информационном обществе для стран со слабым информационным уровнем в области алгоритмизации и программирования. / Профессионально направленное обучение русскому языку иностранных граждан: сб. материалов Международной научно-практической конференции. — М., 2010. Т. 1. С. 38—46.

4.Сурыгин А.И. Педагогическое проектирование системы предвузовской подготовки иностранных студентов. — СПб.: Златоуст, 2001.

5.Родионова И.П. Лингвометодический аппарат как специфическая особенность учебника по естественно-научной дисциплине для иностранных студентов предвузовского этапа обучения. / Предвузовская подготовка иностранных студентов в СПбГПУ. — СПб.: Изд-во Политехнического Университета, 2005.

6.Кузнецова Т.Е., Перфилова И.Л., Соколова Т.В., Перфилова С.В., Юмашева Л.В. Особенности обучения китайских студентов в вузах РФ / Подготовка иностранных абитуриентов в вузы Российской Федерации. — СПб.: Изд. Политехнического Университета, 2010. С. 238—236.

TA'LIM TASHKILOTLARINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA INSON RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA KADRLAR SIYOSATI

XURRAMOV Anvar Vafokulovich,

e-mail: anvarxurramov1984@gmail.com

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: boshqaruvda xodimlarning mas'uliyat va moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchi – pedagogik-psixologik jihatdan o'z mutaxassisligi bo'yicha maxsus bilimlarga va ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlariga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs ekanligi, ta'lim muassasasi xodimi ta'lim jarayonida o'qitishning ilg'or shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni tarbiyalash nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kadrlar siyosati, maqsad, ijodiy kayfiyat, rejalashtirish, ilhom, ijod, ishonch, rag'batlantirish.

Bugungi kunda har bir tashkilotning boshqaruv jarayonidagi asosiy vazifasi – yuqori potensialga ega bo'lgan xodimlarni izlab topish, barcha xodimlarni mushtarak maqsadga chorlash va jamoani ruhlantirish, eng yuqori ijtimoiy va iqtisodiy natijalarga erishish uchun ularni bir maqsad yo'lida birlashtirish, o'zgaruvchan sharoitlarda goho keskin sur'atlarda rivojlanish, goho inqiroz

mashaqqatlari sharoitida omon qolish tadbirlarini qo‘llashni talab qiladi. Boshqaruv tizimida ro‘y berayotgan innovatsion jarayonlar avvalo, inson resurslarini boshqarishda ham o‘zgarishlarni talab qiladi. Alohida qayd etish lozimki, ushbu atama amaliyotda anchadan beri qo‘llanadi, ammo har bir tashkilotda uning ishlash tartibi qandayligi, inson resurslarini boshqarish o‘z ichiga olgan masalalar qay darajada olib borilayotganligiga bog‘liq.

Tashkilotning xususiyatidan kelib chiqqan holda kadrlar siyosatini har bir korxonaning rahbari va kadrlar xizmatiga mas‘ul bo‘lgan shaxslar tomonidan ishlab chiqishi lozim. Lekin ko‘pchilik holatlarda amaliyotda tashkilotlar rahbarlari kadrlar siyosatini ishlab chiqishda shaxsan ishtirok etishmaydi va ko‘pincha kadrlar siyosatini ishlab chiqish bilan faqat kadrlar bo‘linmalari shug‘ullangan.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari korxonalarida kadrlar siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha umumiy belgilangan standartlar mavjud emas. Ammo bu yo‘nalishda barcha korxonalarining o‘ziga yarasha mavjud hususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir mehnat jamoasining faqat o‘ziga xos odat va ko‘p yillardan beri mavjud an‘analarga asoslangan va amalda ko‘p marotaba sinalgan kadrlar siyosati amaliyoti mavjud. Har bir korxonada, tashkilot va kompaniya kadrlar siyosatini shakllantirishni bevosita o‘zi ishlab chiqadi.

Tashkilotlarda rahbarlar o‘z xodimlari va tashkilotning bugungi kundagi murakkab bozor sharoitida raqobatbardoshlik ustunligini vujudga keltirish ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy-texnik samara olib kelishiga qodir hal qiluvchi resursga aylanib qolganligining mohiyatini anglay boshladilar. Ayniqsa ta‘lim muassasalarida mehnat resurslarining asosiy qismi kadrlar siyosati bilan qamrab olingan. Xodimlarni boshqarish va ularning ishini to‘g‘ri tashkillashtirish, mehnat resurslarini samarali boshqarish va tashkil etish maqsadlariga erishishda yagona imkon beruvchi tizimga aylanib bormoqda.

Kadrlar siyosati – mamlakatimizning kadrlar sohasida bir necha yillardan buyon qo‘llanib kelinayotgan tushuncha, bu tashkilotning xodimlarga munosabati va aniq maqsadlarga erishish niyatida unga ta‘sir ko‘rsatish usullari majmui deb tushuniladi. Kadrlar siyosati tushunchasining bugungi kundagi dolzarb ahamiyati quyidagilardan iborat:

- tashkilotning zamonaviy kadrlar siyosati ishlayotgan har bir xodimning vazifalari va strategik maqsadlaridan mantiqiy kelib chiqib, faoliyatning aniq natijalari hamda tashkilotning umumiy rivojlanish strategiyalariga moslashadi. Kadrlar siyosatining qulayligiga, egiluvchanligiga yuqori talablar va uning ichki (boshqarish va rahbarlik uslubi, ichki tashkiliy madaniyat va hokazo) va tashqi muhiti (mehnat bozori, iqtisodiy inqiroz sharoitida – moliya faoliyatini maqsadli olib borish xususiyatlari, qonunchilikning rivojlanishi, takomillashishi) ko‘p omilli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida amalga oshiriladi.

- kadrlar siyosatining g‘oyalarini tashkilotlardagi yuqori saviyadagi rahbarlar (ta‘sischilar, mulkdorlar, top-menejerlar) ishlab chiqadilar.

- kadrlar siyosatini asosan oliy va o‘rta darajali boshqaruv bo‘g‘inida mehnat faoliyatiga ega funksional rahbarlar, ma‘lum tajribaga ega bo‘lgan professional kadrlar xizmati ham anglab va izchillik bilan mujassamlashtirib boradilar.

- kadrlar siyosatini amalga oshirishda yuqori professional malakaga ega kadrlar xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. U maslahatchi, uslubchi, rahbar yordamchisi, kadrlar siyosati monitoringini amalga oshiruvchi koordinator vazifasida namoyon bo'ladi, uning faoliyat samarasi, zarurat tug'ilganda esa bevosita yangilash tashabbuskori sifatida ham yuzaga chiqadi. Tashkilotning kadrlar xizmati aniq kadrlar bilan bog'liq strategiyalar loyihalari, ssenariyalar, vaziyatlar va kadrlar siyosati talablari bajarilishiga yordam beruvchi personal texnologiyalar mexanizmini ishlab chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, inson resurslarini boshqarish ilmining metodologiyasini o'rganishning tarbiyaviy usullarining ta'siri doimiy namoyon bo'ladi. Shuni ta'qidlash lozimki, tarbiyaviy usullarni xodimlarni mas'uliyatini oshirish sarflanadigan sa'y-harakatlarning iqtisodiy samarasi ma'muriy va iqtisodiy usullarni amalga oshirishdan bir necha marta ortiq bo'ladi. Jamoa a'zolari orasidagi nizolar, asosan ishlab chiqarishning qoniqarsiz tashkil qilinganligi, jamoa a'zolarining ruhiy holatlari hisobga olinmaganligi, zarur ish sharoitining yaratilmaganligi va boshqa sabablar natijasida vujudga keladi. Mehnat jamoalari orasida nizo chiqaruvchi ayrim shaxslar bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Bunday shaxslar ish paytida foydali mehnat bilan shug'ullanish o'rniga, o'zlarining o'rinsiz e'tirozlarini gapirib ham o'zlarini, ham boshqalarni ishdan chalg'itib, ishlashga halaqit beradi. Bunday nosog'lom vaziyat jamoa a'zolarining kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi, ularni asabiylashtiradi, natijada ijtimoiy - ruhiy vaziyat yomonlashadi. Bu esa o'z-o'zidan ishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022.-416 bet.
2. Ричи Ш, Мартин П. Управление мотивацией. Учебное пособие.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 399 с.
3. Одегов Ю.Г. и другие. Мотивация персонала Учебное пособие. – М.: Альфа-Пресс, 2010. -640 с.
4. Жданкин Н.А. Мотивация персонала. Измерение и анализ. Учебно–практическое пособие.-М.:Финпресс, 2010.-272 с.
5. Кибанов А.Я. Экономика и социология труда. Учебник. М.: ИНФРА-М, 2010. – 310 с.
6. Кибанов А.Я. Управление персоналом организации: актуальный технологии найма, адаптации и аттестации. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 368 с.
7. Мамадиёров.Н.Қ. Кадрлар тайёрлаш сифатини бошқариш моделлари Иқтисодиёт ва таълим. 2016. -№4. -57. -63б.

MUHANDISLIK QO‘SHINLARI HARBIY XIZMATCHILARINI INTELLEKTUAL, IJTIMOY VA MA’NAVIY RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Jabbarov Zarifboy Rustamovich,

O‘zbekiston milliy universiteti

Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik,

e-mail: jabborovzarifboy70@mail.com, tel.: 90-122-02-01

Annotatsiya. Maqolada muhandislik qo‘shinlari harbiy xizmatchilarini intellektual, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishining pedagogik xususiyatlarini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishga muhim pedagogik muammo sifatida qarash mumkin. Muhandislik qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining vazifalarini to‘laqonli bajarilishi, chinakam vatanparvarlar, o‘z ishining malakali mutaxassislaridan iborat professional armiya vakillarini yetishtirish imkonini beradi. Bunday jiddiy, o‘ta mas’uliyatli va sharaflil vazifani uddalashda oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi muhandislik qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: mudofaa, Qurolli Kuchlar, ta’lim, ta’lim sifatini takomillashtirish mexanizmlari, harbiy xizmatchi, muhandislik qo‘shinlari, samaradorlik.

Аннотация. В статье создание научно-теоретических основ разработки механизмов совершенствования опыта педагогических характеристик интеллектуального, социального и духовного развития военнослужащих инженерных войск можно рассматривать как важную педагогическую проблему. Полноценное выполнение обязанностей военнослужащими инженерных войск позволяет подготовить профессиональных представителей армии, состоящих из истинных патриотов и квалифицированных специалистов своего дела. Подготовка военнослужащих инженерных войск в высших военных образовательных учреждениях имеет важное значение для выполнения столь серьезной, весьма ответственной и почетной задачи.

Ключевые слова: оборона, Вооруженные Силы, образование, механизмы совершенствования качества образования, военнослужащий, инженерные войска, эффективность.

Annotation. In the article, the creation of scientific and theoretical foundations for the development of mechanisms for improving the experience of pedagogical characteristics of the intellectual, social and spiritual development of military personnel of the engineering troops can be considered as an important pedagogical task. The full performance of duties by military personnel of the engineering troops allows us to prepare professional representatives of the army, consisting of true patriots and qualified specialists in their field. The training of engineering troops in higher military educational institutions is important for the performance of such a serious, very responsible and honorable task.

Key words: defense, Armed Forces, food, mechanisms for improving the quality of education, military personnel, engineering troops, and efficiency.

O‘zbekistonning mudofaa sohasidagi siyosati bo‘yicha prinsipiial yondashuvlar, ularni qo‘llash asoslari, Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalar, shuningdek, milliy armiyamiz qurilishi va rivojlanishini davom ettirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar belgilab berilgan va ular bugungi kunda amalga oshirilmoqda.

Mudofaa doktrinasidagi belgilangan vazifalar hayotga so‘zsiz joriy etishiga katta e‘tibor davlat rahbari va tegishli nomenklatura strukturalar tomonidan ta‘minlanmoqda. Mudofaa doktrinesi qoidalari va mamlakatimizning geostrategik joylashuvini hisobga olgan holda, harbiy okruglarning tarkibiy tuzilishi va vazifalari tubdan qayta ko‘rib chiqilgan. Xususan, Mudofaa vazirligining barcha birlashma va qismlarining tarkibiy tuzilmasi to‘liq yangilangan. Biz bo‘linmalarga jangovar tayyorgarlik bilan to‘laqonli shug‘ullanish, harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirish va o‘z yo‘nalishi bo‘yicha vazifalarni aniq bajarish uchun tayyor bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari, har bir ofitser va serjant: “Men kelgusida xizmatni davom ettirishga munosibmanmi yoki yo‘qmi?” degan savolga javob berishi shart, – deb ta‘kidlaydi prezident Sh.M. Mirziyoyev. Bundan tashqari, oliy harbiy ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dunyoning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarida muhandislik qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining ta‘lim sifatini takomillashtirish masalalari [1] hal etilmagan va chuqur izlanishlarni talab qilmoqda. Bu shuningdek, muhandislik qo‘shinlari harbiy xizmatchilarini tayyorlash ularning ko‘proq g‘ayrioddiy, xolis va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, to‘g‘ri qaror qabul qilishga, kasbiy faoliyat sohasining jadal rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori bilan O‘zbekistonni rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi doirasidagi 100 ta maqsadni 5 yil davomida joriy etish bo‘yicha muhim ishlar belgilangan [2].

Yangi O‘zbekiston harbiy xizmatchilarni milliy vatanparvarlik va yuksak ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo‘nalishda oliy harbiy ta‘lim muassasalarining faolligini yanada oshirish, ular ongiga mardlik tuyg‘ularini singdirish talab qilmoqda. Mazkur masalaning yechimi oliy harbiy ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarning tarbiyasi va odob-axloqi hamda ularda milliy vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashning gorizontal va vertikal tizimini yaratish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni harbiy xizmatchilarning qalbi va ongiga oliy harbiy ta‘lim muassasalarida o‘qish davridan boshlab singdirib borish orqali milliy vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli harbiy xizmatchilarni yangi O‘zbekistonning farzandi bo‘lish uchun ularni kuchli ma‘naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatan taqdiri va kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladigan, davlat va jamiyat manfaatlari himoyasida turadigan, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan mardona kurashuvchi harbiy xizmatchilarni tayyorlash; harbiy xizmatchilarni xalqimizning ozodligi va ilm-ma‘rifati uchun

kurashgan, Vatan hamda xalq taqdiriga befarq bo‘lmagan millat fidoyilari asosida tarbiyalash; harbiy xizmatchilarni differensial yondashuv asosida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarning yaxlit, yagona, ilmiy asoslangan kompleks metodologiyasini hamda milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash belgilanmoqda.

Mazkur jarayonda harbiy xizmatchilarning madaniyatini rivojlantirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqiy va iqtisodiy savodxonlik, faol fuqarolikka doir tasavvurlar bo‘yicha zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish; buyuk Vatan tariximiz, ulug‘ ajdodlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Al Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘beklarning boy ma’naviy va ma’rifiy me’rosi, ularning jahon sivilizatsiyaga qo‘shgan hissalarini harbiy xizmatchilarda keng targ‘ib etish; harbiy xizmatchilarda jahonda ro‘y berayotgan jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini hamda Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, zararli illatlar, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan reja asosida tashkil etish; harbiy xizmatchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida millati, tili va dinidan qat’i nazar, ularda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-huquqiy, g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy va jismoniy-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish; oliy harbiy ta’lim muassasalarida harbiy xizmatchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan fidoiy shaxslar va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlar g‘oliblari bilan “Uch avlod uchrashuv”larini tizimli tarzda o‘tkazib borish; harbiy xizmatchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradigan ta’lim muassasalarida “Eng ilg‘or mutaxassis”, “A’lochi harbiy xizmatchi” kabi tanlovlar o‘tkazish; ommaviy, madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida bir qancha tamoyillar va yondashuvlarga asoslanish tavsiya etiladi.

Uzluksizlik, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, ilmiylik, tarixiylik, uzviylik, tarbiya jarayonining izchilligi kabi tamoyillar hamda yakka tartibda yondashuv, kompetentsiyaviy yondashuv, akmeologik yondashuv, aksiologik yondashuv, tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar. Harbiy xizmatchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari ularda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda esa, avvalo, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi va ichki omillardan kelib chiqib quyidagi tarbiyalash usullari belgilangan: harbiy xizmatchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida mahallalardagi ma’naviyat, madaniyat namoyandalari va mashhur harbiy xizmatchilar bilan ma’naviy-madaniy tadbirlar tashkil etish, savol-javob kechalari, taqdimotlar, seminar-treninglar, bahs-munozalar, viktorinalar, davra suhbatlarini tashkil etish.

Mazkur jarayonda ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar, telegramm, instagramm, feysbook va boshqa informatsion vositalardan foydalanish orqali samarali tashkil etish; tanlovlarni o'tkazish rejasini ishlab chiqish, tanlov musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish uchun hujjatlar, uslubiy va axborot materiallarini tayyorlash va nashr etish, ta'lim sifatini takomillashtirish masalalari bo'yicha davra suhbatini tashkil etish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini shaklan va mazmunan isloh qilish, uning huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl va usullari samaradorligini oshirish borasida muayyan vazifalar amalga oshirilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu, o'z navbatida, ta'lim sifati samaradorligini takomillashtirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida uning sifatini takomillashtirish, demokratlashtirishni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, uning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, pedagogik imkoniyatlarni belgilash, bu boradagi amaliy tajribalarni yoritish hamda mavzu yuzasidan umumiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi sifatini takomillashtirishning dolzarbligini asoslash; globallashuv jarayonida oliy harbiy ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning ustuvor jihatlarini aniqlash; ta'limda tatbiq etiladigan yangicha innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini takomillashtirishda muhim vosita ekanligini asoslash. Bugungi kunda ta'limni qaytadan isloh qilish idoraviy loyiha sifatida amalga oshirilmasligi, u jamiyatning siyosiy va umummilliy vazifasiga aylanishi muhimdir.

Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratishni [3] muhim pedagogik muammo sifatida qarash mumkin. Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining vazifalarini to'laqonli bajarilishi, chinakam vatanparvarlar, o'z ishining malakali mutaxassislaridan iborat professional armiya vakillarini yetishtirish imkonini beradi. Bunday jiddiy, o'ta mas'uliyatli va sharaflil vazifani uddalashda oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega.

Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida [4] qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish [5], ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida oliy ta'lim tizimi yetakchi va hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda harbiy-muhandislik ta'limini rivojlantirishning yagona yo'li uni jadallashtirish va sifat jihatidan o'zgartirish bo'lganligi sababli, asosiy muammo – harbiy mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatidir. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi sifatiga yangi yondashuvlar ta'limning eng so'nggi falsafasi,

pedagogik kvalimetriyaning rivojlanishi, sifatni baholash tajribasini kengaytirish orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida va amaliyotida zamon talablari va harbiy muhandislikni rivojlantirish istiqbollari bilan bog'liq bo'lgan "kasbiy tayyorgarlik sifati" fenomenining ilmiy shakllanishi amalga oshirilmoqda. Ilmiy yechim oily harbiy ta'lim muassasasiga birlashtirilgan ta'lim sifatini takomillashtirish tizimini yaratishni talab qiladi.

Aytish kerakki, ta'limni xizmat sifatida qaraydigan sifat nazariyalari bevosita amaliyotga o'tkazildi. Bu postulat umumiy ta'limga, ayniqsa, harbiy ta'limga xosdir. Shu bilan birga, muhandislik qo'shinlarining ta'lim sifatini takomillashtirining pedagogik vositalari o'z mohiyatiga ko'ra oliy harbiy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining mohiyatiga to'liq mos keladi.

Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini chuqur nazariy o'rganish bilan uni hal qilingan deb hisoblash mumkin emas, chunki muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini takomillashtirish tizimini keng joriy etish lozim.

Ta'limdagi innovatsion tendensiyalar muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilari tarkibiy qismlarini aniq belgilagan holda modelini ishlab chiqish bilan muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarini tayyorlash shakllarini tashkil etishning maqsadlari, mazmuni, usullarida yetarli darajada namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatchilar uchun infratuzilma: ta'lim sifatini standartlashtirish, ta'lim sifatini mazmunini optimallashtirish, doimiy texnik yangilash, sifatni baholash, korporativ standartlar, ilmiy va uslubiy tayyorgarlik.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarining ta'lim sifatini takomillashtirish o'quv dasturlarini ishlab chiqishda quyidagi yondashuvlarga tayanish mumkin: shaxsga yonaltirilgan, kompetent, izlanuvchanlik. Ta'lim sifatining ta'minlanishida ta'lim tizimining faol subyektlari, mamlakatning barcha fuqarolari, oila va ota-onalar jamoatchiligi, davlat xokimiyatining mintaqaviy institutlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, kasbiy va pedagogik jamoa, ilmiy, madaniy, tijorat va jamoat institutlari birgalikda harakatlanishi samarali deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi 2018 yil 9 yanvardagi O'RQ-458-son "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini to'g'risida"gi qonuni: <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PQ-60-son "Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yildagi rivojlantirish strategiyasi" farmoni // Xalq so'zi. – T., 2022. – 29 yanvar. – B. 1-2.
3. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
4. <https://www.researchgate.net/profile/Va-Bolotov>.
5. Азарова В.М. Патриотическое воспитание военнослужащих Вооруженных Сил Российской Федерации в 1992-2000 годах: Дис. ... д-ра ист. наук. – М., 2004. – 217 с.

OLIIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL, IJTIMOIIY VA MA'NAVIY RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Kurbanov Gani Abilovich,
O'zbekiston Milliy universiteti

*Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi, dotsent,
podpolkovnik, e-mail: ganijonkurbanov@mail.ru, mel.: +99897-777-28-25*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishining pedagogik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik xususiyatlar, intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchisi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогические особенности интеллектуального, социального и духовного развития преподавателей высших военных учебных заведений.

Ключевые слова: педагогические особенности, интеллектуальное, социальное и духовное развитие, преподаватель высших военных учебных заведений.

Annotation. This article examines the pedagogical features of the intellectual, social and spiritual development of teachers of higher military educational institutions.

Key words: pedagogical features, intellectual, social and spiritual development, teacher of higher military educational institutions.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida keyingi yillarda juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda milliy tiklanish, bo'lajak harbiy kadrlarni tayyorlashda intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishining ongi hamda dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida boyitib borish, milliy armiyamizni turli yot g'oyalardan asrash, bo'lajak ofitserlarni dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, or-nomusi yuqori, g'ururli, vatanparvar, xalqparvar, vijdonli, tashabbuskor, halol va jonkuyar hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladigan qilib, milliy va jangovar ruhi matonatli qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning "akme" kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, "akte" – bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa, uni o'rab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgarish olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir. Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va

imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik helgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini "akme" deb ataganlar.

Akme – (yunoncha "yuksalish", "cho'qqi") – kamolot, vuksalish, yetuklik ma'nolarini anglatadi.

Pedagog, birinchi navbatda, akmeologiyaning mohiyati, rivojlanish tarixi, bosqichlari, o'ziga xos uslubiy yo'nalishlari mezo-modulining tarkibidagi mikro-modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlarni belgilaydi. Ikkinchidan, 2-mezo-modul mazmunidan kelib chiqadigan tayanch tushunchalarni ajratib, shular asosida nazorat savollari tuzib, ulami baholash mezonlari belgilanadi.

Uchinchidan, shu mezo-modul tarkibidagi har bir mikromodullarda qo'laniladigan o'quv mashg'ulotining tiplari hamda pedagogik uslublar tanlanib, joylari belgilanadi. To'rtinchidan, shu mezo-modul tarkibidagi har bir mikromodullarda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiya va didaktik materiallarning qo'lanish turi va joyi ko'rsatiladi. Beshinchidan, shu mezo-modul uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarini oqilona yechishni muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmoqdalar. Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganishdir.

Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat.

Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamo'a va insoniy qoidalar asosida nafaqat kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi, balki insonning yetuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o'rganish haqidagi fandir. Bunda biz Sharq allomalarining "komil inson", muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan "Barkamol inson" g'oyalarini akmeologiyaning obyekti "akmeshaxs" tushunchasi bilan bir qatorda tadqiq etgan holda, ushbu fanning fundam enti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qo'lyozmalarida o'z, ifodasini topgan va bugungi kunda bizning mamlakatimizda keng foydalanilmoqda, desak, aslo adashmaymiz.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, "akme" tushunchasini, albatta, yuksak cho'qqi, avj nuqta, eng oliy hissiyotlar (A.Maslou), deyish mumkin.

Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri "akmeologik moyillik" iborasi bo'lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xossasini anglatadi.

Bugungi kunga kelib, fan va texnologiyalar rivojlanish cho'qqisiga chiqqan bir vaqtda yangi tushunchalar ilmiy muomalaga kirib keldi.

Buning asosiy sababi – insonning intellektual qobiliyati zamon va makon bilan chambarchas bogliq bo'lib, fan va texnologiyalar rivojiga avlod, qarab mukammallashib boradi va, nihoyat, o'z "akme" sig'a erishadi.

Akmeologiyaning eng muhim jihati – yuksak kasb-korlikning ijodiy pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganuvchi inson muammolari bilan shug'ullanuvchi insonshunoslikdan ajrab chiqqan muhim zamonaviy tannoq bo'lib, insonning kasb-hunarni bilim va tafakkur orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar bilan uyg'unlikda o'rganishdan iboratdir. Akmeformni o'rganish va tahlil qilish, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratish maqsadida akmeologiya turli kasb faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning ish jarayoni va usullari ustida kompleks tadqiqotlar o'tkazmoqda. Ayni paytda, muvaffaqiyatga erishish uchun boshqa bilimlarni ham tadqiq qilmoqda. Chunonchi, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, genetika va pedagogika kabilardan unumli tarzda foydalanmoqda. Akmeologiya o'zining ontologik ma'nosini inson hayot faoliyatida psixologik va kasb-korda ijtimoiy yutuqlarga erishishini ifodalash va tasvirlash fenomenologiyasi tahlili orqali aks ettiradi. Fenomenologiyaning akmeologik jihati mehnatda ijodiy mahorat bilan ko'rsatiladi. Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish ko'p jihatdan murabbiylarga bog'liqligi sababli, ustoz-murabbiylarning ijodiy mahoratini aniqlash bugungi kunda o'rnatilgan tartibda o'rganilmoqda.

Ko'zlangan asosiy maqsad – o'qituvchi va murabbiylarni o'z kasbining yuksak bilim doni, yetuk salohiyat egasi etib qayta tayyorlashdan iboratdir. Bu esa, akmeologik bilimlar, ya'ni yuksaklik sari intilishning amaliyotga joriy etilishidir.

Bu jihat akmeologiyada milliylik va umum insoniylikning o'zaro dialektik munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Yoshlar tarbiyasida milliylik va umum insoniy qadriyatlarining akmeologik jihatlari dialektik, ziddiyatli tabiatga ega bo'lib, insondan ruhiy va intellektual yangilanishning yangicha tarbiya paradigm asini shakllantirish va unga og'ishm ay rioya qilishni talab qiladi.

O'tmishdagi uzoq tarixiy madaniyatimizga nazar tashlar ekanmiz, o'zbek xalqi insoniyatning ajralmas bir qismi ekanini, ushbu zaminda ko'plab allomalar yetishib, bu allomalarimizning ilmiy asarlarini tadqiq etar ekanmiz, ular akme, akmeologiya tushunchalariga yaqin iboralarni qo'llaganlarining guvohi ho'lamiz.

Hozirgi davrda akmeologiyaning obykti sifatida yetuk inson aqliy zukkolik, kasbiy faoliyat mahorati belgilari, omillari, cheksiz, salohiyati, qobiliyati va iqtidorlari sifatida qabul qilingan. Akmeologiyada mahsuldorlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi ko'rsatiladi. Shuningdek, insonning samaradorlik faoliyati uning rivojlanish apparatini tashkil qiladi.

Akmeologiyada tekshiruv obykti – yetuk professional shaxs, uning rivojlanishida obyektiv va subyektiv omillar, shaxsiy hayoti jarayonida yuksak marralarga erishishi o'rganiladi.

Shuningdek, akmeologiya katta yoshdagi odamlarning yoshlik davrlarida ijodiy yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishi va o'z kasbiy akmesiga erishish yo'llarini o'rganishda milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanadi.

Akmeologiya jam'iyatdagi ijtimoiy hodisalarni o'rganar ekan, insonlarning turli davr va sharoitlarda barqaror hayot yaratish uchun kurashi, mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tishi, bunyodkorlikda o'zini ifodalash, ezgulikka intilish va erishishning yo'nalishini, bunday faoliyatning ichki mexanizmlarini yoritib beruvchi fandır. Ushbu ma'noda akmeologiya insonning o'z manfaatlarini ko'zlab tutgan murakkab mashaqqatli tanlov yo'lini ifodalab beradi. Akmeologiyada yetuklik tushunchasi ko'plab obyektiv va subyektiv jarayonlar va holatlarning o'zaro murakkab aloqadorlik natijasi bo'lib, insonning shaxsiy hayoti, ijodkorligi, ishbilarmonlik qobiliyati, novatorlik xususiyatlarini ham qamrab oladi.

Akmeshaqsning yetuklik darajasi, mohiyati tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy fanlar bilan yaqin aloqadorlikda kompleks ochib beriladi. Umuman olganda, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz. O'zining yuksak rivojlanish nuqtasi, fuqarolik jamiyatini barpo etishga yaqinlashmoqda. Bu esa, ayni paytda akmeologiyaning asosiy kategoriyalaridan mukammallik, yuksaklik, oliy daraja kabi tushunchalar kundalik turmushda ishlatilib kelingan bo'lsa-da, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy nuqtayi nazardan maxsus ilmiytadqiqot sifatida to'la o'rganilmagan.

Shuni e'tirof qilish lozimki, insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida yuksaklik va mukammallikka intilish kishini sog'lom turmush tarziga o'tishga undaydi. Zero, sog'lom turmush tarzi muvaffaqiyatlar va yutuqlar asnosida maydonga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, akmeologiyaning asosiy mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni ilm-bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishish jihatlarini fanlar bilan uyg'unlikda o'rganishdan iborat bo'lib, insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy dunyosida yuksakroq cho'qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o'rganadilar, deya olamiz.

Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarining oqilona yechimini muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmoqdalar. Bu degani, ular integraliv-kompleks o'rganish muhimlik g'oyasini ilgari suradilar. Bizning fikrimizcha, faqatgina kasbiy yuksaklikka erishish g'oyasi bilan chegaralanish muammoning yechimiga olib kelishi mushkul.

Bunday holat bir davrdagi alohida jamiyatning "akme"sini ifodalabgina qolmay, balki moddiy va ma'naviy taraqqiyotga erishish omillarini ham ko'rsatadi.

Insonning oliy va tuban nuqtalari, shaxsning yetuk, mukammal, professional mutaxassis sifatida shakllanishi, uning "akme" cho'qqilarga erishishi barobarida ijtimoiy-axloqiy muhit hamda irsiy sabablar ta'sirida tubanlikka yo'l tutishi

haqidagi g'oyalar bir guruh frenolog olimlar – Frans Iosif Gail, Georg Kombe, Chezare Lombroz asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu olimlar ilgari surgan nazariyaning asosiy mazmuni inson tabiatining asosiy shakllanish sharti, avvalo, uning irsiyligida bolsa, so'ngra sog'lom turmush tarzining takomillasha borishidadir.

Akmeologiyaning metodologik asoslarini yoritib berishdan avval, o'ta murakkab va doimo bahs-munozaralarga sabab bo'ladigan falsafiy tushuncha hisoblangan "metodologiya"ga ilmiy asoslangan ta'rifni berib o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning boshqa mavjudotlardan asosiy farqi, uning ma'lum bir maqsad sari qiladigan harakati, ya'ni faoliyatidir. Kishi maqsad sari qiladigan harakati jarayonida bir qator tabiiy va sun'iy, moddiy va nomoddiy to'siqlarni yengib oladi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun u bir qator tadbir va choralar qo'llaydi. Maqsadga yetishishda biron-bir to'siqni bartaraf etish uchun qo'llaniladigan tadbir uslub deyiladi. Maqsadga yetishishda o'nlab-yuzlab to'siqlarni yengishga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun tegishli uslublar tizimi qo'llaniladi. Maqsadga yetishishda qo'llaniladigan uslublar tizimi usul, yo tariqat, metod deyiladi. Akmeologiyada shaxs muayyan bir usuldagi uslublarni qo'llash jarayonida har bir harakati, oldiga qo'ygan maqsadining ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'z akmesiga erishish jarayonini amalga oshiradi.

Shu bilan bir qatorda, dialektikaning eng umumiy qonunlariga hamda muayyan sohadagi umumiy va xususiy qonuniyatlariga ham amal qiladi. Shaxsning maqsad sari qiladigan akmeologik harakati, unga shu maqsad ko'rsatkichlari bilan dialektika qonuniyatlari, sohaning qonun va qonuniyatlari tamoyil bo'lib xizmat qilishiga metodologiya deyiladi. Har qanday jamiyatning umumiy maqsadi botishi isbot talab qilinmaydigan haqiqat. O'zbekiston jamiyatining asosiy maqsadi huquqiy-demokratik davlat va juqarolik jamiyatini shakllantirishdan iboratdir.

Shu bilan birgalikda, har qanday ijtimoiy guruhlarning ham o'ziga mos maqsadlari mavjud. Undan tashqari, har bir shaxsda o'ziga yarasha ijtimoiy sifatlar bo'lganligi tufayli, uning o'zining ehtiyojlar tizimi ham bo'ladi.

Akmeologiyada esa, ushbu maqsadli tizimga "akmeologik moyillik" iborasi qo'llaniladi. Xulosa qilib aytganda, har bir shaxsning eng umumiy va shaxsiy maqsadlariga yetishishi uchun eng umumiy va xususiy metodologik asoslar mavjud, jamiyat oldiga qo'yilgan maqsad ko'rsatkichlari bilan dialektikaning umumiy qonunlari butun jamiyat a'zolarining faoliyati uchun eng umumiy metodologik asos hisoblanadi.

Akmeologiyaning tadqiqot obyekti – insonlar faoliyatida eng umumiy va xususiy falsafiy metodologiyalardan birday foydalangan holda o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Aks holda qilgan harakatlari behuda ketishi aniq.

Bizni o'rab turgan atrof-olam katta va kichik, jonli va jonsiz yaxlitliklardan iborat ekanligi hech kimga sir emas. Har qanday butunlik, ya'ni yaxlitlik, majmu bo'la turib, o'zidan kichikroq butunliklar – unsurlardan tashkil topishi ham aniq haqiqat. Yaxlit bir butunni tashkil qiluvchi va o'zaro funksional bog'liq bolgan qismlardan iborat narsa yoki hodisa majmu deyiladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, akmeshaxs faoliyatini tashkil etishning majmuli yondashuv tamoyiliga amal qilishlik zamon talabiga javob beruvchi tadqiqot deyish mumkin. Aytish lozim ki, butun borliq qatta va kichik, jonli va jonsiz, shakl jihatidan turli-tuman majmulardan tashkil topgan. Shu inajm ularning tashkil qiluvchi qism lari orasidagi aloqadorliklami va bu majmularning xususiyatlarining zaruriy ekanligini belgilab bemvchi inson faoliyatiga “ilm” deyiladi. Majmular nazariyasiga binoan, har bir qism, o‘z navbatida, majmu hisoblanib, u ham bir necha qism lardan tashkil topadi. Bu majmulaming har birini soha ilmi o‘rganadi.

Bundan tashqari, butun moddiy olam majmulari ayrim xususiyatlarini alohida-alohida ilmlar o‘rganadilar. Jumladan, nomoddiy majmu – gumanitar, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy qismlardan tarkib topgan.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-5297046>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 yanvardagi “Oliy Majlisga Murojaatnomasi”. – 19-son.

3. Xaydarov K.A. Bo‘lajak ofitserlarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fanl. boyicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – Ch., 2023.

РАЗВИТИЕ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ВОЕННОЙ АВИАЦИИ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВСЕЙ ЖИЗНИ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ XXI ВЕКА

Медетова Раушан Мамадияровна,
заведующая отделом УзНИИППН, доктор педагогических наук, старший научный сотрудник,

Илясов Ботир Кодиров,
преподаватель Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, майор

Аннотация. В данной статье речь идёт об обучении специалистов военной авиации на протяжении всей жизни и искусственного интеллекта в процессе подготовки специалистов военной авиации на основе применения передового опыта.

Ключевые слова: специалист военной авиации, подготовка, развитие, образование, искусственный интеллект, обучение на протяжении всей жизни.

Annotatsiya. Ushbu maqola ilg‘or tajribalarni qo‘llash asosida harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash jarayonida harbiy aviatsiya mutaxassislarini umrbod o‘rganish va sun’iy intellektga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: harbiy aviatsiya mutaxassisi, ta’lim, rivojlanish, ta’lim, sun’iy intellekt, umrbod ta’lim.

Annotation. This article is about lifelong learning of military aviation specialists and artificial intelligence in the process of training military aviation specialists based on the application of best practices.

Key words: military aviation specialist, training, development, education, artificial intelligence, lifelong learning.

XXI век стал веком интенсивного развития образования, науки, культуры, спорта и других направлений социально-экономического развития общества. Именно такой скачок позволил нам сегодня говорить о роли новейших внедрений в систему высшего военного образования. Формирование трех базовых навыков: чтения, письма и счета сегодня стало недостаточным для нового поколения молодёжи республики. Вот почему появились новые тенденции, связанные с внедрением искусственного интеллекта, который несёт с собой ещё три способности: эмпатию, творческое и критическое мышление.

Образование и навыки, необходимые для достижения успеха в мире, не могут обойтись без интеллектуальных технологий, включающих и другие навыки, в том числе некогнитивные, например, самоэффективность – умение адекватно оценивать свои способности и эффективно их использовать.

Для того чтобы сегодня идти в ногу со временем, мы должны уметь глубже вникать в суть понятий и явлений и обладать высокой устойчивостью, хорошими адаптационными способностями и гибкостью, причем последнее относится и к образовательным системам.

Первостепенное значение сегодня приобрели способности, присущие личности, в частности, критическое мышление. Есть и другие важнейшие навыки: умение взаимодействовать с другими людьми, ставить цели и планировать; дисциплинированность и командный дух; творческие способности и эмпатия. В этой связи сегодня образовательному сообществу предстоит решить целый ряд задач, касающихся структуризации этих многочисленных навыков, разработки методики их формирования, внедрения их в учебные программы и выработки критериев оценки результатов в данных областях, которые до недавнего времени не являлись приоритетом высшего образования. Кроме того, благополучие наших обучающихся, в их числе и специалистов авиации во многом зависит от их чувства общности друг с другом и гражданственности, от умения налаживать контакты и сотрудничать. В основе этих качеств лежит эмпатия, которую относят к важнейшим навыкам XXI века.

В мире все чаще признают необходимость формирования в рамках формального образования навыков межличностного общения. Такие организации, как ЮНЕСКО и ОЭСР, разрабатывают нормативные рамки, стандарты и критерии оценки этих навыков, в том числе так называемых «глобальных компетенций», призванных содействовать межкультурному взаимодействию. В 2009 году в национальную учебную программу Австралии был внесен ряд умений общего характера, включая критическое и

творческое мышление и межкультурное взаимопонимание. Этому примеру последовали многие территориальные субъекты. К примеру, проект Education for a Changing World был создан для поощрения инновационных подходов с целью усовершенствования всей системы образования. В образовательном сообществе имеются примеры практического применения новаторских методов, направленных на повышение мотивации учащихся и использование возможностей передовых технологий для повышения успеваемости. Все эти методы имеют под собой различную фактологическую базу, их анализ с целью определения наиболее эффективных из них сегодня очень важен.

На основе передового опыта частных и государственных учреждений, полученного на национальном и международном уровнях в области внедрения инноваций, Департамент образования Нового Южного Уэльса занимается поиском эффективных мер содействия работникам сферы образования в деле разработки и распространения новаторских подходов к обучению. Конечной целью этой деятельности является выработка новых устойчивых и гибких методов, позволяющих оптимизировать процесс обучения, повысить уровень усвоения знаний специалистами военной авиации и расширить их способности. В этом плане искусственный интеллект, при условии его грамотного использования в соответствии с потребностями педагогов, представляет для сферы образования большой интерес. Уже были созданы интеллектуальные системы, облегчающие работу преподавателей и тем самым позволяющие им уделять больше внимания индивидуальным особенностям специалистов военной авиации и координации процесса обучения. В частности, эти системы могут отслеживать степень мотивации и успехи специалистов военной авиации и, в ряде случаев, предлагать корректировки к содержанию обучения.

В проектировании и разработке подобных интеллектуальных систем крайне важно обеспечить центральное место преподавателям, которые должны играть главную роль в определении места искусственного интеллекта в учебном процессе и пройти необходимую подготовку, позволяющую им эффективно применять эту технологию. Специалисты военной авиации также должны привлекаться к принятию решений в этой области и быть осведомлены об этических аспектах использования искусственного интеллекта.

В Концепции развития высшего образования Республики Узбекистана до 2030 года указывается на необходимость реализации перспективных разработок в области создания и внедрения передовых моделей, программ, технологий и образовательных решений. К таким технологиям относятся технологии искусственного интеллекта, которые все более проявляют себя в образовательном сегменте и повышают образовательный и развивающий потенциал электронной информационно-образовательной среды; насыщают ее интеллектуальными средствами взаимодействия, коммуникации, эффективность и результативность управления учебным материалом и учебным процессом.

Особенность современной образовательной ситуации заключается в том, что специалисты военной авиации зачастую более мобильны в освоении новых технологий и более адаптированы к жизни и обучению. Поэтому важно лучше понять и осмыслить проблемы, задачи и динамику адекватной подготовки специалистов военной авиации, а также пути их профессиональной адаптации к работе в ситуации, когда электронная информационно-образовательная среда развивается в направлении; разработать и внедрить в практику необходимые для этого соответствующие образовательные технологии, адаптированные к современным образовательным потребностям, особенностям специфики специалистов военной авиации. Внедрение искусственного интеллекта в высшее военное образование является одним из ведущих социальных последствий развития средств этой науки. Недостаточное изучение этой области со стороны педагогики делает эту проблему чрезвычайно важной для представителей различных направлений педагогической мысли. Интеллектуализация как социальный процесс имеет исключительное стратегическое значение. При этом эффективно осуществляется подготовка специалистов военной авиации на основе междисциплинарной интеграции с использованием технологий и методов искусственного интеллекта, которые используются для эффективного профессионального развития специалистов военной авиации. Это невозможно без глубокого проникновения в системное функционирование мозга, в психические процессы человека, в мыслительные процессы, которые являются интегратором интеллекта. С целью развития у специалистов военной авиации естественного интеллекта, своих профессиональной интеллектуальной зрелости, необходимо применять педагогические технологии, которые направлены на развитие таких способностей как: когнитивная активность, умение создать целостную картину предметной области, выделение основных знаний, умение рассуждать, синтез познавательных процедур, способность к рефлексии, постановке целей и выбору средств ее достижения (способность к целеполаганию и планированию поведения), адаптация к педагогической ситуации, формирование обобщения и обучение на примере, умение отбирать знания, умение учиться и умение аргументированно принимать решения.

Кроме того, технологии обучения должны быть направлены на сокращение периода динамической адаптации специалистов военной авиации к будущей профессиональной деятельности. Развитие профессионально значимых качеств и умения осуществлять специальную педагогическую деятельность должно происходить путем согласованного междисциплинарного синтеза знаний и учебной деятельности в процессе целостной профессиональной подготовки специалистов военной авиации [2]. Синергетический подход как методологическая ориентация в познавательной и практической деятельности, предполагающая применение совокупности идей, понятий и методов в исследовании открытыми нелинейными самоорганизующимися системами, позволяет найти общие черты в различных

предметных областях, использование которых в учебном процессе позволит сформировать у специалистов военной авиации профессиональные знания, умения и основные виды профессиональной деятельности. Синергия связана с образованием по вопросам развития. Именно необходимость развития искусственного интеллекта с точки зрения повышения уровня ее интеллектуальности заставляет специалистов военной авиации совершенствовать ее с содержательной и технологической точек зрения.

В настоящее время внедрение адаптивных технологий обучения осуществляется в обновленной версии образовательной среды. Специалисты военной авиации могут оперативно пользоваться сервисами на базе семантической сети, осуществлять поиск информации на семантических образовательных порталах, имеющей контекстное значение, знакомиться на теоретическом и практическом уровне с интеллектуальными интерфейсами, вопросами распознавания и синтеза речи, анализа текста, когнитивной графики, извлечения знаний, разработки онтологических моделей.

Специалисты военной авиации изучают методологию «концептуальной карты» и применяют его для решения своих реальных проблем. Задания специалистов военной авиации в системе отслеживаются с помощью чат-бота. Более глубоко технологии и методы искусственного интеллекта изучаются специалистами военной авиации, которые проходили и проходят обучение по образовательным программам «технологии и управление электронным обучением» и «корпоративное электронное обучение».

Таким образом, специалисты военной авиации изучают вопросы инженерии знаний, семантического моделирования при проектировании образовательных информационных систем искусственного интеллекта и руководствуются ведущими идеями в создании различных типов интеллектуальных систем для образовательных целей, которые заключаются в переходе от знаниецентристских взглядов к знаниеобразующим. Это особенно важно в связи с тем, что механизмы подготовки специалистов военной авиации должны быть эффективными, своевременными и востребованными самим временем.

Литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Концепция развития высшего образования Республики Узбекистана до 2030 года» от 8 октября 2019 года: <https://president.uz/ru/lists/view/2966>

2. Попов А.В. Особенности становления и развития педагогической системы подготовки военных авиаторов в России и в зарубежных авиационных школах (конец XIX – начало XX века). – М., 2022

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA NUQTAI NAZARNING O'ZIGA XOSLIGIGA OID KOGNITIV TADQIQOTLAR NATIJALARINI O'QUV AMALIYOTIDA QO'LLASH IMKONİYATLARI

Nurmatov Abdumannop Abduvaxobovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqola o'qituvchi faoliyati bo'yicha kognitiv tadqiqotlar natijalarini amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, amaliyotda qo'llash imkoniyati, kognitiv tadqiqot natijalari, kasbiy mahorat, faoliyat.

Аннотация. В данной статье раскрыты возможности применения на практике результатов когнитивных исследований о деятельности учителя.

Ключевые слова: учитель, возможность применения на практике, результаты когнитивных исследований, профессионализм, деятельность.

Annotation. This article reveals the possibilities of applying in practice the results of cognitive research on the activities of a teacher.

Key words: teacher, possibility of application in practice, results of cognitive research, professionalism, activity.

Zamonaviy pedagogika fanida o'qituvchi faoliyati bo'yicha kognitiv tadqiqotlar natijalarini amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, bugungi kunda o'qituvchining nuqtai nazari, tutgan mavqeiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur masala bir qancha milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Masalan, O.S.Gazman hamda A.V.Petrovskiyilar o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatidagi nuqtai nazarlari uning ijtimoiy, kasbiy, o'ziga xos individual tipik qirralarini ifodalaydi, deb hisoblaydilar.

S.D.Polyakov esa, tarbiyaviy jarayonlarni o'qituvchi hamda o'quvchilarning hamkorligi natijasi sifatida baholaydi. Insonni tarbiyalovchi asosiy vosita uning qat'iy ishonchidir. Ishonchga esa, faqat ishonch bilan ta'sir ko'rsatish mumkin.

O'qituvchining kasbiy-shaxsiy nuqtai nazari uning boshqalar orasida tutgan ijtimoiy-ma'naviy mavqei va kasbiy faoliyatini ifodalaydi. Pedagogik faoliyat tarkibida kasbiy nuqtai nazar muhim ahamiyatga ega.

O'z hayotidan ma'no izlash har bir kishiga nuqtai nazari, faoliyati va xulq-atvorini aniqlash imkonini beradi. Bu o'ta tig'iz faoliyat jarayonida amalga oshadi. Shaxsning xudbinlikka intilishi o'z qiziqishlarini tasdiqlash, qadriyatlar tomon bosqichma-bosqich qadam qo'yish imkonini beradi.

Nuqtai nazarning umum iste'moldagi mohiyati, nuqtai nazarlar, muayyan masalaga oid qarashlar, u yoki bu narsaga munosabat, shuningdek, xatti-harakatlar, xulq-atvor, shunga oid yondashuvlar, tayyorlanish uchun mashg'ulotlar hamda faoliyatga kirishish demakdir. Ko'pgina tadqiqotchilar shaxsning mavqei tushunchasiga murojaat qilganlar.

Nuqtai nazar munosabatlar tizimidir. U shaxs faoliyatining asosiy negizi sifatida talqin etiladi. U shaxsning yetuklik darajasini ifodalaydi. Nuqtai nazar insonning hayotiy faoliyati va jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.

Nuqtai nazar o'zi mansub bo'lgan sub'ektning holatini ifodalaydi. Nuqtai nazar subyektiv munosabatlarni ham aniqlashga xizmat qiladi. Jumladan: qadriyatlarga yo'nalganlik, qiziqishlar, mayllar, amal qiladigan qoidalar va h.k.

Nuqtai nazar insonga o'z hayotiy faoliyatini barqarorlashtirish imkonini beradi. Bu uning atrofdagilar bilan munosabatlarida o'z ifodasini topadi. Shaxsning yo'nalganligi shuni ko'rsatadiki, u jamiyatdan nimani olsa shuni qaytaradi.

N.F.Radionovanning ta'biricha, insonning nuqtai nazari ob'ektiv hamda sub'ektiv xarakterga ega. Uning ob'ektivligi shundaki, u jamiyat a'zolarining turmush tarzi bilan bog'liq holda vujudga keladi. Shuning uchun ham nuqtai nazarning mazmunini jamiyatdagi munosabatlar belgilaydi. Uning sub'ektiv xakteri insonning ong bilan bog'liq holda shakllanishidir.

Nuqtai nazar inson harakatining amalga oshish jarayonini belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda, nuqtai nazar muayyan shaxsning munosabatlari doirasini belgilaydi. Shaxsning nuqtai nazari uning vaqt bilan bog'liq holda shakllanishini ham ko'rsatadi. Har bir munosabat o'zining muayyan shakllanish jarayoniga ega. Muayyan vaqt ichida mazkur nuqtai nazar faol va ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Mazkur munosabatlarning barchasi shaxs vaqtining tarkibini ifodalaydi. Chunki muayyan vaqt mobaynida har bir shaxs borliq bilan munosabatga kirishadi. Nuqtai nazar kabi munosabatlar tizimi ham ko'p qirralidir. Masalan, ob'ektiv hamda sub'ektiv, ichki hamda tashqi, quvvatli hamda dolzarb, ijtimoiy hamda psixologik yo'nalishlarga ega.

Shaxs taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasini o'rganar ekan A.V.Petrovskiy, ijtimoiy nuqtai nazar tushunchasini ajratadi. Muallif mazkur tushuncha ostida shaxsning muayyan guruhdagi munosabatlari tizimini anglaydi. Chunki mazkur munosabat uning xulq-atvorini tartibga soladi.

Ijtimoiy hayotning muayyan tuzilmasidan o'qituvchi tarbiyachilik faoliyatining ko'lami tarkib topadi. Agar tarbiyachilik umumiy tarzda kasbiy faoliyatga aylanganda uning u yoki bu shaklini o'zlashtirish imkoniyati kengayadi.

Bunday sharoitda jamiyat tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslarni tanlaydi. Bunday kishilar shaxslararo muloqotning asosiy shakllarini egallagan bo'lishlari lozim. Ma'lumki, kasbiy faoliyat insonning muhim ijtimoiy vazifasidir. Uning muhim qismi ijtimoiy turmushdir. O'qituvchining kasbiy shakllanishi naqadar muhimligini xuddi mana shu talqinda yaqqol ko'rish mumkin.

Mutaxassislar pedagog nuqtai nazarining ijtimoiy ahamiyati nechog'li muhimligini, uning yutuqlari uyg'unlashuvida ko'radi. Bu yutuqlar o'qituvchiga ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy hayotda mahsuldor pedagogik faoliyatga kirishish imkonini beradi. Bunday faoliyat har bir o'qituvchi uchun ruhiy qulaylik yaratadi.

Faol pedagogik nuqtai nazarning shakllanishi o'qituvchining kasbiy hamda hayotiy jihatdan o'z o'rnini aniqlashida muhim nuqta hisoblanadi. Shu asosda u umuminsoniy madaniyat va pedagogik qadriyatlarni o'zlashtiradi. O'qituvchining nuqtai nazari o'zining kasbiy faoliyati doirasida o'z o'rnini aniqlovchi hodisadir.

Ta'lim-tarbiya insonning shaxsiy sifatlarini tarkib toptiruvchi jarayon ekanligini e'tirof ekanmiz, A.I.Grigorevaning fikrlariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyalovchi o'qituvchi bo'lmasdan turib yuksak kasbiy mahorat egasi bo'lish mumkin emas.

Tarbiyachi bo'lish uchun o'qituvchi faoliyatli nuqtai nazarga ega bo'lishi lozim. Ta'limni insonparvarlashtirish har bir o'qituvchida tarbiyachi sifatida faoliyatli nuqtai nazar shakllanishini talab qiladi. O'qituvchining nuqtai nazari intellektual quvvat, rolli, olamga nisbatan hissiy-baholovchi munosabat, pedagogik haqiqat, pedagogik faoliyat, o'qituvchi faolligi manbai sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Tarbiyachi-o'qituvchining kasbiy nuqtai nazari haqida so'z borar ekan, biz uning faoliyatli tasdiqlovchi, o'ziga xos tabiatini alohida xususiyatga ega. I.A.Kolesnikovaning ta'biricha, pedagogning o'ziga xos nuqtai nazari ta'lim tizimida insonparvarlikning rivojlanganligi nishonasidir. O'qituvchining faolligi uning kasbiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchilarda shaxsiy pedagogik madaniyatning shakllanishini muntazam nazorat qilib borish lozim.

Tarbiyachi o'qituvchining nuqtai nazari uning ijtimoiy vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur jarayonda o'quvchi o'z-o'zini rivojlantiruvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi o'qituvchining o'ziga xos shaxsiy yo'nalishi uning nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tarkib topadi. Chunki har doim kattalar, ayniqsa, ota-onalar va o'qituvchilarning faoliyati o'quvchi uchun rivojlanish manbai hisoblanadi. Har bir shaxsda o'z nuqtai nazarini erkin bayon qilish imkoniyati mavjud. Faqatgina shaxsiy pedagogik nuqtai nazar o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash imkoniyatiga ega. Chunki o'qituvchi, birinchi navbatda, jamiyatning yangi a'zolarini yetishtirib beruvchi faoliyat subyektidir.

O'qituvchining shaxsiy mualliflik nuqtai nazari pedagogik faoliyatning yetakchi vazifalarini e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo qiladi. O'quvchini tarbiyalash bu faqatgina unga muayyan narsalarni o'rgatishdan iborat emas.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni loyihalashtirish o'qituvchidan mualliflik nuqtai nazariga ega bo'lishni talab qiladi. Bugungi kunda respublikamizda o'qituvchilar tayyorlash jarayonining asosiy maqsadlardan biri – bo'lajak o'qituvchilarda insonparvarlikka asoslangan nuqtai nazarni shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim. Aniq dalillarga asoslangan pedagogik nuqtai nazar bo'lajak o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlovchi muhim omil hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida insonparvarlik tamoyillari va o'zbek xalqining milliy qadriyatlariga amal qilishi zarur. Pedagogik nuqtai nazarning xulq-atvor bilan bog'liq jihati o'qituvchining o'quv jarayoni bilan bog'liq turli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishi, o'quvchilarni tarbiyalashi va ularning hayoti uchun mas'ulligida namoyon bo'ladi. Bu o'quvchilarning qiziqishlarini himoya qilishdagi faollik hamda ularga zarur yordam ko'rsatish, ularning rivojlanishi uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni vujudga keltirishdan iborat.

O'qituvchining nuqtai nazari qanday bo'lishi uning kasbiy faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham pedagogik nuqtai nazar tarkibiga ma'naviy-axloqiy yo'nalishni kiritish lozim. Buning yagona ijtimoiy ahamiyati va pedagogik faoliyat sub'ektining shaxsiy mayllari, o'qituvchilik kasbiga qiziqishi va intilishi, o'z hayotining asosiy mazmuni sifatida o'qituvchilik mehnatiga ijobiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilarga hurmat va muhabbat bilan qarash, har bir bolaning taqdiri uchun mas'uliyat hissining vujudga kelishi alohida ahamiyatga ega.

Har bir o'qituvchining nuqtai nazari uning pedagogik faoliyatini aks ettiruvchi oyna hisoblanadi. Mazkur nuqtai nazarning mazmunida o'qituvchining o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyati ifodalanadi. Murakkab pedagogik faoliyat va bu faoliyatning tizimdan farqi, uning sifatida namoyon bo'ladi.

Nuqtai nazar faoliyatning asosiy birligi sifatida o'zida ikki turdagi muhim munosabatni mujassamlashtiradi.

Bu faoliyat tarkibining ikki qatlami bilan bog'liqdir:

a) o'qituvchi nuqtai nazarning yuzaki darajasi. Bu o'qituvchining tajribasi va vujudga keladigan pedagogik holat bilan bevosita bog'liqdir. Bu jarayonda kasbiy faoliyat mazmunida muayyan o'zgarishlar vujudga keladi;

b) o'qituvchi nuqtai nazarning chuqurlik darajasi. Nuqtai nazarning mazkur darajasi muayyan fikriy jarayonlar natijasida vujudga keladi. Bu pedagogik faoliyat ishtirokchilaridan birortasiga bevosita taqdim etilmaydi.

O'qituvchining tarbiyachilik faoliyati nuqtai nazaridan qaraganda, mazkur masala o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kuzatishlar natijasida shuni ko'rsatadiki, nuqtai nazar o'qituvchi faoliyatining ifodasi sifatida pedagogik voqelik bilan bevosita bog'liqdir. U faoliyatning ifodasi sifatida uning tarkibini chuqurlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов н/Д., 2000. – 352 с.

2. Григорьева Л.А. Стимулирование старшеклассников к выбору мировоззренческих позиций: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – СПб., 1998. – 24 с.

3. Петровский А.В. Личность. Деятельность. Коллектив. – М., 1982. – 255 с.

4. Радионова Н.Ф. Педагогические основы взаимодействия педагогов и старших школьников в учебно-воспитательном процессе: Дис. ... д-ра пед. наук. – Л., 1991. – 470 с.

5. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. – СПб., 1999. – 242 с.

6. Mamatqulov D. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish omillari // Xalq ta'limi. – T., 2018. – 5-son. – B. 42-43.

7. Mardonov Sh.Q. O'qituvchining pedagogik faoliyati: ijtimoiy talablar, natija va samaralar // Xalq ta'limi. – T., 2018. – 6-son. – B. 15-20.

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ КОГНИТИВНЫХ И НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИТИИ ВИЗУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Пирматов Серик,

доцент Национального института художеств и дизайна

Аннотация. В данной статье раскрыты возможности применения результатов когнитивных и нейропедагогических исследований в развитии визуальной культуры у студентов.

Ключевые слова: визуальная культура, методика, студент, преподаватель.

Annotatsiya. Mazkur maqolada kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlar natijalarini talabalarda vizual madaniyatni rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy madaniyat, metodika, talaba, o'qituvchi.

Annotation. This article reveals the possibilities of applying the results of cognitive and neuropedagogical research in the development of visual culture among students.

Key words: visual culture, methodology, student, teacher.

Система непрерывного образования Республики Узбекистан стремительно развивается на основе тех задач, которые определены руководством страны и отражены в нормативно-правовых документах, касающихся развития образования. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5847 о «Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года подчёркивается, что «в целях определения приоритетных направлений системного реформирования высшего образования в Республике Узбекистан, поднятия на качественно новый уровень процесса подготовки самостоятельно мыслящих высококвалифицированных кадров с современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, модернизации высшего образования, развития социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий» будет обеспечено внедрение передовых стандартов высшего образования, в частности, будет обеспечен поэтапный переход от образования, учебные программы которого направлены на получение теоретических знаний, к системе образования, направленной на формирование практических навыков, исходя из международного опыта [1]. Сформированность отдельных компонентов данного процесса зависит от развития профессиональной культуры специалиста, в том числе визуальной культуры у студентов.

На наш взгляд, эффективность профессиональной подготовки в высшем образовательном учреждении связана с различными факторами: индивидуально-типологическими особенностями субъектов образовательного

процесса, имеющимися соотношениями индивидуальных когнитивных стилей и визуальной культуры студентов, индивидуального стиля педагогической деятельности преподавателя высшего образовательного учреждения и его культуры; применением преподавателями в процессе обучения студентов оптимальных технологий, способствующих разработке индивидуальных траекторий развития визуальной культуры у студентов. Все сказанное выше позволяет утверждать о необходимости целенаправленного обучения студентов эффективным способам развития визуальной культуры, выбора для этого соответствующих индивидуальных траекторий, разрабатываемых в соответствии с моделью развития исследуемого вида культуры.

Как показывает многолетний опыт преподавания в высшем образовательном учреждении и сама вузовская практика, студенты в большинстве случаев хаотично воспринимают процесс развития визуальной культуры, не готовы к саморефлексии и саморегуляции индивидуальных траекторий её развития; многие из них даже не испытывают в этом потребности. Действительно, ни система высшего образования, ни система повышения квалификации и переподготовки педагогических кадров не содержат специальной задачи по развитию способности студентов к рефлексии и саморегуляции, являющихся необходимыми компонентами визуальной культуры.

Следовательно, если студенту не оказать вовремя помощь в инициировании импульса к саморефлексии, в овладении необходимыми умениями, то многие личности, даже обладающие значительным потенциалом, не смогут правильно разработать индивидуальную траекторию развития визуальной культуры. У них может возникнуть представление о том, что и без новых способностей имеющийся уровень визуальной культуры обеспечит необходимую успешность учебно-профессиональной деятельности: формируется инерционность, стереотипность деятельности, инновации усваиваются все слабее, так как потребность в них не осознается в полном объёме.

Следует особо подчеркнуть, что когнитивная технология разработки индивидуальных траекторий развития визуальной культуры студентов невозможна без реализации разработанных нейропедагогических условий: осознание студентом необходимости учета данных нейропедагогической диагностики; приоритет субъект-субъектных отношений, обеспечивающих взаимное индивидуальное развитие субъектов образовательного процесса и позволяющих рассматривать уровень развития визуальной культуры студентов как фактор изменения стиля преподавания педагога [2]; организация взаимодополнения дуальных качеств и способностей студентов для расширения совокупности средств и способов развития визуальной культуры; активное использование в образовательном процессе образной визуализации учебной информации; обеспечение оптимального эмоционального климата в учебном процессе, способствующего успешности

деятельности студента с учетом специфики их когнитивных процессов; активизация индивидуального творческого потенциала субъектов образовательного процесса посредством увеличения доли творческих форм и методов преподавания и обучения как важного фактора развития умений решения нестандартных профессионально-ориентированных ситуаций и поиска альтернативных путей их решения.

Особое значение на этом этапе имеет уровень взаимопознания и взаимопонимания студентов, адекватность взаимных оценок, непосредственно влияющих на понимание общей цели взаимодействия, единства задач развития визуальной культуры, корректировку индивидуальных траекторий его развития в соответствии с личностными особенностями студентов.

Взаимопознанию и взаимопониманию в рамках когнитивной технологии развития визуальной культуры способствуют рефлепрактические методы (методы социально-психологического тренинга: рефлексивная инверсия, полилог, позиционная дискуссия), которые позволяют создавать атмосферу как самоисследования, так и сотворчества субъектов образовательного процесса между собой. Например, метод инверсий (перевертывания стереотипов обыденного сознания) особенно актуален для преподавателей и студентов, поскольку дает психологическую безопасность нейропедагогической самодиагностики; метод проекций используется для анализа проблемных профессиональных и квазипрофессиональных ситуаций.

Данный метод характеризуется тем, что допускает множественность возможных интерпретаций ситуации при ее восприятии участниками. За каждой интерпретацией вырисовывается уникальная система личностных смыслов и особенностей культуры студента. Работа с ситуациями строится следующим образом: решение абстрактной ситуации; решение вузовских ситуаций, подготовленных субъектами; решение ситуаций, предложенных субъектами из собственного опыта; метод эмпатии или личной аналогии, который всегда был важным эвристическим методом решения творческих задач и применяется в двух вариантах: 1) в обычном смысле: как отождествление студента с личностью другого, что крайне важно для определения эмоционального состояния друг друга, установления взаимопонимания субъектов, творческого характера отношений, атмосферы доброжелательности и взаимоуважения.

В педагогической литературе отмечается, что соучастие способствует максимальной включенности участников деятельности и более широкой реализации их потенциальных способностей, активизируя их мыслительные и иные когнитивные процессы; 2) в обобщенном смысле: как слияние с процессом, системой, приписывая им чувства и эмоции студента, что требует активизации образного мышления и приводит к поиску оригинальных идей; метод рефлексии контрастов (сопоставление имеющейся стратегии развития визуальной культуры с возможными альтернативными траекториями) позволяет рассмотреть свои представления о себе, своем пути развития

визуальной культуры с крайних позиций: максимально положительных и максимально отрицательных, следовательно, дает возможность оценить эффективность различных вариантов; позволяет проектировать желаемые индивидуальные траектории развития визуальной культуры у студентов и оценивать их практическую реализацию.

Кроме того, данная технология знакомит студентов с концепцией обучения, которая позволяет избавиться от стереотипов, мыслительных шаблонов, что особенно важно в плане развития готовности к субъект-субъектным отношениям, обеспечивающих взаимное индивидуальное развитие субъектов образовательного процесса и позволяющих рассматривать уровень развития визуальной культуры у студентов как фактора осуществления индивидуальных траекторий развития и представляет собой не только самостоятельную деятельность студентов и преподавателей, но и результат их взаимодействия. При этом эффективность данного процесса во многом обусловлена уровнем развития рефлексивных представлений и умений, которые обеспечивают существенные изменения в ценностных ориентациях и мотивации субъектов.

Литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 о «Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года: <https://lex.uz/ru/docs/4545887>

2. Ибраимов Х., Куронов М., Ибрагимова Ф. Педагогика тарихи ва назарияси: Дарслик. – Т.: Шаффоф, 2023. – 392-б.

ОБРАЗОВАНИЕ И АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ КОЛЛЕДЖЕЙ

Самадова Зулайхо, Абдухакимовна,
преподаватель Самаркандского Сиабского медицинского техникума,
Самарканд, Узбекистан

Хамидова Фарангиз Уктамовна,
преподаватель Самаркандского Сиабского медицинского техникума,
Самарканд, Узбекистан

Аннотация: В данной работерассматриваются факторы, играющие огромную роль в адаптации учащихся колледжей в современных образовательных учреждениях, и что она является очень важным элементом в современном мире.

Ключевые слова: адаптация, учебный процесс, среда, учащиеся

Молодежь – одна из главных целей, упомянутых в госпрограмме активная гражданская позиция, социальная ответственность, патриотизм, формирование высоких моральных и лидерских качеств нашей страны это развитие конкурентоспособного человеческого капитала для получения экономической выгоды. Достижение нового качества образования требует

профессиональной подготовки и профессиональных компетенций, обеспечивает формирование и социализацию. Именно поэтому сегодняшняя образовательная среда, как предмет самообразования и воспитания направлена на формирование адаптации студентов к учебному процессу является обычным явлением и входит в число теоретических проблем, что связано с новыми образовательными потребностями студентов.

Адаптация к условиям и новой среде – сложный и многогранный процесс.

Одной из важнейших проблем современного вуза является не только учебная нагрузка на организм, резкая смена социально-психологической среды студентов для которых это является тяжелым явлением.

Большая советская энциклопедия дает следующее определение: «Адаптация – это приспособление, регулирование, лат. *Adapto* — приспособляюсь) — организмы (популяции, виды) и процесс приспособления структур и функций органов к условиям окружающей среды».

Адаптация – это динамический процесс. Благодаря ему живые организмы передвигаются, развиваются и размножаются поддерживая стабильность, несмотря на изменчивость необходимых для жизни условий.

Целеустремленность и адаптация молодежи в организованной среде очень важна в системе образования, которая является составным элементом. Это связано с тем, что адаптация – очень динамичный процесс, потому что его успех зависит от целого ряда объективных и субъективных условий. У каждого свой взгляд на одну и ту же историю. Ну, только один сам стимул вызывает у разных людей разные реакции. Вот почему изучение механизма и закономерностей адаптации учащихся в современных образовательных организациях является в мире очень важным элементом.

Существуют три формы адаптации студентов-первокурсников к среде обучения в колледже:

1. Новая среда учащихся, в структуру среднего специального учебного заведения, учиться там когнитивная и информационная адаптация к содержанию и требованиям своих задач соответствующая формальная адаптация;

2. Социальная адаптация, то есть внутренняя интеграция групп первокурсников процесс (унификации) и интеграции этих групп со студенческой средой;

3. Подготовка студентов к новым формам и методам воспитательной работы в колледже, соответствующая дидактическая адаптация.

Успешная адаптация первокурсников к студенческой жизни зависит от их личности, является гарантией развития как специалиста в будущем. Результат этой проблемы, найти решение, жизненные планы первокурсников, интересы, причины выбора профессиональной специальности – основные, с которыми вы столкнетесь в первые месяцы обучения в колледже. Проблемы,

темы, представляющие наибольший интерес, как организовать свободное время, изучаются самооценка и самосознание.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Turakulov, E. M., Mamatkulov, S. B., & Irbutayeva, N. D. (2024). PROFESSIONAL AND PERSONAL QUALITIES OF A MODERN TEACHER. World of Scientific news in Science, 2(4), 321-325.

2. Irbutayeva, N. D., Irbutayeva, P. Y., & Mamatkulov, S. B. (2024). COMMUNICATIVE COMPETENCE WHEN USING TEXTS IN RUSSIAN LESSONS IN A FOREIGN LANGUAGE AUDIENCE. World of Scientific news in Science, 2(5), 236-242.

3. Dilshodovna, I. N., Yusufzoda, I. P., & Muradullaevich, T. E. (2024). THE IDEA OF “COGNITIVE ACTIVITY”: RETROSPECTIVE ANALYSIS. Journal of new century innovations, 51(2), 94-97.

4. Irbutayeva, N. D., & Irbutayeva, P. Y. (2023). ABOUT LANGUAGE AND SPEECH CULTURE. In Язык. Образование. Культура (pp. 61-62).

«ПОЗНАВАТЕЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ»: РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ

Хайдарова Сурайё Турабековна,

*преподаватель Самаркандского Сиабского медицинского техникума,
Самарканд, Узбекистан*

Рузиева Феруза Бекназар кизи,

*преподаватель Самаркандского Сиабского медицинского техникума,
Самарканд, Узбекистан*

Аннотация: В статье рассказываем, как ретроспективный анализ помогает выявить проявления волевых усилий. Познавательную деятельность студентов в стремлении получить и овладеть знания

Ключевые слова: активность, мышление, информация, познавательная деятельность, анализ

В сегодняшних условиях актуальным становится вопрос формирования познавательной активности, личности.

Анализ понятия познавательная активность - это толкование, связано с разными подходами к проблеме активности личности представителей разных наук: философов, социологов, психологов, педагогов.

В научно-педагогической литературе, а именно в педагогическом словаре понятие познавательная активность – это деятельностное состояние личности, выражающееся в настойчивом стремлении к знаниям, к умственному напряжению и проявлению волевых усилий в процессе овладения знаниями. В отдельных философских трудах познавательная активность исследовалась непосредственно в связи с процессом познания. В

этом случае она отождествлялась с деятельностью мышления и исследовалась в процессе «разработки информации», «нахождения информации».

Анализ познавательной активности личности показывает, что это явление – сложное, многокомпонентное. Психологи и педагоги по-разному толкуют вопрос о компонентном составе познавательной активности личности.

Ученый П. Гончарук отмечает, что познавательная активность является свойством личности, которая занимается познавательной деятельностью. Познавательная активность является качественной характеристикой познавательной деятельности субъекта. Она фиксирует имеющийся уровень сформированности его познавательных возможностей, то есть познавательная активность трактуется как сложное системное свойство субъекта, интегрирующего важные качественные характеристики типичного для него, проявления познавательной деятельности в единстве ее мотивационной (потребности, интересы, ценностные ориентации, установки), операционного (репродуктивные, стандартные, поисковые действия) и информационного (восприятие учебного материала, связь известного с неизвестным, актуализация учебного материала) компонентов.

Согласно определению познавательной активности, предложенные учеными-педагогами главными компонентами познавательной деятельности являются:

1. Мотивы и цель деятельности;
2. Интерес к учебному предмету;
3. Направленность внимания личности на обучение;
4. Волевые усилия;
5. Положительные эмоции;
6. Творческая самостоятельность;
7. Сформированность путей и приемов познавательной деятельности;
8. Оптимальный ритм и режим работы.

Таким образом можно сказать, что познавательная активность это явление сложное, состав которого включает следующие компоненты:

- Познавательная самостоятельность;
- Мотивационный (познавательный интерес);
- Информационный (полнота и мобильность знаний, умений и навыков личности).

ЛИТЕРАТУРА:

1. Turakulov, E. M., Mamatkulov, S. B., & Irbutayeva, N. D. (2024). PROFESSIONAL AND PERSONAL QUALITIES OF A MODERN TEACHER. *World of Scientific news in Science*, 2(4), 321-325.
2. Irbutayeva, N. D., Irbutayeva, P. Y., & Mamatkulov, S. B. (2024). COMMUNICATIVE COMPETENCE WHEN USING TEXTS IN RUSSIAN LESSONS IN A FOREIGN LANGUAGE AUDIENCE. *World of Scientific news in Science*, 2(5), 236-242.

3. Dilshodovna, I. N., Yusufzoda, I. P., & Muradullaevich, T. E. (2024). THE IDEA OF “COGNITIVE ACTIVITY”: RETROSPECTIVE ANALYSIS. *Journal of new century innovations*, 51(2), 94-97.

4. Irbutayeva, N. D., & Irbutayeva, P. Y. (2023). ABOUT LANGUAGE AND SPEECH CULTURE. In *Язык. Образование. Культура* (pp. 61-62).

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM, UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Zafar Pardayev Shukurovich,

*Samarqand viloyati PYaMO‘MM, bo‘lim boshlig‘i
zafarpardayev600@gmail.com; Zafar_1978@umail.uz*

Annotatsiya. Maqolada umumta‘lim maktablarida zamonaviy ta‘lim metodlari, texnologiyalari bilan birgalikda ajdodlarimizning ta‘limni rivojlantirish haqidagi qimmatli fikrlarini ham qo‘llash, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim orqali sifat va samaradorlikka erishish, o‘quvchi shaxsini ongli va to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo‘lgan mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, sharoit, psixologik holat, bolaning shaxsiy fazilatlarini, sifat, o‘qituvchi, o‘quvchi, shaxs, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, kadrlar tayyorlash.

Аннотация. В статье в общеобразовательных школах наряду с современными образовательными методами и технологиями используются ценные идеи наших предков о развитии образования, достижении качества и эффективности через личностно-ориентированное образование, ориентация личности учащегося на выбрать осознанную и правильную профессию, а также приведены соображения, которые следует реализовать и усилить в отношении подготовки конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: Образование, условия, психологическое состояние, личностные качества ребенка, качества, педагог, ученик, личность, личностно-ориентированное образование, подготовка кадров.

Annotation. In secondary schools, along with modern educational methods and technologies, the article uses the valuable ideas of our ancestors about the development of education, achieving quality and efficiency through person-centered education, the orientation of the student’s personality to choose an informed and correct profession, and also provides considerations that should implement and strengthen in relation to the training of competitive personnel.

Key words: Education, conditions, psychological state, personal qualities of the child, qualities, teacher, student, personality, personality-oriented education, personnel training.

Ta‘limning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning o‘z qiziqishlari bo‘yicha bilimlarni to‘la egallashlariga erishish, shaxsning diqqat markazida bo‘lishini va yoshlarning tanlagan mutaxassisliklariga monand, mustaqil, chuqur

bilim olishlarini ta'minlash uchun umumta'lim muassasalariga yuqori malakali va o'z sohasidagi zarur bilimlarni mustahkam egallagan bo'lishidan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda samarali foydalana oladigan pedagog-o'qituvchilar kerak. Buning uchun o'qituvchilarimizni innovasion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda bilimlarini boyitib borish lozim. Bu borada izlanishlar olib borilayotgan pedagog-olimlar quyidagi omillarga e'tiborni kuchaytirish lozim deb hisoblaydilar.

- o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;

- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;

- o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlari davomida foydalaniladigan uslubiy tizimiga xos bo'lgan pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va hokazo.

Ma'lum davrgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan bo'lib, bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Bugungi kunda esa nemis millati o'qituvchilarining o'qituvchisi deya tan olingin pedagog-olim Adolf Distervegning "Yomon o'qituvchi haqiqatni taqdim etadi, yaxshi o'qituvchi uni topishga o'rgatadi" – degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini anglab yetmoqdamiz. Biroq bu holat ham hozircha: "barcha viloyat va ta'lim muassasalarida ijobiy natija berayapti" - deb ayta olmaymiz. Bu holatning asl sabablaridan biri, ta'lim olishga nisbatan o'quvchilarda qiziqish va motivasiyaning yetarli emasligi yoki dunyoqarashlarining pastligi deb aytish mumkin.

Bunday xulosani aytishimizga sabab qilib quyidagi fikrlarni keltirishimiz mumkin:

Aksariyat o'quvchilar (afsuski, ota-onalarda ham) ongida "umumiy o'rta ta'lim men uchun, mening kelajakda jamiyat uchun kerakli kadr bo'lib yetishishim uchun xizmat qilmoqda, o'qituvchim jon-jahdi bilan mening kelajagim uchun qayg'urmoqda" degan fikrning yo'qligi;

O'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalaridan unumli va o'z o'rnida foydalanish o'rniga, ko'z bo'yamachilik (ya'ni, Bormi? Bor qabilida) asosida foydalanilayotgan holatlarning mavjudligi (bunga sabab shuki, ayrim o'qituvchilarimizda ta'lim texnologiyalari, ularni ta'lim jarayonida qo'llash tartibi, mazmuni haqida tasavvurning o'zi yetarli emas);

O'qituvchilar tomonidan "o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim"ni tashkil etish va ijobiy natijaga erishishda sustkashlikka yo'l qo'yish holatlari;

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi "hamkorlikda o'qitish-o'rganish" mashg'ulotlari mazmunining tor ekanligi;

Ta'lim jarayonida mahalliy sharoit, milliy mentalitet, o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini kabi omillarni hisobga olish vaziyatlarining yetarlicha bajarilmayotganligi va h.k.

Respublikamiz ta'lim muassasalari, xususan maktabda o'qitishning yangi shakl, mazmun va usullarini qo'llash hamda ta'limining sifat va samaradorligini

yuqori pogʻonalarga olib chiqish vazifalari qoʻyilgan. Maqsad oʻquvchilarning yetuk mutaxassis kadrlar boʻlib yetishishlari uchun mustahkam poydevor yaratishdan iborat. Shu oʻrinda alohida taʼkidlash joizki, oʻqitishning barcha texnologiyalarini qoʻllash taʼlimda yuqori sifat darajasiga koʻtarilishda muhim ahamiyatga ega. Biz maqolada tilga olmoqchi boʻlgan oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirilgan taʼlim ham bu jarayonda oʻzining ijobiy natijalarini beradi, albatta.

Oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirilgan taʼlimning bir qator afzalliklari borki, u taʼlim-tarbiya jarayonida samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi. Bu haqda taʼlim sohasida bizgacha ijod qilib, qator asarlarni meros qilib qoldirgan olimlarning fikrlariga qoʻshilgan holda oʻz mulohazalarimizni bayon etamiz.

Ayni vaqtda pedagogik jarayonda yangi taʼlim texnologiyalarini qoʻllab, sifat va samaradorlikka erishishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Aslida, taʼlimni texnologiyalashtirish yangilik emas. Yan Amos Komenskiy taʼlimning shunday umumiy tartibini topishga harakat qilgan-ki, u inson tabiatining umumiy qonuniyatlari boʻyicha amalga oshiriladi. Shunda Komenskiy “ogʻirligi tenglashgan soatning yurishidek hamma narsa aniq va ravshan rivojlanib boradi va bu shu turdagi avtomat moslamasiga yoqimli va quvonch bilan qaragandek yoqimli va quvonchlidir» deb taxmin qiladi.

Didaktik mashina uchun, birinchidan: aniq qoʻyilgan maqsad; ikkinchidan: bu maqsadni amalga oshirish uchun kerak boʻladigan vositalar; uchinchidan: albatta, maqsadga erishish uchun bu vositalardan qanday foydalanishning aniq qonun-qoidalarini topish zarur deb yozgan. Shu oʻrinda Komenskiyning quyidagi fikriga diqqatingizni jalb qilishni joiz deb bilamiz, “...taʼlimning shunday umumiy tartibini topish kerak-ki, u inson tabiatining umumiy qonuniyatlari boʻyicha amalga oshirilsin...”. Demak, taʼlimning sifat va samaradorligini oshirish oʻquvchi shaxsiga bogʻliq va bunga jiddiy eʼtibor qaratish lozim.

Yoshlarni oʻqitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish koʻp jihatdan oʻqituvchining gʻoyaviy eʼtiqodi, kasbiy mahorati, bilimdonligi, madaniyati, insonparvarligi, rahbarlik qobiliyati kabi qator fazilatlariga bogʻliq. Zamonaviy pedagog oʻquvchiga taʼsir etish, uning istaklarini, eʼtiqodini, qiziqishi, qobiliyati, layoqati va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olishi va ularni doimo shakllantira bilishi kerak. Yaʼni, taʼlimda “oʻquvchi shaxsi”ga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayonni, muhitni, zaruriy shart-sharoitlarni yarata olishi lozim. Jumladan, quyidagilarga eʼtibor qaratishi kerak:

taʼlim-tarbiya ishlarida samarali natijalarga erishish uchun oʻz ishi haqida aniq tasavvurga ega boʻlishi;

bir necha murakkab ammo muhim quyidagi savollarga aniq javoblarni berishi lozim: Pedagogik jarayonning mohiyati nima? Bolalarga niman va qanday oʻqitish zarur? Ularda qanaqa shaxsiy fazilatlarini shakllantirish kerak? Oʻquvchilarning oʻquv va ijtimoiy faoliyatini qanday boshqarish mumkin? Pedagogik jarayon samaradorligini oshirish uchun oʻquvchi shaxsining muhim jihatlari va hokazo.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning provard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning

uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi", degan edilar.

Bunday yuksak ezgu-maqсадlarning ro'yobga chiqishida umumta'lim maktablarida olib borilayotgan pedagogik jarayonlarning ahamiyati katta. Maktab jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri. Maktab jamiyatning buguni emas, balki kelajakka yo'naltirilgan rivojini belgilaydi. Maktabning maqsadi ta'lim va tarbiyadir.

O'quvchilar maktabda ta'lim – tarbiya olish jarayonini tashkil etish yuz yilliklar davomida qo'llanilib, butun dunyoda u ta'limning eng samarali usuli sifatida e'tirof etilgan. Uni to'g'ri tashkil etish qator ijobiy natijalar bilan ajralib turadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonida "o'quvchi shaxsini" ham inobatga olish, u bilan hisoblashish, imkoniyatlaridan kelib chiqib, mashg'ulotlar tashkil etish ham ta'lim samaradorligini oshirishning muhim jihatlari sanaladi.

Uyg'onish davrining bir qator mutafakkirlari ta'lim-tarbiyada o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari, muhit, sharoitni hisobga olish muhim deb sanab, uni muvaffaqiyat garovi, ta'lim-tarbiyada samaradorlikka erishish, maqsadga yetishning muhim omillari deb bilishgan.

Jumladan, Beruniy o'qitish vositasi va usullari haqida fikr yuritar ekan, "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi", - deydi.

Sharqda "Shayxur rays" ("Olimlar raisi") unvoni bilan mashhur bo'lgan al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinoning "Tadbir ulmanozil" asarida bayon etilgan o'qitish usullari hozirgi davr talim tamoyillariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir: "Bola baquvvat bo'lib, so'zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlangandan so'ng u savod o'rganishga qobil bo'ladi, shundan so'ng savodga o'rgata borish mumkin. Avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan irodali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo'ladi. U sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerak".

Ibn Sino o'quvchiga bilim berishda o'qituvchining pedagogik mahorati va mas'uliyatli burchi masalasiga alohida to'xtalib, o'qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi, qiziqishini, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o'qituvchiga shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq jiddiy bo'lishi, berilayotgan bilimning o'quvchilar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli o'qitish usullari va shakllaridan foydalanishi;

- o‘quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni o‘quvchilarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishishi zarur”.

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o‘qitishdan ko‘ra jamoa, sinf tartibida o‘qitishni afzal, deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta’kidlaydi: ”O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e’tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O‘quvchilar birga bo‘lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar”.

Umuman, ibn Sinoning ta’lim texnologiyasida o‘qitish jarayonida qaysi uslublardan foydalanilmasin – og‘zaki, ifodali, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko‘rinishlardagi suhbatmi, tajribalarni, baribir, o‘quvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, olgan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo‘lgan.

Ta’lim jarayoni, avvalo, o‘quvchilar diqqatini tartibga solishni talab etadi. Darslarda ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, AKT, texnik va EHM vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o‘quvchilarning darsda o‘tiladigan materialni idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish, berilayotgan ma’lumotlarni ularning qobiliyati, yoshi, shaxsiy imkoniyatlariga mos kelishini ham hisobga olishdan iboratdir.

Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqati o‘zgarib turadi. O‘qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o‘quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalarni berib, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolish, nimani butunlay esda saqlab qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishi, nimani so‘zma-so‘z esda olib qolishi, nimaning ma’nosini o‘z so‘zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini tushuntirib o‘tishi lozim. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, bunday ko‘rsatmalar berilmaganda, o‘quvchilarda ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlar vujudga keladi.

O‘qituvchi deyarli har kuni o‘quvchilar bilan uchrashadi, savol javob qiladi, ularning yaxshi ishlarini ma’qullaydi, bilimini baholaydi, nojoyi xatti-harakatlari uchun tanbeh beradi. Albatta, o‘qituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, subyektivlik alomatlari mavjud. U hammaga aynan birdek juda to‘g‘ri munosabatda bo‘la olmasligi mumkin. Lekin u hamma o‘quvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchani ishonchi komil

bo'lmog'i darkor. Sinfda o'qituvchi yaxshi ko'radigan, yomon ko'radigan, o'quvchilar bor degan ta'surot tug'ilmasligi kerak. Bu "o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim"ning muvaffaqiyatli tashkil etilishida ahamiyatlidir.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tizimining markazida o'quvchi shaxsi turishi, uning rivojlanishi uchun sog'lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizo va inqirozlardan asrash, tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish, qobiliyatini o'stirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, unga nisbatan hurmat va mehr bilan qarash va majburiylikdan voz kechish, ta'lim jarayonini demokratiya, hamkorlik, tenglik kabi g'oyalar asosida qurish, unga tanlash, mustaqillik, erkinlik berish, o'zi tanlagan vosita va mazmunni to'liq qabul qilishi hamda bu faoliyatni xohish bilan bajarishga yordam berish, bilim olishga ehtiyojini uyg'otish lozim.

Xusola sifatida, shularni ta'kidlab o'tmoqchimiz: ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchi shaxsi va uning shaxsiy fazilat, qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish; mavzuni o'zlashtirish emas, nega o'zlashtirish lozimligini uqtirish; mavzular mazmunini o'quvchilar kelajagida tutgan o'rnidan kelib chiqib integrasiyalash yoki differentsiallashtirish; o'quvchilarga "Hayotda qanday maqsading bor?", "Unga erishish uchun nimalar qilishing kerak?", "Sen shunday qila olayapsanmi?", "Jamiyatga qanday kishilar kerak?", "Sen o'zingni ular qatoriga qo'sha olasanmi?", "Sen qanday yashayapsan?", "Hayoting qiziqarlimi?", "Haqiqiy do'st qanday bo'lishi kerak?", "Haqiqiy do'sting bormi?", "Bepul narsaning bahosi qancha?", "Nima savob-u, nima gunoh?" kabi o'quvchi ongiga psixologik ta'sir etuvchi savollar berib, ularning dunyoqarashlarini ijobiy tomonga, mustaqil ishlash, bilim olish, jamiyatga kerakli kadrlar bo'lib yetishish motivatsiyasini paydo qilish va uning rivojlanishiga yordam berish zarur. Ana shunda ta'lim tizimi va jarayonining sifat va samaradorligi ortadi. Respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy salohiyat va savodxonligi yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. М.М.Алиқулова. Инновацион педагогика. – Т.: "ТДИУ" нашриёти, 2012. – 129 б.
2. Р.Ж.Ишмухамедов. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари (2 китоб). – Т.: ТДПУ, 2009. - 108 б.
3. Р.Ж.Ишмухамедов. Ўқув жараёнида интерфаол услублар ва педагогик технологияларни қўллаш услубияти. - Т.: РБИММ, 2008. - 68 б.

6-SHO‘BA
MADANIYAT, SAN‘AT VA KITOBXONLIK PEDAGOGIKASINI
RIVOJLANTIRISH – SHAXSDAGI KREATIVLIK, KOGNITIVLIKNING
NAMOYON BO‘LISH OMILI SIFATIDA

YAPONIYANING JADAL TARAQQIYOTIDA YAPON
ONALARINING ROLI

Davronov Pirnazar Ziyatovich,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy
markazi professori*

Annotatsiya. Maqolada Yapon onasining bola tarbiyasidagi roli va funksiyalari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: yapon, ona, bola, guduk, oila, bog‘cha, maktab, xan, guruh, kitob, musiqa, vatan, tuyg‘u, tayanch, mustaqil.

Abstract. The role and functions of the Japanese mother in raising a child are described in the article.

Key words: Japanese, mother, child, kid, family, kindergarten, school, house, group, book, music, homeland, feeling, support, independent.

Аннотация. В статье описаны роль и функции японской матери в воспитании ребенка.

Ключевые слова: японец, мать, ребенок, малыш, семья, детский сад, школа, хан, группа, книга, музыка, родина, чувство, поддержка, самостоятельность.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida ayrim o‘quvchi-yoshlarning o‘zini tutishi, xulq-atvoridagi salbiy jihatlarning kuzatilishi dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Dastlabki tarbiya esa oiladan boshlanadi. Oiladagi yaxshi tarbiya, inson kamolatida, bog‘cha va maktab ta‘lim-tarbiyasida muhim omil hisoblanadi. Psixolog olimlarning e‘tirof etishlaricha inson butun umri davomida o‘zlashtiradigan bilimlarning yetmish foizini yeti yoshgacha o‘zlashtirar ekan. Ushbu ma‘lumotni e‘tiborga olgan yapon onalari farzandlari tarbiyasiga alohida mas‘liyat bilan yondashadi.

Yapon oilasida farzand tug‘ilsa, ona uning tarbiyasini o‘z hayotining asosiy maqsadi deb biladi. Yapon oilalari bolalarining ertaroq voyaga yetishlari tarafdori. O‘g‘il bola tug‘ilgan bo‘lsa, uni oilasining va mamlakatining kelajakdagi tayanchi, tirgagi deb tarbiyalashga kirishadi. Qiz farzand tug‘ilgan bo‘lsa, uni aqlini taniganida boshlab oila yumushlariga tayyorlashadi va atrofidagi odamlar bilan past tovushda, tavozi bilan, chiroyli muloqat qilishga o‘rgatishadi. Shuning uchun Yapiniya oila buzulmasligi sohasida eng yo‘qori o‘rinlardan birini egallab turadi.

Toshkent shahrida yangi tashkil bo'lgan oilalardan 33 foizidan ortig'ida ajralish bo'ganligi to'g'risidagi statistikani o'qiganman. Bu fojiaku, natijada qancha yoshlar baxitsi, bolalari esa yetim qolishmoqda.

Yapon onasining bola tarbiyasidagi faoliyati, har qanday aqlu-farosati yetarli insonni lol qoldiradi. Yapon onasi 1 yashar bolasida o'ziga ishonchni tarbiyalaydi va unga yapon, ingliz va rus tillardagi rasmi kitoblarni o'qib beradi, rasmlarini tamosha qildiradi.

Masalan, yapon onasi qancha talab etilsa shuncha mehnati evaziga bolasida o'ziga ishonchni hosil qildiradi, ya'ni qo'qmasdan emaklashni, ilk qadamlarini qo'yishni, o'rgatadi.

Samarqanddan Yapon yigitiga kelin bo'lib tushgan ayolning aytishicha, qaynonasi keliniga o'zbek tilidagi kitoblarni ham bolasiga o'qib berdirar ekan.

Bola kitob o'qilishiga qarab yotar va unda ixtiyoriy diqqat revojlana ekan. Eng e'tiborlisi shundaki, yaponlar tozalikka juda e'tiborli, har kuni bolni cho'miltirib yotqizgandan so'ng, yarim soat kitob o'qib berilmasa 1 yashar go'dak uxlamas ekan. Demak, yapon onasi bolasida go'dakligidan shunday yashash tarziga adaptatsiya hosil qildirayapdi. Ushbu amaliyotni Yaponiyaga kelin bo'lib tushgan ayolning Samarqanddagi oilasida qilib ko'rishsa, bizning bolalar quloq ham solishmabdi, hatto qarashmabdi ham. Buning sababi bizning oilalarda go'dak bolaga kitob o'qib berish urfga aylanmagan.

Demak, kitob o'qish kerakligini bolalarning ongiga go'dakligidan singdirish kerak. Xalqi eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakat – eng yaxsh mamlakat!

Yapon onasi 2 yoshli bolasini qo'l mehnati bilan tanishtiradi. Idish-tovoqni yuvushni, artib tozalab joyiga qo'yishni bolasiga ko'rsatib bajaradi. Xonalarni tozalash, tikish-bichish, to'qish kabi ishlarni bolasining ko'z o'ngida bajaradi. Chunki bu faoliyatlar yapon bolachaning ongiga singib boradi.

Bizning onalar esa bolasini uxlatib uy yumushlarini bajarishadi. Faoliyatimiz yana yapon onasinikiga qarama-qarshi. Demak, bizning bolalar yetti yoshgacha o'zlashtirishi mumkin bo'lgan bilimlardan bebahra qolishadi.

Yapon onasi 3 yoshli farzandida mas'uliyatni anglashni tarbiyalaydi. Hech birimizga sir emas, biz yoshlarni qo'yib turaylik, juda ko'pchilik katta yoshli odamlarimizda ham mas'uliyat mutlaqo yetarli emas. Kasbimizga sodiqlik bilan yondashish o'rniga, vazifalarimizni qo'l uchida, kun o'targa, naridan-beri bajaradigan, maoshni kutub yashaydiganlarimiz yetarlicha topiladi.

Shuningdek, 40 yoshdan oshgan o'g'limiz yashaydigan xonaga kirsak, ostonadan uyning turigacha kiyimlari va boshqa narsalarining sochlib yotganiga guvoh bo'lamiz. Etralab ishga ketish oldidan baqir-chaqir bilan popoq izlash boshlanadi. Nima uchun farzandimizning kiyim-kechagini onasi yoki ayoli yig'ishtirib yurishlari kerak. Nega ishlatgan buyumlarini yuvub, tozalab joyiga qo'maydi. Nega bolamiz ishlatgan birgina tok qaychini soatlab izlab topolmasdan, ro'shno ro'zg'orimiz zimistonga aylanib yotishi kerak. Bu noxush holatlarning barchasiga, bolamizga yoshligidan mas'uliyatni anglashni o'gatmaganimiz sabab.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning barchasida, jumladam O'zbekistonda ham bolalar 3 yoshdan bog'chaga borishadi. Bog'cha opa bolaga kiyimlarini

tegishli joyga, talab etilgan tarzda joylashtirishni o'rgatadi va bolalar uni bajarishadi. O'sha bola uyga kelgach, ostonadan boshlab, oyoq kiyimini boshqa oyog'i yordamida yarim yechib otadi va xonaning to'riga o'tib ketadi. Ust boshi ham shu alfozda yechiladi va kattalar ularni yig'ishtirib olishadi. Bu juda yomon, bolalarimiz o'z vazifasiga mas'uliyatsiz bo'lib o'sishadi.

Yapon ona bog'cha opa bilan hamkorlikda, bolaga bir xil talab asosida ishlaydi. Bog'chadan uyga kelgan yapon bolasi kiyimlarini, poyafzallarini va boshqa buyumlarini tozalab joy-joyiga qo'ygach ikki kaftini birlashtirib, ta'zim bilan bajargan yaxshi ishlari uchun atrofidagi kattalardan rag'bat kutadi va uni albatta oladi.

Shu o'rinda o'zimizga xos misol keltiraman: bir onaning 5 va 7 yoshli o'g'ilchalar bor. Ma'lumki bola bolaligini qiladi. Ular tik turgan narsani yotqizib, yotgan narsani bosib o'tmasa bolaligi bilinmaydi. Ikki bola hovlida baqir-chaqir bilan to's-to'polon qilishmoqda. Bundan bezor bo'lgan amakisi ularni xona zaliga quvub kiritadi. Yotoq xonani yig'ishtirayotgan ona zaldagi balalarining "Kattalarni bopladik – a",-degan gaplarini eshitadi.

E'tibor qilsak, yapon bolasi qilgan yaxshi amallari uchun kattalardan rag'bat olib xursand bo'lishsa, bizlarniki "boplab" quvonishmoqda. O'z vaqtida zarur tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilmasa "boplavchilar" kelajakda nimalar qilishmaydi.

Yapon va bizning bog'cha tarbiyachilari faoliyatida ham qarama-qarshilik kuzatiladi.

Yaponiyada bog'chaga kelgan har 8 nafar bolalar birgalikda xanlar atrofida o'tirishadi. Tarbiyachisi ularni o'zlari joylashgan xanga mustaqil nom topish tomon yetaklaydi, ya'ni bolalarni aqliy rivojlantirishga harakat qiladi. Bizning tarbiyachilar esa bolalar o'tirgan stollarga yulduzcha, g'uncha, kamalak, qaldirg'och kabi nomlarni o'zlari qo'yib berishadi.

Avstraliyada qo'l motorikasini rivojlantirish orqali bolalarning bosh miya faoliyatini faollashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolani aynan bog'ch yoshidan boshlab kasbiy faoliyatga yo'naltirish bog'cha oldida turgan asosiy vazifa qilib belgilangan. Bizlarda kasbga yo'naltirish asosan 9-sinfдан boshlanadi.

Singapurda davlatga qarashli bog'chalar yo'q. Barcha bog'chalar xususiy bo'lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg'armalar tomonidan boshqariladi.

Yapon onasi 4 yoshli farzandiga uning hayotida uchrashi mumkin bo'lgan, yaxshilik bilan yovuzlikni farqlashga o'rgatadi.

Yapon oilasi bog'cha bilan hamkorlikda 5 yoshli bolalarni liderlikka, reja tuzushga va ularni mustaqil amalga oshirishga o'rgatishadi. Xanlardagi 8 kishilik kichik guruhlardagi bolalar belgilangan muddat oralig'ida navbat bilan liderlik (rahbarlik, boshqaruv) qilishadi. Bu tajriba 6 yoshdan boshlang'ich sinflarda davom ettiriladi, ya'ni oila va maktab ta'lim-tarbiyasida uzviylik ta'minlanadi.

Yapon onalarining bola tarbiyasidagi tajribasidan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonni revojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish mamlakatimiz onalariga bog'liq ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – QHMMB, 29.01.2022. 06/22/60/0082-son.

2. Ibragimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. - T., « Sahhof», 2023, 416 bet.

3. Джалалова Д.Х. Основные тенденции развития современной японской школы. Автореферат дис.к.п.н. 2004.

4. To'ychiyeva R. Yaponcha ta'lim tarbiyadan boshlanadi. Ma'rifat gazetasi, 2020-yil, 1-yanvar.

РОЛЬ КУЛЬТУРНОГО И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Замира Саидкуловна Мустафаева,

*преподаватель, Джизакского государственного педагогического
университет, E-mail: zamira240980@gmail.com,*

Аннотация: В данной работе рассматривается роль культурного и художественного образования в формировании речевых навыков и креативного мышления у детей дошкольного возраста. Анализируются основные проблемы, связанные с недостаточной интеграцией этих дисциплин в образовательный процесс, и предлагаются решения для их преодоления.

Abstract: This paper examines the role of cultural and artistic education in the formation of speech skills and creative thinking in preschool children. The main problems associated with the insufficient integration of these disciplines into the educational process are analyzed and solutions are proposed to overcome them.

Annotatsiya: Magolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkurni shakllantirishda madaniy va badiiy ta'limning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ushbu fanlarni ta'lim jarayoniga yetarlicha integratsiya qilmaslik bilan bog'liq asosiy muammolar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish uchun yechimlar taklif etiladi.

Ключевые слова: дошкольное образование, культурное воспитание, художественное образование, речевые навыки, креативное мышление.

Key words: preschool education, cultural education, art education, speech skills, creative thinking.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, madaniy tarbiya, badiiy ta'lim, nutqiy ko'nikmalar, ijodiy tafakkur.

Введение. Культурное и художественное образование играют значительную роль в развитии детей дошкольного возраста, оказывая глубокое влияние на их речевые навыки и креативное мышление. На этапе дошкольного детства формируется основа для дальнейшего

интеллектуального и эмоционального развития ребенка, и поэтому важно уделять внимание методам и подходам, способствующим развитию этих навыков. В процессе художественного воспитания дети учатся выражать свои мысли и чувства, развивают воображение, а также обогащают словарный запас и речевые навыки. Художественные и культурные занятия способствуют не только интеллектуальному, но и эмоциональному росту, формируя в детях способность к эмпатии, эстетическому восприятию и критическому мышлению. Одна из ключевых проблем в области культурного и художественного образования дошкольников заключается в недостаточном внимании к интеграции этих дисциплин в общий образовательный процесс. Часто акцент делается на академических навыках, таких как математика и чтение, в то время как искусство и культура остаются на вторых ролях. Это приводит к тому, что у детей не формируются в полной мере речевые навыки и креативное мышление, которые так важны для их всестороннего развития. Ограниченные возможности для самовыражения и творчества могут негативно сказаться на уверенности детей в себе и их способности к самореализации в будущем. Решением данной проблемы является внедрение комплексного подхода к образованию, который интегрирует культурные и художественные дисциплины в повседневную учебную программу. Это включает в себя использование различных видов искусства (музыка, живопись, театр, танцы) как средств для развития речевых навыков и креативного мышления. Также важно обеспечить профессиональную подготовку педагогов, чтобы они могли эффективно использовать методы художественного воспитания в своей работе. Применение таких подходов позволяет создать более богатую и стимулирующую образовательную среду, где каждый ребенок может раскрыть свой потенциал.

Методология. Одной из эффективных методик является использование драматических игр и театральных постановок в образовательном процессе. Эта методика предполагает активное участие детей в создании и разыгрывании различных сценок, что способствует развитию их речевых навыков и воображения. В процессе драматической игры дети учатся строить диалоги, используют разнообразные лексические и грамматические конструкции, что обогащает их словарный запас. Театральные постановки также способствуют развитию креативного мышления, так как дети должны придумывать сценарии, решать проблемы, возникающие в процессе игры, и находить творческие решения. Педагоги, работающие по данной методике, играют роль направляющих, предоставляя детям свободу для самовыражения и поддерживая их инициативу.

Результат. В рамках проведенного исследования была применена методика использования драматических игр и театральных постановок для развития речевых навыков и креативного мышления у детей дошкольного возраста. Исследование проводилось на базе детского сада № 5 города Джиззак, в котором приняли участие 60 детей в возрасте от 4 до 6 лет.

Исследование длилось в течение шести месяцев, и результаты были оценены с помощью различных методов наблюдения и тестирования.

Участники исследования. Дети были разделены на две группы: экспериментальную и контрольную. В экспериментальную группу вошли 30 детей, которые регулярно участвовали в драматических играх и театральных постановках, проводимых педагогами. Контрольная группа также состояла из 30 детей, но они участвовали в обычных образовательных занятиях без акцента на искусство и драматические игры.

Оценка речевых навыков. Для оценки речевых навыков использовались стандартные тесты на развитие речи, такие как тест на лексическое развитие и тест на грамматическую правильность речи. В начале и конце исследования были проведены тестирования, результаты которых показали следующие изменения: В экспериментальной группе средний уровень лексического запаса увеличился на 25%, тогда как в контрольной группе этот показатель увеличился лишь на 10%. Грамматическая правильность речи в экспериментальной группе улучшилась на 30%, в то время как в контрольной группе улучшение составило только 12%. Оценка креативного мышления. Креативное мышление оценивалось с помощью тестов на воображение и креативность, таких как тесты Торранса на креативное мышление. Результаты показали значительное улучшение показателей у детей из экспериментальной группы: Уровень воображения у детей из экспериментальной группы увеличился на 35%, в то время как у детей из контрольной группы этот показатель увеличился на 15%. Показатели креативности в экспериментальной группе выросли на 40%, тогда как в контрольной группе рост составил только 18%.

Заключение. Культурное и художественное образование играет ключевую роль в формировании речевых навыков и креативного мышления у детей дошкольного возраста. Интеграция искусства в образовательный процесс способствует всестороннему развитию личности ребенка, формируя в нем не только интеллектуальные, но и эмоциональные и социальные навыки. Проблема недостаточного внимания к этим аспектам может быть решена путем внедрения комплексного подхода, который учитывает важность культурных и художественных дисциплин. Методики, такие как драматические игры и театральные постановки, позволяют эффективно развивать речевые навыки и воображение, создавая основу для успешного обучения и личностного роста в будущем.

Литература.

1. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2021). Развитие навыков письма у дошкольников в раннем возрасте. In *НОВАЯ НАУКА: ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ, СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ* (pp. 142-143).

2. Пак, Д. А., Абдурахмонов, А. М., & Рафиев, Ф. А. (2021). *СОЦИАЛЬНАЯ И ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ*

ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In Advances in Science and Technology (pp. 78-79).

3. Рафиев, Ф. А., Пак, Д. А., & Абдурахманов, А. М. МНОГОКРАТНОЕ ИНТЕРАКТИВНОЕ ЧТЕНИЕ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ.

4. Мустафаева, З. С. (2022). РАЗВИТИЕ ФОРМ ОБЩЕНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ. PEDAGOG, 5(7), 17-21.

4. Saidkulovna, M. Z. (2022). Teaching Preschool Children In Expressive Reading Of Poems. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 14, 76-77.

ПЕДАГОГИКА КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА, ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ И КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ

Замира Саидкуловна Мустафаева,

*преподаватель, Джизакского государственного педагогического
университет, E-mail: zamira240980@gmail.com,*

Аннотация: В данной работе рассматривается влияние педагогики культуры и искусства на развитие речевых и креативных способностей дошкольников. Основное внимание уделено анализу методики «Синтез искусств», которая включает интеграцию различных видов художественной деятельности в образовательный процесс. В статье предоставляется описание проведенного исследования, направленного на оценку эффективности данной методики.

Abstract: This paper examines the influence of culture and art pedagogy on the development of speech and creative abilities of preschool children. The main attention is paid to the analysis of the “Synthesis of Arts” methodology, which includes the integration of various types of artistic activities into the educational process. The article provides a description of the conducted research aimed at assessing the effectiveness of this technique.

Annotatsiya: Ushbu ishda madaniyat va san’at pedagogikasining maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor turli xil badiiy faoliyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishni o‘z ichiga olgan «San’at sintezi» metodikasini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ushbu metodikaning samaradorligini baholashga qaratilgan tadqiqot tasviri keltirilgan.

Ключевые слова: педагогика, культура, искусство, дошкольники, развитие, речь, креативность, методика, обучение, эксперимент

Key words: pedagogy, culture, art, preschoolers, development, speech, creativity, methodology, training, experiment

Kalit so‘zlar: pedagogika, madaniyat, san’at, maktabgacha yoshdagi bolalar, rivojlanish, nutq, ijodkorlik, metodika, ta’lim, tajriba

Введение. Педагогика культуры и искусства играет ключевую роль в развитии дошкольников, так как она способствует формированию их речевых и креативных способностей. Дошкольный возраст – это критический период для развития различных навыков и способностей, которые закладывают основу для дальнейшего обучения и личностного роста. Культура и искусство не только обогащают эмоциональный и эстетический опыт детей, но и способствуют развитию их когнитивных и коммуникативных способностей. Введение культурных и художественных элементов в образовательный процесс позволяет создать богатую и стимулирующую среду, которая помогает детям развиваться всесторонне. Одной из основных проблем, с которыми сталкиваются педагоги дошкольного образования, является недостаточное внимание к интеграции культуры и искусства в учебный процесс. Современная образовательная система часто акцентирует внимание на развитии академических навыков, таких как чтение, письмо и математика, в ущерб культурному и художественному воспитанию. В результате этого дети лишаются возможности развивать свои речевые и креативные способности, которые являются не менее важными для их общего развития и успешной социализации. Для решения данной проблемы необходимо разработать и внедрить программы, которые будут интегрировать элементы культуры и искусства в повседневное обучение дошкольников. Такие программы должны включать разнообразные виды художественной деятельности, такие как музыка, танцы, театр, изобразительное искусство и литература. Эти виды деятельности способствуют развитию речевых и креативных способностей детей, стимулируя их воображение, коммуникативные навыки и эмоциональную выразительность. Важным аспектом является также подготовка педагогов, которые смогут эффективно использовать эти методы в своей работе.

Методология. Одной из эффективных методик интеграции культуры и искусства в образовательный процесс является методика «Синтез искусств». Эта методика предполагает объединение различных видов художественной деятельности в рамках одного занятия. Например, чтение сказок может сочетаться с музыкальным сопровождением и последующим рисованием сцен из рассказа. Такая интеграция позволяет детям воспринимать информацию через различные сенсорные каналы, что способствует более глубокому пониманию и запоминанию материала. Педагоги, использующие эту методику, могут создавать тематические проекты, которые охватывают несколько видов искусства, стимулируя детей к активному участию и самовыражению.

Результат. Результаты проведенного исследования по методике «Синтез искусств». В рамках исследования по методике «Синтез искусств» было проведено практическое внедрение этой методики в образовательный процесс одной из дошкольных образовательных учреждений. В исследовании участвовали 50 детей в возрасте от 4 до 6 лет. Исследование длилось 6 месяцев и включало регулярные занятия, в которых интегрировались

различные виды художественной деятельности: музыка, театр, изобразительное искусство и литература. Целью исследования было оценить влияние методики «Синтез искусств» на развитие речевых и креативных способностей дошкольников.

Для оценки результатов использовались следующие методы:

Наблюдение за детьми во время занятий.

Тестирование речевых навыков (оценка словарного запаса, связной речи и выразительности).

Оценка креативности (по тестам на дивергентное мышление и творческую продуктивность).

Основные результаты

Результаты исследования показали значительное улучшение как речевых, так и креативных способностей детей, участвующих в программе.

Речевые способности:

Увеличение словарного запаса: В среднем, словарный запас детей увеличился на 30%.

Улучшение связной речи: Количество детей, способных составлять связные рассказы, увеличилось с 40% до 75%.

Повышение выразительности речи: 60% детей начали активно использовать эмоционально окрашенные слова и выражения, по сравнению с 25% до начала исследования.

Креативные способности:

Дивергентное мышление: Количество уникальных идей, генерируемых детьми, увеличилось на 45%.

Творческая продуктивность: В среднем, количество креативных проектов (рисунки, поделки, театральные постановки), созданных детьми, возросло на 50%.

Уровень участия в художественной деятельности: 85% детей проявили высокую заинтересованность и активное участие в занятиях, что на 35% выше по сравнению с контрольной группой, не участвовавшей в методике.

Заключение. Педагогика культуры и искусства оказывает значительное влияние на развитие речевых и креативных способностей дошкольников. Интеграция культурных и художественных элементов в образовательный процесс способствует созданию богатой и стимулирующей среды, которая помогает детям развиваться всесторонне. Решение проблемы недостаточного внимания к культурному и художественному воспитанию требует разработки и внедрения специализированных программ и методик, таких как методика «Синтез искусств». Эффективное применение этих методов поможет создать условия для гармоничного развития дошкольников, способствуя их успешной социализации и подготовке к дальнейшему обучению.

Литература.

1. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2021). Развитие навыков письма у дошкольников в раннем возрасте. In **НОВАЯ НАУКА: ИСТОРИЯ**

СТАНОВЛЕНИЯ, СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 142-143).

2. Пак, Д. А., Абдурахмонов, А. М., & Рафиев, Ф. А. (2021). СОЦИАЛЬНАЯ И ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *Advances in Science and Technology* (pp. 78-79).

3. Рафиев, Ф. А., Пак, Д. А., & Абдурахманов, А. М. МНОГОКРАТНОЕ ИНТЕРАКТИВНОЕ ЧТЕНИЕ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ.

4. Мустафаева, З. С. (2022). РАЗВИТИЕ ФОРМ ОБЩЕНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ. *PEDAGOG*, 5(7), 17-21.

RANGLAVHALAR ISHLASHNING, RANGTASVIR SAN'ATINI EGALLASHDA AHAMIYATI KATTA.

Sh.B.Oydinov,

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi.
sh.oydinov1972@mail.ru*

Annotatsiya. Taqdim etilayotgan ilmiy maqolada bo'lajak rassom o'qituvchilarni rangtasvir san'atini mukammal egallashlarida ranglavhalar ishlashdan o'rinli foydalanishning ayrim samarali usullari yoritilgan. Shuningdek rangtasvirda rasm ishlashni o'rganishda yuzaga keladigan ba'zi muammolarni bartaraf etishning dastlabki bosqichlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Oddiy qalam, mo'yqalam, qog'oz, bo'yoqlar, oddiy naturalar, natyurmort, manzara, ranglavha, homaki rasmlar, kompozitsiya, rangtasvir san'ati, mahorat, tasvirlash usullari.

Yuksak mahorat bilan ishlangan tasviriy san'at asarlarini, vaqtlar o'tishi bilan madaniy meros sifatida qadri oshib boradi. O'tgan vaqtlarni tarixga aylantirib kishilarni ana shu tarix bilan tanishtiradigan vositalardan biriga aylanadi. Shu bilan birgalikda tarbiyaviy vosita sifatida yanada qadrlanadi. Tasviriy san'at asarlarini tushunishning bir oz osonligi shundaki rassom, o'z fikri va mulohazalarni tahlil qilib umumlashtirib bo'lgan, voqeyliklarni tomoshabin hukmiga havola qiladi.

Vatanimizning turli hududlaridagi yoshlar orasida ham tasviriy san'atga qiziqishi yuqori bo'lgan, tasviriy san'atni jon dilidan sevuvchi, ulkan maqsadlar bilan harakat qiladigan yoshlar talaygina. Shuni hisobga olib rangtasvir san'ati sir asrorlarini ham yoshlarga jahon talablariga mos ravishda o'rgatishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Ranglovha – rassomlar tamonidan rangtasvir asarlarini yaratish uchun bevosita naturadan yoki hayotdagi voqealar asosida ishlanadigan kichik tasvir. Ranglovhalar chizishdan rangtasvirni o'rganish maqsadida keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. N. Oydinov o'zining “O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar” o'quv qo'llamasida shunday fikrlarni bayon etadi. ...“Rangtasvir - asosan bo'yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san'at turidir. Tasvirlarning mazmunini, xarakteri va shunga o'xshash

barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa rangtasvir san’ati deb ataladi”... [1]. Rangtasvir - xaqiqiy hayotni aks ettirib, tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta’sir o‘tkazuvchi tasviriy san’at turlaridan biridir. Rangtasvir asarlari mazmunini ochib berishda ranglar muhim rol o‘ynaydi.

Rangtasvirni o‘rganishda, tasvirlash vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni ham bilish lozim. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak. Qog‘oz yetarli darajada sifatli va oq rangda bo‘lishi kerak. Akvarelda rangtasvir ishlashda qog‘ozning yuzasi g‘adir-budur bo‘lsa yanada yaxshi. Tasvirlash jarayonida ko‘pincha turli qattiqlikdagi va yumshoqlikdagi oddiy qalamlardan foydalaniladi. Akvarelda rangtasvirlar ishlashda imkon qadar qalamni qattiq bosmasdan chizish tavsiya etiladi. Rasm chizishda yumshoq sifatli o‘chirg‘ichlardan foydalangan ma’qul. U qog‘oz yuzasidagi ortiqcha qalam izlarini shikast yetkazmasdan o‘chiradi. Mo‘yqalam esa oddiy qalam bilan rangtasvir ishlashga mo‘ljallangan tasvirlarni bo‘yash uchun kerak. Akvarel bo‘yog‘ida tasvirlar ishlaganda mayin mo‘ynali mo‘yqalamlardan foydalaniladi. Guash, tempera, moy bo‘yoqlarda ham o‘ziga xos mo‘yqalamlardan foydalaniladi.

Akvarel bo‘yog‘ini qog‘ozga birinchi qo‘yilgan bo‘yoq qatlami quriganidan so‘ng, ikkinchi boshqa bo‘yoqni qo‘yish mumkin. Keyingi bosqichlarda ham shu kabi tasvirlash jarayoni davom etadi. Qog‘oz yuzasidagi tasvirga rang berish uchun mo‘yqalamda bo‘yoq bilan birgalikda yetarlicha suv bo‘lishi kerak. Aks holda mo‘yqalamni ishqalanishi natijasida qog‘ozning yuzasini shikastlanishiga va akvarel texnologiyasini buzilishiga olib keladi. Akvarelda ishlash usuli haqida fikr yuritib Orif Muinov “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanmasida shunday yozadi. ...“Suv bo‘yoqda yana bir ishlash usuli bu “ho‘l” holatdir. Bu usulda ranglar bir-biriga qo‘shilib, kutilmagan ajoyib ranglar paydo bo‘ladi. Bu usulda ishlash uchun avvalo qog‘oz ho‘llaniladi, va uning tez qurib qolmasligi uchun tagiga ho‘l karton qo‘yiladi” ... [2]. Akvarel bo‘yog‘ining xususiyatlaridan biri shuki, qo‘yilgan bir rangning ustidan boshqa bo‘yoq surtilganda avvalgi rang ma’lum darajada ko‘rinib turadi va qo‘shilish natijasida yangi o‘zgacha rang hosil bo‘ladi. Akvarelda ranglovha ishlash uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lib har-xil surtmalaridan keng foydalanish mumkin. Guash, tempera, moy bo‘yoqlarida ranglovhalar ishlaganda ham bo‘yoqlar va mo‘yqalamlarning xususiyatini yaxshilab o‘rganib olish talab etiladi.

Amaliy jihatdan qalamtasvirda natyurmortdan foydalanib tasvirlar ishlash o‘rinlidir. Chunki qalamtasvir orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash rangtasvirda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Tasviriy san’at janrlaridan biri bu natyurmort deb ataladi. Natyurmort-fransuzcha so‘z bo‘lib “jonsiz tabiat” degan ma’noni bildiradi. ...“Ma’lumki, har bir rassom tasviriy san’at sirlarini o‘rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o‘zlashtirish san’atning boshqa jihatlarini va turlarini o‘rganishdagi dastlabki saboqlar vazifasini bajaradi”... [3]. Rangtasvirda endi ranglovhalar ishlashni o‘rganuvchilar tezda muvafaqiyatga erishishlari ancha qiyin jarayon hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek avvaliga rasm ishlashni natyurmortdan boshlasa ancha qulayliklarga

erishiladi. ...“Rasm chizish uchun naturalardan istalganini tanlash mumkin. Lekin endi rasm chizishni o‘rganayotganlar uchun eng oddiy va kam buyumlar (natyurmort) rasmini chizishdan boshlashni maslahat beriladi”... [4]. Natyurmortlarni tuzishda ko‘pincha uy ro‘zg‘orda ishlatiladigan turli xil buyumlar, o‘quv va duradgorlik qurollari, gullar, sabzavot va mevalar, sport buyumlari va xakozalardan foydalanish mumkin. Bitta qo‘yilgan natyurmortni ranglavhasini bir tamondan ishlab yakunlangandan so‘ng, uni yana turli tamonlaridan ham qarab tasvirlash mumkin.

Rangli bo‘yoqlarning ishlash texnologiyasini yaxshi o‘zlashtirish, ranglavhalar ishlashda yaqindan yordam beradi. ...“Akvarelda ishlash malakasi bir oz oshgandan so‘ng birmuncha murakkabroq natyurmortlarni ishlashga o‘tish mumkin. Bu mashq rang sezish qobiliyatini o‘stirib, ranglar tusidagi tafovutlarni ham aniq tasvirlashni o‘rganish imkoniyatini beradi”...[5]. Akvarel bo‘yog‘ida ishlaganda avvalo ranglarni imkon qadar ochroq qo‘yib bosqichlar asosida kerakli joylari to‘qlashtirilib boriladi.

Manzarachi musavvirlar o‘z asarlari bilan tabiatni sevishtga, uni e‘zozlashga va bu go‘zalliklardan zavqlanishga undaydilar. O‘z tasvirlarida faqatgina tabiat go‘zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g‘oya va fikrlarni ham ifoda etadilar.

Talaba manzara janrida ranglavhalar ishlaganda tasviriy san‘atning asosiy qonun-qoidalariga rioya etish bilan birgalikda kompozitsiya jihatidan tabiatning ko‘rinishlarini tanlay bilishlari kerak. Endigina tasvirlashni o‘rganayotgan talabalar tabiatning katta kengliklarini tasvirlashda qiylanib qoladilar. Shuning uchun tabiatning kichik bo‘laklarini, qiziqarli joylarini tanlab tasvirlash tavsiya etiladi. Tabiat bo‘laklarini qanchalik ko‘p tanlab, tasvirlashga kirishilsa, tajribasiz rassom qiynalib qoladi. Shu sababli yosh rassom tabiatni tasvirlashda uning kichik-kichik bo‘laklaridan tasvirlashni boshlagani ma‘qul. Tabiat ko‘rinishlarini tasvirlashda tajribalar oshgan sayin, tabiatning katta kengliklarini tasvirlashni oz-ozdan ko‘paytirib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tasviriy san‘atning boshqa janrlarida ranglovhalar ishlaganda ham tasvirlashni eng oddiy qulay tomonlaridan chizishni boshlash kerak. Tajribalar oshgan sayin murakkab kompozitsiyalarni tasvirlashga o‘tib boriladi.

Rangtasvir mashg‘ulotlarida talablarga uyga vazifa qilib ranglavhalar bajarib kelish topshiriladi. Ammo ayrim talabalar tasvirlashni yaxshi o‘zlashtirishda qoralama va ranglavhalar ishlashning ahamiyati yo‘q deb o‘ylaydilar. Ular amaliy mashg‘ulot darslarida ishlanadigan uzoq muddatli rangtasvirilarini yaxshi o‘zlashtirish uchun yetarli deb tushunadilar. Bunday fikr yuritish xato albatta. Ayrim talabalarning ranglovhalar ishlashni o‘z vaqida bajarib bormasligi sababli uzoq muddatli rangtasvir ishlash jarayonida ijobiy natijalarga erisha olmaydilar. Rangtasvir ishlash jarayonida muammo va qiyinchiliklarga duch keladi. Ishida nuqsonlar ko‘pligi sababli birinchi navbatda o‘zini ishlayotgan rangtasviridan ko‘ngli to‘lmaydi. Ma‘lum bir vaqt oralig‘ida bajariladigan rangtasvir ishlash jarayoniga har qancha vaqt va mehnat sarflansada, ish beo‘xshov bo‘lib qolaveradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, muntazam ravishda ranglavhalar ishlash ayni damda uzoq muddatli chiziladigan amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ham bo‘ladi. Bu borada tajribali pedagog Barno Azimova o‘zining “Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida shunday yozadi. ...“Har bir uzoq muddatli ish oldidan, albatta tez bajariladigan kichikroq etyud ishlash lozim. Bunday etyud natyurmortning kompozitsiyasiga va umumiy rangiga mos format topishda yordam beradi”... [6]. Bu fikrdan ham ko‘rinib turibdiki etyudlarni muntazam ravishda bajarish bo‘lajak rassom-o‘qituvchilarning rangtasvir ishlash qobiliyatini, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib boradi. Tasvirlash jarayonining ma’lum bir bosqichida chizishni qanday davom ettirishni bilmay to‘xtab qolishi, ya’ni tasvirdagi kamchiliklarni bartaraf eta olmay qolish holatlari deyarli uchramaydi. Buning natijasida tasvirlayotgan rangtasviriga qancha vaqt ajratilsa, shunchalik jilolanib-jonlanib boraveradi.

Bo‘lajak rassomning muntazam ravishda rangli ranglavhalar bajarishi natijasida, unda rang ko‘rish, rang ajrata olish, rangni tanlay olish, hamda ranglardan o‘rinli foydalana olish, rang munosabatlari bilan ishlash qobiliyatlari rivojlanadi. Shu o‘rinda takidlash lozimki, bo‘lajak rassom ishlagan eng yaxshi ranglovhalarini har doim imkon qadar o‘ziga ko‘rinadigan joyga qo‘ysa unga ilhom va kuch bag‘ishlab turadi. Rassom o‘zi chizgan eng yaxshi ranglovhalarini ko‘rganda qaysidir jihatlaridan zavq oladi. Bu esa asta sekinlik bilan zavqlanish va ilhomlanish natijalari yanada ijod qilishga undaydi. Maromiga, yetkazib ishlangan rangtasvir ijodiy ishi avvalo, rassomni o‘ziga ma’qul bo‘ladi. Ijodkorni zavqlantirgan, ilhomlantirgan rangtasvirlar, albatta, tomashabinni ham diqqatini tortadi. Mana shunday izlanishlarni davom ettirib borish, rangtasvir asarlarini vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997. – 9 b .
2. Muinov O. Rangtasvir. T.: “SHarq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007. – 27 b
3. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari. –T.: “O‘qituvchi” - “Ziyo-noshir”, 1997. – 18 b.
4. O‘rolov S. Mo‘jiza yaratish san’ati. –T.: “ Mehnat” nashriyoti, 1996. –9 b.
5. S. Abdirasilov, N. Tolipov. Rangtasvir. –T.: “Bilim” nashriyoti, 2005 –75 b.
6. B. Azimova. Natyurmort tuzish va ishlash metodikasi. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997.–42 b.

O‘QITUVCHILARNING MUSTAQIL KASBIY BILIM VA MAHORATLARINI OSHIRISHDA KITOB BILAN ISHLASHNING O‘RNI

Xamalova Feruza Yunusovna,
FVPYMO‘MM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun o'qituvchilarining kasbiy bilim va mahoratlari, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kitob ishlashning o'rni, kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil bilim olish usullari yoritilgan, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy bilim, malaka, kitob, uzluksiz rivojlantirish, mashg'ulot, mustaqil bilim olish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini o'z ustida ishlashlari, kasbiy jihatdan rivojlanishlari, kasbiy bilim va mahoratlarni oshirishlari, ularning mustaqil ta'limini tashkil etishga oid ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarning kitob bilan mustaqil ishlashga oid ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, uning ahamiyatini aniq tasavvur etishlari uchun inson ma'naviy hayotida bilimlarni egallash va takomillashtirishda muhim ahamiyatni tushuntirish lozim. Ular bilan bu sohada ishlashni tashkil etishda:

- kitob - eng mukammal va hamma axborotlarni o'zida qamrab oluvchi bilimlar manbasi ekanligini;

- kitob - bir avlodni ikkinchi avlodga ma'naviy vasiyatlari, maslahatlari majmuyiligini;

- kitob bilan ishlash insonni dunyoqarashini, e'tiqodini tarbiyalash omililigini;

- kitobni individual (yakka tartibda) o'qish insonni voqealik, g'oyalarni taxlil qilishga, o'zining muayyan munosabatini tarkib topishiga xizmat qilishini;

- iloji boricha buyuk allomalar, davlat arboblari yozgan asarlarini o'rganish (unga yozilgan shaxslarni emas) juda katta ahamiyatga egaligini;

- kitobni o'qishda kerak bo'ladigan ko'nikmalar: o'qib chiqqanini fikrlab olish, zarur bo'lsa qayta o'qib chiqqan, muammoni yaxshi tushunib olish, qo'shimcha adabiyot, lug'at, ma'lumotlardan vaqtli matbuot vositalari, TV, radio, axborotlardan qanday metodlar bilan foydalanishini;

- o'qituvchilarda kitob o'qish madaniyatiga ehtiyojni rivojlantirishni nazarda tutish lozim.


Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida pedagogik markazlarda yoki maktablarda «Kitobni mustaqil qanday o'rganish kerak?» mavzusida mashg'ulot olib borish mumkin. Mashg'ulot munozara shaklida tashkil etiladi va o'qituvchilar bilan quyidagi muammolarni muhokama qilishga erishish imkoni yaratiladi.

1. O'qituvchi uchun mustaqil ta'limning ahamiyati.
2. Kitob o'qish madaniyati.
3. O'qiganini qanday yozib borish mumkin.
4. Turli manbalar bilan mustaqil ishlash metodlari.
5. Internetdan axborotlarni olish va ular bilan ishlash texnologiyasi, bosqichlari.

Mashg'ulotni o'tkazishda quyidagi o'ziga xos texnologiyadan foydalanish tavsiya etiladi:

- mashg'ulot guruhda, markazning ARM xonasida o'tkazilishi mumkin;

- mashg'ulot rejasi, muhokama etiladigan muammolar bir xafta oldin tinglovchilarga berib qo'yiladi;
 - tinglovchilardan ayrimlariga rejadagi muammolar bo'yicha maxsus tayyorlanib kelish topshiriladi;
 - tinglovchilar norasmiy guruhga ajratiladi:
 - a) trenerlar (o'rgatuvchilar)
 - b) ishtirokchilar (o'rganuvchilar)
 - v) ekspertlar (baho beruvchilar)
- mustaqil kitob o'qish jarayonining umumlashtiruvchi chizmasi sifatida tinglovchilarga qo'yidagi berildi.



Demak, o'qituvchilar kasbiy bilim va mahoratlarini oshirishning muhim omili mustaqil ta'lim, mustaqil bilim oshirish o'z bilimini mustaqil oshirish hisoblanadi. Shuning uchun, ularni mustaqil bilim olish metodlari, samarali texnologiyalari bilan qurollantirish lozim. Bu muammoni malaka oshirish markazlarida dasturli ta'lim asosida o'qitish kurslarida hal etish mumkin. Buning uchun tashkiliy-uslubiy imkoniyatlarni qidirish va amaliy jihatdan hal etish yo'llarini topish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Добраев Л.П. Психологические основы работы на книгой М. 1999.
2. Поварник С.И. Как читать книги М 1998.
3. Попов Г.К. Техника личной работы М 1999
4. Kitobni mustaqil qanday o'rganish kerak T1996.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING KASBIY FAOLIYATIDA NUTQ MADANIYATINING AHAMIYATI

Хамраева Е'zoxon Muzaffarovna,
JDPU mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy faoliyatida nutq madaniyatining o'rni, ahamiyati va zaruriyati tog'risida fikr yuritilgan.

Аннотация В данной статье рассматривается роль, значение и необходимость культуры речи в профессиональной деятельности будущих воспитателей дошкольного образования.

Annotation. This article examines the role, importance and necessity of speech culture in the professional activities of future preschool educators.

Tayanch so'zlar: Kasbiy-pedagogik faoliyat, nutq madaniyati, tilshunoslik, grammatika, professional nutq, operatsion komponent, lingvistik integratsiya, psixologik-pedagogik integratsiya.

Ключевые слова: Профессионально-педагогическая деятельность, культура речи, Лингвистика, грамматика, профессиональная речь, операционная составляющая, языковая интеграция, психолого-педагогическая интеграция.

Key words: Professional-pedagogical activity, speech culture, linguistics, grammar, professional speech, operational component, linguistic integration, psychological-pedagogical integration.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning jahon ta'lim hamjamiyatiga kirib borishi sharoitida mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy sifatlariga qo'yiladigan talablarni oshirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Shubhasiz, zamonaviy ta'lim maqsadlariga erishish ko'p jihatdan pedagoglarning shaxsiy salohiyati, uning umumiy va kasbiy-pedagogik madaniyati bilan bog'liq.

Shaxsning kommunikativ tayyorgarligi faqat nutq madaniyatining yetarli darajasi, uning soʻzni, tilni toʻgʻri ishlatish qobiliyati bilan nomoyon boʻlishi mumkin. Shaxsning nutq madaniyati, uning tafakkur madaniyati, rivojlanganlik darajasining muhim koʻrsatkichi boʻlib, mutaxassisning kasbiy nutq madaniyati esa uning kasbiy tafakkuri rivojlanganlik koʻrsatkichidir. Pedagoglarning umumiy va kasbiy madaniyatining oʻzgarish komponenti, bizningcha, nutq madaniyatidir. Shu munosabat bilan oʻqituvchining va ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachining nutq madaniyatining roli ortib bormoqda.

Boʻlajak maktabgacha taʼlim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirish nafaqat bilim, koʻnikma va malakalarni egallashga, balki madaniy tushuncha doirasida oʻzining kasbiy rivojlanishini nazorat qilishga ham yoʻnaltiradi. Boʻlajak maktabgacha taʼlim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga ega talab boʻlib qolmoqda, chunki universitet bitiruvchilari tildan muloqot vositasi sifatida qay darajada erkin foydalanishlari ularning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki darajasiga bogʻliq. Tarbiyachilar, hamkasblar va ota-onalar bilan toʻlaonli muloqotni amalga oshirish uchun jamiyatga yuqori professional saviyaga ega, oʻquv jarayonida qulay muhit yaratishga qodir, nutq madaniyati yuqori boʻlgan pedagog boʻlishi kerak. Bunday sharoitda boʻlajak maktabgacha taʼlim tarbiyachilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosi va uning tarkibiy qismi sifatida nutq madaniyati alohida dolzarflik kasb etadi.

Boʻlajak maktabgacha taʼlim tarbiyachilarini tayyorlashda tarbiyachi nutq madaniyati nazariy va amaliy fan boʻlib, u til amaliyotiga taʼsir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik va boshqa tilshunoslik bulimlarining yutuqlari va xulosalarini umumlashtiradi. Nutq madaniyati nazariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli deb eʼtirof etiladi, badiiy adabiyot tili oʻzining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuqlari va anʼanalarini mustahkamlaydi va boyitadi. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa boʻlib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bogʻliq holda taraqqiy etadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida boʻlajak maktabgacha taʼlim tarbiyachilarining nutq madaniyatini lingvistik va psixologik-pedagogik jihatlarda rivojlantirish muammosini koʻrib chiqdik. Oʻrganilayotgan muammoning har bir jihati doirasida, oʻz navbatida, ikkita yoʻnalishni ajratib koʻrsatish mumkin. Birinchisi, nutq madaniyatini oʻrganish boʻlsa, ikkinchisi, uni oliy pedagogik taʼlim tizimida rivojlantirish.

Taʼlim berish jarayonida kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zamonaviy mutaxassis nutq madaniyati koʻnikmalarini mukammal egallashi va kasbiy muloqotda lingvistik, kommunikativ va xulq-atvor qobiliyatlariga ega boʻlishi kerak. Bu quyidagi fazilatlar talab qiladi:

- kasbiy faoliyat maqsadlariga muvofiq muloqotni yoʻnaltirish qobiliyati;
- professional nutq uslubiga ega boʻlish;
- adabiy til meʼyorlarini bilish va ularni nutqda qoʻllashning barqaror koʻnikmalari;

- nutqning aniqligi, izchilligi va ifodaliligini nazorat qilish qobiliyati;
- maqsadni aniqlash va muloqot holatini tushunish qobiliyati;
- do‘stona muloqot muhitini yaratish va saqlash qobiliyati;
- odob-axloq qoidalarini bilish va uning qoidalarini amalga oshirishda aniqlik.

Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarining nutq madaniyatining barcha tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Shu asosda bo‘lajak tarbiyachilarning nutq madaniyatining rivojlanish darajasini aniqlash mezonlariga quyidagilar kiradi:

bo‘lajak kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining zarurligi va ahamiyatini tushunish, shaxsni rivojlantirish uchun nutq madaniyati to‘g‘risida bilimlarning ma‘nosini tushunish, nutq madaniyatini rivojlantirish muammosiga munosabat va ushbu muammoning pedagogik ahamiyatini anglash, nutq madaniyatini rivojlantirish va takomillashtirish motivlarini anglash.;

umumiy madaniy, lingvistik bilimlar darajasi, nutq sifatlarining rivojlanish darajasi va maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va nutq rivojlanishining asosiy qonuniyatlari to‘g‘risida tizimli bilimlar darajasi;

nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasi (maktabgacha yoshdagi bolaning nutq adresatining xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan aloqa predmetining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash qobiliyati, tinglash va tushunish qobiliyati, mantiqiy, tizimli, aniq, ifodali, majoziy va hissiy jihatdan ifoda etish qobiliyati, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli xil uslub va janrlarni moslashtirish qobiliyati) operatsion komponent hisoblanadi.

Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilari kasbiy madaniyat negizida nutq madaniyatining xususiyatlarini aks ettiruvchi va asosini tashkil etuvchi nutq qobiliyatlari to‘plamini bilishi va organishi maqsadga muvofiqdir. Kasbiy faoliyat davomida nutqni qabul qiluvchi – maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning individual va nutqiy xususiyatlarini, bolalar bilan muloqot qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda kommunikativ faoliyat orqali turli darajadagi bilimlar tizimini taqdim etishi mumkin. Bo‘lajak tarbiyachilar bu jarayonlarni pedagogik amaliyot davrida takomillashtirib borishadi. Bu jarayonda ma‘lum bir kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan kontekstda kommunikativ faoliyatni amalga oshirish, ya‘ni maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi turli xil ta‘limiy faoliyatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan janrlarni moslashtirish orqali pedagogik mahoratga ega bo‘lishadi. Kasbiy-pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri sifatida bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarining nutq madaniyatini rivojlantirishni ta‘minlaydigan lingvistik va psixologik-pedagogik integratsiyani amalga oshirishning pedagogik shartlari asosida faol ta‘lim usullari va kompetensiyalarini nomoyon eta olish lozim. Bu jarayonda tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqotni tashkil etish ko‘nikmalarini ham takomillashtirishlari maqsadga muvofiq.

Shuni ta‘kidlash kerakki, shaxsning nutq madaniyati insonning umumiy madaniyati, tafakkur madaniyati, xulq-atvor madaniyati ko‘rsatkichidir. Bu ko‘p jihatdan shaxsning axloqiy tarbiyasi sifatini belgilaydi, samaradorligiga ta‘sir

qiladi va muloqot jarayonida nomoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan nutq madaniyati samarali muloqotning zaruriy sharti, tarbiyachining muhim kasbiy ahamiyatli xususiyatlaridan biri bo‘lib, ushbu madaniyatni rivojlantirish oliy pedagogik ta‘limning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 2019 yil 17 dekabr.595-sonli O‘RQ.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 dekabr. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-son Qarori.
3. D.R. Babayeva. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. TDPU , 2018 yil.
4. G.A. Berdaliyeva. “Maktabgacha ta‘lim muassasalari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish”.Toshkent-2019.
5. D.R. Babayeva. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” Darslik.TDPU, 2020 yil.
6. M.R.Mahkamova. “Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish”. Toshkent-2002.

TASVIRIY SAN’ATDA JANRLAR

Xudoynazarova Gulnoza Baxtiyor qizi,

Sirdaryo viloyat Boyovut tuman MMTB ga qarashli 42-maktab tasviriy san’at va chizmachilik fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta‘lim muassalarida tasviriy san’at va chizmachilik darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati to‘g‘risida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek maqolada tasviriy san’at va chizmachilik darslarida o‘quvchilarga tasviriy san’atda turli janrlarni o‘rgatish metodikasi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: janrlar, naqqoshlik, obyektiv, illustratsiya, tasvir turlari.

Tasviriy san’atda janrlar. Inson qalbini, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini betakror so‘z, ohang va ranglarda tarannum etishni o‘z hayotining ma’no-mazmuni deb biladigan siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas’uliyatli va sharaflilik ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Zamon bilan hamnafas ijod qilib, boshqalarga o‘rnak va namuna ko‘rsatayotgan fidoyi, faol ziyolilarimizning aksariyat qismini bugungi davramizda ko‘rish shaxsan menga katta xursandchilik bag‘ishlaydi. Ularning ijodiy izlanish va yutuqlari, xususan, O‘zbekistonning bugungi hayotiga bag‘ishlangan sarmazmun asarlari haqida uzoq gapirish mumkin va buning uchun biz ulardan minnatdormiz. Lekin, bunday asarlar asosan shoir yoki adib, rassom yoki rejissyor, bastakorning

shaxsiy tashabbusi bilan yaratilayotgani sir emas. Ularning dunyoga kelishida ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirib, san'at ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, haqiqiy tayanch va suyanch bo'lishi zarur bo'lgan ijodiy uyushmalarimiz va davlat idoralarining o'rni va ta'siri yetarlicha sezilmayapti. Ijodiy tashkilotlarimiz shiddat bilan o'zgarayotgan zamonga hamqadam bo'lib yashash, o'z faoliyatini samarali tashkil etishda davr talablaridan orqada qolmoqda.

Tasviriy san'at rang tasviri, tasviriy sanatning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Bu, ranglarni yaxshi ishlatib chizish, tushirish va tavsif qilish jarayonini ifodalovchi uslublardan biridir. Ranglar, tasvirlarda atmosfer, his-xissalar, obyektning jins va haqiqiylik darajasini ifodalashda ahamiyatli rol o'ynaydi. Rang tasviri san'atida foydalaniladigan bir nechta muhim texnikalar mavjud bo'lishi mumkin, masalan, tonal ranglar, kontrast, jild, omborlash, va boshqalar. Ular tasviriy ko'rinishni boshqarish, diqqatni jalb qilish va qarshilik yaratishda yordam beradi. Rang tasviri san'atdagi iste'mol, turli janrlar va uslublarga qarab o'zgaradi. Masalan, romantik tablolarida qo'shimcha ranglar suyanish, impressionist uslubda esa ranglar tajribali va ko'rib chiqishga qaratiladi.

Bundan tashqari, ranglar emotsional ta'sir qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Har bir rangning o'ziga xos ahamiyati va ta'siri bor, va san'atkorlar ranglar ustida boshqarishlarini tahlil qilishda o'zlarini o'rganib chiqarishlari kerak.

Naqqoshlik, tasviriy san'atda shakllar va obyektlarni barcha xatlarini va burchaklarini chizishda yoki shakllarni va obyektlarni to'g'ri va boshqa tarzda tasavvurlashda amalga oshirilgan har qanday nuqsoniylik yoki noto'g'rilik sifatida ta'riflanadi. Naqqoshlik, shaklning, obyektlarning yoki boshqa tarkibiy elementlarning noto'g'ri o'lcham, to'g'ri burchak, yengilish va qayta chizilishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun, inson suratini chizib chiqishda yuzning uzunligi va enining nisbatiga rioya qilishda qo'l, oyoq, yoki boshqa jismlarning nisbatlarida xatolik qilish mumkin.

Naqqoshlik tasvirlarda ajoyiblikni buzadi va tasvirni tasvirlashni boshqarishda qiyinliklarga olib keladi. U ta'lim va mashg'ulot orqali ishlab chiqilgan tasvirlarda keng tarqalgan bo'lishi mumkin, ammo bu muammo har qanday tasviriy ish uchun bir muddatdan so'ng ham paydo bo'lishi mumkin. San'atkorlar naqqoshlikni oldini olish uchun qalam va qog'oz yoki boshqa matnli usullarni iste'mol qilishadi. Yana, ba'zi dasturlar (masalan, Illustrator yoki Photoshop) tasvirlar ustida ishlashda yordam berishi mumkin.

Tasvir tulari, biror narsani yoki narsalarni tasvirlash uchun ishlatiladigan bir necha turdagi materiallar va usullar. Tasvir tulari alohida turli san'at usullarida, masalan, rasmlarda, grafikada, fotoning uslublarida va boshqalarida qo'llaniladi.

Tasvir tularining eng mashhur turidan biri qog'oz, uni qalam yoki ruchkalar bilan ishlatish orqali rasmlash. Bu tur tasvirlash usuli eng qadimgi san'at asarlari va xalq o'yinlari, shuningdek, hozirgi kabi san'at usullarida ham keng qo'llaniladi.

Boshqa tasvir turlari o'zlariga xos materiallar va usullar bilan ajratiladi. Misol uchun, akrilik ranglar bilan chizilgan tablolar, tus, su ranglari, pastel, yoki kolaj. Fotografiya, yangi texnologiyalar yordamida fotolardan muassasalar yaratishga

imkon beradi. Tasvir tulari, tasviriy san'atning murakkabliklarini tushuntirish uchun juda keng qamrovli va yaratuvchi usuldir. Har bir tasvir turining o'ziga xos qobiliyat va cheksiz imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Lex.uz, wikipediya
- Internet manbaalari.
- Natalya Brodskaya. Post-Impressionism. — Parkstone International, 2010. -

ISBN

- Vlasov V. G. fovizm // tasviriy san'atning yangi entsiklopedik lug'ati.
- Impressionizm // katta rus entsiklopediyasi-elektron versiya.

MUSIQA DARSLARIDA MUSIQA SAVODINI O'RGATISH METODIKASI

Xudoynazarov Dilshodbek Obidjon o'g'li,

*Sirdaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi musiqa madaniyati fani metodisti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassalarida musiqa darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati to'g'risida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek maqolada musiqa darslarida musiqa savodini o'quvchilarga o'rgatish metodikasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa savodi, musiqiy ladlar, alteratsiya belgilari, intervallar, dinamika.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda O'zbekiston buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakat va xalqning yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Musiqa madaniyati hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilaning, maktabning, jamiyatning ahamiyati katta, chunki insonning insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi.

Musiqa savodi faoliyati maktabdan boshlanadi. Musiqa savodi musiqa tahlili tizimidagi muhim jarayonlar hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga zarur musiqiy-nazariy bilimlarni, ma'lumotlarni berishi kerak. Musiqa savodiga doir olib boriladigan ish asosan bolalarning musiqiy o'quvini o'stirish va nota yozuvlarini

o'rganishdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini: (ijrochiligini, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqqa) tashkil etadi. Musiqa savodi o'quvchilarda musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning asl mazmunini tushunib olishga yordam beradi, notaga qarab kuylash va qo'shiq kuylash malakalarini hosil qilish hamda garmonik qobiliyatning o'sishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga ovozlarni aniq talaffuz qilishga va jamoa bo'lib qo'shiq aytish sifatini, samaradorligini oshirishga qulaylik tug'diradi. Maktabda musiqa savodiga qo'yiladigan asosiy metodik talab --- dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda - qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarini kim tomonidan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lcho'vi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, tonalligi va hokazolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari darkor. Mana shu jarayonda musiqa savodi benazir ko'makchidir. Musiqiy-nazariy bilimlar ancha sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollardan, o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan holda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Lekin bu tushunchalar oddiydan murakkabga qarab, iloji boricha tizimiylikka rioya qilib o'tilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

1-sinfda musiqa savodi boshlang'ich bilimlari beriladi. Bolalarning maktabga endigina kelganliklariga qaramay ular bog'chada ko'pgina ashulalar aytib raqsga tushgan bo'ladilar. Musiqa savodiga kirishdan avval bolalarning oldingi bilimlariga tayanishimiz kerak. Bu borada o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkor bilan bolalarga musiqa haqida tushuncha beradi. Uyda tarbiyalanayotgan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari bilan tanishgan bo'ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy va sistemaga solingan bo'lsa-da, ammo o'qituvchi bolalarga musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. 1-sinfda o'quvchilarning butun musiqa ta'limiga negiz solinadi, shuning uchun bu sinfda o'qituvchi o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, maktab yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqiy vokal qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatiga ijodiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. O'qituvchilik kasbi sharaflidir, lekin juda murakkab kasbdir, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi,

pedagogik amaliyotdan ham o'tgan bo'lishi kerak chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa, musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Ushbu maqolamni buyuk mutaffakkir shoir A.Navoiyning shunday so'zlari bilan yakunlamoqchiman: "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Omonullayeva D. «Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidagi lersiyalar kursi» T., 1990.
2. Gudkova Ye.A., Vasilyeva A.B. «Ashula darsi metodikasi» T.1983.
3. Nurmatov H, Yo'ldosheva N. "O'zbek xalq musiqasi ijodiyoti" T: 2007.

O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA TALABALARNING AXLOQIY-ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Atayeva Guli Shuxratovna,

Urganch davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrası stajor-
o'qituvchisiguli.atayeva.1997@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs kamolotining muhim ahamiyatlari va bu jarayonni tashkil etishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan holatlar haqida so'z yuritilgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi zimmasidagi mas'uliyat, axloq-odob, fikr tarbiyasi orqali talabala yoshlarni ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiya eta olish masalalar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axloq, mulohaza, estetika, ta'lim, ma'naviyat, madaniyat.

Erkin jamiyat va komil inson haqidagi tasavvurlarimiz ham bizni estetik madaniyat tushunchasi, estetik madaniyat olami sari yetaklaydi. Shu bois, estetika bo' yicha biron bir muammo yoki tadqiqot yo'qki, unda gap madaniyatdan boshlanib, tarbiya, go'zallik bilan yakunlanmagan bo'lsa.

Fransuz faylasufi, yozuvchi Deni Didro madaniyatning paydo bo'lishidek murakkab masala yuzasidan mulohaza bildirishdan avval bu mavzu bo'yicha bosh qotirgan ko'plab mualliflar qatorida shuni qayd etib o'tganki, qaydadir mash'um tasodifiyat tufayli odamlar o'zlari yaxshi tushunib yetmaydigan narsalar haqida ko'p gapiradilar, ana shunday masalalardan biri go'zallik, estetik madaniyatdir, - degan edi. Ko'pincha oddiy xalqning samimiy lutfi, fikri, tasavvuri, amaliy tajribasi va insoniy yashash mantig'idan kelib chiqadigan falsafiy mushohadalarning qanchalik sodda, ayni chog'da haqqoniy ekanligini sezmay qolamiz.

Qadimgi misrliklardan boshlab "Estetika – bu hayotdir" degan mulohaza hukmron edi. Yunonlar, ayniqsa, pifagorchilar estetik madaniyatning asosini garmoniyadan qidiradilar: "kontakt bu tovushlar uyg'unligini ifodalovchi orkestr" – degan tasavvurga ega edilar... Estetik madaniyat haqida shunchalik ko'p nazariyalar, qarashlar va ta'limotlar mavjud ediki, ularning har birida estetika kabi

nihoyatda murakkab va umumiy tushunchaning qaysidir alohida bir tomoni, belgisi va ahamiyati qayd etiladi. Inson uchun foydali va kerakli bo'lgan narsalar go'zaldir. Bu qarash Suqrot dan tortib XX asr estetikasidagi juda ko'p o'qimlarda davom ettiriladi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari chuqur o'rganiladi. Hayotiy kuzatishlar, inson tajribalari shuni ko'rsatadiki, barcha go'zal narsalar insonga foydali bo'lmaganidek, barcha foydali narsalar ham go'zal bo'lmasligi mumkin ekan.

Falsafa va uning fan sifatidagi umumnazariy masalalari doimo tafakkur axlining e'tiborini jalb etib kelgan. Inson olamni his-tuyg'ulari, aql idroki va iroda-ixtiyori yordamida o'zlashtirar ekan, falsafaga ehtiyoj sezib yashahs tabiiydir. Zero, tabiat, jamiyat va insonning rivojlanish muammolari bilan bog'liq jarayonlarda tafakkurga murojaat qilish, haqiqatni anglash demakdir. Bir so'z bilan aytganda, falsafada bosh maqsad – haqiqat va uni yuzaga keltirishdir. Falsafa esa haqiqatga tafakkur orqali boradi. Shuni alohida takidlash lozimki, O'rta asrlar nasroniy faylasuflarining hech biri Ilohiy Ogustindek go'zallikni keng qamrovli o'rgangan emas. U o'zining "Tartib to'g'risida" (О порядке) deb nomlangan falsafiy-estetik risolasida estetik madaniyning tushuncha, mazmun, mohiyatini aniq misollar yordamida dalillashga harakat qiladi.

Mutafakkir tartib, tartiblilik madaniyat uchun muhim element ekanligini ta'kidlab, botartiblik narsalar go'zallikning sababi, betartiblik esa xunuklikka olib keladi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Alloma insonlar oddiy hayot hayvonot va nabobot olamini tashkil etuvchi butun bir universumdagi go'zallikni chinakam his etmay turib ularni xunuk deb biladilar.

XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligini tobora namoyon qilmoqda. Shuning uchun insonparvarlik ma'naviy barkamollik, ezgulik, tashabbuskorlik, dunyoviy va diniy uyg'unlik, milliy istiqloq g'oyasi bozor iqtisodiyoti asosidagi insonparvar demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning bosh tamoyili sifatida qabul qilindi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov: "Mamlakatimizning istiqloq yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga kata ahamiyat berib kelinmoqda. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog' i darkor", - ekanligini alohida qayd qilib o'tgan.

Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini amalga oshirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni talab darajasida bajarish innovatsion rivojlanishga kata ahamiyat berilishi lozim bo'ladi. Bu jarayon mamlakatimizning jahon bozorlarida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lishi uchun ilm-fan yutuqlaridan va innovatsion texnologiyalardan keng ko'lamda foydalana oladigan malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish

vazifalarini hal etish bilan uzviy bog‘liqdir. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, har bir bolaning onadan dunyoga kelishi, faqat tug‘ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki u ma’lum layoqat qobiliyat kurtaklari bilan tug‘iladi. Lekin inson, shaxs sifatida oilada ota-onalar; jamiyatda esa o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachilar hamda turli jamoalarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati orqali shakllanadi.

Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ham ortib brogan hamda o‘zgarib yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta’lim-tarbiya muassasalari yaratish, yosh avlodlarni o‘qitish va tarbiyalash sohasidagi to‘plangan tajribalarni nazariy-jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tadbiiq qilish jarayonida jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida pedagogika fani va pedagogik ta’lim vujudga keldi.

Shu sababli ta’lim va tarbiya jarayonini ijtimoiy- hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki ta’lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni va shaxsning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Pedagogika dastlab yoshlarga ta’lim va tarbiya berish haqidagi ta’limot sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, sekin-asta bu sohadagi izlanishlar doirasi kengaya bordi. Hozirgi kunda pedagogika barkamol shaxsni shakllantirish qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan sifatida ta’lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, uni tashkil etish shakllari va qonuniyatlari haqida bilim, ma’lumot beradigan fanga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. –T.: O‘zbekiston, 1995.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
3. Ziyomhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma’naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo‘llanma. - T.: Abu Ali ibn Sino tibbiyot nashriyoti, 2001.
4. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. Eurasian Scientific Herald, 7, 240–242. Retrieved from
5. <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1197>

ЗАДАЧИ УРОКОВ ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ СМЫСЛОВОМУ ЧТЕНИЮ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Байбаева Мухайё Худайбергеновна,

*Доктор педагогических наук, профессор кафедры “Педагогика”
Ташкентского государственного педагогического университета имени
Низами*

Эргашева Саида Максудовна,

*Студентка 2 курса, 201 группы, факультета “Педагогика и психология”
Ташкентского государственного педагогического университета имени
Низами*

Аннотация. В статье рассматривается задачи уроков литературного чтения в современной системе обучения смысловому чтению младших школьников

Ключевые слова. система, образование, школьники, чтения, литература, процесс, деятельность, обучение, формирование

Началом обучения процессу чтения младших школьников необходимо считать период обучения грамоте. Уроки чтения являются продолжением начатой в этот период работы по формированию у учащихся необходимых навыков чтения, типа правильной читательской деятельности, осознанности и готовности самостоятельно дифференцировать и интерпретировать полученную информацию, ориентироваться в ее потоке, эмоционально отзываться на прочитанное, давать оценку текста посредством рефлексии, использовать в решении жизненных ситуаций и задач. Чтение одновременно представляет собой письменную форму речевой деятельности, а также является сложным психофизиологическим процессом, осуществляемым во взаимодействии зрительного, речедвигательного, речеслухового, смыслового механизмов [3, стр.25]. На уроках чтения произведение художественной литературы является объектом исследования. Поэтому задачи уроков чтения определяются, прежде всего, значением литературы в жизни человека и общества. Значимость уроков чтения и литературы в начальной школе является колоссальной, поскольку образовательные задачи решаются параллельно и в комплексе: учащиеся получают возможность познакомиться с культурно-историческим наследием России, общечеловеческими ценностями как фактором развития этических чувств и эмоционально-нравственной отзывчивости, наращиванию устойчивых положительных и устранению негативных моральных качеств личности; расширяется представление обучающихся об окружающей действительности; формируется мировоззрение и обогащается кругозор; происходит овладение основами самостоятельного поиска и отбора информации из печатных и интернетисточников [2, стр.21].

Урок чтения является платформой решения также развивающих задач: развитие речи (обогащение и активизация словарного запаса, формирование умения воспринимать речь в устной и письменной форме, выражать собственное мнение и аргументировать его), мышление (воссоздающее, творческое, логическое) младших школьников. В обобщенном виде задачи уроков чтения и литературы в начальной школе можно сформулировать так:

1. Совершенствование навыков чтения. Формирование правильного, осознанного, беглого и выразительного чтения.

2. Формирование читательской грамотности младшего школьника как основы культуры личности.

3. Расширение и углубление представлений учащихся об окружающем мире. Формирование основ научного мировоззрения.

4. Нравственное, эстетическое и трудовое воспитание школьников.

5. Развитие речи и мышления.

6. Формирование литературоведческих представлений посредством анализа текстов, ознакомления с теоретико-литературными понятиями и явлениями.

Каждая из задач имеет свои частные пути реализации, но решается во взаимосвязи с другими. Традиционной задачей начальной школы является задача обучения ребенка чтению. Однако в последние годы в начальной школе появилось ряд программ, которые так или иначе ставят задачу литературного образования младших школьников [1, стр.15]. Поэтому на современном этапе следует говорить о двух направлениях процесса обучения чтению:

1) собственно обучение чтению, которое ведется на трех уровнях – формирование и совершенствование навыка чтения, обучение чтению и восприятию литературного текста, формирование читательской компетентности;

2) получение ребенком литературного знания, т. е. обеспечение литературного образования и литературного развития детей.

Таким образом, литературоведческое знание в той или иной степени обязательно включается в современную систему обучения в начальной школе. Анализ программ чтения для начальной школы дает основание говорить, что уроки чтения на данном этапе обучения являются пропедевтическим этапом литературного образования младших школьников, т. к. невозможно дать системное литературное образование ребенку, который не владеет или слабо владеет навыком чтения. Поэтому задача формирования литературоведческих представлений на уроках тесно переплетается с задачей формирования и развития навыка чтения. В современных программах по чтению прослеживается тенденция объединения в обучении чтению с целенаправленной первоначальной литературоведческой подготовкой [1, стр.14].

Учебный материал (для уроков чтения это литературные произведения) – это объекты, изучая которые каждый ребенок под руководством учителя познает окружающий мир и самого себя. В содержании учебного материала должны быть заложены все предусмотренные программой представления, понятия, виды упражнений в деятельности, интерес к которым у детей надо воспитывать. Сегодня существует множество комплексов различных учебных книг для чтения. В них вошли произведения классиков русской литературы, современная литература для детей, произведения устного народного творчества, представлена зарубежная и литература разных народов нашей страны. Тексты, помещенные в учебники, являются образцовыми в художественно-эстетическом, познавательном и языковом отношении [2, стр.33]. Содержание текстов раскрывает прошлое и настоящее нашей Родины, красоту русской природы, способствуют воспитанию гражданственности и патриотизма, формированию представлений об общечеловеческих ценностях, культуры межнационального общения и толерантности, нравственных

качеств подрастающей личности, расширяют представления детей о национальной культуре русского народа и народов-соседей, а также приобщают к ценностям мировой культуры. Расположение материала в разных учебно-методических комплексах строится по-разному. Ряд учебников построен на основе проблемно-тематического принципа, литературоведческого либо жанровой компоновке текстов. Некоторые варианты учебников имеют методический аппарат, стимулирующий школьников к обдумыванию, размышлению о прочитанном. Непременными компонентами учебников являются иллюстративные материалы, предназначенные для развития творческого воображения младших школьников, разного рода сопоставлений, осуществление продуктивного многочтения, развития речи, создание проблемно-познавательных ситуаций и др.

Восприятие устной и письменной речи связано с непосредственным воздействием ее физических свойств на органы чувств, протекающие в единстве с воздействием на читателя или слушателя ее смыслового содержания. Получивший зрительные сигналы должен преобразовывать их в мысли на основе знания системы значений соответствующего языка и своего жизненного опыта [3, стр.28].

Буквы, говорит профессор З. И. Клычникова, являются как бы пусковым механизмом, под воздействием которого начинается физиологический процесс возбуждения в органах зрения. Следует отметить, что объем информации, получаемой при чтении, в 1,21 раза больше, чем, например, при аудировании. Это объясняется большей пропускной способностью зрительного канала и фактом создания своего темпа чтения. Прием через зрительный канал обуславливает работу механизмов антиципации, поскольку каждый вид речевой деятельности располагает своими опорными признаками, зависящими от канала связи. Имеется в виду не антиципация содержания, а антиципация структуры, главным образом, на уровне фразы. На наш взгляд, этот механизм – один из главных для чтения. Незрелость механизма структурной антиципации фраз всегда является причиной медленного чтения и, главное, непонимания смысла той или иной фразы, даже если все слова читателю знакомы [1, стр. 29]. Ученики должны быть вооружены алгоритмами распознавания и антиципации всех структур языка. Как уже говорилось, темп чтения устанавливает сам читающий, поэтому он может вернуться к предыдущим языковым знакам, вновь осмыслить их. Такая возможность благоприятна для функционирования механизма догадки. Заметим, что функционирование всех перечисленных механизмов немислимо без предельной активности читающего. Не менее важен для чтения и механизм логического понимания. Опираясь на зрительный образ, гораздо легче осуществлять членение текста на смысловые куски и осмыслять их, проделывать анализ. Начальный этап обучения чтению происходит обычно в громкой речи. Эффект проговаривания способствует формированию

внутренних обобщенных схем, является основой формирования внутренней речи.

Следующий механизм – это механизм внутреннего речевого слуха. Мы как бы слышим внутри себя то, что читаем. Согласно исследованиям ученого-методиста Е. И. Пассова, психофизиологические механизмы чтения выражены в его видах: – ознакомительное; – поисковое; – просмотровое; – аналитическое; – синтетическое; – изучающее. Рассмотрим характеристики данных видов чтения. Предметом внимания при ознакомительном чтении становится все произведение без установки на получение какой-либо определенной информации. Результатом является построение комплексных образов читаемого. Следовательно, данный вид чтения способствует развитию образного мышления. Цель поискового чтения – найти конкретную информацию для использования ее в дальнейшей деятельности. Этот вид чтения развивает и образное и словесно-логическое мышление. Цель просмотрового чтения – получить самое общее представление о содержании текста, что ведет к развитию как образного, так и словесно-логического мышления. При аналитическом чтении внимание читающего направлено на детальное восприятие текста с анализом языковой формы. Синтетическое чтение строится на базе прочного владения лексическим и грамматическим материалом [2, стр.45]. Изучающее чтение требует тщательного прочтения с установкой на полное понимание текста и сохранение в долговременной памяти. Каждый вид чтения задействует образное и словесно-логическое мышление. Для понимания видового разнообразия предлагаем классификации видов чтения профессора З. И. Клычниковой:

1. По типу деятельности: учебный и обычный.
2. По установке деятельности: изучающее, поисковое, ознакомительное, просмотровое, с охватом общего содержания, детализирующее чтение.
3. По цели деятельности: чтение для удовольствия и для критического анализа.
4. По роли чтения в учебном процессе: информационное чтение, тренирующее и контролирующее.
5. По способу обращения с текстом: сплошное, выборочное и комбинированное.
6. По особенностям перцептивной деятельности: аналитическое и синтетическое чтение.
7. По скорости воспроизведения: быстрое и медленное.

Рассмотрев данные классификации, стоит отметить, что все классификации идентичны, только один и тот же вид чтения может быть обозначен по-разному. Все виды чтения обеспечивают действительное овладение механизмом чтения, понимание читаемого и способствуют развитию мышления.

Литература

1. Бабухина, А. В. Коучинг слушателей курсов повышения квалификации в освоении технологий смыслового чтения у младших школьников / А. В.

Бабухина // Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. – 2018. – № 1 (34). – С. 277.

2. Браус, Дж. А., Вуд Д. Инвайронментальное образование в школах / Дж. А. Браус, Д. Вуд ; [пер. с англ.]. – НААЕЕ, 1994. С. 129.

3. В родном краю. Русский язык : учебно-методическое пособие для учителя начального общего образования / под ред. Н. Е. Скриповой. – Челябинск : ЧИППКРО, 2015. – С. 169.

KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARI TALQINIDA MUSIQANING ILK TARIXIY ILDIZLARI

Burxonova Gulrux Umurzakovna,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Musiq ta’limi” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi. E-mail: gulruhburxonova@gmail.com. Tel: +998947506494

Annotatsiya. Bastakor, ijrochi va qo‘shiq matni bilan uzviy bog‘liqlik xususida, Kaykovusning “Qobusnoma” asari va unda bildirilgan mulohazalar talqini yoritilgan. “Hofiz va musiqachilar haqida” bo‘limida esa, musiq ilmining bilimdonlari haqida so‘z yuritiladi. Har bir san’atkorlikni o‘z taqdiri deb bilgan inson albatta biror cholg‘u asbobini cholishni bilmog‘i lozim ekanligi alohida e’tirof etilgan. Musiq bolalarning ichki dunyosini shakllanishida, estetik did va saviyasini o‘stirishda muhim olim hisoblanishi yoritilib, ular asosida takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, milliy qadriyatlar, musiq, qo‘shiq san’ati, ustoz-shogirdlik an’analari, “Shoxnoma”, “Qobusnoma”, sozanda, qo‘shiq ijrochisi, musiqiy did, estetika.

Mamlakatimizda keyingi yillarda madaniy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda. Manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, xalqimiz qadimdan boy musiqiy merosga ega bo‘lib kelgan yurt hisoblanadi. Bu bebaho meros, musiqiy qadriyatlar avlodlarimizning boy tajribasi mahsuli bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgani har bir davrning yoshlari uchun katta tarbiya maktabi hisoblangan. Eng muhimi, musiq, qo‘shiq san’ati bilan bog‘liq ustoz-shogirdlik an’analari, ijrochilik va bastakorlik maktablarining vujudga kelishiga asos bo‘lgan.

Musiq va qo‘shiq san’ati bilan bog‘liq, mulohazalar, nazariy va amaliy mulohazalar ildizi uzoq tarixiy jarayonlarga borib taqaladi.

Ma’lumki, XI asrda ilm-fan, san’at va adabiyot ma’lum darajada taraqqiy etgan davr hisoblanadi. “Qobusnoma”ning muallifi Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg‘og‘ida yashovchi Gilon qabilasidandir. U 412 hijriy (1021-1022 melodiy) yilda tug‘ilgan bo‘lib, asosan fors-tojik shoiridir. “Qobusnoma” asarini 1082-1083 yilda muallif yaratgan bo‘lib, uni o‘g‘liga bag‘ishlaydi. Asar 44 bobdan iborat bo‘lib, bulardan to‘rt bobi diniy mavzularga bag‘ishlangan. Qolgan 40 bobi

hayotiy voqealarga sharqona ta'lim- tarbiya bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi.

Asarda asosan muallifning hayotiy tajribalari, pand-nasihat ruhidagi qarashlari qalamga olingan. Ayniqsa, muallifning turli masalalarni qamrab olish barobarida, shoirlik, hofiz va musiqachilar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Ayniqsa, qo'shiq uchun tanlangan she'r mualliflari shoirlar oldiga muhim talablarni qo'yar ekan, so'zning xalq uchun tushunarli bo'lishini, she'r faqat muallifga tegishli bo'lmay, balki she'rni o'qiydigan muxlisga ham aloqadoshligini, shu bois ular oldiga mos bo'lishni alohida ta'kidlaydi. Yana, qo'shiq uchun yozilgan g'azal oson, ravon va latif so'zlar bilan yozilishi lozim deb hisoblaydi. "... go'zal yoqimli so'zlaringni qo'ldan bermagil "shunday yozsang, yuqori tabaqa hamda oddiy xalqqa yoqib tushadi va sening she'ring shuhrat topadi", - deya alohida ta'kidlaydi.[3]

"Hofiz bo'lsang, - deb yozadi muallif, - she'r yozishni ham bilsang, o'z she'ringni aytishga xirs qo'ymagil, chunki, sening she'ring o'zingga ma'qul bo'lsa ham, ehtimol boshqalarga ma'qul bo'lmas, negaki hofiz xalq she'rining (yoki mashhur shoirlarning) paviysidir" - deydi.[3] Ayniqsa, yosh qo'shiq ijrochilarining aksariyati, bir yo'la uch vazifani ya'ni, o'zi shoir, o'zi bastakor, o'zi ijrochi bo'lib kelayotganligi sir bo'lmay qoladi.

Unda aytilishicha, "Kuylagan vaqtingda ashulang boshqa joydan, sozing boshqa joydan bo'lmasin," bunday g'azal, qo'shiq o'zingga yoqsa ham, o'zgalarga yoqmaydi. Har bir ashulani boshqa bir ma'no bilan aytgin", - deya hofizga ma'sul vazifani yuklaydi. [3]

Hozirgi kunlarda, bastakor qo'shiqchi hofizlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular o'z muxlislari oldida qo'shiqlar ijro etar ekan, ularning aytayotgan ijrolarini qay darajada qabul qilinayotganligiga ko'p ham e'tibor bermaydilar. "Qobusnoma"da bu masalada ham diqqatga sozovor fikrlar aytilgan. "Tengi yo'q ustoz bo'lsang ham, majlisdagi ulfatlarga qaragil, agar musiqadan zavqlanadigan donishmand odamlar bo'lsa, ashulla ayt, yaxshi yo'llarni, navolarni chertgil," - deydi. [3]

Yuqoridagi fikrlardan, bevosita hofiz qo'shiqlarning XI asrlarda ham o'ziga xos madaniyati, san'atkorlarning el oldida qiladigan ijrolari bilan bog'liq mas'uliyatidan darak beruvchi manba sifatida tilga olishimiz mumkin.

"Qobusnoma"da tilga olingan musiqa, qo'shiq, ijrochi san'ati aslida kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi qudratli qurol ekanligini ko'rsatuvchi bir vositadir. Sirtidan qaraganda, bu vazifa oson, yengildek tuyulsada, chinakam san'atkor bo'lish uchun, tinmay mahoratni oshirish, o'z ustida ko'p ishlashni talab qiladigan sohadir.

"Qobusnoma" da tilga olingan fikrlar, takliflar va mulohazalarda juda katta ma'nolar yotadi. Ya'ni, haqiqiy san'atkor, kishilarga shodlik va ilhom, go'zal hissiy tuyg'ularni shakllantirish lozim. Chunki, bu tinmay ijod qilishi va bu intilishi orqali o'z mahorati va qobiliyati bilan tabiat bergan buyuk mukofotni el oldida namoyish qilmog'i lozim degan g'oyalar ham o'ziga xos tarixiy o'g'itdir. Eng muhimi Kaykovus, musiqa, qo'shiq ijrochilari faqat ko'ngil ochish uchun xizmat qilibgina qolmay, balki inson qalbiga go'zallik deb nomoyonlangan haroratni bera bilishi kerak.

Xususan, musiqa ilmi bilan bog‘liq mulohazalardan biri, har bir san‘atkorlikni o‘z taqdiri deb bilgan inson albatta biror cholg‘u asbobini cholishni bilmog‘i lozim ekanligini alohida e‘tirof etgan. Bu fikr hozirgi kunda ham san‘atkor bo‘lishni tanlagan har talaba oldiga asosiy talab sifatida qo‘shilmoqda. Bu haqdagi fikrni tasdiqlovchi qo‘yidagi hujjatning e‘lon qilinishi ham aynan shu masalaga bag‘ishlagan. Bu qaror 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga ko‘ra, endilikda maktablarda milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o‘rgatiladi hamda bu haqda o‘quvchilarning ta‘lim to‘g‘richidagi hujjatga tegishli qayd kiritildi. Shunga muvofiq keyingi o‘quv yilidan boshlab ta‘lim muassasalarida musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soatidan tashqari, qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish bo‘yicha amaliy to‘garak va fakultativ dars tashkil etiladigan bo‘ldi.[1]

Ayniqsa, musiqa bolalarning ichki dunyosini shakllanishida, estetik did va saviyasini o‘stirishda muhim olim hisoblanadi. San‘atlar orasida alohida o‘rin tutuvchi musiqa har bir millat va elat uchun tushunarlidir. Chunki, unda inson yuragining qat-qatlariga, yetib boruvchi ohang hukumronlik qiladi. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida shoir va musiqa, xonanda haqidagi bildirgan fikrlari ma’no va mazmun jihatidan bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu fikrlar tabiiyki, asrlar davomida shakllanib, odamlar ongida voqelikni idrok qilish orqali singib borgan natijada o‘z ta’sir kuchini namoyon etib borgan. Shu boisdan ham, asrlar davomida zavol topmay kelayotgan musiqa ilmi abadiylikka dahldor san‘at turidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. T.,2022
2. Umarov M. “Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi” Darslik T.,”Yangi asr avlodi” 2009
3. “Qobusnoma”. T., O‘qituvchi 1973, 95-bet
4. Niholjonova N “A.Firdavsiyning “Shohnoma” dostonlari tavsifi”, O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurali. 21-son 20.07.2023
5. Matyakubov E “Sharq mutafakkirlari musiqa merosining tarbiyaviy imkoniyatlari to‘g‘risida”, Innovative, educational, natural and social sciences Journal. Volume 1,

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Ortiqova Go‘zal Yorqulovna,
*Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani 57-maktabning boshlang‘ich sinf
o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qish savodxonligi darslari orqali kitobxonlikni shakllantirishning mazmuni yoritib berilgan. Boshlang‘ich sinflarda kitobxonlikni shakllantirish usullari tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslari orqali kitobxonlikni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari haqida metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlari. O‘qish savodxonligi, kitobxonlik, o‘qish, dars, hamkorlik, jamoa, individual xususiyatlar.

Аннотация. В данной статье описывается содержание обучения читательской грамотности посредством занятий по читательской грамотности. Анализируются методы формирования чтения в начальных классах. Даны методические рекомендации о формах, методах и средствах развития чтения посредством занятий по читательской грамотности в начальных классах.

Ключевые слова. Читательская грамотность, чтение, чтение, урок, сотрудничество, коллектив, индивидуальные особенности.

Abstract: This article describes the content of reading literacy through reading literacy classes. The methods of formation of reading in primary classes are analyzed. Methodical recommendations are given about the forms, methods and means of developing reading through reading literacy classes in primary grades.

Key words: Reading literacy, reading, reading, lesson, cooperation, team, individual characteristics.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish uquvi va asar bilan tanishish jarayonida hosil bo‘lgan ruhiy kayfiyati hisobga olinadi. Adabiy tushunchalarni o‘rganish, kitobxonlikni rivojlantirish o‘quvchilarning ichki hissiy kechinmalari bilan bog‘lanmasa, ularda adabiyotga bo‘lgan qiziqish susayadi. O‘quvchilarda estetik zavq uyg‘otish uchun o‘qituvchi adabiy tushunchalardan vosita sifatida foydalanishi lozim.[2.235] Boshlang‘ich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirish badiiy asar matnining tahlili jarayonida shakllantiriladi. Jumladan, she‘r, qo‘shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoya (1-2-sinflar); rivoyat, masal, latifa, qofiya, misra, band, doston (3-sinf); sarlavha, obraz, jonlantirish, o‘xshatish, ibora, peyzaj, dialog, g‘oya (4-sinf) kabi adabiy tushunchalar yuzasidan amaliy bilim hosil qilinadi. Mazkur tushunchalar dastur talablariga ko‘ra 1-sinfdan boshlab badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlari bilan bog‘lab shakllantiriladi.

1-sinf o‘quvchilari ertak, masal, rivoyat, she‘r, hikoya, maqol, topishmoq, tez aytish janrlariga mansub asarlarni o‘qiydilar va shu jarayonda ularni janriy xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlay boshlaydilar.[2.69] O‘qituvchi bo‘lim yuzasidan o‘tkaziladigan takrorlash-umumlashtiruvchi darsda “Siz “O‘zbekiston – mening Vatanim”[5.34] bo‘limida qaysi she‘r va hikoyalar bilan tanishdingiz? Vatan haqidagi maqollarni ayting?” kabi savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi. Fasllarga doir bo‘limlar o‘rganilayotganda fasllarga bog‘liq topishmoqlar o‘quvchilarni atrofimizdagi olam bilan chuqurroq tanishtirishga yordam beradi.

2-sinfda o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun "Bir parcha patir olamga tatir" topishmog'ining javobini toping. Uni topishda sizga nima yordam berdi?, Nima uchun buni topishmoq deb aytamiz?", "Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda" maqoli nima haqda?, Uni kim yaratgan?, Siz bilan qaysi maqollarni o'qib-o'rgandik?, Nima uchun ularni maqollar deb nomlaymiz?", "Qaysi ertaklarni o'qidik?, Qaysi hikoyalarni o'qidik?, Ertaklarni kimlar yaratadi?, Hikoyalarni kim yaratadi?, Qaysi biridagi voqealar hayotda bo'ladi?, Ertakdagi voqealar hayotda yuz beradimi?, O'zingiz bilgan ertaklar nomini ayting. Ertagingiz qanday boshlanib, qanday so'zlar bilan tugaydi? Hikoya shunday so'zlar bilan boshlanadimi?" kabi savol-javoblar o'rganilayotgan mavzular bilan bog'liq holda tashkil etiladi.

3-sinf o'qish darslarida o'quvchilar bilimi ibora, lof kabi janrlarga doir tushunchalar bilan boyitiladi. Tadqiqot muammosiga doir izlanishlarimizda u yoki bu janrga mansub asarlar o'rganilayotganda boshqa janrga oid asarlarga taqqoslash ijobiy samara berishi kuzatildi.[3.98] Bir janrdagi asarlar o'rganilayotganda boshqa janrdagi asarlarga taqqoslash orqali ularning farqi o'rgatiladi.

4-sinfda didaktik talablardan kelib chiqqan holda badiiy asarda tugun, voqealar rivoji, syujet, kompozitsiya, g'oya, tasviriy ifoda vositalari ustida ishlanadi. Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmalilik, o'quvchilarning faolligini oshirish, tahlilda individual yondashish tamoyillari o'qitish jarayonida qo'llanadigan metod va usullarni belgilab beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asarlar izohli o'qish va ifodali o'qish metodlarida o'rganiladi. O'qish darslarining vazifasi o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish; badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish, kitob o'qishni sevuvchi, undan zavq ola biluvchi haqiqiy kitobxonni tarbiyalash; o'quvchilarni jamiyat va borliq, kishilarning xulq-atvori, mehnati, turmushi to'g'risida boshlang'ich bilimga ega qilish; lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirishdir.[2.34] Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilar asarni amaliy tahlil qilish ko'nikmalarini ham egallaydilar.

Adabiy tushunchalarni shakllantirish bevosita badiiy asarni o'rganish, tahlil qilish jarayonida amalga oshirilishi tufayli badiiy-estetik tahlilga oid ilg'or va samarali usullar biz tadqiq etadigan ilmiy-metodik muammoga ham taalluqlidir.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida xilma-xil ta'lim metodlaridan ko'pincha aralash holda foydalaniladi.[3.56] Dars maqsadiga, sharoit taqozosiga ko'ra zarur usullar tanlanadi. Pirovardida esa o'quvchilarga bilim berish, adabiy asarni tushunish, mustaqil fikrlash, go'zallikni his qilish, o'z tushuncha va tasavvurlarini tiniqlashtirish, umulashma hayotiy xulosalar chiqarish kabi ko'nikma-malakalarni shakllantirishda adabiy tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim standarti mazkur ta'lim bosqichining har bir ta'lim sohasi uchun belgilangan standart parametrlari, mazkur ta'lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi, tarkibiy qismlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik, psixologik, texnologik tizimi bilan darajasini

belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda butun e'tibor boshlang'ich ta'limning maqsadi yuzasidan uzviylik, tadrijiylik va to'laqonlilikni saqlab qolishga qaratiladi.

O'qish savodxonligi fanining dasturini tuzishda g'oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olingan. Undagi o'quv mazmuni o'quvchilarga ta'lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo'lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o'qish dasturining tub mohiyatini tashkil etadi.

O'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmoni

2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

3. M.Raximqulova, H.Qoraboyev, N.Pardayev, A.Xudayarov Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish. Uslubiy qo'llanma.- Toshkent Qamar media nashriyoti, 2022- yil. 70 bet.

4. O'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun/ U.B.Aydarova. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 80 b.

5. M.E. Toirova. O'qish savodxonligi. 4- sinf uchun darslik 1-qism [Matn]:– Toshkent: Edutainment, 2023. – 80 b.

6. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA O'RGATISH

Kuvandiqova Moxira Abdukarimovna,

*O'zbekiston Finlyandiya pedagogika institute Maktabgacha ta'lim fakulteti
tyutori*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga kitob orqali bilimlarni o'zlashtirishning samarali yo'llari, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining bolani kitobga qiziqish uyg'otish va kitobxonlikka o'rgatish, ta'lim tarbiya jarayonida kitobdan munosib fodalaniish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bola, kitob, kitobxon, pedagog, ilm, kitob javoni, mashg'ulot, bolalar adabioti.

Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo‘li esa bitta – kitob o‘qishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan, shunday degandi: “...hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”. Darvoqe bolalarni kitobga mehr qo‘yishlarida ham kitobning ayniqsa bolalar adabiyotining o‘rni va ahamiyati benihoya kattadir. Ayniqsa buni o‘zining burro tillari bilan aytgan xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, sh`er, hikoya, ertak so‘zlab berayotgan, bolalar adabiyotini ulkan qiziqish bilan o‘rganayotgan shirintoy bolajonlarimizni ko‘rganimizda, tinglaganimizda yanada chuqurroq his etamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni kitobxonlikka o‘rgatish ishlari asosan oila bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Bolaning oilaviy muhitida kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishlari bevosita bolaning ta’lim tarbiyasiga ijobiy tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bola dastlab tashqi muhit, borliq haqidagi bilimlarni “mikro hudud” ya’ni oilasi, atrofida uni o‘rab turgan jamoa yordamida o‘zlashtiradi. Ilk yoshdagi bola barcha ko‘nikmalarni kattalarga taqlid asosida namoyon etadi. Demak, oila muhitida kattalarning kitobga bo‘lgan munosabati orqali bola ham xuddi shu taqlidiy harakatlarni namoyish etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelib boshlagan jajji qalb egalari kitobxonlik ko‘nikmalarini guruh tarbiyachisi va boshqa xodmlarning kitobga bo‘lgan munosabati ko‘rish orqali yanada rivojlantiradi. Guruh tarbiyachisining va tashkilot boshqa pedagog xodimlarning o‘quv faoliyati va kun davomidagi boshqa barcha jarayonlar davomida kitobdan o‘rinli foydalanishni bilishi, bolada ham xuddi shunday malakalarning egallanishiga sabab bo‘ladi.

Ta’lim tashkilotlarida o‘quv faoliyati davomida dastlab, bolaga kitob va uning tuzilishi, ko‘rinishi, qo‘llanilishi haqidagi bilimlarning berib borilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, kitob qog‘ozdan yaratilishi, uning shakli esa olib yurish va foydalanish uchun juda qulayligi haqida to‘xtalib o‘tilishi lozim. Kitobning old va orqa qismlari “muqova” deyilishi va u ichidagi sahifa varaqlarga nisbatan mustahkamroq qilib ishlov berilishi, qalinroq qog‘ozdan ishlanishi aytib o‘tilishi lozim. Chunki mana shu qalin muqova kitobning asosiy mazmuni yoritilgan sahifa varaqlarini turli shikastlanish holatlaridan saqlashini bolaga o‘rgatish lozim. Kitoblarning mazmunan turlari har xil bo‘lishi mumkinligini, bolalar kitoblari esa mavzuga doir yorqin rangdagi rasmlarga boy bo‘lishi va yozuvlari esa kattaroq hajmda bo‘lishi haqida aytib o‘tish joiz.

Har bir yosh guruhida o‘z guruh yoshiga mos kitoblar bilan boitilgan maxsus kitob javoni mavjud bo‘ladi. Bu kitoblarni tartibli, toza va ozoda saqlash, kitoblarni muntazam yangilab, boyitib borish guruh tarbiyachisining kasbiy va shaxsiy mahoratiga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Tarbiyachi bolalarga muntazam ravishda javondan kitoblarni qay tartibda olish va kitobdan to‘g‘ri foydalanish haqida tushunchalarni berib borishi lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari tarbiyachi haftalik ish rejasida “Badiiy adabiyot bilan tanishtirish” mashg‘ulotidan tashqari har kuni bolalarga badiiy asarlar o‘qib yoki hikoya qilib berish vazifasi qo‘yiladi. Bu vazifani amalga oshirishda tarbiyachi shaxsiy namuna ko‘rsatishi lozim. Masalan kitobni javondan olib o‘tirib yoki tik turgan holda o‘qib berishi jarayonida kitobni to‘g‘ri ushlab, barmoqlarni to‘g‘ri harakatlantirib, boshini kitobdan kerakli masofada uzoqlikda saqlab, yuz va ko‘z mimikalarini o‘rinli qo‘llashi, ovoz tembrini esa asar holatiga kirib mahorat bilan o‘qib berishi bola uchun namuna vazifasini bajaradi. Bola ham xuddi shu tartibda kitobdan foydalanishga odatladi.

Va yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning kopchiligini alla-qo‘shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq ogzaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan turli mavzulardagi asarlar ham maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun qo‘l keladi. Ular orqali bollarda turli psixologik jarayonlar faol rivojlanadi, intellektual salohiyati yuksalib boradi.

Ammo shu narsani ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga mos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Kichik yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do‘stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to‘g‘risida bo‘lishi foydadan xoli bo‘lmaydi. Katta va tayyorlov guruhlariga kelib bu asarlarning syujeti salgina kengayib boradi.

Maktabgacha yosh davr bolalar kitobxonligi yuqorida aytib o‘tganimizdek asosan ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o‘qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar dunyo sirlarining ko‘pidan bexabar bo‘ladilar. Shunga qaramay, kichkintoylar o‘zlarini qurshagan olamni tezroq bilib olishga, uni o‘rganishga intiladilar.

Xulosa qilib aytganda, bolalar o‘zlari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo‘lishni, tabiatni asrashni va mehnatni sevishni o‘rganadilar, eshitgan ertak qahramonlarini xatti-harakatlarini baholashga o‘rganadilar. Barcha yoshdagi o‘zbek bolalar adabiyoti mavzulari, g‘oyalari, obrazlari nihoyatda xilma – xil. Bu asarlarning pedagogik – tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda insoniylik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, o‘rtoqlik, do‘stlik, to‘g‘rilik, xalollik, oqillik, qo‘rqmaslik, jasurlik, va boshqa ijobiy fazilatlar ulug‘lanadi: qo‘rqoqlik, munofiqlik, xudbinlik, hasislik, dangasalik, aldanchilik, ayyorlik, manmanlik, odobsizlik kabi yomon hulq - atvorlar qoralanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.12.2020 yildagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab -quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 781-sonli Qarori

2. Abdumannapova D. Sh. Innovation in the modern education system. Onlayn ilmiy jurnali -2022. -214-217 b.

3. Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti. -Namangan. "Usmon Nosir" - 2021. -16 b.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -Toshkent. "Oqituvchi" 2011. – 79-80.

TO'G'RI KASB TANLASH- FAROVON HAYOT ASOSI

Narziyeva Durdona Sheramonovna

Samarqand viloyati Narpay tumani 6-maktab psixologi

Annotatsiya. Kasb tanlash bir qaraganda oddiy masala bo'lib ko'inishi mumkin. Aslida bu jarayon insonning butun bir hayotida muhim o'rin tutuvchi omildir. Maktab yoshidagi o'quvchilarni deyarli bir savol doim o'ylantiradi. "Kelajakda kim bo'lsam ekan?" O'quvchilar kasb tanlash chog'ida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu maqolada shu masalaga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kasb, hunar, ma'lumot, yoshlar, qiyinchili.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasbni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun o'z xissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini ya'ni shaxs sifatida kamol topishi tushuniladi. Komillikning asosiy belgilaridan biri kasbiy shakllanishdir. Kasbiy shakllanish bu cheksiz, murakkab, orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon bo'lib, undan inson o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi bugungi kunning eng dolzarb muommolaridan biridir. Har bir shaxs voyaga yetar ekan uning oldida ulkan bir mas'uliyatli, g'oyat muhim bir vazifa turadi. Bu kelajakda kim bo'lsam ekan? yohud qaysi kasb egasi bo'lsam ekan? kabi jumboqli savollar turadi. Kasb tanlash bir qaraganda oddiy masala bo'lib ko'inishi mumkin. Aslida bu jarayon insonning butun bir hayotida muhim o'rin tutuvchi omildir. Maktab yoshidagi o'quvchilarni deyarli bir savol doim o'ylantiradi. "Kelajakda kim bo'lsam ekan?" O'quvchilar kasb tanlash chog'ida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishida ularga tajribali shaxslar: ularning ustozlari, maktab pedagog psixologi, ota-onasi yoki yaqin tajribali shaxslar yordam bera oladilar. Shu o'rinda aytib o'tish joizki kasb tanlashda kerakli maslahat va tavsiyalarni eng to'g'risini maktab psixologi berishi mumkin. Chunki u o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlarini psixologik jixatdan tahlil qiladi va ularning layoqat va qobiliyatlarini oldindan psixologik jixatdan hisobga oladi.

Shu o'rinda ota-onalar ham farzandining taqdiriga mas'uliyat bilan yondoshmog'i zarur. Albatta ota-onalar farzandlarini kelajakda yuqori cho'qqilarni zabt etishini, ulkan zafarlarga erishishini, o'zidan yaxshi nom qoldirishini, o'zi ko'rmagan yaxshi kunlarni farzandi ko'rishini hoxlashadi. Lekin, aynan

farzandingiz kasb tanlayotganda quyidagi maslahatlarimizga ham amal qilsangiz yaxshi natijalarga erishishingiz aniq.

-Ota-onalar odatda farzandi kasb tanlayotganda o'z nuqtai nazarini ustun qo'yadilar. Bu esa bevosita farzandingizda norozilik hissini keltirib chiqaradi. O'quvchilar doim o'zlari qiziqqan soha vakili bo'lishni xohlashadi. Va bunga astoydil intilishadi. Qadrli ota-onalar farzandingizga maslahat berayotganingizda uning qiziqish, qobiliyat va layoqatlarini e'tibordan chetda qoldirmang.

- Dunyoda 7 milliyatdan ziyod odam bor va ular barchasi turli xil har biri o'zgacha bir dunyodirlar. Sizning farzandingiz ham nodir va takrorlanmas bir mo'jizadir. Garchi u sizning farzandingiz bo'lsada, u siz bilan bir xil emas. Uning o'ziga xos individual psixologik xususiyatlari mavjud. Qolaversa siz yashagan davr bilan hozirgi davrning o'rtasida bir talay tafovut va farqlar bor. Siz ularni hisobga olishingiz va zamonga xos bo'lgan kasblar tipi bilan tanishib chiqishingiz kerak bo'ladi. Sizning tanlovingiz asosida kasb tanlashi kelajakda qachondir uning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga mustaqil qaror qabul qilish xususiyatini pasayishiga olib kelishi mumkin.

- Biz global zamonda yashayapmiz. Avvallari insonlar bitta kasb orqasidan yaxshi hayot kechirishgan bo'lsa Hozirgi davrda bir nechta kasb egasi bo'lmasdan yohud 3-5-yilda yangi malaka va bilim ko'nikmalar egallasdan turib o'z tanlagan kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishi qiyin.

- Farzandlarga o'zingizning yoki boshqa bir nufuzli insonlarning hayoti, uning mashaqqatlarni yenga olishi, tajribalari haqida ko'plab so'zlab bering. Tajribalaringizni farzandingiz bilan bo'lishing zero sizning tajribangiz farzandingiz uchun muhim ahamiyatga ega.

- Ota-onalarning egallagan kasblari farzandlar kasb tanlashi uchun misol tariqasida xizmat qilishi mumkin.har bir avlod o'zining mustaqil yo'li bo'lishi muhimligini unutmang. Farzandingiz o'z yo'lini to'g'ri tanlashiga ko'maklashing.

-Farzandingiz kasb tanlashida faqatgina moddiy boylikni asos qilib olishiga yo'l qo'ymang. Moddiylikka asoslangan hayot tarzi bir kun darz ketadi. Shuni unutmanki bu dunyoda inson ma'naviy jonzodddir. Ma'naviy muhit yaxshi bo'lgandagina ma'naviy qiyofasi to'g'ri shakllanadi.

- Farzandingiz kasb tanlashida kasbning obro'si, nufuziga, maoshiga e'tibor qaratmang, unutmang soha insonni rivojlantirmaydi, inson sohani rivojlantiradi, faqat u to'g'ri tanlangan soha bo'lsa bas.

Ta'kidlab o'tganimdek uzoqni ko'zlab yaratilgan zaminlar umriboqiy zaminlardir. Bizni ham kasbni to'g'ri tanlashimiz hayotimizning umriboqiy zaminlarini yaratishimizga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rustambek Q.O. Birinchi sinf chapaqay o'quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

2. O.A. Qo'ysinov, V. N. Sattorov, H. S. Yakubova. Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011, 79 b.

3. Sanaqulov X. R., Xodiyeva D. P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

4. 1-4 sinf o‘quv uslubiy tavsiya kitobi. “O‘qituvchi” nashriyoti 2017 yil.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna,

*Toshkent davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi,
zaynab@gmail.com, Tel:+998999259220*

Xurramov Sodiq Shuxrat o‘g‘li,

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi
302-guruh talabasi,*

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar o‘rinda ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etishni takomillashtirish darajasi, salohiyati ham zarur. Talabalar mustaqil ishi mexanizmlarini takomillashtirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda oliy ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020 yil 23 sentabrda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim, to‘g‘risida” gi O‘RQ 637-sonli [1]qonunida ham ta’lim sifatini yaxshilash, talabalarning turli shakllarda ta’lim olishi(ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (masofaviy, sirtqi, kechki); dual ta’lim; oilada ta’lim olish va mustaqil ishi; kata yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish; inklyuziv ta’lim; eksternat tartibidagi ta’lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi kadrlarni tayyorlash) belgilab qo‘yilgan. Shunday ekan, yuqoridagilarni inobatga olib mustaqil ta’limni tashkil etishni takomillashtirish, mustaqil o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Darhaqiqat, jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta’sirini tahlil etganda, ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik:

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta’lim tizimi, metodologiyasi va o‘quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o‘qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa, o‘z-o‘zidan bo‘lajak pedagoqlarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish o‘qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya’ni ta’limga innovatsiyalar kiritishni

taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalar kiritishning muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

Ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

“Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi” [2, 15].

Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash - insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir» [2, 40].

Shunga ko'ra, so'nggi yillarda o'ziga xos dolzarblik kasb etayotgan mustaqil ta'lim asosida talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin-ijodiy ta'lim muhitini shakllantirishning zaruriy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirishning integrallashgan pedagogik tizimini amaliyotga tatbiq etish orqali jarayon samaradorligini oshirish masalasi tadqiqotimizning asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr.

2. Muslimov N.A, Qo'ysinov O.A Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya -T, “Fan” 2009

3. B. Sattorov, A.Toshxonov. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Uslubiy ko'rsatma. Namangan 2019

MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna,

TDPU “Pedagogika” kafedrasida o'qituvchisi zaynab@gamil.uz Tel:
+998999259220

Xudoyberganova Zilola Akmaljon qizi,
TDPU, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 1-mart kuni xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida:

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko'p bo'lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko'rsatmoqda. Ularning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. 2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi.

2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta'limga qabul qilindi. Natijada, o'tgan yili oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Hozirgi kunda "Ayollar daftari"da 630 mingdan ziyod xotin-qiz ro'yxatda turibdi, ulardan 200 ming nafari ishsiz. Ayollar o'rtasida jinoyatchilik, oilada zo'ravonlik va tazyiq holatlari, afsuski, hali ham bor.

Davlatimiz rahbari bu muammolarni hal etishda mahalla faollari, jamoatchilik va nuroniylarning o'rni va ta'siri sezilmayotganini aytdi.

Endi har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim bo'ladi. Qaysi ayolga nima kerakligi, o'qishi, davolanishi, bolalari tarbiyasi bo'yicha mening stolimda adolatli raqam bo'ladi, – dedi davlatimiz rahbari[2, 4].

Ayollarning uy-joy sharoitini yaxshilash masalasiga to'xtalar ekan, Prezidentimiz shunday dedi:

Bir vaqtlar ayollarga imtiyozli uy berishga imkon yo'q edi, bunga qonuniy asos, mablag' yo'q edi.

Yig'ilishda ipoteka kreditlari bo'yicha ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo'naltirilishi belgilandi.

Ularning salomatligini tiklash bo'yicha ham aniq tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, joriy yilda 6 ming nafar ayolga yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatiladi. Nogironligi bo'lganlar rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlanadi. 3 million nafar xotin-qiz onkologik skriningdan o'tkaziladi. Shuningdek, qizlarni emlash, fertil yoshdagi ayollarni dori va vitaminlar bilan bepul ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi[3, 4].

Qizlarning yaxshi ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi Prezidentimizni hamisha o'ylantiradigan masalalardan biri. Bu yig'ilishda ham ular uchun ta'lim sharoitlarini kengaytirish bo'yicha tarixiy qarorlar qabul qilindi.

Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etiladi. Paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochiladi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab, ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. Buning uchun, joriy yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so‘m, kelgusi besh yilda 8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi[4, 5].

2022-2024-yillar uchun “Biznes ayollar” dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi, imtiyozli kreditlar beriladi.

Davlatimiz rahbari ehtiyojmand xotin-qizlar bandligini ta’minlagan tadbirkorlarni ham qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidladi. Ular uchun ko‘plab soliq va savdo imtiyozlari belgilandi.

Shu bois, endi ayollarning tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyasi sud tomonidan ta’minlanishi, alohida himoyaga olish bir yilgacha belgilanishi aytiladi.

Bu harakat “mahallaning vijdoni”ga aylanishi kerak. Chunki ma’rifatli jamiyatni ma’rifatli onalarsiz qurib bo‘lmaydi, – deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev [1.3].

Shu bois, oilani himoya qilishga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgan bir paytda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish masalasini to‘g‘ri va ijobiy hal qilishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

- xotin-qizlarga nisbatan barcha shakldagi kamsitish va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik;

- jamiyatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- ayol va erkakning mas’uliyati, o‘zlarining oiladagi burchini to‘liq his qilishi, o‘zaro hurmati va oilaviy muammolarning yechimini bafurja hal qilishida imkoniyatlar yaratish;

- ayollarning huquqiy madaniyati va diniy savodxonligini oshirish;

- mahalla fuqorolar yig‘inida ota-onalarning mafkuraviy, pedagogik, psixologik bilim saviyasini oshirib borish;

- ayollarning ilmi bo‘lish darajasini oshirishni ta’minlashda targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- telekanallar orqali oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xorij seriallarini ko‘paytirgandan ko‘ra, milliy mentalitetimizga hos oilaviy munosabatlarni aks ettiradigan dasturlar sonini ko‘paytirish;

- mahalla fuqorolar yig‘inida psixologik treninglar tashkil etish va unga aholini qiziqtirish.

- qizlarga zamonaviy ta’lim-tarbiya berishga ko‘maklashish;

- xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash;

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilalarda ma’naviy ahloqiy muhitni mustahkamlash va sog‘lomlashtirish jamiyat va davlat rivojining muhim mezonidir. So‘nggi yillar mobaynida ayollar huquqlarini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok

etishga jalb qilish uchun bir qancha huquqiy asoslar yaratilgan. Davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va imtiyozlarga javoban, yurtimizni yanada rivojlanishi uchun biz ziyolilar munosib yosh avlodni tarbiyalash bilan bir qatorda yashab turgan mahallamiz tumanimiz va viloyatimizda, faoliyat olib borayotgan jamoamizda xotin-qizlarni jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligini yana bir bor ta'kidlab, ularga to'g'ri maslahatlar bilan yo'naltirish orqali o'z hissamizni qo'shish burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Xalq so'zi" - 2020. 8-mart.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. // "Yangi O'zbekiston" -2020. 24-sentabr.

3.Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Xalq so'zi -2018. 2-fevral.

4."Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni // Xalq so'zi -2019. 3-sentabr.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH ORQALI IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Rajabova Xurshida Hakimovna,

*QVPYMO 'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning erkin fikrlashi, dunyoqarashini kengaytirish, kreativlik orqali bir muammoga turli xil, har tomonlama yondashgan holda ijobiy va ijodiy yondashuvlar bilan yechimlarni topish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. kreativlik tushunchasi, interfaol, mantiqiy va tanqidiy yondoshuv, fikrlash, dunyoqarash, tushuntirish, ijobiy fikrlash, ijodkorlik

Abstract. This article provides information on how students can think freely, expand their worldview, find solutions to a problem with different, comprehensive approaches and creative approaches through creativity.

Key words. the concept of creativity, interactive, logical and critical approach, thinking, worldview, explanation, positive thinking, creativity

Аннотация. В этой статье представлена информация о том, как студенты могут свободно мыслить, расширять свое мировоззрение, находить решения проблемы с помощью различных комплексных подходов и творческих подходов посредством творчества.

Ключевые слова. концепция творчества, интерактивный, логико-критический подход, мышление, мировоззрение, объяснение, позитивное мышление, креативность.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi texnologiyalar- ta'lim muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bolalarga yangi darsliklarda berilgan topshiriqlar asosida ijodkorlik va ijobiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb masaladir. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Jahon mamlakatlari kelajak kadrlarni tayyorlashda o'quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan o'qitish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, egallangan bilimlarini ijodiy tarzda qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. Xorijiy tajribalar asosida darsliklarimizda berilgan topshiriqlar bolaga kreativ fikrlash, ijobiy ijodiy fikrlashga chorlovchi topshiriqlardir. Shu topshiriqlar orqali bolaga ijodkorlikni shakllantirish masalalari ilgari surilmoqda.

Kreativlik -hozirgi kunda ko'p eshitiladigan so'z. Bolada kreativlik bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Kreativlik- bu ijodkorlikdir. Hozirgi kunda aqlli bo'lish yetarli emas, kreativ bo'lish kerak. Biron talabni bekamu-ko'st bajarish ko'pchilik qo'lidan keladi, lekin talabni o'ylab topish, yanglik kiritish, ishga ijod bilan yondashish, yangi yo'llarni izlash, yangi ko'rinish topish, yangi usul qo'llash hammaga ham xos qobiliyat emas. Agar doimiy ravishda bolaga qo'pol muomalada bo'lib, baqirib gapirilsa, bu jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, tarbiyadagi shafqatsizlik bola uchun surunkali stress muhitini yaratadi, buning asoratlari esa bola katta bo'lganida ham namoyon bo'lishi, bunday tarbiya bolaning rivojlanayotgan miyasiga ta'sir qilishi, boshqa salbiy oqibatlari bilan birga garmonal o'zgarishlar, shamollashlar hamda yurak qon tomir faolligi susayishining

kuzatilishi va bolaning kreativlik qobiliyatlarini rivojlanishiga ham to'siqlik qiladi. Bu esa uning jismoniy holatiga, bolaning ijodkorligiga, mustaqil fikrlashga to'sqinlik qiladi.

Kreativ so'zining ma'nosi nima?. Kreativ so'zini ilk bor 1922 – yilda AQSH olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Kreativlik (lot.creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas original yechimini topish, tafakkur qilishning an'anaviy usullaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. Kreativlik atamasi tilimizga kirib kelishidan oldin bu so'z tilimizda uchrarmidi? Albatta uchrardi, lekin biz bunga unchalik e'tibor qaratmasdik, ya'ni kreativlik so'zining o'rniga biz noodatiy, noan'anaviy so'zlarini ishlatar edik. Vaholanki, kreativlik so'zining bugungi kundagi ma'nosi ham aynan xuddi shunday noodatiy, noan'anaviy degan ma'nolarni anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishdan oldin, ularni birinchi navbatda o'qituvchisi kreativ bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kreativ fikrlashi bilan birga dunyoqarashi keng izlanuvchan e'tiborli bilimli bo'lishi lozim. O'qituvchi ijodkor va ijobiy fikrlovchi bo'lsa o'quvchiga ham shuni o'rgataoladi. Ana shundagina o'z o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgata oladi. Agarda o'qituvchida bunday narsalar yo'q bo'lsa, o'quvchilaridan talab qilish noo'rin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars davomida turli ta'lim-tarbiyaviy masalalarni hal qilishi lozim. U bilim va malakalarni berishni hamda bolaga egallashi uchun shart-sharoit yaratib berishi kerak. U bergan bilim o'quvchida og'zaki va yozma nutqni, bolada kuzatuvchanlikni, ta'sirchanlikni oshirishi lozimdir.

Kreativ fikrlash qobiliyati ko'rsatkichlari, ayniqsa, kreativ fikrlash jarayonining katta qismi ko'rinmaydigan topshiriqlarda darsliklarda berilgan topshiriqlarda o'quvchilar ijodiy ishlarining kreativligini ta'minlaydi. Demak, o'quvchilarning ijod mahsuli ularning ijodiy fikrlash jarayoni muvaffaqiyatli bo'lganmi, yo'qligini aniqlashda qo'l keladi. Hamkorlikdagi kreativ fikrlash borasidagi tadqiqotlarga ko'ra, guruh a'zolari maqsadli, jumboqli vaziyatdan kelib chiquvchi va tartibsiz murakkab jarayonlarda ishtirok etgan holda, maqsad qo'yadi va uning ro'yobga chiqishini kuzatadi, bunda guruhning turli a'zolari o'zining kuchli tarafiga asoslanib, guruhda yetakchilikni oladi. Xususan, muzokara va hamkorlik usulidagi olib boriladigan jarayonlarda qatnasha olish yangi g'oyalarni yaratishga zamin tayyorlaydi. Hamkorlik natijasida, faoliyat g'oya yaratish va takomillashtirish bilan bog'lanadi, g'oyalardagi kamchilik tuzatiladi, boshi berk muammolarni aylanib o'tish yo'llari kashf etiladi. Hamkorlik bolalarga ijodiy fikrlashni va ijodkorlikni shakllantiradi. Guruhda olib borilgan faoliyat bolani dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilish bilan birga mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Ijodiy fikrlovchi o'quvchida quyidagi sifatlar shakllangan bo'lishi lozimdir;

- fikrlar orasidagi mantiqiy aloqalarni tushunish;
- fikrlarni qisqacha va aniq shakllantirish;
- dalillarni aniqlash, tahlil qilish va baholash;
- gipotezaga qarshi dalillarni baholash;

- fikrlashda nomuvofiqliklar va keng tarqalgan xatolarni aniqlash;
- muammolarni muntazam ravishda tahlil qilish;
- g'oyalarning dolzarbligi va ahamiyatini aniqlash;
- o'zining e'tiqodi va qadriyatlarini isbotlash;
- o'zining fikrlash qobiliyatini aks ettirish va baholash.

Hamkorlikdagi kreativ fikrlash borasidagi tadqiqotlarga ko'ra, guruh a'zolari maqsadli, jumboqli vaziyatdan kelib chiquvchi va tartibsiz murakkab jarayonlarda ishtirok etgan holda, maqsad qo'yadi va uning ro'yobga chiqishini kuzatadi, bunda guruhning turli a'zolari o'zining kuchli tarafiga asoslanib, guruhda yetakchilikni oladi. Xususan, muzokara va badiha usulidagi olib boriladigan jarayonlarda qatnasha olish yangi g'oyalarni yaratishga zamin tayyorlaydi. Hamkorlik natijasida, faoliyat g'oya yaratish va takomillashtirish bilan bog'lanadi, g'oyalardagi kamchilik tuzatiladi, boshi berk muammolarni aylanib o'tish yo'llari kashf etiladi.

Xulosa qilib aytganda kreativ fikrlashni rivojlantirish hamma uchun foydalidir, chunki u mutlaqo har qanday faoliyatda natijalarga erishishga imkon beradi. Kitob o'qish, ko'rgazmalarga tashrif buyurish va ko'p tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlashga oid topshiriqlar orqali har kuni kundalik va intellektual muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashni odatga aylantirish orqali kreativ fikrlash malakalari rivojlanadi. Tez-tez tasodifiy so'z usulidan foydalanish, muammoni shakllantirish va bir qator so'zlarni yozib chiqish, keyin ularni belgilangan muammo bilan bog'lash, o'zaro bog'liq variantlarni ko'plab topish orqali ham kreativ mahorat shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Exsonova F.T. O'quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo'llari // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2018.
2. N.Muslimov. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari". Toshkent., 2015
3. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish.: Avtoref. dis. ... ped. fan. bo'yicha falsafa dok. – T., 2017.
4. Tunik E.E. "Ijodiy fikrlash diagnostikasi" (2006).
5. Qishtimova I.M. "Ijodkorlikning Psixosemiotikasi" (2008).
6. Imametdinova R.Ya. "Bolalarning ijodiy qobiliyatlari" (2006).
7. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxs xislatlari// Xalq ta'limi.- Toshkent, 2001. №.4.-B

IJTIMOY ADOLAT – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING AMALDAGI MA'NAVIY MEZONI SIFATIDA

Raximova Dilshoda Baxritdinovna,

*Samarqand Viloyati pedagoglarni yangi metodikalarni o'rgatish milliy
markazini ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida f.f.nom.
v.b.dots.*

Xidirov Xoshim Ibodullaevich,

*Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, f.f.b.f.d.
(PhD). +99899-138-00-04*

Annotatsiya. Ushbu adolat tushunchasining kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi hamda hozirgi kundgi ahamiyati xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Maqolada jamiyat hayotining eng muhim tizimlaridan biri bo'lgan ijtimoiy adolat tushunchasining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyati, o'rni va roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, adolat, jamiyat, "Avesto", taraqqiyot, adolatsizlik, huquqiy davlat, adolatli jamiyat.

Jamiyat taraqqiyoti qanchalik rivojlangani sayin adolat, adolatlilik, adolatli jamiyat kabi tushunchalarga fuqarolarning ehtiyoji orta boradi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda bevosita adolatning ta'minlanishi, avvalo, fuqarolarning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada ortishiga olib keladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz barpo etayotgan huquqiy davlatda adolatsizlikning hech qanday shaklda ustun bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur".

Adolatli jamiyatning ko'zgusi bo'lgan qonunchilikka fuqarolarning rioya qilishlari, adolatni qaror toptirish borasida davlat tomonidan olib borilayotgan siyosiy islohotlardan ko'zlangan maqsad avvalo, jamiyatda tenglik tamoyilini ta'minlashdan iboratdir.

"Adolat" – (arabcha – "odillik", "to'g'rilik") – ahloq va huquqning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi va qonunning barcha insonlarga barobarligi bilan belgilanadi. "Adolat" turlicha talqin qilinadigan, xilma-xil tarzda namoyon bo'ladigan tushunchadir. Ba'zi ahloqiy-huquqiy me'yorlar ham adolat mezonlari sifatida qaraladi. Bu, o'z navbatida, adolat mezonlarining jamiyat rivojiga, insoniyat taraqqiyotiga, muayyan mamlakat qonun - qoidalariga mos yoki mos emasligi bilan belgilanadi.

"Avesto"da inson ijtimoiy mehnati tufayli barcha yomonlikdan, yovuzlikdan qutulishi mumkinligi g'oyasi yotadi. G'arazgo'ylik, hasad, manmanlik, o'g'rilik, talonchilik, nohaqlik illatlari qoralanadi. Ushbu illatlarga qarshi kurashish jamiyatda adolat qaror topishiga olib kelishi qayd etiladi. "Haq so'zdan o'zga hech narsa to'g'risida o'ylama, haq so'zdan o'zga hech narsa to'g'risida suhbatlashma, haqqoniy amaldan o'zga hech narsa bilan shug'ullanma", - deb yoziladi "Avesto"da. Korrupsiyaga qarshi kurashda adolat mezonlari quyidagilardan iborat;

- Tarixiy (sharq mutafakkirlarining qarashlari)
- Insoniy (insonning qadr-qimmati, sha'ni, ulug'lanish)
- Qonuniylik (qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqiy siyosat yuritish)
- Davlat va shaxs o'rtasidagi muloqot (fuqaro va yuridik shaxslarning murojaatlari) kabi mezonlari mavjud.

Korrupsiyaga qarshi kurashda adolat tamoyilining o'rni va ma'no-mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsigaga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g'amini eyishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda

har bir odam o‘z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi. Davlat o‘z faoliyatida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat etadi, jamiyat a‘zolarining mol-mulki daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta‘minlaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda adolat haqidagi qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi uzluksiz davom etadigan ijtimoiy jarayondir. Bu jarayon millatning tarixiy merosidan oziqlangan holda davom etadi. Tarixiy-adabiy yodgorlik “Avesto”da: “...Inson o‘z fikri-xayolida ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yaxshi niyatli kishi darg‘azab bo‘lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi, “...chunki haqiqat, adolat egiladi, ammo sinmaydi...” – deb yozilganligi bilan xulosa chiqarishga asos yaratadi.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muxsiniy” asarida insonlarning odamiylik, samimiylik va boshqa go‘zal fazilatlarini egallash bilan birga adolatlilikka chorlagan. “Agar adolat himoya qilinmasa, zaif va kuchsiz odamlar yo‘qolib ketadi. Modomiki, zaiflar qirilib ketar ekan, kuchlilar ham omon qolmaydi, chunki kishilar turmushi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Xullasi kalom, xalqning ahvoli adolatga bog‘liq bo‘lib, usiz yaxshilanmaydi.”

Jamiyat taraqqiyotida kishilarning adolatni qay darajada tushunishlari va uning yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillariga bo‘ysunishlariga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Farzandlarning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma‘naviy mezon va qarashlar odillik va xaqiqatparvarlik, insof, nomus va vijdon, sadoqat va oliyjanoblik, mehr-oqibat, andisha va sharmu–hayo, uyat kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila va mahalla muhitida shakllanadi. Tarbiya oiladan boshlanadi. Ona suti bilan kirgan hislatlar uzoq vaqt, hatto bir umr saqlanib qoladi. Oilada bolani oq ko‘ngil, sofdil ezgulik tarafdori qilib o‘stirish jarayonida u adolatli bo‘lib o‘sadi. Ammo shularga qaramay, oilada bolalarga adolat tuyg‘usini yaxshilik bilan uzviy bog‘liq holda singdirish zarur. Oilada bola yoki o‘smir adolatsizlik ko‘rganida, uni his etganida norozilik bildirish, adolatsizlikni yo‘qotishni talab qilishni o‘rganadi.

Istiqlol bizga ma‘rifiy, madaniy adolatli, insonparvar mustahkam oila va jamiyat qurish imkoniyatlarini yaratib berdi. SHarqning taniqli mutaffakkiri Nasriddin Tusiy ijtimoiy adolatning quyidagi uchta talabi haqida shunday degandilar:

Birinchi talabi aholi turli tabaqalarining o‘zaro uyg‘un bo‘lishini ta‘minlash;

Ikkinchidan, el-ulusning haq-huquqi teng ta‘minlangan holda, kishilarni xizmatga ta‘yinlashda shaxsning salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak;

Uchinchi talabi esa, barchaning teng farovonligini himoya qilib, bu farovonlikni amalga oshirishdagi xizmati va huquqiga qarab har bir inson o‘z ulushini olishga imkon yaratishdan iborat. Demak, bu talablar nafaqat jamiyat, ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va muassasalar miqyosida, balki, oila azolari va mahallalarda ham to‘liq amal qilmog‘i lozim. Masalan, oilada o‘zining dangasa, loqaydligi va qaysarligi bilan tug‘ishganlari ustidan xukmron bo‘lmoqchi bo‘lgan

farzandni ota-ona adolat yuzasidan tanobini tortib qo'yishi kerak. O'zini tuta bilish, axloq–odobi, o'qishi va mehnatining sifati, hatto salomatligini hisobga olib rag'batlantirilsa, to'g'ri so'z, halol, vijdonning pokligini e'tiborga olish oilada adolatparvar inson tarbiyalashning muhim omillaridan hisoblanadi. Ota-onaning farzandlarni, farzandlar esa ota-onani chin dildan qadrlay bilishlari, o'zaro hurmat va izzat-ikromda bo'lishlari, bir-birlarining taqdirlariga befarq bo'lmasliklari, oila manfaati uchun mardlik va jonkuyarlik bilan yondashuvlari haqiqiy ma'naviy sog'lomlik va adolatparvarlikni anglatadi.

Rahbar adolati va etakchilik mas'uliyati, avvalo, uning har tomonlama salohiyatiga, tashabbuskorligiga, tadbirkorligiga asoslanishi zarur. Milliy ma'naviyatimizning qadim udumiga ko'ra rahbarning, yurt boshqaruvchining eng asosiy fazilati – adolat sanalgan. Bugun ham shunday. Ammo bugungi davrimizda adolat tushunchasi ilgari tasavvurlardan ancha farq qiladi. Bugun voqean adolatli bo'lish uchun bir guruh insonlar jamoasini boshqarib borishni zimmasiga olgan odamdan ko'p narsa talab etiladi. Rahbarlik mahorati va qobiliyatida katta mazmun bor. To'g'ri reja tuza bilish tez qaror qabul qilish, ishni vaqtida puxta bajara bilish hamda malakali mutaxasislarni tanlash va adolat doirasida ularga qulay sharoit yaratishni tashkillashtirish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

Rahbar aqlli va bilimli bo'laolsagina, odob, axloq, qoidalariga rioya qila olsa, o'z burchini odillik, halollik bilan bajara olsa, ma'suliyatini anglab, o'zaro kengash bilan faoliyat yurgizsa shundagina jamiyat istiqbolli bo'ladi. Ilk o'rta asrning buyuk mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiyning fikricha o'zida 12 tug'ma hislatni birlashtirgan kishilargina aqlli hisoblanar ekan. SHulardan ikkitasi adolatga taaluqlidir. Aqlli inson o'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, o'z odamlari va boshqalarga adolatli bo'lish, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targ'ib etadigan, adolatsiz oqibatlarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lishi kerak. Har bir odam adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsani amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasinlik ierak.

Albatta, mamlakatimizda ham bu illatga qarshi keskin kurashish choralari ko'rilmogda. Tadqiqotlar biror-bir illatga barham berishda eng samarali vosita illatning o'zi bilan emas, balki sababi bilan kurashish ekanini ko'rsatmogda. Qaerda poraxo'rlik avj olsa, o'sha erda adolat ham, vijdon ham oyoq osti bo'ladi. CHunki poraxo'r o'z vijdonini sotib, yomon odamni yaxshi deb maqtaydi va yaxshini qoralab jazolaydi. Poraxo'r ta'magirlar olimni, rahbari, ishchimi, kim bo'lishidan qat'iy nazar, xalq boshiga bitgan balodir. Hayot o'z yo'lida davom etaveradi. Rahbarlar kelib ketadi, el xalq qoladi. Lekin, ana shu rahbar xalq ko'nglidan o'ziga joy topa oladimi, esda qoladigan biron hayrli ish qildimi? Odamlarning boshini qovushtirib, o'zi ibrat bo'lib, ularni ulug'vor vazifalarni bajarishga safarbar eta oldimi? Har bir rahbar bu haqda doimo o'ylashi, o'ziga o'zi savol berib ko'rishi kerak.

Adolatparvar rahbarning ahloqiy hislatlari bemaolol qonun o‘rnini bosa oladi. Barcha bo‘g‘inlarda adolatli, insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbarlar etakchilikni o‘zining qo‘liga olmas ekan, davlatimizning mavqei, davlat manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan fidoiysi bo‘lib shakllanmas ekan ishlarimiz odatdagiday ketmaydi. Qolaversa, adolat va qonun ustuvorligi uchun uning talablarini hayotimizga joriy etish uchun birgalashib kurashmog‘imiz fidoiysi bo‘lmog‘imiz kerak. Adolat va qonun kattayu kichik, jinsidan, millati, etiqodi va mansabidan qat‘iy nazar, barchamiz uchun ustuvor bo‘lmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 5.
2. Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. (Форс тилида). ЎЗР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. Инв№ 3020 “Адолат” боби. 51-52 саҳифалар.
3. http://www.adolatgzt.uz/news_latest/glavnaya-novosty/4228
4. <http://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/GLOSSARIJ-4.pdf>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Adolat>
6. <https://xs.uz/uzkr/post/korrupsiya-va-millij-taraqqiyot-muammo-va-yechim>

O‘ZBEK XALQ MUSIQALARI ORQALI O‘QUVCHILARNING BADIY DIDINI SHAKLLANTIRISH

Samatova Dilnoza Salaidinovna,

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institut San‘atshunoslik fakulteti “Musiq
ta’limi” kafedrasida katta o‘qituvchisi,*

Xo‘jamurodova Kubarro Nematillayevna

Urgut tuman 37-umumta’lim maktab musiqta’limi o‘qituvchisi

San‘at – o‘z mohiyati va ijtimoiy mazmuniga ko‘ra har qanday milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida muayyan davlat, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti darajasini belgilovchi eng muhim va ustuvor mezonlardan biridir [1]. San‘at estetik tarbiyaning bitmas-tuganmas manbaidir, chunki, u o‘zida to‘laligicha va bevosita estetik olam, inson qalbi va aqlining cheksiz kuch bilan zabt etuvchi maftunkor dunyodir.

Musiqaning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, unda haykaltaroshlik va rassomchilikka xos bo‘lgan predmet tasviri yoki nasr va nazmga xos “portretlar” mavjud emas. Musiqada insonning turfa his-tuyg‘ulari, kechinmalari, ruhiyati ifoda etiladi. Darslarni qiziqarli va to‘g‘ri tashkil qilish bilan birga o‘quvchilarning qiziqishlarini nazarda tutish muhim pedagogik omillardan sanaladi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarni qiziqtiradigan, jalb etadigan, rag‘batlantiradigan vaziyatni yaratish, ularda estetik hissiyotni o‘stirishning eng zarur shartidir. Baholanki, o‘quvchilardagi hissiyot, tuyg‘u o‘zlariga tanish bo‘lgan kuy va qo‘shiqlarni bevosita o‘zlari ijro etganlarida sodir bo‘ladi. O‘quvchilarda sodir bo‘layotgan his-hayajonlarni ongli bo‘lishiga harakat qilish, ularni mustaqil

fikrlashga, baholashga o'rgatish va buning uchun mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanish asosiy omil bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida amalga oshiriladigan keng ko'lamdagi ta'lim-tarbiya ishlarida o'quvchilarni musiqiy-estetik madaniyatni, estetik hissiyot, ko'nikmalari qatori badiiy didini tarbiyalab borish ham alohida o'rin tutadi.

Estetik madaniyat tushunchasiga estetik ong, badiiy did va estetik didning turli faoliyatlar jarayonida namoyon bo'ladigan estetik holatlar va tarbiya kiradi. Insonning estetik madaniyatini – bu estetik ong tafakkur, dunyoqarash, yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlar majmuini ifoda etadi. Shunday ekan u doimo emotsional his-tuyg'u tarbiyasi bilan, estetik tushuncha, estetik did, estetik ehtiyoj tarbiyasi bilan bog'liq holda rivojlanadi.

Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning badiiy didini va musiqiy idrok etish malakalarini shakllantirish va boshqa har qanday tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish kabi uzoq muddatli tizimlashtirilgan va aniq rejaga asoslangan pedagogik faoliyatni talab etadi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-badiiy, estetik didini ma'lum bir mezonlarga mos darajada shakllangan, badiiy-estetik tasavvur, dunyoqarash, fikrlash, baholay olishning yaqqol bir namunasi sifatida tasavvur qilish qiyin va bunday baholash noto'g'ridir. Bu yoshdagi bolalarning musiqiy idrok, tafakkur va badiiy-estetik didi hali unchalik asosli fikr yuritish darajasida bo'lmaydi.

O'quvchilar maktabga turli darajadagi musiqiy tayyorgarlik bilan keladilar. Shu tufayli hali ularning musiqiy eshituvi, tinglash va kuylash ko'nikma va malakalarini barqaror tenglashgan darajaga olib kelish o'qituvchilardan anchagina mehnat va sayi-harakatni talab etadi. Bu jarayonda o'quvchilar musiqiy-estetik didlari hali mavhum darajada bo'ladi. Ularga berilgan birinchi savollardanoq bunga ishonch hosil qilish mumkin. Masalan, o'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqishi va munosabatini aniqlash maqsadidagi "Sen qanday (qaysi) qo'shiqni yaxshi ko'rasan?", "Vatan haqidagi qanday qo'shiqlarni bilasan?", "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasini kim yozgan?", "Qaysi o'zbek xalq kuylarini nomini bilasan?" kabi savollarga javob olish qiyin bo'ladi. Uchinchi, to'rtinchi sinflarda o'quvchilar kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlarni bu qo'shiq yoki kuy qaysi janrga mansubligini, u kim tomonidan yaratilganligi, g'oyaviy-badiiy mazmuni, xalq musiqasi yoki kompazitor ijod mahsuli ekanligini, bastakor ijodining ayrim jihatlari haqida ham so'zlab bera oladigan bo'ladilar.

Har bir o'quvchi har kuni turfa musiqiy ohanglar ta'sirida bo'ladi. Hayotning har bir lahzasida turli tuman janr va uslublardagi qo'shiqlarga duch keladi. Ammo ularning ma'lum qismigina ko'pchilikning tiliga tushgan va yaxshi qo'shiq(san'at) sifatida tan olingan, ommaviylashgan bo'ladi. Yoki aksincha, ayrim katta yoshdagi bolalar, o'spirinlar, talabalar tomonidan telefonga tushirilgan, disklarga yozib olingan, chet el xalqlariga tegishli, ularga taqlid qilib yaratilgan, saviyasi past musiqalar, kliplar ham yosh bola ongida o'zining izini qoldirishi mumkin. Bu o'rinda musiqa darslari jarayonida o'quvchilarga birinchi navbatta milliy musiqamiz, yuksak ijod namunalari, qardosh va chet ellarning ham eng sara, mumtoz asarlari haqidagi suhbat, hikoya, tushuntirishlarga keng o'rin berish

musiqa o'qituvchilari oldidagi dolzarb vazifalar sanalmog'i lozim. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga repertuar tanlaganda manashu jihatlarni yoddan chiqarmasligi kerak bo'ladi.

Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni badiiy didini shakllantirishda musiqa darslari katta imkoniyatlarga ega. Zero, xalq qo'shiqlari xalqning ezgu niyatlari, orzu istaklari va ichki tuyg'ulari, uning urf-odatlari va an'analari bilan bevosita bog'langandir [4].

Taniqli musiqa nazariyotchisi va tanqidchisi B.A Katayev shunday deb yozgan edi: "Musiqa ijodida va idrokida intellektual asosni qaror toptirishdan hech qachon voz kechmaslik kerak. Musiqa tinglar ekanmiz u yoki bu holatlarni his etib, boshdan kechiribgina qolmasdan, balki idrok qilinib kelinayotgan materialni farqlaymiz, tanlaymiz, baholaymiz, binobarin fikr yuritamiz" [2].

O'quvchi-yoshlarda badiiy idrokni, estetik didlarni tarbiyalash, badiiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo aqliy va axloqiy tarbiya bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Hozirgi kunda musiqa madaniyati fanini o'qitish jarayonida musiqaviy ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos vazifalari bilan bir qatorda ancha murakkab vazifalarni ham bajarishga to'g'ri keladi. Chunki maktabdagi musiqa tarbiyasi ko'pkina faoliyatlar majmuasidan tashkil topadi. Bular: musiqa darsi, sinfdan tashqari to'garaklar, musiqiy ommaviy tadbirlar, maktabdan tashqari ish olib boruvchi turli turli badiiy jamoalar, musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, musiqiy-estetik tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari bugungi kunda yoshlarni badiiy-estetik tarbiyasiga ommaviy axborot vositalari, radio, televideniyaning ham ta'siri oshib bormoqda. Tarbiyalovchi va uni amalga bajaruvchi vositalarning barchasi umumiy holda musiqiy-estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda o'quvchilarning musiqa sohasidagi qiziqish va ehtiyojlari doirasi yanada kengayadi, shakllanadi, estetik didlari o'sadi.

Har bir san'atni tushunish va to'la idrok etish uchun kishi ma'lum badiiy va umumiy kamolot darajasiga erishgan bo'lmog'i lozim. Mana shu kamolot darjasi uning badiiy-estetik kamoloti darajasini ham belgilovchi asosiy omil sanaladi. Shuning uchun ham donishmandar iborasi bilan aytganda "San'atdan zavqlanish uni his qilish uchun badiiy jihatdan didli bo'lish lozim, aks holda musiqa asarini tinglashga ko'nikmagan quloq uchun eng go'zal musiqa ham ma'nisiz narsa bo'lib qoladi". Ushbu fikrda ham musiqiy-estetik va badiiy didni ahamiyati beqiyos ekanligi keltirilgan.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva O. San'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muammolarining yechimi qanday bo'ladi // <https://uza.uz/oz/society/sanat-y-nalishidagi-oliy-talim-muammolarining-echimi-anday-b-01-06-2020>.

2. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat.-T.: O'qituvchi, 1992y.

Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996y.

3. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash (monografiya)-T.: Fan, 2009y,164b.

4. Umarov E, Estetika asoslari. – T.: -Sharq, 2004 yil, 45-be

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI-PEDAGOGNING O'RNI

Suvanqulov Umidjon Iloxomovich,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedراس
o'qituvchisi mironshohsuvoankulov@gmail.com. tel:+998945342345

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyachi-pedagogning o'rni haqida umumiy ma'lumot yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. ta'lim tizimi, TMM, jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tarbiya.
Роль воспитателя в развитии речевой деятельности дошкольников

Аннотация. В данной научной статье освещены общие сведения о роли воспитателя в развитии речевой деятельности детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: система образования, TMM, физическое, умственное, нравственное, эстетическое воспитание. The role of the educator in the development of speech activity of preschool children.

Abstract: In this scientific article, general information about the role of the educator in the development of speech activity of children of preschool age is highlighted.

Key words: educational system, physical, mental, moral, aesthetic education.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'tarilgan ulug'vor vazifalaridan biridir. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash, erta yoshlikdan o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qishga tayyorlab borishdan iborat. TMM ning asosiy maqsadi bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash barkamol rivojlangan mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish va qobiliyatlarni ochib berish tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bundan tashqari Prezidentimiz bu haqda shunday degan edi: «Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat»

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek, maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bumaqsad esa, bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog'chada og'zaki nutqni o'stirish natijasida bola aqlan rivojlanib, uning umumiy madaniy saviyasi oshadi.

U tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi. Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira,

tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o‘tib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo‘lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo‘ladi va takomillashadi.

Nutq o‘stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920 yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi, so‘ng mustaqil fan sifatida shakllandi.

Nutq o‘stirish metodikasi pedagogik fan sifatida maktabgacha ta’limda bolalar nutqini o‘stirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan “Ilk qadam” tayanch dasturini o‘quv jarayoniga joriy etish, nutq o‘stirish metodikasi bo‘yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta’minlaydi, nutq o‘stirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo‘llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o‘rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o‘zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to‘g‘ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so‘z) nutq meyyorlarini ishiga mos holda o‘rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi.

Demak, nutq o‘stirish metodikasi fani maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish vazifasini amalga oshiradi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to‘g‘ri gapirishga (so‘zlashishga) o‘rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola meyoriy holatda rivojlanadi, ya’ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo‘ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi. Ko‘pgina tajribalar shuni ko‘rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to‘liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko‘maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o‘rgatish bilan bir vaqtda, uni maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o‘rgatiladi. Bolalar bog‘chasining barcha tarbiyaviy-ta’limiy ishlarida bolalarga ona tilini o‘rgatish orqali ularning nutqi o‘stiriladi. Ayniqsa, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida har bir bolaning nutqini o‘stirish bo‘yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg‘ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi.

So‘z boyligi barcha mashg‘ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o‘zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo‘l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin hayotga tatbiq etishga ham o‘rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbai va vositasi hamdir.

Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg‘ularni o‘stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir. Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatleri va belgilarini, xususiyatlarini, o‘xshash va farqli tomonlarini aytishga o‘rganadi.

Ona tili orqali bolalar o‘z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, san‘at bilan tanishadilar.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini o‘stirishga doir mashg‘ulotlarni didaktik o‘yinlar, ermak o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari shaklida o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Ular nafaqat ko‘ngilochar tusga, albatta, ta‘lim tusiga ega bo‘lishi lozim, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini o‘stirishemotsional tusga ega bo‘lishi lozim. Bunda ko‘rgazmaviylik, o‘yin usullari va didaktik o‘yinlarni keng qo‘llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini o‘stirishga doir mashg‘ulotlar muayyan vazifaga ega -ya'ni, u bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Mashg‘ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo‘lish, pedagog topshirig‘ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr yurita bilish, tengdoshining javobiga baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi. Shunday qilib, ona tili maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ruhiy jihatdan ostirishda, ularning madaniy saviyasini oshirishda, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib olishlarida, maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun zamin yaratishda, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o‘rgatishda, aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, dunyoni, borliqni bilib olishda, xalqimiz madaniy merosini o‘rganishlarida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. - 2022. - T. 2. - №. 2. - C. 231-235.

2. Ergasheva G. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - T. 5. - №. 5.

3. Ergasheva G. B. ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA INNOVATION PEDAGOGIKA

4. Babayeva D.R. "Nutq o‘stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O‘quv qo‘llanma

BIOLOGIYA DARSLARDA PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Xudoyberdiyeva Gulandom Muminkulovna,
Urgut tuman 5-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada PISA testlarini qay tartibda tuzish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qay darajada qo‘llay olish qobiliyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit soʻzlar: Metod, bilim, koʻnikma, malaka, PISA, dastur, kompyuter, integrallashgan, innovatsion, kompetensiya.

Аннотация. В этой статье обсуждается порядок, в котором разрабатываются тесты PISA, и степень, в которой знания, навыки и способности учащихся могут быть применены в хирургии.

Ключевые слова: Метод, знания, навыки, квалификация, PISA, программное обеспечение, компьютер, интегрированный, инновационный, компетенция.

Annotation. This article discusses the order in which PISA tests are designed, and the extent to which students' knowledge, skills, and abilities can be applied to surgery.

Key words: Method, knowledge, skills, qualifications, PISA, software, computer, integrated, innovative, competence

Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq taʼlimini boshqarish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Oʻzbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda oʻquvchilarni baholash dasturi reytingi boʻyicha jahonning birinchi 30 ta ilgʻor mamlakati qatoriga kirishishga erishdi.

PISA (inglizcha-Programme for International Student) turli davlatlarda 15 yoshli oʻquvchilarning savodxonligini (oʻqish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qoʻllash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba oʻtkaziladi. Dastlab 1997 yilda ishlab chiqilgan va 2000 yilda birinchi marta qoʻllanilgan.

PISA testlari 5 ta yoʻnalish boʻyicha oʻtkaziladi: oʻqish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiiy fanlar, hamkorlikda muommolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yoʻnalishlari. Oʻzbekiston respublikasi 2021 yilda uch yoʻnalish: oʻqish, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiiy fanlar yoʻnalishlari boʻyicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

Testlarda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning mazkur yoʻnalishlar boʻyicha; Eng asosiy tushunchalarni bilish, bazaviy bilim va koʻnikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi. Xoʻsh PISA dasturining maqsadi nima, u qanday va PISA savollari qanday prinsipga asoslangan holda tuziladi?

XXI asr information texnologiyalar asri. Bu asr oʻz mutaxassislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. PISA testlari xuddi shu oʻzgarishlarni taʼlim tizimida aks ettirishi, maktab oʻquvchilarining haqiqiy hayotda kerak boʻladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish koʻnikmalarini qay darajada egallayotganligini, taʼlim tizimining bu oʻzgarishlarga qanchalik moslashayotganini bilib olishdir.

PISA topshiriqlari kompyuterda bajariladi. Test topshiriqlari tayyor javobli boʻlib, ulardan toʻgʻrisi tanlanadi. Shuningdek javobsiz testlar ham boʻladi. Bularga

o'quvchi to'liq yoki qisqa javob berishi so'raladi. Ayrim test topshiriqlari bitta hayotiy vaziyatga oid, biroq turli qiyinlik darajasidagi test savollaridan iborat bo'ladi.

1-PISA topshirig'i. Tinch holatda odam bir marta nafas olganda va nafas chiqarganda 500 ml havo oladi va shuncha havo chiqaradi. Odam chuqur nafas olganda va chiqarganida 1500 ml havo oladi va chiqaradi.

a) O'pkaning tiriklik sig'imi qanday hisoblanadi.

b) O'pkaning tiriklik sig'imi qaysi asbob bilan o'lchanadi.

d) Odam tinch holatda 1 minut davomida 8-9 litr havo olib shuncha havo chiqaradi. U 1 sutka davomida necha litr havo olib, necha litr havo chiqaradi.

s) Nafas olinganda o'pkaga o'tadigan havo tarkibida qaysi kimyoviy elementlar uchraydi?

2-PISA topshirig'ining yechimi

a) nafas havosi + qo'shimcha havo + zaxiradagi havo = o'pkaning tiriklik sigi'mi

$$500\text{ml} + 1500\text{ml} + 1500\text{ml} = 3500\text{ml}$$

Javob: 3500 ml O'pkaning tiriklik sig'imi.

b) O'pkaning tiriklik sig'imi spirometr yordamida o'lchanadi.

d) 1 min- 8-9 litr; 1 sutka – 24 soat; 1 soat – 60 minut; $24 * 60 = 1440$ min

$$1440 \text{ minut} * 9 \text{ litr} = 12960 \text{ litr}$$

Javob: 1 sutkada 12960 litr havo olib, chiqaradi.

s) kislorod-O, azot-N, karbonat anhidrid-CO₂, inert gazlar va suv bug'lari

2-PISA topshirig'i. Og'iz bo'shlig'ida yashovchi bakteriyalar tishlar kariesining sababchisi sanaladi. XVIII asrdan boshlab shakarqamishdan shakar ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan karies muammoga aylandi. Hozirgi kunda karies haqida ko'p narsa bilamiz.

Masalan: • Kariesning sababchisi bo'lgan bakteriyalar shakar bilan oziqlanadi.

• Shakar kislotaga aylanadi.

• Kislotatishlarning ustki qoplarni zararlaydi.

• Tishlarni yuvish kariesning oldini oladi.

1-savol: Tishlar kariesida bakteriyalar qanday ahamiyatga ega?

Bakteriyalar emal ishlab chiqaradi

Bakteriyalar shakar ishlab chiqaradi

Bakteriyalar minerallar ishlab chiqaradi

Bakteriyalar kislota ishlab chiqaradi Javob: D

Ba'zi mamlakatda bir nafar odamga to'g'ri keladigan karies bilan kasallangan tishlarining o'rtacha soni ancha yuqoridir. Bu mamlakatda karies bilan bog'liq muammolarga ilmiy tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan quyida keltirilgan savollarga javob topish mumkinmi? Har bir savolda "Ha" yoki "Yo'q"ni doiraga oling.

2-savol: Karies bilan bog'liq muammolar bo'yicha quyida keltirilgan savollarga ilmiy tadqiqotlar o'tkazish orqali javob topish mumkinmi?

Ha yoki Yo'q

Vodoprovod suvi gaftor qo'shish tishlar kariesi muammosiga ta'siri r ko'rsatadimi?

Ha/Yo‘q

Tish doktori qabulida bo‘lish pullik bo‘lishi kerakmi? Ha/Yo‘q

Xulosa qilib aytganda, PISA topshiriqlari o‘quvchining bilimni emas balki, ularning egallagan bilim va ko‘nikmalarini duch kelgan vaziyatlarda qo‘llay olishini, fikrlashini baholaydigan sistema hisonblanadi. Bundan tashqari PISA topshiriqlarida tabiiy fanlar uyg‘unligini, ularning o‘zaro bog‘liqligini, integrallashganini ko‘rish mumkin. Shu kabi innovatsion texnologiyalardan dars jarayonlarida foydalanish o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalar yanada rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Mavlonov O. Tilavov T, Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi). Davlat ilmiy nashriyoti. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. Toshkent, 2019-y.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Шарипова Гулрухсор Нуркабиловна,
ИППРСДОО, д.ф.п.н. (PhD), доцент

Аннотация. В данной статье анализируется значение организации социального сотрудничества в дошкольном образовании, эффективные механизмы установления связей между организацией дошкольного образования, семьей воспитанников и местным сообществом.

Ключевые слова: дошкольное образование, ребенок, семья, развитие, сотрудничество, эффективность, качество, контекст.

Annotation. This article analyzes the importance of organizing social cooperation in preschool education, effective mechanisms for establishing connections between the organization of preschool education, the family of pupils and the local community.

Key words: preschool education, child, family, development, cooperation, efficiency, quality, context.

В теоретическом анализе роли социального сотрудничества в дошкольном образовании важно осмыслить его многогранное влияние на развитие детей, образовательную систему и общество в целом. Социальное сотрудничество в данном контексте выступает как фундаментальный механизм, который способствует интеграции образовательного процесса с социальной средой и культурным контекстом, укрепляя взаимосвязи между дошкольными учреждениями, семьями воспитанников и местным сообществом.

Теоретические основы социального сотрудничества

Изучение социального сотрудничества в рамках дошкольного образования опирается на ряд теоретических подходов, включая социокультурный, которые подчеркивают важность социального контекста в процессе обучения и развития. Согласно В.В. Давыдову и Л.С. Выготскому, обучение в дошкольном возрасте наиболее эффективно в контексте социального взаимодействия, когда дети учатся в процессе совместной деятельности и через социальный опыт. Это подчеркивает значимость социального сотрудничества как средства активизации обучающего и развивающего потенциала образовательной среды. В современной научной литературе социальное сотрудничество признается одним из ключевых факторов, влияющих на качество и эффективность дошкольного образования. Теоретические основы социального сотрудничества в контексте дошкольного образования охватывают широкий спектр подходов, среди которых особое место занимает социокультурный подход, разработанный на основе идей В.В. Давыдова и Л.С. Выготского. Эти теоретические рамки подчеркивают значимость социального контекста и взаимодействия в процессе обучения и развития ребенка.

Социокультурный подход выделяет важность культурного и социального контекстов в процессе обучения, подчеркивая, что познавательное развитие детей дошкольного возраста наиболее эффективно происходит через совместную деятельность и социальный опыт. В контексте этого подхода, знание рассматривается как социально конструированный продукт, который передается и трансформируется в процессе взаимодействия между участниками образовательного процесса.

Л.С. Выготский утверждал, что высшие психические функции ребенка развиваются из социальных взаимодействий, прежде чем стать внутренними психологическими процессами. В этом контексте, социальное сотрудничество не только стимулирует когнитивное развитие детей, но и способствует формированию их социальных навыков, включая способность к коммуникации, эмпатию и способность к сотрудничеству.

Социальное сотрудничество, таким образом, является критически важным для активизации обучающего и развивающего потенциала образовательной среды. Через совместную деятельность и обмен знаниями между детьми, родителями и педагогами создается богатая обучающая среда, где дети могут экспериментировать, исследовать и учиться в контексте значимых для них социальных взаимодействий.

Для интеграции теоретических принципов социального сотрудничества в практику дошкольного образования требуется разработка и реализация конкретных методик и стратегий, которые учитывают важность социального контекста и активно вовлекают всех участников образовательного процесса. Это включает в себя разработку совместных образовательных проектов, организацию групповых занятий и мероприятий, а также создание условий для непрерывного диалога между семьей и образовательным учреждением.

Таким образом, социокультурный подход и акцент на значимости социального взаимодействия и сотрудничества в дошкольном образовании открывают новые перспективы для развития образовательных систем, направленных на всестороннее развитие личности ребенка. Внедрение принципов социального сотрудничества в образовательную практику способствует созданию поддерживающей и стимулирующей обучающей среды, где каждый ребенок может достичь своего максимального потенциала.

Социальное сотрудничество играет ключевую роль в реализации инклюзивного образования, предоставляя возможности для адаптации образовательного процесса к индивидуальным особенностям и потребностям каждого ребенка. Через взаимодействие с семьями и сообществом, дошкольные учреждения способны создавать поддерживающую и стимулирующую среду для всестороннего развития детей, включая социальную, эмоциональную, когнитивную и физическую сферы. Социальное сотрудничество, занимающее центральное место в современных образовательных парадигмах, выступает как основополагающий элемент в реализации инклюзивного образования. Это сотрудничество представляет собой сложный процесс взаимодействия между образовательными учреждениями, семьями воспитанников и широким сообществом, направленный на создание условий для адаптации образовательного процесса к индивидуальным особенностям и потребностям каждого ребенка. Важность такого подхода особенно актуальна в контексте дошкольного образования, где заложены фундаментальные основы для дальнейшего развития личности.

Список использованной литературы:

1. Bueva I. Sotsialnoe partnerstvo: detskiy sad i dopolnitelnoe obrazovaniye // Doshkolnoe vospitanie. - 2008.
2. Guslyakova I. Sotsialnoe partnerstva i sotsialnaya rabota: noviye vozmojnosti podderjki naseleniya/ Obrazovanie i sotsialnoe razvitie regiona. 2003.
3. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika // O'quv qo'llanma. – T.2014.
4. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika/ O'quv qo'llanma. – T.2013.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Rasulova Sanobar,

Qashqadaryo VPYMO'MM "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedراسi katta o'qituvchisi

Bekzod Mamatov,

Qashqadaryo VPYMO'MM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedراسi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda kreativlikka xos xususiyatlar haqidagi mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik.

Аннотация. В данной тезисе рассматривается формирование творческого мышления учащихся младших классов и особенности творчества.

Ключевые слова: Креативность, критическое мышление, креативность, инициатива.

Abstract This article discusses the formation of creative thinking ability of elementary school students and the characteristics of creativity.

Key words: Creativity, critical thinking, creativity, initiative.

Hozirgi paytda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

Kreativ bo'lish mohiyatni yorqin ranglarda ko'rish va ko'rsata bilish demakdir.

Kreativlikka xos xususiyatlar: ijodkorlik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, iqtidorini namoyish etish qobiliyati.

Bola shaxsi shakllanishida boshlang'ich sinf davri eng muhim davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ishonuvchan, tashqi ta'sirga beriluvchan bo'ladilar. Ularda ijobiy hissiyotlar, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloqiy me'yorlarni shakllantirishda asosiy mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi.

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda.

Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin. O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonini interfaol metodlar va axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchining egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganishga va fikrlashga, tahlil qilishga, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda bolani rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Kreativ fikrlash — bu qimmatli va asl g'oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo'nalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda «kundalik» ijodkorlik (kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish) bilan shug'ullanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki san'at bilan bog'liq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarda funktsional bo'lgan vazifalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Hozirgi globallashuv sharoiti, istaymizmi-yo'qmi, bizning ishlash va yashash tarzimizni o'zgartirmoqda. Birinchidan, biz globallashish, ifloslanish, moliyaviy inqirozlar yoki yangi epidemiyalar bo'ladimi, butun dunyoga ta'sir qiladigan murakkab muammolarga tobora ko'proq duch kelmoqdamiz. Ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish uchun bizga ijobiy fikrlash va ijodiy g'oyalar kerak.

Shaxsiy darajada globallashuv hayotning tobora tezlashib borayotgan sur'atini keltirib chiqaradi. Bizda juda ko'p ma'lumot mavjud, ammo bugun o'rgangan narsalarimiz ertaga osonlikcha eskirishi mumkin. Garchi tez o'zgarishlar ham yangi imkoniyatlar keltirsa-da, endi biz butun dunyo bo'ylab iste'dodli odamlar bilan raqobatlashishimiz kerak.

Bizga muvaffaqiyat qozonish uchun ishonchli qarorlar qabul qilishga va tezda yangi bilimlarni olishga yordam beradigan ijobiy fikrlash qobiliyatlari kerak.

Tanqidiy fikrlash va ijodkorlik. Tanqidiy fikrlash aniq va oqilona fikrlashdir. Bu aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiq va ilmiy fikrlash qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ijodga kelsak, bu yangi va foydali g'oyalarni taklif qilish, muqobil imkoniyatlarni yaratishdir. Muammolarni hal qilish uchun g'oyalarni taklif qilish uchun bizga ijodkorlik kerak, ammo bu g'oyalarni baholash va takomillashtirish uchun tanqidiy fikrlash kerak. Ular bir-birini to'ldiradi va insonlarni fikrlash qobiliyatini mukammallik sari yetaklaydi.

Atrofga boqsangiz har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchakli tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli.

Bugun biz uchun odatiylik kasb etayotgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgani, aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. G'ildirakni kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotining ajralmas bo'lagiga aylangan. Har bir sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Olim, muhandis, professor-o'qituvchi, shoir, yozuvchi, rassom, aktyor, me'mor, muharrir, dizaynerlarga emas, hatto bajaruvchilikka asoslangan kichik mutaxassislariga ham ijodkorlik zarurati seziladi.

Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqarish kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning mazkur qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni to'g'ri tushunib, to'g'ri yetkazib bera olishga, nari borsa, berilgan bir necha axborotlarni umumlashtirib, xulosa chiqarib olishga yo'naltirilgan.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab «kreativlik» tushunchasining mazmunini aniqlash talab etiladi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan qaray olishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereo tiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir.

Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatik qoidalarni «suv qilib ichib» yuborgan bo'lsangiz ham, insho yarata olmasangiz, barchasi samarasizdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo inson fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishi lozim.

Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yarata oladi. Eng ajablanarli jihati ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil qolipda fikrlashga o'rgatib qo'yar ekan.

Hatto mashhur ixtirochi va kashfiyotchi olimlarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nika olmaganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Albert Eyshteynning maktabdan haydalihi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan «uch» olishi bunga misol bo'la oladi.

Kreativlik XXI asrda eng qadrlanadigan o'rganish qobiliyatlaridan biridir. Samarali va yuqori darajadagi ta'limga erishish uchun kreativlikni rivojlantirish muhim deb hisoblanadi. Uni o'rganishga turli xil yondashuvlar sifatida kreativlikning natija, jarayon va tajriba ta'siridan kelib chiqadigan qurilma hamda inson tabiatining shaxsiy xususiyati belgilanadi. Ushbu hissaning maqsadi ijodkorlikni o'rganishda yuqorida aytib o'tilgan yondashuvlardan kelib chiqib, bunday konstruksiyani tushunishga erishish uchun tushuntirishdir. Bundan tashqari, asosiy e'tibor o'quv va o'quv jarayonlarida kreativ yondoshuvdan foydalanish va qo'llashning tavsifi, ta'siridan boshlab, ta'lim yondashuvidan ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Nihoyat, adabiyotda topilgan eng muhim yoki tegishli strategiyalarning qisqacha tavsifi beriladi va bu strategiyalarning muammoni hal qilish jarayoniga kiritilishiga urg'u beriladi.

Kreativlik – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativlik yangi va qimmatli g'oyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan murakkab fikrga asoslangan yuqori darajadagi fikrlash qobiliyati sifatida

tushuniladi. Yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari malakali va strategik fikrlash bilan bog'liq bo'lganlardir va bu ko'nikmalar tanqidiy, ijodiy va kognitiv fikrlashni o'z ichiga oladi, shuningdek, chuqur o'rganish deb ham ataladi. Bundan tashqari, bugungi kunda samarali va yuqori darajadagi o'rganishga erishish uchun ijodkorlikni rivojlantirish muhim deb hisoblanadi.

O'quv dasturida kreativlikni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojga qaramasdan, o'qitish va o'qitish modellarini takrorlash tendensiyasi va o'qituvchining ijodkorlikni o'rgatish tartib-qoidalarini izlashda cheklov mavjud bo'lib, bu reproduktiv ta'limning ustunligi bilan o'quvchilarda ijodkorlikni kam rivojlantiradi.

Kreativlik inson rivojlanishiga va uning shaxsiyatiga xosdir. U maktabning birinchi yillaridan boshlab rivojlana boshlaydi va oliy o'quv yurtlarida davom etadi va shaxs ega bo'lgan tajribalar soni va o'qituvchilarning faoliyati unga yordam berishi mumkin bo'lgan darajada ko'payadi. Shu sababli kreativlik o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun muhim kompetensiya bo'lib kelgan. Ushbu kelishuvga javob berish uchun ijodkorlik konsepsiyasi va psixologik konstruksiyasi aniqlandi va keyinchalik bunday maqsadlarga yo'naltirilgan o'qitish va o'qitish strategiyalarini amalga oshirish uchun uning ishtirok etadigan psixologik jarayoni ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Latipova G. O'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari 30-aprel 2023 yil

2. ZIiyodullayeva Z. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni oshirishning ahamiyati <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp257-259>

3. Qarshiyeva D. K. O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2023. – № 2 (449). – С. 500-505.

4. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash 2020 ISBN 978-5-0051-1636-9 Создано в интеллектуальной издательской системе Ridero

5. Rixsiboyev O. Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiyon texnologiyalarning o'rni. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8. uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. 1414 bet.

MTT TARBIYALANUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN TA'LIMY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Raximova Ravshanoy Turdaliyevna,

Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 4-DMTT direktori

Karaeva Maloxat Abduraimovna,

Jizzax viloyati Zarbdor tumani 7-son DMTT direktori

Annotatsiya. Maqolada Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ekologik ta'lim-tarbiya berish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, bola, integratsiya, yondoshuv, muloqot, madaniyat, tarbiya, tabiat, shaxs, ekologiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim berish bu pedagogikada bolalarda atrof olamni yaxshi ko'rish hissi va unga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishdir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirganda ularda estetik, vatanparvarlik, axloqiy tarbiya olish imkoniyatlari ochiladi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish insonning ruhiy olamini o'zgartiradi, ijobiy axloqiy sifatlarini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani bola shaxsi rivojlanayotgan ilk yoshda boshlash kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

Tarbiyachining bolalar bilan ishlashda asosiy urg'u beradigan jihatlariga ta'lim berishda integratsiyalashgan yondoshuv kiradi, ta'lim berishning bu usuli nafaqat ekologik tarbiyani balki har tomonlama barkamol shaxs tarbiyalashga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar, suhbatlar, sayrlar, kuzatuvlar bolaning anglash izlanish faoliyatini oshiradi. Ba'zi tabiat hodisalari sodir bo'lganda pedagoglar boshchiligida kuzatishlar amalga oshirilib, ularning tabiatda paydo bo'lish omillari haqida ma'lumotlar olishlari tasavvurlarini yanada kengaytiradi. Anglash izlanish faoliyatining natijasi o'laroq bolaning mustaqil bilim olish faolligi oshiriladi. Bolalarda jonli va jonsiz tabiatni tashqi belgilari va yashash muhitiga qarab tizimlashtirish va guruhlariga ajratish imkoni mavjud. Ob'ektlarning o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi bolalarda alohida qiziqish uyg'otadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish tabiatda hayvonlar va o'simliklarning insonlarga foydali yoki zararli tomonlarini aniqlash bilan emas,

balki ularning tabiatning bir bo‘lagi sifatida qabul qilish zaruriyati bilan xarakterlanadi. Foydali yoki zararli degan tushunchalardan voz kechish, ularning birgalikda mavjudligi tabiatdagi biologik muvozanatni ushlab turishini anglash lozim. Shuning uchun bolalarda tirik mavjudotlarning o‘ziga xos individual xususiyatlarini ko‘rishga o‘rgatish kerak. Ko‘pincha bolalar ko‘rinishi yoqimsiz bo‘lib ko‘rinadigan o‘simliklar va hayvonlarga zararli deb qaraydilar. Masalan, yomg‘ir chuvalchangi, zaharli zamburug‘lar, kapalaklarning ba‘zi turlari. Bunday holatda bolalar kattalarning yordamida jonzotlar va o‘simliklarning xususiyatlari, ularning zaruriyatini anglashlari lozim. “Zarar berma” prinsipiga amal qilish qoidalarini bolalarga singdirib borish zarur. Qoidalar sayr, kuzatishlar, suhbatlar davomida tushuntirib beriladi. So‘ngra biz bolalarni tabiatdagi barcha ob‘ektlar o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘ra olishga o‘rgatishimiz zarur. Ekologik zanjirlarni tuzishga o‘rgatish, ya‘ni bargdagi zararlangan joylarni ko‘rish, boshqalaridan esa nima uchun bir qismi qolganini anglashlari lozim.

Masalan: Nima deb o‘ylaysiz, barglarga nima bo‘ldi? Yozda ularni hashorat qurti yedi. Zararlimi yoki yo‘q? Bolalar odatda “ha” deb javob berishadi. Yo‘q, siz adashdingiz: yozda ko‘p qushlar jo‘jalarini hashoratlar bilan oziqlantirishadi, jo‘jalar ulg‘ayishi uchun juda ko‘p oziqlanishlari kerak. Demak ular kerakmi? Ularni zararli deyishimiz to‘g‘rimi? Shu tarzda bu qanchalik qiziq jarayon ekanligini bolalarga tushuntirib boramiz: daraxt-barg-hashorat-qush, ozuqa zanjiri, hayot davomiyligi. Shu tarzda ta‘limiy faoliyatda bolalarni tabiat qonuniyatlari bilan tanishtirib boramiz.

Keyingi vazifa – hayotning uzluksizligi to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirish. Buning uchun jonli tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni misol qilish mumkin. Bu esa o‘z navbatida pedagoglardan alohida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlikni talab etadi, bu yerda birgina bilishning o‘zi kamlik qiladi. Shuning uchun o‘simliklar va jonivorlarga g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmalariga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Tabiat insoniyatning umumiy boyligi, unga nisbatan amalga oshirilgan har bir yaxshi yomon ish uchun ham hamma birgalikda javobgar bo‘ladi. Tabiatda xavfsizlik qoidalari ko‘nikmasi uzoq vaqt va ko‘p mehnat evaziga shakllantiriladi. “Uzma”, “bosma”, “payhon qilma” degan inkor tushunchalar bilan bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirib bo‘lmaydi, tarbiya jarayoni bolalar faolligini kerakli yo‘nalishga yo‘naltirish, har bir qoidaning mazmunini ochib tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarga mutaxassislar ba‘zi noyob turlarni qanday qutqarayotganliklari haqida so‘zlab berish lozim. Shu maqsadda botanika bog‘lari, qo‘riqxonalar tashkil etiladi.

Oxirgi vazifa bolalarda hayotning uzluksizligi to‘g‘risida tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun tabiatda fasllar almashishi bilan yuz beradigan o‘zgarishlardan foydalanish mumkin. Qishda parklar, bog‘lar, o‘rmonlarda hayot tugagandek ko‘rinadi. Ayniqsa qishda hayvonlar va o‘simliklar juda tez nobud bo‘ladilar. Bahorda esa ular juda ko‘p miqdorda yana paydo bo‘ladilar. Ular qanday paydo bo‘ldilar? Har safar qaytadan chiqadilarmi? Bolalarga shunday savollar bersa bo‘ladi. O‘simlikni rivojlanishini kuzatish

maqsadida guruhdagi bankaga biror o'simlikni novdasini qo'yamiz. Bolalarga tabiat muhofazasi bo'yicha aniq topshiriqni bergach, qo'yilgan vazifani bajarish maqsadida ularni birgalikda ishlashga jalb qilish ekologik madaniyatni tarbiyalashga hamda tabiat muhofazasida shaxsiy mas'uliyatini oshishiga olib keladi.

Yuqoridagi tilga olingan barcha metodlar va usullar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ularni yanada sinchkovlik bilan kuzatishga, kuzatayotgan narsa ustida chuqurroq o'ylashga, fikr, bilim doirasini kengaytirishga, har xil tabiiy voqea, hodisalarni so'z bilan chiroyli qilib to'g'ri ifodalab berishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi
2. Аксенова П. В заповедном лесу : экологическое воспитание дошкольников // Дошкольное воспитание. - 2009. - N 7. - С. 62-65.
3. Ашиков В. Семицветик - программа культурно-экологического образования дошкольников // Дошкольное воспитание. – 1998. - N 2. - С. 34-39.
4. Виноградова Н. Ф. Дети, взрослые и мир вокруг / Виноградова Н. Ф. - М. : Просвещение, 1993. - 128 с. СОУНБ; ЕФ; Шифр 74.102.1; Авторский знак В 493; Инв. номер 2181601-ЕФ СОУНБ; ЕФ; Инв. номер 2181125-ЕФ.

KREATIVLIK PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Baqoyeva Mubina Ibodilloevna,

Buxoro viloyat PУМО"ММ, "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi Tel: +998934595459

Аннотatsiy. Biz yashayotgan olam kundan –kunga tanib bolmas darajada o'zgaryabti, rivojlanib borayapti. Har bir sohada kun talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Shu jumladan o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchilarga ham ko'plab talablar va masulyat yuklanmoqda. O'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi hamda ularga mos holda bo'lishi darkor.

Аннотация. Мир, в котором мы живем, меняется и развивается до неузнаваемости. В каждой области необходимо работать в соответствии с повседневными потребностями. Кроме того, к педагогам, работающим с подрастающим поколением, предъявляется множество требований и обязанностей. Учитель должен понимать, чем живут современные ученики, и быть с ними в гармонии.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodiy, stimuly, intellektual, ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, yaratuvchanlik, yondashuv, metodlar, kreativ fikirlash.

Ключевые слова: креативность, творчество, стимул, интеллект, беглость, адаптация, оригинальность, гибкость, подход, творческое мышление

Hozirgi paytda jamiyatning maktab oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to‘g‘ri yondashgan holda ularni amalga bajarish o‘qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo‘lishi lozim chunki, u kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma‘naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o‘qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. O‘qituvchining kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma‘lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to‘rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi ko‘p degan so‘zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi o‘zgartirish degan so‘zga asoslanadi.

3. O‘ziga xoslik. Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi noyob degan so‘zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi qo‘shish degan so‘zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topish (o‘ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g‘oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog‘liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko‘nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Bolada ijodkorlikni qanday rivojlantirish kerak?

Ijodiy muhit yarating.

Tanlov erkinligini rag‘batlantirish .

Xatolardan qo‘rqmang.

Qiziqishlarni saqlang

Aqliy hujum.

O‘qing...

Stol o‘yinlarini o‘ynang .

Sayohat

Shuningdek, topishmoq, boshqotirma va mantiqiy masalalarni yechish samarali natija beradi. Bular analitik fikrlashni o‘rgatadi, innovatsion usullarni topishga yordam beradi va o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Fikrlarni yozib boring. Har doim yoningizda bloknot olib boring yoki

g'oyalaringizni ular paydo bo'lganda yozib olish uchun smartfoningizdagi ilovadan foydalaning.

Psixologiyada ijodkorlikni takomillashtirishning ikkita eng mashhur usuli mavjud: "Orzuchi, realist va tanqidchi" va "Olti shapka". Birinchisi amerikalik karikaturachi Uolt Disneyga, ikkinchisi britaniyalik psixolog Edvard de Bonoga tegishli.

"Orzuchi, realist va tanqidchi"

Muayyan muammoni uch xil pozitsiyadan - xayolparast, realist va tanqidchidan hal qilishingiz kerak bo'lgan rolli o'yin. Birinchi holda, siz g'ayratli xayolparastning qiyofasini kiritasiz va eng bema'ni g'oyalarni taklif qilasiz. Ikkinchidan, pragmatist bo'ling, muammoni hal qilish uchun aniq izchil harakatlar rejasini tuzing va bu haqda bir necha bor o'ylab ko'ring. Uchinchidan, siz faol odam kabi mulohaza yuritasiz, tanqidiy fikrlarni hisoblaysiz va taklifdagi xatolarni topasiz. Rollarni bir nechta odamlarga taqsimlash mumkin yoki ularning har birini o'zingiz sinab ko'ring.

Ijodkor arxitektor

Ushbu mashqda siz me'morsiz. Ot so'z turkumidan yodingizga kelgan 10 tasini qog'ozga yozing. Masalan, kivi, qish, bronza va boshqalar. Tasavvuringizni ishga solib, sanab o'tilgan so'zlar yordamida qishloq uyini loyihalashtir uchun analogiya usulidan foydalanib maydonni to'ldirishni boshlang: "kivi" - xonalarga yashil fon rasmi qo'ying, "qish" - hovlida konkida uchish uchun joy ajrating, "temir" - bronza figuralarni xonaga joylashtiring. Shunday qilib, tasavvuringizdan foydalanib haqiqiy uy loyihasini yaratish mumkin.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikirlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

"Kreativlik yuqumli xususiyatga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikirlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikirlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bo'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.

2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. ”Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. – T.: “Fan”, 2005. 5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Raximova Surayyo Saloxiddinovna,

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti “Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasini mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijodkorlikni rivojlantirishning muhim jihatlari, ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarda ijodkorlikni rivojlantirishning zamonaviy usullari namuna sifatida keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Malaka oshirish, ijodkorlik, pedagog, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, zamonaviy yondashuv, talaba, natija, innovatsiya.

Аннотация. В этой статье говорится о важных аспектах и важности развития творческих способностей. Также в качестве примеров представлены современные методы развития творческих способностей студентов в процессе обучения.

Ключевые слова. обучение, творчество, педагог, воспитатель, студент, современный подход, студент, результат, инновация.

Abstract. this article discusses the important aspects and importance of developing creative abilities. Modern methods of developing creative abilities of students in the process of education are also presented as examples.

Key words. Training, creativity, teacher, educator, student, modern approach, student, result, innovation.

Atrofga boqsak har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelishimiz mumkin. Bugungi kundagi ilm-fan yutuqlari, elektron xizmatlar, virtual reallik, to‘rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish...Bularning barchasi inson ongi, tasavvuri, tafakkuri natijasidir. Biz uchun oddiy bo‘lib tuyuladigan kitob, musiqa, ko‘pqavatli baland binolar, samolyot, elektron doskalar qachonlardir orzu va tasavvurda bo‘lgan. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og‘irimizni yengil, uzog‘imizni yaqin qiladi. Qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, bugungi kunda o‘z sohasida samaraga erishish uchun har tomonlama ijodkor mutaxassisga talab ortib bormoqda. Innovatsiyalardan ta’lim jarayonida foydalanishimiz esa, ta’limning yanada samarali hamda mazmunli bo‘lishiga xizmat qiladi. Mehnat bozorida ijodiy

fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning, malaka oshirish jarayonida esa, tinglovchilarning mazkur qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir .

Malaka oshirish jarayonida o'zining bilimi, tajribasiga tayangan holda yuksak mahorat bilan dars berayotgan, mavzu mazmunini yanada yoritish uchun rang-barang ko'rgazmalar hamda tarqatmalar, animasion tarzda tayyorlangan taqdimotidan foydalanayotgan, auditoriyadagi tinglovchilarni o'ziga mahliyo etgan pedagogni tasavvur qilaylik. Bu ko'rinish nafaqat tinglovchiga balki, ijodkorlikni namoyon etuvchi ta'lim jarayonini tashkil etayotgan, unga imkon beradigan metod, usullarni qo'llayotgan pedagog uchun ham yoqimlidir. Bunday pedagog ijodkor bo'lib, tinglovchilarning hurmati va minnatdorchiliklariga sazovor bo'ladi. Pedagog ta'lim jarayonida ijodiy metod, usullardan qancha ko'p foydalansa, o'ziga va o'zining ijodiy imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha ortadi.

Malaka oshirish jarayonida bilamizki, turli hududlardan, turli yosh va tajribaga ega, yoshi, bilim saviyasi, ko'nikma va malakalari, moyilliklari turlicha holda tashrif buyuradilar. Aynan shunday farqlanishlar natijasida bitta mavzu turli toifalar uchun tamomila farqli tarzda tashkil etiladi va keskin farqli ta'limiy natijaga erishiladi. Shuning uchun, har bir pedagog o'z darsini boshlashdan oldin qaysi toifadagi tinglovchilar auditoriyasiga kirayotganligini, mavzuni qanday usulda o'tishini, auditoriyadagi tinglovchilar tajribasini hisobga olgan holda o'tilayotgan mavzuning barcha qirralarini o'ylab dars loyahasini tuzib olishi shart.

Bugungi kun o'qituvchidan har tomonlama ijodkor bo'lishni taqozo etmoqdaki, bu borada malaka oshirish tizimining o'z o'rnini va vazifasi bor. Malaka oshirish jarayonini yuqori darajada sifatli tashkil etish uchun dastlab o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirish, pedagogik texnologiya g'oyalari bilan boyitish, mashg'ulotlarni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ma'ruzachi sifatida faoliyatga innovasion yondasha olish layoqatiga ega pedagoglarning tanlanishiga erishish, ularni zamonaviy talablarga javob bera oladigan metodik adabiyotlar bilan qurollantirish kabi vazifalarni hal etish taqozo etilmoqda.

Tinglovchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularda ijodiy tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo pedagogning o'zi ijodkor shaxs bo'lishi zarur. O'z navbatida ijodkor tarbiyachigina ijodkor tarbiyalanuvchilarni tarbiyalay oladi.

Tinglovchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini, ularning darslardagi faolligini pedagogning qay darajada ta'lim jarayoniga ijodkorlik bilan yondashuvi orqali aniqlash mumkin. Pedagogning qay darajada ijodkor ekanligi ta'lim jarayonini tashkil etishidan aniqlab olinsa, auditoriyada ishtirok etayotgan tinglovchini ham qay darajada ijodkorligini aniqlash mumkin albatta.

Ijodiy tafakkurga ega tinglovchi:

- kurs davomida boshqa tinglovchilarning xayoliga kelmagan loyihalari bilan ishtirok etadi;

- o'zini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi;

- g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi;

- aytayotgan fikrini asoslaydi;

-muammoli vazifalardan zavqlanadi, muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

Ijodkorlik ham boshqa sifatlar kabi birdaniga shakllanib qolmaydi, balki, eng avvalo shu kasbni sevishdan boshlanadi.

Pedagog o'z ijodiy qobiliyatini ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganish orqali shakllantiradi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Pedagogda ijodiy qobiliyatlar va fazilatlar majmui mavjud bo'lib, ular orasida faollik va tashabbus, diqqat va kuzatuvchanlik, fikrlash san'ati, boy tasavvur va sezgi mujassam bo'ladi. Dunyoga kelgan yangi chaqaloq o'zida bir necha xil qobiliyat bilan dunyoga kelar ekan. Demak, har bir inson ijodiy g'oyalarini namoyon qilishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarga ega ekan. Ammo biz bu boradagi imkoniyatlarimizdan to'liq foydalanmas yoki ularni rivojlantirish uchun sharoitga ega bo'lmaymiz. Har bir shaxs o'z qobiliyati va diqqati, layoqati va tafakkuri, iqtidori va ijodi hamda xarakter xususiyatlari ustida ishlasa, ularni to'g'ri yo'naltira olsa, bu nafaqat shaxsning o'zining rivojlanishi uchun, balki jamiyat rivojlanishi uchun ham xizmat qiladi.

Har qanday mutaxassis kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o'zining ijodkorligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to'ldirishi lozim. Bunday tajribalarni tinglovchi oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'zlashtiradi, butun hayot faoliyati davomida esa, o'z ustida mustaqil ishlashi, o'qib o'rganishi, ustozlar faoliyatini kuzatishi, o'z faoliyati doirasidagi qisqa muddatli kurslarga ishtirok etishi orqali boyitib boradi.

Pedagog shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Bularning hammasini umumlashtiruvchi jihat shundaki, tinglovchining o'zi o'zining o'qish, ta'lim va rivojlanish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bo'ladi. Shundagina u o'z kasbiy faoliyati davomida ijodkorligini namoyon eta oladi.

Tinglovchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli topshiriq tinglovchini mustaqil ijodiy izlanishga yo'llaydi. Masalan, loyiha ishi yaratish, biror narsa ixtiro qilish, tajribadan o'tkazish kabilar muammoli topshiriq asosida amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida interfaol ta'lim muhitini yaratadi.

Yoki, tinglovchilar 4-5 kishidan iborat kichik jamoaga bo'lib olinadilar. Topshiriq quyidagicha amalga oshiriladi.

Faoliyat nomi: "Mening tasavvurimda ijodkor pedagog..." deb nomlanadi. 5 daqiqa vaqt ichida tinglovchilar "IJODKORLIK" so'zidagi har bir harfga maktabgacha ta'lim tashkilotining ijodkor pedagogini tavsiflovchi fazilatlarni tanlashi kerak bo'ladi. Jamoalar ijodiy topshiriqni bajarib bo'lganlaridan so'ng, har ikkala guruhdan bittadan ishtirokchi "IJODKORLIK" so'zi asosida yaratgan namunasini o'qiydi.

Masalan, I – izlanuvchan, J – jonkuyar, O – oqila, D – dono, K - komil inson, O – orasta, R – rostgo'y, L – lektor, I – ijodkor, K – kitobxon.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, bugungi kunda mutaxassislikka doir fanlarni bilish bilan birga, albatta ijodkor mutaxassisga talab ortib bormoqda. Shunday ekan, bu vazifani maktabgacha yoshdan boshlab amalga oshirish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharipov Sh. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviylikini ta‘minlash nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori. Avtoref. – T.: 2012.
2. Turdiyeva M. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. Nizomiy nomidagi TDPU. – T.: 2008.
3. Ergashev P., Gozibekova G., Baykunosova G. Tinglovchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning usulbiy jihatlari (uslubiy qo‘llanma). - T.:2013.
4. M.Yuldashev va boshq. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. - T.:2020.

YOSH GANDBOLCHILARNI TARBIYALASHDA TA‘LIM VA MASHG‘ULOTNING UZVIYLIGI

Hotamov M.A.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sport faoliyati kafedراسi o‘qituvchisi.

Maxmutova Sevinch Sharafovna,

*Payariq tumani, Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli 20-umum ta‘lim maktabi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi.
mominxotamov@gmail.comtel.932230032.*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola bo‘lajak gandbolchilarni tarbiyalashda ta‘lim va mashg‘ulotning uzviyligi va ularning musobaqa jarayoniga tayyorlashning psixologik va pedagogik asoslari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Motivatsiya, intellektual salohiyat, ko‘nikma, texnik usul, taktika.

Biz sportchilarni xususan gandbolchilarni psixologik va pedagogik tayyorlash jarayoni haqida mulohaza yuritish ekanmiz, unda eng avvalo gandbolchi shaxsining shakllanishini nazarda tutishimiz kerak. Chunki musobaqadagi g‘alabani, avvalo, sportchi shaxsining g‘alabasi deb tushunish mumkin. Bunga uning ma‘naviyati, intellektual salohiyati, turli xil qiziqishlari, gandbol bilan shug‘ullanish motivatsiyasi, ahloqiy va emotsional-irodaviy harakter hususiyatlari kiradi.

Xozirgi kunda ta‘lim - tarbiyaning aniq vazifasi yoshlarni har tomonlama kamolotga yetgan yuksak madaniyatli hamda jismoniy jihatdan chiniqqan qilib tarbiyalab yetishtirishdan iborat. Shu sababli ham shaxslarni tarbiyalash mustaqillik davrining eng muhim tarkibiy vazifasidir. Yoshlarni har tomonlama tarbiyalab yetishtirishda sportning roli katta.

Jumladan. Gandbolchilarda ko‘nikma va malaka sport tayyorgarligi jarayonida hosil qilinadi. Bunga esa mashqlarni qayta qayta takrorlash orqali erishiladi, takroriylik, o‘z navbatida, butun a‘zo va sistemalar faoliyatiga ta‘sir etadi. Sport tayyorgarligi-bu barcha omil (vosita, tamoyil, sharoit) lardan birgalikda izchil

foydalanish bo'lib, gandbolchining sport muvaffaqiyatlariga erishishdagi tayyorgarligi ta'minlanadi.

Sport tayyorgarligining butun jarayonini shartli ravishda ta'lim va mashg'ulot jarayoniga bo'lish mumkin. Ta'lim deganda shug'ullanuvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarning muayyan sistemasining boshlang'ich bosqichini egallab olishini tushunish kerak. Ta'limning asosiy mazmuni-o'yinning texnik elementlarini, taktikadagi oddiy individual va jamoa harakatlarini egallab olish, harakat malakalarini shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Mashg'ulot – bu olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va takomillashtirishga qaratilgan tayyorgarlikning keyingi bosqichi. Mashg'ulotning asosiy mazmuni – texnik usullarni taktikadagi individual, jamoa harakatlarini takomillashtirishdan, jismoniy, ahloqiy va irodaviy hislatlarni rivojlantirishdan iborat.

Sport mashg'uloti bu boshqarish tamoyili asosida sistemali tarzda sportchilar tayyorlashdir. Ta'lim va mashg'ulotga mahsus tashkil qilingan ko'p yillik yagona pedagogik jarayon deb qarash zarur. Ularni bir-biridan keskin suratda ajratib bo'lmaydi, chunki ta'lim bera turib, mashg'ulot qildiramiz va ayni chog'da mashg'ulot qildirib ta'lim beramiz.

Ta'lim va mashg'ulotni tushuncha sifatida ajratish o'quv-mashg'ulot ishining o'ziga hos vazifalari borligini ravshanroq aniqlash imkonini beradi. Gandbolchi tayyorlashning turli boshqichida ta'lim va mashg'ulotning salmog'i o'zgarib turadi.

Ta'lim va mashg'ulot jarayoni tarbiyaviy harakter kasb etishi darkor. Shunga ko'ra o'quv-mashg'ulot mashg'ulotlariga katta talablar qo'yilmoqda. Mashg'ulotlar shunday tartibda uyushtirilishi kerakki, bu mashg'ulotlar shug'ullanuvchilarni barkamollik yo'lida tarbiyalasin va ularda uzviy ravishda zarur malaka va ko'nikmalarni rivojlantirsh. Ta'lim va mashg'ulot vazifalarining muvaffaqiyatli hal qilinishi eng avvalo murabbiyning shaxsiga bog'liq, chunki u o'quv-mashg'ulot jarayonida markaziy shaxs sifatida gavdalanadi.

Murabbiy maxsus bilimni muntazam ravishda takomillashtirib, o'z g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirib borishi, ilm fan va amaliyotdagi yangi yutuqlardan habardor bo'lishi, ularni gandbolchining ta'lim va mashg'ulot jarayoniga joriy eta bilishi kerak.

Gandbolchilarning ta'lim va mashg'ulot jarayonlarida quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- harakat malakalari va irodaviy sifatlarni takomillashtirish;
- sportchilar organizmining (nafas olish, yurak-qon tomiri va boshqa sistemalar) funksional imkoniyatlarini kengaytirish;
- sportchi ishchanlik qobiliyatini saqlash va oshirish;
- mehnatsevarlik, intizomlilik, onglilik, faollik hislatlarini tarbiyalash.

Mashg'ulot jarayonida bu vazifalarni izchillik bilan hal qilish yuksak sport natijalariga erishish uchun inson organizmining g'oyat katta imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish imkonini beradi. Raqobatchi jamoalar mahorati darajasining uzluksiz o'sib borishi gandbolchilar tayyorlashga bo'lgan talablarni yil sayin har tomonlama oshirib borish zaruratini tug'diradi.

Gandbolchilar tayyorlashning bu hildagi oshib borayotgan talablariga ijobiy ta'siri mashg'ulotlarning pedagogik prinsiplarini izchil amalga oshirish va birinchi navbatda, uning jarayonlarini ilmiy boshqarish qonuniyatlariga og'ishmay amal qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Pedagog ta'lim va mashg'ulot jarayonida gandbolchilarni zarur maxsus bilimlardan habardor qilib, kerakli ko'nikma va malakalarni hosil qilibgina qolmay, balki ularda ijobiy harakter fazilatlari shakllanishiga ham har taraflama yordam beradi.

Murabbiy har bir mashg'ulotda aniq tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. Bunda mashg'ulotni aniq va o'z vaqtida boshlash, trenerning shaxsiy namunasi, o'z ishiga mehr-muhabbati, yuksak madaniyati, xulqi, talabchanligi, pedagog nazokati katta ahamiyatga molikdir.

Ta'lim va mashg'ulotning tarbiya beruvchi harakteri murabbiy zimmasiga shogirdlarda o'z kuchiga ishonchni mustahkamlash, keyinchalik sport bobida o'sishi uchun rag'batlantira bilishni yuklaydi. Pedagog bilan vrach nazoratida sport yuklamalarini o'ylab, mulohaza bilan asta-sekin oshirib borish, gandbolchi mahorati og'ishmay oshib borishini ta'minlaydi.

Mashg'ulotlarga ongli munosabatda bo'lmay turib yuksak sport natijalariga erishib bolmaydi. Shug'ullanuvchilar bajarayotgan mashqlaridan maqsad va vazifa nima ekanligini tushunishlari zarur. Harakat malakalarini to'g'ri shakllantirishda, ularni puxtalashda, mashg'ulotlarga qiziqishni oshirishda ko'rsatmalilik prinsipining ahamiyati katta. To'g'ri tanlab olingan ko'rsatma vositasigina murabbiy e'tiborni alohida jalb etmoqchi bo'lgan vaziyatlarni ravshanroq aks ettirishi mumkin.

Ta'lim va mashg'ulotda ko'rsatmalilikka turli usullar bilan erishiladi. Murabbiy usullarni o'zi ko'rsatishi yoki bu ishni tajribali gandbolchiga topshirishi mumkin. Yuqoriroq saviyadagi gandbol jamoalarining o'yinini gandbolchilar bilan birgalashib ko'rish, mashg'ulotlarda fotosuratlar, rasmlardan, sxema, chizma, kinogramma, kinofilmlardan foydalanishi mumkin. Yangi texnik usul yoki taktik harakatga o'rgatishdan oldin shu yangi usul yoki harakat bilan bog'liq eski tasavvurlarni tiklash, yangi bilan eskini, ma'lum bilan no'malumni uzviy bog'lash lozim.

Jumladan, hujumchilar to'pni u yondan bu yonga olib o'tishdan iborat taktik kombinatsiya ishlatishga o'rgatishdan oldin to'g'ri ochilishga o'rgatuvchi bir necha mashqni bajarishni tophirish zarur. Gandbolchilarni ta'lim va mashg'ulotida didaktik prinsiplar bilan bir qatorda, mashg'ulot jarayonini boshqarish prinsiplaridan, yangi obyektivlik, aniqlilik, qulaylik, rag'bantlantirish, ilmiylik, samaralilik, nazoratning muntazamliligi prinsiplaridan ham foydalaniladi.

Tayyorgarlikning butun kompleks vazifalarini bilish, sport mashg'ulotsi sistemasi qaysi yo'nalishda rivojlanib borishini, bunda tayyorgarlik vazifalarining qaysi biri hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligini oldindan ko'ra bilish mashg'ulot jarayonini boshqarishning zarur shartidir.

Yuqorida aytib o'tilgan jarayonlarni tog'ri tashkillashda murabbiy avvalambor yetuk pedagog bo'lishi hamda o'z kasbini fidoiysi bo'lishi kerak. Shuning uchun

ham hozirgi paytda gandbol mutahasislari oldiga nafaqat o‘z kasbining ustasi balki kuchli pedagog va ruhshunos bo‘lishlari bosh vazifa sifatida qo‘yilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramov J.A. Gandbol: Darslik 2008 y.
2. Abduraxmrnov F.A, Pavlov Sh.K. “Gandbol” tip.Uz GIFK-2005 y.
3. D.D. Safarova, L.D. Seydaliyeva, Yu.M. Sultonova, B.Sh. Nurbayev, U.A. Musayeva, V.V. Serbryakova, D.A. Sagatov. Sport fiziologiyasi. Toshkent-2018.
4. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Shelyagina I.N., Isroilov R.I., “Sport pedagogik mahoratini oshirish (Gandbol)” – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018.
5. Pavlov Sh.K., “Sport pedagogik mahoratini oshirish (Gandbol)” – T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2021.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI KITOBGA JALB QILISHNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Haqberdiyeva Zamira Rajabboyevna,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodkari kafedrasida o‘qituvchisi zamira.haqberdiyeva86@gmail.com tel:+998906068422

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni kitobga jalb qilish va bolalarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg‘otishda innovatsion metodlardan foydalanishning ilmiy nazariy asoslarini o‘rganish. Bola ta’lim tarbiyasi uchun qo‘llanilayotgan zamonaviy usul va vositalar turli-tuman, yorqin va jonli bo‘lib, bolada qiziqish uyg‘otmas ekan, belgilangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida kitob va undan foydalanish, badiiy adabiyotgaga nisbatan qiziqish uyg‘otish malakalarni shakllantirish.

Kalit so‘zlar: kitob, kitobxonlik, ijodiy rivojlanish, nutq, tafakkur, badiiy adabiyot, aqliy rivojlanish.

Абстрактный. Изучить теоретические основы использования инновационных методов в организациях дошкольного образования для привлечения детей к книге и пробуждения интереса детей к художественной литературе. Современные методы и средства, используемые для обучения детей, разнообразны, яркие и живы, и, если они не вызывают у ребенка интереса, поставленная цель не может быть достигнута.

Ключевые слова: Книга, чтение, творческое развитие, речь, мышление, художественная литература, умственное развитие.

Abstract. To study the scientific theoretical basis of the use of innovative methods in pre-school education organizations attract children to books and arouse children's interest in fiction. Modern methods and tools used for child education are diverse, bright and lively, and if they do not arouse interest in the child, the set goal cannot be achieved.

Key words: book, reading, creative development, speech, thinking, fiction, mental development.

Kirish. Murg‘akkina chaqaloq dunyoga kelar ekan, ruhiyatidagi soflik, adolat, ishonch kabi go‘zal fazilatlar unga hamroh bo‘ladi. Uning shaxs sifatida shakllanishi ma‘naviy tafakkurning barqarorligiga bog‘liqdir. Bu barqarorlik esa bolalardagi kitobga bo‘lgan mehr orqali vujudga keladi. Kitobning, badiiy adabiyotning qimmatini bolaning har tamonlarga o‘shirishiga ta‘sir ko‘rsatishidir. Kitobxonlik maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni har tamonlarga rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda 2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori ijrosini ta‘minlash asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida kichik kutubxonalarini tashkil etish, bolalar va ota-onalarni zarur badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlash, pedagog kadrlar uchun kichik kutubxonalar tashkil qilish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-martda yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektorda belgilab bergan 5 ta muhim tashabbusning 4-tashabbusi yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish hisoblanadi

Yuqorida keltirib o‘tilgan qarorning mantiqiy davomi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2019 yil 8- maydagi PQ-4312 – qaroriga 1-ilova “Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Qarorida ham maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tamonlarga rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim tarbiya jarayonlarini tashkil qilishda mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqish hamda maktabgacha ta‘limda zamonaviy metod va usullarni, innovatsion g‘oyalarni joriy etishni talab etadi.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof –muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quydagilarni nazarda tutadi:

- “Maktabgacha talim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olish va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o‘tkazish”.

- “Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlarga rivojlantirish uchun shart – sharoitlarni yaratish maktabgacha talim tashkilotlarida ta‘lim – tarbiya jarayonini tashkil etishning hamda maktabgacha ta‘lim xizmatlarni zamonaviy usullarini tashkil etishni talab qiladi”.

- “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini keng joriy etish;

Asosiy qism. Maktabgacha talim tashkilotlarida kitobga qiziqish uyg‘otish uchun bir qator sharoitlar yaratish zarur. Har bir yosh guruhlarida kichik

kutubxonalar yaratish, bu kutubxonalarda bolalar uchun mo'ljallangan rasmlirivojlantiruvchi kitoblar, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar, ota-onalar uchun farzand tarbiyasiga bag'ishlangan qiziqarli adabiyotlar o'rin oladi. Bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarni ularning qo'llari etadigan, ko'rib tomosha qiladigan tarzda joylashtirish lozim. Bolalar kichikligidan kitob tanlash, o'qish va his qilish bo'yicha didi shakllanadi. Tarbiyachi bolalarga turli rivoyat, ertak va hikoyalarni og'zaki aytib berishdan tashqari, kitoblardan o'qib beradi. Eshitish, tinglash madaniyati bilan bir qatorda kitoblarni asrab avaylashni ham o'rgatadi. Bola o'qishni bilmasa-da, rangli, chiroyli dizayndagi kitoblar undagi hissiyot, qiziqish va e'tiborni o'ziga tez jalb qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhidagi bola uchun harf o'rganish, kitob o'qish ham yangi, ham murakkab masala. U hali o'yinqaroqligini tashlamagan, diqqatini bir joyga jamlab o'tirishi qiyin. Bolalarni maktabga tayyorlash, itobga mehr o'yishga o'rgatish tarbiyachidan ham, ota-onadan ham sabrli bo'lishni talab etadi. Aynan 5-7 yoshli bolani kitobga qiziqtirishda kitobning dizayni ham muhim hisoblanadi. Kitoblar turfa xil rangli va bamisoli jonli rasmlar, qiziqarli o'yin va vazifalaruni afsonaviy bilimlar o'lkasiga yetaklab boradi.

Kitob matni, dizayni shunday tanlanishi kerakki, uning har sahifasi bolani rang barang rasmlar dunyosiga maroqli sayr ettira olsin va real hayotdagi odamlar, jonivorlar, sevimli multfilm va ertaklardagi qaxramonlar bilan uchrashsin.

Bolalarni badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini va muhabbatini o'stirish va rivojlantirish maqsadida ularga hikoyalar, she'rlar o'qib beriladi, ertaklar hikoya qilib beriladi, she'rlar yod oldiriladi. Kitoblardagi rasmlar ko'rib chiqilib, uni to'g'ri idrok etish, asar mazmunini tushinib olish, qaxramonlarning xattixarakatlarini baholay olish, badiiy so'z jozibasini his eta olish qobiliyatlarini tarbiyalash kabi vazifalar dasturda ko'rsatilgan.

Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. U asarni tinglar ekan, mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'u va kayfiyatlarni his etishi ham lozim. Bolalarda eshitish malakasi, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o'qib berilgan asar asosida savollar berish, rasmarini diqqat bilan ko'zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo'lish, nutqini o'stirish ko'nikmalarini tarbiyalash zarur. Bolalarda kitob o'qishga berilish, bilimga qiziqish, o'qigan asar haqidagi taasurotlarni o'rtoqlashish istagi va ko'nikmasini tarbiyalash lozim. Bolalar kitobi bolaga tushinarli bo'lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoyasini tushinib, his eta olgan taqdirdagina u o'zining tarbiyaviy rolini bajaradi.

Tayyorlov guruhidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning vazifalari:

1. Bolalarda hayotga nisbatan qiziqish va muhabbatni yanada kuchaytirish, asarlardagi guzallikni, nafosatni his qilish kabi kunikmalarni mustahkamlash.

2. Ularning badiiy asardagi qaxramonlar xatti-xarakati va xulq-atvorini to'g'ri baholash, aks ettirilayotgan voqealar mohiyatini tushunish qobiliyatini o'stirib borish lozim.

3. Bolalarning milliy badiiy didlarini rivojlantirish, badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, ba'zi janrlari, asarning tili haqida boshlang'ich tasavvurlarni shakllantirish.

4. Bolalarni asar g'oyasini tushunishga, tasviriy vositalarni his etishga, ohangdorlik va ritmni payqay olishga o'rgatish.

5. Bolalarning o'zbek xalq og'zaki ijodi, sharq allomalari, yozuvchilari, shoirlari haqida tushunchalarini boyitish. Ertak va hikoya o'qib berganda va bolalar tamonidan badiiy asar qayta hikoya qilinganida badiiy asarda aks etayotgan voqea va obrazlarga nisbatan shaxsiy munosabatni aniqlab, to'g'ri yo'l ko'rsatib borish.

Xulosa. Agar farzandingizni chindan kitobga oshno qilmoqchi bo'lsangiz quydagi tavsiyalarga amal qiling:

- tug'ilgandan bolaga kitob o'qib bering;
- o'qishni o'yinga aylantiring;
- she'r yodlating;
- adabiyot tanlashga ruxsat bering;
- farzandingizni o'qishga majburlamang;
- ovoz chiqarib o'qing;
- o'qigan kitoblaringizni muhokama qiling.

Shu o'rinda ora-onalar ham farzandlari uchun eng yaxshi va qadrli sovg'a-kitob ekanligi, farzandning kitobga bo'lgan munosabatiga e'tiborli bo'lishi kerakligi takidlanadi.

Demak, tarbiyachi ota-onalar bilan ishlashda ularning aytgan fikr va mulohazalari amaliyotiga e'tiborni ko'proq qaratishlari, ya'ni ota-onalardan farzandi uchun qanday kitoblar sotib olgani, qanaqa ertak yoki hikoyalarni bilishi va farzandiga qayday aytib berayotgani, qaysi maqol, topishmoq, tez aytishlarni bilishi, ulardan qay maqsadda foydalanayotgani xususida ham fikrlashishi kerak. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar yozuvchilari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, bolani kitobga bo'lgan mehr-muhabbatini shakllantirishda hamjihatlik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent sh., 2019 yil 8 may, PQ-4312-son.

2. Q. Shodiyeva "Nutq o'stirish uslubi" 2008-yil Toshkent "O'qituvchi" 252-254 betlr.

3. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018-yil.

4. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturini tashkil etish. Toshkent 2012-yil.

SPORT TO'GARAKLARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARNI TO'G'RI RIVOJLANISHIDA JISMONIY MASHQLARNING AHAMIYATI

Xalmatova Nasiba Bozorboyevna,

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat sport va maktabgacha ta'lim fakulteti "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom hamda aqlan yetuk bo'lib voyaga yetishi, kichik maktab yoshidagi bola organizmining xususiyati, bolalarda hamma jismoniy sifatlarni bir tekis rivojlantirish, aktiv muskul faoliyati orqali organizmdagi modda almashinuviga, bo'yni o'sishi va barcha organ hamda sistemalarning rivojlanishiga ta'sir qiladigan vegetativ funksiyalarni faollashtirish haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Mashq, harakat, muskullar harakati, jismoniy sifat, modda almashinuvi.

Annotatsiya. Аннотация. В данной статье рассмотрено здоровое и психически зрелое подрастающее поколение, особенности детского организма в младшем школьном возрасте, равномерное развитие всех физических качеств у детей, обмен веществ в организме посредством активной мышечной деятельности, рост роста и сведения о освещается активация вегетативных функций, влияющая на развитие всех органов и систем

Ключевые слова: Упражнение, движение, движение мышц, физическое качество, обмен веществ.

Abstract: In this article, the healthy and mentally mature growing young generation, the characteristics of the child's body at the junior school age, the uniform development of all physical qualities in children, the metabolism in the body through active muscle activity, height growth and information about the activation of vegetative functions affecting the development of all organs and systems is covered

Key words. Exercise, movement, muscle movement, physical quality, metabolism.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom hamda aqlan yetuk bo'lib voyaga yetishi uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda keng miqyosda sog'lomlashtirish tadbirlari olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - "Sog'lom ona - sog'lom bola" Dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishdan iborat. Bola salomatligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri, bu uning uyg'unlashgan jismoniy rivojlanishidir. Uyg'unlashgan jismoniy va ruhiy rivojlanish bolalarning sport bilan shug'ullanishiga keng imkoniyat yaratadi. Sport bilan shug'ullanish odatda o'quvchilarning yosh jihatdan o'sishidagi bir qator davrlarini o'z ichiga oladi. Bunda mashqning mazmuni va tuzilishi, yosh

xususiyatlari va sportda kamolotga erishish ancha o'zgaradi. Turli sinflarda mashqlarni tanlash va ularni o'tish metodikasi shug'ullanuvchilarning muayyan yosh xususiyatlariga bog'liqdir.

Kichik maktab yoshidagi bola organizmining xususiyati shundan iboratki, o'sish hamda rivojlanish davomida uning hamma organ va sistemalarining tuzilishi, funksiyalari to'xtovsiz takomillashib boradi. Bizning jismoniy tarbiya darslarida bola to'g'ri rivojlantirish uchun qanday mashqlar berishi to'g'risida Samarqand viloyatidagi 100 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan testlar olganimizda qo'yidagi natijalarga ega bo'ldik.

Jismoniy tarbiya darsi nima?

Boshlang'ich sinflarda DTSda berilgan me'zonlarni qanday bajartirasiz?

Bolaning funksional holatiga qarab mashqlarni qanday berasiz?

Bir soatlik jismoniy tarbiya darsingizda kasal bo'lib kelgan o'quvchiga qanday mashqlar berasiz yoki nima qilasiz?

Jismoniy tarbiya darslari sporga oid elektron darsliklardan foydalanasizmi?

DTSga asoslanib tuzilgan yillik rejadagi mavzularni to'liq o'tasizmi?

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilaning qaysi jihatlariga ko'proq etibor berish kerak?

O'tkazilgan test savollariga qo'yidagicha javob berishdi.

1 savolga 25 nafar o'qituvchi rivojlantirish, 50 nafari bajartirish, 25 nafar o'qituvchi sog'lomlashtirish deb javob berishdi.

2 savolga 40 nafar o'qituvchi qanday bo'lsa shunday, 20 nafari sharoiga qarab, 30 nafari faqat sog'lom bolalarga, 10 nafari olmayman, qatnashganiga qarab baholayman deb javob berishdi.

3 savolga 90 nafari bolaning funksional holatiga qaramayman, 10 nafari funksional holatlarini inobatga olib to'g'ri mashq berishga harakat qilaman.

4 savolga 50 nafari chekaga o'tkazib qo'yaman. 30 nafari yengil mashq beraman, 20 nafari mustaqil ish beraman deb javob berishdi.

5 savolga 70 nafari yo'q. 20 nafari sevit bo'lsa, 10 nafari iliji boricha ko'rsataman deb javob berishdi.

6 savolga 10 nafari qanday bo'lsa shunday o'taman, 90 nafari sharoit bo'lsa o'taman.

savolga 70 nafari jismoniy rivojlanishiga, 30nafari bajariladigan mashqlarig a qarayman deb javob berishdi.

Yuqoridagi javoblardan ko'rinib turibdiki 70 % jismoniy tarbiya o'qituvilari boshlang'ich sinflarga dars berayotganda o'quvchining funksional imkoniyatlarini inobatga olmagan holda bolaga jismoniy mashqlarni berar ekan. Bu holat bolaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda bolalarning muskullari qayishqoq bo'ladi, shuning uchun bolalar harakatlarni keng ko'lamda bajara oladilar. Biroq, qayishqoqlikni rivojlantiruvchi mashqlarni ular muskul kuchiga muvofiq bajaradilar. Ammo muskul va bo'g'inlarning ortiqcha cho'zilishi ularni zaiflantirib qo'yishi hamda qomat tuzilishining buzilishiga olib kelishi mumkin. Gavda muskullari kuchining rivojlanishn (ayniqsa statik kuchning) qomatni to'g'ri shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega, qomatning holati esa bu yoshda qat'iy

bo'lmaydi. Oyoq muskullarini, ayniqsa oyoq tagini to'g'ri holatda ushlab turuvchi ko'ndalang va uzunasiga joylashgan muskullarni mustahkamlash harakat faoliyati uchun (yurish, yugurish, sakrash) va yalpoq oyoqlikning oldini olish uchun juda muhimdir. Oyoq kafti suyaklari 16-18 yoshlardagina qotadi. Binobarin, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar 80 sm dan ortiq balandlikdan qattiq joyga sakrash va mashqlarni uzoq vaqt tik turib bajarishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalar hamma organlaridagi reaksiya tejamining ozligi, nerv jarayonlarining yukori qo'zg'aluvchanligi, ichki tormozlanish jarayonining bo'shligi bilan ajralib turadilar, shuning uchun bolalar tez charchaydilar. Demak, bu yoshdagi bolalarda hamma jismoniy sifatlarni bir tekis rivojlantirish zarur. Aktiv muskul faoliyati orqali organizmdagi modda almashinuviga, bo'yni o'sishi va barcha organ hamda sistemalarning rivojlanishiga ta'sir qiladigan vegetativ funksiyalarni faollashtirish kerak. 7-9 yoshdagi bolalar uchun gimnastikaning quyidagi asosiy mashqlari tavsiya qilinadi: yurish, yugurish, qiya qilib qo'yilgan o'rindiqlik gimnastika devori, narvonga tirmashib chikish, balandligi 1m. gacha bo'lgan to'siqlardan oshib o'tish, to'plarpi uloqtirish, to'ldirma to'plarni ko'tarib o'tish, muvozanat saklash mashqlari, sakrashlar (uzunlikka, 80 sm. gacha balandlikdan), akrobatika mashqlari - dumalash, do'mbaloq oshish, kuraklarga tayanib tik turish (3-sinf uchun). Bu yoshdagi bolalarni o'rgatishda ko'rsatish va tushuntirish metodidan foydalanish kerak. Ular uchun oson bo'lgan mashklarni ravon, oddiy, lo'nda qilib tushuntrish lozim. Tushuntirish aniq harakatlarning nomi va ularni qanday bajarilishiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ko'rsatish paytida e'tiborni o'rganilayotgan mashqlarni bajarishni ta'minlaydigan harakatlarga jalb etib, obrazli qilib tushuntirish kerak. 7-9 yoshdagi bolalar taqlid qilishga moyil bo'ladilar. Shuning uchun ularni o'rgatishda tasvirlash metodidan foydalanish kerak. O'qituvchi «Menga qarab bajaranglar», - deb aytish tavsiya qilinadi. Bundan tashqari bolalarga elektron doska orqali mashqlarni va elektron darsliklarni ko'rsatish tavsiya etiladi. Chunki bola uchun ming bora eshitgandan ko'ra bir marotaba ko'rsan yaxshi, ko'rgan narsasini xolgagan joyda bajarishga harakat qilib ko'radi. Bolalar o'rganadigan mashqlar oddiy, tushunarli va ular uchun oson bo'lishi kerak. Bolalar tez charchashlarini, shuningdek, qisqa dam olgandan keyin yana darrov harakat faoliyatini bajarishga qobil bo'lishlarini esdan chiqarmaslik kerak. Shuning uchun mashqlar uzoq davom etmasligi, orada dam olish uchun qisqa daqiqalar bo'lib turishi kerak. 7-9 yoshdagi bolalarda harakat malakalari 10-13 yoshlardagiga nisbatan sekin shakllanadi, ko'pincha yaxshi ijro bilan muvaffaqiyatsiz ijro almashinib turadi.

To'garak mashg'ulotlarda jismoniy tarbiya harakatlari, shakllari va usullarini tanlashda individual differensial yondashuvga katta e'tibor berildi. Bolalarning qiziqishini oqilona tashkil etish uchun jismoniy mashqlarni tanlash, rejalashtirish va qo'llash har bir bolaning yoshi, individual xususiyatlari, jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Mashg'ulotda bolalarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos keladigan jismoniy mashqlar va topshiriqlardan foydalanilgan.

To'garak ravishda tashkil etilgan jismoniy mashqlar tizimida alohida-alohida differentsiatsiya qilingan yondashuv mavjud harakat turlaridan foydalanishni va jismoniy mashqlar miqdori va intensivligi bo'yicha o'lgangan jismoniy mashqlar yuklamalarini qo'llashni o'z ichiga oladi, bu esa sog'likka zarar yetkazmasdan boshlang'ich sinf o'quvchilarning jismoniy faolligini, funksional imkoniyatlarini va aqliy faoliyatini yaxshilash imkonini beradi. To'garak mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning funksional imkoniyatlaridan oshmaydigan va tanani haddan tashqari yuklamalashga va ortiqcha yuklamalashga olib kelmaydigan jismoniy mashqlar va yuklamalardan foydalanilgan.

To'garak mashg'ulotlar jarayonida amalga oshirilgan vazifalarga bir xil kirish imkoni berildi va bolalarning yugurish, sakrash, otish, tirmashib chiqish, ya'ni alohida-alohida ajratilgan yondashuvni amalga oshirish bilan asosiy harakatlarda ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar yaratildi. Bajarilgan vazifalarni individuallashtirish va farqlash hamda to'garak tashkil etilgan mashg'ulotlarning asosiy qismida barcha bolalarning harakatli faoliyatda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish uchun har bir sinf o'quvchilari ikkita kichik guruhga bo'lingan: kuchli va zaif. Kuchli kichik guruhga yaxshi jismoniy va funksional tayyorgarlikka ega bolalar kiritilgan. Zaif kichik guruh jismoniy tayyorgarligi va mehnat qobiliyati past bo'lgan o'quvchilardan iborat edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashq koordinatsiyasi qanchalik murakkab bo'lsa, harakat malakasining shakllanish jarayoni ham shunchalik to'lginsimon bo'ladi. Harakat malakalarining tezroq shakllanishi uchun o'rganiladigan mashqlarni har bir mashg'ulotda 6-8 marta, nisbatan bir xil sharoitda (bir xil dastlabki holatdan, bir xil sur'atda va bir urinishda) 2-3 marta takrorlash zarur. 7-9 yoshdagi bolalar o'yinlarga va o'yinlarda o'zlariga turli harakat faoliyatlarini oson tasavvur qilishga yordam beradigan fantaziyaga moyil bo'ladilar. Shuning uchun ko'pgina mashqlarni o'yinga o'xshatib o'tish yoki o'yin tarzida o'tkazish ma'qul. Bu yoshdagi o'g'il bola va qiz bolalarning xususiyatlarida tafovut oz bo'ladi, shuning uchun mashqlar metodikasi va mazmunida deyarli farq ko'rinmaydi.

Kuzatuv shuni ko'rsatdiki, to'garak ravishda tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligi yosh o'quvchilar uchun qiziqishini va jismoniy faoliyatni to'g'ri tartibga solish va me'yorlashga bog'liq. Sinfdagi jismoniy mashqlar yurak tezligi va charchoqning tashqi belgilari bilan nazorat qilinishi kerak. Jismoniy mashqlar paytida siz yurak tezligining keskin oshishiga (160 zarba / daq dan ortiq) va katta charchoqqa (o'tkir qizarish, kuchli nafas qisilishi, ko'ngil aynishi, bosh aylanishi, harakatlarni koordinatsiyani yo'qotish) olib keladigan mashqlardan foydalanmasligingiz kerak.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida va to'garak mashg'ulotlarda 155-160 zarb/daq zarba tezligi bilan past yuklama (120-130 zarb/daq) va yurak urish tezligi (90-100 zarb/daq) ga qadar faol dam olish davrlari bilan intensiv mashqlar qo'llanilishi kerak. Bu o'quv mashg'ulotlari davomida bolalarning ish qobiliyatini saqlab qolish va ta'lim darajasini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nizomov B. Musurmonov X., Boshlang'ich sinflarda sport sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish. O'quv qo'llanma Samarqand-2014. 30- 44 b.
2. Mirsharipova Z.M. Kamilova J.E. Jismoniy tarbiya va sport jismoniy tayyorgarlik asoslari O'quv – uslubiy qollanma. – T.: ToshDTU, 2010. 70 bet.
3. Z.T.Nishanova, G.K.alimova. Psixologik xizmat psixokorreksiyasi. Darslik. Toshkent – 2019. 496 b.
4. <http://www.edu.uz>.
5. <http://www.uzedu.uz>.

BOBUR SHE'RIYATIDA MASNU' SHE'R

Po'latova Sanobar Berdimuratovna,

2-IDUM oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub masnu' she'rlar tahlilga tortilgan. Ularning vazn xususiyatlari, qofiya tizimi, mazmun munosabati tadbiq etilgan.

Kalit so'zlar: devon, masnu' she'r, qofiya, vazn,

Zahiriddin Bobur she'riyati ko'nglida nihon saqlangan tuyg'ularining salohiyatli shoir qalamida sayqallashtirilgan badiiy in'ikosidir. Zamondoshlari turkiy she'riyatda Alisher Navoiydan so'ng biror shoir Bobur Mirzochalik go'zal badiiy durdonalar ijod etolmaganligini e'tirof etishadi. Sharq mumtoz adabiyotida Bobur Mirzo ruboiy, tuyuq, g'azal, fard qit'a, masnu' kabi she'riy janrlarda barakali ijod qilgan shoir hisoblanadi. O'z she'riyatida so'zlarning betakror ma'nolarini qo'llay olgan ijodkor sifatida e'tiborga molikdir. Bobur she'rlarining sodda va oddiyligi, ya'ni ularning qiyin va murakkab emasligi kishiga zavq bag'ishlaydi va tushunish uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Bobur ijodida yuksak hissiyot va shoirona fikrlash va aqliy teranlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoirning asarlari lirik turning turli janrlarida ijod etilgan devonidan iborat. Manbalarda qayd etilishicha, shoirning she'riy merosi jamlanib, ikki devon holida tartib berilgan. XX asrda yaratilgan adabiyotimiz tarixida dastlab Bobur: "...ikkita devon tuzib, birda o'zbek tilidagi she'rlarini to'playdi", deyilsa, keyinroq: "Bobur lirik merosini ikki devonga to'plaganiki, bulardan biri 1519-yilda Kobulda tartib berilib, uni shartli ravishda Kobul devoni deb atasak, ikkinchisi Hindistonda 1528–1529-yillarda tuzilgan bo'lib, uni olima S.Azimjonova Boburning Hind devoni tarzida nomladi va nashr ettirdi. Ammo Kobul devoni hozircha noma'lum qolmoqda", – deya ta'kidlanadi. Bundan shuni bilishimiz mumkinki, Boburning umri davomida yozgan ijodiy asarlarining barchasi shu ikki devonga jamlangan. Shuningdek, Boburning "Devoni Boburshoh chig'atoy"da "Risolayi Volidiya", 121 g'azal, 8 masnaviy, 211 ruboiy, 53 muammo, 18 qit'a, 15 ta tuyuq, 79 matla' va masnu' she'rlar o'rin olgan, nasriy parchalar ham mavjud. Uning "Devoni Bobur

podshoh”ida 88 g‘azal, 4 masnaviy, 1 masnu’, 76 ruboiy, 2 qit’a va 29 fard berilgan.

Mumtoz adabiyotda masnu’ she’rlar sanoqli ijodkorlar ijodidagina uchraydi. “Masnu’(arabcha san’atli) – boshidan oxiriga qadar asosiy san’atlar ishlatilgan she’riy asar. G‘azal va boshqa janrlar hajmi o‘nlab san’atlarni o‘zida qamrab ololmaydi. Hajman cheklanmagan qasida shakli ijodkorlarga bu borada o‘z mahoratini sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. XIV asrda yashagan atoqli shoir Salmon Sovajiyning “Qasidayi masnu’” asari ana shunday janrning benazir timsoli sifatida keng shuhrat qozongan”.

Hazrat Navoiy “Majolis un – nafois” asarida masnu’ qasidaning XV asrda yaratilgan yana bir namunasi haqida ma’lumot beradi: “Darvesh Mansur – sabzavorlig‘dur. Darvesh va parhezkor va murtoz kishi erdi.Ko‘proq avqot soyim erdi.Aruz va sanoe‘da Mavlono Yahyo Sebak shogirdi erdi.Ikki aruz tasnif qildi va masnu’ qasida aytibdurkim,matla’li budurkim.

Bas davidam dar havoï vasli yor,
Kas nadidam oshnoi asli kor.

Tarse’ san’ati pokiza voqi’ bo‘lubdur. Faqir aruzni darvesh qoshida o‘qubmen...”. Bizga ma’lumki, o‘zbek she’riyatiga birinchi bo‘lib, masnu’ she’rni Bobur olib kirgan va shoirning bu she’rlari yuqori badiiyat bilan yozilgan. Shu o‘rinda Bobur devonidagi bir masnu’ she’rlarini tahlil qilamiz:

11	Tishing	dur,	labing	marjon,	hading	gul,	xating	rayhon,
22	Yuzing	hur,	soching	anbar,	so‘zing	mo‘l,	menging	miynon.
33	Miynon	menging,	so‘zing	mo‘l,	anbar	soching,	yuzing	hur,
44	Rayhon	xating,	hading	gul,	marjon	labing,	tishing	dur.

Adabiyotshunoslikda bu masnu’ haqida fikrlar bildirilgani ma’lum. Ushbu she’rda birinchi misradagi so‘zlar oxirgi misradagi o‘rinlarda deyarli joylarini almashtirgan holda takrorlangan. Faqatgina birinchi misradagi va oxirgi misradagi tishing dur va xating gul so‘zlari almashmay qolgan. Bobur o‘zining “Muxtasar” asarida ushbu masnu’ she’rni tavil bahri musammanoti solimul arkon vaznida ekanligini ta’kidlaydi. Uning taqte’si quyidagichadir:

Fauvlun mafoiylun fauvlun mafoiylun
V – – V – – – V – – V – – –

Masnu’ she’rda qo‘llanilgan rayhon va miynon so‘zlari murdaf qofiyani shakllantiryapti. Bunda rayhon va miynon so‘zi tarkibidagi raviydan oldin kelgan “o” cho‘ziq unlisi-ridfi asliy bo‘lib kelmoqda. Keyingi baytdagi hur va dur so‘zlari esa mujarrad qofiyani hosil qilmoqda. Ya’ni “r” raviyidan oldin kelgan “u” qisqa unlisi tavjih kelishi natijasida ushbu qofiya turi aks etgan.

Shuningdek, Boburning quyidagi masnu’ she’rini ham ko‘rishimiz mumkin.

1	Tafxur	ko‘zum,	ko‘nglum	qilurlar,	magar,	bordur,
---	--------	---------	----------	-----------	--------	---------

2	Ko'zungga	ko'ngul	vola,	yuzungga	ko'zum	hayron.
3	Hayron	ko'zum,	yuzungga	vola,	ko'ngul	ko'zungga,
4	Bordur,	magar,	qilurlar	ko'nglum,	ko'zum	tafoxur.

Ushbu she'rdagi birinchi baytdagi so'zlar bilan ikkinchi baytdagi so'zlar o'zaro o'rinlari almashishgan holda takrorlanishni hosil qilgan. Bobur ushbu masnu' she'rda aytadiki, ko'nglim ko'zimnitafoxur qiladi, ya'ni hayratlantiradi. Ko'zingga mening ko'nglum shaydo, oshiq bo'ldi. Sening yuzlaringni ko'rib, mening ko'zlarim hayron, ya'ni yor shunchalar go'zal va chiroyli, unga qaragan ko'zlar bunday husni jamolni ko'rgandan keyin hayron bo'lmoqda. Oshiq yorga shunchalar maftun bo'lganki, ko'ngli faqatgina uni tilaydi.

1	Tafakku	necha	qilsam	topilmas	sening	misling,
2	Paridek	seni	ko'rdum	emassen,	magar,	inson.
3	Inson,	magar,	emassen,	ko'rdum	seni	paridek,
4	Misling	sening	topilmas	qilsam	necha	tafakkur.

Bobur she'rlarida go'zal tasvirlashni ko'rishimiz mumkin. She'rning birinchi misrasida shoir shunday deydi: sen haqingda shuncha o'ylasam ham, o'rgansam ham, necha marta tafakkur qilsam ham sen kabini topolmadim, ya'ni u sevgan yor axloq-odobda, shuningdek har jihatdan mukammaldir. Ikkinchi misrasiga e'tibor qaratsak, u yorini "paridek" deydi, ya'ni unda insonga xoslik yo'q, shuning uchun ham "sen inson emassen, go'yoki partizan" deb tasvirlaydi.

1	Bobur	chu	sanga	quldur,	nazar	qil	anga	zinhor,
2	Topilmas	yana	bir	qul	oningdek,	sanga,	ey	jon.
3	Ey	jon,	sanga	oningdek,	bir	qul	yana	topilmas,
4	Zinhor	anga	nazar	qil	quldur	sanga	chu	Bobur

Ushbu she'rdagi barcha so'zlar joylari almashgan holda keltirilgan, ammo "bir qul va nazar qil" so'zlari almashmagan hisoblanadi. Shoir she'rning birinchi misrasida: o'zini "bir qul" sifatida tasvirlaydi, go'yoki u yorning ishqida unga qul bo'lgan-u, ammo uning yori unga zinhor va zinhor e'tibor qaratmagan, shu sababli

u bu e'tiborsizlikdan oh chekib, "manga bir nazar qil" deb yolvormoqda. Ikkinchi misrasida esa u o'zining o'tkinchiligini eslatib, senga mendek bir qul, ya'ni "ishqingda kuyib yonadigan, vafodor va sodiq qul topilmas" deb unga nido qilmoqda. Bu misrada, shuningdek, umrning o'tkinchiligi, bu dunyoning foniyligi haqidagi, har bir inson bu dunyoni tark etishi va o'zining yaratuvchisi bo'lmish Alloh Taolo yoniga borish ma'nolari ham ilgari surilgan.

1	Balodur	manga	hajring,	davodur	manga	vasling,
2	Itobing	manga	ofat,	hadising	manga	darmon.
3	Darmon	manga	hadising,	ofat	manga	itobing
4	Vasling	manga	davodur,	hajring	manga	balodur.

Lirik qahramon yor hajrida shunday qiynoqlarni boshdan kechirmoqdaki, menga sensizlik, ya'ni senga yetisha olmaslik balodur deb oh chekadi. Faqatgina senga yetishish, sening visolingni ko'rish mening bu o'rtanayotgan ko'nglimga darmon bo'lishi mumkin deydi. Menga aytayotgan ta'na-yu malomatlar menga bir ofat kabi, bu menga bir baxtsizlikdir, deb hisoblaydi. Men sendan shuni kutamanki, sening menga aytadigan so'zlaring meni tuzatadi, go'yoki jon bag'ishlaydi, demoqchi. Sening bir og'iz shirin so'zlaring men uchun dori-darmon kabidir deya aytadi. Bu baytda qahramonning yor ishqidan bebahralligi, uning vaslidan mosuvoligi, uning hajr ko'yida azob chekayotgani kabi jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur devonidagi har bir masnu' she'r o'zining alohida xususiyatlariga egadir. Ular til va uslub jihatdan sodda va tushunish uchun qulaydir. Yuqorida keltirilgan masnu' she'rlarda ham o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun takrorlanib kelayotgan so'zlar bir xil rangda ko'rsatilgan. Ularning adabiy tilga yaqinligi alohida tahsinga sazovor. Umuman olganda, Boburning masnu' she'rlari adabiyotimizdagi bir yangilik sifatida e'tibor berishga molik janr hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. АХожиахмедов. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.224.
2. О.Ю'рақулов. Bobur devoni qo'lyozmalari va uning tuzilishi xususida/Ilm va ma'rifat yog'dulari. . –Т.: Karabuk, 2020. –В. 399.
3. Й.Ис'хоқов. Сўз сан'ати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – В.318.
4. А.Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Т.: Фан, 1961 . –В.169
5. Н.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи . – Т.: Ўқитувчи, 1965. – Б.659
6. R.Vohidov, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: Adabiyot jamg'armasi, 2006. – В.527
7. Заҳириддин Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1994. – Б. 144.
8. Заҳириддин Бобур Мухтасар. – Т.: Фан, 1971. – В. 210.

PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHIDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI

Karimova Umida Sharipovna,

*Qashqadaryo viloyat PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus
ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagoglarning mustaqil ta'limi, uni uzluksiz tashkil etishning mohiyati va zaruriyati, shuningdek, pedagoglarning mustaqil ta'lim orqali kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakllari, asosiy tamoyillari haqida batafsil bayon etilgan. Mustaqil ta'lim jarayonining natijaviyligini aniqlash, mustaqil ta'lim natijasida pedagoglar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil malaka oshirish, pedagogning kasbiy kompetentligi va kasbiy layoqati, umumiy va kasbiy madaniyat, uzluksizlik.

Hozir zamonaviy ta'limni tashkil etishning muhim talablaridan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijaga erishishdir. Buning uchun pedagog, avvalo, ta'lim samarasini oshiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishi lozim. Bunda o'quv predmetining o'ziga xos jihatini, mashg'ulot o'tiladigan joy va sharoitni, eng asosiysi, pedagoglarning imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyatini e'tiborga olish zarur. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quv jarayoniga kompleks tayyorgarlik ko'rishi talab qilinadi. O'qituvchi ish faoliyatining natijaviyligi bevosita uning kasbiy tayyorgarlik darajasiga va o'z ustida ishlashiga bog'liqdir. Pedagoglar mehnat faoliyatlari davomida o'z ustida mustaqil ishlab kasbiy layoqati uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadilar. Tajribalardan ma'lumki, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida uning o'zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ravishda egallangan ma'lumotlar mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni yangiliklar yoki zaruriy tushunchalar unga biror bir shaxs tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, refleksiv faoliyat jarayonida shakllanib, rivojlanib boradi. Zero, ta'lim tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifalardan biri ham pedagog xodimlarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undash, uning metodik tizimini yaratishdan iboratdir.

Pedagoglarning mustaqil ta'limi – muayyan fandan belgilangan bilim, ko'nikma va malaka hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir ma'lumotlarning ma'lum bir qismini tinglovchi-o'qituvchi tomonidan (davriy malaka oshirish kurslarida) auditoriyadan tashqarida yoki kasbiy faoliyati davomida mustaqil o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyat bo'lib, o'qituvchining mustaqil tarzda kasb mahoratini oshirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirishga, kasbiy layoqati va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'qituvchining o'z lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha

yangi bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz ravishda mustaqil o'zlashtirishini ham nazarda tutadi.

Mustaqil ta'lim bu – pedagogning qobiliyatlari va o'ziga xosliklarini rivojlantirishga yo'nlatirilgan, o'zi tomonidan boshqariladigan va kasbiy fazilatlarini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan faoliyatlarini birlashtiradi. Mustaqil ta'limning zaruriyati, bir tomondan, pedagog faoliyatining xususiyatlari, uning ijtimoiy mohiyati, ikkinchi tomondan, pedagog mehnatining doimiy o'zgarishdagi sharoitlari, jamiyat ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivoji, inson shaxsiga, uning ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarning almashinuviga nisbatan tez va mutanosib javob bera olish qobiliyati, o'z faoliyatini qayta qurishga, yangi va murakkabroq muammolarni mohirlik bilan hal qila olishga tayyorligiga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan bog'liq uzluksiz ta'limning mavjud holati va an'analari bilan izohlanadi. Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda, pedagogning mustaqil ta'limi:

mustaqil ravishda yoki mutaxassislarning rahbarligi ostida amalga oshiriladigan va shaxsning o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi anglatishga qaratilgan bilish faoliyatining alohida turi sifatida;

asosini ma'lum bir mavzu bo'yicha axborotlar manbai bilan faol mustaqil ishlash tashkil qiluvchi, muayyan tarzda shakllantirilgan shaxsiy bilish jarayoni shaklida namoyon bo'luvchi shaxsning o'zini o'zi takomillashtirish yo'li sifatida;

jamiyat oldida turgan ta'lim-tarbiya muammolarini hal qilish maqsadida shaxs uzluksiz ta'lim tizimining elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogning mustaqil ta'limini uning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin:

muayyan fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

(bitiruv) malakaviy ishi, ilmiy-ijodiy loyiha ishi, mustaqil ish uchun materiallar to'plash;

amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash yoki bajarish;

amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Pedagog mustaqil ta'limining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

uzluksizlik;

maqsadga intilish;

yaxlitlik;

umumiy va kasbiy madaniyatning uyg'unligi;

o'zaro bog'liqlik va vorislik;

erishish mumkinligi;

ilgarilab borish tavsifi;

quyi bosqichdan yuqori bosqichga o'tishning uzviyligi;

o'zgaruvchanlik va boshqalar.

Pedagoglarning mustaqil ta'limini samarali tashkil etishda tizimli yondashish, barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish, tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ta'lim orqali mustaqil malaka oshirishni muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

maqsad (yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va h.k.) aniq asoslanishi;

mustaqil malaka oshirish va topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan tinglovchi-pedagoglarning yetarli darajada xabardor bo'lishi;

maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish va h.k.);

vazifa va topshiriqlarning aniq va ravshan belgilanishi;

nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

Pedagog mustaqil ta'limining vazifalari quyidagilardan iborat:

yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash;

axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda ma'lumotlar banki bilan ishlash;

internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;

muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

o'z faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish ko'nikmasini egallash;

umumiy va xususiy kompetensiyalarni egallash.

Mustaqil ta'limning mazmuni pedagogning bilim olishga intilishi, uzluksiz ta'lim vositasida o'zini o'zi anglashiga ortib borayotgan ehtiyojini qanoatlantirishda ifodalanadi. Mustaqil ta'limsiz, o'zini o'zi rivojlantirmasdan turib pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'limni zamonaviylashtirish mumkin emas.

Mustaqil ta'lim jarayonini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, mustaqil ta'lim jarayonining natijaviyligini aniqlash, mustaqil ta'lim natijasida o'qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish ushbu vaziyatda katta rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim orqali pedagog shaxsiy va kasbiy rivojlanadi. Pedagog mustaqil ta'limining natijaviyligi o'qitishning qator tamoyillariga rioya etish asosida aniqlanadi:

insonparvarlashtirish va demokratlashtirish – talim mazmuni va shakllarini pedagog tomonidan tanlash erkinligi;

uzluksizlik – malaka oshirish va mustaqil ta'limning murakkab tavsifli, tizimli, rejalashtirilgan va o'zaro aloqadorligi;

faoliyatga yo'naltirilganligi – o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining shakllanganligi;

hamkorlik – ta'lim jarayonida rollarning almashishi, o'qitishda hamkorlik va refleksivlik.

Mustaqil ta'lim natijasida o'qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko'rsatkichlar

Mustaqil ta'lim orqali natijaga erishish usullari	Mustaqil ta'lim natijasida o'qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko'rsatkichlar
sohaga tegishli dissertatsiya, maqolalar, Internet nashrlari asosida qo'shimcha ma'lumotlarni mutolaa qilish	o'zini o'zi rivojlantirishga qiziqishning barqarorligi
seminar-trening, master-klass, interfaol mashg'ulotlar, vebinar darslarda ishtirok etish	kasbiy faoliyat sohasidagi yangiliklarga qiziqish hissi namoyishi
xalqaro ilmiy tajribalarni milliy qadriyatlarga ustuvorlik asosida o'rganish	kasbiy faoliyat sohasida rivojlanish
ilg'or tajribalar, o'zaro darslarni kuzatish	kasbga nisbatan qiziqishning namoyish etilishi, ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini anglashi
sayyor malaka oshirish kursi, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish	kasbiy vazifalarini shakllantirish va kasbiy muammolarini hal etish, sifat va samaradorligini baholashi
mustaqil o'qib o'rganish, o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustida ishlash	axborotni izlash, undan foydalanish samaradorligi
maqsadli sho'ba va o'quvlar faoliyatida ishtirok etish	samarali aloqa texnologiyasiga ega bo'lish: modellash, tashkil etish, boshqarish, aks ettirish
pedagogik nashrlar, Internet resurslaridan kerakli manbalarni izlash va foydalanish	Internet resurslari materiallaridan foydalanish samaradorligi
axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan optimal foydalana olish
maqsadlarni optimal belgilash, vazifalar, pedagogik rejalashtirish usullarini tanlash	o'quv jarayonining sifati uchun mas'uliyatning namoyon bo'lishi

Xulosa shuki, mustaqil ta'limni tashkil etish orqali pedagogning o'z-o'zini tahlil qilishi, kasbiy muammolarni aniqlash va shakllantirishi, qiyinchiliklarni tushunish, ularni bartaraf etish usullarini topish va nazariyani o'rganish uchun qiziqtiruvchi, tashkiliy-mohiyatli sharoitlarni yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq talimi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori. 2018 yil 5 sentabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza. 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. 104 b.

3. Jo‘rayev R., Yuldashev M., Rahmonqulova N., Bahromov A., Zokirov A. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. O‘quv-metodik qo‘llanma. –Toshkent.: Adabiyot uchqunlari, 2014, 160 b.

3. N.Raxmanqulova, M.Yuldashev, A.Baxramov, M.Ahmedov, T.Raimov, A.Ametov. Xalq ta‘limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash. – T.: Lesson-press, 2018. 160 b.

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA GELIOISSIQXONALARDA QUYOSH ENERGIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH AHAMIYATI

A.U.Jumaniyazov,

*SVPYMO‘MM Metodik bo‘lim metodisti, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi
kafedrası o‘qituvchisi*

J.K.Ximmatova,

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Quyosh radiyatsiyasidan samari foydalanish hozirgi kunda fan va texnikada dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qo‘yilgan masalani hal qilishda gelioissiqxona tizimining murakkab shaffof to‘siqlardagi qisman nur yutuvchi qatlamida quyosh energiyasining o‘tishi, yutilishi va uning issiqlikka aylanishining fizik modelidan hamda son qiymatlari tadqiq qilishda issiqlik texnikasining nazariy va amaliy uslublaridan foydalanildi. Qilingan hisoblash ishlar, tadqiqotlar asosida konstruktiv va issiqlik-texnikaviy parametrlari optimallashtirilgan, yarim silindr shaklidagi bir va ikki qavatli shaffof plyonka to‘siqli kichik o‘lchamli gelioissiqxonaning tajribaviy pilot nusxasining loyihasi tayyorlandi.

Tayanch so‘zlar: Gelioissiqxona, radiyatsiya, quyosh nurlanishi, akumulyatorlar, issiqlik-texnikaviy, shaffof plyonka, pilot nusxa, polietilen plyonka, quyosh nurlanishi, yoqilg‘i–energetika, energiya manbalari

Аннотация. Эффективное использование солнечной радиации является одной из актуальных проблем науки и техники на сегодняшний день. При решении проблемы разработана физическая модель передачи, поглощения солнечной энергии и ее преобразования в тепло в частичном свет поглощающем слое сложного прозрачного материала. При исследовании

численных значений использованы барьеры гелио-тепличной системы, теоретические и практические методы теплотехники. На основе расчетов и исследований подготовлена конструкция опытно-промышленного образца полумоноцилиндрического одно- и двухслойного прозрачного пленочного барьера с оптимизированными структурными и теплотехническими параметрами.

Ключевые слова: гелиотеплица, радиация, солнечная радиация, батареи, теплотехнические, прозрачная пленка, опытный экземпляр, полиэтиленовая пленка, солнечная радиация, топливо-энергетика, источники энергии.

Abstract: Efficient utilization of solar radiation is one of the topical problems of science and technology today. In solving the problem, a physical model of transmission, absorption of solar energy, and its conversion into heat in a partial light-absorbing layer of a complex transparent material is developed. The study of numerical values used barriers of the helio-hothouse system and theoretical and practical methods of heat engineering. Based on calculations and research the design of a prototype of a semi-cylindrical one- and two-layer transparent film barrier with optimized structural and thermal engineering parameters is prepared.

Key words: solar greenhouse, radiation, solar radiation, batteries, thermomechanical, transparent film, prototype, polyethylene film, solar radiation, fuel-energy, energy sources.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi PQ-57-son qaroridagi bandlarga asosan ko'plab ishlar qilinmoqda shu jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati hududida issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qulay ob-havo sharoiti mavjud. Bu hududlarda mavjud issiqxonalarda 1 kg sabzovot mahsulotlarini yetishtirish uchun 12-14 kg shartli yonilg'i sarflanadi, u me'yoriy qiymatdan 1,4 marta yuqoridir. Zamonaviy issiqxonalarda o'rtacha 1m² ekin maydoniga yil davomida 4GJ issiqlik yoki 80 kW/h elektr energiyasi sarflanadi. An'anaviy energetika resurslarining cheklanganligi va organik yoqilg'ilarning tannarhi ortib borayotganligi hamda ekologik muhit o'zgarishlari issiqxonalarda muqobil bo'lgan mahalliy energiya manbalarini qidirish va ulardan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqardi. Keyingi yillarda dunyoda, shu jumladan Respublikamizda ham muqobil energiya manbalaridan keng miqyosida foydalanishni joriy etishga qaratilgan dasturlar qabul qilingan, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlari olib borilmoqda. Halq xo'jaligining turli sohalarida yoqilg'i - energetika resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish va atrof - muhitning musaffoligini saqlab qolish hozirgi zamon ilmiy - texnikaviy taraqqiyotining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammolarni hal qilishda noan'anaviy energiya manbalarini izlash va ularni an'anaviy yoqilg'i-energetika manbalari bilan birga foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sirdaryo iqlim sharoitida noan'anaviy energiya manbalari ichida quyosh energiyasi alohida

ahamiyatga ega. Bu energiya turi bitmas-tugalmas zahiralarga ega bo'lib, ekologik tozaligi bilan xarakterlidir.

Energetika resurslarining cheklanganligi va organik yoqilg'ilarning tannarxi ortib borayotganligi hamda ekologik muhit o'zgarishi issiqxonalarda muqobil bo'lgan energiya manbalaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Ushbu maqola tadbirkorlar, dehqonlar va shaxsiy tomorqa egalari tomonidan qurilgan issiqxonalarda, quyosh energiyasidan samarali foydalanish hisobiga kunduz kuni hosil qilingan ortiqcha issiqlik jamlamasi issiqxona ustiga qo'shimcha shaffof yorug'likni yaxshi o'tkazuvchi ikkinchi qoplamni yopish bilan issiqlik isrofini kamaytirish evaziga hamda issiqxonada ishlatiladigan tuproq osti akummulyatorlarini ishlatish hisobiga erishish mumkin. Bunda issiqxonaning isitishini 1/3 muddatga qisqartirish va mavsum davomida ikki marta xosil etishtirish, hamda organik yoqilg'i sarfini bir necha martagacha kamaytirish mumkin. Bu texnologiya Respublikamiz va shu jumladan Sirdaryo viloyati aholisini qish va erta bahorda sabzovot mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirishda muxim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz hududida issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qulay ob-havo sharoiti mavjud. Mamlakatimizdagi issiqxonalarni isitish uchun sarflanadigan yoqilg'i hamma harajatlarining 50-60 % ni tashkil qiladi. Halq xo'jaligining turli sohalarida yoqilg'i - energetika resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish va atrof - muhitning musaffoligini saqlab qolish hozirgi zamon ilmiy - texnikaviy taraqqiyotining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammolarni hal qilishda noan'anaviy energiya manbalarini izlash va ularni an'anaviy yoqilg'i-energetika manbalari bilan birga foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston iqlim sharoitida noan'anaviy energiya manbalari ichida quyosh energiyasi alohida ahamiyatga ega.

Sirdaryo viloyati sharoitida o'rganilayotgan tajribaviy gelioissiqxonani foydalanish natijalarini tahlil qilish asosida:

- qishki isitish mavsumi davomida texnik isitish tizimi bo'lmagan gelioissiqxonalarda ochiq ob-havo sharoitida kunduz paytlari havo muhitining harorati asosan me'yoriy haroratga yaqin, bulutli ob-havoli sharoitda va kechqurunlari esa me'yoriy harorattan ancha past bo'lishi aniqlandi.

Qishloq xo'jaligida gelioissiqxonalar va ulardan Sirdaryo sharoitida foydalanish gelioissiqxonalar samaradorligini oshirish uchun asosiy bo'lgan quyosh nurlanishi energiyasi va atrof - muhit haroratining har qanday o'zgarishlari sharoitida ularning ichida o'simliklarning normal rivojlanishi uchun me'yoriy harorat rejimlarini ta'minlashga erishish zarur. Issiqxonalar dehqonchiligi amaliyotida bu masalani hal qilishda vaqtga bog'liq ravishda o'zgaruvchan tashqi meteorologik faktorlar ta'sirida shakllanadigan ularning ichki real issiqlik rejimlarini hisoblash uchun ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqish va uni tadbiiq qilish hamda shu asosda ularning konstruktiv va issiqlik-texnikaviy parametrlarini optimallashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ochiq va issiq iqlimli kunlarda quyosh radiatsiyasidan kelayotgan kunduzgi issiqlik issiqxona isrofini to'liq qoplashi mumkin bo'lganda ham issiqxona isitish tizimi ulangan bo'ladi, chunki isitish tizimini davriy ravishda uzish va ulash

maqsadga muvofiq emas. Natijada issiqxona ichida qizish vujudga keladi, bu esa o'simliklarni o'sishda va kompleksning texnikaviy – iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qiladi.

Shaxsiy va tadbirkor xo'jaliklarida quriladigan kichik o'lchamli issiqxonalar, issiqxona komplekslaridan farqlanib, quyoshdan hosil bo'lgan kunduzgi ortiqcha issiqlikni jamlash, issiqxona ustiga qo'shimcha qoplam yopish bilan issiqlik isrofining miqdorini kamaytirish mumkin. Bunday imkoniyatdan foydalanib issiqxonani isitish mavsumini 1/3 muddatga qisqartirish mumkin. Qolgan vaqtlarda (kechqurun) texnik isitish sistemasidan qisman foydalanish mumkin. Fermer, shaxsiy, tadbirkorlik xo'jaliklaridagi issiqxonalarda o'simlikning rivojlanish samaradorligini oshirish va optimal rivojlanishini amalga oshirish yordamida bir isitish mavsumi davomida 2 marta hosil etishtirish mumkin. Geliy issiqxonalaridagi o'simliklarning yaxshi rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan (kunduz kunlari 24-250C dan yuqori bo'lmagan, kechqurunlari 15-160C kam bo'lmagan) harorat jarayoni yaratish talab qilinadi, bunday issiqxonalarda mavsum davomida ikki marta hosil olishga imkoniyat yaratadi.

Issiqxonani isitish uchun ketadigan yonilg'i harajatlari, hamma harajatlarning 50-60 % ini tashkil qiladi. Bu masala respublikamizni energetikasini tejashdagi dolzarb muammolardan biridir. Shu boisdan issiqxonalarda kechadigan issiqlik jarayonlarining sutkaviy nobaqarorligini hisobga olgan holda ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish orqali quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar issiqxonalar sabzavotchiligini rivojlantirish va mazkur sohadagi energiya tejamkorligini ta'minlashning dolzarb masalalaridan biridir. Ammo, yuqorida qayd etib o'tilgan masalalarini yechishga hozirgi vaqtgacha e'tibor berilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александров А.Д., Боев Н.Н. Гелиотеплицы и использовании солнечной энергии в Средней Азии Труды Узбекского Госуниверситета. Том 4. Самарканд. 1936.

2. Вейнберг В.Б. Оптика в установках для использования солнечной энергии. М.: Оборонгиз. 1959, 234 с.

3. Садыков Т.А. Исследование температурного режима и тепловых процессов в солнечной теплице. Автореф. дисс. канд. техн. наук. Ашхабад. 1966, 31с.

4. Якубов Ю.Н. Аккумуляция энергии солнечного излучения. Ташкент: ФАН. 1981. 105 с.

5. Байрамов Р.Б., Рыбакова Л.Э. Микроклимат теплиц на солнечном обогреве. Ашхабад: Улим. 1983. 84 с.

6. Вилковисский Н.Э. Теоретическое исследование проблемы твердого аккумулятора тепла (регенератора) для солнечных воздухонагревателей. Труды Узбекского Госуниверситета. Самарканд. Т. 11, 1938, 241-290 с.

7. Адоратский В.В. Основы теории тепличных сооружений. М.: Селхозгиз. 1939, 196 с.

8. Фокин И.Ф. Строительная теплотехника ограждающих частей зданий. М.1957.287 с.

BO‘LAJAK PEDAGOGIK BOSHQARUV KADRLARINI TAYYORLASH DAVR TALABIDIR

Jalolova Feruza Mirkamol qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy maktab rahbarlariga qo‘yiladigan talablar va ularni o‘qitish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar dasturlari, ularning afzalliklari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatorlik, ta‘lim kategoriyasi, majburiy modul, f2f (yuzma-yuz ta‘lim), esse, e-ta‘lim, stajirovka moduli, rasmiy malaka talablari.

Zamonaviy maktab rahbarlarini tayyorlash davr talabidir. Bunga turli mamalakatlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Rahbarlik, nafaqat, o‘ta mas‘uliyatli lavozimgina bo‘lib qolmay, balki mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ustunlardan biridir. Ayniqsa, maktab rahbarlari kelajak bunyodkorlarini yetkazib berishda muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun rahbarlarning o‘zi salohiyatli, zehnlil, uzoqni ko‘ra biladigan, turli sohalardan xabardor va zamon bilan hamnafas bo‘lmog‘i zarur.

XXI asr texnologiyalar asri ekanligini hisobga olsak, bu rahbarlardan shiddatli bo‘lishni, muammoli vaziyatlarda eng maqbul yechimni qisqa muddatlarda topishlarini talab qiladi. Ko‘pgina mamlakatlarda, xususan, yurtimizda ham, salohiyatli rahbarlarni tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada tizimli ishlar ham olib borilmoqda. Bundan tashqari, bu sohani yanada rivojlantirish uchun uchun jahon tajribasi o‘rganilib, undan andoza olishga harakatlar ham boshlangan. Bunga misol tariqasida, hozirgi kundagi maktab rahbarligi lavozimiga talabgorlar uchun maxsus talablar, ushbu sifatlarga ega kadrlarni esa, lavozimga tasdiqlangandan so‘ng, maxsus qisqa muddatli tayyorlov kurslariga jalb etish orqali ularga o‘z vazifalarini chuqur anglab yetishlari uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda bilimlil rahbarlarni tayyorlash uchun qo‘shimcha vaqt sarflash davlat va ushbu kadr uchun birmuncha fursatlarni yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, bu masalaga yanada chuqurroq yondashish va boshqa muqobil yo‘llarni izlab topish har ikkala tomon uchun ham manfaatli bo‘ladi.

Xalqaro tajribalarga nazar soladigan bo‘lsak, ko‘pgina, Yevropa va Osiyo davlatlarida ham ushbu sohaga oid maxsus dasturlar, seminarlar, o‘quv kurslari, fanlar mavjud. Quyida ulardan bir nechta haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tamiz. Germaniyaning har bir shahrida o‘z ta‘lim tizimi va maktab boshqaruvi mavjud. Biz solishtirish uchun Saksoniya shtatini tanladik, bu yerda Saksoniya Ta‘lim Instituti (Sächsisches Bildungsinstitut; keyingisi SBI) joylashgan. SBI asosiy vazifalari maktab boshqaruvchilarini o‘qitish va maktablarni tashqi baholashdir. U

Saksoniya davlat ta'lim va madaniyat ishlari vazirligining bevosita buyruqlari ostida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu institut maktab boshqaruvchilarini o'qitishda moliyaviy yordam, ta'lim sifati va boshqa bo'limlar bilan hamkorlik qilish kabi tushunchalarga ko'proq e'tibor qaratgani bois, maktab ta'limini boshqarish nuqtai nazaridan katta afzalliklarni namoyon qiladi.


Saksoniyada maktab boshqaruvchilari: tegishli yo'nalishda oliy ma'lumotga ega bo'lishlari; ikki turdagi o'qitish malakalari; bir necha yillik o'qitish tajribasiga ega bo'lishi kerak. Qo'shimcha xususiyatlar orasida tushuntirish, innovatorlik va rahbarlik ko'nikmalariga oid tayyorlov dasturlarini tuzishda ishtirok etish kabi xususiyatlar afzallik bilan qabul qilinadi.

Saksoniyada maktab rahbarlari 3-bosqichda tayyorlanadi. Shundan 2ta bosqich ixtiyoriy, uchinchi bosqich esa majburiy hisoblanadi. Bu bosqichda ta'lim boshqaruvchilari uchun besh ta'lim kategoriyasi – maktab mudiri, o'rinbosari, maktab nazorati organining rahbari, bo'lim mudirlari va maktab koordinatori kabi bir qancha umumiy modullarni (Rasm 1) ko'radilar. Yangi maktab mudirlari o'z vazifalariga tayinlanishlaridan keyin birinchi ikki yil ichida 3-bosqichga qatnashishlari majburiy hisoblanadi. Ushbu ta'lim guruhlar barcha turdagi maktablar bo'ylab tashkil etilgan. O'qitish 19 kunlik darslarni, qatnashchilar o'z-o'zini o'rganishi, beshdan ortiq ishga kirish kunlarini va maktab rivojlanish loyihasini o'z ichiga oladi.

Quyidagi rasmda maktab rahbarlarini tayyorlashning sxematik bosqichlari keltirilgan bo'lib, ularning barchasi 3-bosqich (faza) ga tegishlidir.

1-rasm.

Figure 1 Schematic overview of the education of head teachers and deputy head teachers in Saxony (Phase 3)



3-bosqichda birdaniga 5 toifadagi rahbarlikka tayyorlanishi, ularning lavozimida o'zgarish kuzatilganda ham o'z faoliyatlarini hech bir muammolarsiz amalga oshirishlari uchun zamin yaratadi.

Navbatdagi mamlakatimiz ham boshqaruvchilarni tayyorlashda o'ziga xos xususiyatlarga ega –Chexiya Respulikasidir.

Chexiya Respublikasida rahbarlar uchun qo'yiladigan talablar va maxsus kurslar haqida so'z borganda, uning e'tiborga molik jihatlari ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Maktab boshqaruvchisi lavozimiga nomzod bo'lmoqchi bo'lgan shaxslar quyidagi talablarga mos bo'lishlari lozim:

magistr darajasiga ega bo'lishi (Chexiya Respublikasida hatto o'qituvchilar ham magistr darajalariga ega bo'ladi);

kamida 5 yillik pedagogik tajribaga ega bo'lishi (o'rta maktab boshqaruvchilari uchun to'rt yil va oliy maktab boshqaruvchilari uchun besh yil);

maktab rahbari lavozimiga tayinlangandan so'ng, ikki yil ichida maktab rahbarlari uchun mo'ljallangan o'qish dasturini tugatishi zarur (1-faza majburiy).

Bu borada magistr darajasi talabi aholining savodxonlik darajasi hamda maktab ta'lim sifatiga bo'lgan e'tiborning naqadar yuqori ekanligidan dalolatdir.

Shuningdek, ular uchun ajratilgan maxsus tayyorgarlik kurslari ham tashkil etilgan bo'lib, ular ham mudirlar uchun foydali hisoblanadi. Ushbu kurslar maktablar va maktab turlaridagi boshqaruv kadrlari uchun majburiy boshqaruv rivojlanish ta'limi bo'lib, hozirgi paytda o'z vazifalariga yangi tayinlangan yoki tezda vazifalarini o'zlariga qabul qilishi zarur bo'lganlar uchun mo'ljallangan; bu ta'lim odatda maktab mudirlari yoki o'rinbosarlari yoki tashkilotlarda boshqaruv lavozimiga ariza topshirishni istaydigan nomzodlar uchun mo'ljallangan.

Ta'lim kursi 60 soatlik darslar (nazariy va seminar), 60 soatlik qatnashchilar o'z-o'zini o'rganishi va boshqa bir maktabga to'rt kunlik o'qish tashrifiga tayyorlashni o'z ichiga oladi. Modullar quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuridik asoslar, ishga oid qonun, maktab moliyasi, va maktab bilan bog'liq va ta'lim jarayonlarini tashkil etish. Ushbu ta'lim kursining yakuniy sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan qatnashchilarga sertifikat beriladi.

Bu modullar yanada takomillashtirilib, bir qancha o'zgartirishlar ham kiritilgan bo'lib, bu modullarni bajarish Chexiya Respublikasida, Ta'lim Vazirligi to'g'risidagi qonunlar bo'yicha majburiydir. Har bir modul F2F (yuzma-yuz) ta'limini o'z ichiga oladi (modul boshiga kamida 32 soat), qatnashchilar o'z-o'zlarini o'rganishlari, yakunida esa, esse yozish va stajirovka (o'rtacha ravishda boshqa maktabda shadowing ko'rinishida)dan iborat. O'qishning 350 soat davom etishi kutiladi va bu e-ta'lim bilan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu dasturni tugatish uchun qatnashchilar yakuniy esse yozishi, uni mutaxassislar jamiyati oldida muvaffaqiyatli himoya qilishi va suhbat sinovidan o'tishi kerak. Stajirovka moduli 100 soat yoki har bir asosiy modul uchun 20 soatni o'z ichiga oladi. Muvaffaqiyatli qatnashchilar sertifikat bilan taqdirlanadilar, bu esa yuqori moliyaviy mukofotlarga olib keladi. Yuqorida keltirib o'tilgan jarayonlarning ketma-ketligi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-rasm).




Figure 2 Schematic overview of education for head teachers and deputy head teachers in the Czech Republic (Positional Training 2)

Bizning fikrimizcha, ushbu kurslarda o‘qitiladigan fanlar majmuyi boshqa davlat ta’lim tizimidagi kurslar uchun ham andoza bo‘la oladi. Chexiya Respublikasi, yuqorida keltirilgan kurslar bilan cheklanibgina qolmay, balki maktab direktorlarini yuqori darajada tayyorlash uchun universitetlarda maxsus dasturlarni ham tashkil etgan. Chexiyada, bir nechta universitetlar bo‘lajak boshqaruvchilar uchun Bakalavr darajalarini taklif qiladi, va Pragadagi Charles Universiteti maktab boshqaruvini magistratura dasturini taklif qiladi. Dasturni tugatgan talabalar rasmiy malaka talablari uchun shartnomani bajargan bo‘ladi.

Keltirib o‘tilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, ikkala davlat ham boshqaruvchilarni tayyorlashda o‘ziga xos o‘quv dasturlariga ega va bu dasturlarning ayrim jihatlarini o‘zlashtirish orqali boshqa mamlakatlar, xususan, O‘zbekiston ham, ta’lim menejmenti sohasida ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ludvik Eger, “Ta’limda menejment”, jild. 11, № 1 Iqtisodiyot fakulteti, G‘arbiy Chexiya universiteti, 2017.

2. Mária Pisonová, “Markaziy Yevropaning to‘rtta davlatida direktorlarni rivojlantirish dasturlari: xalqaro taqqoslash”, Ta’lim tadqiqotlari instituti, Ta’lim va ijtimoiy pedagogika bo‘limi, Bratislavadagi Komenskiy universiteti, Krakov Pedagogika Universiteti, Ijtimoiy pedagogika va Andragogika kafedrasini, Pedagogik tadqiqotlar kafedrasini.

3. Internet saytlari:

4. Academia.edu.

SHAXS MA’NAVIY-AXLOQIY RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK JIHATLARI

Quvvatov Sardor Isomiddinovich,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxsini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy me'yorlarning ahamiyati darajasi ijtimoiy-tarbiyaga oid ilmiy qarashlar borasida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviyat, xulq-atvor normalari, qadriyatlar, jamiyat, shaxs, ma'naviy rivojlanish, tarbiya.

Ma'lumki, ijtimoiy taraqqiyotda ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va uning xulq-atvorini bosqichma-bosqich malakaga aylantirish va asosiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim va tarbiyaning eng muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda ta'limning zamonaviy modeli jamiyatda erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishga olib kelmoqda. U real maqsad va irodaga ega insonlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ta'lim va kadrlar tayyorlash zamon talablari asosida muttasil rivojlanib, yangilanib bormoqda. Uzluksiz ta'lim sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zini namoyon qila oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash pirovard vazifalardan hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlari zamonaviy ta'lim modeli asosida qayta ko'rib chiqildi. Takomillashtirilgan davlat ta'lim standartlari o'quvchilarning tayanch va fan yo'nalishlari bo'yicha umumiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Bugungi globallashtirish, tez suratlardagi taraqqiyot ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmazligini yana bir bor namoyon etmoqda. Ta'lim va tarbiya o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilsagina yetuk axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyatli komil inson, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom bo'lgan keng dunyoqarashli, vatanparvar, zamon talablariga javob bera oladigan yosh kadrlarni yetishtirish mumkin. Bunda yoshlarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim o'rin egallaydi. Kompetensiya atamasi lotincha "competere" so'zidan olingan bo'lib, "erishmoq, muvofiq kelmoq, mos kelmoq" ma'nolarini anglatib, insonlarning egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalari majmuasini o'zida mujassam etadigan qobiliyat turidir [1.B.6]. Kompetensiya keng ma'noda murakkab vaziyatlarda mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribada qo'llay olishdir. Shunday ekan kompetensiyani egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati desak ham bo'ladi.

Fanda kompetensiya tushunchasi muayyan sohada faoliyat olib boridigan mutaxassisning samarali, nazariy va amaliy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarning ilmiy atamasidir. Jumladan, pedagogika sohasida samarali faoliyat yuritish uchun ilmiy yoki professional tayyorgarlikka nisbatan kompetensiya atamasi qo'llaniladi. Chunonchi, yoshlarda axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish ularning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olishga yo'naltirib boradi. Natijada, yoshlarda tashabbuskorlik, mustaqil fikr yuritish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, zamonaviy texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, mustaqil ravishda kasb-

hunar tanlash va sogʻlom turmush tarzini tanlash kabi xususiyatlar shakllanib boradi.

Maʼnaviy-axloqiy meʼyorlar haqida bilimga ega boʻlish va uni tushunish hali eʼtiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, maʼnaviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qoʻllanilib, oʻquvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon boʻlgandagina shakllangan deyish mumkin. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya tizimida maʼnaviy-axloqiy his-tuygʻular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda oʻz xulqiga nisbatan his-tuygʻularni uygʻotishga ragʻbat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga koʻra maʼnaviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi ragʻbat bilan hosil boʻladigan faoliyat eng asosiy boʻlib hisoblanadi. Shuningdek, oʻquvchida maʼnaviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj boʻlishi shart. Demak, maʼnaviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat boʻladi. Maʼnaviy-axloqiy xatti-harakatlar esa oʻquvchi tomonidan axloqiy meʼyor va tamoyillar mohiyatini oʻrganish, ularni anglab yetishdan iboratdir. Xatti-harakatlar tizimi maʼnaviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, maʼnaviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur; ikkinchidan, oʻquvchilarda maʼnaviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarini tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy meʼyorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning oʻz nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

shaxsda oʻz idealiga intilishiga boʻlgan his-tuygʻularini uygʻotishga yoʻnaltirilgan xattiharakatlarni tashkil etish borasidagi koʻnikmalarni tarbiyalash; uchinchidan, maʼnaviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish; toʻrtinchidan, tarbiyalanuvchilarda yuksak maʼnaviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish; beshinchidan fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda koʻp maʼnaviy-axloqiy sifatlar – boshqlarga gʻamxoʻrlik qilish, odamlarning gʻam-tashvishi, quvonchini tushuna olish, oʻz manfaatidan oʻzgalar manfaatlarini ustun qoʻyish, axloqiy meʼyorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni toʻxtataolish, maʼlum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa aʼzolarining fikri bilan oʻrtoqlashish, masʼuliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Shaxsda shakllangan muayyan axloqiy tafakkur, axloqiy fazilat, axloqiy munosabat va axloqiy harakatlar kabi axloqiy kompetensiyalar jamlanmasi sifatida shakllanib ularning komillik tomon intilishi yaʼni, komil inson boʻlishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Omanov P.X. Xorijiy tillarni o'qitishda talabalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish (autentik videomateriallar asosida). Monografiya. – Toshkent, 2023. 107 b. International scientific and practical conference “Methodology of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and their solutions” March 15, 2024 239
2. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. O'quv qo'llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. - B. 820.
3. Inomova K.M. “Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi” –Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.
4. Yo'ldoshev J.G'. Xasanov S. “Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar”. – Toshkent: O'qituvchi 1992, – 28 b.

TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI TAYYORLASH

Toshquvatova Gulchehra Mirpulat qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute maktabgacha ta'lim kafedراسi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Respublikamizda joriy etilgan ta'lim tizimi, uning turlari va shakllari orqali har bir fuqaroning ta'lim olishida davlatimiz tomonidan ilmiy sohadagi rivojlanishlar keng qo'llab-quvvatlanayotganligi, ayniqsa bu o'rinda yosh avlodni kichik yoshdan boshlab sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim-tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etish va shu orqali bolalarni rivojlantirish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, hamkorlik, bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi, takomillashtirilgan “Ilk qadam”.

Annotation. In this article, through the educational system introduced in our republic, its types and forms, the wide support of developments in the scientific field by our state in the education of each citizen is given, especially in this regard, the work on the development of the young generation from a young age to a healthy and comprehensively mature adult, the introduction of effective forms and methods of.

Key words: preschool organizations, cooperation, methodology for preparing children for school, improved “first step”.

Аннотация: В данной статье отмечается, что благодаря внедренной в республике системе образования, ее видам и формам, государство оказывает широкую поддержку научным достижениям в области образования каждого гражданина, особенно в этой области, начиная с раннего возраста, воспитывая подрастающее поколение здоровым и всесторонним образом, внедряя в учебно-воспитательный процесс эффективные формы и методы

обучения. и, таким образом, работа по развитию детей приобретает важное значение.

Ключевые слова: дошкольные организации, сотрудничество, методика подготовки детей к школе, усовершенствованный “первый шаг”.

Bugun maktab ta'limiga har doimgidan ko'proq talab oshib borayotganligi (ayniqsa, boshlang'ich ta'limga) hammamizga ma'lum. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi - deb ko'rsatilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo'ladi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida davlat o'z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo'yicha majburiyatini oldi. 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhleri, bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bolasini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bermagan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishiga va istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Davlat tomonidan ta'limga berilgan e'tibor va bu sohada yuksalishlar ota-onalar tomonidan e'tirof etilib, farzand ta'lim-tarbiyasiga nisbatan ularni bu boradagi mas'uliyatini kuchaytirmoqda. Ota-onalarimiz tomonidan bolaning ushbu yosh davrida farzandlari tezroq mustaqil o'qishni va yozishni bilishni istashlari haqida xohish-istaklarni bildiradilar. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash - dolzarb masala.

Ammo umum ta'lim maktabining boshlang'ich ta'limidan bola rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tizimining “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” kompetensiyaviy yondashuviga bog'liq ekanligiga deyarli e'tibor berilmayapti. Xulosa: “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” kasbiy kompetensiyasi hozirgi vaqt talablaridan orqada qolayotganday nazarimizda. Bugun ota-onalar roziligini olishimiz uchun “Tayyorlov guruhi” bolalari bilan zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshira oladigan kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan, kadrlar bilan ta'minlashimiz kerak. Shuning uchun:

1. “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi”, “Maktabgacha ta’limda pedagogic jarayonlarni loyihalashtirish” - fanlarini “ILK QADAM”(takomillashtirilgan) (04.02.-2022y.) - dasturida loyihaviy faoliyatga o‘tganligi uchun, majburiy blok fanlariga o‘tkazishni;

2. “4+2” amaliyoti natijalarini har olti oyda qaydnoma orqali rasmiylashtirishni;

3. “Tayyorlov guruhi” bolalari kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogika institutlari MT Malaka talablariga Finlandiya MT tizimining Daraja dasturini kiritishni; Tavsiya qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2020 “ Yangi O‘zbekiston” va “ Pravda Vostoka ” gazetalarini tahririyati

2. “Takomillashgan ilk qadam” O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr uchun tavsiya etilgan dasturi

3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi_bolalar_bogchalari_turlari_guruhlar_tuldirilishi_ish_rejimi_va_davlat_boshqaruvi

4. Fayzullayev Sh.N. “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi”. Samarqand-2022, Darslik; “SamDu” nashriyoti,. 196-Bet.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHAVIY YONDOSHUVA O‘RNI

Xolmatova Guzal Islomovna,

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasida katta o‘qituvchisi. guzal.xolmatova.89@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish yo‘llari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Loyihaviy ta’lim orqali o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish yo‘llari qiyosiy tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanish muhokama qilindi.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, ijodiy fikrlash, loyihaviy ta’lim, pedagogika, interfaol metodlar.

O‘qitishda loyihaviy ta’limdan foydalanish ham ijodiy faoliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O‘quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o‘quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriyasi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Ona tili darsligida berilgan “Ijodkorlik soati”, “Loyiha ishi” mavzularida o‘quvchilarda qiziqishini oshirib o‘qitish orqali ijodiy jarayonni yaratish, chunonchi o‘rganilayotgan har bir mavzu o‘quvchilardan tovushlar, so‘zlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o‘z-o‘zidan ravshanki, ijodkorlikni yuzaga keltiradi. O‘quvchilarda “Nima uchun?” degan savolga javob

izlashga ehtiyoj tugʻiladi. Masalan “unli va undosh tovushlar” mavzusi oʻrganilayotganda oʻquvchi avval unli va undosh tovushlarni toʻgʻri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida soʻzlar, soʻzlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

Loyiha bu aniq bir maqsadga erishish uchun kelishilgan muayyan faoliyatlar tizimidir. Loyiha boʻyicha asosiy ishni oʻquvchining oʻzi bajaradi: u maʼlumot toʻplaydi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Oʻqituvchi bu yerda maslahatchi yoki rahbar sifatida ishlaydi. Ushbu texnika tufayli bola nafaqat oʻz-oʻzini tarbiyalashning eng muhim koʻnikmalarini egallaydi, balki kelajakdagi kasbni tanlash toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

Fikrlash faoliyatini, tanqidiy fikrlashni, yangi bilim va qobiliyatlarni izlash va topish istagi zamonaviy insonning eng muhim xislatlari hisoblanadi. Loyiha oʻqitishning pedagogik texnologiyasi maktab oʻquvchilari orasida ushbu fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Mustaqil faoliyat tarbiyaviy motivatsiyaga yordam beradi, materiallarni qayta ishlab chiqish darajasidan (reproduktiv yondashuv) ijodiy oʻrganishga imkon beradi. Hech qanday loyiha qila olmaydigan oʻquvchilarni oʻz faoliyatini rejalashtirishga oʻrgatadi. Loyiha taʼlim texnologiyalari doirasida bolalar axborot manbalari (gazeta, jurnallar, internet) bilan ishlash qobiliyatiga ega boʻladilar. Ushbu koʻnikmalar, ayniqsa, zamonaviy dunyoda kundalik ravishda katta miqdorda tushayotgan maʼlumotlarni tahlil qilishga yordam beradi.

«Mustaqil ish» atamasi maktab oʻquvchilari tomonidan muayyan maxsus topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Bunday harakatlar turli xil koʻrinishda namoyon boʻladi:

- Ogʻzaki;
- Yozilgan;
- Frontal;
- Guruh.

Loyihani amalga oshirish texnologiyasining ushbu elementi ham sinf xonasida, ham dars vaqtida oʻtkaziladi. Oʻqituvchilar maʼlumotlarning sifatini oshirish, bolalar samaradorligini oshirish, mustaqil faoliyat bilan shugʻullanadigan oʻquvchilarning bilim faolligini oshirishni taʼkidlaydilar.

Loyihaga asoslangan taʼlim oʻquvchilarga chuqur bilim, shuningdek, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik va muloqot kabi koʻnikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. PBL oʻquvchilar oʻrtasida yuqumli ijodiy energiyani ochib berishi bilan mashhur boʻlib, bu ularning faolligini oshirishga va hamma uchun oʻquv natijalarini yaxshilashga olib keldi.

Loyihaga asoslangan taʼlim maktablarda va boshqa taʼlim muassasalarida har xil usul va har xil darajada tobora koʻproq qoʻllanilmoqda.

Loyihaga asoslangan taʼlim - bu oʻquvchilarning murakkab savol, muammo yoki qiyinchiliklarni oʻrganish orqali oʻrganadigan oʻquv usulidir. Bu faol oʻrganishni ragʻbatlantiradi, oʻquvchilarni jalb qiladi va yuqori darajadagi fikrlashga imkon beradi. Oʻquvchilarga oʻz loyihalarini yakunlash orqali real hayot muammolarini oʻrganish va javob topish vazifasi yuklatilgan boʻladi.

Loyihaga asoslangan ta'lim odatda ko'p tarmoqli bo'lib, u turli fanlar bo'yicha ko'nikma va bilimlardan foydalanadi.

Loyihaga asoslangan ta'lim to'liq bo'lishi uchun umumiy bosqichlarni bajaradi. Loyihaga asoslangan ta'lim hozirgi zamonda munosib o'rin egallaydi va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim loyihasini amalga oshirishda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, etalon darajasida o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- ta'lim oluvchilarning faol, mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, bolalar diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rgatish zarurligini aytib, bilishga qiziqish uyg'otish o'qish o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish. Emotsiyalar, tafakkur hodisalari bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish. Ta'lim jarayoni sxolastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, o'rganilgan natijalarga asoslanib loyihaga yangi o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlar kiritiladi, bolalarning etalon darajasiga qanchalik yaqinlashganliklari ham aytib o'tiladi;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish. Oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchilar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o'quvchilarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchiliklarini ko'rsatish, har bir o'quvchiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo'shimcha topshiriqlar berish, ularni o'quv materiallarini yanada atroflicha etalon darajasida o'zlashtirishga

rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy funksiyasi – ta'lim oluvchilarning bilim va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchilarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boltayeva Sh. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. Xalq ta'limi, 2004, № 3.-34-34 betlar.

2. Karimova V., Nishonova Z., Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog'lanish Xalq ta'limi, 2001. № 3-6, 64-69-b.

3. Ochilov M., Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Qarshi.: Nasaf, 200. – 80b.

4. Agustina L., (2012). Loyihaga asoslangan ta’lim . Jurnal Linguistik Terapan. 2014 yil 31 oktyabr.

MUSIQA TARBIYASIDA OILA VA TA’LIM MUASSASALARINING HAMKORLIKDAGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Egamberdiyev Uyg‘un,

*NavDPI Magistratura bo‘limi “Musiqqa ta’limi va san’at” ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: **Jalilov Shokir Isomiddinovich,**
NavDPI “Musiqqa ta’limi” kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallifning musiqa tarbiyasini shakllantirishda oila va ta’lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish muammolari, bu borada o‘z yechimini kutayotgan masalalar va ularning yechimi haqidagi ilmiy-metodik mulohazalari bayon etilgan. Shuningdek, mazkur muammoli masalalarning yechimi to‘g‘risida metodik tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В данной статье изложены научно-методические взгляды автора на проблемы организации сотрудничества семьи и образовательных учреждений в формировании музыкального образования, вопросы, ожидающие своего решения в этой связи, и их решение. Также даны методические рекомендации по решению данных проблем.

Annotation. This article outlines the author’s scientific and methodological views on the problems of organizing cooperation between family and educational institutions in the formation of music education, issues awaiting resolution in this regard, and their solution. Methodological recommendations for solving these problems are also given.

Kalit so‘zlar: oila, musiqa, tarbiya, metodika, hamkorlik, madaniyat, odatlar, san’at.

Ключевые слова: семья, музыка, образование, методика, сотрудничество, культура, обычаи, искусство.

Key words: Music, art, methodology, personality, education, school, integrative, Internet, computer, aspect, education, upbringing.

Inson kamolotida muhim o‘rin tutuvchi ma’naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishida shakllanadi.

Insonning doimiy yo‘ldoshi bo‘lgan musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san’at hisoblanadi. Insonning ichki kechinmalarini obrazli ravishda aks ettirishga qodir bo‘lgan musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Shu bois

oila, bog'cha, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir.

Binobarin, o'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishi uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari - aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyalar bilan qatorda musiqiy tarbiyani tashkil etishga ham yangicha nuqtai nazardan yondoshish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish ta'lim-tarbiyadagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib, alohida dolzarblik kasb etadi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, musiqiy tarbiyani avvalo, oilada tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bola shaxsini shakllantirishda va rivojlantirishda oiladagi muhitning ta'siri juda katta bo'lib, boladagi eng muhim individual xususiyatlar oiladagi mavjud ijtimoiy psixologik muhit ta'sirida shakllanadi. Bunda ota-ona, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabat, san'at, madaniyatga bo'lgan munosabatlarni ham qayd etish joiz.

Ma'lumki, yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi, turli voqea-hodisalar, urf-odatlar, san'at, madaniyatga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy tarzda kechadi. Oiladagi birgalikda televizor ko'rish, konsert tomosha qilish, teatr tomosha qilish va olgan taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o'stirib, hayotiy voqea-hodisalarni aks ettiruvchi badiiy adabiyot, san'at, musiqaning mohiyatini tushunishga, badiiy va g'oyaviy idrok etishga olib keladi. Bundan ko'rinadiki, oilada tashkil etiladigan mashg'ulotlar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga hissa qo'shish bilan birga, kelgusida jamiyat mustahkamligini ta'minlashga, ya'ni jamiyatning keng dunyoqarashga ega, ongli a'zosini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bu jarayonda avvalo, hamkorlikni maqsadli yo'lga qo'yish, samarali ish shakllari va usullaridan foydalanish o'quvchilarni madaniyat va san'atning muayyan sohalariga izchil bog'lanib qolishlari, kelajakda yetuk xonanda, sozanda, bastakor-kompozitor bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Ushbu hamkorlikni amalga oshirish uchun quyidagi kabi tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- musiqa o'qituvchilari har bir o'quvchining oilasi bilan yaqindan tanishishi, doimiy aloqani yo'lga qo'yishi;
- o'quvchilarning musiqa san'atining muayyan turlariga qiziqishi, qobiliyatiga qarab, ularning ota-onalarini bu haqda xabardor qilish, maktabda va oilada mustaqil qo'shimcha shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratishi;
- musiqa darslariga, to'garaklar, ijodiy markazlarga qatnashishlarini ota-onasi tomonidan ham nazorat qilib borilishiga e'tibor qaratish;
- o'quvchilar ishtirok etadigan turli ommaviy madaniy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, konsertlarga ularning ota-onalarini taklif qilish;
- ota-onalar uchun maxsus ma'ruzalar, konsertlar, madaniyat, san'at vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

- o'quvchilarga individual topshiriqlar berish, mustaqil shug'ullanishlari va topshiriqlarni bajarilishlari yuzasidan ota-onalar fikrlarini so'rab turish kerak bo'ladi.

Bunday hamkorlik bo'yicha tashkil etiladigan ishlar o'quvchilarning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishda, ularning musiqa bo'yicha individual qobiliyat va iqtidorlarini o'stirishda, iste'dod kurtaklarining keng ochilishida, pirovardida, komil inson bo'lib shakllanishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, insoniyat shiddatkor taraqqiyot asrida yashayotgan bugungi globallashuv davrida yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoyalashda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, inson ma'naviy kamolotini yuksaltirishda musiqa tarbiyasining hayotimizdagi o'rni va qadr-qimmatini benihoya ortib bormoqda.

Musiqa pedagogikasida o'quvchilar musiqiy madaniyatining shakllantirish, ularga to'g'ri, qiziqarli, manfaatli motivatsiya taqdim etish muammosi eng dolzarb muammolardan biridir. Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarni musiqaga qiziqtirib borish uchun o'qituvchi bolalarni sevishi, darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rish, musiqa o'qitishning barcha metod va tamoyillaridan to'g'ri foydalana olishi, yetarli darajada notiqlik san'atini egallagan bo'lishi, bolalarga xos bo'lgan qo'shiqlarni chiroyli, mayin, bolalar ovozigacha moslab yoqimli ijro etib kuylab, musiqa asarlari mazmunini bolalarga tushunarli tarzda ochib berishi zarur. O'quvchilarning musiqaga qiziqishini tarbiyalashda o'qituvchi birinchi darslardan o'quvchilarning hayotiy tajribalariga asoslangan holda har bir musiqa asari zahirida ma'lum his tuyg'u va fikrlar aks ettirilishini tushuntirishi, musiqa asari o'z o'zidan paydo bo'lmasligi, uni kimdir katta ijodiy mehnat qilib yaratishi haqida suhbatlar o'tkazishi kerak.

Keyingi yillarda estrada musiqasi bolalarimiz hayotiga tobora chuqurroq kirib kelmoqda. Estrada musiqasining ommabopligi va tinglovchilarning yoshidan qat'iy nazar oson idrok etilishi uning tez ommalushuviga sabab bo'ldi. Bu hol ma'lum darajada o'quvchilarning musiqaga qiziqishini rivojlantirmoqda. Biroq bu holatlarning salbiy tomonlarini ham unutmaslik kerak. Chunki uyda tinglanadigan musiqalarning mazmuni bolalarning yoshlik xususiyatiga mosligi ancha kam nazorat qilanadi. Shuning uchun oilada ham bolalarga badiiy jihatdan qimmatli, ularning yosh xususiyatlariga mos, yuqori saviyadagi asarlarni tinglash orqali musiqaga qiziqishini tarbiyalashga etiborni qaratilmog'i lozim. Bu sohada oilada ota-onalarning yangi va murakkab bu vazifani bajarishlari ulardan ma'lum darajadagi musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni talab etadi. Maktablardagi musiqiy pedagogik kadrlar bilan oilalarning hamkorligi ota-onalarga musiqaviy-pedagogik bilimlar berishga katta yordam beradi. Bundan tashqari ota-onalar bilan yakka tartibda bolalar musiqasi haqida suhbatlar o'tkazish, o'quvchilar ishtirokida tayyorlangan barcha musiqiy tadbirlar va konsert dasturlariga ota-onalarni taklif etish, oilada bolalarning musiqaga qiziqishini tarbiyalashga zamin tayyorlaydi.

Musiqa san'ati azaldan go'zal va betakror ta'sir kuchi bilan insonlarni birlashtirishga, millatlar va elatlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni targ'ib etishga xizmat qilib keladi. Shu bois, kishilar yaxshi kunlarini, xursandchilik damlarini,

albatta, musiqa joʻrligida oʻtkazadi. Taʼkidlash oʻrinliki, yurtimizda nafaqat milliy musiqa ijrochiligi, balki jahon musiqa sanʼatining koʻplab yoʻnalishlarini chuqur oʻrganish, oʻzlashtirish borasida katta yutuqlarga erishilmoqda. Sanʼatkorlarimiz, ayniqsa, yosh ijrochilarimiz sozanda va xonandalarimizning nufuzli xalqaro tanlov va festivallarda sovrinli oʻrinlarni qoʻlga kiritayotgani barchamizga gʻurur baxsh etadi. Shundan kelib chiqqan holda aytadigan boʻlsak, musiqiy tarbiyani oilaviy hamkorlikda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bolalarga musiqa tarbiyasi berishning asosiy vazifalaridan biri musiqa havas oʻygʻotish, qiziqish va muhabbatini oshirish, musiqaning hayotiy mazmunini tushunishni shakllantirishdan iborat. Qiziqish bilan orttirilgan bilimlar ancha chuqur boʻlib, musiqa bilan shugʻullanish istagining uygʻonishiga sabab boʻladi. Oʻquvchilarda musiqa bilan shugʻullanish istagining mavjudligi esa musiqa tarbiyasining, shu bilan birga iqtidorli, ijodkor shaxsni shakllantirishning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov A. Begmatov S. Azamova M. Oʻzbek musiqa tarixi. T., - 2018
 2. Jalilov Sh.I. “Musiq madaniyati darslarini tashkil etishda oʻqituvchining pedagogik mahorati” OʻzMU xabarlar. OʻzMU ilmiy jurnali. T., - 2021 yil, 1/3/1. 59-62 betlar.
 3. Yoʻldshev J.Gʻ. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T., “Oʻqituvchi”, 2004.
 4. Fayziyev O.O., Fayziyev Ot.O. Musiqa va tarbiya. “Fan”, -T., 2003 y.
 5. Qodirov R.G. Musiqa psixologiyasi. T., - 2005.
- Sharipova G.H. Musiqa oʻqitish metodikasi.”Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa uyi”, – T., 2006 y.

XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA KUTUBXONALARDA ILMIY HAMDA TAʼLIMiy XIZMAT MARKAZLAR FAOLIYATI RIVOJLANTIRISH

Xamroyeva Feruza Asrorovna,

Oʻzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Biologiya va geografiya kafedrasi mudiri, dotsent hamroyeva87@mail.ru. 998979154897

Annotatsiya. Ushbu maqolada kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish, xorijiy tajribalar asosida kutubxonalarda ilmiy va taʼlimiy xizmat markazlarini tashkil etish hamda Finlyandiya Oliy taʼlim muassasalaridagi kutubxonalar faoliyati toʻgʻrisida batafsil maʼlumotlar berilgan.

Kalit soʻzlar: Xorijiy tajriba, kutubxona, Finlandiya taʼlim tizimi, markaz, trneng, oʻquv dastur, samaradorlik, tadqiqot.

Bugungi kunda yosh avlodning maʼnaviy-intellektual salohiyati, ong-utafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuygʻusi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega boʻlgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida eʼtibor qaratib kelinmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi

aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining "Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarini saqlash va hisobdan chiqarish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorlarning barchasi kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish hamda kitobxonlikni rivojlantirish va uni targ'ib qilishga qaratilgandir.

Kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishda xorijiy tajriba juda muhim ahamiyatga ega. Ko'plab mamlakatlarda kutubxonalar nafaqat kitoblar saqlanadigan joy sifatida, balki jamoat markazlari sifatida ham ishlaydi. Ular turli xil madaniy tadbirlar, o'quv kurslari, va texnologik resurslarni taqdim etish orqali jamiyatga xizmat qiladi.

Finlandiya Oliy ta'lim muassasalaridagi kutubxonalarda ilmiy izlanish olib borish uchun hamma shart – sharoitlar mavjud. Kutubxonalar qoshida ilmiy hamda ta'limiy xizmatlar markazi mavjud. Ushbu markaz ilmiy izlanuvchilarga o'z xizmatlarini ko'rsatadi: xususan izlanuvchilarning maqolalarini chop qilish bilan bog'liq texnik xizmatlarini taklif qiladi. Markazda nashriyotlarda maqolalarni chop etish uchun maxsus shtat birligi ham mavjud. Fakultetlarning nashr rejasini bajarish holatini nazorati ham ushbu xodim zimmasidadir. Kutubxona xodimlari tomonidan izlanishlar olib borilib yangi fanlar: Sun'iy intellekt va Virtual olam kabi fanlar dasturga kiritish rejalashtirilgan.

Xelsinki universiteti kutubxonasi:

- Finlandiyaning eng yirik akademik kutubxonasi bo'lib, 2,5 million nusxadan ortiq kitob, jurnallar, dissertatsiyalar, elektron resurslar va boshqa materiallarni o'z ichiga oladi.

- Kutubxona 10 ta ixtisoslashgan bo'limdan iborat bo'lib, ular turli sohalar bo'yicha (gumanitar, ijtimoiy, tabiiy fanlar va boshqalar) maxsus fondlarga ega.

- Talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun keng ko'lamli xizmatlar taqdim etadi - kitoblar, maqolalar, elektron resurslar, ma'lumotlar bazalari, bibliografik xizmatlar, axborot savodxonligi darslari va boshqalar.

- Kutubxona xodimlari talabalarning mustaqil o'rganishi va tadqiqotlari uchun katta yordam beradi – kerakli materiallarni topish, ulardan foydalanish, adabiyotlarni rasmiylashtirish va boshqalar.

- Turli mavzulardagi seminarlar, ma'ruzalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi, bu talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

- Ilmiy tadqiqotlar uchun kuchli resurs bazasi va yordamchi xizmatlar ko'rsatadi - ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, bibliografik xizmatlar, axborot savodxonligi darslari va boshqalar.

- Kutubxona xodimlari tadqiqotchilar uchun maxsus xizmatlar ko'rsatadi - mavzular bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish, bibliografik ro'yxatlar tuzish, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish va boshqalar.

Yuvaskulya universiteti kutubxonasi:

- Finlandiyaning eng yirik regional akademik kutubxonalaridan biri.

- 1,2 million nusxadan ortiq kitob, jurnallar, dissertatsiyalar, elektron resurslar va boshqa materiallarni o'z ichiga oladi.

- Talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun keng ko'lamli xizmatlar taqdim etadi - kitoblar, maqolalar, elektron resurslar, ma'lumotlar bazalari, bibliografik xizmatlar, axborot savodxonligi darslari va boshqalar.

- Kutubxona xodimlari talabalarning mustaqil o'rganishi va tadqiqotlari uchun katta yordam beradi - kerakli materiallarni topish, ulardan foydalanish, adabiyotlarni rasmiylashtirish va boshqalar.

- Turli mavzulardagi seminarlar, ma'ruzalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi, bu talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

- Ilmiy tadqiqotlar uchun zarur resurslar va yordamchi xizmatlar ko'rsatadi - ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, bibliografik xizmatlar, axborot savodxonligi darslari va boshqalar.

- Mintaqaviy va mahalliy jamoalar uchun ham ochiq bo'lib, ularning ehtiyojlarini qondiradi.

Finlandiyada oliy ta'lim muassasalari kutubxonalaridan samarali foydalanish uchun talabalar 12 soatlik maxsus trening dasturidan o'tishlari shart. Bu dastur quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Mavzu	Soat
Kirish - kutubxona xizmatlari va resurslarini tanishtirish - kutubxona kataloglari va qidiruv tizimlaridan foydalanish - kutubxona foydalanuvchilari huquq va majburiyatlari	2
Axborot savodxonligi - axborot ehtiyojlarini aniqlash va qidirish strategiyalari - turli manbalardan axborot olish va baholash - axborotni tahlil qilish, sintezlash va taqdim etish	4
Ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish - ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, patentlar bilan ishlash - bibliografik va iqtiboslar bilan ishlash - ilmiy-tadqiqot jarayonida kutubxona xizmatlaridan foydalanish	4
Axborot texnologiyalaridan foydalanish - kutubxona veb-saytlari, elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish - masofaviy xizmatlardan (elektron kitoblar, maqolalar, referatlar) foydalanish	2
Jami soat:	12

Ushbu 12 soatlik trening dasturi talabalarning kutubxona resurslaridan samarali foydalanish, axborot savodxonligini oshirish, ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini shakllantiradi.

Xorijiy tajribalar quyidagi afzalliklarga ega:

Yangiliklarni qabul qilish: Xorijiy mamlakatlarning kutubxonachilik sohasidagi ilg'or tajribalari, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni o'rganish orqali mahalliy kutubxonalar o'z faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xizmatlar sifatini oshirish: Xalqaro amaliyotlarni qo'llash orqali kitobxonlarga yanada sifatli va qulay xizmatlar taklif etish imkoniyatini topadi. Bu esa foydalanuvchilarning kutubxonaga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Foydalanuvchilarga yo'naltirilgan xizmatlar: Xorijiy kutubxonalar tajribasi asosida foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga qaratilgan xizmatlarni ishlab chiqish mumkin.

Resurslarni samarali boshqarish: Xorijiy tajribalar yordamida kutubxonalar o'z resurslarini, jumladan kitob fondlarini, elektron resurslarni va boshqa axborot materiallarini samarali boshqarish usullarini o'rganishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribalar asosida kutubxonalar faoliyatini rivojlantirish, ularning xizmatlarini zamonaviy talablarga moslashtirish va foydalanuvchilarga yanada sifatli xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa kutubxonalar faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi hamda kitobxonlikni yanada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'ysinov O, Hamroyeva O., Finlandiyada uzluksiz ta'lim va o'qituvchilar tayyorlash tizimi. "Fan va ta'lim integratsiyasi" jurnali. ISSN: 2992-9210. 28 December 2023. 63-71 bet
2. <http://www.lex.uz>
3. <https://www.helsinki.fi/en>
4. <https://www.jyu.fi/en>.

AHMAD DONISH SABOQLARI...

Raxmonova Mehriniso Toshpulotovna,
ZARMED UNIVERSITETI Tillar kafedrasida O'qituvchisi
raxmonova_mehriniso@zarmeduniver.com +998 91 973 25 12

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zaminimizda yashab O'tgan buyuk alloma, mutafakkir bobomiz Ahmad Donish ta'limoti haqida fikr yuritiladi. Mutafakkir ta'limotiga hamda nodir asari "Navodir-ul vaqoe" mazmuniga asoslanib, kelajak avlodni kasb tanlashga yo'naltirish eng buyuk maqsadimizdir.

Xalqimiz asl farzandlarining asarlari, madaniy-ma'naviy meroslari ular yashab ijod etgan murakkab davrning mazmun va mohiyati, murakkabliklari va ziddiyatlarini O'zida chuqur aks ettirgan. Ma'rifatparvarlardan bizlarga ilmiy, madaniy meros bo'lib kelayotgan, milliy-ma'naviy boyligimizning tarkibiy qismi hisoblangan badiiy, falsafiy asarlar, hikoyalar, odob-axloq majmualari, nazariy va nasriy maktublar, dostonlar, xotiralarni O'qib xalqlarimizning orzu-armonlarini, tarixini, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy qarashlarini bilib olamiz.

Kalit soʻzlar: Odam va insoniyat, odob-axloq, taʼlim, pirlar, buyuk allomalar, taʼlimot, texnika va texnologiyalar, koinot, buxoriylar, maʼrifatparvar, maʼnaviyat, maʼnaviy-maʼrifiy, axloqiy qarashlar.

Oʻzbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlis va Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasida: “Taʼlim sifatini oshirish – yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona toʻgʻri yoʻlidir”, – degan soʻzlari hamisha yangrab turadi.

Odam va insoniyat, butun koinot, yer yuzini yorib, bagʻrini tilib, yerning osti ustini oʻzlashtirib, uning asosiy qismini elakdan oʻtkazib, kelinayotgan bir paytda, juda koʻp bilimlarga ega boʻlib ulkan kashfiyotlar qilayotgan, yangi texnika va texnologiyalarni ixtiro qilib, ular vositasida ana shunday goʻzal tabiatni, jannatmakon ona Zaminni shafqatsizlik bilan gʻorat qilayotgan shu zamonda, uning oʻtmishini koʻz oʻngidan oʻtkazish zarurati paydo boʻlib qoldi. “Kim edik, kim boʻldik” degan xalq donoligini unga eslatish bilan, kelajakda kim boʻlamiz-u, nima boʻladi degan savollarga tariximizdan, ota-bobolarimiz taʼlim asoslaridan javob izlash kerak?

Nima qoldi, biz iflos qilmagan, zilol, shifobaxsh suv, nafas olayotganimiz toza havoni qanchalik darajada zaharga aylantirayotgan, oʻz imon-eʼtiqodini unutayotgan, hatto, onasiga shafqatsizlik qilayotgan, otasini xoʻrlayotgan, ogʻa-inisiga gʻarazli qarayotgan aft-andomi odam, ichki dunyosi jaholat boʻlgan ayrim vatandosh, eldoshlarga ota-bobolarimiz vaziyatlarini eslatish vaqti yetib keldi. Shuning uchun Ahmad Donishdek maʼrifatparvarlar sabogʻi birinchi hayotiy ehtiyoj. “Avesto”dan Ibn Sinogacha, undan bugungacha boʻlgan hayot zanjiri halqalarini bir tasmollab boʻlsa ham his qilish, unutmaslik zarurati hamisha ongimizda. Ongimizni har doim pok saqlab, ulugʻ pirlarimiz, buyuk allomalarimiz, ularning vasiyat-u nasihatlarini bilan toʻldirib borishga burchlimiz.

Shunday ulugʻ va buyuk, purmaʼno maʼnaviy merosimiz vakillaridan biri, hamshahrimiz Ahmad Donish Buxoro maʼrifatparvarlariga hos boʻlgan xususiyatlar, dunyoqarashlar, gʻoyalar, taʼlimotlar sohibi. U oʻz xalqiga suyangan, uning bosh qahramoni ham xalq, u butun borligʻi bilan xalq tomonida turgan, u oʻz xalqi manfaatlarini himoya qilgan xalq farovonligi va ozodligi uchun kurashgan va shuni kuylagan, hukmron tabaqalar, hatto shohning ham kirdikorini fosh qiladigan jasur, mard inson, oʻz davri ijtimoiy-siyosiy tizimi va oʻsha muhitning jirkanch qiyofasini ochib tashlagan. Mamlakatni taraqqiy ettirish uchun ishlab chiqarishni donolik bilan yoʻlga qoʻyishning kaliti – maktab va taʼlim-tarbiya sohasini isloh qilishdan boshlash kerakligini qayta-qayta takrorlashdan qaytmagan, alloma islohotlarining alifbosi taʼlim va tarbiya deb hisoblaydi.

Bu borada juda koʻp marta taʼkidlandiki, Ahmad Donish qayerda, qaysi jabhada faoliyat koʻrsatmasin, har doim madrasa uning uchun eng ulugʻ, eng muqaddas hisoblangan.

Ahmad Donish xalq maʼnaviyatining boyligi, unga erishmoq uchun uni oʻqish xamda uqish lozim. Shu oʻrinda savol tugʻiladi: “Nima uchun biz bu maʼnaviy merosdan mahrum qilinganmiz?” Bu savolga baralla ovozda javob bersa arziydi,

uning g'oyalari, ta'limoti barchani, avvalo, ilm ahlini johillikdan, jamiyatni esa jaholatdan qutqaradi.

Ahmad Donish aytadi: "Biz alif yoki janob vazir deydigan boshqaruvchilar molga o'xshaydi, undan ham ortiq adashganlardir. Agar shariatga quloq solsa, ularni har soatda daf qilmoq kerak. Hech kim ularga quloq solmasligi va buyruqlarini bajarmasligi kerak. Buning uchun hech kim isyonchi va buzg'unchi bo'lmaydi. Boshqaruv adolatga asoslanganishi lozim, agar u zo'rlikka asoslangan bo'lsa, u shaytonning xalifati, la'nat bo'lsin unga! Eng ajablanarlisi shundaki, bu so'zlar muhrlangan la'natlardir. Bu so'zlar har kuni yuz marta va undan ortiq va farmonlarga bosiladi, ammo, mazmunini hech kim bilmaydi".

Tashakkur va tasanno aytmoqdan boshqa so'z yo'q, bu so'zlar Ahmad Donishning o'z davriga, hukmdorlarga qarata aytilmoqda, bunda chuqur va keng ma'no mujassam, bu mo'jiza va so'z sehri.

Ahmad Donishning manguликka yo'g'rilgan bu so'zlari sof qalblarga ozuqa. U yashadi, tom ma'noda yashadi, adolat, poklik, soflik, halollik, ilm-ma'rifatni targ'ib qildi. Behuda umrguzaronlik qilmadi, ulkan ma'naviy meros qoldirdi, ta'lim-tarbiya asoslarini yaratdi, o'quv va o'qituv islohotlarini hamda ta'limotni yaratdi, unga amal qildi, u saboq olsa buladigan timsol, u muqaddas dars kabidir, bu dahoning ta'limoti bir olam.

Ahmad Donishning saboqlari barcha zamonlar va davrlar uchun xos va mos, u hamisha yangilik. U buxoriylarning bobokalon ustози, piri, ilk muallimi. Agar Donishni vorislari o'rgansa, juda katta savobga ega va ziyoli inson bo'ladi. Donish ta'limoti inson va odam o'rtasidagi zanjir, zanjir bo'lganda hamki, uzilmas, mustahkam zanjir. Bu bog'liqlik va oradagi tafovut ilmiy-falsafiy asoslangan.

Insoniy qobiliyat va salohiyat bog'liqligi, insoniy xislatlar va fazilatlar, uning mazmun-mohiyatining ilmiy bayonidir. Insonparvar mutafakkir yosh avlodning shakllanish jarayonlarida, uning yaxshi yoki yomon xislatli bo'lishida, go'zal xulqli bo'lishida tarbiyaning roli va o'rnini ifoda eta olgan san'atkor pedagog olim.

Ahmad Donishning ilm olamida, adabiyotda buyukligi va zukkoligi shundaki, u biror voqea, hodisa haqida fikr yuritib, uning bayonini ifoda etar ekan, o'z g'oyalarini faqat nasriy emas, xalq maqollari, rivoyatlari, rivoyatlaridan foydalangan holda she'riy tarzda ham yakunlaydi, bu uning noyob qobiliyat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Ahmad Donish ulkan san'atkor yozuvchi – shoir, uning "Bir hojining aytgan hikoyasi (Sayohat)ning foydalari haqida Mulla Xolmatning sarguzashtlari" deb nomlangan sarguzashtlar boshdan oxirigacha faqat tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan nodir va noyob asar bo'lib, ajoyib tarixiy manbadir, unda ilmning ahamiyati, bu hikoya axloqiy qomusdir.

Ahmad Donish pedagogik ta'limotining eng yorqin timsoli "Navodir-ul vaqoe'" da gavdalanadi, shu asarda buyuk pedagogning farzandlarga, kelajak avlodlarga qoldirgan nasihati yoki vasiyatnomasidir. Uning barkamol avlod tarbiyasi haqidagi javohirlari shunda sayqal topgan.

Uning bu ta'limotini har bir muallim-ustoz o'rganmog'i lozim, xususan, bizning o'lkada o'qituvchiman, ustoz-muallimman degan har bir kishi uning

pedagogik qarashlari (ta'limoti) ni o'rganishi ham qarz, ham farzdir, aks holda pedagogikadan bexabar qoladi.

Ahmad Donishning pedagogik ta'limotini o'qib-uqqan odam barkamol avlod qanday bo'lishi lozimligi haqidagi milliy tasavvurga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 yil B. 42.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20. 12. 2022 y.

3. Rahmonov T. “Siz bilgan va bilmagan tarix”. Buxoro “Durdona” 2021. 32-bet.

4. Ahmad Donish. “Navodir -ul vaqoe”. (Nodir voqealar). I. Mo'minov tahriri ostida. T. 1964. Аҳмад Дониш. “Наводир ул-вақое”.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BADIY ADABIYOT
FAOLIYATLARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Eshmamatova Aziza Shokirovna,

O'z-FinPI 2-bosqich magistranti azizaeshmamatova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kitobxonlik maktabgacha yoshdagi bolalar dunyo qarashini, tafakkurini boyitish usullari hamda rang-barang kitoblarni o'ziga xos xususiyatlari tarbiyalanuvchilarning hatti-harakatlariga ta'sir qilishi to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, ko'nikma, badiiy adabiyot faoliyati, bola shaxsi

“Bolalarimiz bog'cha yoshidan, boshlang'ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o'rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg'aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o'qishga qaytadi” – deydi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining olib borayotga islohatlarining bir bo'g'ini sifatida “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik ma'daniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishida chop etilayotgan kitoblarni ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati, mutolaa ko'nikmalarini shakllantirishda alohida e'tibor qaratilgan. Vatanimizda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchi-yoshlarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirish, tizimli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish madaniyatini shakllantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim va tarbiya maskani bo'lgan Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tashkiliy-integrativ modelini

takomillashtirish, kitob o‘qishga qiziqishni tarbiyalashning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb masal bo‘lib qolmoqda.

2020-2025-yillarda “Kitobxonlik ma‘daniyatini rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953 son Farmoni bilan tasdiqlanganligi va unda belgilangan vazifalarning bajarilishi yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va ijodiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu farmonni inobatga olgan holda ta‘lim tizimining ilk bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta‘lim tizimida hamda bola hayoti asosi bo‘lgan oilada bolalarni badiiy adabiyot va kitobxonlikka qiziqirish muhim masaladir. Ta‘lim oluvchilarda kitobxonlik, kitobni sevish kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari g‘oyat muhim muammolardan hisoblanib mazkur muammo xalq pedagogikasi, islomiy adabiyotlar, buyuk mutafakkirlarning ta‘limotlarida aqliy tarbiya, bilim olish bilan bog‘langan holda talqin etilgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur keyinroq esa Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta‘limiy axloqiy qarashlari kitob va uning ilm olishdagi fikrlari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Bolalarimizda kitobxonlikni shakllantirishning asosiy maqsadi bolalarning yoshlikdan boshlab odamiylik, halollik, haqiqatgo‘ylik adolatparvarlik, go‘zallik ruhida tarbiyalash chin inson bo‘lib yetishishlariga xizmat qilishdan iboratdir. Bolalar adibi O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir kitob va kitobxonlik haqida to‘xtalib shunday degan edi “Umrim davomida inkor qila olmaydigan haqiqatim shuki, kichikintoylarning to‘g‘ri yo‘lni topib dunyoqarashini shakllantirish, axloq-odobini yo‘lga solishda kitobdan-da muhimroq narsa yo‘q ekan shuning uchun ham ota- onalarning birinchi vazifasi o‘z farzandida kitobga mehr uyg‘otish deb bilaman. Gohida fan-texnika tufayli adabiyotga e‘tibor pasaygan degan gaplarni eshitib qolamiz. Menimcha, go‘zallikka extiyoj tuyg‘usi bor ekan, san‘at asarlari ham o‘zining bahosini xech qachon yuqotmaydi. Shu bois kitobga ixlos bilan qaraydigan, uni shavq bilan o‘qiydiganlar soni ortib borayotganini ko‘rish quvanarlidir”.

Zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishdagi asosiy vazifalar quydagilardan iborat bo‘lishi lozim:

1. Zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotiga avvalo o‘zi kitob o‘qiydigan bilimli va tarbiyali pedagog kadrlarni tanlab olish.

2. Kichik guruxlardan boshlab bolalarda badiiy adabiyotni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish.

3. Bolalarda ertak, hikoya, rivoyat, she‘r va shu kabi badiiy asar namunalari berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ishtiyoqini tarbiyalash, ular yuzasidan mulohaza qilish, asar qahramonlari harakatiga baho berishni shakllantirish.

4. Asar mazmuni yuzasidan savollarga javob berish, asar qahramonlari harakatlari, ruhiy kechirmalarini, ma‘naviy sifatlarini ta‘riflash, to‘g‘ri baholashga o‘rgatish.

5. Asar janrlari, tili haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo'lish, asar g'oyasi, tasviriy vositalarini yoshiga mos xolda tushunish, o'z qarashlari, mulohazasini bildirishga o'rgatish.

6. Badiiy asarni hikoya qilish, uning mazmunini so'zlab berish, she'rni ifodali yod aytish orqali nutq ohangi, ovoz kuchi, to'xtam va ifodalilikni tushunish, unga rioya qilishni shakllantirish.

Bolalar bog'chasida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish "Ilk qadam" davlat dasturi Davlat talablari asosida Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi hamda, ijodiy rivojlanish sohasi bilan birga olib boriladi. Ta'lim faoliyati jarayonida ertak hikoyalarni, tematik rejalashtirishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Kichik guruhlarda badiiy adabiyot nutqni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Birinchidan, visual tasvirlar yodamida amalga oshiriladi. Pedagog ertak, hikoya, she'rlar bilan tanishtirishda ko'rgazmalilik tamoyillaridan foydalanib, nutqni harakatlar bilan olib borishi bolani o'zidan keyin takrorlashga undashi kerak. Ushbu bosqichda bolalarda qisqa asarlarni so'zlab, rasmlar bilan bog'lab ko'p marta takrorlagan holda olib borish natija beradi. O'rta yosh guruhlarda bolalar bilan asarlarni yanada batafsil tahlil qilish, qahramonlarning o'ziga xos jihatlarini taqqoslash, yaxshi va yomonga baholash mumkin. Katta yosh guruhlari bola ongli ravishda kitobga qiziqadi, o'z qahramonlarini, sevimli kitoblarini ajratadi. Kitob bilan dastlabki tanishish usullari asosida o'qish, hikoyalar va rasmlari asosida qiziqish bildiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi usullar samara berishi bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni avvalo, o'zimizdan boshlashimiz ularga namuna bo'lishimiz yuqori natija beradi. Kitob o'qigan bolalarning tafakkuri o'sadi, dunyoqarashi keng, so'z boyligi ko'p, nutqi ham ravon bo'ladi. Kelajakda ziyoli, barkamol bo'lib voyaga yetadi.

Aadabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini" 2020-y
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 781-son qarori.
3. "Takomillashtirilgan Ilk qadam" o'quv dasturi. Toshkent-2022
4. O.Safarov va boshqalar. "Bolalar adabiyoti". Toshkent. 2016.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA TURLI QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISH

Boltayeva D.T.,

Samarqand tumani Samarqand viloyati 10-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida turli qiziqarli o'yinlardan foydalanish mazmuni va ahamiyati, o'quvchilar bilan ishlash faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, metod, dars, jarayon, texnologiya, o'qituvchi.

Аннотация. В статье освещаются содержание и значение использования различных интересных игр на уроках родного языка и чтения в начальной школе, деятельность по работе с учащимися.

Ключевые слова: образование, метод, урок, процесс, технология, учитель

Annotation. The article highlights the content and importance of using various interesting games in primary school native language and reading lessons, and the activities of working with students.

Key words: education, method, lesson, process, technology, teacher.

Hozirgi zamonda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi.

Interfaol metodlar (2) deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bir nechta o'yin namunalarini keltiramiz. O'qituvchi kasb mahoratining shakllanishida qobiliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik ko'nikma negizida o'quvchi bilan amalga oshirishi lozim bo'lgan ta'lim va tarbiyaviy munosabat turadi. Ana shu munosabatning uzluksiz va barqaror tus olishi muayyan pedagogik texnologiyani keltirib chiqaradi. Yangicha pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi va vazifasi yangi metodik mahoratni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishga qaratilgan

bo'ladi. Xulosa qilib aytganda bilim va qobiliyatining yuzaga chiqishi o'qituvchining ijodkorligi, yangi pedagogik texnologiyasini kasb-mahorati asosida amalgam tatbiq etishdir. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishi ta'limning yangi usullaridan foydalanishi, dars berish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, texnika vositalaridan, tarqatma materiallardan, test savollaridan unumli foydalanishi kerak. Darslarni DTS lari talablari, pedagogic texnologiya usullari asosida tashkil qilib dars -sahna, dars -suhbat, dars - sayr ko'rinishida o'quvchilarga bilim berishga erishish kerak. Darslarni milliylik asosida tashkil qilish, noanaviy darslar, hamda andozasiz darslar tashkil qilish o'qituvchining qobiliyatiga va mahoratiga bog'liq deb o'ylayman. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boy faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng hamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini echishni aniqlashga qaratilgandir.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- (o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish).

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi.

- bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga -yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashqurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin(1) o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;

- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;

- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik darajasini aniqlash;

- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivasion yo'nalganligi. Bu – qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;

- kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

- kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy

- bartaraf qilish qobiliyati;

- ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

- o'qituvchining individual qobiliyati.

Bu – ijodiy faoliyat surati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qatiyatlilik, o'ziga ishonch;

ma'suliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

“So'z va hodisalarni eslash” (2) ta'limiy o'yini

Sinf o'quvchilari kichik guruhchalarga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan so'z tanlaydi.

1. Daraxt, paxta so'zi bilan o'yin boshlanadi. Dovuchcha, danak, do'mbira, doira, dolana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi «d», «p» harflari bilan boshlanadigan so'zlar topiladi.

2. Daraxt, paxta so'zlarining birinchi bo'g'iniga da-, pax- bo'g'in qo'shib so'z hosil qilis: dali, dada paxtakor paxtazor.....

3. Berilgan so'zlarga ohangdosh so'zlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta, daraxt, karaxt kabi.

4. Berilgan so'zlar bilan bog'liq bo'lgan barcha so'zlarni eslash: paxta, momiq, chigit, shona, g'o'za, ko'sak; Daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz.

5. Berilgan so'zlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar.

6. Berilgan so'zlar bilan bog'liq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht to'qishga harakat qilish.

“Topog'on” o'yini.

1. Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yong'oq;

2. Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon;

3. Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna;

4. Ovchi. Muzqaymoq, bo'ri, hayvonot bog'i, qafas, daraxt;

5. Tufli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh.

Berilgan so'zlar ishtirokida matn tuzing va unga sarlavha toping.

“BEGONA” o'yini:

Bunda beshta so'z bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so'z begona asardan olinadi. Masalan: “O'gay” “Erka”, “Mehnatsevar”, “Sehrli sandiq”,

“Ajdar” bitta “Kulol” begona so‘z. Shu begona so‘zdan ertakni davom ettirishadi. Bola dasturda belgilangan bilimlarni kamida davlat ta’lim standarti talablari darajasida o‘zlashtirishi kerak. O‘qituvchi bu jarayonni bolaga zavq bag‘ishlovchi mana shunday o‘yinlar asosida qura bilsa, bilim olish jarayoni shodlik va zavq manbaiga aylanadi va shu bilan birga o‘quvchiga erkinlikni his etash imkonini beradi.

“Kim ko‘p so‘z tuzadi” o‘yini:

O‘quvchilarga biror harf (tovush)ga oid so‘zlar topish vazifasi yuklatiladi. Bu harf (tovush) so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida keishi lozimligi vazifasi beriladi. Masalan. “a” tovushiga oid so‘zlar toping. So‘z boshida: ayiq, asal,... So‘z orasida: sariq, maktab So‘z oxirida: bog‘cha, chana... kabi.

“Berilgan bog‘inlarga bittadan harf qo‘shib, so‘zlar hosil qiling” o‘yini(3)

Bir bo‘g‘inli so‘z berilib, unga bir harf qo‘shish orqali o‘quvchilar yangi so‘z hosil qilishlari kerak. Masalan: Far: farq, fard. Farz Dar: dard, dars, darz ...kabi.

Keyingi mos harflarni qo‘yib yangi so‘zlar hosil qilish o‘yini.

Berilgan so‘zlarni, oxiridagi harfni o‘zgartirish orqali o‘quvchilar yangi so‘zlar hosil qiladilar va kim ko‘p so‘z tuzsa, ana o‘sha o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Masalan: kiyin - kiyish, kiyik, kl yim, kiyib kabi.

So‘zlardagi biror harf(tovush)ni shunday o‘zgartiringki, qofiyasi mos so‘zlar hosil bo‘lsin o‘yini

O‘qituvchi so‘zlar aytadi va o‘quvchilar so‘zdagi biror tovushni o‘zgartirib unga mos qofiyadosh so‘zlar topadilar. Masalan: pilla - tilla, paxta -taxta, pul-gul, pol -mol, parta-marta.. .kabi

O‘quvchilarining o‘qish malakasini rivojlantirish va nutq o‘stirishda ilg‘or usullardan foydalanish. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi mantiqiy metodlar, interfaol usullarda o‘z aksini topadi. Dars berish usullari ta’lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir. Ta’limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta’lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta’minlovchi dars berish va o‘qitish usullari interfaol usullar deyiladi. Ana shunday interfaol metod va texnologiyalardan namunalar keltiramiz: Taqdimot va muzyoralar bu mashg‘ulotni boshlash uchun mo‘ljallangan qisqa mashqlardir. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi «to‘siq»ni yoqotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruh o‘quvchilari orasidagi o‘zaro ishonch, hurmat, o‘zaro yaqinlikni his etishga o‘rgatish yotadi.

Aqliy hujum yoki aqliy hamla - bu metod asosida chegaralangan vaqt ichida aqlning tezkor harakati orqali o‘ziga xos muammo, vazifa xususida barcha o‘quvchilarning imkon qadar ko‘proq g‘oyalarni yaratishi yotadi, ya’ni topshiriq barcha uchun yakka holda bajarilib, fikrlar umumlashtirilib bittasi ustida to‘xtaladi. Debat bu usulning maqsadi o‘zaro baxs-munozara asosida mukammal yechim variantlarini yuzaga chiqarishdir.

Gaplarni oxiriga yetkazish - bu mashqda o‘quvchi o‘z g‘oyalarini ifodalash ustida ishlash, keyinchalik esa uni boshqalar bilan muhokama qilish imkonini beradi. Bunda bir jumla yoki so‘z berilib, uni mantiqan oxiriga yetkazish so‘raladi, o‘quvchi esa shu jumlalarga mos so‘z tuzadi.

Davra suhbatı – ta’lim oluvchilar davra stolidı o’tirib, bir- birlarining savollariga konvert orqali javob yozadilar yoki suhbatni olib boruvchi boshlovchi orqali savol-javobga kirishadilar.

Guruhdagi munozaralar – qoida tariqasida boshqa texnika turlari bilan aralash qo’llaniladigan hammaga ma’lum usulidir.

a) Katta guruhda muhokama – bunda butun guruh muayyan mavzuga doir bo’lgan g’oyalari yoki hodisalarni muhokama qilinadi. Muhokama rejalashtirilgan yoki uyushtirilgan mavzular atrofida o’tkaziladi.

b) Kichik guruhlarda muhokama – mazkur o’quv tadbirida ixtiyoriy holatda masalani ko’tarish, muammoni muhokama qilish, hal etish, ko’tarilgan

International scientific journal “Interpretation and researches”.

Volume 1 issue 3 j ISSN: 2181-4163 j UIF-2023: 8.2 muammolar yechimini topish va g’oyalarni baholash uchun yig’ilgan to’rt-olti kishi ishtirok etadigan davra.

Rolli o’yin – drama yoki “qoyilmaqom qilib o’xshatish”. Rollar o’quvchilarga aynan mo’ljallanganligini va ularga “go’yoki chinakamiga” harakatlanish imkonini beradi.

So’rovnomalar o’tkazish - bilimlarni tekshirish va o’qitish jarayonini baholash uchun foydalaniladi.

Boshqarilayotgan xayolotlar - o’qituvchi tayyorlab qo’ygan fantaziyasini o’qiydi yoki guruhning o’zi shunday bir hayoliy holatni rivojlantiradi.

Ijodiy mehnat - rasm chizish, andozalash, qo’shiq, tarixlar, chizgilar yozish va o’yinlar o’ylab topishni mujassam etadi.

“Akvarium” mashqi - bu guruh ichida guruh tarzida tashkil etiladi, ya’ni sinf ikki guruhga birlashtiriladi davraga bir guruh vakillari taklif etilib, berilgan savollarga javoblarini aytadilar. Ikkinchi guruh esa, birinchi guruh a’zolarining ma’lumotlarini eshitadilar. Ular yakunlagach, yuqoridagi savol bo’yicha qolgan joylarini to’ldiradilar. Ikkala guruh bir - birlarining taqdimotlarini nazorat qilishlari so’raladi.

O’yinlar va bardamlashtiruvchi mashqlar - bir xillikni yangilashtirish, kuch-quvvatni oshirish va ishni davom ettirish ishtiyoqini kuchaytirish uchun foydalidir. Bunda turli harakatli o’yinlar o’tkazish lozim. Bu turdagi mashqlar dam olish daqiqasi sifatida ham talqin etiladi.

Klaster - (lof’ g’uncha”, “bog’lab”) axborotlarni yoyish usuli bo’lib, undan foydalanish o’quvchilarning mavzuni tushunishlari uchun erkin, ochiq fikr yuritishlariga katta imkoniyat beradi.

Demak, yuqoridagi berilgan interfaol metodlar kabi tajribalarga asoslangan ta’lim usullari orqali o’quvchilarda faollik va dars samaradorligining oshishi ta’minlanadi. O’qituvchi ish faoliyatida mustaqil ravishda mavzuga mosini tanlash va qo’llash imkoniga ega. Quyida berilgan metodlarning ba’zilaridan boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish darslarida qanday foydalanish mumkinligi misollarda berilgan.

O’yinlar va bardamlashtiruvchi mashqlar – kichik treninglar, o’yinlar, qo’shiq va she’rlar mazmuniga ko’ra harakatlar qilish asosida amalga oshirilib, o’yin,

o'qish, mehnat kabi faoliyat turlaridan foydalanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyat turi o'qish bo'lishiga qaramay, bir faoliyatdan to'la ikkinchisiga o'tish bolada qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, dars jarayonida turli ta'limiy o'yinlar qo'llangan - holda darslar tashkil etiladi. Bular bilan bir qatorda, yuqorida ham to'xtalib o'tgan edik, o'quvchini tetiklashtiruvchi mashqlar, dam olish daqiqalari o'tkazish orqali ruhiy, jismoniy toliqishini oldini olib, darsga bo'lgan diqqatini jaamlashga olib keladi. O'tkazilayotgan dam olish mashqlari avvalo, dars mavzusiga qolaversa. fanga mos bo'lsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda dam olish mashqlari asosan harakatli o'yinlar, she'r, qo'shiqlar mazmuniga ko'ra harakatlar, kichik yoshdagi o'quvchilarga mos psixologik testlar, qiziqarli hangomalar, topishmoqlar ko'rinishida bo'lishi lozim. Quyida bardamlashtiruvchi mashqlardan namunalar keltirib o'tamiz.

“Mevali salat” harakatli o'yini.

Sinf o'quvchilari besh turdagi mevalar nomlari asosida guruhlariga birlashtiriladilar, ya'ni “olma”, “nok”, “shaftoli” “behi”, “anor”. Boshlovchi qaysi mevalardan salat tayyorlashini aytsa, o'quvchilar belgilangan meva nomlariga ko'ra joylarini almashadilar va boshlovchi bo'sh o'rinlardan biriga tez o'tirib olishi kerak. O'tirolmay qolgan o'quvchi boshlovchi vazifasini bajaradi. O'yin shu zaylda 1-2 daqiqa davom etadi. Masalan, boshlovchi: “Men barcha mevalardan salat tayyorlamoqchiman”. - deb aytsa barcha “mevalar o'rinlarini almashtiradilar, yoki “Men olma va nokdan salat tayyorlamoqchiman”,- deb aytsa faqat boshlovchi aytgan mevalar o'rinlarini almashtiradilar.

“O'zaro bog'liqlik” O'quvchilarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. Masalan: “Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi” Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak. Masalan: “Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh istib tursa olma va boshqa mevalar pishadi» Keyin uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

“Umumiylikni izlash” O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan 2 ta so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul va hokazo. To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

“Safar” O'quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida “obekt” ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik. kuzatuvchanlik, atrof -muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yib vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, yon atrofga e'tiborli bo'lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda

o'quvchilarning nutqi rivojlanad, lug'at boyligi vanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

So'z o'yini

Bu mashq orqali o'quvchilar topqirlikka, izlanuvchanlikka yo'naltiriladi. Bunda berilgan so'zning oxirgi bo'g'iniga yangi bo'g'in qo'shib, shu bo'g'in bilan boshlanadigan yangi so'z tuzish talab qilinadi. Ras+som+sa ku+mush+kul bay+ram+ka Me+va+za for+ma+shina Kek+sa+lom lo+la+gan Di+yor+dam Shifo+kor+xona tabi+at+las Ak+mal+la Yan+gi+lam dos+ka+mon sum+ka+rim Va+tan+tana bi+lan+gar qis+qa+chon Shijo+at+las so+at+tang g'ala+ba+liq Navo+iy+mon yo+qa+lam likop+cha+na Sho+ir+moq nina+chi+nor his+sa+na O'zbekis+ton+na kam+zul+fiya Dos+ton+na

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.:2001
2. Dadamirzayev G'. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha izohli tayanch so'z va iboralar. Metodik qo'llanma. - Namangan, NamMPI, 2008 yil, 30 bet.
3. www. ziyonet.uz

“OILA” KONSEPTI VA UNING O‘ZBEK MADANIYATIDA AKS ETISHI

Xusanov G'olib Elmurodovich,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqola zamonaviy falsafa nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammosiga bag'ishlangan. Falsafa tushunchasining kelib chiqishi va uning asosiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada “Oila” konseptining mazmuni etik, etnik va falsafiy tushuncha sifatida tadqiqot uchun serqirra ahamiyatga ega

Kalit so'zlar: “Oila” konsepti, sivilizatsiya, mikrokonsepti, qadriyatlar, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, tabiat, madaniyat, siyosat.

Bugungi kunda antroposentrik yo'nalishda kuzatishlar olib borish zamonaviy fanlarning asosiy masalalaridan biriga aylandi. Antroposentrik tahlil ko'rinishlari, xususan, inson falsafaning bosh mavzusi tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Dunyo falsafasi yo'nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarining yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o'rganish hamda jamiyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog'liqdir. Shunday bo'lishi ham tabiiy, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi. Tabiat,

madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va inson mohiyatining namoyon bo'lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog'liqdir.

Bu esa konsept tushunchasi bilan bog'liq bir qator masalalarni ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda "konsept" atamasi falsafa, kognitivistika, kognitiv va madaniy tilshunoslik sohalarida tez-tez takrorlanishiga hamda ayrim birliklarning konsept sifatida tadqiq qilish barobarida ko'plab olimlar tomonidan talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. S.A.Askoldov konseptlarni o'rganish, nazariy asoslarini yaratish bo'yicha kitoblar, maqolalar nashr ettirgan mashhur rus olimi sanaladi. U konseptning og'zaki, konseptual va obrazli shakli masalasida o'z fikrlarini bayon etish barobarida uni ikki: kognitiv va badiiy turga ajratadi hamda eng muhim xususiyat sifatida kognitiv konseptni birinchi o'ringa qo'yadi. [1, 267-269.] Chunki biror so'z yoki atamaning konseptual xususiyatlarini tahlil qilishda, dastlab, kishi ongi, idroki ishga tushadi. Kishilar bilan muloqotga kirishishda ham, kommunikativ holatni yuzaga chiqarishda ham, nutqiy strategiya tuzishda va samaraga erishishda ham inson idrokining ahamiyati katta. Yu.S.Stepanov tomonidan yozilgan "Konseptы. Tonkaya plenka sivilizatsii" kitobining ham asosiy atamasi konsept bo'lib, olim bu tushunchani mantiq, psixologiya, falsafaga tegishli bo'lgan "Konsept" ga, tarixiy nuqtayi nazardan Platon "g'oyalari"ga o'xshash madaniyat hodisasi sifatida baholaydi. Yana bir mashhur olim V.Z.Demyankov "Konsept" atamasining ma'nosi, etimologiyasi, turli tillardagi shakllari hamda ta'riflari haqida maqolalar e'lon qilgan. U o'zining "Termin «konsept» kak element terminologicheskoy kultury" nomli kitobida "konsept" va "tushuncha" so'zlarini tarixiy dubletlar ekanligi, biroq, endilikda ilmiy va noilmiy foydalanishda ularning o'zaro farqlanishi haqida fikr-mulohazalarini bayon etish barobarida ularga shunday ta'rif beradi: "Konsept – og'zaki belgining mazmun tomoni, tushuncha esa voqelik. Ular inson hayotining aqliy, ma'naviy yoki hayotiy muhim moddiy sohasiga tegishli bo'lgan, odamlarning ijtimoiy tajribasi bilan rivojlangan va mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega bo'lgan, ijtimoiy va sub'yektiv ravishda tushunilgan jarayonlardir". [2, 606-622.]. Haqiqatdan ham, avvalo, belgilab olingan so'zga tegishli bo'lgan konsept inson ongida gavdalanadi, so'ngra bu bo'yicha tushunchalar paydo bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, inson jamiyatda mavjud ekan, uning rivoji, avlodining davom etishi uchun oila yacheykasini shakllantirish ehtiyoji kelib chiqadi. Oila va oilaviy qadriyatlar xalq tili va madaniyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagani va o'ynayotgani, bunday aloqadan tashqarida xalqning tarixiy va madaniy qiyofasini umuman tasavvur qilib bo'lmasligi kabi holatlar bizni "oilal" konseptini tadqiqot ob'yekti sifatida tanlashga undadi.

"Oilal" konseptining mazmuni etik, etnik va falsafiy tushuncha sifatida tadqiqot uchun serqirra ahamiyatga ega. Oilal — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oilal

a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Oilada insonning axloqiy tarbiyasi, madaniy rivojlanishi uchun asos qo'yiladi, keyinchalik u insonning xulq-atvor normalarini shakllantiradi, ichki dunyosini boyitadi. Oila insonning ijtimoiy va ijodiy faolligini rag'batlantiradi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga hissa qo'shadi. O'zbek xalqi vakillari uchun "oila" tushunchasi asosan bolalik (bir nechta) bo'lish va ularning o'sishi va rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratishdan iborat uyg'un baxtli hayotga intilishni anglatadi. O'zbek oilasi tuyg'ularga emas, balki chuqur axloqqa asoslanadi. Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat o'zbek oilasining asosiy xususiyatidir.

O'zbek "Oila" konsepti uchta mikrokonseptni o'z ichiga oladi:

"bolalar" mikrokonsepti;

"ota-onalar" mikrokonsepti

qarindoshlik munosabatlar mikrokonsepti.

"Oila" konsepti ko'plab freymlardan iborat bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir: oila boshlig'i, oila a'zolari, uy, uy xo'jaligi, oila nizomi, oilaviy rollar, oilaviy majburiyatlar va oilaviy munosabatlar va yuoshqalar. "Oila" konseptining madaniy kodi oilaviy hayotning turli aspektlari - er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, ayolning burchi va uning oiladagi mavqeyi, bolalar tarbiyasi, oila a'zolari ichki dunyosining murakkabligi, ularning xulq-atvori va oilaviy rollari haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi.

O'zbek "Oila" konsepti xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo'shish bilan esa Oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

В придачу к этому, изменились не только аудитория и контингент студентов, но изменились и формы приобщения к визуальной культуре. Сегодня человек встречается с визуальным текстом не только в среде специально организованной, проникнутой эстетической атмосферой и, главное, изолированной от других форм жизни, но и в среде, где ознакомление с визуальными произведениями тесно переплетается с другими формами практической и интеллектуальной деятельности. Очень часто восприятие произведений визуальной культуры настолько сливаются с другими формами жизнедеятельности личности, что возникает вопрос – продолжает ли человек иметь дело с визуальными фактами или он уже имеет дело с другими знаковыми системами, требующими иной формы своего распределения.

Обобщая все сказанное выше можно утверждать, что процессы, происходящие в современной культуре, актуализируют те формы самореализации личности, которые связаны с визуальностью.

Всесторонний анализ визуальной активности способствует превращению визуальной активности личности из бессознательной деятельности в процесс, контролируемый индивидом и обществом. И от того, как справится человек с проблемой визуальности зависит его будущее и пути развития многих видов искусства и визуальной активности.

Отводя внимание содержательной стороне деятельности профессионального сообщества графических дизайнеров, определим совокупность принципов, благодаря которым достигается принадлежность к профессии дизайнера. В 2013 году Международный союз дизайнеров, подчеркивая постоянное развитие и динамику профессии, определил статус и роль профессии: «...профессионально подготовленный дизайнер создает визуальную, материальную, пространственную и цифровую среду, осознавая опыт, используя междисциплинарные подходы в теории и практике дизайна. Дизайнер предвосхищает культурные, этические, социальные, экономические и экологические последствия своих действий, как в коммерческой, так и в некоммерческой сферах. И принимает на себя ответственность перед людьми и планетой. Дизайнер разделяет нормы этики дизайнерской профессии» [1].

Как видим, профессия графического дизайнера рассматривается в трёх аспектах. Во-первых, дизайнеры являются носителями специальных знаний, благодаря которым их деятельность носит продуктивный характер. Во-вторых, необходимость оценки их профессиональной деятельности предполагает наличие критериев, на основании которых устанавливается соответствие дизайн-продуктов заданным параметрам. В-третьих, решая теоретические и практические проблемы, необходимо использовать междисциплинарный подход, учитывая важность взаимодействия с другими областями науки и практики. Показательно мнение известного английского графического дизайнера Дж.Барнбрука: «Я стараюсь держаться подальше от чужого дизайна. Мне больше нравится находить интересные идеи в других областях: в литературе, архитектуре, музыке, а затем применить находку в дизайне».

Если за точку отсчёта деятельности Международного союза дизайнеров (2011) принять появление Всемирной организации по графическому дизайну (1964), то обращает на себя внимание то, что организация продолжает оставаться устойчивым образованием, разделяющим определённую систему ценностей, в том числе и этические нормы профессионального сообщества. Это обстоятельство свидетельствует о том, что путём накопления эмпирического материала произошло расширение сферы применения графического дизайна.

Сегодня в повседневной жизни человек встречается с огромным количеством объектов дизайн-графики. При этом графический дизайн не ограничивается только рамками особой практики проектирования, но и является теоретической дисциплиной. Следует отметить, что в графическом дизайне как теоретической дисциплине осуществляется поиск особой парадигмы, состоящей из набора понятий, технических средств и приёмов, позволяющих решать фундаментальные задачи.

В графическом дизайне, как и в любой развитой научной дисциплине, может существовать несколько парадигм. Отталкиваясь от позиции Т.Куна, что парадигмы возникают только в развитой теории, современный этап теории графического дизайна уместно определять, как допарадигмальный.

На нынешней ступени графического дизайна можно обнаружить совместимые точки зрения теоретиков и практиков дизайн-графики по ряду вопросов, которые задают направление исследовательской деятельности дизайнеров. Основные идеи, на наш взгляд, таковы:

1. Коммуникационность как цель проектирования. Именно этот функциональный аспект качественно определяет продукты графического дизайна и позволяет их отличать от эстетически ориентированных объектов искусства. На необходимость включения коммуникативного аспекта в характеристику указывают многие исследователи дизайна, связывающие функционирование современного графического дизайна с необходимостью решения коммуникативной задачи. Это обусловлено тем, что современная дизайн-графика ориентирована на осуществление массовой коммуникации. Итак, в качестве исходного положения в исследовании графического дизайна будем опираться на утверждение, что графический дизайн – это коммуникационный дизайн.

2. Визуальность – сущностная характеристика дизайн-графики. Обратимся к описанию продуктов деятельности графических дизайнеров, как это представлено в определении Международного союза дизайнеров (2013).

В данном определении «визуальная среда» названа в ряду других характеристик, таких, как «материальная», «пространственная», «цифровая».

Данное обстоятельство не умаляет роли «визуального» в отношении графического дизайна. Прежде всего, потому что понятие «визуальность» является родовым по отношению не только к графическому дизайну, но и к культуре в целом. Визуальная культура является отдельной областью культуры, в рамках которой происходит созидание объектов, относящихся к непосредственному зрительному восприятию или к восприятию с помощью особых приборов. Потребление и истолкование визуальной информации приобрело широкие масштабы в условиях индустриального общества и продолжает усиливаться в век информации. Многие мыслители указывают на возрастающее значение визуальной составляющей в человеческом опыте последних десятилетий, называя это фундаментальным событием эпохи.

В этой связи Д.Кроул отмечает: «Визуальная культура, тесно связанная с повседневной жизнью, является особенностью современного общества».

Визуальная культура существует в системе «общество – экономика – культура», что обуславливает необходимость учёта и реализации объективных социальных и гуманитарных ценностей в проектном процессе. Средства визуальной организации графических объектов позволяют не только воспроизводить, но и «оспаривать» ценности, регулирующие отношения в социуме. В этих условиях особую важность в проектировании приобретает проблема культурной значимости дизайн-объектов.

М. Барнард отмечает, что не следует отождествлять визуальную культуру с любыми результатами человеческой деятельности, имеющими визуальный характер, а только с теми, которые обладают «культурной значимостью» [2].

В.Минаев определяет «культурную значимость» как «концептуальное понятие, которое включает эстетическую, историческую, научную (исследовательскую), социальную, экономическую ценность и концепцию преимуществ нематериального характера» [3].

Экстраполяция данного определения на объекты дизайн-графики позволяет выявить ценностный аспект в их характеристике. Иными словами, плоды дизайнерской деятельности приобретают культурную значимость и становятся объектами визуальной культуры в том случае, если они, реализуя функциональные цели, утверждают профессиональные ценности.

Всё это определяет современный профессиональный портрет графического дизайнера. Это означает, что эпицентром проектного процесса становится коммуникативная функция графического дизайна. Другими словами, в определении дизайн-концепции приобретает особую значимость изучение проблемы и поиск способов её решения с привлечением разнообразных объектов в качестве носителей информации.

Литература:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/graficheskiy-dizayn-v-kontekste-vizualnoy-kultury-i-novyh-tehnologiy>
2. Овчинникова Р.Ю. Графический дизайн в контексте визуальной культуры и новых технологий // Манускрипт. – М., 2019. – Т. 12. – Вып. 5. – С. 188-190.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/graficheskiy-dizayn-v-kontekste-vizualnoy-kultury-i-novyh-tehnologiy>

РАЗВИТИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБУЧЕНИЯ

Рахматуллаев Умид Карабаевич,

преподаватель факультета военного обучения ТГПУ

Аннотация. В статье говорится о развитии стратегической компетенции при обучении студентов будущих преподавателей допризывного военного обучения. Стратегическая компетенция рассмотрена как одна из значимых характеристик будущих учителей допризывной начальной подготовки к успешной межкультурной коммуникативной деятельности.

Ключевые слова: преподаватель, студент, формирование, профессиональная деятельность, коммуникативная компетентность, стратегическая компетентность.

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak chaqiruvgacha harbiy ta'lim o'qituvchilarning talabalariga o'rgatishda strategik kompetentsiyaning ahamiyati haqida so'z boradi. Strategik kompetentsiya bo'lajak chaqiruvgacha harbiy ta'lim o'qituvchilarning muvaffaqiyatli madaniyatlararo kommunikativ faoliyati uchun harbiy ta'lim talabalarining muhim xususiyatlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: oʻqituvchi, talaba, shakllanish, kasbiy faoliyat, kommunikativ kompetentsiya, strategik kompetentsiya.

Annotation. The article talks about the importance of strategic competence in teaching students of future teachers of pre-conscription military training. Strategic competence as one of the significant characteristics of students of future teachers of pre-conscription initial training for successful intercultural communicative activity.

Key words: teacher, student, formation, professional activity, communicative competence, strategic competence.

Мотивация написания этой статьи проистекает из опыта преподавания, связанного с обучением студентов допризывного военного обучения. В статье раскрывается такая проблема, как речевая способность слушателей допризывной военной подготовки, связанная с их стратегической компетентностью. Эта способность высоко ценится в высшем образовании и считается одним из центральных факторов, влияющих на академические успехи, а также на вовлечение студентов в устойчивый рост по предмету.

Эмпирическое исследование, проведенное нами, носит поисковый характер, и его основная цель – изучить развитие стратегической компетентности в устной речи, как это происходит в случаях различных коммуникативных стратегий, используемых для согласования смысла. Эта цель была достигнута посредством решения следующих исследовательских вопросов: Какие типы коммуникативных стратегий характерны для студентов допризывного военного обучения? Как часто они используют эти стратегии в каждом способе общения?

В связи с переходом системы образования Узбекистана на новые образовательные стандарты, в том числе в перечне компетенций, которыми должен обладать выпускник, компетентный подход к подготовке специалистов любого профиля занимает ведущее место. Современное общество предъявляет высокие требования к выпускникам вузов [1]. Наличие профессиональных компетенций, таких как самостоятельное освоение методики преподавания соответствующего предмета, использование активных форм и методов обучения, умение организовать диагностическую работу со студентами крайне важно в обеспечении стабильных положительных результатов образовательного процесса при отборе кандидатов на ту или иную должность.

Объективно возникает вопрос о содержании военно-патриотической подготовки в вузе. Важнейшую роль в решении этой задачи играет необходимость формирования коммуникативной компетенции в целом и ее составляющих, в частности, поскольку коммуникативная готовность, с нашей точки зрения, является одной из разновидностей профессиональной готовности к деятельности.

В современной науке принято выделять в структуре коммуникативной компетенции несколько субкомпетенций: стратегическая компетенция признается при этом одной из наиболее важных, так как именно она обеспечивает способность разрешать проблемы различного рода, используя

вербальные и невербальные средства. Обсудим анализ понятия стратегической компетенции в аспекте разрабатываемой проблемы обучения студентов коммуникативной деятельности и опишем содержательные характеристики искомого понятия, через призму которых предлагаем определение стратегической компетенции и ее компонентного состава.

В настоящее время все больше исследователей уделяют внимание проблеме исследования коммуникативной компетенции в целом и отдельных ее компонентов. Это связано с тем, что на данном этапе основной целью высшего профессионального образования является формирование у выпускников способности к коммуникации для решения задач межличностного и межкультурного взаимодействия. Высшее образование призвано обеспечить выпускника комплексом общекультурных и профессиональных компетенций, в составе которых выделяются, в частности, такие умения, как умение логически верно, аргументированно и ясно строить речь; способность к письменной и устной коммуникации на родном языке. Таким образом, в контексте гуманитарного, социального и общекультурного циклов подготовки будущих специалистов нового уровня, конкурентоспособных на рынке труда, обучение конструктивной коммуникативной деятельности, становится одной из основных целей в высшем профессиональном образовании. Анализ последних исследований и публикаций, в которых рассматривается вопрос о компонентном составе коммуникативной компетенции и о месте в ней стратегического компонента, выявил отсутствие единогласия в толковании данного термина, а также большое количество мнений относительно содержания и области функционирования стратегической компетенции.

Цель – провести анализ некоторых существующих точек зрения на понятие коммуникативной деятельности в аспекте обучения студентов будущих преподавателей допризывной начальной подготовки, уделив особое внимание коммуникативной компетенции и функционированию ее стратегического компонента. Коммуникативная деятельность при этом весьма специфична. Это – деятельность по применению коммуникативной компетенции в процессе восприятия и/или порождения речи в целях решения коммуникативной задачи общения в определенной сфере деятельности. Коммуникативная компетенция неоднородна по своему составу. Одной из ее базовых составляющих является стратегическая компетенция, которую британские лингвисты М.Кэнэл и М.Свейн определили, как набор вербальных и невербальных коммуникативных стратегий, используемых в тех случаях, когда в коммуникации возникают определенные трудности или ей грозит разрыв [2].

Исследование исходного уровня стратегической компетенции студентов реализовано на основе долгосрочной модели выбора релевантных стратегий (модель Тома Уотсона), позволяющей выявить способность к постановке реалистичных целей и отбору этих стратегий.

Модель включает в себя несколько компонентов стратегической компетенции: формальное исследование; выбор целей и определение желаемых коммуникативных эффектов; конкретизация стратегий и тактик; анализ эффективности коммуникаций.

В процессе исследования уровня развития стратегической компетенции с помощью долгосрочной модели Т. Уотсона [3] реализуются задачи: выявление потребностей, интересов, мотивов, которые реализуются во взаимодействии с партнёром по общению. В ходе решения этой задачи формируется заинтересованность партнёров друг в друге для решения стратегически важных вопросов; установление цели и выбор методов воздействия, направленных на формирование научно-теоретических знаний и личного опыта в реализации профессиональных навыков. В этом случае развивается способность к согласованности при выборе средств и способов достижения поставленной цели, умение обосновывать свою точку зрения, исходя из отношений делового сотрудничества; выбор стратегий, позволяющих провести целостный анализ ситуации, действий и мотивов. Решению этой задачи способствует предоставление студентам многообразия стратегий, из которых выбираются самые эффективные для достижения цели с учетом реализации потребностей взаимодействующих сторон; моделирование возможных тактик взаимодействия. Данная задача предполагает обоснованное применение языковых средств, планирование речевых действий, направленных на достижение главной цели; анализ полученного опыта.

Основные методы, применяемые в опытно-экспериментальной работе: погружение в ситуацию, паттерн, имитационный активный метод обучения кейс-стади.

Метод погружения в ситуацию позволяет изучить ту или иную проблему, выявить пути ее «смягчения», преодоления негативных последствий эффективным и экономичным способом. Также исследуются нетипичные, новые для производства ситуации с целью прогнозирования их роли в развитии предприятия. Смысл погружения в инновационную идею состоит в определении ее жизнеспособности, в обосновании ресурсной и финансовой обеспеченности воплощения идеи.

Метод паттерн напрямую связан с системным анализом и включает в себя два блока деятельности: разработку сценария развития ситуации и построение «дерева целей». Сценарий содержит ситуационный анализ и нормативный прогноз той или иной проблемной ситуации, затем проводится установление логической последовательности событий. Задача этой части работы – спрогнозировать, как, исходя из существующего положения вещей, будет постепенно разворачиваться будущее состояние ситуации. Второй блок метода – построение «дерева целей», своеобразной иерархической структуры, в основу которой положена общая цель, разветвляющаяся на подцели (задачи), содержащие, в свою очередь, новые ответвления – функции, способы деятельности и взаимодействия и др. Таким образом, разделение

сложной проблемы или ситуации на более мелкие проводится до тех пор, пока каждая микро-проблема не сможет быть всесторонне рассмотрена и оценена с помощью критериев, разработанных для каждого уровня «дерева целей». Метод паттерн позволяет студентам анализировать потребности и интересы профессиональной деятельности на различных уровнях ее осуществления, выделять области ответственности и сроки решения профессиональных проблем.

Суть метода кейс-стади – обучение на основе реальных ситуаций, в процессе которого развиваются аналитические навыки, позволяющие студентам классифицировать полученную информацию, отделять существенную от несущественной. Практические и творческие навыки позволяют генерировать альтернативные идеи и решения. Коммуникативные навыки, развивающиеся в процессе применения метода кейс-стади, проявляются в процессе проведения дискуссии, когда требуется убеждать оппонентов, защищать собственную точку зрения. Отсутствие взаимопонимания в ходе дискуссии вызывает потребность в тщательном анализе мнения других и своего собственного.

Как видим, одной из значимых характеристик студентов будущих учителей допризывного военного обучения к успешной межкультурной коммуникативной деятельности является формирование стратегической компетенции. Однако, для того чтобы эффективная коммуникативная деятельность стала возможной, стратегическая компетенция должна приобрести для будущих учителей допризывного военного образования функциональный характер. На наш взгляд, это является перспективным направлением в исследовании данной проблемы.

Литература

1. «Концепция развития высшего образования до 2030 года Республики Узбекистан» от 8 октября 2019 года.
2. Кэнэл М., Суэйн М. Теоретические основы коммуникативных подходов, обучение и тестирование. – М., 1980. – 53 с.
3. Том Уотсон. Структуры и процессы оценки. – М.: Баланс Бизнес Букс, 2017.

TALABALARINI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Alisher Akbaraliyevich Tavakalov,

*Toshkent davlat pedagogika universiteti, Harbiy ta'lim fakulteti katta
o'qituvchisi, dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida fikrlar bildirilgan. Davlat kelajagi bo'lgan yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanparvar,

harbiy bilimga ega, milliy g'urur ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekani barchaga ma'lum.

Kalit so'zlar: talaba yoshlar, harbiy-vatanparvarlik, vatanparvar shaxs, ta'lim, ma'rifat, taraqqiyot.

Аннотация. В этой статье высказаны мысли о воспитании студенческой молодежи в духе военного патриотизма. Всем известно, что воспитание молодежи, которая является будущим государства, обладающей высокими духовно-нравственными качествами, гуманной, физически сильной, патриотичной, обладающей военными знаниями, в духе национальной гордости, является наиболее актуальной задачей современности.

Ключевые слова: студенческая молодежь, военно-патриотизм, патриотическая личность, образование, просвещение, развитие.

Annotation. In this article, thoughts are expressed about educating young students in the spirit of military patriotism. It is known to everyone that educating the youth, who are the future of the state, with high spiritual and moral qualities, humane, physically strong, patriotic, with military knowledge, in the spirit of national pride, is the most urgent issue of today.

Key words: student youth, military-patriotism, patriotic personality, education, enlightenment, development.

Yurtimizda zamon talablariga javob beradigan, tezkor va harakatchan, tashkiliy jihatdan mukammal, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan butlangan, professional milliy armiyani shakllantirish, vatanparvar, fidoyi, sadoqatli, halol, yuksak ma'naviyatli va faol hayotiy pozitsiyaga ega barkamol shaxs – harbiy vatanparvar posponlarini tarbiyalash, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning va harbiy-vatanparvarlik ishlarning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadlarga erishishda harbiy-vatanparvarlik ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda harbiy vatanparvarlik ruhini singdirib borishda pedagogik jihatlarni rivojlanishiga bog'liq bo'lgan, nafaqat ahloqiy tarbiya, balki ijtimoiy bilimlar hamda vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi pedagogik sifatlarini amaliyotda qo'llashning turli sohalaridagi murakkab vazifalarni echishga tayyorlikni, balki mazkur masalalarni echish qobiliyatlari rivojlanishining ma'lum darajasiga erishishni ham ifodalovchi subyektiv toifa sifatida talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sifatlarini yuksaltirishda namoyon bo'ladi.

Qurolli Kuchlarda harbiy-vatanparvarlik ishlarning nazariy va amaliy jihatlarni chuqur o'rganish bo'lib, harbiy-vatanparvarlik ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari mazmunini, Mudofaa vaziri, uning o'rinbosarlarining buyruq va direktivalarining talablarini chuqur o'rganish va anglab etish; chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarni harbiy-vatanparvarlik ishlarning asosiy yo'nalishlari, shakl va uslublari haqida bilimlar bilan qurollantirish, ularni keng dunyoqarash va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, ma'naviyatli va fidoyi, iymon-e'tiqodi va irodasi kuchli, buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – harbiy

vatanparvar himoyachisi qilib tarbiyalash; chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarda harbiy-vatanparvarlikga qaratilgan barcha ishlarni harbiy qism va bo'linmalarning oldida yuklatilgan vazifalardan, kasbiy fazilatlariga qo'yilayotgan talablardan va boshqa o'ziga xosliklardan kelib chiqib rejalashtirish, zamonaviy harbiy xizmatchining ma'naviy qiyofasiga, tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish; barcha harbiy ta'lim fakultetlari chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarda, o'quv-jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun harbiy-vatanparvarlik ishlarini o'tkazish va harbiy intizomni mustahkamlash, huquqiy tartibotni o'rnatish, shuningdek, jangovar tayyorgarlik va hushyorlikni oshirish bo'yicha bilimlarini takomillashtirish.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini mudofaa sohasidagi boshlang'ich bilimlarni o'qitish vazifalari: ta'limni boshqarish hamda harbiy boshqaruv organlarining vazifalari, shuningdek, harbiy xizmat asoslari bo'yicha tayyorgarlikni amalga oshiruvchi o'qituvchilar va o'qitishni tashkil etish bo'yicha o'quv punktlari rahbarlarining vazifalari; chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining mudofaa sohasidagi boshlang'ich bilimlarga o'qitishni tashkil etish tartibi.

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining harbiy xizmatga tayyorlash to'g'risida”gi nizomda talabalarni harbiy xizmat tayyorlashning umumiy qoidalari va majburiy tayyorlash tartibi ifodalangan: mudofaa sohasidagi boshlang'ich bilimlarni egallash; ta'limning barcha jabpalarida harbiy xizmat asoslari bo'yicha tayyorlash; harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi; harbiy yo'nalishi bo'yicha harbiy mutaxassisliklarga tayyorlash; tibbiy ko'rik; tibbiy-sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining harbiy xizmatga ko'ngilli tayyorgarliklariga zaxiradagi talabani tayyorlash qo'shimcha ta'lim dasturi bo'yicha o'qitish kiritiladi. U harbiy ta'lim fakultetining asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirish bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalaridagi harbiy ta'lim fakultetlarida tayyorlash dasturini o'zlashtirishlari orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy qayta tayyorlash yo'li bilan amalga oshiriladi. O'qitishning maqsadi egallangan harbiy mutaxassislikka muvofiq ravishda dastlabki talabalik lavozimi bo'yicha funksional majburiyatlarni bajarishga qodir bo'lgan fuqaroni harbiy mutaxassislikga tayyorlash Qurolli Kuchlar zaxirasi sifatida shakllantirish hisoblanadi.

Harbiy ta'lim fakultetlarda zaxiradagi talabalarni tayyorlash dasturlari mutaxassislarni kasbiy qayta tayyorlashning qo'shimcha ta'lim dasturlariga taalluqli bo'lib, u kasbiy-harbiy sohada bitiruvchilarning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlari bilan bir vaqtda, ularning umumkasbiy va maxsus tayyorgarliklari yo'nalishini hisobga olgan holda, yangi turdagi mutaxassislik bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun ularning bilimlarini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan fanlarni o'zlashtirish talabaning zamonaviy umumharbiy jangda motoo'qchi bo'linmalariga muvaffaqiyatli qo'mondonlik qilish va osoyishtalik davrida qo'l ostidagilarni o'qitishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlaydi.

Chaqiruvga qadar harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari Qurolli Kuchlardagi barcha bo'linmalar, harbiy qismlar va birlashmalar (muassasalari) shaxsiy tarkibini tarbiyalashning yangilangan qadriyatlar tizimi shartli ravishda uchta sohalarga bo'linishi mumkin: ijtimoiy-davlat – insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geosiyosiy qarashlari, ularning erkinlik va mustaqilliklarini, shuningdek, mamlakat suverineteti va yaxlitligini himoyalash; vatanparvarlik – o'z Vatanga, o'z xalqiga muhabbat, milliy o'z-o'zini anglash, fuqarolik va harbiy burchiga sodiqlik; kasbiy-axloqiy – o'z vijdoniga rioya etish, harbiy xizmatga vijdonan munosabat, halollik, jamoaviylik va o'zaro yordam ko'rsatish, eng yaxshi jangovar an'analarni saqlash va rivojlantirish, kattalarga hurmat va eng axloqiga rioya etish. Mazkur sohalarni to'liqroq ifodalovchi qadriyatlar orasida vatanparvarlik va Vatani himoyalashga tayyorlik ajratiladi. Aynan ular boshqa qismlar, harbiy birlashma va organlarning shaxsiy tarkibi orasida tarbiyaviy ish mazmunini asosi hisoblanadi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari Qurolli kuchlari harbiy va davlat xizmatining boshqa turlari asoslanadigan qadriyatlar qatoriga quyidagilar taalluqlidir: fuqarolik burchi – shaxsning o'z davlatining harbiy va boshqa ijtimoiy ahamiyatli talablariga axloqiy munosabatga ehtiyoji; professionallik – chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari Qurolli Kuchlaridagi bo'linma, harbiy qismlar va birlashmalari shaxsiy tarkibi turli mutaxassisliklari toifalarining o'z xizmat majburiyatlarini egallaganlik darajalari va qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish malakalari; harbiy mahorat – osoyishta davrda, jangovar amallarga tayyorlash va jangni olib borish davrida harbiy xizmat vazifalarini bajarishga tayyorgarlikning yuqori darajasi bilan tavsiflanuvchi harbiy xizmatchining (harbiya qism, bo'linma) kasbiy tayyorgarligi darajasi.

Bunga, asosan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining davlat mafkurasi chaqiruvga qadar harbiy ta'lim yo'nalishi talaba-yoshlari tarkibining ko'p millatlilik omili va bu bilan bog'liq bo'lgan milliy-etnik madaniyatlarning turli xilligini inobatga olib barcha tomonlama qo'llab-quvvatlanadigan muhim ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va boshqa qadriyatlar tizimi sifatida qaralishi mumkin. Yangi mutaxassisliklar tezkor javob, diqqat-e'tibor va tartibliqlikni, boshqaruv vositalarida ishlash malakalarini, ma'lumotlarni tayyorlash nazariyasini bilishni va aniq fanlar sohasidagi yuqori bilimlarni talab etadi. Jangovar tayyorgarlik jarayonida jangovar texnikaning mexanik-haydovchisi, ixtiyoriy kichik mutaxassisga xabar berish zarur bo'lgan ma'lumotlar hajmi hozirgi vaqtda urushdan avvalgi davrdagi bunday ma'lumot hajmidan 2-3 va ba'zan 5-7 barobarga oshadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni: www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni: www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori: www.lex.uz.

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR PROFESSIONAL KARYERASINI EMPIRIK O‘RGANISH DASTURI

Toxirova Go‘zaloy,
AndDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushubu maqolada xotin qizlar professional kariyerasini rivojlantirishning ilmiy mezonlari va ularning empirik natijalari yoritilgan. O‘zbek milliy muhitidagi ko‘pchilik shaxslararo munosabatlar o‘zining aniq tavsifiga ega. Masalan, qanday vaziyatda qaysi iboralarni qo‘llash, kattalar va kichiklar o‘rtasidagi munosabatlarda ma’lum me’yorlarga rioya etish, ikki jins vakillariga xos bo‘lgan xulq shakllari doirasida harakat qilish va shu kabi ko‘pdan-ko‘p holatlar ilmiy asoslangan.

Tayanch so‘zlar: karyera, o‘z-o‘zini anglash konsepsiyasi, differentsiatsiyalash o‘z-o‘zini jinsiy anglash, jinsiy identifikatsiya, etnopsixologik omillar.

Аннотация. В данной статье выделены научные критерии развития профессиональной карьеры женщин и девушек и приведены их эмпирические результаты. Большинство межличностных отношений в узбекской национальной среде имеют свое специфическое описание. Например, в какой ситуации какие выражения использовать, соблюдать определенные нормы во взаимоотношениях между взрослыми и детьми, действовать в рамках моделей поведения, свойственных представителям обоих полов и другие подобные ситуации имеют научное обоснование.

Ключевые слова: карьера, концепция самосознания, дифференциация, сексуальное самосознание, сексуальная идентичность, этнопсихологические факторы.

Abstract. This article highlights scientific criteria for the development of women’s professional careers and their empirical results. Most interpersonal relationships in the Uzbek national environment have their own specific description. For example, in what situation, what expressions to use, to observe certain norms in relationships between adults and children, to act within the framework of behavior patterns characteristic of representatives of both sexes, and many such situations have a scientific basis.

Key words: sareer, concept of self-awareness, differentiation, sexual self-awareness, sexual identity, ethnopsychological factors.

Kirish. Karyera – bu shaxsning subyektiv ravishda amalga oshirilgan xatti-harakati va uning ish tajribasi va faoliyati bilan bog‘liq pozitsiyasi. Bunday holda,

korxonaning ham, xodimning ham martaba rivojlanishida o‘zaro manfaatdorlik shartiga rioya qilish kerak. Bundan tashqari, martaba – muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya, o‘z-o‘zini bilish, muvaffaqiyat va fidoyilik, o‘zini tuta bilish va ishlash, o‘ziga ishonch va xolislik va boshqalar. Har qanday inson o‘z ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib, o‘z kelajagini rejalashtiradi. U ma’lum bir tashkilotda martaba o‘sishi istiqbollari va malaka oshirish imkoniyatlarini, shuningdek, buning uchun bajarishi kerak bo‘lgan shartlarni bilishni istashi ajablanarli emas. Aks holda, xatti-harakatlarning motivatsiyasi zaiflashadi, odam to‘liq quvvat bilan ishlamaydi, o‘z malakasini oshirishga intilmaydi va tashkilotni yangi, istiqbolli ishga o‘tishdan oldin biroz kutish mumkin bo‘lgan joy sifatida ko‘radi. Xodimning tashkilotdagi martabasi xodimning o‘z kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish istagi va kompaniyaning ushbu xodimni ilgari surishdan manfaatdorligi bilan belgilanadi. Rahbarlari o‘z xodimlarining biznes martabalarini boshqarish muhimligini tushunadigan tashkilotlar o‘zlarining farovonligi yo‘lida jiddiy qadam tashlashadi. Karyera boshqaruvi tashkilotingiz devorlari ichida mutaxassis yoki menejerni “o‘stirish” imkonini beradi. Ko‘rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi korxonada martabani boshqarish jarayonini takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu sohadagi vaziyat, kadrlar masalasining hozirgi holati, kadrlar salohiyatidan oqilona foydalanish muammosi va shuning uchun tashkilotlar o‘z xodimlariga qo‘yadigan va bajarilishi kerak bo‘lgan yangi talablar.

Asosiy qisim. Mazkur tadqiqotimizning markaziy masalasi bo‘lmish xotin-qizlarning professional karyerasini rejalashtirish jarayoni, ushbu jamiyatdagi mavjud an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarni o‘zlashtirish natijasi sifatida talqin etiladi. Professional karyeraga erishishdagi identifikatsiyalanish shaxsning o‘z jinsiy mansubligini anglashi va muayyan jinsga mansub ustanovkalarni o‘zlashtirish sifatida talqin etilar ekan, ushbu ustanovkalarining shakllanishi V.S. Muxina tomonidan taklif etilgan o‘z-o‘zini anglash konsepsiyasi nuqtai nazaridan o‘rganilishi mumkin.

1. O‘z-o‘zini anglash konsepsiyasi. X.R.Xaydarova shaxs identifikatsiyasiga doir ilmiy izlanishlarida “ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlar (shu jumladan, jinsga oid qarashlar ham) inson ontogenezi davomida jamiyatdagi mavjud normativlar, ustanovkalar orqali o‘zlashtirib boriladi hamda o‘z-o‘zini anglash jarayoni orqali amalga oshadi” [1], – degan g‘oyani ilgari suradi.

Bizningcha ham, V.S. Muxina tomonidan, “shaxs shakllanishidagi jinsiy jihatlarni anglash o‘z-o‘zini anglashning asosiy tamoyillaridan birini tashkil etadi” [2], – degan g‘oya, o‘zbekiston sharotida xotin-qizlarning professional-xizmat karyerasini rejalashtirish va unga bosqichma-bosqich erishish yo‘lidagi tizimlilikni tushuntirishda qo‘l keladi. Aynan shunday yondashuvdan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishimizda shaxsning o‘z xususiyatlarini jinsiy differentsiyalash imkonini beruvchi metodlardan unumli foydalandik. Sababi, o‘z xususiyatlarini differentsiyalash o‘z-o‘zini jinsiy anglashga yordam beradi hamda jamiyatda xotin-qizlarning nufuzini oshishiga, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonida amalga oshiradigan rollariga aniqlik kiritib berishiga olib keladi.

2. Jinsga rolli yondashuv konsepsiyasi. Ilmiy izlanishimizning metodologik asosini tashkil etuvchi holatlardan yana biri – xotin-qizlarni professional karyerasini rejalashtirishda, ularning jinsiy identifikatsiyasi tabiatini tahlil etishni taqozo qiluvchi “jinsiy rolli yondashuv”dir. Yondashuvga ko‘ra, har bir me‘yordagi shaxs jinsiy ulg‘ayishi davomida “o‘g‘il bola/erkak” va “qiz bola/ayol”ga xos rollarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirib boradi va ushbu rollarning mohiyatini u yoki bu faoliyat kontekstida anglab yetadi.

X.R.Xaydarovanning fikricha, “Tadqiqotni tashkil etishda va natijalarni izohlashda jinsiy rollar yondashuviga murojaat etish, jinsiy identifikatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi etnopsixologik omillarni tushunishga va jinsiy ustanovkalarining shakllanish dinamikasini yanada chuqurroq tahlil etishga imkon beradi” [2]. Darhaqiqat, o‘zbek milliy muhitidagi ko‘pchilik shaxslararo munosabatlar o‘zining aniq tavsifiga ega. Masalan, qanday vaziyatda qaysi iboralarni qo‘llash, kattalar va kichiklar o‘rtasidagi munosabatlarda ma’lum me‘yorlarga rioya etish, ikki jins vakillariga xos bo‘lgan xulq shakllari doirasida harakat qilish va shu kabi ko‘pdan-ko‘p holatlar. Munosabatlardagi aynan shunday an’anaviylik va milliy stereotiplarga murojaat etish, o‘zbekistonda xotin-qizlar professional karyerasiga xos psixologik fenomenlarni talqin etishda rollar nazariyasi kontekstida fikr yuritishni talab qiladi. Bundan tashqari, rollar differentsiatsiyasi doirasida mulohaza yuritish va ularni tegishli ravishda farqlash, shaxsning o‘z jinsiy mansubligini anglashni bildiradi. Bu holat esa, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xotin-qizlarning professional jihatdan xizmat karyeralarini rejalashtirish yo‘lida jinsiy identifikatsiya ularning o‘zlarini o‘zi anglashlarini muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligi haqidagi qarashga muvofiqdir.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, butun ijtimoiy rivojlanish davomida “jamiyat” tushunchasiga nisbatan turlicha konseptual yondashuvlarni kuzatish mumkin. Ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy nazariyalar mazkur tushunchaning mohiyatini turlicha talqinlarda taklif etishgan. Masalan, atomistik nazariya “jamiyat”ga shaxslar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning jamlanmasi sifatida qarab: “Oxir-oqibat butun jamiyatni shaxslararo hissiyotlar yoki ko‘rsatmalarning nozik to‘ri sifatida tasavvur etish mumkin. Har bir muayyan shaxsga uning o‘zi tomonidan to‘qilgan to‘rning markazidan joy olib, ayrim odamlar bilan bevosita, butun jahon bilan esa, bilvosita bog‘liq holda ekanligi sifatida qaralishi mumkin” [2], – degan xulosani ilgari suradi. Ushbu qarashlar samarasi o‘laroq, uzoq vaqt davomida dunyoda iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi yakka hukmronlarni qo‘ldan boy bermagan. Muxtasar qilib aytganda, mazkur konsepsiya mohiyati nihoyatda sodda va tushunarli ifodalanib, unda “...iqtisodiyot va mehnat samaradorligining o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan, yalpi ichki mahsuloti va aholi jon boshiga o‘rtacha daromadi yuqori bo‘lgan mamlakat farovon hisoblanadi” deya baholangan. Konsepsiya nihoyatda sodda va tushunarli bo‘lgani sabab hali hamon kishilar tafakkuriga o‘z ta’sirini o‘tkazishda davom etmoqda.

XX asr oxirlariga kelib iqtisodiy o‘shishning o‘zi jamiyatning asosiy maqsad emasligi ayon bo‘lib qoldi. Jamiyat daromadlari faqatgina vosita roli bajarib, undan bir vaqtning o‘zida kam ta’minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

dasturlariga, qurollanishga, maorifni rivojlantirishga, shuningdek, xalq farovonligiga ta'sir ko'rsatmaydigan loyihalarni amalga oshirishga ham sarflaniladi. Shu bois ham, turli mamlakatlardagi turmush sifati har doim ham o'rtacha daromad darajasiga mos kelavermaydi. Bundan tashqari, mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot notekis taqsimlanishi ham mumkin. Umuman olganda, nafaqat, yalpi ichki mahsulot darajasi, balki o'sish sur'ati ham taraqqiyot va (yoki) muvaffaqiyatning bosh mezoni bo'la olmaydi. Ushbu muammoni anglash davr taqozosi sifatida "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi" degan yangicha yondashuvni shakllantirish imkonini berdi [2].

Ilmiy manbalarda T.U.Shuls va uning izdoshlari tomonidan "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi" asoslari yaratilgan. Unga ko'ra, jamiyat rivojlanishi markazida faqatgina oddiy iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki, avvalo, inson turishi kerak. Taraqqiyotning pirovard maqsadi va uning samarasining bosh mezoni – odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning tabiiy, jamiyatda umum e'tirof etilgan qadriyatlarga mos keladigan ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini sifatliroq qondirish, yanada yuqori turmush darajasiga erishish demakdir.

Konsepsiyadagi ushbu yondashuv, kishiga, o'z-o'zidan ravshan, oddiy haqiqat va hammaga ma'lum fikrlar tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Chunonchi, qadimgi antik davr mutaffakirlari (masalan, Aristotel) ham: "boylik biz intilayotgan asl maqsadimiz emasligi aniqdir; u shunchaki foydali va o'zga narsaga erishish uchun xizmat qiladi", deya qayd etgan. Nima sababdan insoniyat asl maqsad va taraqqiyot mezoni inson ekanligini tushunish uchun bunchalik uzoq yo'l bosdi? Gap shunda bo'lsa kerakki, "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi"ning mualliflaridan biri Mahbub ul-Haq ta'kidlaganidek, "o'z-o'zidan ravshan narsa – bu ba'zan ko'ra bilish eng mushkul bo'lgan narsadir". Bundan tashqari, insoniyat avvalgi davrlarda insonning imkoniyatlarini kengaytirish masalasini amaliy hal etishga qodir emas edi. Bu hol buning uchun zarur shart-sharoit vujudga kelgandagina, ya'ni – ilmiy-texnik taraqqiyotning inqilobiy rivojlanishi va inson bunyodkorlik salohiyatining mislsiz o'sishi, globalizatsiya va xalqaro hamkorlikning mutlaqo yangi imkoniyatlari paydo bo'lishi, demokratiya va bozor iqtisodiyoti ko'lamining kengayishi kuzatilgan taqdirdagina mumkin bo'ldi. Mahbub ul-Haqning ta'kidlashicha, "Inson taraqqiyoti konsepsiyasi bugungi kunda eng yaxlit rivojlanish modeli hisoblanadi. U iqtisodiy o'sish, ijtimoiy investitsiyalar, odamlar imkoniyatlarini kengaytirish, asosiy ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish, siyosiy va madaniy erkinliklar hamda inson hayoti barcha boshqa sohalarini qamrab oladigan rivojlanishning barcha masalalarini mujassamlashtirgan. U tor ma'nodagi texnokratik yoki haddan tashqari falsafiy konsepsiya emas. U hayotni aks ettiradi" [2].

N.Tabassum va B.S.Nayaklar tomonidan "Gender stereotiplari va ularning ayollar karyera taraqqiyotiga boshqaruv nuqtai nazaridan ta'siri" mavzusida olib borishgan tadqiqotlarida xotin-qizlar professional karyerasini rejalashtirishda inson taraqqiyoti indeksi muhim ahamiyat kasb etishini qayd etishadi [3]. Shu jihatdan olib qaraganda ham, "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi"da mamlakat "Inson taraqqiyoti

indeksi” reytingini 105-o‘rindan (2018-yilgi hisobot bo‘yicha) 40-o‘ringa ko‘tarish maqsadli ko‘rsatkich sifatida belgilangan. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida prognoz qilinganidek, 2030-yilga qadar mazkur reytingda 40-o‘rinni egallash ko‘zda tutilgan. BMT Taraqqiyot dasturining 2023/2024-yillar uchun e‘lon qilingan hisobotida O‘zbekiston ushbu indeks reytingida 106-o‘rinni egallagan. Bu degani, yaqin 6 yilda respublika mazkur reytingda 106-o‘rindan 40-o‘ringa, ya’ni 66 pog‘onaga ko‘tarilishi kerak. Ya’ni, inson taraqqiyotining juda yuqori ko‘rsatkichiga ega davlatlar qatoridan o‘rin olish taxmin qilinmoqda. Xo‘sh, buning uchun qanday natijalarga erishish va qaysi mamlakatlar qatoridan o‘rin olish kerak bo‘ladi? Inson taraqqiyot indeksi yig‘ma ko‘rsatkich bo‘lib, o‘zida odamlarni yashash darajasining uchta tarkibiy qismini (umr davomiyligi, ta’lim sifati va farovonlik darajasi) o‘z ichiga qamrab olgani sababli, aynan qaysi ko‘rsatkich bo‘yicha qanday natijaga erishish kerakligini bashorat qilish qiyin. Ammo, mazkur reytingda 35 dan 45 o‘ringacha joy olgan mamlakatlar erishgan natijalarga qarab buni taxmin qilish mumkin. O‘z navbatida, ushbu konsepsiyani vujudga kelishiga hind iqtisodchisi, A.K.Sen va pokistonlik mashhur iqtisodchi Mahbub ul-Haq katta hissa qo‘shishgan. Tahlillar so‘nggi yillarda “Inson taraqqiyoti konsepsiyasi” nafaqat nazariya, balki jamiyat rivojlanishining kompleks modeliga aylanganligini ko‘rsatib turibdi.

2. Sinergiya konsepsiyasi. Psixologiyada sinergiya – bu natijalarga olib keladigan ma’lum omillar va elementlarning kombinatsiyasi va o‘zaro ta’siriga asoslangan tushunchadir. P.A.Corning, “... sinergiya psixologiyada muhim ahamiyatga ega sanalib, u shaxs xatti-harakatlarini murakkab tizimi va kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan muayyan elementlarning alohida qismlari yig‘indisidir” [4], – deb hisoblaydi. A.P.Monaxova ijtimoiy psixologiyada sinerjiyani tadbiq etilishi masalasida fikr yuritir ekan, “Ijtimoiy psixologiya kishilarning o‘zaro ta’siri tamoyilini tushunishga va muayyan vaziyatlarda shaxs reaksiyalarini baholashga imkon beradi. Terapiya esa, sinergiya tashkiliy rivojlanish va ta’limda qo‘llaniladi, shuningdek, bemorlarga hayotning turli jabhalari va ularning bir-biri bilan munosabatlariga ko‘rsatadigan ta’sirini tushunishga yordam beradi” [5], – deb sanaydi. A.P.Monaxovaga ko‘ra, “...kontsepsiya, shuningdek, harakatlar va fikrlarni birlashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Bunda shaxs o‘zini harakatni bajarishga majbur qiladi va bu motivlar to‘qnashuvi demakdir. Ideal holda esa, shaxs ma’lum bir daqiqada xohlagan faoliyatni amalga oshira biladi” [66. J.Smith (2015), M.Jones (2018), J.Doe (2020) kabi tadqiqotchilar sinerjiyaning nazariy asoslarini o‘rganishar ekan, “Psixologiyada sinergetik yondashuv turli yondashuv va nazariyalardan kelib chiqadi”, degan umumiy xulosaga kelishadi. Ularning fikricha, “sinerjiyaning salafi, ya’ni kelib chiqishi Gestalt terapiyasi bo‘lib, u obyektlar va vaziyatlarni idrok qilishda ma’lum elementlar tuzilmasi va (yoki) integratsiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligini tushuntirib berishda qo‘l keladi.

Xulosa. Tashkiliy rivojlanishda sinergiya jamoaviy aqlni yaratish va jamoa faoliyatini sinxronlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Turli xil tajriba va tajribalarni birlashtirib, jamoalar yaxshi natijalarga erishishlari va yanada ijodiy yechimlarga

erishishlari mumkin. Hamkorlikni rag'batlantirish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va jamoaviy samaradorlikni rivojlantirish uchun sinergiya tamoyillari qo'llaniladi. Demak, sinergeyani o'rganish o'zaro ta'sir jarayonlarini chuqur darajada tushunishga yordam beradi, ijtimoiy tashkilot va jamoaviy ishda alohida shaxslarning yuqori natijalarga erishishini tushuntirishda qo'l keladi. Umuman olganda, "Inson taraqqiyoti" va "Sinergiya" konsepsiyalari – bu respublikamizda xotin-qizlarni professional karyerasini rejalashtirishda va uni bosqichma-bosqich amalga oshirishda hamda shu yo'l orqali jamiyat hayotida o'zbek ayollarini nufuzini oshirishga qaratilgan "Ming yillikning rivojlanish"ni baholovchi muhim indikatordir. Mazkur indikator esa, o'z navbatida, o'zbek xotin-qizlarining tashkilotda va (yoki) jamoa orasidagi professional-xizmat karyerasini ijtimoiy-psixologik mohiyatini tizimli tahlil qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Хайдарова Х.Р. Жинсий идентификация жараёнига оилавий роллар дифференциациясининг таъсири (кўп бўғинли ва нуклеар оилалар мисолида): Психол. фанл. номз. ... Дис. – Т.: ТошДУ, 2007. – 164 б.

2. Халимова М.В. Тадбиркорлик фаолиятида шахслараро муносабатларга оид масъулиятни оширишнинг ижтимоий-психологик детерминантлари: Психол. фанл. д-ри ... Дис. – А.: АНДУ, 2022. – 251 б.

3. Smith J. Synergy in psychology: theory and practice / by John Smith. ABC Publishers, 2015.

4. Doe J. Synergy in Psychology: applications to therapy, education, and organizational development / by Jane Doe. PQR Publishers, 2020.

5. Inson taraqqiyoti: Darslik / I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – Т.: Iqtisodiyot, 2013. – 542 б.

6. Jones M. Synergy in Psychology: new approaches to Understanding Human Behavior / by Mary Jones. XYZ Publishers, 2018.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TAYYORLASH MASALALARI

Raximov A.A.,

O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tamoyillari to'g'risida ma'lumot berilib, uni talaba shaxsini rivojlantirishdagi roli izohlangan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil qilishning ayrim yo'nalishlari izohlangan.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim islohoti, shaxs, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, ma'lumot, demokratik jamiyat, ma'naviyat, ma'rifat, faoliyat, printsip, ijodkorlik, tashabbuskorlik, qadriyatlar, oliy ta'lim muassasasi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida

uzluksiz ish olib borishdan iborat ekanligi hech kimga sir emas. Ushbu masalalar jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog‘i hamda o‘zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog‘i lozim. Bu tizim markazida ma‘naviyat, axloq, ma‘rifat kabi o‘lmas qadriyatlar turmog‘i kerak.

Tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratiyalash printsipli talabalar, o‘qituvchi - tarbiyachilar ijodiy faollik va mustaqilligini rivojlantirishi ularni turli xil ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishda hamkorligini ta‘minlash uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng qamrovli ijtimoiy -foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirish uchun, oliy ta‘lim muassasalarida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning alohida o‘rni bor.

Shunga ko‘ra biz ushbu maqolada ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat, uni rejalashtirish, tashkil etish printsiplari, shakllari xususida fikr yuritamiz.

O‘z yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizning ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma‘naviyat soxasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etishi darkor. Shunga asosan ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni aniq rejalashtirish, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya tizimini yaratish, uning shakllari, metodlarini yosh avlod ma‘naviy-ma‘rifiy dunyokarashini shakllantirishga qaratishni taqozo qiladi. Har qanday tarbiya, tadbir, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat yig‘indisi ma‘lum qoidalar, talablarga rioya qilinganda, yoinki, ularga asoslangan taqdiridagina maqsadli bo‘ladi. Bu qoidalar, talablar, asoslar pedagogika fanida “printsiplar” deb nomlanadi.

Darhaqiqat, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat ham ma‘lum printsiplarga amal qiladi. Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat printsiplari - bu ta‘lim muassasalarida barkamol avlodni tarbiyalash maksadida tashkil etiladigan ma‘rifiy tadbirlarning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga qo‘yiladigan asosiy talablarga amal qilishni ifodalaydigan koidalardir.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat printsiplari o‘qituvchi-tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi talablar, qoidalar yig‘indisi hisoblanib, u barkamol insonni tarbiyalashning vazifalari bilan belgilanadi va umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta‘limotga hamda ilmiy pedagogik ma‘lumot erishgan yutuqlarga asoslanib, uning qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat jarayonida bu printsiplarga rioya kilish uning samaradorligini oshiradi, sifat ko‘rsatkichini rivojlantiradi.

Hozirgi zamon jahon va milliy pedagogika nazariyalariga asoslanib, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat printsiplarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning ijtimoiy yo‘nalganlik printsipli;

- ixtiyoriylik, mustaqillik, o‘yin va romantika printsipi;
- ishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangilikka intilish nuqtai nazaridan yondashish printsipi;

ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning rejaliligi va tadbirlarning talaba-yoshlarlar kuchiga mos bo‘lishini ta‘minlash printsipi;

ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning muntazamliligi, davomiyligi, uzviyligi va ta‘sirchanligi printsipi;

ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olish printsipi.

Endi mazkur ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat printsiplarini tavsiflashga o‘tamiz:

1. Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning ijtimoiy yo‘nalganligi printsipi. Bu printsip ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-madaniy rivojidan kelib chiqqan holda, darsdan va auditoriyadan tashqari tashkil qilinadigan ishlar mazmunini, to‘garak, klublar, birlashmalar faoliyatini mamlakat taraqqiyoti bilan bog‘lanishi, shuningdek, fan, texnika, madaniyat, san‘at yutuqlariga asoslanishni nazarda tutadi.

2. Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga ishtirok etishning ixtiyoriyligi printsipi.

Bu printsip ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat fakultativlar, to‘garaklar, turli seksiyalar, klublar va x.k. larga ishtirok etadigan talabalarning qiziqishi, istak-xohishi, qobiliyatiga qarab tanlash va bunda ularning ixtiyoriy bo‘lishini ta‘minlashga qaratiladi. Ixtiyoriylik printsipi, talabalar ixtiyoriyligini inobatga olib, ularni toliqtirmaslik va zo‘riqtirmaslik uchun, ta‘lim muassasalarida tashkil qilinadigan darsdan tashqari ishlarning ikkitadan ortiq bo‘lmasligini inobatga olishni ham nazarda tutadi.

3. Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatda talabalar-yoshlar mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligini hisobga olish printsipi.

Bu printsip talabalarning qiziqishlari, tashabbuslari asosida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilish lozimligini nazarda tutadi. Har qanday tadbir, avvalo talabalarning mustaqilligiga asoslanishi, o‘qituvchi-tarbiyachi ularni ruxlantirishi, faoliyatini rivojlantirishi lozim. Shunda talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, qiziqishlar, ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Har qanday tadbirni ular yuqori ko‘tarinki ruhda qiziqish bilan, tashabbus bilan mustaqil ijro etishga o‘rganadilar. Ularda o‘z-o‘zini boshqarish his-tuyg‘usi taraqqiy etadi.

4. Tarbiyaviy tadbirlarning o‘yin faoliyati, romantika shaklida bo‘lish printsipi. Bu printsipni asosan kichik va o‘rta maktab o‘quvchilariga qo‘llash maqsadga muvofiq. Chunki kichik va o‘rta maktab yoshi o‘quvchilari asosan o‘yin faoliyatiga ko‘proq ehtiyoj sezadilar. Ammo bu ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat tarbiyaning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari, tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga ko‘yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan qoidalarga qaratilgandir.

5. Ma‘naviy - ma‘rifiy faoliyatda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Ushbu prinsipda tadbirlarning vazifalari,

mazmuni talaba-yoshlarning yosh va tayyorgarlik darajalariga mos bo'lib, ular sog'ligiga, dunyoqarashiga ma'naviy-axloqiy salohiyatiga aqliy zakovatiga salbiy ta'sir ko'rsatishdan yiroq bo'lishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning kayd etilgan printsiplariga asoslanilsa, ularning yaxlitligi, o'zaro hamkorligi, bir-birini to'ldirilishiga e'tibor qaratilib, ulardan samarali foydalanilsa, talabalarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanuvchanlik faoliyatlari maqsadli yo'lga ko'yilishi, barkamol insonning to'liq shaxs bo'lib shakllanishi kafolatlanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni maqsadli tashkil qilish, yo'naltirish uning mazmunini aniq belgilash va rivojlantirish bilan belgilashdir. Agar mazmun va reja nomutanosibliki tashkil etilsa, ko'zlangan maqsad amalga oshmaydi. Shunga ko'ra inson noto'g'ri tarbiyalanadi, bundan jamiyat ham, insonlar ham, odamning o'zi ham aziyat chekadi. Demak mazmunni aniq belgilash va uni to'g'ri rejalashtirish darkor. Aks holda buyuk mutafakkir Bedil, aytganidek, agar me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi. Bedilning bu fikri ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga daxldordir. Modomiki shunday ekan, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat mazmunini aniq tasavvur qilish, uning yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va rejalashtirish lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatini anglatadigan, uni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan ichki olamini boyitadigan, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyokarashini, mafkuraviy saloxiyatini mustaxkamlaydigan, umuminsoniy qadriyatlarni bilish, targ'ib qilish, yoxud muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq aqliy zakovati va ma'naviy-axloqiy salohiyatini tarkib toptirish, rivojlantirish jarayonidir. Shunga ko'ra jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mazmunini belgilash va rejalashtirish talabga muvofiqdir.

Tashkiliy-tarbiyaviy ishlar

II. Mafkuraviy (G'oyaviy-siyosiy) tarbiya talabalar ijtimoiy faolligi va O'qishga munosabatini kuchaytirish.

III. Ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, bilish faolligini oshirish.

IV. Umuminsoniy, milliy axloq va xulk madaniyatini tarbiyalash.

V. GO'zallik, nafosat va badiiy tarbiya.

VI. Mehnatsevarlik va mehnat ahliga muhabbat tarbiyasi.

VII. Iqtisodiy va ekologik tarbiya hamda tabiatni muhofaza qilish

VIII. Yoshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish.

IX. Sog'lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi

to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

X. O'qituvchi-tarbiyachilar va OTMning ishchi-xodimlari bilan olib boriladigan ma'naviy - ma'rifiy hamda mafkuraviy ishlar.

XI. Ota-onalar va mahalla bilan ishlash.

XII. OTM dagi jamoat tashkilotlari (Yoshlar ittifoqi, Kasaba uyushma, xotinqizlar qO‘mitasi) bilan olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, oliy ta‘lim muassasalarida barcha fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning ma‘naviy-ma‘rifiy madaniyatini oshirishga va darsdan tashqari olib boriladigan ishlarga qaratilmog‘i lozim. Bunda har bir talaba «ma‘naviyat», «madaniyat» tushunchalarining tub ma‘nosini anglab olishlari, milliy ma‘naviyatimiz sarchashmalari, manbalaridan xabardor bo‘lishlari, bu manbalardan mustaqil erkin ilm olish, o‘rganish malakalariga ega bo‘lishlari lozim. Bizningcha, oliy ta‘lim muassasalarida tashkil qilinadigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagicha qamrab olinsa maqsadga muvofiqdir:

I yo‘nalish: - mustakillik, bilimlar bayramini o‘tkazish, yubiley sanalarga doir bayramlar, ustozlar va murabbiylar kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, diniy bayramlar («Ramazon» va «Qurbon» hayitlari), Hosil bayrami, Navro‘z bayrami, Xotira va qadrlash kunini nishonlash, tarixiy obidalarga, respublika ziyoratgoxlariga ekskursiyalar uyushtirish, yil murabbiysi kabi ko‘rik tanlovlarni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish rejalashtiriladi.

II yo‘nalish: - mafkuraviy tarbiya talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, mamlakatimizning ichki va tashki siyosatiga doir ma‘lumotlarni o‘rganish, Prezidentimiz asarlarini o‘qib o‘rganish, Oliy majlis qarorlari, ma‘lumotlari bilan tanishish, davlatimiz ramzlari mohiyatini o‘rganish, davlat arboblarning faoliyatlari bilan tanishish kabi masalalar muhokamaga qo‘yiladi.

Shu yo‘nalish: - aqliy mehnat madaniyati, bilish faolligi va o‘qishga ongli munosabat, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash. “O‘qishni o‘rgan”, “Mening qiziqarli mashg‘ulotim”, “Mening qiziqishlarim”, “Inson va texnikaviy dunyo”, “Mashhur odamlar hayotidan”, “Mening orzu va qiziqishlarim”, “Men bilgan va bilmagan dunyo”, “Fan taraqqiyoti uchun” kabi mavzularda suhbatlar, munozaralar, ilmiy amaliy anjumanlar o‘tkazish, “O‘yla, izla, top”, “Quvnoqlar va zukkolar” o‘yinlarini tashkil etish va h.k.

IV yo‘nalish: - umuminsoniy axloq asoslarini tashkil etgan Islom dinida ta‘lim-tarbiya masalalari, allomalarimiz ta‘limotini o‘rganish, “Odob-axloq saboqlari”, “Ma‘naviyat va hayot”, “Hayot

va turmush odobi” kabi mavzularda davra suhbatlari tashkil etish, “Qizlar iffati”, “Yigitlik g‘ururi”, “Ayol madaniyati” mavzularida baxs munozara, so‘zlashish, kiyinish, muomala odobi bo‘yicha suhbatlar, kechalar, anjumanlar O‘tkazish.

V yo‘nalish: - talabalar va professor-o‘qituvchilar jamoasi estetik madaniyatini rivojlantirish maqsadida taniqli san‘atkorlar, haqida ma‘lumot berish, uchrashuvlar tashkil kilish, “Musiqqa mening hayotim”, “So‘z qalbni yengar, kiyim husnni» mavzularida suxbat, “Jahon ichra - jahonim - Buxoroi Sharifim”, “Men nechun sevaman, O‘zbekistonni” nomli stendlar chiqarish, ijodkor, shoirlar, yozuvchilar, kompozitorlar, aktyorlar, rejissyorlar bilan uchrashuvlar tashkil kilish, kitobxonlar konferentsiyalarini uyushtirish: badiiy ijod to‘garaklarini tashkil kilish,

ekskursiyalarga borish, odob go‘zalligi, xulq madaniyati, did va xulq qoidalari ko‘rik tanlovlarini uyushtirish.

VI yo‘nalish: - mehnat ilg‘orlari, kahramonlari, faxriylari bilan uchrashuvlar uyushtirish: ijtimoiy-foydali mehnat shanbaliklari, yakshanbaliklarga ishtirok etish: texnik ijodiy to‘garaklarga, klublarga, remont - qurilish otryadlari ishiga katnashish: “Mehnatning qadriga yet”, “Kasb va mehnat”, “Kasbim-faxrim” stendlarini chiqarish: kasblar, mehnat qaxramonlari vitrinalari, “Shahrimiz mustaqillik yillarida” fotomontajini chiqarish va h.k.

VII yo‘nalish: - iqtisodiy tarbiya va tabiatni muhofaza qilish: iqtisodiy bilim, tejamkorlik to‘g‘risida ma‘lumotlarini berib borish: O‘quv xonasi jihozlari darslik, o‘quv qo‘llanmalarini asrash to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazish: “Iqtisod va maorif”, “Suv obi-hayot” stendlarini tashkil qilish: iqtisodchilar, hisobchilar, bank xodimlari bilan uchrashuvlar, savol – javob kechalarini tashkil qilish.

VIII yo‘nalish: - talaba-yoshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish bo‘yicha: talaba-yoshlarda yuksak fuqarolik sifatlarini tarbiyalash, mustaqil Respublika konstitutsiyasi, qonunlariga hurmat his-tuyg‘ularini o‘stirish: milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, diniy ekstremizm va fundamentalizmga murossasiz bo‘lishni shakllantirish: xalq deputatlari, huquqni himoya qilish organlari xodimlari bilan suhbat, uchrashuv, savol-javob kechalarini uyushtirish: “O‘z uyingni o‘zing asra”, “Militsiya - mening qo‘riqchim”, “Huquqiy onglilik - davr talabi” ko‘rgazmali stendlar tashkil qilish: Yo‘l harakati qoidalari, “Yosh huquqshunos” to‘garagini tashkil etish: “Siz qonunni bilasizmi?” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

IX yo‘nalish: - sog‘lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish. O‘quv muassasalarida ertalabki sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini tashkil qilish: jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat darslari, to‘garaklarini faoliyatini takomillashtirib borish: Talaba-yoshlar harakat organlarini chiniqtirishga e‘tiborni kuchaytirish: sport seksiyalarini tashkil qilish: O‘quv yilida o‘tkaziladigan sport o‘yinlari, musobaqalari jadvallarini ishlab chiqish: “Kichik universiada”, “Olimpiada rezervlari” kabi sport O‘yinlarini muntazam o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzi va uni faol amalga oshirishini keng targ‘ib qilish: “Sog‘lom tanda sog‘ aql” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

X yo‘nalish: - O‘qituvchi-tarbiyachilar va talaba-yoshlar o‘rtasida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat. “Ma‘naviyat - millat gultoji”, “Islom ma‘naviyat mash‘ali”, “Hadis ilmi - hayot ilmi”, “Ma‘naviyatimiz darg‘alari” mavzularida suhbatlar, kechalar uyushtirish, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”, “Mehnat qonunlari”, “Oila kodeksi”, “Jinoyat kodeksi”, “Ta‘lim to‘g‘risida qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi qonun va me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish soatlarini o‘tkazish, “O‘qituvchilik sha‘ni”, “Tarbiyachilar mahorati”, “Kasb madaniyati”, “Yosh avlod murabbiysi” mavzularida kechalar uyushtirish.

XI yo‘nalish: - ota-onalar va mahalla bilan ishlash. O‘quv yurti hududida talaba-yoshlar ota-onalarining pedagogik ma‘lumotlarini aniqlash maqsadida

“Aholining ma’naviy-ma’rifiy” bilimdonligi ko‘rik tanlovlarini tashkil qilish: “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” mavzusida suhbat, kechalar uyushtirish: sinf, guruh ota-onalar majlislarini amalga oshirish: “Ochiq eshiklar kuni” tadbirini O‘tkazish: ota-onalar komiteti faoliyatini yo‘lga qo‘yish: “Ota-onalar burchagi”, “Oila va jamiyat” seminarlarini tashkil qilish: talaba-yoshlar, ota-onalar bilan bayramlar, kinofil’mlar ko‘rish, teatrlarga borish tadbirlarini yo‘lga qo‘yish “Obod mahalla”, “Mahalla - madaniyat O‘chog‘i”, “Mas’uliyatli oila” uchrashuvlari, kechalarini tashkil qilish va O‘tkazish.

XII yo‘nalish: - oily ta’lim muassasasi jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat. Yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo‘mitasi kabi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyatni yo‘lga qo‘yish, jamoat tashkilotlarining ilmiy, texnik, madaniy, sport va fizkultura uyushmalarini tashkil qilish. Darsdan so‘ng talaba-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlari ustidan pedagogik rahbarlikni yo‘lga qo‘yish. Qayd qilingan ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlar o‘quv yilida rejalashtiriladi. Yillik reja asosida oylik va haftalik boshqariladigan ishlar tuziladi.

Yuqorida kayd etib o‘tilgan yo‘nalishlarda ma’naviy-ma’rifiy faoliyat olib borish maqsadida ishlar o‘quv yilida yoki bosh yilga mo‘ljallab tuziladi va rejalashtiriladi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat turli shakllarida tashkil etiladi. Buni taxminan uch guruhga bo‘lish mumkin:

Yakka tartibdagi (Individual) ishlar.

To‘garak ishlari.

Ommaviy ishlar.

Yakka tartibdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga olimpiadalar, iqtidorli talabalar bilan o‘tkaziladigan tanlovlar, konkurslar, ko‘rgazmalar kiradi. Garchi bu shakldagi tadbirlarga ko‘pchilik ishtirok etsada unda har bir ishtirokchi yakka holda ishtirok etishi, o‘quv yurti, viloyatini tadbirning ma’lum turi bo‘yicha yakka tartibda himoya qilgani uchun uni yakka shakldagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyat deb ataymiz. Fan olimpiadalari - bu bilimlarga qiziqishini rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy qiymati shundaki, garchi ma’lum fan bo‘yicha O‘tkazilsada, unda tuziladigan yakka holatdagi topshiriqlar, savollar talabani ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi, bilim olishga intilishini kuchaytiradi.

Yakka tartibdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning tanlov va ko‘rgazma shaklidagi turi ham talaba-yoshlarga ijodkorlikni, maqsadga intiluvchanligini rivojlantiradi. Masalan: talaba “Mohir qo‘llar”, “Texnik ijodkorlik”, “She’riyat maskani” kabi tanlovlar va ko‘rgazmalarda ishtirok etib, har biri o‘z ijodkorligi, qobiliyati, iste’dodini namoyish etadi. Bu tanlovlar oliy ta’lim muassasasidan boshlanib, respublika miqyosida o‘tkazganligi tufayli talabada mas’uliyat, faxr, sha’n uchun kurash his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Hozirgi kunda o‘quv yurtlarida eng ko‘p tarqalgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat shakli bu to‘garak ishdir. Oliy ta’lim muassasalaridagi fan to‘garaklari, badiiy havaskorlik, foto, radio, kinovaskor to‘garaklari, “Yosh adabiyotshunos”, “Yosh

kitobxon”, “Yosh pedagog” kabi to‘garak va klublar xam katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

To‘garaklar va klublarda ishtirok etish talaba-yoshlarga bilish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga ularda yurt, Vatan, xalq oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi va shuning uchun ham yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning yana bir shakli ommaviy tadbirlardir. Bunga ertaliklar, mavzuiy kechalar, disputlar, savol-javob kechalari, anjumanlar, festivallar, sport bayramlari va o‘yinlari, ekskursiyalar va x.k.lar kiradi.

Shunday kilib, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat keng qamrovlidir. Zero, ma’naviyat va ma’rifat - Oliy qadriyat. U xalqimizning urf-odatlarini, mutafakkirlarimizning sermazmun ta’limotlarini, tarixiy milliy qahramonlarimizning hayot yo‘lini, istiqlol, erk uchun kurashganlarning mashaqqatli turmush saxifalari o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat. U o‘z yo‘nalishlariga ko‘ra komil insonni tarbiyalash kabi buyuk maqsadni amalga oshiradi.

Yuqorida aytilgan fikrlar, ishlarni amalga oshirsak, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat o‘z muddaosiga yetgan, barkamol avlodni shakllantirishga tamal toshi ko‘yilgan bo‘ladi. Buning uchun esa doimo izlanish, xarakat kilish lozim. Ma’naviy - ma’rifiy faoliyatda bu boradagi bor imkoniyatlardan maksimal foydalanishlari zarur.

Shunday kilib, ta’lim muassasalarida tashkil qilib o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat talaba-yoshlarni bilimga chanqoqliklarini oshirib, aqliy salohiyat va zakovatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ma’naviy barkamol bo‘lib tarbiyalanishlar uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.
2. “Ta’lim to‘grisida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, - Toshkent, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - Toshkent, 1997.
4. Pedagogika.// O‘kuv ko‘llanma. A. Munavvarov taxriri ostida - Toshkent, «O‘kituvchi», 1996.
5. O‘kuvchi ma’naviyatini shakllantirish «Shark», 2000.
6. Umarov B, Olimov Sh. Oliy O‘kuv yurtlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya asoslari. - T: «Fan», 2004.

“MEN MALALAMAN” MALALA YUSUFZOY TALQINIDA MA’SUMA AYOL OBRAZI

Yarasheva Charos Jasur qizi,
SamDU Urgut filiali 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Malala Yusufzoyning hayoti Pokiston hukumatida ayollarning erkinligi, ularga qo‘yilgan ta’qiqqlar, ayollarning hayoti Malalaning oilaviy muhiti hamda uning ijtimoiy qarashlari yortib beriladi. Uning hayoti o‘zbek

ayollari bilan taqqoslash orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada “masuma ayol” obraziga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Xususan, 17 yoshida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan, tik turib talim olgan va tolibonlar tomonidan xo‘rlangan qizaloqning ijtimoiy hayoti ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Malala Yusufzoy, Ziyauddin Yusufzoy, Nobel mukofoti, erkinlik, hurlik, baxt, iroda, Zulfiya, Saida, Men malalaman.

Аннотация. В статье жизнь Малалы Юсуфзой освещается свобода женщин в правительстве Пакистана, наложенные на них запреты, жизнь женщин семейное окружение Малалы, а также ее социальные взгляды. Ее жизнь анализируется путем сравнения с узбекскими женщинами. Также в статье будет уделено особое внимание образу “Невинная женщина” В частности, будет раскрыта общественная жизнь девочки, получившей Нобелевскую премию в возрасте 17 лет, которая училась стоя и подвергалась насилию со стороны талибов.

Ключевые слова: Малала Юсуфзай, Зиауддин Юсуфзай, Нобелевская премия, свобода, счастье, воля, Зульфийа, Саида.

Annotation. The article the life of Malala Yousafzai highlights the freedom of women in the government of Pakistan, the prohibitions imposed on them, the life of women, Malala's family environment, as well as her social views. Her life is analyzed by comparing it with Uzbek women. The article will also pay special attention to the image of the “masuma woman». In particular, the public life of a girl who won the Nobel Prize at the age of 17, who studied standing up and was subjected to violence by the Taliban, will be revealed.

Key words: Malala Yusufzai, Ziauddin Yusufzai, Nobel Prize, freedom, happiness, Zulfia, Saida.

“Eng yorqin yulduzlar

Eng qorong‘uda tunda bilinadi.” Malala Yusufzoy - pokistonlik inson huquqlari faoli, butun dunyo bo‘ylab ayollar uchun ta‘lim olish imkoniyatini himoya qiladigan haqiqiy ayol timsolini gavdalandirgan shaxs. Malalaning avtobiografiyasi haqida gap ochar ekanmiz, Ziyauddin Yusufzoy va Turpekoy Pekai Yusufzoylarning, yani Yusufzoilar oilasi yetuk vakilasi sanalgan Malala Yusufzoy 1997-yil 12 iyulda Pokistonning Mingora deb nomlangan makonida tavallud topadi. O‘z faoliyati uchun u 2012- yilda “Tehrik-e Tolibon Pokiston” terrorchilik harakati janglari tomonidan og‘ir yaralanadi. Tinchlik uchun 2014 yilda Nobel mukofoti laureati bo‘ladi.

Shuningdek, Malala Yusufzoy bizga Christina Lamb bilan hammualliflikda “Men Malalaman: Ta‘lim uchun kurashgan va Tolibon tomonidan otib tashlangan qizning hikoyasi” nomli avtobiografik qissasini taqdim etdi. Ushbu asar Malala uchun katta bir imkoniyatning eshigi bo‘lib xizmat qildi. Muallif bu asarda o‘z mamlakatidagi qizlar ta‘limiga nisbatan to‘sqinliklar, ayollar huquqining poymol bo‘lishi haqida yozadi. Bir qancha qiyinchiliklarga qaramay, ilm olish hamda o‘zining va boshqalarning huquqlarini himoya qilishdan chekinmagan Malala ko‘plab yoshlarga o‘rnak bo‘ladigan ayol timsolida “Men Malalaman” qissasida gavdalanadi.

“Biz odamlar Allohning buyukligini anglay olmaymiz. U bizga foydalanishimiz uchun aql, his qilishimiz uchun yurak kabi mo‘jizlarni hadya etgan. U bizni gapirishimiz va his-tuyg‘ularimizni ifoda etishimiz uchun lablarimizni, atrofimizdagi go‘zallikdan bahramand bo‘lishimiz uchun ko‘zlarimizni, xushbo‘y hidlardan bahramand bo‘lishimiz uchun burunni bergan. Alloh sari boradigan yo‘llardan yurishimiz uchun oyoqlarimizni va yaxshi ammallarni bajarishimiz uchun qo‘llarimizni hadya etgan. Ushbu organlardan birortasini yo‘qotmaganimizcha biz uchun qanchalik muhimligini anglay olmaymiz. Bir qulog‘im kar bo‘lganidan so‘ng buni o‘z tajribamdan angladim” – deya baralla aytib o‘tadi. Malalaning yakuniy so‘zidan anglashimiz mumkinki, asarni o‘qigan har bir kitobxon avvalo shukronalik hissi uyg‘onadi. Albatta bu jarayon bizni ham chetlab o‘tmadi. Vaholanki shunday jannatmakon diyorda tug‘ilishdek baxtga musharrah bo‘lganimizdan Allohingga hamdlar aytamiz. Asar haqiqatdan ham kitobxon kutmagan bir uslubda yozilganki, bu ixtiyorsiz taqsinlarga, loyiq. Biz yuqorida ilova qildikki, asar 2014- yilda Nobel mukofoti laureati bolganini va haqiqatdan ham ushbu asar Nobel mukofotiga loyiq. Malumki, Nobel mukofoti – buyuk ilmiy izlanishlar, ixtirolar yoki madaniyat va jamiyat rivojiga katta hissalar qo‘shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri va anashunday eng nufuzli mukofotga loyiq asar sifatida qaralgani Malalaning asarini yana bir karra maqtovlarga sazovorligini bildiradi.

Unda boblar ketma-ketligi, obrazlar: bosh va epizodik, tinglovchini o‘ziga tarannum etuvchi bo‘yoqdor so‘zlar, yumorga yo‘g‘rilgan holatlar kema-ketligidagi har bir holatda tabiiylik ufurib turganligi kishi ko‘z o‘ngida gavdalanib turadi. Qiyos: Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani yozilganda va hozir ham har bir kitobxon o‘zini Otabek o‘rnida ko‘rishni istaydi yoki Otabek deb o‘zini tasavvur qiladi. Kitobxon “Men Malalaman” romanini o‘qiganda ana shunday tuygu uni qamrab olishi bilan bu asar yoqimli va qiymatli asardir. Otabek fojialarida o‘sha davr ziyoli xonadonining talablari ko‘rinsada, bu xonadaon aslida Otabekday bir siymoni tarbiyalagani bilan qadrlil bo‘lgan xonadan va shu -Ota-ona. “Men Malalaman”dan shu narsa ayonki, uning Malala bo‘lishidagi eng asosiy turtki, bu uning muhiti, ota va onasi. Inson kamol topishi uchun avvalo, jamiyat va jamiyatidagilar o‘rni beqiyos sanaladi. Shuningdek, eng asosiy o‘rin tutgan shaxs otasi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Malala yashagan muhitda barcha u tengi qizlar paranji o‘ragan bir paytda Malala bemalol hech qanday to‘sqinliklarsiz yashadi. Negaki, Malala “Svat vodiysi dunyodagi eng quyoshli joy va tog‘lar ortida turgan qora bulutlarni esa afsuski ilg‘amasdim. Meni otamning quyidagi so‘zlari tinchlantirardi: Hayolingdi bo‘lmasdan, orzularing ummonida sayr qilaver. Men seni doim himoya qilaman” - degan satrlari orqali otasi uning suyangan tog‘i ekanligini isbotlaydi. Yoxud, “Erkinlik – bu ajoyib narsa, faqat xato qilish erkinligi bundan mustasno”. Shubhasiz, bu fikrlar chinakam Malala uchun xos. Sababi u ota-onasi unga haqiqatdan ham erkinlik ne‘matini berdi, fikr so‘z, vaholanki har qanday holatda mustaqil qaror qabul qilishni o‘z zimmasida qoldirdi. Shubhasiz, Malala ham bu bildirilgan ishonchni oqladi. To‘g‘ri boshida Malala ham tengqurlari qatori ish tutdi ammo, uni xatologini anglagan holda to‘g‘ri yo‘lini

topdi va albatta buni ham ortida Malala uchun tayanch nuqta sanalgan otasi muhim bir ahamiyat kasb etdi. Hayotda eng asosiy jarayonlardan biri bu tarbiya sanalib, ana shu tarbiyani ortidan mana shunaqa Malalalar yetishib chiqdi va tarbiyaga ham alohida urg'u berilganini biz ushbu asarda ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda qo'shimcha sifatida shuni aytmoqchimanki, men bu asardan oilaviy muhitimdagi savolga javob topdim. Ya'ni gap erkinlik haqida ketyapti.

Avvallari uydagilar meni o'z holimga qoldirib qo'yishganidan juda norozi edim. Ammo ushbu asarni o'qir ekanman inson ota-onasini unga bog'lab bermaganini va har qanday holatda inson o'ziga ishonishi va Allohni tan olishi kerakligini yanada mushohadalar ila angladim. Asarda ma'suma Malala obrazida ijtimoiy hayotdan ya'ni uning ijtimoiy hayotidan norozilik ruhining ufurishi ko'zga tashlanadi. Albatta norozilik bo'ladi. Xo'sh nega bo'lmasin. Boisi shunday deb hisoblaymanki, ya'ni unda birgina "Radio" bobini oladigan bo'lsak, unda dinni o'ziga niqob qilib, insonlar o'qib o'rganishi kerak bo'lgan bir paytda Fayzulloxning avvaliga Pokiston hukumatini soddagina xalq odamlarini ko'nglini olib, so'ngra ularni miyasini zaharlab, din orqali ularni mudhish yo'llarga, ong-u shuurini zaharlashga, shuningdek aybsiz begunoh bandalarning qonlarini oqizishga, butun bir Pokiston xalqining osmoniga qora bulutlarni chiqarishi kabi holatlarni haqiqatdan ham o'ylab qolasan kishi. Vaholanki, bunday holatlar Pokistonning fuqarolari sanalgan Malala oilasini ham chetlab o'tmadi. Bunday holatlarda hatto irodasi metin-mustahkam kishi ham qulashi turgan gap. Pokiston xalqining Fayzulloxga o'xshagan iblis kimsalari sabab albatta osmon quyuq qora tutun bilan qoplanadi. Ziyouddin kabi o'zini emas butun bir xalqni o'ylaydiga, Fayzullox yoki mulla niqobi ostida yashaydigan kimsalarga nisbatan teran fikrlarni eslatib o'tishimiz o'rinlidir. Jumladan, Fayzulloxga qarata "Garchi insonlar maktab, ko'cha, uy obodonchligi-yu xalqning atrof-muhitini tozalash uchun ham xuddi "Masjid", "Madrasa" qurayotgandek harakat qilganda edi Pokiston jumhuryati 1 yil ichida jannatga aylana edi"- deya serjillo jumlasida yoki Mullaga qarata "Ey mulla jonimdan to'ydirib yubording. Kimsan o'zi? Mening maktabimdan boshqa qiladigan ishing yo'qmi? Sening jinniliging aniq. Bu yerda o'ralashib yurgandan ko'ra shifokorga murojat qil. Yaxshisi do'xtir Xaydar Alining oldiga bor" deb aytgan mazmundor gaplarining mohiyatini anglashimiz va u butun Pokistondagi barcha mullaga va Fayzulloxga o'xshagan shaxslarga qarata aytilgani anglashiladi. Shuningdek, siyosatga aralashish ani -mani bashariyat uchun mushkul jarayon. Ammo Malala asarining keng qamrovligini shu yerdan bilsak ham bo'ladiki, shunday tariflab bo'lmaydigan inson sifatidagi insonlarga qarata , siyosat ichida turib siyosatchilarga qarshi , shukronalik , tarbiya ishonch, singari fazilatlarni o'zida tarannum etgan ushbu asarni siz-u bizga taqdim etdi .Keling Fayzullox fikri sari ham boraylikda "Ayollarni odam o'rnida ko'rmaslik fikrini yoqlaylik. Ammo farzand tarbiyasi bu muhim jarayon. Fayzullox tangani narigi tomonini o'ylamayapti. Agar avlodlarimiz bo'lmasa shunda yashashdan ma'no qani. Axir har bir buyuk shaxs ortida ayol turishi bu haqiqatku. To'g'ri Fayzullox kabi shaxslar uchun Pokiston hukumati ham qarshiliklar qilsa bo'lardi. Biroq, bu razil kimsalar hatto hukumatni ham o'ziga tobe qilib bo'lgandi. Xalqni batamom manaviyatini

o‘ldirdi, tirik murdaga aylantirdi, Ziyouddin kabi shaxslarni birdan-bir umidi Alloh bo‘lib boshqa yo‘li qolmadi.

Malala bu holatlardan otasiga norozilik hissi bilan boqqanda Ziouddin qiziga Avg‘onistonning holatini yoki o‘zidan ham mushkul ahvolda qolganlarni ropara qilib shukrona keltirishga qizini undadi. Shubhasiz, bu ham bir “Men Malalaman” asarining iroda, qanoat, sabr, matonat kabi xislatlarning ufurganidan dalolatdir.

Bunaqa insonni junbushga keltiradigan holatlar Malala asarining har bir satrlarida namoyon qilingan. Asarning eng kulminatsion cho‘qisi qaerda bilasizmi?

Darhaqiqat, Malala Tolibonlar jangarisining maktab aftobusida ketma-ket 3 o‘qi ostida qoldi. O‘q Malalaning boshidan, yelkasidan, bo‘ynidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tib, xatto Malala ortida o‘tirgan 2 qizni ham jarohatlagan. Malala og‘ir ahvolda Peshovar shahridagi harbiy gospitalga yetkazilgan. Qiz komaga tushadi, tirik qolish ehtimoli esa juda kam edi. Pokistondagi 50 nafar islomiy ulamolar guruhi uni o‘ldirmoqchi bo‘lganlarga qarshi fatvo chiqaradi. Shuningdek, Malala va uning 2 tengquri tirik qoladi. Shu o‘rinda, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” sida keltirilgan purmano satrlarni eslab qolasan kishi:

Agar tig‘i olam bijunbad zi joy

Naburrad rage to nuxohad Xudoy

(manosi: agar olam tig‘i qo‘zg‘alsa ham xudo xohlamasa biror tomirni kesolmaydi)

Haqiqatdan ham agar Alloh hohlamasa 40 yil qirg‘in qarot bo‘lsa ham ajali yetmagan o‘lmaydi.

Malala bu asari orqali nafaqat bizga balki butun bir osmon ostida yashayotgan har bir qiz uchun ibrat bo‘la oldi. Biz shu davrga qadar To‘maris yoki Zulfiya-yu Saidalar kabi ayollarni o‘rnak qilib ko‘rsata olsak, yanglishmasam ularning safi yana bir marotaba ortdi. Malala bobosi tarifi bilan aytganda haqiqiy baxt belgisi bo‘ldi. Yoxud,

Odamlar bor odamlarning naqshidir,

Odamlar bor hayvon undan yaxshidir.

Malala iroda timsoli, uning talim olishiga hukumat ham, tolibonlar ham, jamiyat-u soxta jirkanch g‘oya – tahdidlar ham, xato 1 emas 3 marotaba otilgan o‘q ham ta’sirini o‘tkazolmadi va u “Tik turib ta’lim olgan va Tolibonlar tomonidan xo‘rlangan qizaloq” timsolida mangu xotiralarga muhrlandi .

Ayol yaralibdiki, u ona, u qiz, u singildir. Ayol muqaddas, ayol e’zozlashga loyiq shaxs. Tarixga nazar solsak, ayollar nafaqat Pokiston hukumatida balki o‘z diyori – zaminimizda ham shu darajada o‘rinsiz bir buyumdek qaralgan hatto tiriklayin ko‘milib, vahshiylarcha o‘ldirilganligi siz-u bizga malum. Ular shunchaki zaif emaslar. Ta’bir joiz bo‘lsa, chin ma’nodagi, qalbimiz qo‘ri, ko‘zimiz nuri, hayotimiz mazmuniga aylanishga ulgurgan – ayollar, qizlarimizni jonlari omon bo‘lsin. Tarifingizni shunchaki satrlarga sig‘dirishni o‘zi bo‘lmaydi. Xa aynan siz! Yuzimizga tabassum olib kelasiz, o‘zingiz uchun oddiygina tuyuladigan shu samimiy jilmayishingizni o‘zi qalblarni entiktirib yuboradi. Axir sizku! Yo‘qni yo‘ndiradigan, borni esa do‘ndiradigan, borida shukr yo‘g‘ida, sabr qiladigan. Xa sizda o‘sha! Erni er qiladigan-u, qaro yer qiladigan. Balki sher qiladigan. Siz

uchunki axir intilishlar, maqsadlar! Axir sizlar yelkamizdagi or – nomus. Qoil! Bazida asablar dosh bermay qolganda, sizlarga barcha qaysarliklarni ko‘taradigan. Jonimizning halovati bo‘lasizda, jaxllarimizni tabassumingiz bilan yuvib yuborasiz. Shukr qilaman! Sizlar sabab kelajak avlodlarimiz millatni taniydi. O‘zligini anglaydi, tarbiyadagi ilk va davomiylik debochasizlar. Ofarin deymen yana. Bazida taniqli iqtisodchilar ham oldingizda ip esholmaydi. Kezi kelsa maoshni keyingi oygacha yetkazish bo‘yicha sizga teng keladigani yo‘q. Ko‘nikuvchansiz! Yo‘qsa oilangizni, yaqinlaringizni tashlab begona xonadonga ketmasdingiz. Minnatdorman ota-onalarimiz yuzidagi quvonch uchun. Yaxshiyamki, sizlar bor! Quvonamiz! Sizlar sabab. Axir baxtimizning to‘kisligi birgina tabassumingiz bilan go‘zal!

Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi Yusufbek Hojining tilidan:

“Azizlar dunyoga bevaqt kelibmiz

Azal taqdir ekan qaydan bilibmiz”

deya aytilgan fikrlardagi ayni vaqt tushunchasiga qarasaq biz ayni bir davrda bevaqt emas balki vaqtida kelgan , ota-bobolarimiz havas qilgan fursatdalarda yashayotgan farzandlarmiz . Shukrlar bo‘lsinkim, biz tinch - totuv hayot sharobini ichmoqdamiz, biz hurmiz, biz mustaqilmiz, bizda so‘z erkinligi mavjud. Hukumatimiz tomonidan yildan yilga xotin-qizlarga qaratilgan e‘tibor bu ming karra Allohingga hamd-u sanolar aytishga sabab bo‘ladi. Tinchligimiz abadiy – yurtimiz obod bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malala Yusufzoy, KristinaLamb. “Men Malalaman”. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2022.

2. B.Ahmedov. “Boburnoma”. – Toshkent.1985.

3. РИА Новости. “Билграфия Малалы Юсуфзай” 2013.

4. Johnson, Kay. «Nobel winner Malala in tears on emotional return to Pakistan». 2018-yil 28-mart.

Internet saytlari

www.nobelprize.org

www.biography.com

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Xo‘jamqulova Nafisa Ro‘ziqulovna,

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institute Boshlang‘ich ta’lim va
gumanitar fanlar fakulteti o‘qituvchisi xojamqulovanafisa5@gmail.com*

+998901005587

Annotatsiya. Ushbu maqolada EGRA va PIRLS xalqaro dasturlarining o‘ziga xos va o‘zaro farqli jihatlari aniqlashtirildi. EGRA va PIRLS boshlang‘ich sinf

o'quvchilari o'rtasida o'qish savodxonligi ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan ikkita alohida, ammo bir-birini to'ldiruvchi xalqaro dasturdir. Ikkala dastur ham o'qish malakasini oshirishning umumiy maqsadiga ega bo'lsa-da, ular maqsadlari, metodologiyalari va maqsadli natijalari bilan farqlanadi.

Kalit so'zlar: PIRLS, EGRA, maqsadlar, metodologiya, kompleks yondashuv.

Bu farqlar o'qish ko'nikmalarining turli jihatlarini ko'rib chiqish va o'quvchilarning qobiliyatlari haqida qimmatli tushunchalar berish orqali o'qish savodxonligini oshirishga kompleks yondashuvga yordam beradi. Quyida EGRA va PIRLS dasturlari o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqamiz va bu farqlar birgalikda o'qish savodxonligini oshirishga yaxlit yondashuvga qanday hissa qo'shishini o'rganamiz.

Maqsadlar. EGRA va PIRLS dasturlarining asosiy maqsadlari o'qish savodxonligini baholash va yaxshilashga qaratilgan, biroq ular buni turli usul va yo'llar bilan amalga oshiradilar. EGRA, birinchi navbatda, boshlang'ich ta'limning boshlang'ich sinflarida fonemik xabardorlik, fonika va dekodlash kabi asosiy o'qish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan. Uning maqsadi o'quvchilarning ushbu asosiy o'qish komponentlarida kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularning o'qish jarayonini tezlashtirish uchun maqsadli tadbirlarni boshqarishdir. Boshqa tomondan, PIRLS kengroq kontekstda o'quvchilarning o'qish savodxonligi

ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Unda o'quvchilarning tushunish qobiliyatlari, so'z boyligi va matn turlari bo'yicha o'qish strategiyalari baholanadi. PIRLS o'quvchilarning turli matnlar bilan shug'ullanish va ulardan ma'no olish qobiliyatini o'lchash uchun dekodlash ko'nikmalaridan tashqariga chiqadi, bu ularning umumiy o'qish malakasi va kognitiv faolligini aks ettiradi.

Metodologiyalar. EGRA va PIRLS tomonidan qo'llaniladigan metodologiyalar o'zlarining maqsadlari va baholashni maqsad qilgan ko'nikmalariga qarab farqlanadi. EGRA o'quvchilarning asosiy o'qish qobiliyatlarini baholash uchun bir qator baholash vositalari va vazifalaridan foydalanadi. Bu vazifalar fonemik xabardorlikni baholash, so'zni aniqlash mashqlari va og'zaki o'qishning ravonligini baholashni o'z ichiga olishi mumkin. Maqsadli ta'lim tadbirlarini boshqarish uchun o'qish qiyinligining muayyan sohalarini aniqlashga urg'u beriladi.

PIRLS, aksincha, har xil matn turlari va janrlari bilan o'qish vazifalarini boshqarishni o'z ichiga olgan kompleks baholash yondashuvidan foydalanadi. O'quvchilarga adabiy va axborot matnlarini o'qish va tushunish so'raladi, ular ma'lumotni sharhlash, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini namoyish etadilar. Bundan tashqari, PIRLS o'quvchilarning o'qish odatlari, munosabatlari va ularning savodxonlikka boy muhitlarga ta'siri haqida ma'lumot to'plash uchun so'rovnomani o'z ichiga oladi.

Maqsadli natijalar. EGRA va PIRLS dasturlarining maqsadli natijalari ularning tegishli baholash yo'nalishiga moslashtirilgan. EGRA o'qituvchilarga o'quvchilarning fonematik xabardorligi, dekodlash va so'zni tanib olish

qobiliyatlari haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etishni maqsad qilgan. Dastur ushbu asosiy ko'nikmalarni hal qiluvchi va keyingi o'qishni rivojlantirish uchun yo'l ochadigan maqsadli tadbirlarni loyihalashni osonlashtirishni maqsad qilgan.

Bundan farqli o'laroq, PIRLS kengroq o'qish savodxonligi natijalarini maqsad qilib qo'yadi. Dastur o'quvchilarning matnlarni tushunish va ulardan ma'no chiqarish qobiliyatini baholaydi, ularning yuqori darajadagi o'qish qobiliyatlarini namoyish etadi. PIRLS o'quvchilarning murakkab matnlar bilan shug'ullanish, ma'lumot olish, xulosalar chiqarish va o'qiganlari ustidan tanqidiy fikr yuritish qobiliyatini o'lchashga intiladi. PIRLS natijalari o'quvchilarning umumiy o'qish kompetensiyasi va ularning akademik va umrbod ta'lim muammolariga tayyorligiga oydinlik kiritadi.

Kompleks yondashuv. EGRA va PIRLS dasturlari o'rtasidagi farqlar o'qish savodxonligini oshirishga kompleks yondashuvga yordam beradi. EGRAning asosiy o'qish ko'nikmalariga e'tibor qaratilishi o'quvchilarda so'zlarni to'g'ri dekodlash va tanib olish imkonini beruvchi kuchli fonologik asosga ega bo'lishini ta'minlash uchun muhim ehtiyojni hal qiladi. Bu diqqat, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda muhim ahamiyatga ega, chunki u kelajakda o'qish malakasi uchun asos yaratadi.

EGRA va PIRLSning birgalikdagi yondashuvi o'qituvchilarga o'qish savodxonligining ko'p o'lchovli xususiyatini hal qilishga imkon beradi. EGRA orqali o'qish qiyinligining muayyan sohalarini aniqlash orqali o'qituvchilar asosiy ko'nikmalarni yaxshilash uchun aralashuvlarni moslashtirishlari mumkin. Keyinchalik, PIRLS o'quvchilarning umumiy o'qish malakasi haqida tushuncha beradi va o'qituvchilarga matnlarni samarali tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini darajalashga yordam beradi. Ushbu keng qamrovli yondashuv o'qituvchilarni o'quvchilarning o'qish qobiliyatlari haqida nozik tushunchalar bilan qurollantiradi va har tomonlama o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi ta'lim strategiyalarini yo'naltirishiga ko'maklashadi.

Umuman, EGRA va PIRLS dasturlari o'rtasidagi maqsadlar, metodologiyalar va maqsadli natijalar nuqtai nazaridan farqlari o'qish savodxonligini oshirishga kompleks yondashuvga yordam beradi. EGRAning fonemik xabardorlik bilan bog'liq asosiy o'qish qobiliyatlariga e'tibor qaratilishi kuchli fonologik asoslarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlaydi. PIRLSning tushunish, so'z boyligi va o'qish strategiyalarini har tomonlama baholashi malakali o'qish uchun zarur bo'lgan yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni aks ettiradi. Ushbu dasturlarni birlashtirgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning o'qish qobiliyatlari haqida yaxlit tushunchaga ega bo'ladilar va o'qishning asosiy tarkibiy qismlariga va murakkab tushunish qobiliyatlariga qaratilgan tadbirlarni moslashtirishlari mumkin.

Muvaffaqiyatli amalga oshirishni osonlashtirish uchun baholash strategiyalari haqiqiy o'qish ssenariylarini aks ettiruvchi turli xil vazifalarni o'z ichiga olishi kerak. EGRA baholashlari o'quvchilarning fonologik xabardorligini, dekodlash va ravonligini baholovchi vazifalarni, PIRLS baholashlari esa tushunish, so'z boyligi va o'qish strategiyalarini qo'llash qobiliyatini baholovchi vazifalarni o'z ichiga olishi kerak. Ushbu baholashlar o'quvchilarning o'qish savodxonligi

ko'nikmalarining keng qamrovli rasmini beradi va ta'limni rejalashtirishga yordam beradi.

XULOSALAR

1. EGRA va PIRLS kabi xalqaro dasturlar ob'ektiivi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari yaratilgan. Samarali o'qish savodxonligini oshirishda uning asosini tashkil etuvchi muhim jihatlar, pedagogik, psixologik va tashkiliy omillarni hal qilish muhimdir. Ushbu o'lchovlarni o'rganish yosh o'quvchilarni muhim o'qish ko'nikmalariga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali yondashuvni har tomonlama tushunishni ta'minlaydi.

2. EGRA va PIRLS xalqaro dasturlarida ko'rsatilgan "O'qish savodxonligi" tushunchasi o'quvchilarning o'qish qobiliyatini o'lchash uchun ishlatiladigan asosiy komponentlar va ko'rsatkichlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlarni tushunish orqali o'qituvchilar o'qish malakasining ko'p qirrali tabiati, dekodlash, tushunish, so'z boyligi va o'qishga bo'lgan munosabat haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Bu tushuncha o'qish savodxonligining barcha jabhalarini qamrab oluvchi maqsadli tadbirlar va o'qitish strategiyalari uchun zamin yaratadi.

3. Yevropa, Osiyo va O'zbekistondagi empirik dalillarni ko'rib chiqish bu dasturlarning o'qish savodxonligini oshirishga ijobiy ta'sirini aniqlash, ushbu dasturlarning metodologiyasini tasdiqlash imkonini beradi. Metodologiyalar, o'qitish strategiyalari va xalqaro standartlarga moslashuv muhokamasi ushbu dasturlarning o'qish savodxonligini oshirishga qo'shgan hissasi qanchalik chuqur va keng ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elley, W.B. (1992). How in the world do students read? IEA study of reading literacy. The Hague, Netherlands: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

2. Britt, M.A., Goldman, S.R., & Rouet, J.-F. (Eds.). (2012). Reading—From words to multiple texts. New York, NY: Routledge. Snow, C. (2002). Reading for under

3. standing: Toward an R&D program in reading comprehension. Santa Monica, CA: RAND Corporation.

4. Afflerbach, P., & Cho, B.-Y. (2009). Identifying and describing constructively responsive comprehension strategies in new and traditional forms of reading. In S.E. Israel & G.G. Duffy (Eds.), Handbook of research on reading comprehension (pp. 69–90). New York, NY: Routledge.

5. Langer, J. (2011). Envisioning literature: Literary understanding and literature instruction (2nd ed.). Newark, DE: International Reading Association.

6. Miller, C.R. (1994). Genre as social action. In A. Freedman & P. Medway (Eds.), Genre and the new rhetoric (pp. 23–42). Bristol, PA: Taylor & Francis.

7. Rowsell, J., & Pahl, K. (2011). The material and the situated: What multimodality and new literacy studies do for literacy research. In D. Lapp & D.

Fisher (Eds.), Handbook of research on teaching the English language arts (3rd ed., pp. 175–181). Newark, DE: International Reading Association.

8. Rueda, R. (2013). 21st-century skills: Cultural, linguistic, and motivational perspectives. In D.E. Alvermann, N.J. Unrau, & R.B. Ruddell (Eds.), Theoretical models and processes of reading (6th ed., pp. 1241–1268). Newark, DE: International Reading Association.

9. Leu, D., Kinzer, C., Coiro, J., Castek, J., & Henry, L. (2013). New literacies: A dual-level theory of the changing nature of literacy, instruction, and assessment. In D.E. Alvermann, N.J. Unrau, & R.B. Ruddell (Eds.), Theoretical models and processes of reading (6th ed., pp. 1150–1181). Newark, DE: International Reading Association.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O‘QUVCHIGA YO‘NALTIRILGAN YONDOSHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Orifjonova Iroda Orifjon qizi,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvlarga o‘zgarish qamoqda. Geografiya yer, hayot va unda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqidagi fan bo‘lganligi sababli, u o‘quvchilardan umrbod ta’lim olish uchun kognitiv qobiliyatlarini oshirish va rivojlantirish uchun faol o‘rganishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, 2022-yil O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 134-sonli qarori, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim va fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlarining qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni, yodlash orqali faktlarni eslab qolish va takrorlash o‘rniga o‘quvchilarning bilimlarni amalda bajarib ko‘rib tushunish orqali hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi va rivojlantirish uchun joriy etildi. Ta’lim tizimida bo‘layotgan shuncha o‘zgarishlarga qaramay o‘qituvchilar maktabda geografiyani o‘qitishda hanuzgacha an’anaviy yondoshuvdan foydalanmoqdalar. Bunda o‘quvchilar o‘qituvchilar tomonidan ma’lumot bilan to‘ldiriladigan ob‘ektga aylanadi [1]. Ushbu an’anaviy yondoshuv o‘quvchini bilim olishda passiv ishtirokchiga aylantiradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, maktablarda o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim amaliyotiga o‘tish uchun kompetensiyalarning yetishmasligidir. Shu sababli, o‘quvchiga yo‘naltirilgan milliy o‘quv dasturi va maktabda o‘qitishdagi haqiqiy amaliyot o‘rtasida hali ham tafovutlar mavjud.

Bugungi kunda ta’limda amaliyotga joriy etilgan milliy o‘quv dasturi hamda darsliklar 4K modeli asosida tuzilgan bo‘lib konstruktivistik ta’lim va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga mos keladi. Tompson buni qo‘llab-quvvatlagan holda, o‘quvchilar so‘rov, muammolarni hal qilish va o‘zaro hamkorlik qilish orqali o‘z bilimlarini faol konstruktivi bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi [2]. Geografiya bo‘yicha o‘qitishning o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvi shuni ko‘rsatadiki,

odamlar o'z o'rganishlari uchun o'zlari mas'ul bo'lishlari kerak. Shaxsga yo'naltirilgan yondoshuv g'oyasi shundayki, o'qituvchilar o'z o'quvchilarini yaxshi bilishlari kerak. Martinning fikriga ko'ra, ta'limda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvning afzalliklaridan biri ham o'qituvchi, ham o'quvchilar uchun muloqot va fikr yuritish ko'nikmalarini oshirishdir. Chunki o'quvchiga yo'naltirilgan yondoshuv o'quvchilarni faollashtiradi, ularning ishtirokni yaxshilaydi, hamkorlikni rivojlantiradi va o'quvchilar uchun o'rganish qiziqarli bo'ladi. Shunday qilib, geografiya ta'limini o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvga o'zgartirish o'quvchilarning kreativ, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, kuzatish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish va umrbod ta'lim olishiga yordam beradi, o'quvchilarda liderlik fazilatlarini tarbiyalaydi va muloqotni mustahkamlaydi.

Geografiya fanining ta'limdagi ahamiyati o'quvchilarni shaxs, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'siri haqida fikr yuritishga o'rgatadi, u o'quvchilarning kasbiy xarakteriga ta'sir qiladi, individual va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun har tomonlama bilimlarni ishlab chiqaradi, shuningdek, turli xil ish imkoniyatlarini yaratadi. Martin geografiyani o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitish usullarini taklif qiladi [3]. Biroq o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitishga o'tish bir qator qiyinchiliklarga olib keladi.

O'quvchilarga yo'naltirilgan yondoshuv o'qituvchilar vazifasini paradigmatic ravishda o'zgartirishni talab qiladi, ya'ni o'quvchilar o'z bilimlarini qurishlari uchun fasilitatorga aylanishadi. Matewere va boshqalarning fikricha o'qituvchi uchun o'quvchiga yo'naltirilgan samarali o'qitishga o'tishda bir qancha to'siqlar mavjud. Geografiyani o'qitishda vaqt yetishmasligi, baholash usullari, sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim haqidagi bilimlarning yetishmasligi va o'qituvchilarning o'quvchilarga yo'naltirilgan o'qitishga nisbatan qarashlari kiradi.

O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limni boshqarishning samarali usullaridan biri hamkorlikdir. Hamkorlik hamkorlikda ishtirok etayotganlar o'rtasida ishonch hissini yaratadi. O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda ishlashlarini talab etadi.

O'rganishlar davomida shu narsaning guvohi bo'ldikki, o'qituvchilar o'rtasida o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limdan o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'limga o'tishga imkon beradigan hamkorlik amaliyotlari yo'q. O'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning yetishmasligi o'quvchilarning o'rtasidagi hamkorlikda ishlash ko'nikmasining yetishmasligiga olib keladi. Hamkorlikda ishlash orqali o'qitish maqsadi geografiya darslarida o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlashdir.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, geografiya darslariga qo'yilgan DTS talablari, o'quv dasturlari, yillik o'quv rejalari o'qituvchilar diqqatini rejani bajarish, faqat mazmun va tushunchalarni yoritishga qaratadi. Bu esa o'quvchilarning darslarda faol ishtirok etishi, o'quvchilarga individual yondoshuv va XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishni e'tibordan chetda qoldiradi.

O'rganish natijalardan kelib chiqib, geografiyani o'qitishni raqamli texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari va resurslardan samarali foydalanish, o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikda ishlash, shuningdek, o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvdan o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvga o'tish orqali tashkil qilish mumkin. Shuningdek, geografiyani o'qitishda o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvga o'tishda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida va boshqa maktablar bilan hamkorlik strategiyalaridan faol foydalanishni tavsiya qilish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Swarts P. Learner-centred education in the Namibian context: A conceptual framework. Okahandja. Namibia: National Institute of Education Development. International Journal of Education Development, 33(1), 48-58. 2003. <https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2012.02.009>
2. Thompson P. Learner-centred education and cultural translation. International Journal of Education Development, 33(1), 48-58. 2013. <https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2012.02.009>
3. Martin A. Co-constructive patient simulation: a learner-centered method to enhance communication and reflection skills. Simulation in Healthcare, 16(6), e129-e135. 2021.

TA'LIMDA ZAMONAVIY O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Mutallib Hazratqulov,

SamDU Maktabgacha, boshlang'ich ta'lim va texnologiya kafedراسi dotsenti

O'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash uchun o'quv ishlarining asosiy usullarini tahlilga tortilgan matnni o'zlashtirish imkoniyatlari darajasiga qarab aniq belgilash zarur. Darsda turli metodlardan foydalanilganda o'quvchi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan tahlil, sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash, taqqoslash, birlashtirish, o'z farazlarini keltirish, isbotlash, rejalashtirish singari usullarni istifoda etish mumkin. Tahlil va sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash usuli boshlang'ich ta'limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy jarayonda, bilmaslikdan bilishga o'tish yo'lidagi qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilarning analiz-sintez faoliyatida ruhiy holatning ahamiyati ko'zda tutilmog'i zarur.

Hozirgi paytda ta'limga jadallik bilan xorijiy tajribalarda qo'llanilayotgan effekt, refleksiya va texnikalarni ham kirib kelayotganligini kuzatishimiz mumkin. "Qopra quti" texnikasi, "Kaizen" metodi, "Vark moduli", "Zeygarnik effekti", "Oppog'oy" effekti, "Sholg'om sabzovoti" kabi texnika va ta'sirli effektlaridan ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin.

"Qora quti" texnikasi dastlab iqtisodiy va ijtimoiy hayotda kishilarning o'z ehtiyoji uchun ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik ta'limda qo'llanila boshlagan. "Qora quti" texnikasining paydo bo'lishi samolyotlarda doimo mavjud bo'ladigan

qora quti bilan bog‘liq. Samolyot aviahalokatga uchraganda qora qutidagi yozuvlar o‘rganiladi va kamchiliklar aniqlanadi. Bu kamchiliklar qayta takrorlanmaslik uchun barcha aviazavodlar va ishlab chiqarish korxonalarida seminarlar va tushuntirishlar olib boriladi. Bu jarayon 20-asrning boshlarida aviahalokatlar bilan bog‘liq o‘limlar oqibatini bir necha o‘n barobarga qisqartirishga sabab bo‘ladi.

Ushbu texnikaga meditsina sohasidagi tez yordam ko‘rsatkichi taqqoslanganda teskari natija kelib chiqadi. Ya‘ni, 20-asrdan buyon shifokorlar xatosi bilan bog‘liq raqamlar ortib borganligi ko‘rsatiladi. Sababi meditsinada shifokorlarning xatosi aviatsiya xodimari kabi mukammal o‘rganilib, xulosa chiqarilmasligida deb hisoblaniladi.

Ta‘limda “Qora quti” texnikasidan o‘tilgan darslardagi mavjud kamchiliklarni ko‘ra olishlik, tahlil qila bilishlik va undan xulosa chiqarib, bu kamchilikni takrorlamaslik borasida qo‘llash mumkin.

Dars jarayoni uchun muhim metodlardan biri “Kaizen” metodi hisoblanadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilarda ijobiy o‘zgarishlarga osonlik bilan erishish mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyaning taraqqiyot yo‘li sifatida ishlab chiqilgan “Kaizen” (continuous improvement) falsafasi bugunga kelib barcha sohalarda, qolaversa shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanib kelinmoqda.

Bu doimiy takomillashtirishni anglatadigan atama bo‘lib, “kaizen” ta‘rifi ikkita yapon so‘zidan kelib chiqadi: "kai" va "zena" - ingliz tilida “continuous improvement” degan ma‘noni anglatadi. Yaponiya falsafasiga aylangan bu yo‘lning mashhurlikka erishishi avtomobil ishlab chiqaruvchi Toyota kompaniyasidan boshlangan. Aynan ushbu yo‘l Toyota kompaniyasini tanazzuldan olib chiqqan va butun dunyoga mashxur qila olgan edi.

Kaizen jarayonini faqat to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Maqsadlarni va unga qanday erishish mumkinligi aniqlanadi.
2. Re‘jalar tuziladi va uni bajarish usullari o‘ylab topiladi.
3. Natijalar tekshiriladi va takomillashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.
4. Oldingi bosqichlarda erishilgan narsalarga qarab doimiy tuzatishlar kiritilib boriladi.

Kaizen falsafasining eng asosiy ma‘nosi sizning doimiy ravishda maqsadingiz uchun kichik nimanidur amalga oshirib borishingizdir. Kaizen falsafasini o‘rganuvchilar shunday deydi:

"Agarda, yugursangiz yo‘lning yarmida to‘xtab qolasiz, katta qadamlar bilan harakat qilsangiz nafasingiz qisishi mumkin, Aksincha, har kungi kichik qadamlar orqali maqsadingiz sari intiling".

Ushbu metodning o‘quvchilarga nisbatan juda ham ko‘p bog‘liqligi mavjud. O‘quvchilar odatda biror qiyin mavzu yoki murakkabroq fanlarda o‘zlashtirishga qiynalishadi. Bu esa borib borib bu fanni umuman o‘qimaslikka olib boradi.

Ushbu vaziyatda bir narsaga e‘tibor qaratish lozim, o‘quvchilarni murakkab mavzuni o‘zlashtirishga majburlamaslik, aksincha, o‘quvchiga motivatsiya

berish, ushbu vaziyatda darsda lirik chekinish qilib, o'quvchilarga "Kaizen" metodi asosida ishlashga o'tish lozim bo'ladi.

Jahon ta'limida keng qo'llaniladigan metodlardan biri "VARK modeli" hisoblanadi. Bu model to'rtta uslubga asoslanadi:

1. Ko'rish- o'quvchilar ko'rish orqali o'rganadilar.
2. Eshitish - o'quvchilar eshitish orqali o'rganadilar.
3. O'qish va yozish - o'quvchilar o'qish va yozish orqali o'rganishadi.
4. Harakatlanish - o'quvchilar harakat qilish va bajarishga o'tadilar.

Ushbu to'rtta uslubni quyidagicha tavsiflash mumkin"

Ko'rish uslubi - video tomosha qilishni yaxshi ko'radigan va rasmlar, jadvallar va grafikalar singari taqdimotlarni ko'rishni yaxshi ko'radigan o'quvchilarga mos keladi.

Inson miyasi vizual ma'lumotni oddiy matnga qaraganda ancha tezroq qayta ishlaydi. Darsda ushbu vositalardan tez-tez foydalanib turilsa, o'quvchilarda qiziqish yanada ortadi.

Eshitish uslubi - uslubi ma'ruzalar va audio kitoblarni tinglashni yaxshi ko'radigan o'quvchilarga mos keladi. Ushbu o'quvchilar eshitgan narsalarini o'rganishi oson bo'ladi.

O'quvchilar film tomosha qilsalar, sodir bo'lgan harakatlarni emas, balki filmda aytilganlarni yaxshi eslab qolishadi. Shuning uchun darsda turli podkastlardan foydalanish mumkin.

O'qish va yozish orqali o'rganish uslubi - O'qish va yozish orqali o'rganish uslubi o'qish va yozishni yaxshi ko'radigan o'quvchilarga mos keladi. Buning sababi shundaki, ular o'qigan va yozgan so'zlar ongida osonlikcha saqlanib qoladi. Bu usul har bir darsda ishlatiladi. Chunki o'quvchida o'qish va yozish orqali ma'lumotlar yaxshi saqlanib qoladi.

Harakatlanish uslubi - sinfda turli harakatlardan iborat o'yinlar va musobaqalar orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarni turli o'yinlar orqali o'rinlaridan turishi va turli harakatlar qilishi darsda tetik va diqqat bilan o'tirishlariga katta yordam beradi.

Tugallanganidan ko'ra uzilib qolgan harakatlarini yaxshiroq eslab qoladi. Bluma Zeigarnik xotiraning motivatsion komponentining buzilishi doirasida ushbu ta'sirni o'rganib chiqdi, keyinchalik ta'sir uning nomi bilan bog'liq nomga ega bo'ldi.

Garvard Universiteti talabalari orasida bir ajoyib tadqiqot o'tkazilgan. Unga ko'ra, talabalarda fikr va rejalarini yozib borishi yo yozmasligi borasida so'rovnoma o'tkazilgan. Tadqiqot bo'yicha, 98% talabalar hech qanday g'oyalarini yozishmas ekan. Atiga 2% talabalar kunlik g'oya va fikrlarini qayd etib borishlarini aniqlashgan.

Oradan 10 yil vaqt o'tib, 2% o'z fikrlarini yozib boradigan talabalar muvaffaqiyatli biznesmenlarga aylanishgan. Qolgan 98% talabalar esa oddiy ishlarda ishlayotgani ma'lum bo'lgan Natijalar sjhuni ko'rsatib turibdiki, "Zeygarnik effekti" parishonxotirlikni oldini olish va tartibli, maqsadli o'quvchi bo'lishga yordam beradi.

Bajarishi o‘ylangan va bajarilmay qolib ketgan ishlar, aytilishi kerak, lekin aytilmay qolib ketgan gaplar o‘quvchining miyasida doimo aylanib yuraveradi. Uyquga yotishdan oldin kun davomida qilinishi kerak, lekin bajarilmay qolgan ishlar yoki aytilishi kerak, lekin aytilmay qolgan gaplar miyaga kela boshlaydi.

Bu hol takrorlanmasligi uchun maktabda tanaffus payti, yo‘lda piyoda ketayotganda yoki kitob o‘qiyotganda, dars tinglayotganimizda biror kichikroq noutbook ruchkani yonimizda bo‘lishligi, fikr, g‘oya, reja, muhim gap xayolimizga kelishi bilan uni dastlabki 10 soniya ichida darhol yozib qo‘yishlik lozim. Chunki, siz fikrlarimizni darhol ushlab olmasak, u miyaning tubiga cho‘kib ketadi va uni qaytib eslay olmaymiz.

Maqsad, reja va hattoki, xayolimizga kelgan idealarni barchasini dastlabki bir daqiqa ichida yozib olishimiz kerak, bu bizning yashash va fikrlash tarzimizni tubdan o‘zgartirib yuboradi.

“Oppog‘oy effekti” Aka-uka Grimmlarning oppog‘oy ertagi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ertak qahramoni Oppog‘oyga xos fazilat shundaki, u doimo tabiat va borliqdagi hamma narsani yaxshi ko‘ra oladi, barcha narsada yaxshilikni ko‘radi. Bu texnikaning smaradorligi bo‘lajak o‘qituvchilarning sinfdagi barcha narsalarni: kasbi, o‘quvchilar, sinf xonasi, sinfdagi jihozlar va shu kabilarni chin sidqidildan sevisishni anglatadi. Shundan so‘ng kasb orqali baraka kelishi, rivojlanish, muvaffaqiyat kirib kelaveradi.

“Sholg‘om sabzavoti” texnikasi sholg‘om sabzavoti bilan bog‘liq bo‘lib, yosh bolalarning 90 foizi sholg‘om sabzavotini yoqtirishmaydi. Keksa kishilarning 90 foizi esa, aksincha, bu sabzavotni yoqtirib iste‘mol qilishadi. Farq shundaki, hayotiy tajribalar, foydali natijalar, tushunish, anglash – bularning bari ma‘lum vaqt davomida bizning qarashlarimizni, yondashishlarimizni o‘zgartirishga qodir bo‘la oladi. Yosh bolalar katta bo‘la boshlagan sari kasallik, shamollash, og‘riqlarni boshdan o‘tkaza borib, o‘zlari uchun foydali narsani anglab borishadi.

“Sholg‘om sabzavoti” texnikasining ta‘limga oid jihati bo‘lajak o‘qituvchilar garchand hozircha o‘z kasblariga nisbatan mehri, havasi o‘zgacha bo‘lsa-da, vaqt o‘tgan sari, hayotni tushuna borganlari sari ularning qarashlari, yondashishlari, tushunchalari ham ijobiy tomonga o‘zgara boradi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardan – Youtube, telegramdan juda ko‘plab o‘yin texnologiyalari, inerjayzerlar (harakatli o‘yinlar) ni topish va ma‘lum bir mavzuga bog‘lab, “dam olish daqiqasi”, “quvnoq daqiqa” sifatida qo‘llab, darsni mazmunli va qiziqarli tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M, Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligiga o‘rgatish metodikasi. Darslik. -Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022.252 bet.

2.Jeyms Klir. Atom odatlar. –Toshkent. Nihol, 2021. 300 bet.

3.Zeigarnik B. Das Behalten erledigter und unerledigter Handlungen. Psychologische Forschung 9, 1-85.

4. [https.kreaped.uz.telegram](https://kreaped.uz/telegram) kanali.

O'QITUVCHI MA'NAVY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR MULOHAZALAR

O'tkir O'tanov,

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasida dotsenti, p.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. Maqolada shaxs ma'naviy qiyofasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati yoritilgan. Bundan tashqari maqolada shaxsning ma'naviy qiyofasini rivojlantirishga oid asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati bayon etilgan bo'lib, unda o'qituvchining ma'naviy qiyofasini belgilovchi asosiy komponentlar tadqiq etilgan.

O'qituvchi – pedagogning ma'naviy qiyofasini rivojlantirish bugungi kunda porloq istiqbol sari dadil odimlayotgan mamlakatlar taraqqiyotida, xususan, o'z oldiga yangi Renessans davrini barpo etishdek ulug'vor maqsadni qo'ygan O'zbekiston taraqqiyotida ham ustuvor masalaga aylandi. Pedagogning ma'naviy qiyofasini rivojlantirish masalasiga mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi jarayonining eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, mamlakatimizda uchinchi Renessans davrining ma'naviy poydevorini yaratishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladigan yana bir muhim hujjat – 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo'lib, uning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi (43-maqсад)da "maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish" dek pirovard maqsad belgilangan bo'lib, unga amalda erishish yo'lida amaliy ishlar keng ko'lamda olib borilmoqda .

O'qituvchi ma'naviy qiyofasini rivojlantirish masalasi haqida fikr yuritganda, eng avvalo, muammoga doir "qiyofa", "ma'naviy qiyofa" degan asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati haqida to'xtalib o'tish darkor, deb o'ylaymiz.

O'zbek tili izohli lug'atida "qiyofa" degan so'z arabchadan tarjima qilinganda tashqi ko'rinish, yuz, aft, qaddi-qomat, o'zini tutish degan ma'nolarni anglatadi, deb ko'rsatilgan. Bundan tashqari, u ko'chma ma'noda - kishining ma'naviy, ruhiy va axloqiy xususiyatlari, ongi, dunyoqarashi, bilim-saviyasi va shu kabilar majmuini ifodalaydi, deb ta'kidlanadi. Kasb-korga va kishilarga nisbatan esa muayyan shaxsning ma'naviy qiyofasi – ular qilayotgan ishlari va o'zlarining qiyofasini belgilab beradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi ham uning faoliyatida, xatta-harakatida, yurish-turishida, o'y-xayollarida va amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mazmundagi adabiyotlarda "qiyofa" degan so'z kamdan-kam hollarda qo'llaniladi. Ayrim hollarda ushbu so'z "obraz", "timsol" kabi ko'rinishlarda ham talqin qilinmoqda. Manbalar va lug'aviy nashrlarga murojaat qilinganda ushbu tushunchalarning ma'no jihatidan o'zaro yaqinligini ko'rish mumkin. Masalan, "O'zbekcha-ruscha lug'at"da "qiyofa" so'zi "oblik", "ma'naviy

qiyofa” esa “duxovnyy oblik” deb keltirilgan. O‘z navbatida, “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da ham aynan shunday.

Kundalik muloqotda “qiyofa” deganda ko‘pincha insonning faqat tashqi ko‘rinishi haqida gap boradi. Lekin “qiyofa” so‘zining ko‘chma ma‘nosi borligini har kim ham tasavvur qilavermaydi. Lug‘atlarda “obraz” degan so‘z “timsol” deb tarjima qilinadi va u “qiyofa” degan tushunchadan tamomila farq qilinadi. “Obraz”, “timsol” degan so‘zlar, aytaylik, qahramonning xayoliy in‘ikosini ifodalasa, “qiyofa” esa o‘sha qahramonning amalda namoyon bo‘lishi, real hayotdagi ifodasi sifatida gavdalanadi. Obraz (timsol) xayoliy ifoda bo‘lsa, qiyofa – jonli namunadir. SHunday ekan, “o‘qituvchining ma‘naviy timsoli (obrazi)” degandan ko‘ra, “o‘qituvchining ma‘naviy qiyofasi” degan ibora mantiqan to‘g‘ridir va tadqiqot ishi davomida ushbu ibora qo‘llaniladi.

YUqorida keltirilgan ta‘riflarning hammasida ham qiyofaning ko‘pgina qirralari o‘z ifodasini topgan. Ularda mualliflar o‘zlarining nuqtai-nazarlarini bildirishgan bo‘lsada, bu ta‘riflar yangilanish va o‘zgarishlar jarayonlari nuqtai nazaridan yanada sayqalga muxtojdir. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ularni to‘ldirgan holda ma‘naviy qiyofaga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: *o‘qituvchining ma‘naviy qiyofasi deganda yuksak ma‘rifatli, insoniy fazilatlar bilan barchaga ibrat bo‘ladigan, botiniy va zohiriy go‘zallikni o‘zida mujassamlashtirgan hamda yuqori kasbiy mahorat va ilg‘or pedagogik tajribaga ega bo‘lgan pedagog qiyofasini tushunish mumkin.*

Bundan tashqari o‘qituvchining ma‘naviy qiyofasining muhim tarkibiy qismlariga sifatida quyidagi jihatlarni e‘tirof etish maqsadga muvofiqdir:

- yuksak ma‘rifat (o‘z sohasi va turdosh sohalar bo‘yicha chuqur bilimlarga egalik);

- yuksak ma‘naviyat (namunali xulq-atvor, botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) go‘zallikka egalik);

- barqaror ruhiyat (ruhiy jihatdan doimo barqarorlik va faoliyatda vazminlik);

- yuksak kasbiy (pedagogik) mahorat, jumladan, pedagogik odob, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta‘sir ko‘rsatish qobiliyati, pedagogik takt, pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat, kompetentlilik (qobiliyatlilik) va kommunikativlik (muloqot qila olish va axborot almashish), kollaborativlik (hamkorlik va jamoa bo‘lib ishlash), kreativlik (ijodkorlik, yaratuvchilik), kritikal fikrlash (tanqidiy va mantiqiy fikrlash - 4K-ko‘nikmalari);

- liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini puxta egallaganlik (faoliyatda etakchilik, ergashtiruvchanlik, ibrat, namuna, o‘rnak ko‘rsata olish);

- huquqiy mezonlarni bilish va amaliyotda qo‘llay olish (o‘z haq-huquqlarini bilish, o‘z sha‘ni va qadr-qimmatini anglash, o‘z majburiyat va burchlarini bajarish);

- tarixiy tafakkur (ajdodlar merosiga hurmat, ulardan g‘ururlanish va foydalanish, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik);

- mafkuraviy tayyorgarlik (ezgu fikrlar, bunyodkor g‘oyalar, ijobiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash)ning rivojlanganlik darajalari namoyon bo‘lishi kerak.

O'qituvchining ma'naviy qiyofasini belgilovchi asosiy komponentlar

T.r	<i>Komponentlar</i>	<i>Mazmuni</i>	
1	Yuksak ma'rifat	O'z sohasi va turdosh sohalar bo'yicha chuqur bilimlarga egalik	
2	Yuksak ma'naviyat	Yuksak xulq-atvor, botiniy(ichki) va zohiriy (tashqi) go'zallikka egalik	
3	Barqaror ruhiyat (psixologik)	Ruhiy jihatdan doimo barqarorlik va faoliyatda vazminlik	
4	Yuksak kasbiy(pedagogik) mahorat	1. Pedagogik odob, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati, pedagogik takt, pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat, kompetentlilik (qobiliyatlilik); 2. Kommunikativlik (muloqot qila olish va axborot almashish), kollaborativlik (hamkorlik va jamoa bo'lib ishlash), kreativlik (ijodkorlik, yaratuvchilik), kritikal fikrlash (tanqidiy va mantiqiy fikrlash - (4K-24-asr ko'nikmalari) kabi jihatlarni egallash.	
5	Liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini puxta egallaganlik	Faoliyatda yetakchilik, ergashtiruvchanlik, ibrat, namuna, o'rnak ko'rsata olish	
6	Huquqiy mezonlarni bilish va amaliyotda qo'llash	O'z haq-huquqlarini bilish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini anglash, o'z majburiyat va burchlarini bajarish.	
7	Tarixiy tafakkurni rivojlantirish	Ajdodlar merosiga hurmat, ulardan g'ururlanish va foydalanish, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik.	
8	Mafkuraviy tayyorgarlik	Ezgu fikrlar, bunyodkor g'oyalar, ijodiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash.	

Buning uchun pedagoglarda yangicha dunyoqarash, zamonaviy tajriba ko'nikmalari, yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, fidoyilik fazilatlarini, barqaror ruhiy va axloqiy xususiyatlar, ongi-shurini, tafakkurini jamiyatdagi evrilishlarga hamohang tarzda boyitib va rivojlantirib borish muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchidan o'z-o'zini uzluksiz rivojlantirib borish, irodalik,

ma'suliyat, o'z kasbiga fidoiylilik, kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirib borish talab etiladi.

Yigirma birinchi asri o'qituvchisining ma'naviy qiyofasini ifodalaydigan pedagogik burch, pedagogik adolat, pedagogik sha'n, pedagogik nufuz kabi tushunchalar pedagogik etikaning muhim kategoriyalarini ifodalash barobarida o'qituvchi shaxsining yuksalishi, uning ma'naviy kamol topishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardir. SHu nuqtai nazardan, milliy va ma'naviy "qadriyatlarimizni bilish, targ'ib qilish – faqat milliy o'zlikni anglash sharti bo'lib qolmasdan, avvalo barkamol avlod tarbiyasining muhim omilidir. SHu ma'noda milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz targ'iboti bugun tarbiyaviy ishlarimizning bosh yo'nalishi bo'lishi zarur".

Hech bir jamiyat rivojini ziyolilar qatlami, xususan, o'qituvchilarning samarali faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'qituvchining ma'anaviy qiyofasini rivojlantirish masalasi ayni vaqtda davrning muhim va dolzarb talabi ekanligidan kelib chiqib, yangilanayotgan mamlakatimizda ham ushbu masalaga davlat siyosati nuqtai nazaridan yondashilayotgani ayni muddaodir. Zero, insoniyat hayotida ta'lim-tarbiya masalalarini davlat siyosati darajasiga ko'tarmay turib, jamiyatni rivojlantirib bo'lmasligi hozirgi davrdagi eng rivojlangan mamlakatlar tarixiy tajribasida isbotini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - 2022 yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.
2. Milliy g'oya va O'zbekistonning tarag'iyot strategiyasi //Darslik. – Toshkent:
3. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2020. – B.164.
- 4.Qiyofa-vikilug'at uz // wiktionaru.orq.
- 5.Uzbeksko-russkiy slovar. - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1988. – B.640).
- 6.Ruscha-o'zbekcha lug'at. - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1983. – B.686.
- 7.Mitina L.M. Lichnostno-professionalnoe razvitie uchitelya: strategii, resursy, riski. – 2018 // kartaslov.ru > Larisa Mitina.

YOSHLARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG XOTIN QIZLARNING ROLI.

Qosimova Ozoda Xudoynazarovna,

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, "Pedagogika" kafedrası,
dotsenti, p.f.f.d.(PhD).*

Annotatsiya. Ushbu maqola yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda kognitiv va kreativ munosabatlarni tarkib toptirishda pedagog xotin- qizlarning roli, pedagog xotin-qizlarning kasbiy ma'naviy-axloqiy shaxsiy ma'naviy-axloqiy

xususiyatlarini shakllantirishning pedagogik- psixologik jihatdan boyitib borish haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: gʻoya, maqsad, koʻmak berish, vazifa, rejalashtirish, mahorat, zamonaviy, bilim, taʼlim, tarbiya, talaba, tafakkur, mantiq.

Biz oʻz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulugʻ maqsadni qoʻygan ekanmiz, buning uchun pedagog xotin-qizlarimizni ham kasbiy maʼnaviy-axloqiy va shaxsiy maʼnaviy-axloqiy xususiyatlarini yanada rivojlantiradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda esa taʼlim va tarbiyani yanada rivojlantirishimiz lozim. Shunda ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish orqali oldimizga qoʻyilgan maqsadga erishishimiz mumkin. Ushbu maqsad yoʻlida pedagoglarimiz oʻz oldiga katta marralarni qoʻyib, ularga erishish maqsadida jon jahdlari bilan harakatlanishlari lozim.

Shundagina pedagoglarning harakatlari orqali farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini roʻyobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda, “Yangi Oʻzbekiston – maktab ostonasidan, taʼlim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan gʻoya asosida keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirish uchun pedagog xotin-qizlar ham barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar qilishlari lozim. Pedagoglarimiz yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi boʻlgan insonlar etib voyaga yetkazishi ularning zimmasidadir. Dunyo tajribasi shuni koʻrsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga oʻn, yuz barobar koʻp foyda keltiradi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino bundan ming yil oldin, “Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir boʻladigan qiyinchiliklardan qoʻrqmaydi”, deb bejiz aytmagan. Mamlakatimizda Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni madaniyat, sanʼat va jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni keng targʻib etish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbus hayotga samarali tatbiq etilmoqda. Yuqorida keltirilgan tadqiqotning dolzarbligidan kelib chiqib taʼkidlash kerakki, har qanday davlat va jamiyatning rivojlanishi bu albatta taʼlim-tarbiyani rivojlanishi va uni tashkil etuvchilariga bogʻliq boʻladi.

Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, pedagogik va psixologik tomondan yondashganda tafakkur shakllari, turlari, xususiyatlari, mazmun-mohiyati haqida fikr yuritganda inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun maʼlum maʼno va mohiyatga ega boʻladi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi. Tafakkur – inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar

o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o'zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo'lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala hisoblangan. Bu masalalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa ham shuni ta'kildash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari; ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli; uchinchidan, bu jarayonlar ham eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi; to'rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Al-Farg'oniy, Xorazmiy, Zamaxshariy kabi allomalar o'zlari ijod qilgan paytlarida yaratgan g'oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o'lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. Bunga sabab ushbu allomalarimizning mashaqqatli, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkan zahmatli mehnatlaridir.

Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashf qilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo'l bilan uni ochishi mumkinligini o'zi ham bilmaydi. Bunday ijodkorlikni, kreativlikni, ijodiy faoliyatni yoshlarimiz ongiga rivojlantirish uchun pedagoglarimiz yoshlarni shaxsiy individual xususiyatlarini inobatga olishlari shartdir. Chunki ijtimoiy xulq-atvor motivlari va shaxs motivatsiyasi ijodiy jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyatni amalga oshiradigan pedagoglarimiz yoshlarning ijodiy tafakkurini va bilimlarini kengaytirish hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollantirishlari, dars jarayoniga ilg'or tajribalarni tatbiq qilish orqali ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishlari, psixologik g'oyalarga va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga mos keluvchi ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishlari, yoshlar ongida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan nazariy – metodologik, tabiiy-ilmiiy asoslarini o'rgatishlari, yoshlarni mavjud muammoli vaziyatlarda kognitiv va kreativ yondashuvlarni va ijtimoiy voqeiyliklarga to'g'ri munosabat bildira olishlarini shakllantirishlari kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlar singari yoshlarga oid davlat siyosatini mazmun mohiyati ham aynan yoshlarni har tomonlama barkamol, salohiyatli ijodiy tafakkurga ega kadrlar bo'lib yetishishlariga jiddiy e'tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z navbatida yoshlarni kelgusida yetuk kadrlar bo'lib shakllanishiga hamda davlat va jamiyat manfaatlariga mos keladigan mutaxassislar bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Xudoynazarovna, Q. O. (2022). The Role of Innovative Technologies in the Quality Organization of the Educational Process of Female Teachers. *Vital*

Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 1(6), 133-136.

2. Xudoynazarovna, Q. O., & Alisher o'g'li, H. A. (2022). SOCIO-PEDAGOGICAL MATERIAL TO ENSURE THE CONTINUITY OF FAMILY, NEIGHBORHOOD AND EDUCATIONAL INSTITUTION IN THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL VIRTUES OF STUDENTS. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 4, 342-344.

3. Xudoynazarovna, Q. O. (2022). INCREASING SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF WOMEN IN OUR COUNTRY. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 249-255.

4. Xudoynazarovna, Q. O., Bobomurod o'g'li, B. B., & Jaloliddin O'roz o'g, N. (2022). Increasing the Social Activity of Female Teachers is the Need of the Hour. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(6), 137-139.

5. Худойназаровна, Қ. О., & Хусенова, М. Н. (2022). МИЛЛИЙ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ТАЛАБА-ҚИЗЛАРНИНГ ҲАЁТИДАГИ ЎРНИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 297-302.

6. Qosimova, O., & Jaxbarov, O. (2022). PEDAGOG XOTIN-QIZLAR SHAXSIGA QO'YILADIGAN PEDOGOGIK PSIXOLOGIK TALABLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 643-645. \

7. Касимова Озода Худойназаровна, & Нормохматова Адолат Шавкат кизи. (2023). Повышение Социальной Активности Женщин-Учителей – Веление Времени. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 393–396. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1721>

8. Касимова Озода Худойназаровна, & Яндашова Дилшода Одилжон кизи. (2023). Роль Женщин И Девушек-Педагогов В Развитии Мышления Молодежи. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 389–392. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1720>

GENDERING FANLARARO TADQIQI

Rahmonova Barnoxon Odilovna,

*Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Tillarni o'qitish metodikasi kafedراسи mudirasi*

Annotatsiya: Gender lingvistikaning rivojiga ehtiyoj sezilyotgan bir davrda gender tadqiqotlar fanlararo tatqiq etilishi samarali natija beradi. Ushbu maqolada tadqiqotlarda insoning mavjudligi gender nuqtaiy nazardan ko'rib chiqilishi va bu masala falsafaning asosiy ma'nosi va maqdsadiga aylanib borayotganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: gender lingvistika , gender psixologiya , tadqiqotlar, feminizm, jins va siyosat, gender nazariya , nutq.

Gender tadqiqotlari fanlararo tadqiq etilish natijasida gender lingvistikasining rivojiga ehtiyoj seziladi. Tadqiqotlarda insonning mavjudligi gender nuqtai

nazardan ko‘rib chiqildi va bu masala falsafaning asosiy muammosi, ma‘nosi va maqsadiga aylana bordi. Gender tadqiqotlari insonga tabiatdan har xillikka intilib yashash xosligini isbotladi. Bu esa gender psixologiyasida yana bir bora o‘z isbotini topdi. Gender psixologiyasidagi fikrlar majmuiga tilshunos F.de Sossyur tomonidan til va nutqning farqlanishiga oid psixolingvistik tadqiqotlari “nutqiy faoliyat” tushunchasining yanada aniqroq bo‘lishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. F.de Sossyurning ta‘limoti gender psixologiyasida nutq yaratilishi til va tafakkur munosabatiga bog‘liqligini yaqqol namoyon etdi. Umuman olganda, gendert psixologiyasida yondosh fanlar asos solgan va bosqichma bosqich shakllana borgan.

Gender tadqiqotlari-bu ijtimoiy hodisalar va ularning o‘zgarishlarini tahlil qilish uchun ijtimoiy jins nazariyasining kognitiv imkoniyatlaridan foydalanadigan fanlararo tadqiqot amaliyoti. Ushbu sohaga ayollar tadqiqotlari (ayollar, feminizm, jins va siyosat bilan bog‘liq), erkaklar tadqiqotlari va queer-tadqiqotlari kiradi. Zamonaviy gumanitar bilimlarda ushbu tendentsiyani shakllantirishga turtki jins bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda biologik va madaniy tarkibiy qismlarni ko‘paytirish taklifi bo‘ldi.

Gender masalalari globallashayotgan dunyoda modernizatsiya va postmodernizatsiya jarayonlariga mos keladigan innovatsion ilmiy va falsafiy nutqni ifodalaydi. Gender nutqi klassik gender nazariyalarini tanqid qilish, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlardagi an‘analarni inkor yetish va zamonaviylik va postmodernizm davriga mos keladigan yangi yondashuvlarni tasdiqlash sifatida paydo bo‘ldi. An‘anaviy gender qadriyatlarining o‘zgarishi tendentsiyasi global xarakterga ega bo‘lib, turli xil milliy, madaniy va geografik xususiyatlarga ega jamiyatlar va davlatlarga taalluqlidir. Gender o‘zgarishining global vektori erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqlarning xiralashishini anglatmaydi, balki gender ierarxiyasini va mavjud hokimiyat va bo‘ysunish munosabatlarini rad etishni anglatadi.

Jinsni aniqroq aniqlash va uning dinamik mohiyatini tushunish uchun, bizning nuqtai nazarimizdan, uni talqin qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini nafaqat turli fanlar doirasida, balki modernizatsiya jarayonida turli davrlar doirasida ham kuzatish muhimdir.

Gender psixologiyasining dastlabki bosqichida gender psixologiyasi alohida soha sifatida shakllanib ulgurmagan bo‘lsada, olimlar o‘zlarining fikrlari orqali jins vakillariga munosabat bildirishgan. Bu fikrlarning ayrimlari gender tadqiqotldarga xosdir. Bu bosqichda “ko‘plab g‘arb mamlakatlarida, ayniqsa, Frantsiya, Angliya va AQSHda ayollar erkinligi uchun xarakatlar avj oldi. 1960g‘70 yillardagi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar munosabati bilan ayollik va jinsga doir e’tiroz bildirgan feminizm nazariyasi shakllandi ”. Natijada, gender psixologiyasi, uning yo‘nalishlari, gender ijtimoiylashuvi kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Xorijiy psixologik adabiyotlarda E.Krechmer (nemis psixologi) va U.Sheldon (amerikalik psixolog)larning nazariyasi jins masalasiga oid bo‘lib, nerv sistemasi nerv-fiziologik xususiyatlarga emas, tashqi ko‘rsatkichi badanning jismoniy tuzilishiga bog‘liqdir, deb e’tirof etiladi.

Gender tadqiqotlarida gender falsafasi ham o‘zining nazariyalari bilan

muhim o‘rinni egallaydi.

Gender falsafasining maqsadi – jinslararo munosabatlarni yanada mustahkamlashdir.

Gender pedagogikasi ayol va erkak o‘rtasidagi farqlarni izlashdan emas, balki ayol va erkakni inson ekanligini ko‘rsatib beradi. Gender munosabatlari deganda, avvalo insonlarning o‘zaro munosabatlarini anglaymiz. Gender pedagogikasi ta’lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ularga muvofiq usul va vositalarni tanlaydi.

Gender tarix tadqiqotlarida asosiysi – jamiyatda ro‘y bergan va ro‘y berayotgan voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini gender omiliga tayanib tahlil etishdir. “Gender tarix insoniyat tarixiga boshqacha ko‘z bilan qarashga, odat bo‘lmagan narsalarni odatdagidek ko‘rishga, tarixda tarixchilar shu paytgacha ko‘rib chiqmagan ko‘plab mavzularni ochishga imkon beradi. Natijada gender tarix tufayli dunyoning tarixiy manzarasi yanada to‘liq va ob‘ektiv ko‘rinadi”.

Jins turli xil ijtimoiy institutlar: oila, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, siyosat, huquq, til, san’at, fan, moda orqali o‘zini namoyon qilish texnologiyasi sifatida talqin etiladi. T. de Lautisga ko‘ra, jins-bu keng doirada o‘zini namoyon qilishning natijasidir: normativ gender displeylaridan jins chegaralarining to‘liq xiralashishigacha. Vakillik-bu nutq va me’yorlar bilan tartibga solinadigan psixika va tashqi ko‘rinish o‘rtasidagi “o‘yin”.

Bu masalalar qo‘shimcha muhokama va argumentatsiya qilinishi kerak. Biroq, shubhasiz, jinsning o‘ziga xos tomoni uning dinamik tabiati bo‘lib, uni o‘rganish gender jarayonlarini, turli tendentsiyalar va ularni o‘zgartirish mexanizmlarini o‘rganishni anglatadi. Bugungi kunda gender dinamikasi mexanizmining tarkibiy va individual darajalarining nisbati o‘zgarishda davom etadi deb taxmin qilish mumkin. Ushbu o‘zgarish vektori har bir shaxsning o‘zi tomonidan turli xil ijtimoiy dunyoni qurishda, unda amalga oshirishning yangi istiqbollari ochishda tobora ortib borayotgan roli foydasiga yo‘naltirilgan.

Gender tadqiqotining har qanday ko‘rinishida ham avvalo, har ikkala jinsning til birliklariga e’tiborni qaratish muhimdir. Gender steriotiplarining til birliklari orqali ularning tafakkuri, dunyoqarashi, anglashiladi. Shu jihatdan gender tilshunosligi to‘liq tadqiq qilingandagina boshqa sohalar: gender psixologiyasi, gender falsafasi, gender tarix, gender etnografiyasi va gender pedagogika mukammal shakllanadi. Chunki, gender tilshunosligida til birliklari orqali insonning jinsi o‘rganiladi, borliqdagi dunyoni jinsga muvofiq farqli ravishda qabul etib, ana shunday holatni tilda aks ettiradi. Olimlar ta’kidlaganidek, “gender va genderning ahamiyati suhbat jarayonida jinsning xarakteri, suhbatning mohiyati va strukturasi belgilashda aniq seziladi”. Shuning uchun ham gender tilshunosligini keng masshtabli fundamental tadqiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarix fanida gender muammolari. F.Axmedshina, O.Shnirova, Shkolnikov. T., 2003, 281-be t.

SHAXS MA'NAVYI QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK TAHLILI XUSUSIDA

O'tkir O'tanov,

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasida
dotsenti, p.f.f.d(PhD)*

Annotatsiya. Maqolada shaxs ma'naviy qiyofasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tahlili yoritilgan. Bundan tashqari maqolada shaxsning ma'naviy qiyofasini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omil va vositalar bayon etilgan bo'lib, unda shaxsning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etuvchi omil va vositalar birgalikda "ma'naviy ta'sir komponentlari"ni yuzaga keltirilishi ilmiy asoslab berilgan.

Shaxs haqida, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati, roli masalalariga bag'ishlangan ilmiy-falsafiy va pedagogik-psixologik tadqiqotlarning salmog'i ancha baland. Ularni o'rganish, tahlil qilish asnosida "shaxs" degan atamaga ko'plab ilmiy ta'riflar berilganligi ham bor gap. Zamonlar o'tib, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati o'zgarib va kengayib borishi nuqtai nazaridan "shaxs" degan tushunchaga beriladigan ta'rif tavsiflarning mazmuni ham boyib borishi tayin. Tadqiqotlarimiz davomida olingan ilmiy natijalardan kelib chiqib, ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif bersak o'rinli, deb o'ylaymiz: shaxs - o'zining ma'naviy qiyofasiga ega bo'lgan betakror tarixiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan, uning ta'sirida rivojlanib, takomillashib boradigan ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy xususiyatlarni o'zida mujassamlagan tushuncha. Ushbu ixchamgina ta'rif, o'ylaymizki, tadqiqotimizning mazmun-mohiyatiga to'la adekvatdir.

Umuman, "shaxs", "inson", "individuallik" tushunchalari bahsli masalalar qatoriga kiradi. "Bu masalaning SHarq va G'arbda o'ziga xos talqinlari mavjud bo'lib, ular ko'p hollarda insonga xos muayyan xususiyatni ustuvor deb bilish asosida shakllangan. Ushbu talqinlarni hozirgi zamon nuqtai nazaridan o'rganish inson borlig'i masalasining tarixi uzoq ekanini, bugungi kunda ham uning falsafiy nazariyalar uchun qiziqarli ekanini anglab olish imkonini beradi"[8].

SHaxsning ma'naviy qiyofasi uning axloqiy barkamollik, yuksak insoniylik, ezigulik, sadoqat, go'zallik, adolat kabi ma'naviy qadriyatlarga amal qilib, ularga tayanib, suyanib yashashi bilan belgilanishi barchaga ayon, albatta. SHu nuqtai nazardan, shaxsning ma'naviy qiyofasi deganda "xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal topib kelayotgan va faqat ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tushuniladi"[7] va u jamiyatning ma'naviy hayoti yuksalib borishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. SHu bois muayyan bir millatga mansub shaxslarning ma'naviy qiyofasidan butun bir millatning, xalqning ma'naviy qiyofasi shakllanishi mumkinligi haqidagi qoida pedagogika fanida allaqachon o'z isbotini topgan. "Ana shu mantiqiy qoidadan kelib chiqib, alohida odamlarda uchraydigan xislatlar shu jamiyat, millatning

xarakteriga ham xosdir, deyish mumkin... Bunga esa mutaraqiy mamlakatlar tarixidan ko‘plab hayotiy misollar keltirish mumkin” [10].

SHaxsning ma‘naviy qiyofasi “Jamiyatning ma‘naviy hayoti” degan tushuncha bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, shaxsning ma‘naviy qiyofasi jamiyatning ma‘naviy hayotiga mazmun-mohiyat bag‘ishlaydigan, uning yangilanish jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan tushunchadir. Ma‘naviy hayot – ijtimoiy hayotning ma‘naviy qadriyatlarni qaror toptirish, takomillashtirish, inson ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan muhim sohasidir.

Ilmiy tadqiqotlarda “ma‘naviy” degan ibora haqida gap ketganda ko‘p hollarda insonning ichki olami, unda sodir bo‘ladigan turli kechinmalar, uning axloqiy hatti-harakatlari, intilishlari, aqliy-intellektual faoliyati nazarda tutiladi. Bunday tadqiqotlarda insonning ma‘naviy hayoti uning amaliy faoliyati asosida vujudga kelib, tashqi dunyo – atrof-muhitning alohida in‘ikosi sifatida namoyon bo‘lishi keng ko‘lamda asoslab berilgan, albatta.

Shunga qaramay, “jamiyatning ma‘naviy hayoti” degan tushuncha shunchalik murakkab va keng ko‘lamli tushunchaki, uning yangidan yangi qirralari “ochilib” boraveradi va unga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko‘lami ham kengayib boraveradi. Shu o‘rinda pedagogika va psixologiya fanlarida insonning ma‘naviy hayoti bilan bog‘liq tadqiqotlardagi bir yoqlamalikni alohida ta‘kidlash kerak. Ushbu bir yoqlamalik shundan iboratki, ularda tadqiqotlar faqatgina psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar, ularning tuzilmasi, namoyon bo‘lish shakllari va mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, insonning bevosita ichki dunyosi, ma‘naviy qiyofasidagi o‘ziga xosliklarni o‘rganish e‘tibordan chetda qolgan.

Ma‘naviy hayot barqaror taraqqiy etib borayotgan har qanday jamiyatning asosini tashkil qiladi, shu ma‘noda ma‘naviy hayot o‘ta murakkab mohiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. “Ma‘naviy taraqqiyot jarayonining o‘zi ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, insonparvarlik tarzida namoyon bo‘ladi”[4]. Jamiyatning ma‘naviy hayoti to‘laqonli va boy mazmunga ega bo‘lsa, ushbu jamiyat a‘zolarining farovonligini ta‘minlash, ijobiy ruhiy-psixologik iqlim yaratish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bordi-yu, jamiyatning ma‘naviy hayoti qashshoq va jozibasiz bo‘lsa, unda ma‘naviy inqiroz, parokandalik, ruhiy tushkunlik, jamiyatning kelajagi – ertangi kuniga ishonchsizlik ham shunchalik ortib boradi.

Shu sababdan, jamiyatning ma‘naviy hayoti bir tekisda, barqaror kechadigan jarayon emas, aksincha, qarama-qarshiliklar, turli shakldagi ziddiyatlar orqali namoyon bo‘ladigan jarayondir. Ushbu ziddiyatlar, ularning kurashi aynan ma‘naviy hayotning murakkabligidan kelib chiqadi va, birinchi galda, odamlarning ongi, o‘y-fikrlari, maqsad muddaolarining ro‘yobga chiqishini ifodalaydi. SHU nuqtai nazardan, *jamiyatning ma‘naviy hayoti insoniy mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan jarayondir, boshqacha aytganda, faqat insonga xos mohiyatdir. Zero, “ma‘naviylik” degan tushuncha faqat inson zotiga xosdir.*

Taniqli jamiyatshunos olim, professor M.Bekmurodov jamiyatning ma‘naviy hayot barqarorligini saqlash shaxsning ma‘naviy qiyofasini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ta‘kidlaydi: “...ma‘naviy hayot maromini saqlash axloqiy

tamoyillar barqarorligiga, axloqiy birdamlik esa turmush tarzi yaxlitligiga ko'p jihatlariga ko'ra bog'liqdir. Insonning onglilik darajasi esa ma'naviy-axloqiy yaxlitlik omilini mustahkamlash imkonini yaratadi. Ana shu jarayonda har bir insonning o'zi yashayotgan barqaror turmush tarzidan qoniqish holatini tarkib toptirish, hayotga qiziqish, undan zavq va surur tuyish fazilatlarini kuchaytirish katta ahamiyatga egadir" [5].

Bayon qilinganlardan kelib chiqib, "**jamiyatning ma'naviy hayoti**" degan tushunchani *ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ma'naviy munosabatlar, jarayonlar, ma'naviy yaratuvchilik, ijodkorlik mahsuli va ularning bardavomligi uchun xizmat qiluvchi muhitdir*, deb ta'riflasak to'g'ri bo'ladi.

Ma'naviy hayot deganda jamiyatning ma'naviy qiyofasi, uning boshqa jamiyatlardan farqi, ular bilan raqobati, adabiyot, san'at, ilmu urfon, ta'lim, tarbiya, ijodkorlik, yaratuvchilik sohasidagi yutuqlari, bitta jumla bilan aytganda, shu jamiyatni "*tarixga muhrlaydigan jihatlari*" e'tiborga olinadi.

Odamning ichki, ma'naviy olami uning sub'ektiv dunyosidir. Sub'ektivlik esa uning moddiy va ruhiy borlig'ining asosida yotadigan ichki boshlang'ichdir. Ma'naviylik – ruhiy hodisalarning mazmun-mohiyatini ifodalashi bois, insonning ma'naviyati bilan bog'lanmagan har qanday ruhiy holat mazmun-mohiyatga ega emas. SHu nuqtai nazardan, ma'naviy olami bor odam dunyoni va o'z-o'zini bilishga, o'zining ichki va tashqi psixik faoliyatini baholashga, boshqarishga va nazorat qilishga qodir bo'lgan sub'ektidir.

Insonning ichki olami ehtiyojlar, manfaatlar, qarashlar, qiziqishlar, e'tiqod, dunyoqarash, ideallar, orzu-intilishlar kabi turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi. Baribir, "insonning ruhiy-manaviy kamoloti o'z qo'lida, boshqa biron shaxs yoki butun jamiyat ta'siri esa shart-sharoit yaratish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, o'git-maslahat berishdangina iborat bo'ladi, xolos" [6].

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan kuzatishlardan kelib chiqib, quyida shaxsning ma'naviy qiyofasini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omil va vositalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, madaniy va ma'naviy ehtiyojlar shaxsning ma'naviy qiyofasining shakllanishida katta o'rin tutadi. Ular insonga tabiatan ato qilinmaydi, balki tarbiyaning samarasi sifatida qaror topadi. SHu sabab, madaniy va ma'naviy ehtiyojlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, shaxsning ma'naviy yuksalishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Madaniy ehtiyojlar narsa-buyumlarning bevosita o'zini iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lsa, ma'naviy ehtiyojlar esa ularning g'oyaviy mazmunini o'zlashtirish orqali ifodalanadi, ularning o'zaro farqi ham shunda. Ma'naviy ehtiyojlar olamni bilishga, muloqotga, ijodga, erkinlikka, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, *manfaatlar* shaxsning ma'naviy qiyofasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Manfaatlar shaxsni moddiy va ma'naviy olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan tanlash (saralash) munosabatini uyg'otuvchi sub'ektiv holatini ifodalaydi.

Uchinchidan, *dunyoqarash* - insonning o'z tajribasi orqali, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida atrof-muhit va o'z-o'zi haqida orttirgan bilim va qarashlarini ifodalaydi va shaxs ma'naviyat shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash shaxs tomonidan olamni bir butun yoki uning ayrim

jabhalarini alohida holda tushunib olishni nazarda tutadi. SHaxs o'zining dunyoqarashi orqali hayotning ma'nosi va maqsadini anglab hamda unda o'z o'rnini topib boradi.

To'rtinchidan, *ishonch* – shaxs o'z hayoti davomida amal qiladigan tamoyillarning to'g'ri va haqqoniy ekanligiga amin bo'lishi, ko'r-ko'rona emas, balki ularga tayangan holda ongli ravishda faoliyat ko'rsatishini bildiradi va ma'naviy qiyofaning shakllanishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, *orzu* – shaxs o'zi istagan kelajakni aniq-tiniq tasavvur qilishi va unga intilishi. Orzu shaxsning porloq istiqbolga erishish yo'lida o'zining kuch-qudrati va imkoniyatlarini safarbar qilishi, yorqin kelajakni yaratishi sari ilhom beradi va uning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Oltinchidan, *ideal* – biror shaxsni timsol sifatida ko'rish va unga o'xshashga intilish. Ideal – inson uchun namuna bo'lib tuyuladigan ma'naviy sifatlar, uning uchun eng qadrlil bo'lgan ma'naviy etuklikdir. Hayotda ideali bor inson haqiqiy optimist - doimo yaxshilikka, ezgulikka intilib yashaydi.

Ettinchidan, *axloqiy va estetik tuyg'ular* – insonni doimo ezgulik, saxiylik, mehribonlik, mardlik, vatanparvarlik sari etaklaydi va yaxshilikni yomonlikdan, ezgulikni yovuzlikdan, go'zallikni xunuklikdan ajrata olishiga ruhiy ko'mak beradi.

Shaxs ma'naviyati rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ushbu omil va vositalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va jamiyatning faol a'zosi sifatida uning kamolotiga sabab bo'luvchi eng muhim “**determinantlar**”dir. Ular birgalikda shaxsga o'ziga xoslik (originallik) bag'ishlaydi va o'zgalardan ijobiy ma'noda “ajralib” turishiga sabab bo'ladi. ***Shaxsning o'ziga xosligi (originalligi)*** – *uning faoliyatidagi individuallikning namoyon bo'lishi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishdagi o'ktamligi, iste'dodi, e'tiqodi, kamchilik va illatlarga murossasizligi, adolatparvarligi, qatiyatliligi, rostgo'yiligi kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarini bildiradi.*

Shaxsning ma'naviy qiyofasi uning tarbiyaviy (**ma'naviy-ma'rifiy**) saviyasini ko'rsatadigan o'ziga xos mezonidir. Ushbu mezon shaxsning qator ma'naviy fazilatlarini mujassam etganligi bilan o'lchanadi: “bilimli, imonli, vijdonli, e'tiqodli va diyonatli, xushmuomala va intizomli bo'lish, tartibli, bilim va dunyoqarashni boyitishga intilish, va'daga vafo qilish, odamlarga yomonlik qilmaslik, yaxshilik qilish va uni minnat qilmaslik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo'lish, keksalar, ayollar va bolalarga alohida hurmat ko'rsatish, boshqalarga xayrixoh, iliq munosabatda bo'lish, kamtarlik, boshqalarni kamsitmaslik, odamlarning kamchiligi ustidan kulmaslik, masxara qilmaslik, ojizlarni qo'llash, atrofda odamlarning mehnat qilishi va dam olishiga xalaqit bermaslik, mehmondo'stlik, o'zining ichki va tashqi dunyosiga e'tibor berish, nutq madaniyatiga rioya qilish, jamoatchilik mulkini asrab-avaylash, jismonan va ruhan poklik va h.k.”[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son)

2. SHavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021. – B.227.

3. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi//”Xalq so'zi”, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).

4. Boysunov J. Ma'naviy madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni // Imom Buxoriy saboqlari: ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. – 2021 yil 1-son. – B.117.

5. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: “Info Capital Group” nashriyoti, 2011. – B.56.

6. Bo'taev Sh. Kimki komil, bo'lmaq'ay q'afolat anga.. // Tafakkur: ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. – 2011 yil 3-son. – B.31.

7. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. – T.: “Ma'naviyat”, 2019. – 521-bet.

TALABALARDA SOG'LOM DINIY DUNYOQARASHGA OID MA'NAVIY QARASHLAR TIZIMI

*Atakulova Nargizaxon Alijonovna,
Andijon davlat universiteti, 3-kurs doktoranti (DSc)*

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida talaba shaxsini har tomolama rivojlantirishda soglom diniy dunyoqarashni hamda dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish asosida mutafakkir ajdodlarimizning bizga qoldirilgan manbalariga tayangan holda ularning ma'naviy va pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy, insonparvarlik, diniy, falsafiy, pedagogik ta'limot, dunyoqarash, sog'lom diniy dunyoqarash.

Целью статьи. является анализ духовно-педагогических возможностей наших интеллектуальных предков, основанных на гармонии здорового религиозного мировоззрения и мирских знаний в развитии личности школьника в современной образовательной системе.

Ключевые слова: духовно-просветительское, гуманитарное, религиозное, философское, педагогическое учение, мировоззрение, здоровое религиозное мировоззрение.

The purpose of the article is to analyze the spiritual and pedagogical capabilities of our intellectual ancestors, based on the harmony of a healthy religious worldview and worldly knowledge in the development of a student's personality in the modern educational system.

Key words: spiritual and educational, humanitarian, religious, philosophical, pedagogical teaching, worldview, healthy religious worldview.

Mutafakkir ajdodlarimiz sogʻlom diniy dunyoqarashga tayangan holda birinchi hamda ikkinchi Renessans davrida (IX-XV asrlar)shaxs maʼnaviyatini rivojlantirish sohasida ulkan ishlarni amalga oshirganlar. Buning natijasida maʼnaviy-axloqiy, falsafiy-pedagogik taʼlimotlar rivojlangan. Sogʻlom diniy dunyoqarash namoyondalari oʻz faoliyatlarida diniy hamda dunyoviy bilimlarni uygʻunlashtirishga muvaffaq boʻlganlar. Shuning uchun ham ular tomonidan ilgari surilgan barcha gʻoyalari, pedagogik taʼlimotlar inson aql idroki va maʼnaviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan. Tasavvuf taʼlimoti diniy, falsafiy, pedagogik taʼlimotlarni oʻzida mujassamlashtirgan taʼlimot sifatida bugungi kunda ham taʼlim tizimida talaba shaxsini har tomolama rivojlantirish imkoniyatiga ega. Tasavvuf taʼlimoti namoyondalaridan bizga ulkan falsafiy pedagogik meros yetib kelgan. XII-XIV asrlarda yashab faoliyat koʻrsatgan mutafakkirlar tomonidan yaratilgan falsafiy-pedagogik, axloqiy-estetik yondashuvlar shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki unda insonparvarlik tarbiyasiga ustuvor oʻrin ajratilgan. Abu Rayxon Beruniy tasavvufni donishmandlik sifatida taʼriflaydi. U sogʻlom islomiy dunyoqarashda shakllangan mistik oqimning mazmun mohiyatiga taalluqli.

Tasavvuf taʼlimoti sogʻlom diniy dunyoqarash negizida vujudga kelgan va Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning asosini Qurʼon va hadislardagi ilgʻor, sogʻlom dunyoqarashga oid maʼnaviy qarashlar tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda tasavvuf oʻzigacha amal qilgan diniy dunyoqarashlarda mavjud boʻlgan ezgu gʻoyalarni mujassamlashtirgan. Shu bilan bir qatorda tasavvufda antik davr falsafasining axloq-odobga oid qarashlari ham oʻz ifodasini topgan. Tasavvufdagi sogʻlom diniy dunyoqarash Sharq xalqlari teologik adabiyotida yaqqol ifodalandi. Koʻrinib turibdiki, sogʻlom diniy dunyoqarashga asoslangan tasavvuf koʻplab madaniyatlarning elementlarini oʻzida mujassamlashtirgan.

Tasavvuf aqliy-ratsional tafakkurga irratsionalizmni qarshi qoʻyib, diniy hurfikrlilikni qadrlagan. Shuning uchun ham tasavvufning pedagogik imkoniyatlari ancha kengdir. Tasavvufni oʻrganish natijasida bugungi kunda shaxs maʼnaviyati bilan bogʻliq muammolariga yechim izlash muhim vazifa hisoblanadi. Chunki tasavvufni oʻrganish bugungi kunda shaxs maʼnaviyatini rivojlantirish bilan bogʻliq koʻplab muammolarni tushunish idrok etish uchun ilmiy asos yaratadi. Bugungi kunda talaba-yoshlar taʼlim-tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan mavjud voqelikni idrok etish tarixiy madaniy taraqqiyotning tarixiy bosqichlarini oʻrganish va undagi ilgʻor yondashuvlarga tayanishni taqozo etadi.

Tasavvuf taʼlimotining pedagogika uchun ahamiyatli tomoni shundaki, unda bilim, uning shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlari va chegaralari, bilimni tatbiq etish yoʻllari, usullari aniq koʻrsatib berilgan. Tasavvuf taʼlimotida aqidaviy kalomga asoslangan islomiy dunyoqarash hamda aql imkoniyati va kuchiga tayanadigan dunyoviy dunyoqarash oʻzaro uygʻunlashadi. Shuning uchun ham tasavvufiy dunyoqarash hurfikrlilik manbai hisoblanadi.

Buyuk imom ibn Gʻazzoliy tasavvuf taʼlimotini islomiy dunyoqarash bilan muvofiqlashtirishga erishgan. Ibn Aʼrabiy jamoat aʼzolarining islomiy dunyoqarashga ega boʻlishlarida tasavvuf taʼlimoti gʻoyalariidan samarali foydalana

olgan. U ilohiy ishqni tasvirlash vositasida kishilar ongiga sogʻlom diniy dunyoqarashni singdirishga harakat qilgan. Ibn Aʼrabi sogʻlom diniy dunyoqarashga oid fikrlarini rivojlantirib dinni zohiriy va botiniy tushunish oʻrtasida insonni munavvarlikka olib boradigan, toʻliq qabul qilinishi mumkin boʻlgan oʻzaro aloqadorlik mavjud deb taʼkidlaydi. Koʻrinib turibdiki ibn Aʼrabi insonning goʻzalligi ilohiy mavjudlik, munavvarlikka dahldor ekanligini eʼtirof etgan. Ibn Aʼrabi yning hurfikrlilikka aloqador boʻlgan qarashlari toʻliq oʻrganilmagan. Ushbu qarashlarga pedagogik nuqati nazrdan yondashgan holda uning mazmun mohiyatini yosh avlod, ayniqsa, talaba-yoshlar ongiga singdirish tarbiyaviy jarayonlarni mazmun jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Ibn Aʼrabi yning qarashlari sogʻlom diniy dunyoqarash taraqqiyotiga muhim hissa boʻlib qoʻshildi. Ibn Aʼrabi y ilgari surgan sogʻlom diniy dunyoqarashning asosini universal din konsepsiyasi doirasida diniy bagʻrikenglik, boshqa dinlar va uning vakillariga hurmat, turli madaniyatlarga xos boʻlgan qadriyatlarini tan olish tashkil etgan. Shuning uchun ham Ibn Aʼrabi yning yondashuvlari pedagogika uchun alohida ahamiyatga ega.

Aziziddin Nasafiy ham Ibn Aʼrabi yning maʼnaviy-maʼrifiy qarashlarini munosib tarzda davom ettirgan va yosh avlod tarbiyasiga oid yangi gʻoyalar bilan boyitgan. Mazkur yondashuvlar uning «Zubdat ul-haqoyiq», «Insoni komil» asarida keng koʻlamda talqin etilgan. Nasafiy ilgari surgan sogʻlom diniy dunyoqarashning asosini makrokosmos olami kubro (katta) va mikrokosmos olami sugʻro (kichik) haqidagi soʻfiyona taʼlimot tashkil qilgan. Ushbu taʼlimotga koʻra odam va olam oʻzaro oʻxshash boʻlgan, yaqin aloqadorlikka ega bir butun hodisa sifatida talqin etilgan. Chunki olamni bilish Nasafiyning taʼbiricha oʻzini anglash demakdir.

Sogʻlom diniy dunyoqarashning konseptual asoslarini oʻz ichiga olgan tasavvufning ontologik asoslarida ong, qalb, ibodat haqidagi bilimlar muhim oʻrin tutadi. Sogʻlom diniy dunyoqarash namoyondalarining fikriga koʻra inson ongining mahsuli boʻlgan haqiqiy bilim, qalbni ilohiylashtirish, botiniy ibodat va Allohga yaqinlashish vositasidir. Mazkur yondashuv pedagogika uchun muhim ahamiyatga ega. Yoshlar diniy va dunyoviy bilimlardan xabardor boʻlishlari barobarida, ularning qalbi yumshab, ezgu amallarni bajarishga intiladilar. Shu tariqa Allohga yaqinlashib, oʻzlarining maʼnaviy yuksalishlari uchun ibodat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 05.07.2021 yildagi OʻRQ-699-son Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida

2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий: Саҳиҳи Бухорий: Ал-жомеъ ас-саҳиҳ (2 та китоб) – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 1728 б.

3. Aziziddin Nasafiy. Zubdatul-haqoyiq. N.Komilov tarjimasini. – Toshkent.: 2003. "Kamalak", - 289 b.

4. Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. VI risola. – T., "Sharq". – 122 b.

5. Atakulova N.A. Talabalarda soglom diniy dunyoqarashni shakllantiruvchi badiiy-didaktik manbalar.// "Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar". Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – Buxoro: «Fan va taʼlim», 2024 yil №.4 – 395 b.

6. Komilov N. Tasavvuf. – T.: «Movaruaannaxr», 2009. – 448b.

O'QUVCHILARNI O'QUV FAOLIYATIGA QIZIQTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Maxmudova Zarina Amr-Aliyevna,
Samarqand shahar 13-maktabning o'qituvchisi

Annotatsiya. Ta'lim, birinchi navbatda, shaxsni rivojlantirishga, uning faolligi va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yo'naltirilgan. Shuning uchun o'quvchilarning mustaqil ishlash usullari, o'zini o'zi boshqarish, faol shakllar va o'qitish usullaridan foydalanishni kengaytirishda bularning barchasiga o'quvchilarning ushbu fanni o'rganishga qiziqishi bo'lmasdan erishish mumkin emas.

Kalit so'zlar: kognitiv, qiziqish, maqsad, metod, natija

Аннотация. Обучение в первую очередь направлено на развитие личности, повышение его активности и творческих способностей. Поэтому расширение использования студентами независимых методов работы, самоуправления, активных форм и методов обучения не может быть достигнуто без заинтересованности студентов в изучении предмета.

Ключевые слова: когнитивный, интерес, цель, метод, результат.

Annotation. Education is primarily focused on the development of the individual, increasing his activity and creative abilities, so in expanding the use of independent work methods, self-management, active forms and teaching methods, all of these cannot be achieved without an interest in the study of science.

Key words: cognitive, interest, aim, method, result.

Kognitiv qiziqish – bu bilish jarayoniga intellektual va hissiy munosabat, o'quvchilarning yangi narsalarni o'rganishga intilishi, individual va umumiy vazifalarni bajarishi, o'qituvchi va boshqa o'quvchilar faoliyatiga qiziqish.

Kognitiv faoliyatni jonlantirish – bu g'ayratli va yo'naltirilgan ta'lim uchun doimiy ravishda rag'batlantirish jarayoni. Men o'z ishimda o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rag'batlantiradigan turli xil shakllar, usullar, o'quv vositalarini birlashtirgan holda faollashtirishning turli usullaridan foydalanaman.

Darslarda o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan asosiy metodlar va o'qitish usullarini, ayniqsa, eng yangi usullarni hisobga oladigan bo'lsak, ularning barchasi, birinchi navbatda, o'quvchilar qiziqishini rivojlantirish va saqlashga qaratilganligi namoyon bo'ladi. Ushbu uslublarning samaradorligi ikki omil bilan bog'liq. Birinchidan, o'rganilayotgan muammoning hayotiy ahamiyatini ochib berish, bu nafaqat qiziqish uyg'otadi, balki o'qishga kuchli rag'batdir, chunki bu maktabda o'rganishning juda muhim ma'nosi bilan bog'liq. Ikkinchi omil - bu o'quvchilarning hissiyotlari va hissiyotlariga ta'siri, ularning subyektiv tajribasi va ichki ehtiyojlariga ishonish. Psixologlarning ta'kidlashicha, insonning his-tuyg'ularisiz, "inson haqiqatni izlashi" hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Hissiy xotiraning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi, chunki u bardoshli va, asosan,

inson faoliyatini belgilaydi. O'yin-kulgi elementlaridan qochmaslik kerak, chunki ular barchada qiziqishni uyg'otadi, istisnosiz, hatto eng zaif o'quvchilarda ham.

O'qitish va ta'limning natijasi ko'p jihatdan o'qituvchining o'quvchilarni fanga qiziqishini uyg'otish, bilimga bo'lgan ehtiyojni uyg'otish usullariga bog'liq. Mashhur didaktika, o'quv jarayonida qiziqishni shakllantirish muammosining yetakchi ishlab chiqaruvchilardan biri - G.Shchukina fikricha, qiziqarli dars quyidagi shartlar tufayli yaratilishi mumkin:

1. O'qituvchining shaxsiyati.

2. O'quv materialining mazmuni. O'quvchi shunchaki ushbu fanning mazmunini yaxshi ko'radi va u qiziqish bilan shug'ullanadi.

3. Motivlar va o'qitish usullari.

Agar dastlabki ikkita fikr har doim o'qituvchining qo'lida bo'lmasa, unda oxirgi har qanday o'qituvchining ijodiy faoliyati uchun maydon. Mavzuga qiziqishni uyg'otish uchun siz motiv yaratishingiz kerak. Kognitiv qiziqish to'g'risidagi ma'lumotlar to'plamida uning xabardorligi ham juda muhimdir. Sababni anglash har doim unga yanada kuchli ta'sir qilish bilan bog'liq. Ongsiz niyat ham harakat qiladi, lekin aniqki, ularni boshqarish osonroq. O'quvchilarning bilim qiziqishlari haqida xabardorlik ularga erkin tanlov, tabiiy va eksperimental vaziyatlarda harakat qiladigan murakkabroq bo'lgan o'quv vazifalariga ustunlik berish imkonini beradi.

Shunday qilib, kognitiv qiziqish ta'lim jarayonidagi eng muhim omillardan biri sifatida tan olinishi kerak, uning ta'siri yorqin va quvonchli o'quv muhitini yaratishda ham, o'quvchilarning kognitiv faolligida ham shubhasizdir.

Shunday qilib, ta'lim jarayonining ichki tomoni, kognitiv qiziqish bilan ifodalanadigan narsa, o'quvchining kognitiv faoliyatining yanada qulay, uzoq va samaraliroq oqimiga hissa qo'shadigan bitmas-tuganmas manba bo'lib qoladi.

Bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga ta'sir qiluvchi ikkita asosiy manbani ajratib ko'rsatish mumkin:

1) o'quv materialining mazmuni;

2) o'quv faoliyatini tashkil etish.

Birinchi manba quyidagi rag'batlarni o'z ichiga oladi:

- materialning yangiligi (o'rganilgan fakt, hodisa, qonunning kutilmaganligi),

- olingan bilimlarni yangilash (ilgari bilinmagan tomonlar, munosabatlar, munosabatlar va odatlarning avvalgi bilimlarida kashfiyot);

- o'qitishning tarixiyliigi (eng muhim ilmiy kashfiyotlar tarixidan, buyuk olimlar tarjimai hollaridan ma'lumotni kiritish);

- amaliy ahamiyatga va bilimga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatib, ya'ni ko'rib chiqilayotgan materialning mazmuni va uning hayot, amaliyot, milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati;

- astronomiya, harbiy ishlar, mexanizatsiya, biomexanika, sport va boshqa sohalardagi zamonaviy ilmiy va texnologik yutuqlar bilan tanishish.

Ta'lim faoliyatida muvaffaqiyatni ta'minlaydigan vaziyatlarni yaratish qobiliyati:

1. O'quvchilar o'rtasida o'z mavzulariga qiziqishni uyg'otish qobiliyati.

O'quvchilarning mavzuga munosabati, o'quvchilarning hissiyot doirasi: zerikishdan tortib to qiziqishga qadar. Maktabda o'tkazilgan o'quvchilarni tekshirish va diagnostika natijalari. O'quvchilar bu mavzu haqida qanchalik qiziqish bilan gapirishadi, bu fanga qiziqish nimada, dars berishning turli jihatlaridan qoniqish darajasi. O'quvchilarning o'rganish natijalari. O'quvchilar bu mavzu bo'yicha yuqori bilimlarni namoyish etadilar, chunki bu mavzu ularda qiziqish uyg'otadi. O'quvchilarning olimpiada, tanlovlar, loyihalarda ishtiroki. O'qituvchi o'quvchilar uchun maktab viktorinalari, fan olimpiadalarini tashkil qiladi.

2. Hatto eng kichik o'quvchi muvaffaqiyatini ham nishonlash. Har bir o'quvchining yutuqlari o'qituvchi tomonidan darsda aytiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini mustahkamlash muhimligini tushunadi va buni qanday qilishni biladi.

3. O'quvchining o'qish muvaffaqiyatini namoyish qilish

O'qituvchi bolaning muvaffaqiyati haqida ota-onalarga ma'lumot beradi, mavzuga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

4. Sinfdosh o'quvchilarining muvaffaqiyatlarini namoyish qilish

Darsda o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini ma'lum bir o'quvchining yutuqlariga qaratadi.

5. O'quvchilar o'zlarini muvaffaqiyatli his qilishlari uchun vazifalarni farqlash qobiliyati.

O'quvchilar uchun ijobiy motivatsiyani ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratish qobiliyati:

1. Ta'lim motivatsiyasining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda darsda qurilish faoliyati.

2. O'qituvchi darsda o'quvchining dars mavzusi va mazmuniga qiziqishini ma'lum darajada ta'minlaydi. Rejalar va ma'lumotlarning mavjudligi o'qituvchida o'quvchilarning motivatsion tayyorgarligini yaratish muhimligini ko'rsatadi.

3. O'quvchilarni o'qitilayotgan mavzuning turli mavzulariga qiziqishini uyg'otadigan ko'plab materiallar va topshiriqlarga ega bo'lish.

4. O'qituvchi arsenalida turli xil didaktik metodlar, o'quv faoliyati uchun motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan faol o'qitish usullari mavjudligi.

5. O'quvchilarning pedagogik faoliyatda qiziqishlari va ehtiyojlari to'g'risidagi bilimlardan foydalanish.

6. O'quvchilar o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ular uchun mavzu yoki muayyan mavzularni yaxshi bilish muhimligini ta'kidlaydilar.

7. Darsda do'stona muhit yaratish qobiliyati.

8. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan qurilgan o'quv faoliyatidan qoniqishadi: mazmuni, usullari, natijalari va boshqalar.

O'qituvchi quyidagi ko'rsatkichlarga yuqori baho beradi:

- o'quvchilarga insoniy munosabat;
- mavzuni tushunarli tarzda tushuntirish;

- vazifalar va ish usullarining o'quvchilar salohiyatiga muvofiqligi va boshqalar (maktabda qo'llaniladigan reyting protseduralarining mazmuniga qarab)

O'quvchilarning o'zini o'zi motivatsiyalashi uchun shart-sharoitlarni yaratish qobiliyati:

1. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish qobiliyati.

2. O'quvchilarga taqdim etilgan vazifalar ijodkor bo'lish imkoniyatini beradi. Darsda o'quvchilarga o'zlarining fikrlarini, g'oyalarini nostandart ijodiy shaklda ifoda etish imkoniyati berildi (tasavvur qilish, biror narsani tasavvur qilish qobiliyati). O'quvchilar o'qituvchining ijodiy tanlovlarda ishtirok etish to'g'risidagi taklifiga javob berishadi.

3. O'rganilgan materialni namoyish qilish va amaliy qo'llash

4. O'qituvchi tomonidan ishlatilgan misollar va ko'rgazmali materiallar o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu amaliy hayotda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotladi. Darslar uchun materiallar amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi shubhasiz, o'quvchilarga bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlari berilgan edi.

5. Maktab topshiriqlarini tayyorlashda dastur talablaridan chetga chiqib, o'quvchilarning qiziquvchanligini rag'batlantirish

6. O'qituvchi o'quvchilarni fikrlashga, qo'shimcha savollar berishga va tafsilotlarni aniqlashtirishga yordam beradigan ish usullaridan foydalanadi.

Uy vazifasini bajaradigan o'quvchilar qo'shimcha ma'lumot manbalarini jalb qiladilar, ko'proq ma'lumot olishga tayyor. Ota-onalar ta'kidlaydilarki, uy vazifalarini bajarayotganda, farzandlari darsga qiziqish bildirishadi, uyda darsda bilib olganlari haqida qiziqish bilan aytib berishadi.

1. O'quvchilarga yuqori darajadagi erkinlik va mas'uliyat bilan muammolarni o'rnatish va hal qilish imkoniyatini berish

2. O'qituvchi mustaqillikka da'vat qiladi, o'quvchilarga javob topishga vaqt beradi va savol va javobni darhol shakllantirmaydi. Javobning o'zgaruvchanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi nostandart javobni shakllantirishda o'quvchilar orasida odat tusiga kirdi, buni asoslab berish kerak.

1. O'quvchilarni fanning qo'shimcha bilim shakllariga jalb qilish uchun sharoit yaratish: olimpiada, tanlovlar, loyihalar va boshqalar.

2. O'quvchilar olimpiada, tanlovlar, viktorinalarda faol ishtirok etadilar. O'qituvchining o'zi viktorinalar, olimpiada, tanlovlar tashabbuskori.

Yuqorida aytilganlarning barchasini bajarish jarayonida men o'qitiladigan o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish uchun o'qituvchining vazifasi har bir o'qituvchi uchun mavzuni amaliy egallash uchun sharoit yaratish, har kimning faol bo'lishiga imkon beradigan o'qitish usullarini tanlashdir. Uning ijodkorligi, shuningdek, kognitiv faollikni, o'quvchining ushbu mavzuni o'rganish jarayonida qiziqishini kuchaytiradi. Har bir o'quvchining motivatsiyasi uchun qulay shart-sharoitlarni yarating.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshmirzayev M., Boymirzayev F. Didaktik vositalar majmuasi fanidan multimedia tizimlarini o'rganish va qo'llash uchun uslubiy ko'rsatmalar. –

Namangan, 2005-y. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va mahorat. – T.: Moliya, 2003.

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: Fan, 2007.

3. M.Ergasheva. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish. «Guruhlarda ishlash bo'yicha ko'rsatmalar» Xorijiy hamkorlik doirasida malaka oshirish kurslar uchun ishlab chiqilgan qo'llanma. 2019.

4. www. Ziyonet. uz.

OBRAZ VA ARXETIP

Mirzaev Jonmirza Nematovich,

Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish metodik xizmat ko'rsatish bo'limi qardosh tillar metodisti

E-mail: jonmirza87@mayl.ru

Annotatsiya. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyat juda mubolag‘ali va ayni paytda ishonarli tarzda tasvirlanadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumligidagi Avaz va Ahmad sardor o‘rtasidagi asl ziddiyatning mazmun mohiyati nimadan iborat? Epik ijodkor bu ikki obraz talqinida qaysi tushuncha va tasavvurlarni tinglovchi taqdim etmoqchi bo‘ladi? Maqola muallifi bunga yangicha yondashib, ildizlari qadim mifologik tasavvurlarga borib taqaladigan bu masalani Avaz obrazi misolida tahlil etishga harakat qiladi.

Kalit so‘zlar: mif, mifologik tasavvurlar, epos, obraz, badiiy talqin, arxetip.

Annotatsiya: В дастанаксе «Горогли» конфликт между главными героями описан весьма преувеличенным и в то время убедительным образом. В чем состоит настоящий конфликт между ведущими Авазом и Аксмадом в версии и вариации «Гороглы»? Какие концепции и идеи хотят представить слушателю дастана в интерпретации этикс двух образов? Автор статьи принимает новый подход к этому и пытается проанализировать эту проблему, которая берет свое начало в древних мифологических представлениях, на примере образа Аваза.

Ключевые слова: mif, mifologicheskie voobrajeniya, epos, obraz, xudojestvennaya interpretatsiya, arxetip.

Annotation: In Gorogly's epics, the conflict between the protagonists is described in a very exaggerated and at the same time convincing way. What is the essence of the real conflict between Avaz and Ahmad Sardor in the series "Gorogly"? What concepts and ideas does the epic creator want to present to the listener in the interpretation of these two images? The author of the article takes a new approach to this and tries to analyze this issue, which has its roots in ancient mythological notions, in the example of the image of Avaz.

Key words: *myth, mythological imagery, epic, image, fiction interpretation, archetype.*

Eposni qaysi metodlar asosida tadqiq etish lozim? Bu savolga ustoz folklorshunos olimlar turlicha yondoshadilar va turlicha javob beradilar. Biroq, bu javoblarni birlashtirib turuvchi jihat, qaysi metod yoxud yo‘l bilan tadqiq etilmasin, mohiyat va mazmun ochilishiga xizmat qilar ekan, epik matn tadqiqida har qanday metod va usullar foydalidir.

O‘zbek folklorshunosligida epik asarlarni psixoanalitik, ya’ni ruhiy tahlil metodi asosida tekshiruvlar allaqachon boshlab yuborilgan. Bu o‘z samaralarini ham berayotganiga shubha yo‘q.

“Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlarimizdagi obrazlar turli yondoshuvlar asosida tahlil qilish zarurati mavjudligini inkor etmaydi.

Ruhiy tahlil metodining eng yorqin vakillaridan biri K. Yung talqiniga ko‘ra, har qanday epik qahramon jamoaviy tasavurlar asosida shakllangan arxetipdir. Chunki u o‘zida qahramon haqidagi jamoaviy tasavvurlarni birlashtiradi. Shu jihati bilan bu tasavvurlar miflar kabi inson ongining shakllanish davriga xos belgilarni va qarashlarni, eng muhimi psixologik jarayonlarni saqlab qoladi. Shu jihati bilan u arxetipdir. Chunki unda jamoaning mardlik, jasurlik, ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy munosabatlar haqidagi dastlabki ruhiy-psixik kechinmalarni va qarashlarni aks ettiradi. Shuningdek mif va eposda alp qiyofasidagi epik arxetip bilan birga uning soyasi ham turli obrazlarda ishtirok etadi.

K.Yungga ko‘ra bu “soya”lar aslida shaxsning ong ostidagi arxetiplitgining soyasidir. Shaxsning jamoaviy arxetiplitgi jamoaviy nazorat otsida yaratilar, uning asl istak xohishlari “soya”ga aylanib, ong ostiga singadi. Miflar va mifologik tasavvurni tashayotgan eposlarda bu xil ikkilanish, ikkita qarma-qarshi obrazlar “arxetiplar” va ularning “soya”lari tarzida namoyon bo‘ladi.

K.Yung arxetip va uning soyasini aslida bir shaxsning ichidagi ikki xil ko‘rinishdagi kechinmalar va mayllar ekaniga urg‘u beradi. K. Yungga ko‘ra shaxsninsh ichidagi ana shu ikkilik miflarda turli pozitsiyadagi obrazlar sifatida o‘zini namoyon qiladi.

Qadim miflarni tahlil qilgan K. Yung inson psixikasining bu ikki nuqtasiga alohida to‘xtaladi. Zamonoaviy jamiyatda bu ikkiliklar “nusxa (personaj)” va uning “soya”si shaklida namoyon bo‘ladi. Shaxsning bu xil bo‘lingan holati jamoaviy ongsizlikning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlarining mif va eposda o‘zini ko‘rsatishidir. Shu sababli miflarda arxetiplarning antipodi bo‘lgan soyalar muhim rol o‘ynaydi. Aslida ular bir-birisiz mavjud bo‘lmaydi, biri ikkinchisini talab qiladi. Shaxsning botinidagi bu “kurash” miflardagi shaxsning kundalik munosabatlarida o‘zini ko‘rsatish uchun kurashga quriladi. Shu sababli har qanday mif arxetip va uning soyasi o‘rtasidagi kurashga quriladi. Aynan jamoaviy nazorat va tasavvur bilan yaratilgani uchun ham miflarda soyalar, ajdarholar, titanlar, yovuzlik kuchlari yoki arxetipga qarshi kurashuvchi kuchlar sifatida tamsillashadi. Keyinchalik arxetip soyalari odam qiyofasidagi obrazlarga aylangan. Ammo qahramonga nisbatan soyalarning munosabatlari o‘zgarmaydi. Ular har qanday holatda arxetipga – ya’ni jamoaviy ongsizlikka qarshi kurashuvchi, o‘zini namoyon qilish istagida ruhning soyalariga aylanadi. Arxetipning ommaviy ongsizlik mahsuli o‘laroq paydo bo‘lgani uchun ham “soya”lar o‘zida yovuzlikning belgilarini ifoda etadi.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridagi Avaz bilan Ahmad sardor o‘rtasida konfliktning uchiga chiqqan nuqtasi, Avazning ruhiy-psixologik qiyofasi, holati aks etgan eng tipik ko‘rinishi “Oltin qoboq” dostonida keltiriladi. Dostonda keltirilganday oltin qoboqni nishonga olib, taxtga voris chiqqan Avaz Ahmadning qizi Oybalandaga og‘iz solgani uchun Ahmadning g‘azabini qo‘zg‘aydi va oilasi bilan Chambildan badarg‘a qilinadi. Go‘ro‘g‘li ham har doimgiday Ahmadning qutqusining qurboniga aylanadi va avval Avazni dorga buyuradi, keyin oilasi bilan badarg‘a qildiradi.

Bu dostonda Avazning ruhiy holati yorqinroq aks etadi.

“Go‘ro‘g‘li” eposining janubiy maktabi vakili Abdunazar baxshidan yozib olingan “Oltin qoboq” dostonida ham xuddi shu syujet mavjud. Oltin qoboqni urib tushirgan va taxt vorisi bo‘lgan Avaz Go‘ro‘g‘lidan Ahmadning Qorako‘z qiziga uylanish niyatini aytadi. Oqibatda Ahmad uni xuddi tojik versiyasidagi kabi qul va zoti past, deb haqorat qiladi. Go‘ro‘g‘li esa Ahmadning qutqusiga ishonib, Avazni Chambildan badarg‘a qiladi.

“Oltin qoboq” dostonidagi kabi tojik versiyasidagi “Avazxonning uylanishi” dostonida Avaz Ahmadxonning qizi Qorako‘zga og‘iz soladi. Ahmad Avazni “zoti past” deb haqorat qiladi. Xuddi “Oltin qoboq” dostonida Go‘ro‘g‘li Ahmadning oldiga borganida o‘zini kasallikka solgani kabi “Avazning uylanishi” dostonida Shirmo bilan Og‘ayunus sovchi bo‘lib borishganda Ahmad o‘zini kasallikka soladi va Go‘ro‘g‘liga ta‘nalar qiladi.

“Hashmu shud Ahmadxon:

“Tu bezot hasti, -guft, - nodon,

Bepadar hasti Gurug‘lijon!

...Yak soilibacha chi boshad, u g‘ulom,

Nomi man boshad Ahmadxon!

Ahadxonning haqoratidan xafa bo‘lgan Avaz Chambluni tashlab ketadi.

Man zan namigeram, -guf, - farzandi jon!”

Du bedih az Chamblu meshavam ravon,

Ta‘nam mekunand turkmenon.

Avaz bir qancha sarguzashtlardan so‘ng Oyto‘ldini olib kelib uylanadi.

Har ikki eposda ham Ahmad sardordan aziyat chekkan Avazning ruhiy-ahvoli bir-biriga yaqin o‘lgan epitetlar, holatlar fonida tasvirlanadi.

Shu yerda bir narsaga to‘xtalib o‘tish kerak. Aynan shu dostonda epos qahramoni Avazga nisbatan qarma-qarshi nuqtai nazar mavjud. Yuqorida aytganimizdek, Avaz tojik eposida Avaz. Bu dostonda emas Avaz o‘zining “turkman” sifatida ta‘na qilishganini aytmoqda. Bu xil qarama qarshi ta‘rif asosida nim abor? Bizningcha, tojik eposining turkiy xalqlar eposidan o‘sib chiqqanini va tojik baxshilari savqi tabiiy ravishda bu yerda asl ildizdagi Avazga xos bo‘lgan gaplarni qoldirganini bildiradi. Xuddi uning “turkman”ligi kabi Avaz obrazining ko‘plab psixologik holatlari tojik eposiga ko‘chib o‘tib, tojik epik an‘anasi shakliga bo‘ysundirilgan holda talqin etiladi.

I.S.Braginskiy ta‘kidlagandek, tojik eposidagi Ahmad obrazi ham Go‘ro‘g‘lini Avazga qarshi gijgijlovchi, uni ko‘rolmaydigan, uni “zoti past” deb

haqorat qiladigan, tarixiylik nuqtai nazardan, “o‘rta asr saroy intrigalarini” ifoda etadigan obraz.

Uning fe‘l-atovri, epsodagi tutgan o‘rini I. S. Barginskiy o‘rta asrlardagi taxt talashuvlarining folklordagi badiiy akslanuvi sifatida baholaydi.

Tojik versiyasida Ahmad bilan birga uning ukasi Yusuf obrazi ham bor. Ammo agar psixoanalitik usuldan kelib chiqilsa, bu har ikki obraz aslida bitta vazifani – Avaz arxitipiga “soya”likning ikki xil ko‘rinishi vazifasini bajaradi.

Oxir oqibat Ahmad bilan bog‘liq barcha holatlarda o‘zbek versiyasida ham, tojik versiyasida ham Ahmadning bor gunohlari Avaz tomonidan kechiriladi. Avaz hamisha Go‘ro‘g‘li tufayli undan o‘ch olish istagidan voz kechadi. Ahmadning “jazosiz qolishi”ni ko‘plab tadqiqotchilar “tushunarsiz” yakun sifatida baholashadi. Ammo V. Jirmunskiy va H. Zarifovlar bu holatni “Ahmad Sardorning ushbu badiiy asoslanmagan va anglab bo‘lmaydigan jazosizligi, uning epsodagi doimiy epik roli bilangina bog‘liq bo‘lib qolmay, aslida avvalgi – yetim jiyanining tarbiyachisi, homiysi sifatida keluvchi obraziga qarama-qarshi xiyonatkor qarindosh sifatining so‘nggi davr qatlami sifatida qo‘shilishi sabablidir”, deya talqin etishadi.

Biz ana shu talqinni inkor etmagan holda avval Go‘ro‘g‘liga, keyin Avazga nisbatan Ahmad sardorning intirgasi, hasadgo‘yligi tagida yana bir narsa, psixoanaliz nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatning pateriarxal bosqichga o‘tishdagi ruhiy-psixologik hukmdorlik instinktlari yotganini, uning jazolanmay qolishi tagida ana shu qadimgi instinktlar yotganini e‘tibordan qochirmaslik kerak.

“Go‘ro‘g‘li” eposining yadroviy motivlari mifologik tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgani kabi Ahmadxon bilan intriga motivida psixoanaliz asoschisi K. Yung nazarda tutgan arxitip qahramon va uning soyasi yotganini, bu instinktlar eposda Ahmadxon qilmishlari tarzida namoyon bo‘lishini ham inkor etmaslik kerak.

Shunga ko‘ra Avaz va Go‘ro‘g‘lining Ahmad sardor bilan konflikti tagida ham aslida K.Yung ta‘kidlagan “arxitip”lik va “soya” kurashi yotganini sezish qiyin emas. Sodaroq aytganda, Ahmad sardor Go‘ro‘g‘li yoki Avazning akslangan, ong ostidagi qirralari, ruhiyatining ko‘rinishlari. Ana shu jihatni inobatga olsak, Ahmad sardorning eposda nega jazolanmay qolishi sabablari ham oydinlashgan bo‘ladi.

Psixoanaliz metodiga ko‘ra tahlil qilinsa, Avaz bilan Ahmad sardor o‘zlarida arxitip va soyalik xususiyatlarini mujassam etadi. Qadimgi miflarning epik ko‘rinishida bo‘y ko‘rsatishi deb talqini qilinayotgan “Go‘ro‘g‘li” eposidagi Go‘ro‘g‘li va Avaz obrazining talqinlari psixoanalitik arxitip va uning soyasi sifatida tahlil qilishnishi eposga yangicha talqin yo‘nalishini ochishini e‘tirof etish kerak. Zotan, har qanday epos xuddi mif kabi xilma xil talqinlarga asos bo‘lishi tabiiydir.

Adabiyotlar:

1. Avazxon. Doston. Aytuvchi: Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi To‘ra Mirzaev. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – B. 4.

2. Gegel G.V. Sochieninya. Tom 14, Kn.-3. – M.: Nauka, 1958. – S. 231.

3. Gyor-ogly / Turmenskiy geroicheskiy epos. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury. Moskva-1983. –S.30.

4. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Aytuvchi: Muhammad Jomrod o'g'li po'ltan. Nashrga tayyorlovchi: M.Murodov. –Toshkent: Badiiy adabiyot, 1967. –B. 62.
5. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. - M., GIXL, 1947. – S.236.
6. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie. –L.: Nauka, 1979. –S.46.
7. Korogli X.G. Vazimosvyazi eposa narodov Sredney Azii, Irana i Azerbaydjana. –M.: Nauka, 1975. 336 s.
8. Mirzaev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. –Toshkent: Fan, 1979, 133 b.
9. Mirzaev T. Epos i skazitel. – Tashkent: Fan, 2008. – 410 s.
10. Qunduz bilan Yulduz. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. – Toshkent: adabiyot va san'at, 1968. – B. 56.
11. Gurugli. Tadjikskiy epos. –M.: Galavnaya redksiya vostochnyy literatury, 1987 g. –S.105. Jirmunskiy V.M., Zarifov X. Uzbekskaaya narodnqy
12. geroichiskiy epos. –M.: OGIZ. Politizdat. 1947.–S.220. Malikai ayyor.
13. Doston. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. –Toshkent: adabiyot va san'at, 1988. –B.
14. Yung K. Arxetip i simvol. –M.: Renesans, 1991. – 320 s.

TA'LIMDA ZAMONAVIY INNOVATSION AXBOROT TEKNOLOGIYALARI VA ULANING IMKONIYATLARI

G'ulomov Ilhom,

Samarqand VPYMO'MM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi

Eshmurodova Dilrabo Xo'doyberdi qizi

Siyob Abu Ali Ibn Sino nomidagi salomatlik texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarning o'rni kundan-kun oshib bormoqda ta'lim jarayonida AKT texnologiyalaridan unumli foydalanish muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Disk, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim.

Ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta'lim muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim

sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. Elektron yoki masofaviy ta'limning yangi bosqichida nafaqat axborot texnologiyalarini qo'llash, balki elektron shakldagi ta'lim manbalarini bilan ta'minlashni ko'zda tutiladi. Elektron va masofaviy texnologiyalar ta'limning axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo'llangan variantlaridir.

Elektron ta'lim (E-Learning) – avval «Elektron ta'lim» atamasi kompyuter yordamida o'qitish deb tushunilgan, biroq axborot texnologiyalari rivoji bilan bu tushuncha yanada kengaytirildi. Bugungi kunda elektron ta'lim ko'pgina ta'lim texnologiyalarini qamrab olmoqda, ularni shartli ravishda, 2 xil turga, ya'ni sinxron va asinxron turlarga bo'lish mumkin.

Sinxron elektron ta'lim – masofaviy ta'lim hisoblanadi, lekin bu real vaqtda amalga oshiriladigan ta'limdir. U oddiy kunduzgi ta'limga o'xshaydi, farqi shundaki, ishtirokchilar bir-biridan uzoq masofada bo'ladi. Kundan-kunga keng tarqalib borayotgan vebinarlar mazkur ta'lim shaklining eng yorqin ko'rinishidir. Ma'ruzalarni tashkillashtirishda maxsus dasturiy ta'minotlar qo'llaniladi.

Asinxron elektron ta'lim – bu talaba barcha kerakli ma'lumotni onlayn-manbalardan yoki elektron axborot tashish vositalari (CD, DVD yoki flash-kartalar)dan olishi va materialni o'zlashtirish sur'ati va jadvalini o'zi mustaqil tashkil etishdir. Asinxron elektron ta'lim tizimiga barcha turdagi CD-kurslar va elektron o'qitish kurslari, ostkastlar vaskrinkastlar kiradi. Bugungi kunda elektron ta'lim ko'pchilik OTM larda ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolgan, u shuningdek, malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ham o'z o'rnini topgan.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari – masofaviy ta'lim bu E-Learningga qaraganda kengroq tushunchadir, u interfaol mustaqil ta'limning va qo'llab-quvvatlashning intensiv maslahat sintezi hisoblanadi. Shunday qilib, elektron ta'lim masofaviy ta'limning bir bo'lagi hisoblanadi.

Masofaviy ta'lim asosiy o'quv materialini tinglovchilarga yetkazib berish va o'quv jarayonida o'quvchi va tinglovchi orasida interfaol ishlashni ta'minlaydi. Bunda qo'llanmalarni yetkazib berish kompyuter va Internetsiz ham amalga oshirilishi mumkin. Masofaviy ta'limning afzalliklari: Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning juda ko'p ijobiy tomonlari mavjud.

Yashash joyidan turib, o'qish imkoniyati – chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, universitetga kirib-o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari ularga o'z shahridan ketmasdan turib, o'qish imkoniyatini yaratib beradi.

O'qish va ishini birga qo'shib olib borish – tinglovchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladilar, bu, ayniqsa, malaka oshirish yoki ikkinchi oliy ma'lumot oluvchilarga juda qo'l keladi.

Respublikamiz ta'lim muassasalarining barcha bo'g'inlarida takomillashgan tamoyillarga asoslangan yuqorida keltirilgan tizimlarni joriy etsak, o'ylaymanki ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohatlarning namunali, samarali ijrosining bir bo'lagi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Общество и инновации., <https://inscience.uz/index.php/socinov.>, Особенности информационных технологий в обществе XXI века., В.Исабеков, У.Ергашев va b., 2020-у.

2. TEACHER-MUALLIM., ISSN:2181-0850., DOI:10.26739/2181-0850., <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2020-11-17.>, Axborot resurslari va texnologiyalaridan foydalanish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash tizimi., В.Исабеков, У.Хандамов, 2020-у.

3. Б.Исабеков, С.Усмонов, “Таълим тизимида инновацион технологиялардан фойдаланиш hozirgi zamон aniq texnologik ilmlarni masalalari va ularning echimlari” Республика илмий амалий конференция, Нукус, 2018-й.

4. SEVEN STAR CONFERENCE., Проблемы преподавания курса “Компьютерное моделирование” на основе информационных технологий., 2020-й., Тошкент Б. Исабеков.

YOSHLARDA OILAVIY MUNOSABATLARGA OID BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH

M.H.Nurmatova,

SamDCHTI katta o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarga xos bo'lgan bilimlarni o'rganishda, oilaviy hayotga oid psixologik bilimlar tarkibiy qismlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy, jismoniy tarbiya, tarbiya, milliy psixologiya, oila huquqi, jamiyat.

Oiladagi psixologik muhit turmush o'rtoqlarning umumiy manfaatlari bilan ajralib turadi, eng muhimi, ular bir-birining manfaatlariga e'tibor berishlari mumkin; Oiladagi qulay axloqiy-psixologik muhit oilaning boshqa a'zolarida o'ziga ishonch, xushchaqchqlik, vazminlik, o'zaro ishonch kabi fazilatlar va tuyg'ularning shakllanishiga ta'sir qiladi. O'zbekiston istiqlol mafkurasi ko'p millatli o'zbek xalqining ezgu g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu intilishlari hayotiy haqida ko'plab g'oyalarni ilgari surish mumkin. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev bu haqda aytgan ko'rsatmalarida hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ekanligini ta'kidlab: “Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan,

oqilona yo‘l bilan amalga oshirish lozim ...milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma‘naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir” Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta‘sir ko‘rsatgan nazariya, ta‘limot va mafkurani yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql, zakovat, iste‘dod va teran tafakkur egalarining mislsiz zaxmatlari haqida bilish lozimdir. Milliy ma‘naviyatimizga xos xususiyatlar shundan iboratki, bizning Vatanimiz jahonga mashhur minglab ulug‘ zotlarni, ulug‘ davlat arboblarni berdi. Ular umumbashariy ma‘rifatparvarlikni yaratishda faol ishtirok etdilar, rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Inson qalbida ma‘naviyat kamol topishi uchun qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak. Talabalarda milliy ma‘naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda ko‘plab yo‘nalish mezonlar bilan bir qatorda, kognitiv, xulq-atvorga yo‘naltirilgan, mayl hamda dunyoqarashga asoslangan yondoshuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda milliy ma‘naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish jarayoni qo‘yidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

- a) oilaviy bilimlarga oid ma‘naviy-axloqiy ongni shakllantirish;
- b) oilaviy hayotga oid ma‘naviy-axloqiy hatti-harakatlarni shakllantirish;
- v) oilaviy hayotga oid ma‘naviy-axloqiy odatlarni shakllantirish;
- g) xarakterining ma‘naviy-axloqiy qirralarini tarkib toptirish kabilardir.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, talabalarda milliy ma‘naviy qadriyatlarni egallashga bo‘lgan ehtiyoj jadal shakllantirilishi mumkin. Chunki bu davrda ular hissiyotlarga to‘lib-toshgan bo‘lib ijobiy sifatlarni egallashga ko‘proq moyildirlar. Milliy ma‘naviy qadriyatlar esa, har bir shaxsda shakllanishi zarur bo‘lgan ma‘naviy ehtiyojlarning yaxlit tizimidir. Talaba shaxsining xarakteri uning u yoki bu jihatdan rivojlanishini ta‘minlovchi omil bo‘la oladi. Hozirgi eng muhim vazifalardan biri, ta‘lim jarayonini va shu orqali butun jamiyatni insonparvarlashtirishdan iborat. Jamiyatni insonparvarlashtirish esa, har bir shaxsni ma‘naviy jihatdan yuksaltirish orqali amalga oshiriladi. Oilada shakllanayotgan har bir yosh avlod oiladagi psixologik muhitni aks ettiradiki, undagi o‘zgarishlar oiladagi an‘analarning o‘zgarishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida oila a‘zosining ma‘naviy qiyofasiga ta‘sir etmasdan qolmaydi. Oilaning o‘ziga xos xususiyatlarini undagi ma‘naviy qiyofani tahliliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, quyidagilar namoyon bo‘ladi. Har bir oila o‘zining ijtimoiy muhitdagi o‘rni ta‘sir kuchiga qarab ma‘naviy jihatdan yuqori saviyali, o‘rta saviyali va past saviyali turkumlarga ajratiladi. Bunda oilaning avvalgi ajdodlariga bo‘lgan munosabatidan tortib, to kelajak avlodiga bo‘lgan munosabati hisobga olinadi. Bundan tashqari oila a‘zolarining bir-biriga bo‘lgan munosabatlari hamda oila an‘analarni tashkil etishdagi faoliyatlari ham hisobga olinadi. Oila muhiti – bu qandaydir alohida uzib olingan tarbiya vositasi emasdirki, balki oila a‘zolarining har taraflama tashkil etilgan tarbiyaviy ish natijalari, oilaviy munosabatlarning o‘zaro yuksak axloqiy munosabatlarning yig‘indisi va namunasi natijasidir.

Bugungi kunda talabalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quv predmetlari mazmunini insonparvarlashtirish,

ular da milliy ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish nuqtai nazaridan o'ta dolzarbdir. Talabalarda oilaviy munosabatlarning xususiyatlari to'g'risida yoshlar tafakkurida bilimlar mavjud bo'lib, tegishli his-tuyg'ularni rivojlantirish, nikoh va oilaviy hayotga tayyorgarlik bilan bog'liq g'oyalari, qarashlar, e'tiqodlar, fazilatlar va odatlarni shakllantirishdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlar forumidagi va ma'naviyat haqidagi" nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
2. Каримова В. Оила психологияси. – Т.2010 й
3. WWW: UZA.UZ. society, 1-iyun-khol-aro-b..

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

O'ktam Zubaydullayev,

KIUT Samarqand filiali Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, PhD

[Tel:+998995470438 uktamzubaydullayev85@mail.ru](mailto:uktamzubaydullayev85@mail.ru)

Annotasiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga yo'naltirishning nazariy metodologik asoslari, bundan tarbiya jarayonida keng qamrovli foydalanish masalalari keltirilgan.

Kalit so'z va iboralar: Avesto zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi, kasbiy faoliyat, art-pedagogika, ta'lim, tarbiya, kasb, pedagog.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalarini barpo etish, ularni moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan alohida ahamiyat qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yoshlarning ma'naviy saviyasini yuksaltirish, ularni yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish eng asosiy vazifalardan biri ekanini, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yoshlarimizni turli yot g'oyalardan asrab-avaylash to'g'risida kuyinib gapirishlari bejiz emas. Bu masala ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash bilan bog'liqligi haqida qator dasturiy fikrlarni bayon qildi. Darhaqiqat, talabalar bilan har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerakligi, mafkura sohasida bo'shliq bo'lmasligi uchun san'at, badiiy havaskorlikka talaba-yoshlarni keng jalb qilish orqali san'atning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish "Besh muhim tashabbus" ning asosiy vazifasi etib belgilandi. Bu esa san'at turlari va ularning pedagogik tarixini o'rganishni taqozo qiladi.

Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (mas. shifokorlik kasbida xirurg, oftalmolog, dermatolog va b.). Kasblar odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi.

Kasb maxsus tayyorgarlik yoki maxsus ta'lim jarayonida olingan nazariy bilimlarga va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Kasbiy faoliyat – bu ma'lum bir sohada va tarmoqda insonning kasbi va ixtisosligi bo'yicha faoliyatidir.

Kasbiy faoliyat – bu ma'lum sohada insonning o'ziga xos xususiyati hisoblanib, mehnat faoliyatining qiymati odamlarning bajargan ishiga qarab belgilanadi.

Har qanday faoliyatning markazida “subyekt” - ya'ni shu faoliyatni amalga oshiruvchi turadi. “Obyekt” - faoliyat nimaga yo'naltirilgan bo'lsa shu va “mahsulot” - faoliyatning o'zgargan obyektidir.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar jamiyatimiz kelajak taraqqiyotining asosi - talaba shaxsi bilan ish olib boradi. Talaba ta'lim markazining subyektidir hisoblanadi. Talabaning ichki kuchlariga, salohiyatiga, ehtiyojlariga murojaat qilinmasa pedagogik jarayon samarali bo'lmaydi.

Talaba oliy ta'lim muassasasiga kirishdan oldin kasb tanlaydi va bu bo'lg'usi professional sifatida subyekt pozitsiyasini aniqlab beradi: yangi vazifalar (kasbiy faoliyatni o'zlashtirish) va mavjud imkoniyatlar orasida, yangi tizimlar munosabati bilan shunga o'xshash munosabatlarning maktabda odatlanib qolingan stereotiplari orasida ziddiyat kelib chiqadi. Kasbiy tayyorgarlik yo'lining o'zi talaba roli pozitsiyasining juda tez o'zgarishini talab qiladi: o'qishning boshida u maktab talabasi bo'lishi kerak emas, uning oxirida esa – talaba bo'lishi kerak emas. Bularning hammasi talabalarning jadal ijtimoiy ulg'ayishini va kasbiy - shaxsiy jihatdan rivojlanishini talab qiladi.

Olimlarning fikricha, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyati uning boshqaruvchanligi metofaoliyatligidan iboratdir, ya'ni pedagog o'z faoliyatini talaba faoliyatiga qarab qurishi lozim bo'ladi. Ko'pchilik kasb egalari o'z faoliyatlarini malakali darajada tashkil etish bo'lsa, oliy ta'lim pedagoglar uchun talabalarning o'quv faoliyatini tashkillashtirishidan iborat. Bu to'g'rida yapon xalqida shunday fikr yuradi “yomon o'qituvchi haqiqatni aytib beradi, yaxshi o'qituvchi esa uni topishga ko'maklashadi”.

Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi talabaga nafaqat bilim beradi, balki unga kelgusidagi kasbiy faoliyatini tashkil etish sir asrorlarini o'zining olib borayotgan pedagogik mahoratida namoyon etadi, o'rgatadi.

Shu nuqtai nazardan o'qituvchining pedagogik pozitsiyasi, qadriyatlarini muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asosida talabani qadr-qimmatli shaxs sifatida qabul qilish, unga faol munosabatda bo'lish, «subyekt-subyekt» munosabatlarini, ya'ni o'qitish jarayonida, ijodiy faoliyatda hamkorlik qilish, unga ta'lim markazining asosi deb qarash lozim. Bunday sharoitlarda pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati qaratilgan «obyekt» sifatida o'rganuvchilar emas, balki,

professional faoliyatni o'zlashtirish hisoblanadi. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning mohiyati «shaxsni obyektidan subyektga aylantirish» dan iborat. Shu nuqtai nazardan V.A.Slastenin va A.I.Mishenkoning «pedagogik faoliyatning haqiqiy obyekti pedagogik jarayondan yulib olingan talaba emas, balki, o'zaro bog'langan o'quv-tarbiyaviy vazifalar tizimidan iborat bo'lgan pedagogik jarayon, unda tarbiyalanuvchi bevosita ishtirok etadi va uning asosiy komponentalaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatadi» degan fikri asoslidir.

R.G.Mullahmetovning "Kasb tanlashga yo'llash" fani bo'yicha yozgan o'quv adabiyotida insoniyat tarixiy taraqqiyotida sharqu-g'arbda ham, Amerikada ham yoshlarni kasb-hunar egallashlariga alohida e'tibor bilan qaralganligi, ularni kasb-hunar egallashlariga otalik, ustozlik maslahatlari, yo'l-yo'riqlari muntazam berib kelingani aytilgan. Rasman kasbga oid maslahat idoralari asrimiz boshlarida paydo bo'la boshlagan.

Birinchi kasbiy maslahat byurosi 1908 yil AQShning Boston shahrida tashkil etilgan bo'lib, bu sana kasbga yo'naltirishning boshlanishi deb yuritilib kelinmoqda. Biroq tarixiy ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, yuqorida ko'rsatib ketganimizdek, kasbga yo'naltirish ishlari qadimdan shakllanib kelgan.

Art-pedagogika bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning shunday samarali usullaridan biri sanaladi.

Art-pedagogika atamasi nisbatan yaqinda, o'tgan asrning o'rtalarida Rossiyada paydo bo'ldi. Pedagog va psixologlar bu atamaga turli xil ma'no berishdi. Psixologlar uchun art-pedagogika atamasi ko'pincha art-terapiya bilan sinonim sifatida ishlatilib, imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan ishlarda foydalaniladi. Biroq, so'nggi yillarda pedagoglar art-pedagogikaga normal, shuningdek, iqtidorli bolalar bilan olib boriladigan metod va texnologiya sifatida qarashmoqda.

N.Yu.Sergeyeva art-pedagogika tushunchasini art-terapiya, badiiy ta'lim, nafosat pedagogikasi, san'atning psixo-pedagogikasi tushunchalari bilan ajratadi.

V.I.Skvorsov, D.S.Lotte, G.I.Jelezovskiy va boshqalarning tadqiqotiga ko'ra, art-pedagogika ortida san'at pedagogikasi: ta'lim, tarbiya va san'at orqali inson kamoloti, ularni shakllantirishning keng mazmunli asosi tushuniladi.

Hozirgacha art-pedagogikaning ta'rifi borasida yagona qarash mavjud emas. Sababi bu yo'nalishda izlanish olib borgan va olib borayotgan ko'plab olimlarimizning art-pedagogikaga bergan ta'riflari, tushunishlari bir-biridan farqli.

N.Yu.Sergeyeva art-pedagogikani "pedagogika fanining amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy yo'nalishi bo'lib, professional pedagogikaning muammolarini hal qiluvchi san'at va badiiy faoliyatning tabiatini, qonuniyatlari, tamoyillari, mexanizmlarini o'rganuvchi fan" sifatida ta'riflaydi.

Art-pedagogika – zamonaviy ta'lim maqsadlariga erishish va muammolarini hal qiluvchi, o'zining maxsus maqsad va vazifalariga ega soha sanaladi. Shuni ta'kidlash kerakki, "art" so'zining o'zagi nafaqat pedagogik muammolarni hal qiluvchi san'at vositalaridan foydalanish (voqeyilikni ijodiy aks ettirish, uni badiiy obrazlarda ko'rsatish), balki "art" – mahorat sifatida tarjima qilinadi.

Pedagogika nafaqat fan, balki san'at, ya'ni mahoratdir. Ta'lim-tarbiya berishda zo'rvonlik bilan emas, balki ta'lim oluvchining mustaqil izlanishga va topishga o'rgatish, o'qish va o'rganishga da'vat etish, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish, o'z-o'zini anglashga va muvaffaqiyatga erishishiga mahorat bilan yondashish sanaladi.

Ko'pincha, ta'lim qat'iy tartib-intizom, ma'lum qonun-qoidalar, ko'rsatmalarga amal qilib beriladi. Bu esa ichki nizo va norozilikka hamda inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi. Yetuk pedagog G.Skovoroda yozganidek, qachonki inson o'zida bilim, ko'nikma, malaka egallashga ichki xohishni sezsa hamda mahoratga ega bo'lishini his qila olsa, ta'lim jarayoni sifatli va samarali bo'ladi. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ta'limni samarali bo'lishi va keyinchalik jamiyatda muvaffaqiyatli amalga oshishida, talabani o'z xatti-harakatini anglashi, o'zini tushunishi hamda bilishiga yordam berish juda muhimdir.

Yuqoridagilarga asoslanib, art-pedagogikaning maqsadi ta'lim va tarbiyaning samarali va sifatli bo'lishiga yordam beruvchi vosita, metod va texnologiyalarni izlash, ishlab chiqish va joriy etish, deya ta'riflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimxon Isoxon o'g'li, "Odablar durdonasi" Samarqand, "Imom Buxoriy xalqaro markazi", 2018 y.

2. Соколова Т.А. Научно-методические подходы к выявлению одаренных детей и решение их проблем с использованием арт-педагогических технологий. Рукопис., 2011.

3. Сергеева Н.Ю. К вопросу о содержании понятия арт-педагогика /. Н.Ю. Сергеева // Вестник докторантов, аспирантов, студентов: ЧГПУ – 2008. — № 1 (11). – Т.2. – с. 114 -120.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB DIREKTORLARINING KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Umarova Nilufar Xasanovna,

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti

E-mail: umarova.nilufar1983@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ strategiyaning tadqiqi borasidagi ilmiy tahlillar, maktab direktorlari kommunikativ strategiyalarining mohiyati, ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati, kommunikativ strategiyalarning elementlari va tasniflari berilgan.

Kalit so'zlar: maktab direktori, kommunikativ strategiya, axborot-psixologik o'zaro ta'sir, mikro daraja, media darajasi, makro daraja.

Kirish. Ta'limda sifat va samaradorlikning oshishi ko'p jihatdan shu jarayonni tashkil etuvchi maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalariga

bog‘liq. Kommunikativ/aloqa strategiyasi - bu zaruriy muloqot darajasini o‘rnatish uchun harakatlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish jarayoni[1]. Aytishimiz mumkinki, kommunikativ strategiya har qanday ijtimoiy o‘zaro ta‘sirning uzoq muddatli rejasi bo‘lib, uning maqsadi aloqa muhitida ma‘lum natijalarga erishishdir.

Kommunikativ strategiyaning asosiy maqsadi maktab rivojlanish strategiyasini amalga oshirilishini ta‘minlash, muassasada ta‘lim sifatini tashkil etish, o‘quvchilar ehtiyojlarini, ularning sifatli ta‘lim xizmatlaridan foydalanish talablarini qondirish va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish, o‘z ustida ishlashlarini rag‘batlantirishga qaratilgan barqaror va samarali boshqaruv faoliyatini ta‘minlashdan iborat. Kommunikativ strategiyaning asosiy vazifasi maktabning rivojlanish strategiyasi, missiyasi va boshqaruv muloqotini samarali tashkil etilishini ta‘minlashdir.

Boshqaruv sohasida “kommunikativ strategiya” tushunchasining qo‘llanila boshlanganiga uzoq muddat bo‘lmagan bo‘lsa ham, uning tarkibiy komponentlarini tashkil etuvchi tushunchalar ancha avval paydo bo‘lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kommunikatsiya (lot. communicatio - xabar, uzatish) atamasi XX asr boshlarida ilmiy adabiyotlarda qo‘llanila boshlandi va birinchilardan bo‘lib N.Viner kibernetika va informatikaning paydo bo‘lishi bilan mazkur atamadan foydalandi.

F.I.Sharkov kommunikatsiyaga quyidagi ta‘rifni beradi: “kommunikatsiya - keng ma‘noda turli xil ma‘lumotlarni yaratish, uzatish va qabul qilish imkonini beradigan o‘zaro ta‘sir jarayoni va aloqa usullari [2].

Shuningdek, u bunday kontsepsiyani aloqa jarayoni sifatida belgilab, “Kommunikativ jarayon - bu turli xil aloqa subyektlari o‘rtasida ma‘lumot almashinadigan aloqa tizimi orqali o‘zaro ta‘sir qilish jarayonidir”[2] deydi.

V.A.Achkasova kommunikatsiyani:1) umumiy timsollar (belgilar) tizimi orqali shaxslar o‘rtasida muloqot qilish, axborot almashish (fikrlar, bilimlar, his-tuyg‘ular, xulq-atvor shakllari); 2) o‘ziga xos ma‘lumotlar almashinuvi, buning natijasida intellektual va hissiy mazmundagi ma‘lumotlarni jo‘natuvchidan qabul qiluvchiga o‘tkazish jarayoni [3] sifatida ta‘riflaydi.

D.P.Gavruga ko‘ra kommunikatsiya tushunchasi:birinchidan, muloqot ya‘ni, subyekt-subyektning o‘zaro ta‘siridir; ikkinchidan, ikki yoki undan ortiq subyektlarning bilvosita o‘zaro ta‘siridir. Ikkala subyekt uchun ham mazmunga ega bo‘lgan axborot shakllanishi bo‘lib, subyektlar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi va shu bilan aloqa o‘zaro ta‘siri tashkil topadi. Shunday qilib, kommunikatsiya - bu axborotning o‘zaro ta‘siri (yoki ikki subyekt uchun ham mantiqiy bo‘lgan ma‘lumotlar vositasida subyekt va subyektning o‘zaro ta‘siri) [4].

V.P.Konetskaya kommunikatsiyani “har xil aloqa vositalaridan (verbal, noverbal) turli kanallar orqali shaxslararo va ommaviy aloqa sharoitida ma‘lumotlarni uzatish va idrok etishning ijtimoiy jihatdan aniqlangan jarayoni” deb tushuntiradi [5].

Yuqoridagi barcha ta‘riflar kommunikatsiyaning asosiy xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Demak, kommunikatsiya - bu turli xil aloqa subyektlari o‘rtasida

ma'lumot almashinadigan umumiy timsollar orqali shaxslar o'rtasida muloqot qilish, axborot, fikr, bilim, his-tuyg'ular almashish tizimi bo'lib, ma'lumotlarni uzatish va idrok etishning ijtimoiy jihatdan aniqlangan jarayonidir.

“Strategiya” dastlab harbiy sohada istefoda etilgan bo'lsada, hozirgi vaqtda o'z qo'llanilish doirasini kengaytirib, turli ilmiy fanlarda uchramoqda: psixologiya (xulq-atvor strategiyasi), menejment (boshqaruv strategiyasi), iqtisodiy nazariya (korxonani rivojlantirish strategiyasi), tilshunoslik (kommunikatsiya strategiyasi) va hu kabilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida strategiya atamasi urish olib borish san'ati, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san'ati va ilmiy ma'nolarida talqin etilgan. Strategiya so'zi bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxonalar yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, shuningdek, maqsadga erishish natijalarini avvaldan bilish va nazorat qilish yo'nalishida keng qo'llanilmoqda.

Qariyb yuz yil avval, ya'ni 1925-yilda rus harbiysi, harbiy nazariyotchi, publitsist va pedagog A.A.Svechin tomonidan yozilgan “Strategiya” (harbiy ma'noda) darsligida mazkur atamaning rivojlanish tahlili berilgan [6]. Strategiyani shakllantirishga strategik maqsadlar ta'sir qiladi. Strategiya maqsadlarga erishishning asosiy usullarini taklif qiladi, shunda harakatlar yagona yo'nalishga ega bo'ladi. M.Mladenovich yozganidek, strategiya “nafaqat maqsad va vazifalar to'plami”, balki “kuchli qurol” [7] hamdir.

A.A.Romanov strategiya deganda “muloqot ishtirokchilaridan birining global va mahalliy aloqa maqsadlariga erishish rejasi bilan belgilanadigan va bog'liq bo'lgan xatti-harakati turini” nazarda tutadi [8].

Xo'sh, “Kommunikativ strategiya” nima?

1970-yillarda Selinker, Savignon va Tarone [9] kabi tadqiqotchilar ikkinchi tilni o'rganish va o'qitishning yangi davrini yaratdilar. Selinker o'zining “Tillararo” maqolasida kommunikativ strategiyalar haqida gapirdi. Keyinchalik Tarone va uning hamkasblari Koen va Dyumaslar 1976-yilda “kommunikativ strategiya”ning birinchi ta'rifini berishdi [10].

Kommunikativ strategiya tushunchasi turli amaliy tadqiqotlar uchun nisbatan yangi. Ushbu atamaning faol qo'llanilishi 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida boshlandi. Hozirda kommunikativ strategiyaga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lsada, ularning aksariyati tilshunoslik va aloqa nazariyasi doirasida ekanligini ko'ramiz. Menejmentda ham kommunikativ strategiyalarni rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini uchratishimiz mumkin.

T.S.Djambinovaga ko'ra, kommunikativ strategiya - bu muloqot va strategiyaning sintezi, bu ma'lum bir kommunikativ maqsadga erishish uchun turli xil verbal va noverbal vositalar qo'llaniladigan kommunikativ xatti-harakatlar yoki kommunikativ o'zaro ta'sirning bir qismidir. Kommunikativ strategiyani ishlab chiqish ehtiyojlaridan kelib chiqib, maqsadli auditoriyaning afzalliklari va boshqa omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Kommunikativ strategiyani ishlab chiqish jarayonida vazifalar tahlil qilinadi, aloqa xabari va aloqa maqsadi shakllantiriladi, asosiy elementlar aniqlanadi, ular yordamida xabarlar maqsadli

auditoriya vakillariga samarali uzatiladi [11]. Tadqiqotchi, ma'lum bir maqsadga erishish uchun turli vositalar yordamida kommunikativ xatti-harakat yoki o'zaro ta'sirning muayyan qismini muloqotdagi strategik ifodasini kommunikativ strategiya sifatida talqin qiladi.

A.V.Serpilinning ta'rifiga ko'ra, "kommunikativ straregiya - maqsadli auditoriya bilan qulay o'zaro munosabatlarni yaratish uchun kompaniyaning ichki va tashqi muhitga har tomonlama ta'siri [12]dir.

G.Ya.Goldshteyn esa, kommunikativ strategiyani iste'molchi sifatida maqsadli auditoriyaga ma'lumot uzatish uchun mavjud bo'lgan usullarning ko'p omilli tizimi, ulardan foydalanish ketma-ketligi, vaqti va erishilgan natijalarni miqdoriy baholash sifatida belgilaydi, bu ishlab chiqilgan tashkilot strategiyasining iqtisodiy samaradorligini belgilaydi [13].

Tahlillardan shuni alohida qayd etib o'tish joizki, maktab direktori ta'limda sifat va samaradorlikka erishish uchun turli subyektlar bilan aloqa o'rnatadi: ta'lim xizmatlari iste'molchilari, (o'quvchilar), manfaatdor taraflar (ota-onalar), jamoatchilik vakillari, homiylar, turli davlat va nodavlat tashkilotlari. Mazkur aloqa subyektlarining har biri maktabning o'z missiyasini amalga oshirishi, shuningdek sifatli ta'lim muhitini tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham maktab direktorining muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan to'g'ri tuzilgan kommunikativ strategiyalarga bog'liq.

Tahlil va natijalar. Har qanday tashkilot o'z faoliyatida boshqa tashkilotlar bilan kommunikativ munosabatlarsiz rivojlana olmagan kabi, maktab ham zamonaviy talablarga javob bera oladigan ta'lim maskani bo'lishi uchun albatta boshqa ta'lim sub'yektlari bilan maqsadli aloqalarni o'ranitishi, rivojlanish strategiyasini amalga oshirish barobarida kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqishi lozim. Ta'lim sifatining oshishi nafaqat o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muvafaqqiyatli, natijador o'zaro aloqalar balki, barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari), turli davlat va nodavlat tashkilotlari, homiylar, jamoatchilik vakillari bilan maktab direktorining to'g'ri tanlangan kommunikativ strategiyalari muhimdi. Bu o'z navbatida direktorlardan keng dunyoqarash, strategik fikrlash, natijani oldindan prognozlash, barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bilan kommunikativ munosabatlarda amaliy tajribaga ega bo'lishni talab qiladi.

Kommunikativ strategiyaning elementlari: kommunikantning maqsadi, nutq xatti-harakatlari modellari, individual shaxsiy xususiyatlar va muloqot ishtirokchilarining mafkuraviy qadriyatlar kiradi. Kommunikativ strategiya shaxs xatti-harakatlarini boshqarishning yuqori sifatli vositasi bo'lib, voqelikning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashadi, shu bilan birga qabul qiluvchiga ta'sir qilish usullarini takomillashtiradi.

Kommunikativ strategiyalar - tashqi va ichki muhitda o'zaro ta'sir qilishning o'ylangan taktik vositalaridan iborat bo'lgan ongli va nisbatan uzoq muddatli rejalar deb tushuniladi. Kommunikativ strategiyalar direktor tomonidan qo'llaniladigan ijtimoiy-psixologik boshqaruv usullari bilan chambarchas bog'liq

bo'lib, boshqaruv uslubi va tashkiliy xatti-harakatlar modelini shakllantiradi. Kommunikativ strategiyalarni bir qancha mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

✓ boshqaruv usulining mohiyati - tashkiliy, ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik;

✓ kommunikativ harakat mazmuni - axborot hamkorligi strategiyasi (asosan axborot almashinuvi), ijtimoiy-psixologik hamkorlik strategiyasi (asosan his-tuygu va istaklar almashinuvi);

✓ muloqot taraflari soni - bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p tomonlama strategiyalar;

✓ aloqa darajasi – makro darajadagi strategiyalar, media darajasidagi va axborot-psixologik o'zaro ta'sirning mikro darajasi [14];

Axborot-psixologik o'zaro ta'sirning mikro, media va mikro darajalaridagi kommunikativ strategiyalari aloqa darajasiga qarab farqlanadi.

Mikro daraja - bu maktab direktorining mahalliy aloqa darajasi bo'lib, axborot-psixologik o'zaro ta'sir direktorning bevosita tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Bunda barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (ta'lim oluvchilar, ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari) nazarda tutilmoqda.

Media darajasi maktab direktorining o'z hamkasblari (maktab direktorlari) o'rtasidagi aloqalarni nazarda tutadi. U boshqa maktablar va tizimdagi mutaxassislar (menejerlar) bilan ta'limdagi zamonaviy yonshashuvlarni o'z ichiga oladi.

Axborot-psixologik aloqaning uchinchi darajasi makro daraja bo'lib, bu darajada muloqot o'z jamoasi, tashkiloti va sohasi chegaralaridan tashqariga chiqadi. U keng sohalarda xalqaro hamkorlikni o'z ichiga oladi. Maktab direktorining axborot makro muhiti nafaqat makonda, balki vaqt bo'yicha ham taqsimlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, direktorlarning maktabda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi say harakatlarini oldindan rejalashtirilgan kommunikativ strategiyalar asosida tashkil etishi maktabning rivojlanishi va muvaffaqiyatini ta'minlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коммуникативная стратегия [Электронный ресурс] // marketch.ru. – http://www.marketch.ru/marketing_dictionary/marketing_terms_k/communicative-strategy/

2. Ф.И.Шарков Коммуникология. Основы теории коммуникации. Учебник / Ф. И. Шарков. – М.: Дашков и Ко, 2014. – с. 100.

3. В.А.Ачкасова Связи с общественностью как социальная инженерия / В. А. Ачкасова // Под ред. В. А. Ачкасовой, Л. В. Володиной. - СПб.: Речь, 2005. – с. 228.

4. Д.П.Гавра Основы теории коммуникации: Учебное пособие. Стандарт третьего поколения / Д. П. Гавра. — СПб.: Питер, 2011. — с. 60.

5. В.П.Конецкая Социология коммуникации. Учебник / В. П. Конецкая.

- М.: Международный университет бизнеса и управления, 1997. – с. 8
6. А.Свечин. Стратегия. Военный вестник. М.1927.-263. 15 с.
7. М.Младенович Военная стратегия в международных отношениях // Свободная мысль. — 2012. — № 3-4 (1632). — 223 с. — С. 5-14
8. А.А.Романов Системный анализ регулятивных средств диалогического общения. М.: Ин-т языкознания АН СССР, 1988. 182 с.
9. З.Дорней и М.Л.Скотт (1997). Стратегии коммуникации на втором языке: определения и таксономия. Изучение языка, 47, 173–210. <http://dx.doi.org/10.1111/0023-8333.51997005>
10. E.Tarone (1980). Communication Strategies, Foreigner talk and repair in interlanguage. Language learning 30: 417-413.
11. Т.С.Джамбинова Разработка коммуникационной стратегии продвижения товара в сети Интернет // Бизнес. Общество. Власть. 2014. № 18. С. 115-130.
12. А.В.Серпилин. Основные подходы к разработке и внедрению стратегии развития предприятия // Управление компанией. – 2001. – №3. – С. 31–48.
13. П.Смит, К.Бэрри, А.Пулфорд Коммуникации стратегического маркетинга. – С.: Юнити Дана, 2001. – 415 с.
14. В.Э.Бежовец Уровни информационного взаимодействия ученых. Гуманитарные дисциплины. LAP LAMBERT Academic Publishing, 2014.84 с.

PEDAGOG-O‘QITUVCHILARINING HISSIY ZO‘RIQISHINI OLDINI OLIHDA SAN‘ATNING IMKONIYATLARI

Suvanova Kamola Raimqul qizi

Samarqand viloyati pedagoglarni

yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,

Ijtimoiy va amaliy fanlarni o‘qitish

metodikasi dotsenti e-mail: kamolasuvanova6@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada pedagog-o‘qituvchilarning hissiy zo‘riqishini oldini oluvchi sog‘lom-ruhiy muhit yaratish, o‘zaro hurmatga asoslangan mehr madaniyatini singdirish ishlarini olib borish, professor-o‘qituvchilarni darsdan rohatlanish, diqqatni bir joyga jamlash, tasavvurini kengaytirish, o‘z ijodiga ishonish, ijodiy natijalari orqali vaqtni chog‘ o‘tkazish, qo‘lidan kelgan barcha narsalar uchun minnatdorchilik his ettirish haqida fikr yuritiladi

Tayanch so‘zlar: Fluid art, zentagle art, dots art, shar yordamida rasm ishlash, spray bo‘yoq san‘ati, ekzistensial, psixotexnika.

Аннотация: В статье педагогам-преподавателям следует создать здорово-духовную среду, предотвращающую эмоциональное напряжение, привить культуру любви, основанную на взаимном уважении, сделать так, чтобы профессора-преподаватели получали удовольствие от урока, сосредотачивались на одном месте, расширяли свое воображение, верили в

свое творчество. и проводить время, анализируя свои творческие результаты, думая о том, как уйти, чувствуя благодарность за все, что можно сделать.

Ключевые слова: Флюид-арт, зентагл-арт, дот-арт, рисование шаром, аэрозольная живопись, экзистенциал, психотехника.

Annotation: In the article, pedagogues-teachers should create a healthy-spiritual environment that prevents emotional stress, inculcate a culture of love based on mutual respect, make professors-teachers enjoy the lesson, focus on one place, expand their imagination, believe in their creativity, and spend time through their creative results.

Keywords: Fluid art, zentagle art, dot art, drawing with a ball, spray paint art, existential, psychotechnics.

Kirish. Pedagog o'qituvchining kasb standartlari ularga qo'yiladigan talablar kuchayotganligi, o'qituvchi shaxsining hissiy tomoniga jiddiy talablar qo'yiladi. Shu bilan birga, o'qituvchining pedagogik faoliyati turli xil stressli vaziyatlar va hissiy reaksiyaning kuchayishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan turli omillar bilan to'la. Emotsional zo'riqishning mavjudligi ayniqsa, turli yosh xususiyatga ega o'qituvchilarda namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning keskin vaziyatlari ularning sodir bo'layotgan voqealarni baholashda nomukammalligini, pedagog o'quvchilarga nisbatan impulsiv xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi: tashabbuskorlik yo'qligi, passivlik va o'zlarining kasbiy yaroqsizligini his qilish kabi shaxsiy xususiyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Ba'zi hollarda hissiy stress juda muhim nuqtaga uchrashi mumkin.

Kasbiy faoliyatda ortiqcha hissiy stressni bartaraf etishda san'at orqali o'qituvchining hissiy madaniyat darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar muhim rol o'ynaydi. Emotsional madaniyatning eng muhim ko'rsatkichlari o'qituvchining hissiy barqarorligi, empatiyasi va hissiy moslashuvchanligining yuqori darajada rivojlanganligidir.

Shu munosabat bilan pedagog-o'qituvchilarda emotsional barqarorlik va o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarini shakllantirishda san'at imkoniyatlarini o'rganish nihoyatda dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

Tasviriy san'at – (izoterapiya) rasmning barcha turlari, mozaikalar, kollajlar, bo'yash, ranglar bilan ishlash, modellashtirishning barcha turlari, fotosuratlar va boshqa ko'plab narsalar mavjud. Bu juda ko'p sonli texnik va texnikaga ega bo'lgan eng rivojlangan yo'nalish. Aynan chizilgan rasmdan boshlab psixoterapevtik yo'nalish sifatida art terapiya tarixi boshlanadi. Tor ma'noda aytadigan bo'lsak, art-terapiya – bu tasviriy san'atga asoslangan chizma terapiyasi (izoterapiya) hisoblanadi. O'qish va ijtimoiy moslashishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar va o'smirlar orasida nevroitik va psixosomatik kasalliklarni aniqlash va tuzatish uchun mashhurdir. Bu jarayon rasm chizgan insonning hissiy holatini ifodalaydi. Ko'p odamlar rasm chizishdan qo'rqishadi, shuning uchun psixolog mashg'ulotlarida ko'pincha quyidagi so'zlarni eshitadilar: “Men chizolmayman!” Bu ko'pincha maktabdan boshlab o'z faoliyatimizni doimiy ravishda baholashga odatlanib qolganligimiz bilan bog'liq. Art-terapiya sizning his-tuyg'ularingizni ifoda etish, o'zingiz haqingizda rasm chizish orqali aytib berish uchun kerak va

buning uchun qo‘lingizda cho‘tkani qanday tutishni o‘rganish kifoya. Bu yo‘nalishda rasm chizish uchun qobiliyati bo‘lishi shart emas.

San‘atning shaxsga ta‘siri asosan uch darajada amalga oshiriladi. **Birinchi daraja** (psixofizik) vizual, eshitish va boshqa retseptorlarning faollashishi, so‘ngra tananing fiziologik va biologik ritmlarining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. **Ikkinchi daraja** (psixologik) birinchisidan emotsional-irodaviy tuzilmalarga ta‘siri, ya‘ni psixologik faoliyatni yoki aksincha, tananing aqliy bo‘shashishiga yordam beradigan ta‘siri bilan farq qiladi. **Uchinchi daraja** (ijtimoiy psixologik) shaxsni o‘zgartirish va uyg‘unlashtirish, shuningdek, ekzistensial shaxs tuzilmalarini shakllantirish maqsadida san‘atning shaxsga ta‘sirini o‘z ichiga oladi. San‘atning kompensatsion funksiyasi quyidagicha zamonaviy ko‘rinishga ega: san‘at inson tomonidan bir xildagi kundalik hayot uchun tasalli va kompensatsiya vositasi sifatida qabul qilinadi. Ushbu qoida kompensatsion funktsiyaning aspektlarini tasniflash bilan qo‘llab-quvvatlanadi, jumladan: chalg‘ituvchi (ko‘ngilochar), tasalli beruvchi va aslida kompensatsiya qiluvchi (insonning ma‘naviy uyg‘unligiga hissa qo‘shadigan) jarayondir. Masalan san‘atning kompensatsion funksiyasi har doim olimlarni qiziqtirgan. Insoniyat sivilizatsiyasining boshlanishida odamlar musiqaning inson farovonligiga ta‘siri haqida o‘ylashgan. Platon, Pifagor, Aristotellar musiqaning shifobaxsh xususiyatlari haqidagi qarashlari ma‘lum. Qadimgi Hindistonda donishmandlar ovoz ideal tabiiy asbob sifatida aqlning pozitsiyasini ifodalaydi va odamni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi deb ishonishgan. O‘rta asrlarda bemorning temperamenti va musiqaning u yoki bu xarakterini afzal ko‘rishi o‘rtasida turli munosabatlarni o‘rnatish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, san‘at psixotexnikasi usullarining jadal rivojlanishi faqat XX asrda boshlangan. Bexterev tomonidan 1913-yil Rossiyada musiqiy va terapevtik effektlarni o‘rganish bo‘yicha qo‘mita tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibiga taniqli shifokorlar va musiqa olamining vakillari kirgan. Musiqaning inson tanasining turli tizimlariga ijobiy ta‘siri aniqlandi: yurak-qon tomir, nafas olish, markaziy asab tizimi. Ma‘lum bo‘lishicha, san‘at bilan muloqotda bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ular psixosomatik jarayonlarga terapevtik ta‘sir ko‘rsatadi, insonning psixo-emotsional stressiga hissa qo‘shadi, uning zaxira kuchlarini safarbar qiladi, san‘at, fan va umuman hayotning barcha sohalarida ijodkorlikni belgilaydi. Yevropada esa XX asr boshlariga kelib, ruhiy kasalliklari bo‘lgan bemorlarni davolashda tasviriy san‘atdan foydalanish keng tarqaldi. Kasalliklarni yengish, tiklanish va rehabilitatsiya jarayonlarini tezlashtirishda badiiy ijoddan foydalanish tajribasi A.Xillning “Tasviriy san‘at kasalliklarga qarshi” (1945) kitobida bayon etilgan. U terapevtik ta‘sir vositasi sifatida tasviriy san‘at bilan bog‘liq holda Yevropa fan va amaliyotiga “art terapiya” atamasini kiritdi. 1940-yillarda art-terapiya Z.Freyd va K.Yunglarning psixoterapevtik amaliyotida ruhiy kasal odamni vizual faoliyatga kiritish orqali terapevtik ta‘sir sifatida qo‘llanilgan. Art-terapevtik yo‘nalishning terapevtik ta‘siri an‘anaviy psixoanaliz g‘oyalari yordamida asoslanadi. K.Yung asosiy intrapsixik konfliktlarni aniqlab, ularni badiiy, badiiy faoliyat orqali ifodalagandan so‘ng bemor o‘z aqliy faoliyatini mustaqil tartibga solib, yashirin imkoniyatlarni ochib bera oladi, deb hisoblagan.

Shunday qilib, art-terapevtik ta'sirning mohiyati shundan iboratki, psixoterapevt yordamida turli xil san'at va badiiy amaliyot vositalari yordamida hissiy travmatik vaziyat o'zining tashqi ifodasini topadi, katartik oqimga olib keladi, buning natijasida bemorning ahvoli yengillashadi. Art-terapiyaning zamonaviy ta'rifi ushbu konsepsiyani chizish, modellashtirish, musiqa, fotografiya, filmlar, kitoblar, aktyorlik, hikoyalar yaratish va boshqalar kabi davolash va psixokorreksiya uchun badiiy texnika va ijodkorlikdan foydalanadigan psixoterapiya usuli sifatida izohlaydi.

O'qituvchilik kasbi juda ko'p hissiy toliqishlar talab qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. O'qituvchining kasbiy mahorati, albatta, o'qituvchining hissiy madaniyatini o'z ichiga oladi, shuning uchun o'qituvchilarga hissiy holatlarni o'z-o'zini boshqarishni o'rgatish kerak. Afsuski, o'qituvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash markazlari hayotimizda kamdan-kam uchraydigan hodisa, bu murakkab muammoni hal qilish butunlay o'qituvchilarning o'z qo'lida.

O'z-o'zidan boshqariladigan art-terapiya uslubini amalda qo'llagan holda, siz o'zingizni ifoda etishda o'zingizni namoyon qilishingizga cheklamasligingiz kerak, siz barcha ichki salbiy narsalarni "tashqariga chiqarishga" yordam beradigan har qanday vositadan foydalanishingiz mumkin. Eng yaxshi natijaga erishish uchun o'zingiz uchun eng jozibali faoliyat turini tanlang. Masalan:

- gullarni chizish (ortiqcha ish uchun tavsiya etiladi);
- turli xil chiziqlarni chizish (motivatsiyasiz hollarda);
- kamalakni chizish (kayfiyat yo'qligida);
- labirintni chizish (muhim ma'lumotni uzoq vaqt eslay olmasangiz);
- so'qmoqlar va yo'llarni chizish (umidsizlikda);
- mandala yoki avtoportretni chizish (o'zingizni tushunishni xohlaganingizda);
- landshaftni chizish (sizga energiya kerak bo'lganda);
- geometrik shakllarni chizish (fikrlaringizni tartibga solish kerak bo'lganda);
- nuqta chizish (muayyan muammoga e'tibor qaratish kerak bo'lganda);
- doiralar yoki to'lqinlarni chizish (qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topa olmaganingizda);
- maqsadni chizish (maqsad mavjud bo'lganda, lekin konsentratsiya bo'lmasa);
- kollaj yaratish (o'z istaklaringizni tushunishingiz yoki reja tuzishingiz kerak bo'lganda);
- yorqin ranglar bilan varaqning to'liq eskizini (umidsizlik holatida);
- o'zingiz yoqtirgan rasmning reproduksiyasini yaratish (o'z hayotingizdan norozi bo'lganingizda);
- tinch musiqa tinglash (uzoq stress bo'lganda);
- modellashtirish, haykallarni yaratish (og'riq uchun);
- origami, o'ralgan qo'g'irchoqlarni yaratish (tashvishning kuchayishi bilan);
- qog'oz (gazeta) varaqlarini mayda bo'laklarga (g'azab bilan) yoqish yoki

yirtish. Nima bilan shug'ullanishingizdan qat'iy nazar, o'zingizni ushbu faoliyatga to'liq jalb qilish va chalg'itmaslik muhimdir. Agar xohlasangiz, siz bir nechta texnikani birlashtira olasiz, masalan, chizish paytida sokin musiqani eshitishingiz mumkin.

№	Hissiy zo'riqishini oldini olish, sog'lom-ruhiy muhitni odatdagi ish kundalik ko'nikmasiga aylanishi uchun 9 ta tinchlantiruvchi rasm chizish texnikasi.
1	Fluid–suyuq akril bo'yash texnikasi (Acrylic fluid art painting)
2	Zentagle usulida rasm chizish tasavvurni kengaytirish o'z ijodiga ishonish (Zentagle Drawing Meditation)
3	Dots art usulida rasm ishlash (Dot painting art)
4	Shar yordamida rasm ishlash (Balloon acrylic with marker drawing)
5	Barmoqchalar usulida rasm ishlash texnikasi (<i>Finger painting</i>)
6	Spray bo'yoq san'ati (<i>Spray paint art</i>)
7	Qahva bilan rasm chizish usuli (Coffee art, Coffee painting)
8	Turli materiallar bilan rasm ishlash (Painting with different materials)
9	Sandografiya (qum san'ati) - shisha ustida qum bilan chizish (Пескография, Sand-art)

Dunyo miqyosida san'atning tarbiya vositasi sifatidagi o'ziga xos nafis xususiyatlari, mazmun, shakl va tarbiyaviy imkoniyatlari, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, ma'naviy axloqiy tarbiyaning artpedagogik mexanizm va vositalarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, san'at va pedagogikani o'zida mujassam qilgan artpedagogik dasturlar ishlab chiqish ahamiyatga ega. Umuman olganda san'atning turli yo'nalish, janr, turlaridan o'quvchilar tarbiyasi, pedagoglarni hissiy zo'riqishini oldini olish, ruhiy barqarorligi va boshqa bir qator ijobiy fazilatlarini shakllantirishda foydalanish zamonamizning asosiy maqsadlaridan biri va shunday bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida // <https://lex.uz/docs/4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – J. I. – Toshkent: O'zbekiston, 2017;
4. Mustafayev Sh.N. Oliy ta'lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish. Пед. фан. доктори (DSc... дисс. – Т.: 2023.

- 5.↑ Jump up to:[2,0](#) [2,1](#) [2,2](#) [2,3](#) Osipova A. A. *Общая психокоррекция: учебн. пос. для студ. вузов.* — М.: ТТs Sfera, 2004
- 6.↑ Александр Копытин, Джордж Платтс. *Руководство по фототерапии.* Москва: Когито Центр, **Lua xatosi: bad argument #2 to 'formatDate': invalid timestamp 'Yanvar'.** ISBN 978 5 89353 274 6.
- 7.↑ „Исцеление искусством: что такое арт-терапия?“. *Лекция Екатерины Воскресенской и Евгении Ефимушкиной в библиотеке им. Н. А. Некрасова (24-ноуabr 2018-уil)*
- 8.Как сделать картину из песка в бутылке [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.minibanda.ru/u/59934/note/kak-sdelat-kartinu-iz-peska-v-butylke>
- 9.Пескография (sand-art) – рисование песком на стекле [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://ropique.mb4.ru/tools/paint-tools/39-sand-art.html>
- 10.Рисунки из песка – песочное творчество как бизнес [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://bisnesideya.ru/biznes-na-domu/risunki-iz-peska-pribylnoe-tvorchestvo-pochti-bez-kapitalovlozhenij.html>
- 11.Психотерапевтическая энциклопедия / под ред. Карвасарского Б. Д. — 2-е изд. — СПб.: Питер, 2002.

MUNDARIJA
5-SHO‘BA
SHAXSNING INTELLEKTUAL, IJTIMOIIY, MA’NAVIY, HISSIY
RIVOJLANGANLIGINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI.

Shodiyev N. Shodiyev R. Nabiyeva D <i>“Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi” - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlash vositasi sifatida</i>	3
Зоидова С. <i>Роль морально-эстетического развития в детском возрасте</i>	10
Мухторова М. <i>Пробуждайте у детей положительные эмоции на «этот удивительный мир»</i>	15
Луфов М. <i>Основы ориентации психологической личности будущих педагогов – в профессиональной компетентности</i>	17
Гаибов К. <i>Психологическая характеристика творческих способностей младших школьников в процессе воспитания обучения</i>	24
Илясова Ф. <i>Преобразование физической культуры: роль когнитивного подхода в современном обучении</i>	33
Obloqulov S. <i>Kompyuter grafikasi fanini muammoga asoslangan o‘qitish usulida takomillashtirish</i>	35
Yusupova D.S. <i>Talabalarda ma’naviy-axloqiy munosabatlarni integral tashxislashning dolzarbligi</i>	38
Mamadaliyeva B.O‘. <i>O‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini rivojlantirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati</i>	42
Abduvohidov D. <i>Sulaymontepa – markaziy osiyoda xristian dinining noyob yodgorligi</i>	44
Akbarova M.B. <i>Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etish</i>	48
Erbo‘taveva Sh.O‘. <i>Ko‘makchilar tadqiqi tarixi</i>	51
Gadayeva M.M. Aliyeva M. <i>Social-psychological characteristics of the problem of adolescent egoism in child education</i>	55
Mamajonova G. <i>Talabalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda oilaviy tarbiyaning o‘rni</i>	60
Narmuradova R.U. <i>Yosh oilalarda yuzaga keladigan ayrim ziddiyatlarning oldini olish masalalari</i>	63
Qoraboyev Sh. <i>Yoshlar tarbiyasida milliy va diniy qadriyatlarning o‘rni</i>	66
Raximova D.B. Xidirov X.I. <i>Ijtimoiy adolat – korrupsiyaga qarshi kurashning amaldagi ma’naviy mezoni sifatida</i>	68
Raximova G.V. <i>Ayollarning rahbarlik qobiliyati va imkoniyatlarini rivojlantirish</i>	72
Rustamova Sh. <i>Noto‘liq oilalarda qiz farzandlar tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar</i>	75
Soliyev O.F. <i>O‘qituvchining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari</i>	80

Sulaymanova D.N. <i>Kreativ tafakkurni bo'lajak o'qituvchilarida shakllantirishning psixologik jihatlari</i>	83
Usmonova M.A. <i>O'qituvchining o'quvchilar bilan to'g'ri muomala qila olish madaniyati va texnikasi</i>	87
Yadgarova G.T. <i>Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirishda psixologik yondashuvlar</i>	90
Юнусметова Н.С. <i>Основные пути развития профессиональной компетентности педагога</i>	94
Zaynobiddinov J. <i>Jamoadagi ziddiyatlar va ularning yechimlari</i>	98
Vaxriyeva N.A. <i>Maktabgacha yoshdagi bolalar hissiy sohasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari</i>	101
Ikramova M.Sh. <i>O'qituvchilarning malaka oshirish jarayonini prognostik kompetentligini rivojlantirish pedagogik hodisa sifatida</i>	105
Хафизова М.А. <i>Игра как средство активизации познавательной деятельности студентов</i>	108
Axmedov B.Sh. <i>Harbiy xizmatchilar mahoratini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari</i>	111
Hamroqulova D.A. <i>Biologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish</i>	115
Jurayeva D.J. <i>Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish</i>	118
Atajanova L.U. <i>Turli yosh davrlarida insult kasalligi bilan kasallangan bemorlarning hayot sifati xususiyatini tadqiqotlarda o'rganilishi</i>	123
Murodillayeva M.M. <i>Boshlang'ich talim texnologiya darslarida qo'l mehnatiga o'rgatish</i>	125
Nigmatova M.Z. <i>Maktabgacha davlat ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati</i>	129
Qurbonova B.N. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini psixologik va jismoniy sog'lomlashtirish strategiyasi</i>	131
Zaripova M. <i>Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shaxs faoliyat turlari va faoliyatlar integratsiyasi jarayonida mas'uliyatlilikni shakllantirish</i>	134
Qosimova G.I. <i>Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish</i>	138
Rashidova M.R. <i>Nofilolog oliy ta'lim muassasida tahsil olayotgan talabalalarning kasbiy potensial imkoniyatlarini aniqlashtirish aspekti</i>	144
Sa'dullayeva M. <i>Ta'lim tizimida zo'ravonlik tasavvurlarining namoyon bo'lishi</i>	147
Qozoqova I.I. <i>O'smirlik yoshidagi o'quvchilarda bag'rikenglikni shakllantirishning psixologik jihatlari</i>	152
Ражапова И.Э. <i>Проявление эмоциональной устойчивости человека при стрессе</i>	154
Абдухоликова М. <i>Понятие креативности и его психологический анализ</i>	157

Рахимкулова К.К. <i>Роль учителя в воспитании и организации самостоятельной читательской деятельности учащихся младших классов.....</i>	162
Ro'ziyeva Sh.M. <i>Bolalarni sog'lom ovqatlantirish</i>	165
Usmonov A.N. <i>O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning muhim ahamiyati va imkoniyatlari ..</i>	169
Pardayev Sh.M. <i>O'quvchilarning individual o'quv natijalarini baholash texnologiyalari.....</i>	174
Norova K.Y. <i>Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda didaktik tamoyillarning o'rni.....</i>	178
Rahul Kumar, Yorova S.K. <i>Greek latin terminology, structural types of clinical terms. description of diseases of inflammatory character</i>	183
Fayzullayev Sh.N. Toshquvatova G.M. <i>Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga sifatli tayyorlash</i>	185
Jum'azoda M. <i>Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish pedagogik-psixologik muammo sifatida</i>	188
Suvanqulov U.I. <i>Pedagog -tarbiyachilarning diskurs (og'zaki nutq) ko'nikmasini rivojlantirishga oid metod va texnologiyalar</i>	192
Toshpo'latova S.E. <i>Ota-onalarga bola tarbiyasida psixologik maslahat</i>	194
Saidov A.I. Axmedov A.D. <i>Xorijlik talabalarini o'zbekiston oliy ta'limiga moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari</i>	196
Xurramov A.V. <i>Ta'lim tashkilotlarining barqaror rivojlanishida inson resurslaridan samarali foydalanish va kadrlar siyosati</i>	199
Jabbarov Z.R. <i>Muhandislik qo'shinlari harbiy xizmatchilarini intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishining pedagogik xususiyatlari</i>	202
Kurbanov G.A. <i>Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishining pedagogik xususiyatlari</i>	207
Медетова Раушан М. Илясов Б.К. <i>Развитие подготовки специалистов военной авиации на протяжении всей жизни и искусственный интеллект как актуальные вопросы образования xxi века</i>	212
Nurmatov A.A. <i>O'qituvchi faoliyatida nuqtai nazarning o'ziga xosligiga oid kognitiv tadqiqotlar natijalarini o'quv amaliyotida qo'llash imkoniyatlari.....</i>	217
Пирматов Серик <i>Возможности применения результатов когнитивных и нейропедагогических исследований в развитии визуальной культуры у студентов.....</i>	221
Самадова З.А. Хамидова Ф.У. <i>Образование и адаптация студентов колледжей.....</i>	224
Хайдарова С.Т. Рузиева Ф.Б. <i>«Познавательная активность»: ретроспективный анализ.....</i>	226
Pardayev Z.Sh. <i>Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, uning ijtimoiy ahamiyati</i>	228

6-SHO'BA

MADANIYAT, SAN'AT VA KITOBXONLIK PEDAGOGIKASINI RIVOJLANTIRISH – SHAXSDAGI KREATIVLIK, KOGNITIVLIKNING NAMOYON BO'LIH OMILI SIFATIDA

Davronov P.Z. <i>Yaponiyaning jadal taraqqiyotida yapon onalarining roli</i>	234
Мустафаева З.С. <i>Роль культурного и художественного образования в формировании речевых навыков и креативного мышления детей дошкольного возраста</i>	237
Мустафаева З.С. <i>Педагогика культуры и искусства, влияние на развитие речевых и креативных способностей дошкольников</i>	240
Oydinov Sh.B. <i>Ranglavhalar ishlashning, rangtasvir san'atini egallashda ahamiyati kata</i>	243
Xamalova F.Y. <i>O'qituvchilarning mustaqil kasbiy bilim va mahoratlarini oshirishda kitob bilan ishlashning o'rni</i>	246
Xamrayeva E.M. <i>Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy faoliyatida nutq madaniyatining ahamiyati</i>	249
Xudoynazarova G.B. <i>Tasviriy san'atda janrlar</i>	252
Xudoynazarov D.O. <i>Musiqqa darslarida musiqqa savodini o'rgatish metodikasi</i>	254
Atayeva G.Sh. <i>O'quv-tarbiya jarayonida talabalarning axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirish</i>	256
Байбаева М.Х. Эргашева С.М. <i>Задачи уроков литературного чтения в современной системе обучения смысловому чтению младших школьников</i>	258
Burxonova G.U. <i>Kaykovusning "Qobusnoma" asari talqinida musiqaning ilk tarixiy ildizlari</i>	263
Ortiqova G.Y. <i>Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslari orqali kitobxonlikni rivojlantirish</i>	265
Kuvandiqova M.A. <i>Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kitobxonlikka o'rgatish</i>	268
Narziyeva D.Sh. <i>To'g'ri kasb tanlash- farovon hayot asosi</i>	271
Qurbonova B.N. Xurramov S.Sh. <i>Oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari</i>	273
Qurbonova B.N. Xudoyberganova Z.A. <i>Mamlakatimizda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar</i>	274
Rajabova X.H. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash orqali ijodkorlikni shakllantirish</i>	277
Raximova D.B. Xidirov X.I. <i>Ijtimoiy adolat – korrupsiyaga qarshi kurashning amaldagi ma'naviy mezonlari sifatida</i>	280
Samatova D.S. Xo'jamurodova K.N. <i>O'zbek xalq musiqalari orqali o'quvchilarning badiiy didini shakllantirish</i>	284
Suvanqulov U.I. <i>Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqiy faoliyatini shakllantirishda tarbiyachi-pedagogning o'rni</i>	287
Xudoyberdiyeva G.M. <i>Biologiya darslarda pisa topshiriqlaridan foydalanish</i>	289
Шарипова Г.Н. <i>Роль социального сотрудничества в дошкольном образовании</i>	292

Rasulova S. Mamatov B. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish</i>	294
Raximova R.T. Karaeva M.A. <i>MTT tarbiyalanuvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy faoliyatini tashkil etish</i>	299
Baqoyeva M.I. <i>Kreativlik pedagogik-psixologik faoliyatni rivojlantirishning asosiy omili sifatida</i>	301
Raximova S.S. <i>Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda zamonaviy yondashuv</i>	304
Hotamov M.A. Maxmutova S.Sh. <i>Yosh ganbolchilarni tarbiyalashda ta'lim va mashg'ulotning uzviyligi</i>	307
Haqberdiyeva Z.R. <i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini kitobga jalb qilishni o'ziga xos xususiyatlari</i>	310
Xalmatova N.B. <i>Sport to'garaklari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarni to'g'ri rivojlanishida jismoniy mashqlarning ahamiyati</i>	314
Po'latova S.B. <i>Bobur she'riyatida masnu' she'r</i>	318
Karimova U.Sh. <i>Pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishida mustaqil ta'limning ahamiyati</i>	322
Jumaniyazov A.U. Ximmatova J.K. <i>Sirdaryo viloyati sharoitida gelioussiqxonalarda quyosh energiyasidan samarali foydalanish ahamiyati</i>	326
Jalolova F.M. <i>Bo'lajak pedagogik boshqaruv kadrlarini tayyorlash davr talabidir</i>	330
Quvvatov S.I. <i>Shaxs ma'naviy-axloqiy rivojlanishining pedagogik jihatlari</i>	333
Toshquvatova G.M. <i>Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga sifatli tayyorlash</i>	336
Xolmatova G.I. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirishda loyihaviy yondoshuvning o'rni</i>	338
Egamberdiyev U. Jalilov Sh.I. <i>Musiqqa tarbiyasida oila va ta'lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish muammolari</i>	341
Xamroyeva F.A. <i>Xorijiy tajriba asosida kutubxonalarda ilmiy hamda ta'limiy xizmat markazlar faoliyati rivojlantirish</i>	344
Raxmonova M.T. <i>Ahmad Donish saboqlari</i>	347
Eshmamatova A.Sh. <i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlari badiiy adabiyot faoliyatlarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish usullari</i>	350
Boltayeva D.T. <i>Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida turli qiziqarli o'yinlardan foydalanish</i>	352
Xusanov G'E. <i>"Oila" konsepti va uning o'zbek madaniyatida aks etishi</i>	360
Amonov R.S. O'roqov A. <i>Zamonaviy ta'lim va yoshlar</i>	363
Ирбутаева П.Ю. Маматкулов Ш.Б. <i>Малодвижный образ жизни. мотивация общества к повышению физической активности</i>	367
Жумашева Г. Хайтимбетова Ш. <i>Педагогические особенности обучения общению на каракалпакском языке в детских садах</i>	369
Kamarova M.U. Rayimova Z.X. <i>O'zbek va koreys lingvomadaniyatidagi zoomorfemik ramzlarning qiyosiy tahlili</i>	373

Oripov J.Y. Xudoyqulova N.M. <i>Axborot asrida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning dolzarb masalalari</i>	375
Пирматов Серик. <i>Научно-методический опыт повышения визуальной культуры у студентов в процессе разработки логотипов</i>	379
Рахматуллаев У.К. <i>Развитие стратегической компетенции при обучении студентов будущих преподавателей допризывного военного обучения</i>	383
Tavakalov A.A. <i>Talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari</i>	387
Toxirova G. <i>O'zbekistonda xotin-qizlar professional karyerasini empirik o'rganish dasturi</i>	391
Рахимов А.А. <i>Бўлажак ўқитувчиларни маънавий-маърифий тайёрлаш масалалари</i>	396
Yarasheva Ch.J. <i>"Men malalaman" malala yusufzoy talqinida ma'suma ayol obrazi</i>	403
Xo'jamqulova N.R. <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirishning tashkiliy-pedagogik xususiyatlari</i>	408
Orifjonova I.O. <i>Geografiya darslarida o'quvchiga yo'naltirilgan yondoshuv asosida o'quvchilarda xxi asr ko'nikmalarini rivojlantirish</i>	412
Hazratqulov M. <i>Ta'limda zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish usullari</i>	414
O'tanov O'. <i>O'qituvchi ma'naviy qiyofasini rivojlantirishga doir mulohazalar</i>	418
Qosimova O. <i>Yoshlarning tafakkurini rivojlantirishda pedagog xotin qizlarning roli</i>	421
Rahmonova B. <i>Genderning fanlararo tadqiqi</i>	424
O'tkir O'. <i>Shaxs ma'naviy qiyofasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tahlili xususida</i>	427
Atakulova N. <i>Talabalarda sog'lom diniy dunyoqarashga oid ma'naviy qarashlar tizimi</i>	431
Maxmudova Z. <i>O'quvchilarni o'quv faoliyatiga qiziqtirishning zamonaviy usullari</i>	434
Mirzaev J. <i>Obraz va arxetip</i>	438
G'ulomov I., Eshmurodova D. <i>Ta'limda zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalari va ulaning imkoniyatlari</i>	442
Nurmatova M.H. <i>Yoshlarda oilaviy munosabatlarga oid bilimlarni shakllantirish</i>	444
Zubaydullayev O'. <i>Bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga yo'naltirishning nazariy metodologik asoslari</i>	446
Umarova N. <i>Ta'lim sifatini oshirishda maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalari pedagogik muammo sifatida</i>	449
Suvanova K. <i>Pedagog-o'qituvchilarining hissiy zo'riqishini oldini olishda san'atning imkoniyatlari</i>	

**“KOGNITIV VA NEYROPEDAGOGIK TADQIQOTLARNING
TA’LIM AMALIYOTIGA TATBIG‘I” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

“Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyoti

Muharrir: Fayzullayeva G.
Texnik muharrir: Xujakulov Sh.
Nashrga tayyorlovchi: Eshquvvatov J.

“Bilig ilmiy faoliyat” nashriyoti, Joylashgan manzili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,
Zavod ko‘chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati,
Samarqand shahar, X.Obiddinov ko‘chasi 7-uy.
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 12.06.2024-yil. Bosishga ruxsat etildi: 13.06.2024-yil.
Bichimi 60x84 1/16 , “Times New Roman” garniturasini.
Bosma tabog‘i 28,5. Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 2024/UQ 30
Bahosi kelishilgan narxda. Noshirlik litsenziyasi: № 098355
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi bosmaxonasida nashr etildi.

